



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BUXDPI
2021
BUXARA STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE



BUXORO VILOYATI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BOSHQARMASI

**“YOSHLARNING INTELLEKTUAL VA
MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA
NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING
O'RNINI VA AHAMIYATI”**

**ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BUXORO VILOYATI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI BOSHQARMASI

**“YOSHLARNING INTELLEKTUAL VA MA’NAVIY
SALOHIYATINI OSHIRISHDA NAVOIY VA BOBUR
IJODIY MEROSINING O‘RNI VA AHAMIYATI”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI

2024-yil, 15-fevral

BUXORO – 2024

ILMIY ANJUMANNING DASTURIY QO'MITASI

1. B.B. Ma'murov – Buxoro davlat Pedagogika instituti rektori, rais;
2. Sh.N. Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais o'rinbosari;
3. R.A. Qo'ldoshev – Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4. X.A. Xaitov – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
5. Sh.N. Kenjayev – Tillar fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, a'zo;
6. R.A. Saidova – O'zbek va rus tillari kafedrası mudiri, a'zo;
7. G.B. Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, a'zo;
8. S.X. Mahmudova – O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, a'zo;
9. A.Sh. Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
10. N.A. Bafojeva – O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
11. M.U. Usmonova – O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
12. N.O. Xusenova – Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish sho'basi bosh metodisti, a'zo.

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

1. F.E. Qurbonov – Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i, rais;
2. H.R. Jumayeva – Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, a'zo;
3. N.N. Xolikova – Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, a'zo;
4. X.A. Xaitov – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
5. Sh.N. Kenjayev – Tillar fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, a'zo;
6. R.A. Saidova – O'zbek va rus tillari kafedrası mudiri, a'zo;
7. G.B. Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, a'zo;
8. X.X. Radjabzoda – Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish sho'basi mudiri, a'zo;
9. B.Z. To'yev – Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi O'quvchi va pedagoglarning bilimi hamda

- ko'nikmalarini baholash, ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyalashni tashkil etish bo'limi boshlig'i, a'zo;
10. Q.I.Jo'rayev – Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi boshlig'i, a'zo;
11. N.O.Xusenova – Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish sho'basi bosh metodisti, a'zo;
12. A.Sh.Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
13. N.N. Mirjonov – O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
14. N.O. Avazova – O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi, a'zo.

Mas'ul muharrirlar:

- G.B.Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- A.Sh.Rustamova - Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi sho'ba rahbari

Taqrizchilar:

- M.B.Rajabova -filologiya fanlari doktori, professor
- G'.N.Murodov -filologiya fanlari doktori, professor

Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

ALISHER NAVOIY IJODI – BARHAYOT

Bahodir Baxshullayevich Ma'murov

Buxoro davlat pedagogika instituti rektori,
Pedagogika fanlari doktori, professor

Yurtimizda kechayotgan shiddatli islohotlar, xalqimiz ezgu maqsad-muddaolarini o'zida aks ettirgan misli ko'rilmagan o'zgarishlar boy ma'naviy ildizlarimizga tayanadi. Ma'naviyatimiz asoslarini esa buyuk shoir va mutafakkir bobokalonimiz Alisher Navoiyning bebaho merosidan ayro tasavvur etib bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim",- degan da'vati bugun har bir pedagogning kasbiy shioriga aylanmog'i lozim. Buyuk ajdodlarimiz haqida so'z ketganda, hech shubhasiz, Alisher Navoiyning barcha asarlari barkamol shaxsni tarbiyalash yo'lidagi cheksiz ummon ekanligini dildan e'tirof etamiz.

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Navoiy ijodi muhtasham bir qasr, barcha uning yonida aylanib yuribdi, xolos. Modomiki, bepayon tafakkur sarhadlarini fath eta olgan she'riyat sohibqironining oltin merosi millat ruhini tarbiyalar ekan, uning ijodini qomusiy ravishda tadqiq va tahlil etish, bu jarayonda, ayniqsa, yoshlarda rag'bat uyg'ota olish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Hozirgi davrda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning bitmas-tuganmas xazina atalmish so'z durdonalaridan bahramand bo'lmagan, ummonga qiyos qilgudek ijod olamidan bir qatra yod bilmagan kishi bo'lmasa kerak. Har bir xalqning milliy o'zligi, eng avvalo uning tilida aks etadi. Vatan istiqlolini

mustahkamlamoqday sharaflı ishda ona tiliga, hazrat Navoiy kabi buyuk ajdodlar merosiga buyuk kuchdir. Mutafakkir shoirimizning “Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”,- degan satrlarida qanchalik chuqur ma‘no bor. Ya‘ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb uqtirmoqda ulug‘ bobomiz. Yoshlarni ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o‘z ijodiy intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoit yaratilayotgan bugungi kunda Navoiy shaxsiga bu qadar e‘tibor - ezgu maqsadlarimiz sari yana bir olg‘a qadamdir.

Bashariyat tamadduni, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ma‘naviy kamol topishida yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan Navoiy asarlari o‘rni va roli har tomonlama beqiyosligini yaxshi bilamiz. Zero, ezgulik va hayot mazmunini o‘zining ohangdor satrlari, falsafiy fikrlari, teran tashbehleri, go‘zal so‘z san‘ati bilan yorqin ifoda eta olgan Navoiydek shoir dunyoda kamdan kam topiladi, desak hech qachon xato qilmaymiz. Alisher Navoiydan bizga buyuk bir adabiy-ilmiy meros qolgan. Hozirgi kunlarda Navoiyni tushunish, ijodiy merosini targ‘ib va tashviq etishni ilmiy asoslarda tashkil qilish masalasi davlat siyosati darajasiga qo‘yilmoqda ekan, navoiyxonlarga muayyan qulaylik yaratilayotgan bir paytda barchaning zimmasidagi mas‘uliyat hissi yanada oshadi.

Alisher Navoiy ijodi shunday bir musaffo buloqki, undan ijodkorlar nafaqat huzur, rohat topishadi, balki o‘z nomini o‘chmaslikka, abadiylikka ham muhrlashiga sabab bo‘ladi. Erkin Vohidov o‘zining “Shoiru she‘ru shuur” asarida quyidagi fikrlarni ta‘kidlaydi:

“Biz bugun Alisher Navoiy nomisiz o‘zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. Uning nurli she‘riyati, yorug‘ siymosi ruhimizga singib ketgan. Shoirning yuksak badiiyat bilan muzayyan bo‘lgan, chuqur insonparvar g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan ijodi asrlar osha bizni hanuz o‘ziga rom qiladi, ko‘ngillarimizni zavqu shafq hamda iftixor tuyg‘ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrati bilan boyitadi, bizni adolat uchun, inson qalbining mangu erki uchun kurashmoqqa chorlaydi”.

Erkin Vohidov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, Alisher Navoiy she‘riyatida buyuk qudrat, qandaydir ilohiy mo‘jiza yashiringan. Shu bois har doim ijodkorlar uning asarlariga murojaat etar ekan, bu ilohiy qudratni his etib turishadi. Uning so‘z ganjasi oldida esa, so‘z, fikr aytmoqlikka kuch topa olish zarur bo‘ladi.

Alisher Navoiy o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy va vatanparvarlik g'oyalari, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab insonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egallagan. Ulug' shoir adabiy merosini faqat uning tavalludi munosabati bilan emas, har kuni o'rganish, targ'ib qilish, hammamizning burchimizdir.

BUYUK MA'NAVIY MEROS – BARKAMOLLIK ASOSI

Farrux Ergashevich Qurbonov

Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi boshlig'i

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar, aziz talabalar va anjuman mehmonlari!

Har yili fevral oyida yurtimizda buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud ayyomlari juda keng miqyosda nishonlanishi barchamizga ma'lum. Buning boisi, ikki buyuk dahoning tarix va bashariyat oldidagi xizmatlari nihoyatda beqiyosdir.

Ta'kidlash joizki, joriy yilning 7-17-fevral kunlari viloyatimiz ta'lim muassasalarida "Adabiyot dekadasi" deb e'lon qilindi. Bu dekada doirasida har bir ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, mushoiralar, g'azalxonlik kechalari, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, ko'rik-tanlovlar, "Zakovat" intellektual o'yinlari, kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib, o'quvchilar mumtoz adabiyotimizning yorqin siymolari hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirilmoqda.

Umumta'lim muassasalarida pedagog xodimlar o'rtasida seminarlar, "Mahorat darslari" tashkil etilyapti. Bunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarimiz bilan birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchilari, tarix, geografiya, tarbiya va boshqa fan o'qituvchilari integratsiyalashgan darslarni tashkil etib, barkamol avlodni tarbiyalash, ularning ma'naviyatini yuksaltirish ishiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Bugungi o'tkazilayotgan konferensiya ham shular jumlasidandir.

Darhaqiqat, hammamizga ma'lumki, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotini yuqori pog'onaga ko'targan ulug' iste'dod sohibi, yuksak insonparvarlik g'oyalari katta san'atkorlik bilan tarannum etgan sohir so'z san'atkori, adabiyotshunos, tilshunos, davlat va jamoat arbobi sifatida madaniyatimizda yorqin iz qoldirdi. Uning ijodi nihoyatda serqirra va mahsuldor bo'lib, faqat o'zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida

ham salmoqli o'ringa ega hisoblanadi. Qator devonlari, tarixiy, ilmiy, badiiy asarlari dunyoga mashhur. Ayniqsa, "Xamsa" dostoni shoir ijodining durdonasi sanaladi.

Alisher Navoiy o'z xalqini savodli, bilimli, ma'rifatli, madaniyatli ko'rish orzusida qalam tebratgan. Uning asarlarida millat taqdiri, el-yurt qayg'usi, yurt obodligi, ilm, san'at, adabiyotni rivojlantirish, Vatanga muhabbat va sadoqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, mehr hamda muruvvat, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari yuksak badiiyat bilan aks ettirilgan.

Navoiyning buyukligi shundaki, u nafaqat, katta ijodiy meros qoldirdi, balki har bir aytgan so'zini amalda isbotladi, yuqori lavozimlarda - podshoh, vazir, muhrdor lavozimlarida faoliyat ko'rsatganda ham mamlakatni, el-u yurtni adolat bilan boshqardi, eng asosiysi, xalqning dardi bilan, el uchun kuyib-yonib yashadi, adolatni bayroq qilib oldi. Aslida haqiqiy komillik ham shunda. Toki bunday insonlar hamisha barhayotdirlar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi".

Adabiyotimizning Alisher Navoiydan keyingi zabardast vakili Zahiriddin Muhammad Bobur bo'lib, u ham shoir, adabiyotshunos, tarixchi olim, shu bilan birga, buyuk shoh va mohir sarkarda sifatida ham tarixda o'chmas nom qoldirdi.

Haqiqatdan ham, XV asrning bu ikki buyuk dahosi nafaqat ijodiyoti, balki amaliy faoliyati bilan ham barchamizga o'rnak, namuna, komillikning haqiqiy timsoli sifatida namoyon bo'ladilar.

Ta'lim muassasalarida Alisher Navoiy va Bobur asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat, oliyjanoblik, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash bu har bir pedagogning asosiy maqsadi bo'lishi kerak. O'ylaymanki, bugungi konferensiyada bu ikki buyuk ijodkor ma'naviy merosini o'rganishning ilg'or va innovatsion usullari, yangicha yondashuvlar, o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishning dolzarb masalalari muhokama qilinadi va tajriba almashinadi.

So'zimizning yakunida barcha olijanob ishlarimizda Navoiy g'oyalari, Navoiy ibratini, Navoiy ruhi bizga hamisha hamroh bo'lishini, Zahiriddin

Muhammad Boburdek haqiqiy vatanparvar ajdodlarga munosib avlodlarni tarbiyalash yo'lidagi faoliyatingizda omad yor bo'lishini tilab qolaman!

Bugungi konferensiya ishiga omad tilayman.

I SHO'BA.

NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MARIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA VATANPARVARLIK VA TARBIYA MASALASINING ESTETIK IFODASI

Hamroyev Saidjon Sanoyevich
BuxDPI f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda, shoir, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning barcha asarlarida milliy vatanparvarlik g'oyalari va ta'lim-tarbiya masalalarining estetik ifodalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ona Vatan, Vatan madhi, g'urur, iftixor, tahdid, millat, munosabat, mintaqa, ta'lim, tarbiyaviy xususiyatlar, Osiyo davlatlari, mintaqa, mumtoz va hokazo.

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so'z ketganda, avvalo, buyuk jahongir Amir Temurning beshinchi avlodi, ko'plab iste'dodlarga ega bo'lgan shaxs, Hindiston va Afg'onistonni zabt etgan buyuk sarkarda, davlat arbobi, shu bilan birga buyuk shoir, buyuk yozuvchi, geograf va tarixchi, biolog sifatida tarix zarvaraqlarida hamda zamondoshlari va avlodlar qalbida alohida o'rin egallagan siymo sifatida gavdalanadi. Ushbu o'rinda muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning **“Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar”** mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqida **“...Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari tarixi, ilm-fani va madaniyatining chinakam ensiklopediyasidir.**

Hindistonning birinchi Bosh vaziri Javaharlar'l Neruning Bobur haqidagi **“U dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori”**, degan ta'rifi ko'pchilikka yaxshi ma'lum.Xususan, Bobur o'zining fundamental asari **“Boburnoma”**da qayd etganidek, **“o'n oltinchi asrda Afg'oniston hududi orqali Hindiston va Markaziy Osiyo o'rtasida turli mollar ortilgan minglab tuyalardan iborat**

karvonlarning muntazam qatnovlari yo'lga qo'yilgan". Uning farmoniga binoan savdo yo'llari bo'ylab karvonsaroylar, quduq va sardobalar bunyod etilgan.

Boburning nabirasi – Buyuk Akbarshoh ham bobosining ishlarini davom ettirgan holda, Hindiston tarixida bag'rikeng va uzoqni ko'ra biladigan hukmdor sifatida yorqin iz qoldirgan. Ta'kidlash joizki, o'sha vaqtlarda Markaziy va Janubiy Osiyoning savdo aloqalari Eron, Arabiston, Usmoniylar davlati, Xitoy, Rossiya singari boshqa mamlakatlar bilan ham faol olib borilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Hindiston hukmdori Avrangzeb 1695 yilda rus savdogari Semyon Malenkoyga mamlakatda savdo qilish uchun ruxsatnoma beradi. Mazkur farmon eski o'zbek tilida yozilgani diqqatga sazovordir"[1]. Bobur ijodining bosh mavzusi bu albatta uning hayotiy kechinmalari bilan uyg'unlashgan "Ona Vatan" hamda "Vatan sog'inchi"dir. Hech bir shoir Vatandan yiroqlik fojeasini Mirzo Boburdek ko'ptomonlama ifodalay olmagan bo'lsa kerak. Ruboiy sharq she'riyatida keng tarqalgan she'r turlaridan bo'lib, ularda shoirning hayot haqidagi teran mushohadalari, ichki kechinmalari, ibratli xulosalari va pand-nasihatlari ifodalanadi.

Buning yaqqol misoli sifatida shu mazmundagi ruboiylardan biri bo'la oladi:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerin qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Ko'rinadiki, Bobur hayotidagi turli qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, garchi u zakovat bobida ham munosib tarbiya ko'rgan bo'lsa-da, uning aql charxini yanada o'tkirlab, donishmandga aylantirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtur,
Bir lahza-u bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Ma'lumki, Bobur adolatli podshoh sifatida, hukmron bo'lgan yurtlarda ham adolatli siyosat yuritdi. Xalqni ma'rifatga, bunyodkorlikka chorladi. Ma'naviy hayotga salbiy ta'sir etuvchi omillardan voz kechib, jamiyat hayotida ularni ta'qiqlab qo'ydi. Hind xalqi hayoti va madaniyatining gullab-yashnashiga yuksak hissa qo'shdi. O'zining ilm-u irfoni bilan ma'rifatni yanada

rivojlantirdi. Ammo umr bo'yi uning xayolini Vatan, unga bo'lgan intilish band etdi:

Ne yerda bo'lsang, ey gul andadur chun joni Boburning,
G'aribing'a tarahhum aylagilkim, andijoniydir.

Ushbu satrlardan ham bilish mumkinki, Bobur ijodida vatan mavzusi nihoyatda yuksak ahamiyat kasb etadi. Bobur taqdir taqazzosi bilan o'zga yurtida oshyon qurgan bo'lsa-da, o'z yurtini, o'zligini unutmaydi.

Bobur o'z xalqi, ona Vatanning shonu-shuhrati, kelajak avlod, jumladan, o'z farzandlarining munosib avlod bo'lib yetishishi uchun jon fido qilib, uzoq safarlarda, begona yurtlarda bo'lganida o'z yurtiyu va elini hech unutmaydi. Uning o'z ta'biri bilan aytganda, kelajak avlod sog'lom va jasoratli bo'lishi lozim edi. Katta o'g'li Xumoyunning sog'ayishi uchun o'z jonini berishga tayyor bo'ladi. Tabiblarning davolash harakatlari foyda bermay, o'g'lining dardi og'irlashavergach, shunday yo'l tutishni afzal ko'radi. Allohga sidqidildan murojaat etib, Humoyunning o'rniga mening jonimni ol, o'g'lim hali yosh, u yashashi kerak, deydi. Shunda o'g'li sog'ayib ketadi va o'zining ahvoli og'irlasha borib, ikki oy yotib qoladi. [2]

Boburning asosiy maqsadlaridan biri yagona markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilib, ezgu niyatlarni ro'yobga chiqarishdan iborat edi. Bu Hindistonda amalga oshdi. Uch asrdan ziyod vaqt davomida barqaror bo'lgan va Hindiston tarixida muhim rol o'ynagan markazlashgan davlatning vujudga kelishi, albatta, Bobur nomi bilan chambarchas bog'liqdir. O'z vaqtida Javoharla'l Neru Bobur shaxsiyati haqida bunday iliq so'zlarni aytgan: "Bobur eng donishmand va dilbar shaxslardan biri edi. Unda mazhabiy taassubdan, qoloqlik va qisqa fikrlilikdan asar ham yo'q edi. U boshqa hokimlar kabi vayron qilish, xarob etish yo'lidan bormadi. Bobur san'at va adabiyotni qo'llab-quvvatlagan kishilardandir". [3]

Boburning lirik merosi "Qobul devoni" (1519) ga, 1528-29 yillarda "Hind devoni" ga jamlangan. To'liq devon tuzgani haqida ma'lumot bor. She'rlarining umumiy hajmi 400 dan ortadi. Shundan 119 g'azal, 231 ruboiy va tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda asarlar yaratgan. She'rlarini mavzu jihatidan oshiqona, ta'limiy, tasavvufiy, hasbi hol kabi turlarga ajratish mumkin. Bobur she'riyati intellektual qalb izhori sifatida ardoqlidir. Uning asarlari samimiy, ravon, usluban tugal va mushakkaldir. Bobur ruboiy janrini turk adabiyotida dunyoga olib chiqqan shoirdir.

Bobur qalamiga mansub "Xatti Boburiy", shuningdek, musiqa san'ati va ilmi harbga bag'ishlangan qator risolalari ham bo'lgan. Ammo keyingi asarlar matnlari hanuz topilgan emas. "Xatti Boburiy" da muallif arab alifbosini tahrir

qilib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

Bugungi kun yoshlarini Vatanni sevish, uni ardoqlash hamda o'z yurti taraqqiyotiga dahldorlik hissi bilan ulg'aytirishda buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li, uning ilmiy hamda ma'naviy merosini o'rganish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Zero, Vatan hissi har bir insonni jasoratga undovchi buyuk kuchdir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezidentning-xalqaro-konferensiyadagi>

2. O'zbek adabiyoti. O'qituvchi. T.:1997. B.22

3. Rajabov N. Ma'naviyat sarchashmalari. Fan – T.: 1999. B.

4. <https://www.bukhari.uz/?p=26530&lang=oz>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY VA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI

Azimova Umida Latipovna

Buxoro shahar 20-son umumta'lim maktabining
oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. ushbu maqolada so'z mulking sultoni Alisher Navoiyning ma'naviy merosi va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarda milliy vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tarbiyaviy, axloqiy sifatlarni shakllantirishda foydalanish, buyuk mutafakkirning ma'naviy merosini yosh avlodga o'rgatish naqadar muhim ekanligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, mutafakkir, ma'naviy va axloqiy tarbiya, Ma'rifat, fazilat, odob me'yorlari.

Аннотация. В этой статье говорится о применении духовного наследия тюрского поэта, суфия, государственного деятеля Алишера Навои в развитии и формировании у учеников чувство патриотизма, трудолюбие, воспитанности, насколько важно внедрить в мышлении и формировании личности духовного наследия государственного деятеля.

Ключевые слова: образование, воспитание, мыслитель, духовно-нравственное воспитание, способность, достоинство, стандарт этикета.

Abstract. This article describes the spiritual heritage of the sultan of the vocabulary, Abdurahman Nebuchadnezzar, and how important it is to use

them to develop national patriotism, industriousness, discipline, and moral qualities in students through their use in teaching, as well as to teach younger generations the spiritual heritage of the great hypocrite.

Key words: education, upbringing, thinker, spiritual and moral upbringing, ability, dignity, standard of etiquette.

O'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash azal- azaldan milliy pedagogikamiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bu mas'uliyatni ado etish esa birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga yuklatiladi. Barchamizga ayonki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbining chin fidoyisi, bilimdoni, jonkuyar, ijodkor ustoz bo'lsagina, Vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod ta'lim- tarbiyasining poydevori pishiq va mustahkam bo'ladi. O'qituvchi o'z darslarini ta'limning turli innovatsion usullari bilan birgalikda milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizning ma'naviy meroslariga tayangan holga tashkil etar ekan, albatta, bu o'quvchilar chin ma'nodagi bilimdonlar va haqiqiy vatanparvar insonlar bo'lib kamolga yetadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni butun insoniyat tarixidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu jarayonda milliy vatanparvarlik, axloqiy sifatalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu o'rinda esa ajdodlarimiz qoldirgan milliy-ma'naviy meros katta ahamiyat kasb etadi. Chunki biz butun dunyo sivilizatsiyasining tamal toshini qo'yib bergan, ilm ummonida butun jahonni lol qoldirgan buyuk olimlarning avlodlarimiz. Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Jomiy, Navoiy, Farobiy, Ibn Sino, Buxoriy, Termiziy, Zamaxshariy, Moturudiy, Ulug'bek kabi ko'plab ajdodlarimizning qoldirgan ilmiy va adabiy merosi, kashfiyoti jahon sivilizatsiyalari tarixida buyuk inqilob yasadi.

Har bir avlod va zamona yaratgan boylklarning eng qimmatbahosi faqat o'sha davr uchungina emas, balki kelgusi zamon va avlodlar uchun ham qadrlil va qimmatli bo'lib saqlanadigan yodgorlikdir.

Sharq mutafakkirlarining yaratgan asarlari eng mo'tabar xazinadirki, ularga bo'lgan e'tiborimiz, ularga bo'lgan ehtiyojimiz asrlar o'tsa ham zarracha kamaymaydi, aksincha, tobora oshib boradi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda mana shu mutafakkirlarimizning qarashlaridagi insonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Ularni o'rganish milliy tarbiya tizimida katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan bobomiz Alisher Navoiydir. Biz uning mo'tabar

nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doim faxrlahib soʻz yuritamiz.

Navoiy xalqimizning ongi tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etgan buyuk shaxsdir. Agar bu ulugʻ zotni avliyo desak u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir. Alisher Navoiy jahon adabiyoti, madaniyatiga buyuk hissa qoʻshgan, insonlar baxt-saodati, xalq faravonligi, mamlakat obodonchiligini taʼminlashda, adolat kuychisi sifatida kurashgan millat gʻururidir.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ilm-fan va sanʼatning turli sohalarida: adabiyot, tarix, til, musiqa, hattotlik, tasviriy sanʼat, meʼmorchilik yoʻnalaishlarida ijod qilgan va yoshlar tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratgan. U oʻzining “Xamsa”, “Mahbub-ul-qulub”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolisun-nafois”, “Muhokomat-ul-lugʻatayn” kabi asarlarida yoshlar tarbiyasi, jumladan, barkamol inson tarbiyasiga oid fikr-mulohazalarini bayon qiladi.

Alisher Navoiyning yoshlar tarbiyasida diniy va dunyoviy ilmlarning oʻrni, bu borada ilm-fan, inson aql-idrokining ahamiyati haqidagi oʻgʻitlari, axloq-odobga, ijobiy fazilatlarga oid pedagogik qarashlari tahsinga sazovordir. Mutafakkir ilm-fanning ahamiyatini yoritir ekan, ilm - zulmatni yoritadigan tafakkur yulduzi ekanligini uqtiradi. Demak ilmli, oqil, pok inson oʻz maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni yengib oʻtadi, kim ilmni oʻziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, adashmaydi. Ilm-fan insonni baxt-saodatga eltuvchi eng ishonchli va eng yorugʻ yoʻldir.

Alisher Navoiyning bunday purmaʼno qarashlarini zamonaviy metodlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar yordamida yoshlar ongiga singdirish zamon talabidir. Biz boshlangʻich sinf oʻqituvchilari Alisher Navoiy asarlaridan oʻqish savodxonligi fanidan sinfdan tashqari oʻqish darslarida keng foydalanishimiz zarur. Chunki Navoiy asarlari makon va zamon tanlamaydigan shunday nodir javohirki, bu javohirdan bizning ilmga chanqoq har bir oʻgʻil-qizlarimiz bahramand boʻlmogʻi, oʻgʻitlarini dasturul amal qilmogʻi zarurdir.

Hazrat Mir Alisher Navoiy asarlari mustaqil, har tomonlama kamolga yetgan, barkamol inson uchun zarur boʻlgan maʼnaviyat qirralari- imon, eʼtiqod, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, doʻstlik, sadoqat, mehnatsevarlik, milliy gʻurur kabi gʻoyalar bilan sugʻorilgankim, oʻquvchi yoshlar albatta bunday bebaho merosdan bebahra qolmasliklari kerak.

Alisher Navoiyning barkamol inson tarbiyasiga oid nazariy bilimlarni yoshlar ongiga yetkazib berish, ularda ijobiy va hayotiy koʻnikma-malakalarni

hosil qilish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, yangicha zamonaviy yondashuvni talab etadi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga Navoiy asarlarini tushunarli tarzda yetkazib berish uchun o'qituvchi ta'limning turli metodlaridan, innovatsion usullaridan foydalanishi, izlanmog'i kerakki, toki o'rgatilayotgan ma'lumotlar bola ongida umrbod saqlanib qolsin.

Biz o'quvchilarni Alisher Navoiy shaxsi, uning odamiylik sifatlari va ijodi bilan tanishtirishda Abduqodir Hayitmetovning "Donolarning donosi" matnini olishimiz mumkin. Ushbu mavzu bo'yicha Alisher Navoiyning ijodi haqida uning "Xamsa" dostonidagi "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Hayrat-ul abror" kabi asarlaridagi hozirgi kun talablariga to'la qonli javob bera oladigan halollik va poklik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi xarakterli g'oyalar bilan bir qatorda ilm-fan taraqqiyotining inson aql -zakovatiga, iste'dodiga bog'liq ekanligini Farhod misolida uning ruhiy, ma'naviy qiyofasida hozirgi zamon avlodiga xos barkamol inson qiyofasini o'z dostonlaridagi tanlangan qahramonlar qiyofasida ochib berganligini o'quvchilarga tushuntirishimiz mumkin. Xususan asarlardagi har bir qahramon o'rtasidagi ezgulik munosabatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tahlil va talqin etiladi. Buni biz Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi do'stlikda bu tuyg'uning naqadar muqaddasligini yaqqol namoyon etganligida ko'ramiz. Shuning uchun ham Alisher Navoiydagi adolatparvarlik, xalqparvarlik, halollik va poklik, kamtarlik, to'g'rilik, rostgo'ylik kabi insoniy xislatlarning naqadar yuksak ekanligini o'zining ijtimoiy faoliyatida amaliyotga tadbiq etib, ibrat, namuna, fazilat ekanligini saltanat ishlarida ham Husayn Boyqaro bilan hamdo'stlik munosabatlari orqali amalga oshirdi.

Abduqodir Hayitmetov qalamiga mansub "Donolarning donosi" mavzuli matni II qismdan iborat. Matn orqali bobomiz Alisher Navoiyning bolalik davridagi odobi, zehning o'tkirligi, noyob iste'dod egasiga xos fazilatlari, uning 4-5 yoshligidanoq minglab misra g'azallarni yoddan bilganligi, uning 4 yoshida she'rlar yozganligi ta'kidlangan. Alisher Navoiy o'nlab tillarni bilgan (arab, fors, tojik, o'zbek, turk, ozarbayjon va boshqalar). Navoiy shaxsidagi bu yuksak xislatlar, "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz" kabi falsafiy g'oyasi bugungi kunda ham yoshlarimizning chet tillarni o'rganishlari uchun keng imkoniyat yo'llarini ochib bermoqda.

Sinfdan tashqari o'qish darslari bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, adabiy-estetik tafakkurlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarning go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi

bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Ayniqsa, buyuk bobokalanlarimiz, milliy adabiyotimiz namoyandalarining asarlari bu borada qo'l keladi. Jumladan, yosh avlod tarbiyasida Alisher Navoiy merosining ahamiyatini ifodalashda "taqdimot", "savol-javob", "Rangsiz kamalak", "Menga so'z bering", "Blum moychechagi" "tushunchalar tahlili", "muloqot treningi" kabi metodlardan foydalanish o'rinlidir.

Masalan, "Taqdimot" metodida Alisher Navoiy merosiga oid qarashlar mohiyati kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda, slaydlar yordamida amalga oshiriladi. "Rangsiz kamalak" metodida esa, asarda berilgan jummalarni uning ma'nosini ifodalovchi so'z bilan moslashtirgan holda kamalakning ranglari aniqlashtiriladi va bo'yaladi. "Blum moychechagi" metodidan esa aynan 4 K modeliga asoslangan kritik va kreativ fikrlashga, kollaboratsiya va kommunikativlikka undovchi topshiriqlar bajariladi.

Biz pedagoglar sinfdan tashqari o'qish darslarida tez-tez Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' mutafakkirlarning asarlariga murojaat qilib, o'quvchilarning ular ijodiga mansub bo'lgan, insonni kamolot sari yetaklovchi bebaho meros bilan tanishtirib borsak, albatta yoshlar imon-e'tiqodi mustahkam, vatanparvar, mehnatsevar, ma'naviyatli va ajdodlarga munosib bo'lgan komil inson darajasida kamol topishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Tasavvuf T. 2009, "Movorounnahr" nashriyoti.
2. Haqqulov I. Navoiyga qaytish T. 2007, "Fan" nashriyoti.
3. [www Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).

ALISHER NAVOIY MEROSI – BEQIYOS MA'NAVIY XAZINADIR

Husenova Gulnora Saidovna

G'ijduvon tumani Maktabgacha va maktab ta'limiga qarashli 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ush bu maqolada biz besh asrdan beri o'z salmog'ini yuqotmagan Alisher Navoiy asarlarining bugungi texnika asrida yashayotgan yosh avlodning kelajagi uchun ma'naviy ozuqa vazifasini bajarishi haqida so'z yuritdik.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Xamsa, so'z, ma'naviyat, multfilm, turkiy xalq, Lison ut-tayr.

Аннотация: В данной статье мы говорили о роли произведений Алишера Навои, не потерявших своего значения на протяжении пяти столетий, как духовной пищи для будущего молодого поколения, живущего в современный технологический век.

Ключевые слова: Алишер Навои, Хамса, слово, духовность, карикатура, турецкий народ, Лисон ут-тире.

Abstract: In this article, we talked about the role of Alisher Navoi's works, which have not lost their importance for five centuries, as spiritual food for the future of the young generation living in today's technological age.

Key words: Alisher Navoi, Khamsa, word, spirituality, cartoon, Turkish people, Lison ut-tayr.

Istiqlol yuksak ilohiy ne'mat sifatida nafaqat turmush tarzimizga, balki madaniy-ma'naviy hayotimizga ham teran kirib bormoqda. Bu faqat texnika tomondan o'zgarishlarda ko'rinmay, ma'naviy va madaniy hayotimizda ham o'z aksini topdi. Har qanday insonning komillik darajasiga yetishish uchun badiiy adabiyot asosiy qurol vazifasini bajaradi.

Badiiy adabiyot tabiat gultoji sanalmish hazrati inson bilan egizak dunyo yuzini ko'rgan san'at turlaridan biridir. Inson yaratilibdiki, o'zi yashayotgan borliq sir-sinoatlari bilan oshno bo'lg'usi, ulardan yuksak shavq-zavq olgisi, ichki kechinmalari, orzu-intilishlari, ruhiy holatlarini ifoda etgisi keladi. O'zigagina hadya etilgan oliy ne'mat – so'zda badiiy, bo'yoqli tarzda ifodalagisi keladi. Adabiyot tarixi esa manashu o'zigaxos murakkab hodisaning eng qadimgi davrlardan zamonamizgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot jarayonini o'rganuvchi fandir.[1]

O'zbek xalqi qadimdan farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. O'sib kelayotgan murg'ak qalblarga ezgulik urug'ini sochish, yaxshilik va yomonlikni farqlay bilish, sofdillik, to'g'riso'zlik, halollik kabi fazilatlarni singdirishda badiiy adabiyot asosiy rol o'ynagan. Xalq og'zaki ijodining asrlar sinovida o'z bahosini topgan ertak, maqol, hikoyat, hikmatli so'zlari asosiy ta'sir qiluvchi vositalardan biri bo'lgan. Bola xotirasida nasihatdan ko'ra, voqeaband asarlar orqali olgan tasavvurlari yaxshiroq esda qoladi. Masalan, ertak qahramonlari o'z qilmishlariga ko'ra mukofot yoki jazo olishlari bolada fazilatlar borasidagi tushunchani shakllantiradi. Ulardagi salbiy odatlarni takrorlamaslikka o'rgatadi. Ta'lim-tarbiya berish borasida Sharq adabiyoti o'zining chuqur didaktikaga yo'g'rilgani bilan ajralib turadi. Deyarli har bir badiiy asar kishi sifatlariga ahamiyat qaratadi, undan tarbiya, ma'naviy naf

olishga chorlaydi. Insonni aqlan, ma'nan, zohiran va botinan poklikka chorlaydigan ijodkorlardan biri Alisher Navoiydir.

Turkiy xalqlarning "shams ul-millat"i bo'lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o'zining hassos she'riyati, buyuk "Xamsa" si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag'ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so'z san'atkoridir. O'z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug'at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma'no-mohiyatning keng ko'lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi. Navoiy ijodi inson axloqining barcha ko'rinishlarida mezon darajasini belgilab olishga xizmat qiladi. Ularda asl inson qanday bo'lishi kerakligi uqtiriladi. Ijodining g'oyaviy mazmuni rostgo'ylikka, halollikka, mehnatkashlikka, insonni qadrlashga o'rgatadi. Insonning kamolotga yetishida asosiy yo'l ilm ekanligini takror-takror aytadi va ilm olishga chorlaydi.

Bugungi kunda Alisher Navoiy ijodidan yosh avlodni bahramand qilish uchun turli usullardan foydalanilmoqda. Asarlari nasriy bayon qilinib, hikmatli so'zlari alohida havola etilmoqda, "Xamsa" dostonlaridan ibratli so'zlar va hikoyatlar olinib, tarbiyaviy maqsad sari yo'naltirilmoqda. Butun turkiy xalqlarning buyuk ma'naviy merosi hisoblangan "Xamsa" tarkibidagi "Hayrat-ul abror" dostoni o'zining tarbiyaviy mohiyati bilan boshqalardan ajralib turadi. Unda berilgan hikoyatlar har biri o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ma'lum maqsadlarni bayon etish uchun xizmat qiladi. Yoshi ulug'lar bilan birgalikda aynan bolalarga ham tatbiq qilish mumkin bo'lgan hikoyatlardan biri "Hotami Toy" hikoyatidir. Unda o'z mehnati bilan kun ko'radigan o'tinchi haqida hikoya qilinib, halollik, mehnatkashlik ulug'lanadi. Bu holat bevosita xalq ertaklaridagi sofdil, mehnatkash, samimiy kishilarni – odatda mehnatkash insonlar qiyofasini gavdalantiruvchi oddiy dehqon, cho'pon, o'tinchi timsollarini ko'z oldimizga keltiradi. Hikoyat bolani mehnatsevarlikka o'rgatadi, oson yo'l bilan topiladigan minnatli oshdan o'z peshona terisiga kelgan luqmaning afzal ekanligini uqtiradi. Navoiy asarlarini targ'ib qilish, anglatish borasida qilingan ishlardan biri dostonidagi "Sher bilan Durroj" hikoyati asosida ishlangan multfilmdir. Mazkur hikoyatning talqini bolajonlar tomonidan juda sevib tomosha qilinadi. Unda yolg'on gapirishga o'rgangan, tildan aytilgan rost so'z ham yolg'on kabi eshitilishi isbotlangan. Yolg'onchilik qanday oqibatlariga olib kelishi qiziqarli va qulay usulda ko'rsatilgan. Mazkur hikoyat mazmunan xalq og'zaki ijodidagi "Yolg'onchi cho'pon", "Egri bilan To'g'ri" kabi ertaklariga juda yaqin. Bir-birini to'ldiruvchi

turli variantlarning mavjudligi bolalarning tez va oson anglab yetishida ijobiy rol o'ynaydi. Hikoyatdan olinadigan xulosani bolaning o'zi chiqaradi. "Agar Durroj yolg'onchi bo'lmaganda edi, bu holatga tushmagan bo'lardi" kabi xulosaga keladi. "Boshingga qilich kelsa ham rostini so'yla"[2] degan xalq maqolining mazmun mohiyatini o'quvchi tushunib oladi. Demak, bolada "rostgo'y, to'g'riso'z bo'lishim lozim", degan qarashlar yig'indisi paydo bo'ladi. Navoiy asarlarining juda ko'p o'rinlarida yolg'onchilik qoralanadi. Agar buyuk qalb sohibi ijodi bilan biror kishi tarbiyasida to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsata olsa, uning insoniyat hayoti oldidagi orzularidan biri ushalgan bo'ladi.

Navoiy ijodida targ'ib qilinuvchi fazilatlardan biri, bu – ilm olishdir. Jumladan, Imom Faxr ar-Roziy bilan Muhammad Xorazmshohning hammomdagi suhbat berilgan hikoyat ham mantiqiy o'ylashga chorlaydi. Boylik va amaliga qarab joy egallagan Xorazmshoh unga olim tomonidan bo'lgan munosabat tufayli uyatga qoladi. Chunki shoh butun boyligini tashqarida qoldirib kirgan, olim bo'lsa o'zi bilan boshida ko'tarib kirgan. Bu boyligni undan hech kim tortib ololmaydi. Agar talqin qiluvchi mohiyatni to'g'ri ochib ber olsa, bolada ilmning har qanday boyligidan afzalligi haqida tushuncha shakllanadi. Bugungi kunning talabi bo'lgan turli tillarni o'rganish, kitob o'qish lozimligi, boyligning hammasi tinimsiz mehnat, ilm olish orqali kelishini angelaydi.

Yana bir misol, "Lison ut-tayr" asaridagi butun boyligini kiyimiga osib olgan xasis va ziqna boy suv ichish uchun ariqqa engashganda tillalari og'irlik qilib suvga g'arq bo'lishi ham kulgili holat. Agar uni ertaklar, multfilmlardagi qahramonlar siymosida tasavvur qilsak, yo'l-yo'l beqasam chopon kiygan, qorinlari qopday xo'ppa semiz kishining suvga cho'kayotgani ko'z oldimizga keladi. Bu voqea kishida achinish hissini emas, ko'proq nafrat hissini uyg'otadi. Agar u pul, boyligni emas, atrofdagi odamlarni yaxshi ko'rganida shu ahvolga tushmasdi.

Demak, biz yosh avlodga Navoiy asarlarini targ'ib qilishda juda uzoqdan emas, o'z milliy-mahalliy hududimizga xos bo'lgan an'anaviy timsollar, tushunchalar zamiridan turib baho berishimiz, tushuntirishimiz lozim. Hikoyatlar ma'nosini sharhlashda hayotdagi o'xshash holatlarga, voqealarga bog'lab talqin qilinsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu yo'lda, albatta, qadim boy ma'naviy merosimiz yo'lboshchisi, ma'nolar xazinasini bo'lib xizmat qilaveradi.

Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so'nggi yillaridayoq uning asarlari

tiliga lugʻat ishlanganligi biz hozir navoiyshunoslik deb atayotgan sohaning ancha qadimiy ekanligini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1.R. Vohidov, H. Eshonqulov. “Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi”.-Toshkent, 2006.- 5 b.

2.Oʻzbek xalq maqollari. -Toshkent: Sharq, 2012.-120 b.

3.Alisher Navoiy. “Lisonut-tayr”. -Toshkent: Adabiyot va sanʻat, 1991.-B.176.

4.D. Mirzayeva. Maktabgacha pedagogika (oʻquv qoʻllanma).-Toshkent, 2022.-B.147.

NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O’RNI

Barotova Gulmehra Rasulovna
Shofirkon tumani 3-umumiy oʻrta
taʼlim maktabi oʻqituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Navoiy va Bobur ijodiy merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Chin insoniy xususiyatlar mualliflar ijodidagi badiiy parchalar bilan dalillangan.

Kalit soʻzlar: ijodiy meros, maʼnaviyat, barkamol avlod, vatanparvarlik, shukronalik, yoshlikni gʻanimat bilish ;

Аннотация: в данной статье подчеркивается значение творческого наследия Навои и Бабур в воспитании молодёжи. Истинные человеческие качества подтверждаются художественными фрагментами.

Ключевые слова: творческое наследие, духовность, зрелое поколение, патриотизм, благодарность, радость молодости

Annotation: In this article is revealed the importance of the creative heritage of Navai and Babur in the education of young people. True personal features are evidenced with the artistic fragments of the authors' works.

Key words: creative heritage, spirituality, growth generation, patriotism, gratitude, value youth.

Tariximiz sahifalarida shunday ulugʻ daholar borki, ular necha asrlardan buyon nafaqat millatimiz, balki bashariyat osmonida ham ezgulik quyoshi sifatida nur sohib turibdi. Ularning ijodi xalqimiz maʼnaviyatini shakllantirishda muhim oʻrin tutishi ayni haqiqat. Oʻzbek adabiyoti tarixiga

nazar solar ekanmiz, “shams ulmillat” deya ulug‘langan mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy hamdashoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining buyuk ma’naviy xazina ekanligini teran anglaymiz. O‘zbek adabiyoti osmonining “quyosh” va “oy”i hisoblangan bu ikki siymo necha asrlardan buyon butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga ezgulik, insonparvarlik, ona Vatanni sevish va mehr-muhabbat nurlarini sochib kelmoqda. Bu ikki zamondosh shoir ijodi o‘z asarlarida yuksak insoniy tuyg‘ularni tarannum etgani bilan o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi. Mana shunday o‘lmas tuyg‘ulardan biri – bu Vatan tuyg‘usidir. Har ikki ijodkor lirik she‘rlarida ham, epik asarlarida ham Vatan mavzusini mahorat bilan ulug‘ladi Vatanparvarlik mavzusining bosh g‘oya sifatida tarannum etilishi bugun barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega, Inson o‘z vatanini sevsagina, uning kelajagi uchun qayg‘uradi, qayerda bo‘lmasin, o‘z Vatani tomon talpinadi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy

“dostonida shunday hikmatli fikr keltiradi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranj-u g‘urbat havas aylama.

Yoki “G‘aroyib us sig‘ar” devonidan olingan, barchamizga tanish bo‘lgan quyidagi ruboiyda musofirlik –begona yurtdagi Vatan hijroni-yu, sog‘inchi g‘oyasi ustuvor:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish,
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

Vayrona bo‘lsa ham, o‘z vatanini go‘zal o‘zga yurtdan ustun ko‘rish g‘oyasi bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Ushbu ruboiyni “qaysi mamlakatda sharoit yaxshi bo‘lsa, o‘sha yerni oshyon qilib ketadigan vatansizlar-kosmopolitlarga ibrat qilib ko‘rsatsa, arzigulik.

Umri musofirchilikda, Vatandan yiroqda o‘tgan Bobur ijodi ham Navoiyning ma’naviy merosi bilan hamohanglik kasb etadi. Ruboiylarida Vatan sog‘inchi, ona diyorni qo‘msash mavzusi yetakchilik qiladi:

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi,
O‘z yerin qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Alisher Navoiyning kichik she‘riy janr namunasi bo‘lgan bir qit‘asida manzil sari yo‘lga chiqqan bir kimsaning turli iflosliklardan himoyalaniish uchun oyog‘ida kovush yo‘qligi holati keltiriladi. Birinchi baytda oddiy xabar

tarzida berilgan fikr keyingi baytda ibratomuz falsafaga aylanadi: bu kishi kovush kiyish uchun oyog'i borligiga shukr qilishi kerakligi uqtiriladi:

Ulki iflosdin oyog'inda
Kafsh yo'li azmi chog'i yo'qtur oning,
Shukr qildik boqib birav sori
Ki yururg'a ayog'i yo'qtur oning.

Navoiy ijodidagi shukronalik, shoir zamoniga tegishli da'vat bugungi kun uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Shukronalik, berilgan ne'matlarning qadriga yetish mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimiz tinchligini ta'minlash, Vatanimiz nomini dunyoga yoyish yo'lida chinakam vosita sifatida xizmat qiladi.

Sabrli bo'lish, har o'tgan kuniga shukr qilish, kelajak uchun kurashish g'oyasi Bobur ijodi uchun ham xosdir. "Boburnoma" asarida 1506-1507-yillar voqealari tasvirlanar ekan, muallif tomonidan qahraton qishda Kobulga borishda butun qo'shinning adashishi, tog' yo'lida qor ko'chkisiga duch kelgan holati tasvirlanadi. O'sha og'ir damda ham shoir sabr va shukronalik tuyg'usini yo'qotmaganini bugungi avlodga o'rnak qilib ko'rsatish lozimligini isbotlaydi.

Navoiy va Bobur ijodida uchragan "ahbob" timsoliga e'tibor beraylik. Har ikkala shoirning ruboiysi pand-nasihatchilik tarzida yozilgan bo'lib, "ahbob"-do'stlarga qaratilgani bilan o'xshashlik hosil qiladi. Navoiy ahhobga murojaat qilib, qarilik shabadalari esmasdan oldinroq yoshlikning qadriga yetish kerakligini, ya'ni bu jo'shqin davrni g'animat bilishni, boshqalarga adovat va hasad bilan qaramasliknitarg'ib qiladi:

Ahhob, yigitlikni g'animat tutungiz,
O'zni qariliq mehnatidan qo'rqutungiz.
Oyini adovat-u hasaddan o'tunguz,
Har nav' ila o'zni necha kun ovutungiz.

Bobur ham bir ruboiysida ahhobga murojaat qilib, yig'ilib turish, diydorlashish kishiga zavq berishini, bu o'tkinchi dunyoda bir-birini g'animat tutish lozimligini ta'kidlaydi:

Ahhob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz,
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz,
Chun gardishi charx bu durur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kun g'animat tutungiz.

Har ikki ruboiydagi "ahbob"ga murojaat-badiiy vosita, xolos. Agar uni mualliflarning o'z do'stlarigagina bag'ishlangan desak, asarning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini cheklagan bo'lamiz. Ushbu ruboiylar makon va zamon

qobiqlarin yorib o'tadi. Insoniyat mavjud ekan, bu nasihatlar har qanday zamonda ham o'z g'oyaviy, itimoiy va tarbiyaviy qimmatini yo'qotmaydi.

Bugungi kunda yomon do'stlar davrasida jahola yo'lini tanlagan yoshlar ham oramizda yo'q emas. Ularning o'z yo'lidan og'ishishida yomon do'st-“qora qozon” ning ham ‘ulushi” bor. Alisher Navoiy ijodida uchraydigan

**“Yuqar yamonlig’ angakim, kirar yamon el aro,
Ko’mur aro ilik urg’an qilur ilkini qaro”**

misralari yomon kishilar davrasiga qo'shilmaslik kerakligi g'oyasi ilgari surilgan. Buning yoshlar ma'naviy tarbiyasi uchun o'ziga xos ahamiyati mavjudligini unutmashimiz kerak.

Adabiyotimiz ustuni bo'lgan har ikki shoirning ibrat to'la satrlari bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ularning ilm va barkamollikulug'langan satrlarini o'qir ekanmiz, bu fazilatlar Prezidentimiz orzu qilgan Uchinchi Renessans davri uchun nechog'li dolzarbligini yana bir bor his qilamiz.

Alisher Navoiy va Bobur ijodiy merosi ma'naviyat pog'onasi sari ildam odimlayotgan avlod uchun chin ma'naviy xazina demakdir. Bu xazinaning kaliti esa mutolaadir. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, “o'qib o'tmak, uqib o'tmak” misralarini yoshlarimiz faoliyatining shioriga aylantirsak, Vatanimiz kelajagini haqiqiy barkamol avlod qo'liga topshirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Alisher Navoiy. “Nazm ul javohir” Toshkent. Akademnashr.2019
- 2.Bobur Zahiriddin Muhammad “Boburnoma” Akademnashr . 2020
- 3.Yo'ldoshev Qozoqboy va boshqalar. Adabiyot darsligi. O'rta ta'lim muassasalarining 9-sinfi uchun darslik -majmua
- 4.Olimov S va .boshqalar. Adabiyot darsligi. O'rta ta'lim muassasalarining 8-sinfi uchun darslik- majmua
- 5.To'xliyev B va boshqalar.Adabiyot darsligi .O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik- majmua. Toshkent-2017.
- 6.Librarynavoiy-uni uz. Files.” ta'lim tizimida Navoiyning kichik janrdagi she'rlarini o'rganish”.

NAVOIY LIRIKASIDA DENDRAR OBRAZLAR VOSITASIDA VOQELANUVCHI MA'NOLAR XUSUSIDA

Rustamova Gavhar Bahron qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada hazrat Alisher Navoiyning lirik merosi, xususan, g'azallaridagi daraxtlar bilan bog'liq obrazlar va ularda ifodalangan tasavvufiy ma'nolar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy g'azallari, shamshod, sarv, sunbul, ishq ilohiy, ishq majoziy, tasavvufiy ma'no.

Alisher Navoiy lirik merosi Navoiygacha yaratilgan fors-tojik hamda turkiyzabon xalqlar she'riyatining davomi bo'libgina qolmay, barcha zamonlarda yaratilgan o'zbek she'riyati namunalarining gultoji sanaladi. Navoiy g'azaliyotining an'anaviy obrazlar tizimida *shamshod, sarv, chinor, to'biy, suman, savsan, sunbul* singari daraxt va gul obrazlari alohida o'rin tutadi. Ulug' mutafakkir shoir ushbu obrazlar orqali odatda, ma'shuqaning adl bo'yi-yu, xush qomatini go'zal usulda mubolag'ali ta'rif etishga urinadi.

Odamning paydo bo'lishini daraxtlar bilan bog'lashga oid qarashlar ham Navoiy g'azallarida o'z ifodasini topgan bo'lib, shoirning quyidagi bayti bu borada alohida e'tiborni tortadi:

Ey husn aro sohib g'ino, xurshid otangdur, oy – ano,

Istar esang nisbat yono: ham **sarv** – og'a, gul – singil.

“Badoye ul-vasat” devonidan o'rin olgan baytda Navoiy sarv daraxtini o'ziga qondosh, yani og'a biladi, gulni esa xushro'yligi va nozikligi jihatidan singilga qiyoslaydi.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidan o'rin olgan g'azallardan saralab olingan “Qaro ko'zim” to'plamiga mansub “Menmudurmenkim sening vasling muyassardir mango...” deya boshlanuvchi g'azalida quyidagi bayt mavjud:

Sarvni o'rtab, sumanni elga ber, ey bog'bon,

Kim bukun hamsuhbat ul sarvi sumanbardur mango. [3.8]

Ushbu baytda *sarv, suman, bog'bon, sarvi sumanbar* so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltirgan. P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar tomonidan tartib berilgan “Navoiy asarlari lug'ati”da sarvga quyidagicha ta'rif berilgan:

Sarv – 1.To'g'ri, tik o'sadigan, qishin-yozin ko'm-ko'k turadigan, hidi yoqimli, xushqomat bir daraxt. 2. Go'zal sevgilining qaddi-qomati, go'zal sevgilining o'zi. [2.547] Demak, shoir birinchi misrada bevosita bog'da o'suvchi sarv daraxti xususida so'z yuritilsa, keyingi misrada istiora san'ati

oraqali sarv qadli yor nazarda tutiladi. Shoir demoqchiki, “Ey bog‘bon, bog‘ingdagi sarv o‘rtab, sumanni elga, ya‘ni o‘zgalarga bersang ham mening parvoyim yo‘q, chunki bugun oqbadan, xush isli, xush qomatli yor mening hamsuhbatimdir”.

Yuqoridagi baytda Navoiy o‘z tole‘yidan mamnun, sarafroz oshiqni ta‘riflab, bog‘bonni unga havasmand etgan bo‘lsa, quyidagi baytda esa aksincha, ko‘kargan shamshodi bilan xushhol-u xursand yurgan bog‘bonga havas qiladi:

Vahki sindi naxli ummedim, xusho ul bog‘bon,

Kim erur xushhol bir navrasta **shamshodi** bila. [1]

“Soqiyoy, talx o‘ldi ayshim hajr bedodi bila” deya boshlanuvchi g‘azal Alisher Navoiyning o‘z hayoti bilan bog‘liq voqealarni aks ettiruvchi g‘azallardan biri sanaladi. Chunki unda yaqin kishisidan ajralib, shodligi g‘amga alishgan, qattiq qayg‘u chekkan odamning hasrat-o‘kinchlari, bevafo va bebaqo dunyo, uning adolatsiz ishlaridan norozi qalbning nidosi ifodalangan.

Ma‘nosi: “Umidim niholi sindi evoh, nobud bo‘ldi. Ko‘kargan shamshodi bilan xushholu xursand yurgan bog‘bonga havasim keladi”. Alamli o‘kinch va dard bor bu misralarda — “naxli ummadi”ni yo‘qotgan odamning ichidan otilib chiqqan dard va boshqalarga nigoh tashlab taskin topishi bor. Uning niholi singan, umidlari chilparchin, ammo boshqa bog‘bonlarning niholi ko‘kargan, ular shod. Bu hasad emas, umidli nigoh, hayotga, abadiyatga bog‘lanish, hayot abadiyatini his etish. Baytdagi “sindi” so‘zi ham o‘ziga xos mazmun kasb etadi: Falak zulmi, ajal shamoli uning umid niholini sindirdi, u bo‘lsa bir g‘azabga kelib, osmon qabatlarini sindirishga chog‘lanadi, bir achchiq-achchiq hasrat mayini sipqoradi, bir «navrasta shamshodi»dan xushhol bog‘bonlarga qarab taskin topadi. Shoir alamzada odamning ruhiy ahvolidagi o‘zgarishlar, to‘lqinlarni bir nechta she‘riy baytda ana shunday teranlik bilan chizadi. Navoiyning shoirona musavvirlik mahorati ham shunda ko‘rinadiki, bir o‘rinda sarvli bog‘i bo‘lgan bog‘bondan o‘zini baland etsa, boshqa o‘rinda “navrasta shamshodi” bilan xushhol yurgan bog‘bonga havas qilib o‘ksiydi. Ehtimol, shu bilan ham bu dunyoning omonatligi, undagi jamiki narsalarning va lahzalarning o‘tkinchiligiga ishora qilgandek bo‘ladi.

“Ey, sanga qomati diljo‘ ra‘no” misralari bilan boshlanuvchi g‘azal matla‘dan to maqta‘gacha yorning go‘zalligini vasf etadi.

Qomating nozuku **to‘bi** nozuk,

Sarv ra‘novu torong‘u ra‘no.

Ey musulmonlar, o'larmenkim, erur
Asru ul **sarvi sumanbo'** ra'no. [3.20]

To'bi yoki tubo diniy e'tiqodda jannat daraxti deb faraz etilgan go'zal daraxt. Ya'ni baytda ma'shuqa qomatining xushbichimligi-yu nozikligi jannat daraxti to'biyning go'zalligiga qiyoslanmoqda. G'zaldan ko'rinadiki, ushbu o'rinda ham ishq ilohiyga ishora mavjud.

«Erur ko'ngulda safo ishq toza dog'i bila» – «Xazoyin-ul maoniy» ning birinchi devoni bo'lmish «G'aroib-us sig'ar»ga kiritilgan va Alisher Navoiyda kam uchraydigan taxallussiz g'azallardan biri shu satr bilan boshlanadi. Ushbu g'azal Navoiyning «Badoe'-ul bidoya» devonida ham mavjud. Demak, u shoirning yoshlik yillarida yozilgan.

G'azal boshdan oyoq ishq ilohiyni kuylashga yo'g'rilgan, biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan quyidagi bayt ham majoziy tashbih-istioralar orqali an'anaviy obrazlardan biri *sarv* vositasida bayon etiladi:

Qucharga **sarv** niholi biri qadingdek ermas,
Agar ketursa ani bog'bon quchog'i bila. [1]

Baytning zohiriy ma'nosi quyidagicha: Shoir mahbub qomatini eng chiroyli daraxtga o'xshatmoqda, *nihol* esa uning yoshligiga ishora qilmoqda. Yo'q, mahbuba qomati sarvdan ham chiroyli, axir sarvni quchganda yor quchgandayin halovat tuyish mumkinmi? Bog'bon sarvlarni quchoqlab olib kelsa ham, lekin bu yor qomatini quchganchalik zavq bermaydi.

Ammo baytning zohiriy ma'nosi ham bor. Tasavvufda qad deganda so'fiylar pirning haybati, ilohiylik alomati bor odamni nazarda tutganlar. Shunday bo'lgach, baytning boshqacha ma'nosi ham kelib chiqadi: «Garchi bog'bon bog'dagi go'zal sarv daraxtlarini namoyishkorona quchib kelsa-da, lekin ularning birortasi komil inson – pirning salobatli, sarv qomatidek emas, ularni quchish pirga sig'inishday halovat berolmaydi».

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dendrar obrazlar Alisher Navoiy g'azallarida an'anaviy obrazlar tizimini tashkil etadi. Sarv, shamshod, to'bi obrazlari orqali yor vasfi, ma'shuqa go'zalligi, ham majoziy, ham ilohiy ishq tarannum etiladi. Hazrat Navoiyning ulug'vorligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma'nolar, ya'ni ishq ilohiy va ishq ma'joziy ifodalar bir-biriga xalaqit bermaydi, balki bir-birini to'ldirib, quvvatlab turadi. Boshqacha aytganda, ishq haqiqiy tasviridan ishq ma'joziy tasviriga yoki aksincha holatga oson o'tiladi, kitobxon goh u ma'nodan, goh bu ma'nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi. Misralarni qayta-qayta o'qigani sayin, uning ma'no qirralarini teranroq kashf qilib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий А. Ғаройиб ус-сиғар // Навоий А. МАТ. 20 томлик. 3-том. – Т.: Фан, 1988. – 616 б.
2. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 784 б.
3. Қаро кўзим. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 768 б.

HAZRAT NAVOIY VA SAYID HASAN ARDASHER MUNOSABATLARI MISOLIDA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH MASALASI

Ahmadova Mohinur Hamza qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti 1 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiy va Sayid Hasan Ardasherning do‘stlik va ustoz shogirdlik munosabatlari asosida yosh avlodni milliy- etnik va insoniy xususiyatlarini shakllantirish masalasi haqida ilmiy-nazariy fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Hazrat Navoiy, Sayid Hasan Ardasher, 14-15 yoshlar, shoir, bu zot, alohida hurmat, ehtirom bilan qarash, yigitlik davri, bag‘ishlov, she‘riy maktub, masnaviy, “Masolis un-nafois”, Nasoyim ul-muhabbat” asarlariga, “Xazoyin ul-maoniy, tarjibband-marsiya, “Soqiynoma” va hokazo.

Dunyo tamaddunida Sharq mutafakkirlarining hayot tarzi, yashash davr barkamol yoshlarining tarbiyasida buyuk ajdodlarimizning o‘g‘itlari dastur sifatida qadrlidir. Zero, “Hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo‘lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisini qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san‘atining o‘rni va mas‘uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda”¹.Shu mantiqdan kelib chiqib, Alisher Navoiy va Said Hasan Ardasher

¹ Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”.Toshkent. O‘zbekiston.2019. B-340.

munosabatlarning yoshlar tarbiyasida o'ziga xos ahamiyati mavjud deb o'ylab, shu mavzu asosida fikr yuritishni lozim topdik.

Alisher Navoiy o'zining "Holoti Sayid Hasan Ardasher" nomli manoqib holot janrida yaratilgan asarida shoirning ustози va do'sti, ota maqomidagi inson Hasan Ardasher haqida fikr yuritadi. Ushbu asar Sayid Hasan Ardasherning vafotidan ikki yil keyin yozilgan. Hazrat Navoiy Sayid Hasan Ardasher bilan 14-15 yoshlarida tanishadi. Shoirning bu zotga alohida hurmat va ehtirom bilan qaraganligini yigitlik davrida unga bag'ishlab she'riy maktub-masnaviy bitganligi, uning "Majolis un-nafois", Nasoyim ul-muhabbat" asarlariga kiritilganligi, "Xazoyin ul-maoniy tarkibidagi tarjibband-marsiyani Sayid Hasan Ardasher vafotiga bag'ishlaganligi, "Soqiynoma" da uning nomini alohida eslab o'tganligi yaqqol namoyon qiladi. Asarda Alisher Navoiy dastlab Said Hasan Ardasherning otasi haqida ma'lumot berib, uning Shohruh o'g'li Boysung'ur Mirzo saroyida qushchilik kasbi bilan shug'ullanganligini, keyinchalik mehnat va mahorati tufayli qushbegi lavozimiga ko'tarilganligini aytadi. Sayid Hasan Ardasherning o'zi ham otasi singari Boysung'ur Mirzo xizmatida bo'lib, kichik yoshdan o'z ta'bi va bilimi bilan atrofdagilar e'tiborini qozonadi. Navoiy uning sarf (morfologiya), nahv (sintaksis), lug'at, arab tili, mantiq, kalom (e'tiqod ilmi), fiqh (islom huquqshunosligi), hadis, tafsir (Qur'on oyatlari sharhi), muammo va tarix ilmi, nujum ilmi (astronomiya), advor (musiqi nazariyasi) sohalarida mukammal bilimga ega bo'lsa-da, g'oyat kamtarlik va odob yuzasidan majlislarda sukut saqlab o'tirishini chuqur hurmat bilan qayd etadi. Hozirgi zamon ta'lim va tarbiyasida ushbu muhim insoniy xususiyatning mezonlari biz yuqorida tahlil qilgan hayotiy misol asosida integratsiya qilinsa, o'ziga xos axloqiy ahamiyat kasb etadi. Hukmdor Boysung'ur Mirzo Sayid Hasan Ardasherning fe'l-sajiyasini nihoyatda qadrlagan va hatto o'g'illariga ibrat qilib ko'rsatgan. Hozirgi zamon ta'lim oluvchilarini mana shu axloq normasi darajasida tarbiyalash bugungi zamon pedagogikasining dolzarb muammosi hisoblanadi. Sayid Hasan Saroyda harbiy lavozimda bo'lgan, ammo bu lavozimga rag'bat ko'rsatmagan. Boysung'ur Mirzoning o'g'illari Alovudavla Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo ham o'z hukmronliklari davrida Said Hasanni xizmatlariga taklif etadilar, ammo u rozi bo'lmaydi. Takliflar haddan oshgach, Sayid Hasan o'zini "landvanlik va oshiqpeshalikka" urib, rindi mayxo'rlar majlisiga qatnaydigan bo'lib qoladi. Uning tabiati va pok qalbi mirzozodalarga shu darajada xush kelganki, ular ortiqcha takalluf va munozaralarsiz Sayid Hasan Ardasher bilan hamsuhbat bo'lishni o'zlariga sharaf deb bilganlar.

Sayid Hasan Ardasher turkiyoʻy shoirlardan Lutfiy sheʼrlarini, forsiyoʻy ijodkorlardan Xoja Hofiz Sheʼroziy “Devon” ini, Saʼdiy Sheroziyning “Boʻston”, Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asarlarini sevib mutolaa qilgan. Ulardagi aksar baytlarni yod bilgan. Hozirgi zamon yoshlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, zamonaviy bilim va kasb hunarlar oʻrgatish, vatanimiz va xalqimizga sadoqatli insonlar etib voyaga yetkazishda Sayid Hasan Ardasher va Hazrat Navoiy dahosi ibrat namunasi sanaladi. Hukmdorlardan Sulton Husayn Boyqaro ham Sayid Hasan Ardasherini juda chuqur hurmat qilib, uning saroyda biror mansabni egallashini xohlagan hamda podshohona ehtirom va darveshona muomala bilan uning koʻnglini olishga erishgan. Hasan nihoyat podshoh amriga koʻnib mustashorlik lavozimini egallaydi. Mustashorlik podshoh maslaxatchisi demakdir. Sayid Hasan Ardasher bu lavozimni egallaganda xalq ham podshoh ham uning tadbiri va ishlaridan rozi boʻlganlar². Podshoh Sayid Hasan Ardasherini bosh vazir lavozimiga tayinlamoqchi boʻlganida amaldorlikni xush koʻrmaydigan Sayid Hasan rozilik bermaydi. Shohning rayini qaytarmaslik uchun lashkarda oddiy navkar boʻlib ikki yil xizmat qiladi. Yangi davr pedagogikasida taʼlim oluvchilarimizga kamtarinlik tushunchasini singdirishda aynan Sayid Hasan Ardasherining mana shu ikki yillik faoliyatini anglatish, shu asosida taʼlim va tarbiya berish sifatli taʼlim konsepsiyalarini taraqqiyotiga asos boʻladi. Sayid Hasan Ardasher saroy xizmatidan ketgach Mavlono Muhammad Tobotgoniy huzuriga boradi. Ulugʻ shayxga murid tushib, oʻzini toat-ibodatga bagʻishlaydi.

Hazrat Alisher Navoiyning “Holoti Sayid Hasan Ardasher” asarida Sayid Hasanning pok eʼtiqodi, haqqa boʻlgan muhabbati, Allohning taqdiriga hamisha rozi ekanligi taʼkidlanar ekan, yana bir misol keltiriladi. Unga koʻra, Sayid Hasan Ardasherining Sayid Muhammad ismli oʻn toʻrt yoshli yakka-yu yagona oʻgʻli vafot etganida hamma gʻamu qaygʻuga tushganida bu zot “Allohning irodasi” deya sabr bilan musibatni yengadi. Biz yashab turgan jamiyatda sabr tushunchasini nafaqat taʼlim tizimiga balki kishilik jamiyatining barcha jabhalarida targʻibot qilish oʻrinlidir. Sayid Hasan Ardasher hajga borishni niyat qilar edi, lekin koʻp moneʼliklar tufayli bu niyatiga erisha olmaydi. Shunda Samarqandga borib, Hoja Ubaydulloh Ahror suhbatidan bahramand boʻladi. U yerda bir necha kun boʻlib, yana Hirotga qaytadi. Hijriy 894, milodiy 1488- yilda yetmish uch yoshida vafot etadi. Bu paytda Hazrat Alisher Navoiy davlat yumushlari bilan Hirot dan tashqarida edi. Xabarni eshitib chuqur qaygʻuga botadi. Qaytib kelgach, Hirot shimolidagi

² Alisher Navoiy. Qomusiy lugʻat. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2016. B.254.

tog' etagida do'sti va ustozlari hisoblanmish bu zotning qabri ustiga sag'ana qurdiradi. Keyinchalik Sayid Hasan Ardasheriga do'st va birodar bo'lgan boshqa insonlarning xoklari ham bu yerga keltirilib, shu yerga dafn etiladi. El orasida bu joy "Azizlar hazirasi" - "Aziz zotlar xilxonasi" deb nom oladi.

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Hazrat dahosi va uning adabiy merosi asosida yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy mayoq ko'targan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi". Toshkent. O'zbekiston. 2019. B-340.

2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2016. B.254.

SHAXS MA'NAVIYATINI TARBIYALASHDA NAVOIY IJODINING O'RNI

Navbahor Karomova

Buxoro shahridagi Prezident maktabi
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

So'z bilan dunyoni zabt eta olgan, asrlar osha o'z ijodi va merosi, qilgan yaxshi amallari bilan dillarda yaxshilik urug'ini sepa olgan buyuk bobolarimiz Alisher Navoiy hayoti va ijodiga yana bir bor nazar tashlar ekanmiz, beixtiyor kurrai zamnning har nuqtasiga bir xil nur sochayotgan quyosh ko'z oldimizga keladi. Navoiyni quyoshga o'xshatishimiz bejiz emas. Navoiyning har satrida quyosh nurlaridek iliqlik, saxiylik, mehr-muhabbat ufurib turadi. Navoiyning nafaqat baytlaridan, balki amallaridan, davlat boshqaruvida, obodonchilik ishlarini olib borishidan ham, shaharlarda qurdirgan imoratlaridan ham ibrat olsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Navoiyning zamondoshi, tarixchi olim, Navoiyning moddiy va ma'naviy ko'magidan bir umr bahramand bo'lgan va tarixiy asarlar yaratib qoldirgan Xondamir Navoiyni katta mehr bilan, muruvvat bilan tilga oladi. Uning xalk uchun, ziyo ixlosmandlari uchun bir sadoqat va saxovat bilan 52 rabot, 20 ta hovuz, 16 ta ko'prik, 3ta hamom, ko'pgina tug'on va masjidlar qurdirganini nomma-nom sanab o'tadi. Navoiy qurdirgan inshootlarning soni 300 dan

oshgan ekan. Hazrat Alisher Navoiy – butun turkiy ijodkorlar orasida eng ko‘p va eng xo‘b ijod qilgan. Navoiyning minglab g‘azallari, dostonlari va aruzning turli yo‘llarida bitilgan baytlarida asrlar osha dillar bahramand bo‘lmoqda. Navoiy turkiyda birinchi bulib ijod qilgan shoir hisoblanadi.

Istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz. Ma‘naviy merosimizni o‘rganish, tadqiq qilish va hozirgi hamda kelgusi avlodga yetkazish vazifasi eng dolzarb masalaga aylandi. Barkamol inson tarbiyasida milliy madaniyatimiz, milliy ma‘naviyatimiz, qadriyatlarimiz beqiyos kuchdir. Ana shunday boy ma‘naviy ijod mahsuli Alisher Navoiyga tegishlidir.

Hozirgi kunda har tomonlama kamol topgan bilimli, ziyoli, tarbiyali, shaxsni voyaga yetkazish g‘oyasi yuqori o‘rinda turadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda ma‘naviy merosimizning, ayniqsa Navoiy ijodining ahamiyati beqiyosdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, axloq-ma‘naviyat o‘zagidir. Navoiy asarlari aynan inson qalbida vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, odamiylik va insonparvarlik g‘oyalarini paydo qiladi, tarbiyalaydi.

Alisher Navoiynjng birgina «Hayratul-abror» asari inson uchun ham qarz, ham farz bo‘lgan barcha insoniy fazilatlar haqida so‘z yuritadi. Ayniqsa, yoshlarimizda ma‘lum bir ma‘noda yetishmayotgan chin ma‘nodagi qalb go‘zalligi, jismoniy kamolot bilan ruhiy barkamollikning uyg‘unligi, xushmuomalalik, mehr-muhabbatli bo‘lish, go‘zal xulq sanalmish saxovatlilik, saxiylik, mehnatsevarlik, o‘zini tuta bilish, birovlarining gapini tinglay olish, zarur paytda qay holatda yoki qanday ko‘rinishda kulish va nafratlanish, achinish, achchiqlanish kabi holatlarning ham o‘ta darajada go‘zal va me‘yorda bo‘lishning yetishmasligi shundan dalolat beradi. Odobsizlikning birinchi belgisi behuda kulgidir. Haddan ziyod, me‘yordan ortiqcha kulgandan ko‘ra, yig‘lash afzalroqdir, deydi.

Navoiy inson ko‘nglining shisha kabi nozikligini, uni sindirish katta gunoh ekanligini, birovning ko‘nglini olish, ko‘tarish katta savob ekanligini ham uqtiradi. Birovning g‘amini yeyish insoniylikning eng yuksak martabasi deb biladi. Inson ko‘nglini muqaddas Ka‘baga tenglashtiradi, ko‘ngilning siniqligini, ya‘ni birovning ko‘nglini sindirishni Ka‘bani vayron qilish bilan teng ko‘rsatadi. Bitta notug‘ri yo‘ldan ketayotgan kishini to‘g‘ri yo‘lga solish, kishidagi yomon fazilatlarini yo‘qotishga sabab bo‘lish, xatosini anglatish va shu xatodan qaytarish ham vayron bo‘lgan Ka‘bani tiklash bilan barobar deydi:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borki, Ka‘ba vayron bo‘lsa obod aylagay.

«Hayratul-abror»ning 13-maqolatida elu yurtga foyda keltiruvchilarni bulutga o'xshatadi. Xalkka foyda keltirmoqni, birovlariga yaxshilik qilmoqni boshqalarga emas, balki o'ziga foyda keltirish va yaxshilik qilishdir deb uqtiradi:

Na'fing agar xalqqa beshakdurur,

Balki bu na'f o'zinga ko'prakdurur.

Navoiy bu g'oyasini barcha asarlarida davom ettiradi va to'ldirib boradi. Suyukli qahramoni Farhod mehnatsevarlikni sharaflaydi, mehnatga ijodiy yondashadi. Shirinni izlab Armanistonga borarkan, tog'da kanal qazish uchun nihoyatda qiynalib ishlayotgan kishilarni ko'rib:

Hurni asrabon netgumdir oxir, Olib tufroqqamu ketgumdir oxir, deya ularga chin ma'noda yordam beradi. Hunari, mahoratini ishga solib minglarcha kishilarning mehnati va mashaqqatini yengillashtiradi.

Navoiy inson tarbiyasida mehnatga katta e'tibor beradi. Mehnatni sevuvchi har bir odam birinchidan o'zi baxtli bo'ladi, hurmat-e'tibor topadi, ikkinchidan bunday odamning qalbida, xarkterida birovlariga yomonlik qilish, firibgarlik nuqsonlari hech kachon bo'lmaydi deya ta'kidlaydi. Shuning uchun Navoiyning ijobiy obrazlari hamma vaqt mehnatga zo'r hurmat bilan qaraydilar. O'zlari tanlagan sohaning fidoyi zahmatkashlari darajasigacha ko'tariladilar. Navoiyning obrazlaridagi bu fidoiylilik bugungi kun uchun, bugungi kun yoshlari uchun nam juda zarurdir.

Navoiy, kimki daraxtni yaxshi parvarish qilsa, ko'p meva oladi. Agar zarar yetkazishni odat qilsa, elga emas, o'ziga jabr qiladi deydi. Odamlarga narsa berib foyda bermasang, hech bo'lmasa yaxshi so'z bilan naf keltir, yaxshi so'z aytib yaxshilik qilgin, deydi.

Farhod Navoiy, "Xamsa" sidagi ijobiy obrazlar ichida eng yorqin xarakterdir. O'z ijodida bola tarbiyasiga katta e'tibor bergan adib bolani yoshligidanoq bilimga, mehnatga, hunarga o'rgatish lozimligini shu Farhod obrazi orqali ta'kidlab o'tadi. Farhod juda serg'ayrat, xotirasi kuchli, hofizasi misli ko'rilmagan darajada o'tkir. U uch oyda savodini chiqaradi, har bir yodlagan ma'lumotini tushunib yetadi, o'ziga yaxshi xulosalar chiqaradi, qisqasi, Farhodning yoshligi Navoiyning yoshligini, ayniqsa, uning o'qishga, yodlashga bo'lgan havasini, qobiliyatini eslatadi. O'rni kelganda yana shu narsani ham aytish kerakki, navoiy yaratgan Majnun va Iskandar obrazlari ham o'zlarining zehn, o'qish sohasidagi xususiyatlari bilan Farhodga juda yaqin turadilar. Farhod o'n yoshida yigirma yoshli yigitlardek kuch-quvvatga ega bo'lib, o'sha zamonda mavjud bo'lgan hamma ilmlarni o'zlashtirib oladi. Kuch-quvvat, bilim va hunarda tengsiz bo'lgan Farhod o'zini hamisha kamtar

tutadi, hattoki gadolikni podsholikdan ustun qo'yadi, hammaga ochiqko'ngil bilan qarab, beg'araz, samimiy muomala va munosabatda bo'ladi. Uning bu fazilatlari chindan ham o'sha davr shahzodalarida kam uchraydigan ibratomuz xislatlar edi.

Farhod otasi amri bilan qurilayotgan qasrlar maydoniga borganda u joyda qaynoq mehnatni, ayniqsa, me'mor Boniy, naqqosh Moniy, sangtarosh Qoranlar mehnarini ko'rib, cheksiz hayratlanadi. O'zi ham bel bog'lab, qizg'in mehnatga sho'ng'ib ketadi. Shoir yozadi:

Aningdek qildi xoro yo'nmog'in vird,
Ki yuz Qoran qoshida bo'ldi shogird.

Farhod obrazining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning boshqalar g'amiga qayg'usiga sherik bo'la olishi, o'zgalar tashvishini o'zinikidan yuqori qo'ya bilishidir:

Biravki, zor yig'lab, yig'lab zor,
Topib ko'ngil ozoridan ozor.
Bo'lub el anduhidan ko'ngli g'amnok,
Yoqo chokin ko'rub, ko'ksin qilib chok.

Buyuk Navoiy jamiyatda Farhoddek kishilarni ko'rishni istar va kelajakda shunday kishilar yetishuvi mumkinligiga komil ishonch bilan qarar edi.

“Ham surati, ham siyrati “go'zal ayollar obrazi”

“Xamsa” da xotin-qizlar muammosi muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy davrida ham, undan oldin ham ayollar tamoman huquqsiz edilar. Bunday holga shoir loqayd qaray olmas edi. U ayollarga nisbatan past nazar bilan qarash, ularni mensimaslik, fikr-mulohazalarini inobatga olmaslik, orzu-istaklarini toptash kabi holatlarni, ularning iqtidorlari, qobiliyatlariga e'tiborsizlikni qattiq qoralaydi. Shoir o'z asarlarida aql-zakovatda, muhabbat va san'atda, hattoki davlatni idora etish kabi muhim va mushkul ishlarni bajarishda ayollar erkaklardan qolishmasliklarni, ayrim sohalarda, hattoki o'rnak bo'lishlari mumkinligini o'zining qator obrazlari orqali isbotlashga harakat qiladi. Navoiy yaratgan xotin-qizlar obrazi katta-kichikligidan qat'iy nazar, doimo “ham surati, ham siyrati” go'zal, niyati ulug' qalbi toza, inson sifatida tasvirlaydi. Fikrimizga Mehinbonu, Layli, Dilorom kabi to'laqonli obrazlardan tortib Malluning qizi, Mehr, Lubati singari singari epizodik qahramonlar yaxshi dalil bo'la oladi. Shirin obrazi Navoiy ijodining ulkan yutug'i bo'lmay, butun o'zbek mutoz adabiyotining ham yutug'idir. Shirin Alisher Navoiy dostonida Farhod bilan bir qatorda turadigan bosh obrazlardan biri bo'lib, asosiy g'oyani ifodalashga muhim vosita sifatida

xizmat qiladi. Navoiy tasviridagi Shirin har jihatdan yetuk, olijanob inson obrazi darajasiga ko'tarilgan.

Layli – samimiy muhabbat timsoli. U o'z ahliga, sevgisiga cheksiz sadoqatli ayol. Navoiy o'zining insoniy qarashlari, yaxshi orzu-istaklarini "Xamsa" dagi boshqa ijobiy qahramonlarida bo'lganidek, Layli obrazida ham turli voqealar, masalalar munosabati bilan bayon etadi. Layli odamlarni cheksiz hurmat qiladi. Ularning baxtini, xursandchiligini ko'rib quvonsa, qiyin ahvolga tushganlarni, baxtsizliklarni ko'rib qayg'uradi. Layli obrazidagi bu fazilat uning Majnun boshiga tushgan musibat (ota-onasining o'limi) ni eshitgach yanada namoyon bo'ladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Navoiy asarlarining bosh qahramonlari hamda kichik qahramonlari orqali shaxsni tarbiyalash, o'rnak qilib ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Hozirgi globallashuv davrda bu obrazlarning ayrim "zamonaviy" yoshlarimizni tarbiyalashga, ota-onaga hurmat ko'rsatishga, har sohada ilm va hunar o'rganishga, muxtasar aytganda, komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi, desak ayni muddao bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" 2021-yil
- 2.Alisher Navoiy "Xamsa" "Yangi asr avlodi" 2019-yil.105-275-betlar
- 3.Sultonmurod Olim 8-sinf darsligi, G'afur G'ulom nomidagi adabiy nashr, 2019-yil, 60-75-bet
- 4.Natan Mallayev "Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi" 1-kitob, Toshkent "O'qituvchi" 1976-yil 123-234-betlar

ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDA TARBIYA MASALASI

Ahmadova Ferangiz Hamza qizi

BuxDU III bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida tarbiya masalasining estetik ifodalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, doston, muhim falsafa, ijtimoiy-ma'rifiy fikr, axloqiy-ta'limiy va adabiy-estetik qarash, fikrlar asosi, "Hayrat ul-abror", inson, dunyo, tiriklik, taqdir va tadbir, jamiyat va shaxs, zamon va axloq, axloqiy-ta'limiy aspekt, talqin, didaktika, xarakter va hokazo.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ma'naviy barkamol avlodni milliy adabiyot namoyondalari asarlari asosida tarbiyalash pedagogika tizimida

muhim natijalarga erishmoq imkoniyatini yaratadi. Zero, “Yosh avlodni tarbiyalashda xalqimizning boy tarixi va madaniyati, buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosi, jonajon O‘zbekistonimizning milliy manfaatlari biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.”³ Shu asnoda Hazrat Alisher Navoiy Xamsa asarining dastlabki dostoni “Hayrat ul-abror”⁴ yosh avlod tarbiyasi uchun muhim manba sanaladi.

“Hayrat ul-abror” o‘zida buyuk mutafakkirning falsafiy, axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. Doston hajman 63 bob, 3988 baytdan iborat. Alisher Navoiy dostoniga muhim falsafiy, ijtimoiy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy va adabiy-estetik qarashlariga oid fikrlarini asos qilib olgan. “Hayrat ul-abror” da borliq, inson, dunyo, tiriklik, taqdir va tadbir, jamiyat va shaxs, zamon va axloq masalalari axloqiy-ta’limiy aspektlarda talqin etilgan. Doston didaktik xarakterga ega. Uning tarkibidagi axloqiy maqolot va hikoyatlarning umumiy kompozitsion qurilish bilan izchil bog‘langanligi mazkur dostonda alohida-alohida olib qaralgan masalalarning bir-biriga bog‘lanib, tadrijiy ravishda takomillashib borishini ta’minlagan. “Hayrat ul-abror” 63 bobdan iborat bo‘lib, 21 bobi muqaddima, 20 bobi maqolot va 20 bobi har bir maqolot mazmun-mohiyatini ochish uchun badiiy ilova-talqin 20 hikoyatdan iborat. Dostonning muqaddimaviy boblari uning uchdan birini tashkil etadi. Asarning ilk bobi “Bismillohi rahmoni rahim” kalimasi bilan boshlanadi. Ilk fasldan boshlab ilohiy tushunchalarga tafsir, izoh va talqinlar keltiriladi. Biz fikrimizning avvalida dostonning barkamol avlod tarbiyasiga ta’siri masalasida mavzu belgiladik. Hozirgi globallashuv davrida talaba yoshlar o‘rtasida islom falsafasi, diniy ta’limotni ko‘r-ko‘rona anglash natijasida kiyinish madaniyatida eskicha “diniy” aqidaviy o‘zgarishlar avj olib bormoqda. Hazrat Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonini barcha fanlar kesimida integratsiyalashgan usullarda ta’limni tashkil qilishga erishilsa, dunyoni anglash yoshlar o‘rtasida ancha tiniqlashadi. Dostonda ustoz-shogirdlik an’anasi, shogirdning ustozga ehtiromi ifodasi ham hozirgi zamon pedagogikasi uchun ibratlidir. Shu ma’noda Navoiy o‘zining Xamsa yoza olish qudratiga ishonadi. Bunga Jomiyning shogirdiga bo‘lgan ishonchi ham sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Xamsaning har bir dostoniga so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan maxsus boblar kiritilgan. Shoir ularda so‘zning qudrati haqida fikr yuritadi. Ayrim dostonlarda so‘z madhi shoirning xamsanavis salafлари tavsifiga uyg‘unlashib ketgan. Hayrat-ul abror dostonining ikki bobida (14-15) so‘zga ta’rif beriladi. Shoir so‘zni tavsir etar ekan, nazmning qimmatini, so‘zdagi

³ Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi”.2019-yil 30-iyun.

⁴ Navoiy A. “Hayrat ul-abror” Toshkent .Kamalak. 2005.

ma'no, uning shaklga muvofiqligi, shakl va mazmun masalasi, umuman, so'zni o'rnida ishlatish masalasiga diqqatni qaratadi. Hozirga davr ta'lim oluvchilari uchun ham so'z qudrati, uning sehrli xususiyati, har bir so'z o'z o'rnida ishlatilishi joizligi masalasini o'rgatish juda muhim prinsiplardan hisoblanadi. So'z qudrati shoirning adabiy-estetik qarashlari haqida muayyan tasavvur uyg'otadi. Jumladan, dostonda so'z qudrati haqida shunday deydi:

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmasa edi Tengri kalomida nazm.⁵

Alisher Navoiy nazm va nasrni qiyoslab ta'rif berarkan, birinchisining afzal jihatlarini ta'kidlaydi. Biroq nazm uchun ham, nasr uchun ham surat va ma'no, shakl va mazmun uyg'unligi muhim jihat ekanligini ta'kidlaydi.

Nazmda ham asl anga ma'ne durur,
Bo'lsin aning surati har ne durur.

Hazrat Alisher Navoiy ma'no va uning qolipi haqida fikrlarini asoslash orqali o'z davri adabiy muhitiga xos illatlardan biri bo'lgan taqlidchilikni qattiq qoralaydi. Ushbu doston Alisher Navoiy dunyoqarashini o'zida aks ettirgan asar ekanligi Bahouddin Naqishband haqidagi fikrlarning kirish bobida keltirilganligi va shoirning bu tariqatga munosabati va daxldorligida ko'rinadi. Markaziy Osiyo madaniyati va adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan naqshbandiylikning Navoiy ijodidagi o'rni juda muhim. Shoir o'z qit'alaridan birida ushbu tariqatning "xilvat dar anjuman", "safar dar vatan", "nazar dar qadam", "xush dar dam" kabi umdalari mohiyatini tushuntiradi. Aynan, Sharq tarbiyasi bilan bog'liq ushbu masalalarga izoh va sharhlar keltiradi. Hayrat ul-abror inson haqidagi, uning insonlik mohiyatini anglatish maqsadida bitilgan doston. Alisher Navoiy dostonda insonning butun mukammalligi bilan tasvirlashga erishgan. Buning uchun din va dunyo, boyluk va foniyluk, tiriklik va adam, inson va dunyo, jamiyat va shaxs, saltanat va fuqaro kabi masalalar doirasidagi fikrlarni falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va estetik qarashlar nuqtai nazaridan talqin etgan. Shoir insonni shunday sharhlaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga imon erur.

Insonning insoniylik belgisini imonda deb bilgan shoir butun doston davomida inson bilan bog'liq masalalarni taqdim etishga kirishadi. Imorning talablari haqida, aniqrog'i, imon egasi bo'lgan inson haqida so'zlab, chinakam insonda sabr, shukr, hayo bo'lishini ta'kidlaydi. Bugungi davr ta'lim oluvchilarining ham dars jarayonlaridagi faoliyati bevosita mana shu uch

⁵ Alisher Navoiy Qomusiy lug'at. Toshkent. Sharq. 2016.-B.231.

xususiyatga sabr, shukr, hayoga muhtojligi hech kimga sir emas. Ushbu maqolatda imonning badiiy mohiyati orif inson Shayx Boyazidning bu dunyoda haqiqiy insonlar yo'qolib borayotganidan nadomat chekib, g'amgin qolishi va muridiga o'zining ham bu masalada sarson sargardonlar qatorida sanashini bayon qilgan ekan, Hazrat Alisher Navoiy o'zining ahvoliga ham nazar tashlaydi:

Soqiy, o'lubmen mayi iymon keltur,
Jismima iymon mayidin jon ketur.

Har bir hikoyat so'ngida keladigan bu kabi soqiyga murojaat maqolat va hikoyalardagi umumiylik va bir-biriga bog'langanlikni ko'rsatadi. Realistik tasvir ustun bo'lgan bu dostonida shoir o'z davridagi ba'zi illatlarga e'tibor qaratar ekan, ko'p masalalarni oddiy xalq manfaatidan kelib chiqib tahlil etadi va ularga baho beradi. Publisistik janrlarga yaqin bo'lgan maqolatlarda haqiqiy voqelikdan uzoqlashmaslik xususiyati namoyon bo'ladi.

Ajdodlarimizning hayot tarzi, ezgu amallari va e'tiqodi hozirgi zamon ilm ahliga va barkamol avlodga ibrat maktabi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim jabhalarida Hazrat Navoiyning boy adabiy merosi va purma'noli asarlari qatorida "Hayrat-ul abror" dostoni ham dastur sifatida o'qitilishi ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi". 2019-yil 30-iyun.
2. Navoiy A. "Hayrat ul-abror" Toshkent .Kamalak. 2005.
3. Alisher Navoiy Qomusiy lug'at. Toshkent. Sharq. 2016.-B.231.

SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONI TARKIBIGA KIRUVCHI "KARAM", "ADABLILIK", "QANOAT" HAQIDAGI MAQOLATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Muzaffarova Iqbol To'xtamishевна
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
17- umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiyning qomusiy asari sanalmish "Hayrat ul-abror" dostoninin maqolotlari tahlili berilgan. Shuningdek, maqolotlarning bugungi kun yoshlarining ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy

tarbiyasiga ta'siri haqida fikrlar berilgan va maqolotlarda ilgari surilgan ilmiy qarashlar, tarbiyaviy mavzudagi fikrlar, oson, muhtasar sharhlangan.

Kalit so'zlar: "Hayrat ul-abror", karam, adablilik, qanoat, kamtarlik, shoh, sabr.

Аннотация. В данной статье дан анализ статей эпоса «Айрат уль-Аброр», который считается энциклопедическим произведением Навои. Также высказывались мнения о влиянии статей на духовно-образовательное и нравственное воспитание современной молодежи, а также в простой и лаконичной форме излагались выдвигаемые в статьях научные взгляды и идеи на образовательные темы.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni qomusiy asar bo'lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o'ta dolzarb bo'lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug' mutafakkirning teran axloqiy-ma'naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan.

Biz maqolamizda adabiyot darslarining "Sinfdan tashqari o'qish" mavzularida Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonining 5-6-7-maqolotlarining qisqacha sharhini beramiz va o'quvchilarda odob, qanoat, saxovat kabi sifatlarni shakllantiramiz. Darhaqiqat, 7-maqolotda Navoiy kimki qanoatni o'ziga kasb qilib olgan bo'lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zeb-u ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

Kimgaki ish bo'ldi qanoat fani

Bilki, ani qildi qanoat g'ani

Ganji tajammulni g'ino bilmagil

Balki g'ino ganji qanoatni bil.

Bu maqolotda qanoat tushunchasining chiroyli tashbehlar, tamsillar vositasida ifodalab berilganligini ko'ramiz. Sharhi: Osmon qanchalik katta bo'lmasin, u bitta kulcha, ya'ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko'z doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko'z singari bo'lishlari kerak. Albatta, xuddi mana shu qanoat tushunchasi bugungi kun yoshlarida juda kamayib ketayotgan insoniy sifatlarni qatoriga kiradi. Hozirgi kunda bolalarimizda, qanoat qilish, boriga ko'nish kabi xususiyatlar negadir yo'q. Balki bunda ularning ota-onalari aybdordir. Chunki ba'zi ota-onalarimizning o'zida ham bunday tushunchalar yo'q. Ular bu dunyo hoyu havaslariga berilib, mo'maygina pul topish yo'liga o'tishgan. Qancha bo'lsa, shuncha kam qabilida ish tutadilar. Biz pedagoglar aynan mana shu Navoiy asarlaridagi mana

shunday insonning hayotda haqiqiy odam bo'lib yetishishida, yurt kelajagi, o'zining taqdiriga ta'sir qiladigan sifatlarni o'quvchilarda qanchalik ko'p singdira borsak, kelajak avlodni qo'ldan boy bermagan bo'lamiz.

Karam – insonga ko'p foydasi tegadigan, oliyjanoblik – o'zi qiynalsa-da birovga ravo ko'rishi, saxovat – insonning hosildor daraxti, ya'ni uning foydali mevasi. Har bir inson bu shirin mevdan tanovul qilishni xohlaydi. Saxovatli inson kimga yordam berishini biladi. Kumush gavharlarni shunchaki sochish saxovatli kishilarning ishi emas. Shunday boy insonlar borki, o'ziga o'xshagan badavlat insonlarga qo'ylar so'yib, ziyofat beradi. Bir burda nonga zor bo'lgan insonlarga qaramaydi, marhamat ko'rsatmaydi. Vaholanki, uning boyligi shu mehnatkash inson zahmati tufayli qo'lga kiritilganligidan xabari ham yo'q. Bir inson Hotam Toyi himmatidan bosh tortib, bormaganiga nima deysiz? Bazm qilib berib, keyin har bir gapida shu qilgan ehsoni-yu ziyofatini minnat qilgan insonni himmatli deb bo'lmaydi. Chunki himmatli kishilarda minnat degan qusur mutlaqo yotdir. Himmatli insonlarning har bir so'zida aql, har bir ishida tosh-u tarozi bor deya Navoiy karamga ta'rif beradi.

Odob bu – kishining kim ekanligini bildiruvchi sifati. Odobsizlik esa insonning yomon xulqidir. Kulgi odobsizlik belgisi, chunki inson kulganda, atrofni o'ziga qaratadi, o'ziga nisbatan yomon taassurot qoldiradi. Har bir aql-hushli inson o'z so'zini aql bilan so'zlaydi. Insonga muomala qilishda uning yoshini ham hisobga olish kerak. No'shiravon ham bir qizga oshiq bo'lib, uni xilvat joyga taklif etadi va bir buta nargizga ko'zi tushdi. Dilbardan qo'lini tortib oldi. Buning sababi nargizning shahlo ko'zidagi hayo, uyalish yigitni bu ishdan qaytardi. Bu ish, ya'ni xilvatda yashirinib uchrashish No'shiravondek shohga to'g'ri kelmasligi, u elga bosh bo'lib, bunday ishlar bilan xalqqa o'rnak bo'lishni istamadi. Xatosidan uyalib yig'lab yubordi. Bir jonsiz buta No'shiravonning adolat peshvosi ekanligini eslatdi. Shoh nargizdagi hayoni o'zinikidek his qildi. Bu hayo uni jumlayi olamga shoh ayladi, No'shiravon adolatidan el panoh topdi. Bundan ko'rinib turibdiki, Navoiy hatto shohlarning ham eng kerakli, zarur bo'lgan sifatlaridan biri bu – odob ekanligini uqtiradi. Aynan hozirgi davrda, ya'ni fan-texnika, texnologiya, sun'iy intellektlar rivojlanayotgan bir paytda, o'quvchilarimizda Navoiy o'zining asarlarining bosh g'oyasi qilib olgan, rostgo'ylik, odoblilik, qanoat, saxovat kabi sifatlarni o'quvchilarimizda shakllantirmas ekanmiz, kelajak avlodning ma'naviy olamini, o'zbeklarga xos mentalitetimizni boy bergan bo'lamiz.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Hayrat ul-abrorning biz tilga olgan maqolotlaridan inson uchun zeb-u ziynat hisoblangan fazilatlarini o'rganishimiz mumkin. Navoiy chin insoniy fazilatlar – karam, odob, qanoat,

rostgo'ylik, ilmlilik kabilarni yorqin badiiy bo'yoqlarda tasvirlaydi. Biz pedagoglar ana shunday nodir, qimmatli asarlarimizning mazmun-mohiyatini o'quvchi ongiga singdirishni birlamchi vazifa qilib qo'yishimiz lozim. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekistonning ustuni – bilim, ta'lim va tarbiyada bo'ladi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O'ZLiDePdan O'zbekiston Prezidentligiga nomzodlik saylovoldi dasturidagi nutqi. Daryo telegram sahifasi. 30.05.2023.
2. Abduqodir Hayitmetov. "Navoiy lirikasi". T.O'zbekiston,2015.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik. T.: "Fan", 1983-1985.
4. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" T.: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti",1988.

"DRAMA" TO'GARAKLARIDA ALISHER NAVOIY VA BOBUR HAYOTI VA IJODIGA DOIR ASARLARNI SAHNALASHTIRISH ORQALI O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH

Qobilova Dilrabo Sharipovna,

Buxoro tumani 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garaklar faoliyatini jonlantirish, ularda qo'yiladigan sahna asarlarini o'quvchilar yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etish, o'quvchilarda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir asarlarga qiziqishni yanada kuchaytirish orqali ularni ma'naviyatini rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: 5 ta muhim tashabbusning 1-yo'nalishi, "Drama" to'garaklari faoliyatini tashkil etish, ma'naviyat, rivojlantirish, mumtoz adabiyot namunalari, sahna uchun mo'ljallangan parchalarni tanlash.

Аннотация. В данной статье рассматривается активизация деятельности кружков в общеобразовательных школах, организация в них сценических постановок с учетом возраста и интересов учащихся, интерес учащихся к произведениям о жизни и творчестве Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабур. Говорят, что это развивает их духовность за счет дальнейшего увеличения их интереса.

Ключевые слова: 1-е направление 5 важных инициатив, организация деятельности кружков «Драматургия», духовность, развитие, примеры классической литературы, отбор фрагментов, предназначенных для сцены.

Abstract. In this article, revitalization of the activities of clubs in general secondary schools, organization of stage productions in them taking into account the age and interests of students, students' interest in works on the life and work of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur it is said to develop their spirituality by further increasing their interest.

Key words: 1st direction of the 5 important initiatives, organization of activities of "Drama" circles, spirituality, development, examples of classical literature, selection of fragments intended for the stage.

2019-yil 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan besh muhim tashabbus ilgari surildi. Bu yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan yo'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Bugun maktab o'quvchilari orasida rivojlantirish, qaysi o'rinda ularga e'tibor qaratish lozimligi xususida fikr yuritmoqchimiz.

O'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda mutafakkirlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Alisher Navoiyning bizga qoldirgan boy adabiy va ma'naviy merosi o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'nan va ruhan barkamol bo'lib tarbiya topishida muhim o'rin tutadi. Buyuk mutafakkir, g'azal mulkinging sultoni hazrat Alisher Navoiy o'zining asarlarida, dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan komil inson, odil hukmdor haqidagi g'oyalarni ilgari surdi. Alisher Navoiyning betakror va boy ijodini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mutaffakir ijodining asosiy qismi inson kamoloti, komillik sari intilishni tarannum etadi. Uning insonparvarlik, ta'lim-tarbiya, axloq va xulq-odob qoidalari, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, yuksak insoniy qadriyatlar to'g'risidagi dono fikrlari hozir ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Har birimiz maktabda o'qigan kezarimizda ustozlarimiz tomonidan sahnalashtirilgan Uyg'un va Izzat Sulton qalamiga mansub "Alisher Navoiy" dramasiidagi "Navoiy va Guli" sahnasining ko'p bora guvohi bo'lganmiz. "Farhod va Shirin" dostonidan olingan "Farhod va Xusrav munozarasi" sahnasidan ta'sirlanganmiz. Bugungi kun maktab sahnasida asosiy e'tibor

qanday asarlarga qaratilmoqda? Bugungi kun o'quvchisiga qanday mavzudagi sahna asarlari ma'qul?

Har yili fevral oyida buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlari munosabati bilan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari tomonidan maktabda tadbirlar, adabiy-badiiy kechalar, g'azalxonlik kechalari, "Zakovat" intellektual o'yinlari, insho tanlovlari tashkil etiladi. Shu vaqtda maktabda tashkil etiladigan "Drama" to'garagi a'zolari tomonidan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir asarlarni sahnalashtirish maqsadga muvofiq. Zero, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li tafsilotlari haqidagi hikoyalar orqali tarbiyalash ijobiy natija berishiga shubha yo'q. Bu borada 5-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan "Sher va durroj" hikoyati orqali qo'g'irchoq teatri namunasini tayyorlash, yana shu sinfda Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" asari asosida "Olim va Alisher" (Sharafiddin Ali Yazdiy va Alisherning Yazd shahridagi uchrashuvi), 7-sinfda Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridan olingan "Bobur va Malika Bayda" sahnasini tayyorlash, 9-sinfda "Farhod va Xusrav munozarasi" va boshqa misollarni keltirishimiz mumkin. O'quvchining eshitganidan ko'ra ko'rgan narsasini ko'proq eslab qolishini hisobga oladigan bo'sak, yuqoridagi asarlarni sahnalashtirish adabiyot fani o'qituvchilarining o'quvchilarni mumtoz adabiyotga qiziqtirishi uchun zamin yaratadi.

Bu borada maktabning "Drama" to'garagi a'zolari bilan izlanishlar olib borish, buyuk mutafakkirlarimiz hayoti va ijodiga bag'ishlangan sahna asarlari bilan tanishish, respublikamiz teatr spektakllaridan kichik parchalarni AKT orqali ularga namoyish qilish, shu asosda maktab teatr sahnasida namoyish qilish uchun sahna asarini rejalashtirish maqsadga muvofiq. Shu ma'noda O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrining O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo asari asosida tayyorlangan "Alisherbek va Husayn" spektakli, Farg'ona viloyat musiqali drama teatrining O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati Muhammad Ali qalamiga mansub "Navoiy va Boyqaro" kabi sahna asarlarini o'quvchilar hukmiga havola qilishni tavsiya qilmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / S Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev.-T.: "Sharq", 2020. - 272 b.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
3. Muxtasar Toshmamatova. "Navoiy va Boyqaro". T.: Yangi O'zbekiston. 2021.

4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2011.
5. Qodirov V. Maktabda mumtoz adabiyotni o'qitish: muammo va yechimlar. T., 2009.
6. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. T.: Sharq, 1999.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA MAQOLATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA INSONIY FAZILATLAR BAYONI

Muzaparov Azizbek Ulugbekovich

Navoiy shahar 1-son ixtisoslashtirilgan
maktab-internati o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Hayrat ul-abror” dostonining ma’no nozikliklarini ochib berishda faol qo’llangan hikoya va maqolatlarning bugungi kunga oid tarbiyaviy ahamiyati xususida so’z yuritilgan. Maqola davomiyligida xulosaviy qarashlar ham o’z ifodasini topgan.

Аннотация: В данной статье говорится о воспитательной значимости рассказов и статей, которые активно используются для раскрытия тонкостей эпоса «Хайрат уль-Аброр». В продолжении статьи также высказаны заключительные мнения.

Annotation: This article talks about the educational significance of the stories and articles that are actively used to reveal the subtleties of the "Hayrat ul-Abror" epic. In the continuation of the article, concluding views are also expressed.

Kalit so'zlar: Tarbiyaviy maqsad, “Hayrat ul-abror”, obrazlar tizimi, odob falsafasi, Qur’oni karim, oyat, hadis, axloq.

Ключевые слова: Образовательная цель, «Хайрат уль-Аброр», система образов, философия нравов, Священный Коран, аят, хадис, мораль.

Key words: Educational purpose, "Hayrat ul-Abror, system of images, philosophy of manners, Holy Qur'an, verse, hadith, morality.

Buyuk shoir va mutafakkir Hazrat Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o’rin olgan o’lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go’zal insoniy fazilatlari bilan barchaga o’rnak bo’lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi barcha davrlar uchun dolzarbdir.

Alisher Navoiy asarlarini tadqiq etish, kompozitsion jihatlari, obrazlar tizimi, g'oyalari, shoir mahorati va ilmiy faoliyatini o'rganish, she'riy asarlarining mukammal nasriy matnini yaratish borasidagi izlanishlar turli davr adabiyotshunosligining dolzarb vazifasi hisoblangan. Shu jumladan, "Hayrat ul-abror" dostonini o'rganish, doston tarkibidagi hikoyatlar badiiyatini tahlilga tortish bir qator adabiyotshunos olimlarning diqqat markazida turgan.

"Hayrat ul-abror"ning ilmiy-tanqidiy matni borasida adabiyotshunoslar S.Muttalibov, P.Shamsiyev, A.Hayitmetovlarning ilmiy tadqiqotlari ahamiyatga molik. Bundan tashqari, A.Qayumov, N.Komilov, A.Abdug'afurov, I.Haqqulov va boshqa bir qator olimlar ijodida "Hayrat ul-abror" va undagi ilgari surilgan masalalar, insoniylik g'oyalarining tasvirlanishi, badiiy tasvir vositalari, obrazlar tizimi, muallifning timsol qo'llashdagi mahorati mohirlik bilan ochib berilgan.[1]

Ma'naviy merosimiz durdonalari orasida Navoiy ijodi alohida o'rin "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" dagi olti maqolat inson bezagi va ma'naviy boyligi bo'lgan insoniy fazilatlar ta'rafiga bag'ishlangan bo'lib, ular saxovat, odob, qanoat, vafo, ishq, rostlik va ilmlilik fazlidan bahs yuritadi. Shu bilan birga, ularning ziddi bo'lgan tuban fe'llar qoralanadi. Navoiy har bir bobda shu xislatlar to'g'risida alohida fikr bildirib, shunga mos ibratli hikoya ham keltiradi.

Buyuk mutafakkir dostonni yaratishda musulmon dinining muqaddas kitobi-Qur'on-u karim oyatlari va hadisi shariflardan o'rinli foydalangan va yuksak she'riy san'at namunalarini namoyish qilganini ko'rishimiz mumkin. Shoirning saxovat haqidagi qarashlaridan uning qanchalik islom dini va tasavvuf ta'limotini chuqur bilganligini anglash mumkin. Saxovat haqida fikrlar Navoiyning deyarli barcha asarlarida uchraydi, Masalan "Mahbub ul-qulub" asarida ham kasblar odobi haqida so'z yuritganda saxovatga alohida to'xtalib o'tadi.

Oni saxiy anglag'il, ey hushmand,
Kim oni davlat qilibon sarbaland.
Holi agar yaxshi durur, gar taboh.
Kimsadin etmas tamai molu joh.

Ushbu baytlar Qur'on karimning quyidagi oyati mazmuni asosida yozilgan: "Ular (taqvodorlar) farovonlik va tanglik kunlarida ham xayr-sadaqa qiladigan, g'azablarini yutadigan, odamlarni (xato va kamchiliklarini) afv etadiganlardir. Alloh ezgulik qiluvchilarni sevar" (Oli Imron, 134).

“Hayratul-abror” dostonining oltinchi maqolati odob va hayo ta’rifiga bag’ishlangan. Unda Navoiy ushbu xislatlar tufayli odam ulug’lik va kamolotga erishmog’i mumkinligi haqida so’z yuritib, so’zining isboti uchun oyni misol qilib keltiradi.

Chunki tavoze ga ham o’ldi hilol,
Bo’ldi fuzunroq anga har kun kamol.

Osmonda yangi ko’ringan oyga e’tibor qaratgan bo’lsangiz, xuddi bukilib ta’zim qilib turgan o’roq shaklida namoyon bo’ladi. U kun sayin kattalashib, nihoyat, to’lin oyga aylanadi. Shoir uning kamol topishiga ana shunday tavoze sabab bo’lganini go’zal tarzda ifodalagan. Inson qachonki bilim bilan to’lsa, oy kabi yorug’ bo’lishiga nozik ishoradir.

Shuningdek, Navoiy behuda kulgini hayosizlik belgisi sifatida qarab, odamlarni undan qaytaradi.

Tarki adabdin biri kulgudurur,
Kulgu adab tarkiga belgidurur.

Alisher Navoiy hayoni ta’riflash davomida quyidagi hadis mazmunini badiiy uslub bilan targ’ib qilganini ko’ramiz: “Abdulloh ibn Umar rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v) ukasini ortiqcha hayoli ekanligida ayblab, “Senga bu hatto zarar keltira boshladi!” deb turgan bir odamning yonidan o’tayotib: “Uni o’z holiga qo’y, hayo imondandir!” – dedilar. (ya’ni imon qanchalik kuchli bo’lsa, hayo ham shunchalik kuchli bo’ladi)”.

Mutafakkir qanoat xususida maxsus to’xtalganda bir tomondan “sabrning tegi oltin” degan xalq maqoliga ishora qilsa, ikkinchi tomondan Qur’oni karimning Oli Imron surasi 200-oyatini eslatadi:

“Ey, imon keltirganlar! Sabr qilingiz, bag’rikeng bo’lingiz va (Alloh yo’liga) taxt bo’lib turingiz va Allohdan qo’rqingiz, zora (oxiratda najot topsangiz)”.

Mazkur oyatda sabr-qanoatli bo’lishga targ’ib qilinib, sabr najot keltirishi ta’kidlansa, Navoiy qanoat orqali boylikka erishiladi, deb ikki dunyo saodatini nazarda tutadi:

Kimgaki ish bo’ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g’ani.

Ya’ni: Kimki qanoatni o’ziga kasb qilgan bo’lsa, bilki qanoat uni boy qiladi.

Bundan tashqari Navoiy farzandga to’g’ri tarbiya berishga ahamiyat qaratib, unga yoshligidan rostgo’ylik, va’dasiga vafo qilish kabi fazilatlarini o’rgatish bilan bir qatorda farzandni ilmi qilishga ko’proq e’tibor qaratish kerakligini alohida ta’kidlab o’tadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Hayrat ul-abror”ning biz tilga olgan maqolatlaridan inson uchun zeb-u ziynat hisoblangan fazilatlarini o‘rganishimiz mumkin. Navoiy chin insoniy fazilatlar –karam, odob, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilmlilik kabilarni yorqin badiiy bo‘yoqlarda tasvirlaydi. Ayni paytda bu fazilatlarini ziddi bo‘lgan baxillik, odobsizlik, tama, egrilik, yolg‘on va jaholat kabi axloqlarni qattiq qoralaydi. Bu hikoyatlar orqali biz yoshlar o‘zimizga ko‘p ibrat olsak bo‘ladi. Bunga qo‘shimcha qilib, Jaloliddin Rumiyning odob haqida aytilgan chiroyli fikrini keltirib o‘tmoqchiman. “Ey Musulmon! Odob nima deb so‘rasang, bilki, odob–har beodobning odobsizligiga sabr qilishdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Qayumov A.Asarlar. O‘n jildlik.1- jild,1-kitob. Toshkent.2008.
2. Abdug‘afurov A. Buyuk beshlik saboqlari.Toshkent.1995.
3. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. Toshkent.1989.
- 4.O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012.
- 5.Alisher Navoiy. Xamsa. 1-jild. Hayrat ul-abror. – T: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2006.

ALISHER NAVOIY MEROSINING YOSH AVLOD MA’NAVIY TARBIYASIDAGI O‘RNI

Vaxidova Dilfuza Raximovna

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani
67-maktabning ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlari barcha zamonlarda ham yosh avlodga vatanparvarlik, xalqparvarlik, do‘stlik kabi insoniy tuyg‘ularni shakllantirishga xizmat qilishi haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: komil inson, xalqlar do‘stligi, xalqni sevish.

Abstract. This article explains that the works of Alisher Navoi at all times serve to form human feelings such as patriotism, nationalism, friendship and humanity.

Keywords: Perfect people, friendship of nations, loving the nation.

Аннотация. В данной статье говорится, что произведения Алишера Навои во все времена служат формированию у молодого поколения таких человеческих чувств, как патриотизм, человеколюбия, дружба.

Ключевые слова: идеальный человек, дружба народов, любовь к народу.

Asrlar sinovidan o'tib kelgan Alisher Navoiy merosi milliy ma'naviyatimizning asosidir. Ayniqsa, yosh avlodning o'zligini anglashi, ma'naviy axloqiy kamolotida buyuk mutafakkirning boy va betakror ma'naviy merosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy bilan bizning oramizda 5 yarim asrdan ortiq davr yotadi. Ammo Mir Alisher Navoiy nomi aslo so'nmadi. U bu davr ichida borgan sari yuksak cho'qqilarni egallab, ulug' tog' kabi balandlikdan bizni ma'naviy yuksaklikka chorlab turibdi.

Navoiy shoirgina emas, olim ham edi. Navoiy o'z homiyligida tarixchilarni taraqqiy qildirdi, san'atshunoslikka, rassomlikka, haykaltaroshlikka rahbarlik qildi, til ilmining boshida turdi. Uning qo'l ostida juda ko'p shoirlar yetishib chiqdi

Navoiy jahon adabiyotida eng ko'p yozgan ijodkorlar qatorida turadi. Uning yaratgan dostonlari, g'azallari, til, san'at va boshqa masalalarga oid asarlari juda katta bir xazinadirki, aslo tugamaydi.

Navoiy xalqni, o'z vatanini har narsadan aziz ko'rar edi. U yaratgan obrazlar esa yoshlarda Vatanga muhabbat sezgisini uyg'otadi. Navoiyning fikricha, vatandan ajralishdan og'ir musibatli narsa yo'q. U "Sa'diy Iskandariy" da yozadi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama.

Mir Alisher Navoiy asarlari o'z xalqini vatanini sevish, xalqiga, vataniga sodiq bo'lish, uning dushmanlarini tor-mor keltirish g'oyalari bilan sug'orilgan. Navoiy o'z asarlarida odamning qanday bo'lmog'i kerakligini ko'rsatgan, nomardlik va bevafoqlikka qarshi kurashgan, muhabbat, do'stlik, sadoqat namunalari yaratib qoldirgan. Farhod va Shirin, Shopur, Layli va Majnun obrazlari shuning uchun ham xalqimiz qalbidan joy olib kelyapti.

Navoiy bizning ko'z o'ngimizda o'z yurtida tinch ijodiy ish bilan shug'ullanuvchi Farhod va Shirin kabi kishilarni suratlaydi. Ularning tinch hayotiga changal soluvchi Xisrav kabi bosqinchilarni ko'rsatadi, o'quvchini vatanparvarlikka undaydi va bosqinchilarga nafrat ruhida tarbiyalaydi. Navoiy Farhod timsolida komil inson obrazini yaratadi. Uni ilmda ham, hunarda ham, kuch-qudratda ham tengsiz qilib tasvirlaydi. Boylik, toj-u taxt esa uni zarracha ham qiziqitirmaydi. Shu bois Shirinninggina emas, butun xalqning sevgisiga sazovor bo'ladi va bo'lib kelmoqda. Xalq hamisha mana

shunday o'g'lonlari bo'lishini xohlagan. Bugungi kunda ham asarni o'qigan har bir yosh qalbida shunday fazilatlar egasi bo'lish orzusi jo'sh uradi.

Mir Alisher Navoiyni bizning zamonamiz uchun qadrlil qiladigan yana bir muhim jihat uning asarlarida xalqlar do'stligi g'oyalarning ilgari surilganidir. Navoiy o'z qahramonlarini chin, arman, arab kabi turli xalqlardan oladi, do'stlik, sadoqat, vafo, vatanparvarlik kabi eng ezgu tilaklarini ularda gavdalantiradi.

Navoiy asarlari o'z xalqi uchun fido bo'lish, o'z vatanini sevish, uning dushmanlarini tor-mor qilish g'oyalari bilan to'lgandir. Uning qahramonlari o'z xalqining tinch ijodiy turmushi uchun vatanga bostirib kelayotgan bosqinchi yovlarga qarshi kurashga chiqadilar. Navoiy o'z asarlari bilan besh yarim asrdan buyon ko'pgina nasllarni xuddi ana shu ruhda tarbiyalab keladi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulubda" vatan dushmanlariga rahmsiz bo'lish kerakligi, yomonlarga lutf-u karam qilishning yaxshilarga zarar yetkazajagi, mushuklarga rioya qilishning kabutarlarga ofat keltirajagi, shag'ol tomonini olishlik, tovuqlar tuxumini quritajagi haqida juda hikmatli so'zlar yozib qoldirgan:

"Yomonlarga lutf-u karam, yaxshilarga mujubi zarar va alam. Mushukka rioyat – kabutarga ofatdir. Shag'ol jonibin tutmoq – tovuq tuxmin quritmoqdir"

Xalq tinch bo'lsin, har qanday xavf-xatardan ozod bo'lsin – bu Navoiyning muqaddas tilagi edi. U "Hayrat ul-abror" da yozadi:

Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy xalqni sevmoq odamning eng yaxshi fazilatidir, deydi. Chunki xalqqa yaxshilik qilgan kishi, eng avvalo, o'ziga yaxshilik qilgan bo'ladi. Xalqqa yomonlik qilgan kishi, eng avvalo, o'ziga jabr qiladi, deydi. U "Hayrat-ul-abror" da xalqni osmonga o'xshatadi, osmonga tosh otgan kishining toshi qaytib kelib, uning o'z boshiga tegadi va uni qonatadi, deydi. Shuning uchun o'zingga ravo ko'rmagan narsangni xalqqa ham ravo ko'rmagin, deydi.

Navoiy odamlardagi to'g'rilik, muhabbat, sadoqat, vafo, do'stlik va botirlik xislatlarini egrilik, nomardlik, ikkiyuzlamachilik, qo'rqoqlik, nodonlik va xushomadgo'ylikka qarshi qo'yadi. U bularni shunchaki nasihat qilmaydi, balki obrazli qilib ifodalaydi. Natijada kishi qalbidan joy oladi, ongiga singib hayot yo'lga aylanadi. Navoiy asarlarini o'qigan insonlar iymonli, e'tiqodli bo'ladi, ota-onasiga, do'stiga, xalqiga hech qachon xiyonat qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy "Xamsa" G'.G'ulom nashriyoti. 2006- yil
2. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" "Yoshlar" nashriyoti 2018
3. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. "Sharq " nashriyoti. 2010-yil

NAVOIY IJODINING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI

Fayzulloyeva Dilrabo Rahmonovna

Buxoro shahar 29-IDUM oliy toifali
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va alloma Alisher Navoiyning asarlarining mazmun – mohiyati, ularning yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi muhim ahamiyati haqida so'z boradi. Aynan Alisher Navoiy ijodining yoshlar tarbiyasida ahamiyatga molik ijodiy me'rosi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buyuk, ruboiy, mutafakkir, ikki til, madaniyat, badiiy fikrlar, qabog', odob-axloq, bepoyon ummon, ma'naviyat, g'azallar, tarbiya, ilm, donolik.

Bir bolaga butun mamlakat,
Ba'zan esa qirq kishi kerak.
Beshiklardan tushib bolalar,
Navoiyni o'qishi kerak.....
(Sirojiddin Sayyid)

Buyuk mutafakkir, she'riyat mulkining sultoni Navoiy ijodi bamisoli cheksiz bir ummon, ushbu ummonga qancha chuqurroq sho'ng'isangiz shuncha ko'p inju terasiz. Shu sababdan ham Navoiy asarlari mana 6 asrdan buyon o'z qiymatini, betakrorligini yo'qotmagan. Navoiy asarlarini qanchalik ko'p o'qigan sari, o'rgangan sari, shuncha ko'p hayratga tushadi kishi.

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti taraqqiyoti va o'zbek adabiy tili ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ijodkordir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ulug' bobokalonimiz shaxsiyati va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi. Hazrat Navoiyning boy adabiy merosiga to'laqonli va haqqoniy yondashish imkoniga ega bo'ldik. U zotning ijodini yanada chuqurroq

o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar qilinyapti, ilmiy izlanishlar ko'lami yanada kengaymoqda. Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o'zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug' shoirning asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib Kichik Osiyogacha yetib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o'qishmoqda. Buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiyning boy va bebaho merosi asrlar mobaynida ajdodlarimizni ezgulikka, mehr-muruvvatga, tinchlik va do'stlikka da'vat etib kelgan.

Alisher Navoiy hayoti davomida yaratgan ijod yo'li, o'lmas merosi turkiy adabiyotga poydevor bo'ldi. Boqiy saroyidagi ulkan madaniy xazinasini "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Majolis un-nafois" kabi dur-u gavharlar bilan to'ldirdi. U turkiy tilga jon kirgizdi, qadri, hurmatini arab, fors tillaridanda yuqoriga ko'tardi. Ularni o'qigan insonlarni esa bevosita dengizga, ma'nolar ummoniga g'arq qiladi. Uzoq vaqt insonga xos tuyg'ular haqida o'y surishga majburlaydi. Rostgo'ylik va yolg'on, yaxshilik va yomonlik, saxiylik va xasislik, kamtarlik va manmanlik, ezgulik va yovuzlik kabi bir qator fazilat va illatlarni, oq-u qorani ajrata olishni, hayot yo'llarida uchraydigan mushkulotlardan osongina o'tishni Navoiydan o'rgana olamiz. Navoiy butun insoniyatga hayot yo'llarida ustoz, tarbiyachidir.

Allomaning asarlari nafaqat miqdor jihatidan, balki mazmun-mohiyati bo'yicha ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning badiiy va ilmiy asarlari yuzlab olimlar tomonidan o'rganilgan, tadqiq etilgan. Navoiy lirikasida odam va olam, hayot va uning go'zalliklari, mehnatsevarlik, go'zallikka shaydo qalblarning o'z Vataniga, yoriga bo'lgan otashin muhabbati ulug'lanadi. Adibning lirik asarlarida odam va olam, hayot va uning go'zalliklari o'quvchilarga ravon va sodda qilib yetkazib beriladi. Yosh avlodni ma'nan yuksaklikka erishishida atrofdagilarga doimo yaxshilik qilish, ezgulik urug'ini keng olamga tarqatish bu esa o'z navbatida o'ziga va oila a'zolariga yaxshilik bo'lib qaytishi haqida asarlaridagi qahramonlar, she'riy misralarida o'z ifodasini topadi. Masalan, «Nazm ul- javohir» («Gavharlar tizmasi») asari, asosan, tazavvuf g'oyalari orqali talqin qilinadi:

Farzand ato qilligin chu odat qilgay,
Ul odat ila kasbi ko'p rivoyat qilgay,
Har kimki atoga ko'p rioyat qilgay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilgay.

Adib otaga xizmat kilishning sharofatini birinchi ikki misrada ko'rsatib bermoqda. Keyingi misrada esa yana shu fikrga qaytilgandek ko'rinadi, ammo endi natijada ayirma bor. Har kim ekanini o'radi, deganlaridek, otaga qilingan hurmat va ehtirom, albatta qaytadi, ammo uni qaytaruvchi odam mutlaqo boshqa bo'ladi. Mana shu boshqa odam esa keyingi avlod vakili – otasiga yaxshi munosabatda bo'lgan o'g'ilning farzandlaridir. Mana shunday ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan Alisher Navoiyning barcha asarlari barkamol avlod tarbiyasida dasturul amal bo'lishi shubhasizdir.

Alisher Navoiy – axloq muallimi, komil inson tarbiyachisi. Hazrat ijodining har qirradi, xoh qit'a bo'lsin, xoh g'azal, balki ruboiy yoki hikmat, ularni mutolaa qilgan har bir kitobxonni barkamol shaxs bilan tanishtirishga, komillik sirlaridan boxabar qilishga undaydi. O'quvchilarning hayotini doimo ezgu va savob amallar to'ldirishiga bir misra hikmati ham muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash mumkin. 1-sinf o'quvchilari uchun O'qish kitobida keltirilgan: "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim", hikmati oddiygina misol bo'la oladi. Lekin shuning o'zi ham cheksiz ma'no kasb etadi. Shoir bolaga ilm berishni ona qornidaligidan boshlash zarur ekanligi bot-bot uqtiradi. Keyin esa biroz kechikish mumkinligi ta'kidlaydi.

Har bir xalqning tanazzuli yoki yuksalishi shu yurtda voyaga yetayotgan farzandlarning ilimi, bilimi, ma'naviy dunyoqarashi, urf-odat va milliy qadriyatlarga bo'lgan sadoqatiga bog'liqdir. O'z zamonasida Mir Alisher Navoiy madaniyat va san'at, ilm va ma'rifatning chinakkam homiysi sifatida shuhrat topadi. Navoiyning zamondoshi bo'lmish tarixchi Xondamirning yozishicha Navoiy o'z hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir nechta madrasalar va xonaqohlar qurdirib, ilm ahliga sarkorlik qilgan. Jumladan, Ixlosiya madrasi haqida hazrat homiyligida: "Ul joyning talabalari xotirjamlik ila ilm kasb qiladilar" - deydi. Mazkur jumlaning o'zi ham mavlononing ilm-fanga bo'lgan diqqat e'tiborining nechog'lik yuksak ekanligidan dalolatdir. Navoiyshunos ustoz-olim Ibrohim Haqqul "Navoiy badiiy ijod jabhasida qanchalik tengsiz bo'lsa, ilmda, ya'ni olimlikda ham shunchalik benazir", - deydi. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov aytganidek, "Navoiy oddiy ertakchi shoir emas, uning har bir ifoda obrazi, lavha va tamsillarida muayyan umumfalsafiy, kayhoniy-ilohiy ma'no bor".

Allomaning mukammal asarlar to'plami ilgari ham nashr etilgan, biroq o'sha davrdagi mafkura nuqtai nazaridan asarlardagi butun-butun boblar tushirib qoldirilgan. Mustaqillik yillarida Navoiyning yigirma jildli mukammal

asarlar to'plamini to'laligicha chop etish ishlari yakuniga yetdi. Har yili navoiyshunos olimlar tomonidan yangi-yangi ilmiy maqolalar, risolalar yaratilmoqda. Demak, Navoiyni o'rganish, uni yanada chuqur anglash borasidagi izlanishlar izchil davom etmoqda. Alisher Navoiy hazrat ijodiyotini bepoyon ummonga qiyoslash mumkin. Uning tubida behisob javohirlar bisyor. Biroq Navoiy olamini hali-hanuz to'la zabt etolganimiz yo'q. Merosini o'rganish asnosida har doim yangidan-yangi kashfiyotlar qilish mumkin.

Navoiy yilning to'rt fasliga qiyos qilib, o'z umrini to'rt bosqichga ajratadi. Bolalik, yigitlik, o'rta yoshlik va keksalik. Bolalik 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, yigitlik 20 yoshdan, 35 yoshgacha, o'rta yoshlik 35 yoshdan 45 yoshgacha, keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha. Shunga binoat devonlar ham quyidagicha nomlanadi:

1. "G'aroyib-us sig'ar" - bolalik ajoyibotlari,
2. "Navodir-ush shabob" - yigitlik nodirliklari.
3. "Badoyeo-ul vasat" - o'rta yoshlik badiyliklari,
4. "Favoyid-ul kibar" - keksalik foydaliklari.

Yosh avlod tarbiyasida Navoiyning o'lmas merosi muhim o'rin tutadi. Hozir ba'zi yoshlar orasida jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik singari illatlarning kuzatilayotgani ma'lum darajada Navoiydan uzoqlashganimizning achchiq mevasidir. Bunday muammolarga barham berish uchun Navoiy hikmatlarini yosh avlod ongiga bolalikdan singdirib borish kerak. Navoiyni tushunish, tushuntirish uchun uni sevish, sevdirish lozim. Menimcha, yosh avlod qalbida Vatanga, millatga muhabbatni shakllantirishda ham Navoiy asarlarining o'rni katta. Navoiyning nafaqat ijodi, balki sermazmun hayoti ham yosh avlod uchun namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi, haqiqatparvarligi barchamizga o'rnak bo'lishi lozim. Navoiy ijodi esa barchamizni ogohlikka, ezgulikka, kamtarlikka undaydi. Mana bu purhikmat satrlarga e'tibor bering:

Bahrdin qatrag'a ta'zim ila tahsin ko'rdim, Mehrdin zarrag'a e'zoz ila ehson topdim. Ya'ni, dengizdagi tomchiga ta'zim ila tahsin qilganini ko'rdim, quyoshning zarraga e'zoz va ehson ko'rsatganiga guvoh bo'ldim, deganlar. Shu baytning o'ziyoq hazratning insoniyatni kamtarinlikka, adolat va insofda da'vat etganini ko'rsatadi. Biz haqli ravishda Navoiyni milliy ong va shuurimizning ulug' charog'boni va ilhomchisi deya olamiz.

Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Asarlaridagi Farxod va Shirin, Layli va Majnun kabi ko'plab qaxramonlari yoshlarimizning sevimli qahramonlariga aylangan. Bu qahramonlar orqali o'quvchilar ulardagi mehnatsevarlik, o'z muhabbatiga vafo, xalqni ulug'lash va

ular bilan doimo birga bo'lish, atrofdagilardan o'z yordamini ayamalik, vatanparvarlik, tilni va millatni qadrlash kabi ezgu fazilatlarini ko'radilar va ulardan o'rganadilar. Xulosa qilib aytsak, Navoiyning umrboqiy merosi el va elatlarni ezgulik, poklik, haqiqat atrofida jipslashtirishga qodir bo'lgan bebaho boyligimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Sharq» n, 1998.
2. Adabiyot darsligi. 10 -sinf «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Toshkent 2017.
3. A.Navoiy. Nazm ul -javohir Toshkent. 2014
4. Tarbiyaviy soatlar ishlanmasi. O'qituvchi 2013.

YOSHLARNING INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI

Xayitova Muhabbat Abdurashidovna,

Buxoro shahar 12-IDUMning 2-toifali
ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi, magistrant

Annotatsiya. Mazkur maqolada, eng mashhur mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning asarlarining mazmun, mohiyati, va ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati haqida gaplar keltiriladi va shuningdek maqolada, Bobur hayoti va yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda tasavvufning o'rnini va ahamiyatini "Boburnoma" va boshqa mualliflar tomonidan yozilgan qisqa asarlar orqali tanishtirish maqsadga muvofiq bayon etilgan. Uning tasavvufiy mazmuniga oid vakillarining maqbul munosabatlari ham belgilangan. Shuningdek, Naqshbandiya tarqatining buyuk shayxlari va shoirlari hayotlarida tasavvufning ahamiyatli o'rnini ilmiy dalillar asosida isbotlashgan.

Kalit so'zlar: Buyuk, Navoiy, mutafakkir, ikki til, madaniyat, badiiy fikrlar, odob-axloq, ezgulik, mustaqil, g'azallar, ruboiylar, Bobur, shayx, "Boburnoma" tasavvuf, naqshbandiya.

Аннотация. В данной статье говорится о содержании и сути произведений самого известного мыслителя и поэта Алишера Навои, их значении в воспитании молодого поколения, а также в этой же статье о месте и значении суфизма в развитии интеллектуального и духовного развития. Соответствующим образом объясняется потенциал Бабура и «Бобурномы» и других представлений в небольших произведениях,

написанных авторами. Определены также допустимые отношения ее представителей относительно ее мистического содержания. Также великие шейхи и поэты Накшбанди доказали важное место суфизма в своей жизни на основе научных данных.

Ключевые слова: Навои, мыслитель, два языка, культура, художественные идеи, манеры, добродетель, независимый, газели, рубайы, Бабур, шейх, «Бабурнома», суфизм, Накшбандия.

Abstract. This article talks about the content and essence of the works of the most famous thinker and poet Alisher Navoi and their importance in educating the young generation, and in the same article, the place and importance of Sufism in the development of the intellectual and spiritual potential of Babur and the “Boburnoma” and other introduction through short works written by the authors is explained appropriately. Acceptable relationships of its representatives regarding its mystical content are also defined. Also, the great sheikhs and poets of the Naqshbandi distribution proved the important place of Sufism in their lives based on scientific evidence.

Key words: Navoi, thinker, two languages, culture, artistic thoughts, manners, virtue, independence, ghazals, Rubaiyyah, Babur, sheikh, "Baburnoma" Sufism, Naqshbandiya.

Hozirgi kunda, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tavalludi 583 yil to'g'risidagi xatolik tuzatilgan bo'lib, 24-fevral sana etib belgilangan. Shuningdek, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tavalludi 541 yilga to'g'ri keladi va 6-fevral sana bo'lgan. Bu, ularning buyuk va mustaqil yaratqan shaxsiyatlarining yilligi haqida to'g'ri ma'lumotlardir.

Ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak darajadagi joylashishiga ega. Ular beshinchi asr boshlaridan so'ng kelgan va ularning boy ma'naviy merosi butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezgulik, insonparvarlik, sahovat va mehr-muruvvat nurini taratib kelmoqda. Bugungi kunda ta'lim va tarbiyaning tashqi nuqtaiy nazaridan muvofiqligini ta'minlashda adabiyotimizning mashhur shoirlarining asarlari orqali ijodini o'rganishning, yoshlarimizning rivojlanishida tarbiyaviy ahamiyatini ma'nosiz ko'rsatish haqida fikr mulohazalaymiz.[1]

Alisher Navoiy, o'zbek adabiyoti taraqqiyoti va o'zbek adabiy tili ravnaqiga katta hissa qo'shgan ajoyib ijodkoridir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bizning ulug' bobokalonimizning shaxsiyati

va ijodi tubdan o'zgardi. Hazrat Navoiyning boy adabiy merosi, to'laqonli va haqqoniy yondashish imkoniyatiga ega bo'ldik. U, zotning ijodini yanada chuqur o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar qilmoqda; bu esa ilmiy yondashuvlar ko'lamini yanada kengaytiradi. Bu buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning boy va bebaho merosi asrning o'rtalarida ajdodlarimizga ezgulikka, mehr-muruvvatga, tinchlik va do'stlikka chaqirishga xizmat qilgan.[2]

O'rta asrlar o'zbek adabiyoti, qolaversa, tasavvufning milliy ma'naviyati tarixidan ayri bo'lib o'rganib bo'lmaydi. Bobur hayoti, e'tiqodi va ijodi ham shu ta'limotda, xususan, uning tasavvur qilish qiyin bo'lgan naqshbandiya tariqatisiz. Bobur fenomeni, tasavvufning o'ziga xos hosilasi bo'lib, naqshbandiya tariqati ikki asr davomida o'sayotgan taraqqiyotni mahsul qilgan. Temuriy shoh va shahzodalarning tasavvuf pirlariga yetishishi ham aniq tarzda Amir Temurdan boshlanadi. Temuriylar daima tasavvuf pir-u murshidlari rahmatiga sig'inishib, o'zlarini shayxlar sharofati bilan yuksak darajalarga olib kelganlar. Tasavvuf temuriylar uchun ma'naviy panoh bo'lgan bo'lib, Navoiyning asarlari, ayniqsa, "Nasoyim ul-muhabbat va shamoyim ul-futuvvat" tazkirasida Temur va temuriyzodalarning tasavvufga, bevosita shayxlarga munosabati haqida yoritilgan ma'lumotlar mavjud.[3]

Bobur davrining ahvoli odatda murakkab bo'lib, hokimiyat uchun kurash yo'lidagi ota-o'g'il munosabatlari ham shu jihatdan murakkab edi. Temuriy shoh va uning ko'plik qismi, Xoja Ahror va uning avlodlari bo'lib, tasavvuf vakillarining bu jang jadallardan chetda turishlari qiyin edi. "Boburnoma"da Xoja Ahror avlodlari temuriylar taxt uchun kurashishadi, bir-biriga qarshi tomonlarga qo'llangan bo'lib, bu haqda ham yozilgan. "Mullo Binoiyni va Muhammad Solihni Xoja xizmatida ko'rdum. Muhammad Solihni o'shul bir qatla-o'q ko'rdum" deb yozilgan qo'llanma, o'zbek va tojik adabiyoti uchun bu ikki vakilning shu zamonda naqshbandiya piri himoyasi ostida turishini aniq ko'rsatadi.[4]

Yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda Alisher Navoiyning qadrini ko'rsatish muhimdir. Hozir ba'zi yoshlar ichidagi jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi illatlarni kuzatishning ko'p bo'lganligi, buning achchiq sababi Navoiyning o'lmas merosining muhimligi hisoblanadi. Bu muammolarga duch kelish uchun, yosh avlod Navoiyni asarlarini o'rganishga intilishi lozim. Navoiyning fikrlarini tushunish va ulug'lash, uni sevib, sevdirmoq bu maqsadga xizmat qiladi. Menimcha, yosh avlodning qalbida vatanga va millatga muhabbatni rivojlantirishda ham, Navoiy asarlarining ahamiyati juda katta.[5]

Biz Alisher Navoiyni milliy kuch va shuursizning e'tiqodli ko'ngli va ilhomchisi sifatida ko'ra olamiz. Navoiyning o'rnatgan ilmiy-adabiy merosi juda ulkan darajada hayratga sazovor. Shoirning epik asari "Xamsa", to'rt lirik devoni "Xazoyin-ul maoniy", falsafiy dostoni "Lison-ut tayr", tarixiy asarlari "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", adabiyotshunoslik asari "Mezon-ul avzon", "Majolis-un nafois", tilshunoslik asari "Muhokamat-ul lug'atayn", axloqiy-falsaviy asari "Maxbub-ul qulub", tasavvuf tarixiga oid "Nasoyim-ul muhabbat", ruboiy majmuasi "Nazmul javohir", diniy mavzudagi "Arbain", "Sirojul muslimin", xotiralar "Xamsatul mutah-xayirin", "Holoti Said Hasan Ardasher", "Holoti Paxlavon Muxammad", maktublar to'plami "Munshaot", vaqfiy ishlar haqida "Vaqfiya" va boshqa bir qator asarlari, xalqimizning ma'naviy-madaniy atrofidagi qimmatli yodgorliklaridir.

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, Alisher Navoiyning o'zbek xalqining umr bo'yi merosi, el va elatlarni sevgi, tinchlik, va haqiqat atmosferasida yoritishga ajoyib qodir bo'lgan bevafo farishtasi hisoblanadi. Ilm esa hayotning o'zi kabi cheksizdir. Shuningdek, Bobur lirikasida tasavvuf g'oyalari talqini – alohida tadqiq talab qiladigan mavzu. Biz bu masalaga ma'ruza doirasida munosabat bildirdik va shu bilan cheklanamiz. Tarixdan yaxshi bilamizki, ayrim hukmdorlar taxtdan voz kechib, darveshlikni qabul qilgan. Masalan, Ibrohim Adham hayoti bu misolga yorqin namoyon bo'la oladi. Suvratda shoh, siyratda darvesh bo'lish Zahiriddin Muhammad Bobur hayotdagi falsafiy maslagi edi va u bunga erishdi ham. Keltirilgan faktlar va dalillar shunday xulosaga kelishga asoslanadi. Demak, shoh va shoirning shaxsiy hayoti, e'tiqodi va ijodi tasavvufdan ajralib turish, tushunish va tushuntirish uchun hech qanday iloji yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adabiyot darsligi. 10 –sinf «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Toshkent 2017.
2. A. Navoiy. Nazm ul –javohir Toshkent. 2014
3. Tarbiyaviy soatlar ishlanmasi. O'qituvchi 2013.
4. Султон ул-орифин Хожа Аҳмад Яссавий. Тошкент: Фан. Навоий, Алишер. 2001.
5. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 17. Тошкент: Фан. Зоҳидов, Пўлат. 2006.
6. Меъморлик. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 12. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Б о б у р, Заҳириддин Муҳаммад. 1960.

7. Бобурнома. Тошкент: Фанлар академияси. Истиқлол садоси, 2006 йил, 13 февраль. Қораев, Шерхон. 2016.

8. “Бобуршоҳ мўъжизалари”. Мўъжизавий дунё, 18 февраль. Ислом энциклопедия. 2004. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

NAVOIY IJODIY MEROSINING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI

Sulaymonova Mavjuda Rustamovna,

Buxoro viloyati Romitan tumani

7-IDUMning oliy toifali ona tili va

adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada “shamsul millat”, buyuk shoir Alisher Navoiy ijodi yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, barkamol avlodning ma’naviy-axloqiy dunyosini shakllantirishdagi ahamiyati hamda ijodkorning hikmatga aylangan baytlarining mazmuni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ulus, muruvvat, intellektual, axloqiy qarashlar, ruboiy, hadis, shoir maslagi.

Аннотация. В статье говорится о «шамсил миллате», деятельности великого поэта Алишера Навои в повышении интеллектуального потенциала молодежи, о важности формирования духовно-нравственного мира зрелого поколения, о содержании мудрых стихов поэта.

Ключевые слова: улус, доброта, интеллектуально – нравственные взгляды, рубаи, хадисы, советы поэта.

Abstract. The article talks about “shamsil millat”, the great poet Alisher Navoi's work in increasing the intellectual potential of young people, the importance of forming the spiritual and moral world of the mature generation, and the content of the artist's verses that have become wisdom.

Key words: ulus, kindness, intellectual, moral views, rubai, hadith, poet's idea.

Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda xalqimiz ma’naviy dunyosining yuksalishiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ shaxs, donishmand mutafakkir Alisher Navoiy merosini chuqur o‘rganish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyatini, uning yosh avlodimiz intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu

asosda Yangi O'zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o'rni va ta'sirini inobatga olib, Navoiy ijodini o'rganish va ilmiy tahlili bo'yicha so'nggi yillarda qator taniqli tadqiqotchilar ish olib borayotganligi, bugungi kunda ham uning ijodiy merosi ko'pgina olimlarimizni ilhomlantirib kelayotganligi barchamizga ayon.

Avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri, shoirlar sultoni bo'lgan, millatimiz quyoshi sanalgan, yurtimiz dovrug'ini butun olamga yoygan ulug'allomamizning mashhur 51 ming misradan ortiq "Xamsa", 42 ming misradan ortiq "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat-ul lug'atayn", "Lison-ut tayr", "Tarixi muluki Ajam", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon" va boshqa shoh asarlari harjihatdan yuksak ahamiyatga, qudratli kuch va jozibaga egadir.

Mashhur shoir Erkin Vohidov o'zining "Shoir-u she'r-u shuur" asarida ulug' mutafakkir haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Biz bugun Alisher Navoiy nomisiz o'zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. Uning nurli she'riyati, yorug' siymosi ruhimizga singib ketgan. Shoirning yuksak badiiyat bilan muzayyan bo'lgan, chuqur insonparvar g'oyalar bilan yo'g'rilgan ijodi asrlar osha bizni hanuz o'ziga rom qiladi, ko'ngillarimizni zavq-u shavq hamda iftixor tuyg'ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrati bilan boyitadi, bizni adolat uchun, inson qalbining mangu erki uchun kurashmoqqa chorlaydi".

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq barcha fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Shoirning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. Alloma odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Axloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir".

Ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlaydigan asosiy fazilat sifatida shaxsni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaradigan vosita -najot sifatida ko'rsatadi. Asarlari mazmunida singdirilgan g'oyalar olami orqali insonni ilmi bo'lishga chaqiradi. Ma'rifatli bo'lishni, bilim olishni har bir kishining insoniy burchi ekanligini uqtiradi. Binobarin, ilm o'rganishdan maqsad ham raiyatning baxti-saodati, davlatning obodonligini ta'minlashning poydevoridir deya ta'kidlaydi. Ilmi kishilargina o'z xalqining manfaatlari va mamlakati ravnaqi uchun kurashishiga ishonch bildiradi. Buni Farhod timsolida ham qisqa fursatda xalq uchun ariq qazib, suv chiqarganida ko'rishimiz mumkin.

Bobokalonimizning asarlarida inson ma'naviyatini tozarishga, ruhini boyitishga xizmat qiladigan fazilatlar o'zgacha talqinda tarannum etiladi.

Kim ko'rdi ekin jahondin oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq?!
Yuz yilda agar bir o'lsa paydo xushluq,
Omodadurur yonida yuz noxushluq.

Ushbu ruboiyda shoir bizga nasihat qilmaydi, bu dunyoda yaxshilik ko'rgan kishi bormi, yaxshilik qilaman deb niyat qilgan kishi topilarmikan deya o'z-o'zidan so'raganday bo'ladi. Yuz yilda bir marta yaxshilik paydo bo'lsa, orqasidan yuz yomonlik kelishini yoza turib, zimdan o'quvchini dunyo tashvishlari, mushkulotlari", turfa gunogun"liklaridan esankiramay o'z maslagi yo'lida davom etishlarini ta'kidlaydi. Ammo ruboiy zamirida yaxshilikning go'zal fazilat ekanligi ko'rinib turibdiki, azaldan dunyo shunday qarama-qarshiliklardan, oq va qora kunlardan tarkib topganligiga ishora qiladi. Shu bois yaxshilik kutib umidvor bo'lmaslikka, hayot qanday bo'lsa shundaylicha sevishga chorlaydi.

1. Alisher Navoiy". Badoye ul- bidoya" Yoxud mana bu ruboiy:

Gar oshiq esang, zeb-u takallufni unut,
Yaxshi-yu yomon ishda taxallufni unut.
O'tkan gar erur yamon -taassufni unut,
Kelgan gar erur yaxshi -tasarrufni unut (1)

Misralarida ham yuqoridagi mazmun davom etadi, shoir maslagi tazod badiiy san'ati (yaxshi-yomon so'zlari) asosida dalillanib, Olloh yo'lga kirgan chin oshiq ortiqcha bezak va soxtaliklardan xoli bo'lishi kerakligini uqtiradi. O'quvchilarni hayot sinovlariga bardoshli bo'lishga, sabr bilan qiyinchiliklarni yengib o'tishga chorlaydi.

Taqdiringdagi yaxshi-yomon ishlarga qarshiliging bekorligini, yomon kunlaringga afsuslanishni unutishni, yaxshi narsalarga bir umr egalik(tasarruf)ni unutish darkorligini ta'kidlaydi. Zero, o'z matlabi yo'lida sobitqadam, halol, chin inson uchun bu- eng to'g'ri yo'l. Umuman, u yaxshilik va yomonlikning o'zaro kurashi kabi abadiy muammoni unutishi lozim deb hisoblaydi.

Bilamizki, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiychalik turkiy adabiyotda ko'p ruboiy yozgan ijodkor bo'lmagan. Uning 400 ga yaqin o'zbekcha, 100 ta forscha ruboiy yozgani ma'lum. Faqat miqdor jihatdan emas, balki badiiyat jihatdan ham eng go'zal turkiy ruboiylarni yaratdi. Bu janrni she'riyatimizning eng asosiy janrlari qatoriga olib chiqdi hamda uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Ijodkorning ruboiylari badiiy jozibadorligi, hayotiy

muammolarning qalamga olinishi, falsafiy mushohadalarning rang-barangligi, tuyg'ularning favqulodda ta'sirchan qilib ifodalanishi bilan ajralib turadi.

Navoiy g'azallarida ham insoniy fazilatlar, yaxshilikka da'vat asosiy o'rinda turadi.

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay

Talmeh san'ati (Ka'ba so'zi vositasida) qo'llangan mazkur baytda "bir ko'ngil imorati-ming Makka ziyorati" degan mazmun keltirilib, ko'ngli buzuq-g'arib, mazlum, yo'qsilning holidan xabar olmoq, unga yaxshilik qilmoq musulmonlarning muqaddas qadamjosi – Ka'bani obod qilishga qiyoslangan.

Demak, ulug' ustod bechoralarning hojatini chiqarmoq, ularga yordam qo'lini cho'zmoq Haj amali savobidan-da, hatto Ka'bani obod qilishdan-da afzalroq ekanligini ta'kidlab, bayt zamiriga vayron-obod leksemalari vositasida tazod san'atini singdirganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Mir Alisher Navoiy ijodida oila, farzand tarbiyasi kabi mavzularda ham hikmatli so'zlarni uchratamiz.

Zoda murid-u otani pir bil,
Har ishida hukmig'a ta'sir bil.

Baytda otani pir-ustoz deb, farzand, ya'ni zoda unga murid shogird sifatida bilishimiz kerakligi, padarning har bir buyrug'iga bo'ysunish lozimligi ifodalangan. Haqiqatdan, insonning dunyoga kelishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, ma'naviy kamolotida bu zot hayot narvoni kabi xizmat qiladi.

1. Alisher Navoiy. "Badoye ul- bidoya"

Navoiy ijodini o'qir ekanmiz, unda Qur'on va hadisi shariflarimizning bevosita ta'sirini kuzatamiz. (Zero, bu davr adabiyotini shunday manbalarning ta'siri bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi.)

Nafing agar xalqqa beshak durur,
Bilki, bu naf o'zungga ko'prak durur

"Hayrat ul-abror" asaridan olingan ushbu misralarga hamohang "Odamlarning yaxshirog'i ularga foydalirog'idir" deya atalgan hadis yodimizga tushadi. Kishining xalqqa qilgan foydasi o'ziga qilgan nafi - yaxshiligi ekanligini ijodkor sodda usulda tushuntiradi. Demak, o'quvchilarga jamiyatda o'z o'rnini topish uchun xalqqa manfaati yetadigan, foydasi tegadigan kishi bo'lib yetishishga undaydi. Shuningdek, o'rinsiz kulgini bir qator tamsillar asosida keltirib, uning inson "tarki adab" ning ko'rinishi deb baholaydi.

Qahqahadin kabk navo keltirub,
Boshig'a ul kulgu balo keltirub.
Barqni kulgu yiqibon tog' aro

Balki qilib yer quyi tuprog' aro

Kabk-kaklik qahqahasi boshiga balo keltirdi, barq-chaqin tog'da qattiq kulgani bois tuprog' ostiga kirib ketdi. "Ko'p kulish ko'ngullarni o'ldiradi" degan hadis ham mavjud. Navoiy yuqoridagi baytlar orqali hadisimizga vobasta ibratomuz fikrlarni hayotiy misollar asosida dalillagan. Ushbu misralar orqali shoir o'quvchini odob doirasida muomala qilishga chaqirib, huda-behuda kulish yaxshi xislat emasligini ifodalab beradi.

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,

Ahvolida idbor nishoni bil oni.

Fe'l ichra ulus baloyi jon bil oni,

Olam elining yomon yomoni bil oni.

Jamiyatda kishilar bir-birlari bilan do'st-inoq va hamjihat bo'lib yashamas ekanlar, o'z orzu-niyatlariga erisha olmaydilar, yolg'izlik bilan hech qanday ish qilib bo'lmaydi, shuning bois ham ijodkorbarcha insonlarni do'st bo'lib yashashga chorlaydi. Yuqoridagi ruboiyda elning koriga yaramagan, hamma undan qochadigan, tabiatida yomon xislatlar bo'lgan insonlarni xalq uchun "baloyi jon" deb bilib shunday xislatli insonlardan bo'lmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy do'stlikni ulug'laydi, shu bilan birga soxta, g'araz bilan do'st bo'luvchi kishilarni qoralaydi. Shu o'rinda "Ikki vafoliyor" hikoyati mazmuni orqali o'quvchilarda do'stga sadoqat, va'daga vafo, o'limga muqarrar kelganda ham do'stga uni ravo ko'rmaslik g'oyalarini targ'ib qiladi va ularga beixtiyor "yuqtiradi"

Xalparvar shoir umr bo'yi yurt obodonligi, raiyat farovonligi yo'lida xizmat qilib, ko'plab xonaqoh, shifoxona, madrasalar bunyod etgani, "navosiz ulusning navobaxshi" bo'lib el dardiga malham bo'lib kelgani tarixiy asarlardan ma'lum.

"Salotin" bobidan olingan mazkur baytni ko'raylik:

Boqmasa dehqon chamanin tun-u kun,

Naxli tarin angla qurug'on o'tin.

Yurt podshosi dehqonning kasbi bilan qiyoslangan holda u chamanini-vatanini boqmasa, qaramasa, yosh ko'chatlari (yosh avlod) o'tin bo'lib qurishini baralla aytadi. Vatanparlik, Vatan timsoli shoir asarlaridan qizil ip yanglig' yaqqol ko'rinib turadi. Kishining o'zga yurtdagi makoni oltin qafas ichidagi gul bulbulga to'la ma'noda quvonch bag'ishlamasligini Navoiychalik hech qaysi shoir xotiramizda badiiy topilmalar asosida dalillay olmagan. Hozirgi kunda yot g'oyalar ta'siriga berilib, turli ekstremistik oqimlarga qo'shilgan, o'z Vatanidek ma'vo yo'qligini bilgan, pushaymon bo'lgan ayrim yoshlarimiz uchun mazkur ruboiy unutilmas saboq, o'git hisoblanadi.

Umuman olganda, buyuk ustoz Navoiy asarlarining har bir sahifasida xalq, ulus, raiyat kabi so'zlar mehr, muruvvat, oqibat, saxovat kabi so'zlar bilan yonma-yon keladi. Ehtimol, shu bois ijodkor ijodi umrboqiylik kasb etib, asrlar osha zavol bilmay kelayotir. Navoiyning umrboqiy merosi el vaelatlarniezugulik, poklik, haqiqat atrofida jipslashtirishga qodir bo'lgan boyligimizdir. Shu merosni kelajagimiz davomchilariga butun holda yetkazish, shoir asarlarining mag'zini chaqishga, baytlardan zavq tuyishga o'rgatish biz - ona tili ustozlarning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – UrDU, 2008. – B.57.
2. A. Navoiy. Hayrat ul-abror. G'.G'. nashriyoti. T.-2020
3. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Fan. -T.2007
4. Sultonmurod Olim. Navoiy yoshlarga. Abu matbuot-konsalt.T.-2008
5. Hayitov Sh. Kaykovus va Alisher Navoiy talqinida qalb tarbiyasi.
6. Til va adabiyot ta'limi. 2005 -yil 2-son

NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MARIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Hamroyeva Mohinabonu Hasan qizi

Vobkent tuman 29 – umumiy o'rta ta'lim
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy va Bobur ijodiy merosining ma'naviy-marifiy ahamiyati va barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni hamda mahalliy va xorij olimlari tomonidan Navoiy va Bobur ijodining o'rganilishi va tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, diniy aqidaparastlik, komil inson, "to'g'rilar sarosimasi", Bobur ijodida Vatan mavzusi, kelajak avlod.

Zahiriddin Muhammad Bobur shoirlik mahoratini buyuk so'z ustasi Alisher Navoiydan o'rgandi, uning an'alarini davom ettirdi va rivojlantirdi. U rang-barang, lisoniy jihatdan boy, musiqali, badiiy ifodali she'rlar, samimiyligi, tabiiyligi bilan kishilarni quvontiruvchi doston asarlar yaratdi. Yoshlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburdan o'z yurtiga muhabbat, uning qadriga yetish, asrab-avaylash va himoya qila bilish, zohidlik va fidoyilik, sadoqat va fidoyilikni o'rganishi kerak.

Qaysidir shoirning ijod olamini o'rganar ekanmiz, bevosita bu jarayonda shoir shaxsiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan tomonlarini ko'rishimiz

mumkin. Navoiy ijodiyoti haqida soʻz yuritganimizda esa albatta, uning ustozlari ijodiyotining taʼsir kuchini eʼtirof etish kerak. Alisher Navoiy badiiy olamini bir gulzor deb bilsak, bu gulzordagi gullarning turfa boʻylari taratishida uztoz shoirlarning oʻrni alohida. Buni Navoiy har bir asarlarida ustozlarini alohida eʼtirof etganligida koʻrish mumkin. Navoiy Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmoh Jomiy, Lutfiylarni oʻziga ustoz, pir deb bilgan va oʻz yutuqlarida xizmatlarni takror-takror aytib oʻtadi. Navoiyga ana shunday maʼnaviy-marifiy taʼsir oʻtkaza olgan zamondoshi, ustoz-shoir Abdurahmon Jomiyning alohida tilga oladi, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning oʻsha davrdagi munosabatlarini ustoz-shogird aloqalarining eng chiroyli, eng namunali koʻrinishi deyish mumkin.

Chunki, Jomiy Navoiyning ustoz, ijodiy hamkori, piri va sirdosh doʻsti edi. Navoiy va Jomiy aloqalarini, ijodiy hamkorligini, shaxsiyatini oʻz har ikkala shoirning adabiyot yangiligini ishlab chiqarishning namoyon boʻlishiga, har ikkala xalqning adabiy meʼrosini boyitishga hizmat koʻrsatadigan yuksalish hosil qiladi. Navoiy va Jomiy oʻzaro aloqalar, aloqalar toʻla-toʻkis oʻrganib boʻlindi deyish nooʻrindir. Jumladan, sud birinchi uchrashuvi va ijodiy faolyatining qachondan oʻzgarishi va bugi bazi qarashlar va fikrlar xali toʻliq asoslanmagan boʻlib, noaniq, mavhumligicha qolmoqda. Bu qarashlarni Navoiy va Jomiy, ular oʻrtasidagi aloqalar toʻgʻrisida bazi olimlarning adabiyot fikrlarini koʻrishimiz mumkin. Ustoz-shogird, Navoiy va Jomiy haqida maʼlumot yuklab manba Navoiyning oʻz asarlaridir. Bundan Mirobodxonning “Ravzat us safo”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarlaridan, XX asr oʻzbek adabiyotshunoslaridan, Vohid Abdullayevning “Tanlangan asarlar” (2002 y), Botirxon Valixoʻjayev “Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi” (T- 1993), Navoiyning oʻzi ham oʻz asarlarida aniq eʼtirof etgan oʻrinlar koʻzga tashlanmaydi.

Xalqimiz madaniyati va adabiyoti tarixida buyuk Alisher Navoiyning zamondoshi Zahiriddin Muhammad Boburning alohida oʻrni bor. Yirik davlat arbobi, tarixchi, ajoyib shoir va nosir edi.

Boburning ijodiy merosi juda katta, lekin uning asarlari ichida hajmi jihatidan ham, ahamiyati jihatidan ham, shubhasiz, “Boburnoma” birinchi oʻrinni egallaydi – bu asar tarkibidagi materialning qimmatini va taqdimot uslubi boʻyicha tengi yoʻq. U butunlay mustaqil, boshidan oxirigacha originaldir. “Boburnoma” muallifi gʻoyat isteʼdodli, xilma-xil manfaatdor, nozik aql va buyuk iroda sohibi boʻlganidan dalolat beradi. Bu kitobda Bobur oʻz davrida oʻzi guvohi boʻlgan voqealar haqida toʻgʻri soʻzlab beradi. Shunday qilib, oʻsha davr hukmdorlaridan biri Sulton Husaynning 1494-yilda Hisorga

qilgan yurishini hikoya qilib berar ekan, u bizga nafaqat solnomachi, balki iste'dodli harbiy tahlilchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Sulton Husaynni Xisravshoh qal'asini qamal qilish paytidagi qat'iyatsizligi, natijada Husaynning kichik bir shahzoda tomonidan mag'lubiyatga uchrangani uchun tanqid qilib, Bobur kuchlarni birlashtirish va bir paytlar qudratli mamlakatni oxiriga yetkazgan ichki nizolarni tugatish zarurligi haqida gapiradi. qulash. U kelajak avlodlarga murojaat qilib, barcha kuchlarni birlashtirish orqaligina dushmanni to'xtatib, ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ta'riflab yozadi.

Bobur ijodida Vatan mavzusi birinchi o'rinlardan birini egallaydi. Shoir bir umr ajralgan Vatanini ishtiyoq bilan sevardi.

Afg'oniston va Hindistonda bo'lgan ko'p yillar uning xotirasidan ona yurtining yovvoyi daryolarini, tog' oldi qishloqlari salqinligining maftunkorligini o'chira olmadi. Shoir chuqur iztirob va iztirob bilan xitob qiladi:

Musofir yurtda – va albatta, inson unutiladi!

Inson faqat o'ziga chin dildan achinadi.

Sarguzashtlarimda men bir soat davomida quvonchni bilmadim!

Odamlar hamisha aziz Vatan uchun motam tutadilar.

(L.M. Penkovskiy tarjiması)

1994-yil 4-oktabrda Islom Karimov Andijon shahridagi Bobur nomidagi milliy bog'da bo'lganida "Xotira kitobi"da quyidagi so'zlarni yozgan edi: "Zahiriddin bobomiz nomi bilan cheksiz faxrlanishimiz kerak. Muhammad Bobur. U o'zbek xalqini butun dunyoga ulug'ladi, tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylashga, buyuk kelajakka ishonch va ishonch bilan qarashga o'rgatdi".

O'zbek xalqining buyuk farzandlari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bugun yoshlarni ma'nan yetuk shaxs etib tarbiyalashda qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.15. "Xamsatul mutahayirin". - T.: Fan,

2. M.: Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.." Abdurahmon Jomiy "Bahoriston". T.: Yangi asr avlodi, 2007y,88-b Abduqodir Hayitmetov" Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qarashlari".

3.Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.

4. Valixo'jayev B., Tohirov Q. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI asr. – Sam.: SamDU nashri, 2002.

5. Abdug'afurov A. Bobur she'riyati. Bobur. Devon. -T.: Fan, 1994, 3-14 – betlar.

6. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIXasr I yarmi) - Toshkent, Fan, 2006. -240 b.

7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. -T.: Fan, 1994

ALISHER NAVOIY “XAMSA”LARIDA DARAXTLAR BILAN BOG'LIQ OBRAZLAR POETIK DINAMIKASI

Rustamova Gavhar Bahron qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Umarova Gulshoda Ixtiyor qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada so'z mulkining sultoni, hazrat Alisher Navoiyning “Xamsa” va “Xamsat ul-matahayyirin” asarlaridagi daraxtlar bilan bog'liq obrazlar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: daraxtlar obrazi, sarv, shamshod, Nori ayman, dinamik poetika, poetik ko'chim.

Turkiy xalqlar she'riyati tarixini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning ijodiy merosi o'zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she'riyatning davomi bo'lish bilan birga barcha zamonlardagi o'zbek she'riyatining eng yuksak cho'qqisi hamdir.

Navoiy «Xamsa»sining yaratilishi o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi eng katta voqealardan biri bo'ldi. Navoiyga qadar hech kim o'zbek tilida bunday ulkan asar yozishga jur'at eta olmagan edi. Navoiy «Xamsa»sining yana bir muhim xususiyati shundaki, undagi dostonlarni mustaqil asarlar sifatida o'qish, qabul qilish ham mumkin, bir butunlikda tushunish ham. [1]

“Xamsa” tarkibidan o'rin olgan “Layli va Majnun” dostonining uchinchi bobi Muhammad payg'ambar (s.a.v) madhiga bag'ishlangan. Bu bobda Navoiy Muhammad payg'ambar (s.a.v)ni risolat sipehri (payg'abarlik osmoni)ning quyoshi deb atab, Odam Atoni uning daraxtidagi mevaga o'xshatadi.

Odam shajaringg'a meva monand,

Farzandingga olam ahli farzand. [2]

Shuningdek, dostonning IX bobida Muso payg'ambarga ko'ringan nurli bir daraxt – **Nori ayman** nomi tilga olinsa, X bobda inson “Hayot uskunasi

eskirib, umri daraxti yiqilishga mayl etganda yonida go'zalligi sanavbar guli kabi yangi ko'korgan niholi (farzandi) bo'lishi" kerakligi ta'kidlanadi:

Kim, eskiribon hayoti raxti,
Mayl etsa yiqilg'ali daraxti
Naxl bo'lg'ay yopida navbar,
Ra'nolig'i o'ylakim sanavbar. [1]

"Xamsa"ning to'rtinchi dostoni "Sabbayi sayyor"da Navoiy tasvirlashicha, payshanba kuni shu kun homiysi Mushtariy (Yupiter) rangiga mos sandali qasrda shoh Bahrom Muqbil va Mudbir haqidagi qissani tinglaydi. Unga ko'ra Muqbil va Mudbir Boxtar degan joydan Xovarga yo'l oladilar. Bu ikki obraz taqdir taqozosi bilan o'rmonga duch keladilar. Shu yerdagi bir daraxt kovagida buloq bo'lib, u yerda buning suvini ichgan odam mutlaqo ochiqmaligi, suvsamasligi va yolg'on gapirsa, yorilib o'lishi yozilgan bo'ladi. Muqbil va Mudbir bu suvdan to'yib ichib olganlari uchun yozuvni o'qisalar, buloq suvida boshi bilan sho'ng'ib cho'milgan odam g'aroyib voqealarni ko'rishi aytilgan ekan. Faqat rostgo'y odam cho'milsa mumkin, yolg'onchi esa kuyar ekan. Natijada, suvga Mudbir tusholmaydi, Muqbil buloqqa sho'ng'ib, bir qasrga duch keladi, u erda bir mahvashga oshiq bo'lib qoladi... O'ziga kelib, suvdan chiqqanida esa oshiq bo'lgan go'zal ishqida o'zini yo'qotib bexud bo'ladi. Muqbil va mudbir qirg'oqqa kelsalar, yuir kemaga duch keladilar. Bu kema sandal daraxti yog'ochi bilan to'la bo'lib, odamlari o'lib yotardilar. Gap shundaki, Xovar mamlakati shohi qizi kasalga chalingan bo'lib, tabiblar unga sandal daraxtidan yasalgan qasrda yashash davo degani uchun ko'plab savdogarlar shu daraxt yog'ochlarini olib kelayotganlarida dengizda po'rtanaga tushib, chiqolmay, ochdan o'lgan edilar. Ular qirg'oqqa borganlarida Xovar shohiga duch keladilar. Mudbir o'zini savdogar, kema egasi, Muqbilni qulim, deb tanishtiradi va shu zahoti yorilib o'ladi. Muqbil esa bor gapni yashirmay aytib beradi. Shoh uni o'ziga kuyov qilishni xohlab, to'y beradi. Malikaning qasriga borgan Muqbil xuddi buloqda ko'rgan holatiga duch keladi: sandal qasr, go'zal qizlar va... o'sha u sevib qolgan mahvash. Keyin ma'lum bo'ladiki, bu go'zal Xovar shohining qizi bo'lib, unga jinlar shohi oshiq bo'lgan ekan. Lekin qizga etisholmagan jinlar shohi o'sha orolda daraxt kovagidagi buloqda qizning suvratini, uning qasrining nusxasini paydo qilib, o'zini ovutib o'tirarkan. Muqbil shunga duch kelgan ekan. Shu tariqa Xovar shohining go'zal qizi va rostgo'y Muqbil vaslga erishadilar.

Navoiyning piri, ustoz Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag'ishlangan "Xamsat ul-mutahayyirin" ("Besh hayrat") asarining birinchi maqolatida keltirilgan voqeada **sarv** daraxtlari kesilib qurilishga olib ketilayotgani bilan

bog'liq holat tilga olingan. Aravada qurilishga sarv daraxtlarini olib ketilayotganini ko'rgan Jomiy aravakashdan sarv daraxt qoldimi, nechta yog'och olib ketyapman, deb mutoyiba bilan savol bersa, bir yuz to'rtta deydi. Navoiy adad, axir, sarv yorning qaddiga qiyosdir, "qad" so'zining adadi ham bir yuz to'rttdir deydi. Jomiy Navoiyning zakovatiga qoyil qoladi.

Muxtasar aytganda, Navoiy «Xamsa»si bo'yicha ilmiy tekshirish, izlanish olib borish har bir davr uchun yangi mavzu bo'lib qolaveradi. Navoiy o'z «Xamsa»si bilan o'zbek adabiyotini, jahon adabiyoti yuksakligiga ko'tardi va o'zi ham ulug' dostonnavislardan Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy qatoridan o'rin oldi.

NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Shodmonova Mohinur Ulug'bek qizi

G'ijduvon tumanidagi 8-sonli maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun yoshlariga tarbiya berishda, ularning ma'naviy salohiyatini oshirishda Alisher Navoiy va Bobur ijodidan foydalanish, didaktik ruhdagi baytlarni talqin va tahlil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ruboiy, bayt, "Hayrat-ul abror", "Farhod va Shirin", g'azal, didaktika, "Boburnoma", iymon, ezgulik.

O'zbek adabiyoti jon tomirlarida ko'pirgan qon bo'lib oqqan, milliy nazm va nasrga o'zgacha hayot, o'zgacha ruh baxshida etgan, nodir durdonalari – bebaho asarlari asrlar bilan bo'ylashadigan daho va faylasuf shoir Hazrat Navoiy ijodini buyuk bir ummonga qiyoslash mumkin. Bu bahri muhitga har sho'ng'iganda yana bir noyob dur-gavharni topish, kashf etish, anglash mumkin.

Hazrat Navoiy ijodida ishqiy g'azallar talaygina. Albatta, bu g'azallarda ilohiy va majoziy ishq ulug'langani hammamizga ayon. Bugun to'xtalmoqchi bo'lganimiz esa daho shoirning didaktik ruhdagi she'rlaridir. Chunki Sharq eli azaldan farzandiga nasihat yo'li bilan tarbiya berib keladi. Ulug' Navoiyning shunday misralari borki, ularning mavzusi, mazmun-mohiyati yillar to'zonida yo'qolib ketmaydi, asrlar bo'ronidan omon chiqadi, zamonlar oshsa ham, o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bu o'lmas adabiy meros bugungi kun yoshlarining

ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishda muhim dasturulamal bo'lishi shubhasiz.

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim erur yorlig' ish.

So'nggi yillarda turli davlatlar, xalqlar o'rtasida chiqayotgan nizolar, bo'layotgan ko'ngilsizliklarga javoban ulug' xitobdek yangraydi bu bayt. Ya'ni, ey olam ahli, bilingizki, dushmanlik qilish yaxshi ish emas! Bir-biringiz bilan do'st bo'ling. Ana bu – eng yaxshi ish! Navoiyning bu satrlari dunyodagi millatlar va elatlarni tinch-totuv yashashga chorlagan oltin misralardir.

So'zdurki, nishon berar o'lukka jondin,
So'zdurki berur jonga xabar jonondin,
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

Bu ruboiyda hazrat bobomiz umr bo'yi ardoqlab, qalb daftariga inju misol tizgan SO'Z haqida fikr yuritadi. Ya'ni inson va hayvonni farqlab turuvchi asosiy jihat bu so'z ekanligi va dunyoda so'zdan ortiq muqaddas gavhar yo'qligi ta'kidlangan. O'z o'rnida sinchkov kishi shunday ulug'langan muqaddas so'zning qudratini his etadi va bu qudratni behuda sarflamaslik kerakligi shu satrlarda uqtirilayotganligini anglaydi. Buyuk Navoiy yana bir bayti orqali so'zning mo'tabar ekanligini aytadi:

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,
Ko'rma, kim der ani, ko'rgilkim ne der.

Ya'ni so'zlayotgan kishiga emas, uning gapirayotgan gapiga e'tibor ber, deydi Navoiy.

Bobomiz so'zni ulug'lagani holda gapirganda rost so'zlash o'ta muhimligini ko'plab asarlari orqali ta'kidlaydi. "Hayrat ul-abror" ning bir maqolatini shu mavzuga bag'ishlaydi ham.

Har kishiningkim so'zi yolg'on esa,
Aylama bovar nechakim chin desa.

Ya'ni, kimki faqat yolg'on so'zlayversa, u rost so'zlasa ham ishonma. Demak, rostgo'ylik- ulug'fazilat.

Hazrat Navoiy ijodida ota-onani, ustozlarni hurmat qilish, ardoqlash va e'zozlash zarurligi, bu zotlarning naqadar buyukligi alohida e'tirof etilgan o'rinlar ko'p uchraydi.

Boshni fido ayla ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-kuningga aylagali nurfosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Shoir inson o'z ota-onasi uchun kerak bo'lsa, boshini, jismini sadqa qilmog'i, ularni tun-u kunni yoritguvchi oy va quyosh deb bilmog'i lozimligi uqtiriladi.

Ulug' Navoiyning yana bir shunday buyuk bayti borki, ustozlar madhini tilga olganda uni eslab o'tmaslikning iloji yo'q. Chunki bu satrlar necha yillardan buyon tolibi ilmlar, ustozlarning sevimli shiori bo'lib yangrab kelmoqda:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas aning haqqin ado yuz ganj ila.

Ya'ni Alloh yo'lida senga harf o'qitgan inson haqqini yuz xazina bilan ham ado eta olmaysan. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ustoz maqomini ko'tarish to'g'risidagi islohotlarga buyuk bir xitobdir bu bayt.

Vatanimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekan, ularni har jihatdan barkamol, ma'nan yetuk, teran fikrli, salohiyatli va bilimli qilib tarbiyalash oldimizda turgan eng muhim masala hisoblanadi. Hazrat Navoiyning odamiylik, iymon, ezgulik, adolat to'g'risidagi qarashlari yorqin aks etgan quyma satrlari bunda bizga qo'l keladi, albatta. Yana shuni ta'kidlash joizki, Navoiy komil inson to'g'risidagi orzu-istaklarini "Xamsa"ning ikkinchi dostoni bo'lmish "Farhod va Shirin"dagi Farhod obrazida namoyon qiladi. Tug'ma ishq bilan dunyoga kelgan Farhodning ahdida sobitligi, yuksak dunyoviy va diniy bilimlari, teran aqli, o'tkir zehni, mislsiz hunarlari, o'z nafslari ustidan hokimligi- bularning barchasi bugungi yoshlarga ibrat bo'ladigan fazilatlaridir. Navoiy Farhodni har jihatdan pok va axloqan go'zal ekanligini quyidagi misralarda tizadi:

Demonkim, ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok,
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok.

Albatta, Hazrat Navoiy Farhodga ta'rif berayotganda kelgusi yosh avlodning uningdek komil bo'lishini, har jihatdan yetuk farzandlar bo'lib, Farhod misoli barkamol inson sifatida ko'rishni orzu qilgani shubhasiz.

Hazrat bobomiz "Hayrat ul-abror" da inson uchun eng asosiy fazilat iymon ekanligini ta'kidlab, ODAM atalmish barcha zotni iymonli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni aning imon erur.

Bu bayt mazmunini bugungi kun yoshlari ongiga chuqur singdirish va uni to'g'ri targ'ib etish joiz. Hazrat Navoiy iymonli deganda gunohlardan xoli, vijdonli, insofli insonni nazarda tutgani, ya'ni qalbida iymoni bo'lgan shaxs Ollodan qo'rqishini, o'zligini anglashini, har qanday gunohdan tiyila olishini yosh avlodga yetkazishimiz kerak.

O'zbek adabiyotidagi yana bir ulug' asar "Boburnoma" shoh va shoir Bobur bobomizning eng ulkan va nodir merosidir. Turli sohaga oid bilimlarni o'zida jamlagan bu qomusiy asarda Bobur yillar davomida taqdirning unga qilgan tuhfa-yu, qismatining qaro kunlarini, umrida kechirgan taloto'plarini yoritish bilan birga farzand tarbiyasi yo'lidagi qarashlarini ham aks ettiradi. Xususan, o'g'li Humoyun bilan bog'liq voqea va nasihatlarini batafsil ta'riflaydi. Chunki Bobur farzand tarbiyasi masalasida ham idrokli ma'rifatparvar, talabchan ustoz maqomidagi padardir.

Humoyunga yozgan xatida uning yozuvidagi nuqsonlar, uslubidagi kamchiliklarni qayd etadi; hukmdorga xos xilvatparastlikni tanqid qiladi; ko'p bilan ishlash, beklar bilan shug'ullanish, kengashish shartligini uqtiradi.

Hazrat Boburning bir qancha ruboiylari va g'azallarida ham insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Ilm olish, yaxshilik qilish, Vatanni sevish kabi xislatlarni tarannum etadi.

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilm tolibi ilme yo'q,
Men bormen, ilb tolibi, ilm kerak.

Bu ruboiyda shoir yoshlarga qarata ilm egallash kerakligini, ilm har doim inson hayotida shart va zarurligini baralla aytadi. Bir g'azalida shunday yozadi:

G'aflat uyqusidin uyg'on, gar tilar bo'lsang murod,
Kim yetar maqsadg'a har kim, bo'lsa ul bedorroq.

Bunda maqsadiga yetishmoqchi bo'lgan inson kamroq uxlab, shu niyati yo'lida bedor bo'lib mashaqqat chekishi kerakligi, ana o'shanda murodigaga tezroq yetib borishini ta'kidlaydi. Bu esa bugungi kun yoshlarining shioriga aylansa arziydigan satrlardir.

Bobur umri davomida ko'plab nohaqliklar, adolatsizliklar, jabr-zulmning guvohi bo'lgan esa-da, yaxshilik qilishdan qaytmaydi va barchani ezgulikka chorlaydi. Uning besh asrdan buyon yangrab kelguvchi buyuk g'azali borki, qalblarga yaxshilik urug'ini qadashning eng shoirona va go'zal ko'rinishidir u:

Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.

Albatta, Bobur va Navoiydek buyuk daholarimizning ijodiy merosi ma'naviyat va ma'rifat yo'lida umrimiz so'qmoqlarini yoritguvchi muhim mayoqdirki, ularni o'rganish, o'rgatish va amal qilish ma'nan yetuk va salohiyatli, barkamol yoshlarni tarbiyalashda eng samarali vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


- 1.Navoiyga armug'on. To'plam, VI kitob. Toshkent, 2010
2. Bobur, Boburnoma. Toshkent, 2008
- 3.9-sinf Adabiyot, darslik. Toshkent, 2019

ALISHER NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY –MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Yusupova Shohista Hasanovna,
Buxoro viloyati Kogon shahar 9-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola buyuk shoirlarimiz: g'azal mulkinging sultoni deya ta'riflanmish Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi munosabati, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod tarbiyasida ular ijodiy merosining o'rni borligini nazarda tutib,muallifning ayrim qarashlari aks ettirildi.Bugungi texnika asrida farzandlarimiz ongiga ta'sir etayotgan salbir nuqtalar tilga olindi.

Kalit so'zlar: Turkiy til, turkiy adabiyot, ma'naviy meros, mumtoz adabiyot, texnika, ezgu ishlar



**Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Nurli bu ko'zlarga ikki buyuk zot.**



Xalq nomini mangulikka muhrlagan elning shunday faxr etsa arzigulik farzandlari borki, bunday ijodkorlarning nomi ular mansub bo'lgan xalq nomi bilan tarixda qoladi. Bunday buyuklar qatorida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur nomlarini tilga olsak, ayni muddao bo'ladi

Zero, muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'tgan 2020-yil 23-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk marotaba o'zbek tilida nutq so'zladi, Navoiy tilidagi mazkur chiqish milliy tilimiz,milliy

davlatchiligimiz uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini va bu orqali Onatlimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirgani, shu til istiqboli,shu yurt farzandlarining ertangi istiqbolidan dalolatdir.

Dunyo jamoatchiligining e'tiborini tortgan bu nutqqa nisbatan ayrim davlat rahbarlari o'z munosabatini bildirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy tilida gapirganini xotirlash fikrimizning haqqoniy isbotidir.

O'tgan olis tarix guvohlik berishicha, turkiy til, turkiy adabiyotning rivoji uchun ulkan hissa qo'shgan ikki buyuk daho:so'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur boy ma'naviy merosi nafaqat turkiy adabiyotni, balki butun dunyo ahlini hayratga solib, insonlar qalbiga, ong-u tafakkuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat va mehr nurlarini sohib kelmoqda.

Salkam olti asr o'tgan bo'lsa-da, bugun insoniyat siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy taraqqiyotni jadallik bilan bosib o'tayotgan ayni damlarda kishilik jamiyatining ma'naviy - axloqiy yuksalishi uchun asos bo'lgan Sharq mumtoz adabiyotining go'zal namunalari bilmog'i, o'rganmog'i, chuqur badiiy tahlil orqali tub mazmun-mohiyatiga yetmog'i darkor nazarimda. Boisi ko'hna tarix bizga achchiq haqiqatlardan saboq beradi, to'g'ri yo'lga chiqib olishda shamchiroq vazifasini o'taydi. Qolaversa, yosh avlod qalbida insoniy xislatlar,go'zallik nish urib, kelajakda bu unib o'sishi hatto atrofga ham ezgulik taratishi mubolag'a emas.

Bugun ayni kunlarda tavalludi bois bot-bot tilga, qalamga olinayotgan hazrat Alisher Navoiy va davlat arbobi Bobur ijodiy merosini o'rganish nafaqat sana munosabati bilan, balki ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksiz qismiga aylanmog'i zarur. Chunki, inson hayotining go'zal mazmuniy qiyofasida bu ikki ijodkor qalamidan sizib chiqqan haroratli ohanglar bo'lakcha qimmatga ega.

Har ikkala ijodkor sharafiga yurtimizda ancha e'tiborga molik ishlar qilingan. Biroq Navoiy va Bobur orzusidagi yosh avlod bugun texnika asri sifatida qaralayotgan turli rusumdagi qurilmalar (telefon, planshet, noutbuk) domiga berilayotgani sir emas. Boz ustiga bularning imkoniyati mislsiz darajada kengayib, farzandlarimiz, o'g'il-qizlarimiz ma'naviy axloqida, tarbiyasida salbiy ta'sir ko'rsatishidan bugun barcha ota-onalar, ustozlar xavotirda. Fikri ojizimcha, yosh avlod qo'lidagi telefon, planshetlarning strukturasiga, ichki imkoniyatlariga olimlarimiz tomonidan o'zgartirish,yangilik joriy etilib, Alisher Navoiy, Bobur va yana ko'plab ma'rifatparvarlarning ezgulik, yaxshilikka chorlovchi hikmatlari, purma'no

so'zlari joy olsa. Shunda farzanlandlarimiz ong-u shuurida, tafakkurida o'zgarish sodir bo'lsa ajabmas.

Darhaqiqat, har ikki ijodkor dunyo adabiyoti tarixida juda katta o'rin tutadi, xalqparvar davlat arbobi sifatida jamiyatda tutgan yuksak mavqeyi jihatdan ham, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot ahliga ko'rsatgan homiyliги jihatidan ham o'xshashi yo'q siymo. Ular bugun ildizlari qadimiy, jon tomirlari yuksak o'zbek xalqining milliy iftixoriga, adabiy, ma'naviy kamolot timsoliga aylangan. Ana shu iftixor tuyg'ularini yosh avlod qalbiga singdirish, ularning boy ma'naviy merosidan zavqlanish ko'nikmalarini shakllantirish kabi muhim tadrijiy jarayonlar amalga oshirmog'i lozim. Zero, bugungi zamon qiyofasi misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etib borayotgan ekan, kelajak avlodni ajdodlar ruhiga sodiq farzandlar qilib tarbiyalash biz pedagoglar, tarbiyachilar zimmasidagi ma'sulyatli jarayon ekanligini anglatadi. Bu borada ustozlarimizdan katta bilim: dunyoviy qarashlar, mafkuraviy evrilishlar, zamon andozalariga mos malaka va ko'nikmalarni har kun, har daqiqa o'zlashtirib borishni talab qiladi.

So'zim yakunida millatimiz faxri, ko'hna tarix beshigini tebratib, hali yana ko'p yillar, asrlar osha adabiyot ixlosmandlariga xamirturush vazifasini bajara oladigan buyuk ma'rifatparvar, mag'zi to'q satrlari ila qalblarda mangu yashay oladigan hazrat Navoiy va Bobur ijodini o'rganish borasida ko'p ishlar qilingusi albat. Oilada, maktab-bog'chalardan tortib, to davlat idoralarigacha Navoiy, Bobur ijodini o'rganishga, haftada ma'lum bir kunda ular qalamidagi misralar yodiga e'tibor qaratish lozim. Shu orqali millat kelajagi qalbida, dunyoqarashida buyuklar maqsadi, maslagi ildiz otsa, yangi iste'dodlar dunyoga kelishi, qanchadan qancha nihollar yurt ravnaqi uchun chinorga aylanmog'i haqiqat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev.BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqi.2020-yil
- 2.Sh. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". 2022-yil
- 3.M. Muhiddinov va H. Eshonqulov. "Navoiy ijodining yangicha ilmiy talqinlari".
- 4.Farrux Majidov. "O'tmishsiz kelajak yo'q" .11-avgust 2017 -yil

NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MARIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarning ilmiy va ijodiy merosining yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyati, hamda ularning asarlaridagi didaktik ruh ochib berilgan.

Kalit so'zlar: muruvvat, pand-nasihati, oliyanoblik, mehr-muruvvat, insoniylik, xamsachilik, komil inson, saxovat.

Annotation: This article reveals the role and importance of the scientific and creative heritage of Alisher Navai and Zahiriddin Muhammad Babur in the life of young people, as well as the meaningful spirit in their works.

Key words: kindness, admonition, nobility, kindness, humanity, kindness, perfect person, generosity.

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение научного и творческого наследия Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура в жизни молодежи, а также дидактический дух в их творчестве.

Ключевые слова: доброта, увещание, благородство, доброта, человечность, доброта, совершенный человек, щедрость.

Ilm-fan, ta'lim va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda talimtarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ta'lim-tarbiya masalasi Sharq xalqlarida azaldan yetakchilik qilgan va hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Sharq madaniyatida didaktik masalalar yoritilgan so'fiyona ruhdagi asarlar hazrat Navoiy nomi bilan bog'liqdir.

XV asrning ikkinchi yarmida mumtoz adabiyotimiz go'yoki porlagan quyoshdek charaqlagan Mir Alisher Navoiy bilan o'zining yangi pog'onasiga ko'tarilib oldi. Uning ham nasriy, ham she'riy asarlari birdek tan olinib, sevib mutolaa qilindi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik va zabardast vakillaridan biri shakshubhasiz Navoiy va Bobur hazratlaridir. Bu ikki siymo ma'naviyatimizning bamisli so'nmas quyoshi sifatida ardoqlanib kelinayotgan aziz va barchamiz uchun ardoqli shoirlardir. Alisher Navoiy va Boburning nafaqat adabiyot

sohasidagi, balki davlat boshqarish, ma'naviyatni yuksaltirish borasida ham barchamizga o'rnak bo'ladigan tomonlari ko'p, albatta.

Navoiy siymosini aqlimizda gavdalantirar ekanmiz, bevosita uning asarlaridagi bosh qahramonlari bilan birga yod olamiz. Aytaylik, Farhod, Shirin, Layli-yu Majnun, Baxrom va boshqalar. Navoiy o'z xarakter-xususiyatini, fe'lidagi o'ziga xosliklarni o'zining bosh qahramonlari xarakteriga ham singdirgan.


Nasriy asarlari haqida so'z borganda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, Navoiy ijodi o'zidan oldin yashagan Dehlaviy, Ganjaviy, Jomiy, Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqa shu kabi ulug' allomalar ijodidan ozuqa olgani va tayangani sir emas. Bu haqda Navoiyning o'zi asarlari tarkibida ta'kidlab o'tib ketadi. Mutafakkirning muayyan bir axloqiy fazilat targ'ibiga bag'ishlangan asarlari ortida ana shu fazilatni eng avvalo o'zida shakllantirgan va kamolga yetkazgan Navoiy shaxsi turadi. Shu sababli Navoiy asarlariga psixobiografik yondashuv, ya'ni ularni muallif shaxsiyati orqali o'qish va uqish muhim. Bu yerda gap faqat psixobiografik metod imkoniyatlarining zamonaviy adabiyotshunoslikda ilmiy asoslangani va tan olinganida emas. O'z ijodiga nisbatan ilmiy tayyorgarlikning o'zi yetarli emasligi, asarlarini tushunishda muallif shaxsiyati va ruhiyatini tanish va his etish zaruratini Navoiyning o'zi ham ta'kidlaydi.

Navoiy ijodining markazida inson va unga bo'lgan ulkan muhabbat yotadi. Bu masalada Navoiy asarlari va shaxsiyati o'rtasida parallel o'tkazish buyuk mutafakkirning benazir ma'naviy olami va ijod dunyosiga chuqurroq doxil bo'lishga zamin yaratadi.


Shu sababdan Navoiy asarlari bugungi kunga qadar chet davlat kutubxonalalrda ham saqlanib kelinmoqda. Quyida Fransiya kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy asarlari qo'lyozmasini ko'rishimiz mumkin.




Первый лист списка — 3 а



Последний лист Предисловия — 4.33 а



Последнее Предисловие, в списке 33 б-34 а, переписано после переписки в Гавоне и Ужмере дата 882 — 4.34 а



Копия предисловия к поэме «Нахсанида» в списке 34 б, переписано в Ужмере после переписки в Гавоне и Ужмере дата 882 г.к.

Zahiriddin Muhammad Boburga keladigan bo'lsak, bu shaxs ham o'z navbatida Navoiydan keying o'riinda turuvchi buyuk ma'rifatparvarlardan biri hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburni tarixda nafaqat buyuk hukmdor balki, o'zidan boy adabiy-memuar meros qoldirgan adib sifatida ham bilamiz. U o'zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy-memuar, tarixiy-ilmiy asar "Boburnomani" yaratgan. Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida "Boburnoma" alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o'zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy – tarixiy, ilmiy–tabiiy va adabiy lingvistik ma'lumotlar xazinasidir. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning tarjimai holi, asosan, "Boburnoma"da yoritilgan. Shoirning o'z qo'li bilan, ona tili – turkiy (eski) o'zbek tilida yozilgan bu kitob o'zbek adabiyoti tarixida tarjimai hol adabiy shaklning mukammal namunasi bo'la oladi.

O'tmish adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. "Boburnoma" da ilm – fan, san'at va adabiyot ahllariga ham katta o'rin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Husayn Udiy kabi qator shoirlar va san'atkorlar haqida ma'lumot beradi, ularning asarlardan namunalar keltiradi, ba'zan hayoti, faoliyati va shaxsiy sifatleri haqida qiziqarli faktlarni keltiradi. "Boburnoma" bu kishilarning hayoti va faoliyatini o'rganishda, ularning madaniy hayotdagi o'rnini belgilashda juda ahamiyatlidir.

Navoiy va Bobur haq ato etgan tengsiz iste'dodi tufayli hidoyatdan nur olgan o'lmas g'oyalarni nafosatga to'liq shakllar bag'riga jo etish bilan birgalikda o'zi surgan olijanob g'oyalarga hayotda so'zsiz amal qilgani uchun ham ijodkor, ham shaxs sifatida buyuklik maqomiga erishdi. Navoiy va Boburning mukammal asarlari ortida uning mukammal shaxsi turadi. Aynan shu sabablar uchun ham biz mutafakkirlarimiz hayot va ijod yo'lini puxta o'rganishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 172 b.

2.Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.
– T.: O'zbekiston, 2009. – 40 b.

3.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" G'G' Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.

4.Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar G'Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.

5.Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari.
– T.: Yangi asr avlodi, 2011.

6.Yusupova D. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri).
O'quv qo'llanma. – T.: Akademnashr, 2016.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI INTELEKTUAL MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI

Bozorova Nozigul Ramazonovna

Buxoro Innovatsiyalar universiteti

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada buyuk o'zbek shoirlari va mutafakkirlari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining boshlang'ich maktab ta'limi kontekstidagi o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ushbu mualliflar asarlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual va ma'naviy rivojlanishiga ta'siri tahlil qiladi. Ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish asosida o'zbek adabiyotining mumtoz asarlarini maktab o'quv dasturiga kiritish bolalarning madaniy dunyoqarashini kengaytirish, ta'lim natijalarini yaxshilash va qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga yordam beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, boshlang'ich ta'lim, intellektual rivojlanish, ma'naviy rivojlanish, o'zbek adabiyoti

Аннотация. В статье рассматривается роль и значение творческого наследия великих узбекских поэтов и мыслителей Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабур в контексте начального школьного образования. Анализируется влияние произведений этих авторов на интеллектуальное и духовное развитие учащихся младших

классов. На основе обзора научной литературы делается вывод о том, что включение классических произведений узбекской литературы в школьную программу способствует расширению культурного кругозора детей, улучшению образовательных результатов и формированию ценностных ориентиров.

Ключевые слова: Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, начальное образование, интеллектуальное развитие, духовное развитие, узбекская литература

Abstract. The article examines the role and significance of the creative heritage of the great Uzbek poets and thinkers Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur in the context of primary school education. The influence of the works of these authors on the intellectual and spiritual development of elementary school students is analyzed. Based on the review of scientific literature, it is concluded that the inclusion of classical works of Uzbek literature in the school curriculum contributes to the expansion of children's cultural horizons, improvement of educational results and the formation of value orientations.

Key words: Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, primary education, intellectual development, spiritual development, Uzbek literature

Mumtoz adabiy merosni o'rganish va saqlash masalasi zamonaviy voqelik kontekstida alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturiga muvofiq "chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy shaxsni shakllantirish" ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [1]. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi o'tmishdagi taniqli shoir va mutafakkirlarning ijodini boshlang'ich maktab dasturiga kiritish ushbu strategik maqsadga erishishda salmoqli hissa qo'shishi mumkin.

Shunday qilib, 2020-yilda Respublika test markazi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining atigi 21 foizi "O'zbekistonning ma'naviy va madaniy merosi to'g'risida yuqori darajadagi bilimlarni" namoyish eta olishdi [2]. Bu bolalar ta'limining dastlabki bosqichlarida maktabda mumtoz adabiyotni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi".

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqli ravishda butun avlodlarning madaniy va ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan mumtoz o'zbek adabiyotining taniqli vakillari hisoblanadilar. Ularning eng chuqur falsafiy g'oyalari va axloqiy qadriyatlarini aks ettirgan eng boy she'riy va nasriy merosi o'zbek madaniyatining ajralmas qismidir. Biroq zamonaviy

pedagogikada ushbu mutafakkirlar asarlarining boshlang'ich maktab o'quv jarayonidagi o'rni to'liq o'rganilmagan.

Navoiy va Bobur ijodining boshlang'ich maktab o'quvchilarining intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash uchun ushbu mavzu bo'yicha ilmiy nashrlar tahlili o'tkazildi. Asosiy e'tibor so'nggi yillarda klassik adabiyotning ta'lim jarayoniga va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning shaxsiy shakllanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarga qaratildi.

Bir qator mualliflar, xususan G. Akramova va U. Inoyatov Navoiy va Bobur asarlari ularda o'rnatilgan insonparvarlik g'oyalari tufayli ulkan tarbiyaviy salohiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar [3,4]. Bola tomonidan erta yoshdan boshlab o'rganilgan ushbu g'oyalar axloqiy qadriyatlar va dunyoqarash pozitsiyalari tizimini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

S. Mirzayev va M. Rahimov asarlarida Navoiy va Bobur adabiy merosidan darsdan tashqari ishlarda ijodkorlikni rivojlantirish va maktab o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish vositasi sifatida foydalanish samaradorligini isbotlovchi tadqiqotlar natijalari keltirilgan [5,6].

Ilmiy nashrlarning tahlili yosh o'quvchilarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda Navoiy va Bobur ijodiy merosining o'rni to'g'risida quyidagi natijalar chiqarishga imkon beradi:

O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari bolaning ichki dunyosini boyitadi, his-tuyg'ular va munosabatlarning yuksak madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shadi [7].

Shoirlar ijodida mujassam bo'lgan gumanistik g'oyalarni o'zlashtirish rahm-shafqat, adolat, bag'rikenglik kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalaydi.

Navoiy va Bobur asarlarini boshlang'ich ta'limga kiritish bolalarning madaniy-ma'rifiy dunyoqarashini kengaytiradi, milliy adabiyot tarixi bilan tanishtiradi.

Adabiy klassikalarni o'rganish yosh o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'zlarining adabiy tajribalarini rag'batlantiradi.

Ushbu ishda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni to'g'risida olingan natijalar bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Birinchiidan, klassik o'zbek she'riyati va nasri bolalik davrida shaxsni rivojlantirishning samarali vositasi bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlar tasdiqlandi. Bu Akramova G. va Karimova L. ning mintaqaviy adabiy

klassikaning ta'lim salohiyati to'g'risidagi tadqiqotlari ma'lumotlariga mos keladi.

Ikkinchidan, ushbu ish natijalari shuni ko'rsatadiki, Navoiy va Boburni o'rganishning maktab o'quvchilariga ta'siri har tomonlama – dunyoqarashini kengaytirishdan axloqiy tamoyillar va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishgacha qamrab oladi. Shunday qilib, ushbu mutafakkirlarning asarlari boshlang'ich maktab doirasida bir qator ta'lim maqsadlariga erishish uchun ishlatilishi mumkin.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Navoiy va Boburning ijodiy merosini boshlang'ich maktab o'quvchilari ta'lim tizimiga kiritish bolalarning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu boshqa mualliflarning asarlari ma'lumotlariga mos keladi [8].

Asosiy ijobiy ta'sirlar madaniy ufqning kengayishi, axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq. Bunday murakkab ta'sirning ehtimoliy mexanizmi o'zbek adabiyoti klassiklari asarlarining tarbiyaviy kuchi va gumanistik pafosidir [9].

Muayyan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun yosh o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda Navoiy va Bobur ijodini o'quv jarayoniga kiritishning eng maqbul va samarali yondashuvlarini aniqlashga imkon beradigan qo'shimcha o'rganish talab etiladi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalari e'lon qilingan mavzuni yanada ilmiy va uslubiy rivojlantirish istiqbollari ochib beradi. Ushbu maqola doirasida olib borilgan tahlil buyuk o'zbek shoirlari va mutafakkirlari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy merosi boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual va ma'naviy darajasini oshirish uchun katta salohiyatga ega degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Ushbu taniqli madaniyat arboblarning asarlarini o'rganish bolalarning dunyoqarashini kengaytirishi, boy ichki dunyo va yuksak axloqiy tamoyillarni shakllantirishi, o'z ijodini rivojlantirishga turtki bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, adabiyotlarni o'rganish natijasida klassik she'riyat va proza merosini zamonaviy boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha metodik yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Ushbu yo'nalish keyingi ilmiy va pedagogik tadqiqotlar uchun istiqbollarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi farmon

2.Karimov JI. - qaniydi?, T. (2021). Maktab o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda klassik o'zbek adabiyotining o'rni. Pedagogika, 2, 112-114

3.Akramova G. R. (2019). Alisher Navoiy ijodiy merosidan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan darsdan tashqari ishlarda foydalanish. O'zbekiston boshlang'ich maktabi, 3, 14-18.

4.U. Inoyatov (2020). Zohiriddin Muhammad Bobur faylasuf va o'qituvchi sifatida. Toshkent: mumtoz so'z.

5.Mirzayev S. M. (2017). Alisher Navoiy ijodi yosh o'quvchilarni estetik rivojlantirish vositasi sifatida. Dissertatsiya. Toshkent shahri

6.Rahimov M. R. "O'zbek mumtoz she'riyatining yosh o'quvchilarning nutq rivojlanishiga ta'siri (2020). O'zbekiston tili va adabiyoti, 4, 16-19.

7.Sulaymonova F. (2022). "5-6-sinflarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o'rganishning asosiy jihatlari". O'zbekiston gazetasi, 17 fevral.

8.Xalilov T. Z. (2016). "Sharq adabiyoti qadriyatlarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish". Pedagogika, 12, 28-32.

9.Sharipov B. H. (2018), "Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi davrning gumanistik ideallarining aksi sifatida". Monografiya. Samarqand: Zarafshon. development, Uzbek literature

ALISHER NAVOIY IJODIDAGI AYRIM MA'RIFIY-AXLOQIY QARASHLAR HAQIDA

Jo'rayeva Dilafro'z Raimovna,
Buxoro shahar 35-IDUM oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari tahlilga tortilgan, shuningdek, maqolada Navoiy asarlaridagi ta'lim-tarbiya, odob-axloq borasidagi she'riy va nasriy misollar keltirilgan, mazkur mulohazalarga o'rni-o'rni bilan munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: odob-axloq, ta'lim, tarbiya, xulq-atvor, farzandlik burchi.

Аннотация. В данной статье анализируются взгляды великого мыслителя Алишера Навои на образование, а также представлены поэтические и прозаические примеры воспитания и нравственности в произведениях Навои и различные способы выражения реакции на эти мнения.

Ключевые слова: манеры, образование, воспитание, поведение, сыновний долг.

Annotation. This article analyzes the views of the great thinker Alisher Navoi on education, as well as poetic and prose examples of education and morals in Navoi's works and these comments have been responded to in their place.

Key words: manners, education, upbringing, behavior, filial duty.

Sharqda ta'lim-tarbiya, pedagogik qarashlar ildizi juda chuqur va mantiqqa asoslangan bo'lib, ularning bu boradagi fikrlari o'z davrida ham, bugungi kunda ham inson hayoti, turmush tarzining ajralmas bir qismi bo'lib kelmoqda. Donishmandlarning nodir, benazir pand-nasihatlari bugungi kun o'quvchi-yoshlari, ularning kelajagi, hayot yo'li uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda[1]. Manbalarda keltirilishicha, ma'rifatli ajdodlarimiz butun umri insoniy ezgu fazilatlar bilan vobasta bo'lib, kishilik jamiyatini oliyjanob harakatlarga boshladi, o'z davrida ilm-u ma'rifatni rivojlantirdi. Unib kelayotgan yosh avlodni ilmga, kasb-hunarga, vijdon tozaligi, iymon-e'tiqod, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaga undadi. [2;4] Ularning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida yoshlar kamoloti va ularning ma'naviy yuksalishi uchun benazir fikrlar bayon etilgan.

Shunday ma'rifatparvar donishmandlardan biri Mir Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy ijodining asl mohiyati ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liqdi. [3] Shoir asarlarining tub mohiyatida inson va uning baxt-saodati turadi. Navoiy fikricha, odamzod dunyoda hamma narsadan yuksak, sharif, aziz va qadrlidir. Navoiy o'z asrlarida inson haq-huquqlari, qadr-qimmatini uchun kurash olib boradi. Buning uchun Ollohning har bir bandasi, avvalo, sharaflil inson nomiga sazovor bo'lishga harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Bu maqsadga erishishda ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutishini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Har bir inson farzandli bo'lmog'i, uni tarbiyalab, voyaga yetkazmog'i lozim. Farzand ota-onaning o'rinbosari, kelajak davomchilari sanaladi. Havoiy o'zining "Nazm-ul javohir" asarida yozadi: *Har kimgaki tiftl o'lsa erur ko'zi ochiq/ Shug'li bilan xotiri g'am anduzi ochiq/ Bo'lmoq ne ajab bazmi dilfruzi ochiq/ Kim tiftli bor ersa, bor anga ro'zi ochiq.*

Ulug' donishmand Navoiyning mazkur fikrlaridan xulosa chiqadiki, inson uchun yosh avlodni o'stirishdan, uni risoladagidek tarbiyalab, kelajak uchun foydali kishi qilib yetishtirishdan ko'ra xayrli va lazzatli ish yo'qdir. Navoiy farzandni "mehri anvar" (yorug' quyosh) deb biladi. Xonadonni yorug'

qilgan, qalblarni quvontirgan bolani Navoiy “chu farzand erur jonga payvand erur”, deydi.

Islom ta’limida farzandga yaxshi nom qo’yish shartligi aytiladi. Navoiy bolaga yaxshi nom qo’yish bilan birga, ta’lim-tarbiyasiga ham alohida ahamiyat qaratish lozimligini ko’p bora ta’kidlaydi. Navoiy “Xamsa” asarida *“Ulcha erur tiflg’a shoyista ish, Bilki, kichiklikda erur parvarish”* deya so’zlaydi. Bu bilan bola tarbiyasida kechikmaslik uqtiriladi.

Alisher Navoiy dostonlarida qahramonlarini yoritir ekan, ularning yoshligidan to kamolga erishgunlaricha bolgan davrlaridagi ta’lim-tarbiyasini batafsil yoritadi. Bu hol Farhod, Qays, Iskandar, Shirin, Layli kabi qahramonlar tavsifida yorqin kuzatiladi. Buyuk pedagog Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch-qudratiga alohida e’tibor qaratadi. Farzand tarbiyasida oila, jamiyat ta’siriga “urg’u qaratadi”. Kishi jamiyat bilan uzviy holda yashashi lozimligini, inson jamiyatdan tashqarida bo’la olmasligini aytadi.

Alisher Navoiy fikricha, jamiyat, hayot uchun ta’lim-tarbiya ko’rgan shaxslar kerak, tarbiyaning maqsadi o’sib kelayotgan avlodni xalqparvar, bilimli, illatlardan xoli, fazilatli shaxs qilib yetishtirishdir. Yalqov, ishyoqmas, injiq bolalarni asta-sekinlik bilan tarbiyali bolalar safiga qo’shish mumkinligini ta’kidlaydi. Agar ko’p urinib, maqsad hosil qilinmasa, bunday bolaga mehnat sarflash hayf ekanligini o’zining “Mahbul-ul qulub” asarida quyidagicha keltiradi: *“Qobilg’a tarbiyat qilmaslik zulmdir va noqobilg’a tarbiyat qilmog’ hayf. Ani adami tarbiyat bila zoyi qilma va munga tarbiyatingni zoyi qilma”*.

Navoiy xalqqa musibat keltiruvchi, ularni xor-zor qiluvchi kishilarga tarbiya ta’sir etmasligi, ularga mehnat chekib, vaqt o’tkazish yaramasligini “Xazoyin-ul maoniy” asarida quyidagi misralar bilan tasvirlaydi: *Kim kuchuk birla xo’dukka necha qilsang tarbiyat/ It bo’lur, dog’i eshak, bo’lmaslar also odami*.

Ko’rinadiki, farzandni ilm-ma’rifatga, kasb-hunarga o’rgatish bilan birga, uning odob, axloqi bilan ham qiziqish, yoshligidan bu ishga chorlash o’ta muhim. Olamning yaratilishidan maqsad ham inson va uning manfaatlari hisoblanadi. Bu Navoiy ijodida keng va teran izohlanganligi guvohi bo’lamiz. Insoniylikning bosh belgisi, – deb yozadi Navoiy, – aql, ilmdir: *Baridin g’araz garchi inson edi/ Anga dog’i maqsud urfon edi*. Navoiy *“Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdir”* deyishi bilan ham ilm-u urfonni ulug’laganiga amin bo’lamiz.

Olim xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalashda maktablarning hissasi katta ekanligini aytadi va maktab ochish, farzandlarni o'qitish ishlariga boshqosh bo'ladi. Maktab borasida "Xamsa" asarida ta'kid etadi: *Bo'lur gum ulug'larg'a mazhab yo'li/ Chu yoshlarga bog'lansa maktab yo'li*. Ya'ni bolalar uchun maktab, tarbiya maskani bo'lmasa, kattalar ham bundan qiyinchilik sezadi, yo'lidan adashadi. Navoiy xalq manfaati, el tashvishi bilan yonib-yashaydigan kishilarni ulug'laydi, ularni asil inson deb biladi va "Xamsa" asarida yozadi:

*Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.*

Xalqning baxt-saodatini o'z baxti deb biladigan kishilarni haqqoniy inson ekanligini uqtiradi shoir. Inson hayoti har narsadan ustunligini ta'kidlab, xalqqa zulm ko'rsatuvchi amaldorlarga qarata shoir yozadi: *"O'ylab qara, zor va mazlum ona bolani qornida saqlab yurganida qancha azob va mashaqqat tortdi, tug'ulgandan so'ng uning uyqusi buzilmasin deb qayg'urib, kechalari o'z uyqusini harom qildi. Falak o'ttiz-qirq yillab aylanguncha mehribonlik bilan tarbiya berdi, u o'ttiz-qirq yildan so'ng hayot yo'lga tushdi, odam soniga kirdi"*.

Odamiylikni har narsadan ustun qo'ygan mutafakkir o'z qahramoni Shirin tilidan *"Menga ne yor-u, ne oshiq havasdur, Agar men odam o'lsam, ushbu basdur"*, deya barilla so'zlaydi. Bu Navoiyning hayotiy shiorlaridan biri bo'lib qoladi.

Navoiy eng ulug' fazilatlardan biri do'stlikni ulug'laydi, shuningdek, soxta do'stlar, g'araz niyatli do'st qiyofasidagi kimsalarni qoralaydi. O'zi ham ulug' fors (tojik) shoiri Abdurahmon Jomiyni o'zining ustoz, ayni paytda eng yaqin do'sti deb biladi. Har ikkala zabardast shoir oralaridagi bu do'stlik boshqalarga ibrat bo'la oladigan darajada edi. Mazkur do'stlik rishtalari nafaqat ikki shaxs o'rtasida, balki xalqlar, yurtlar orasidagi do'stlikning eng yorqin ko'rinishi edi.

"Mahbub-ul qulub" asarida odob haqida shoir shunday deydi: *"Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrdan bahramand qiladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi,...yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi, ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi: odamlar tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini berkitadi, bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi..."*

Ota-onani hurmatlash, qadrini ulug' bilish farzandlarning birlamchi farzandlik burchlaridan sanalishi Navoiy e'tiboridan chetda qolmagan. "Xamsa" asarida bitilgan, bugungi kunda ham sevib aytiladigan quyidagi

misralar aynan ota-onalarni qadrlashga bag'ishlangan: *Boshni fido ayla ato qoshig'a/ Jismni qil sadqa ano boshig'a/ Tun-kuningga aylagil nur fosh/ Birisin oy angla, birisin quyosh.*

Alisher Navoiy kishilarni muloyim, yoqimli, nafosatli, madaniyatli, xushmuomala bo'lishga da'vat etadi. Ayni vaqtda o'zlari ham bunga amal qiladilar. "Mahbub-ul qulub" asarida Navoiy „...Yoqimlilik, xushmuomalalik inson gavdasining mevali bog'idir. Odamgarchilik olamning toshlik javohirlik tog'i, muloyimlikni hodisalar daryosida kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniylik mezonining toshiga nisbat bersa bo'ladi“, deya so'z qotadi.

Navoiy tamagirlikni qattiq qoralaydi, bu illatdan xoli kishilarni sharafli odamlar deb biladi. Bu borada u o'ziga xitob qiladi: *Ey Navoiy, olam ahlida tamasiz yo'q kishi/ Har kishida bu sifat yo'qdur, anga bo'lg'ay sharaf.*

Umuman, Alisher Navoiy asarlari yoshlar tarbiyasi va ta'limiga bag'ishlangan cheksiz bir ummon bo'lib, aytganlarimiz mazkur ummondan kichik bir zarradir. Uning asarlari yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda, ularga mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, poklik, ilm-ma'rifat, ma'nafiyat, do'stlik va oliyjanoblikni o'rgatishda benazir maslahatlar bera oladigan eng yaqin dost sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Asadov T. Sharq donishmandlari ta'lim-tarbiya haqida. –Buxoro, Durdon, 2020.

2.Хасанбоев О. Педагогика тарихидан хрестоматия. –Т.: Ўқитувчи, 1993.

3.Хусанхўжаев И. Алишер Навоий таълим-тарбия ҳақида.–Т., 1963.

4.Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. –Т.:Ўқитувчи, 1997.

NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY – MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Izzatilloeva Shaxina Komiljon qizi

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

G'ijduvon tumani 10-maktab o'qituvchisi

shaxinaizzatullayeva604@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini bugungi kundagi ahamiyati, yosh avlodni tarbiyalashda asarlarning salmog'i, asarlarning bugungi kunda qay darajada o'qilishi borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Bobur, ruboiy, tuyuq, g'azal, nasriy asarlar, ma'naviyat, ma'rifat, yosh avlod, tarbiya

Аннотация: В данной статье рассматривается значение произведений Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабур сегодня, значение произведений в воспитании молодого поколения, а также степень читаемости произведений сегодня.

Ключевые слова: Навои, Бабур, рубай, туюк, газель, прозаические произведения, духовность, просвещение, молодое поколение, образование

Abstract: This article discusses the importance of the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur today, the importance of the works in the education of the young generation, and the extent to which the works are read today.

Key words: Navoi, Babur, rubai, tuyuq, ghazal, prose works, spirituality, enlightenment, young generation, education

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyotining buyuk namoyondalaridan. Bu ikki siymoning buyukligi ular yozgan asarlarda o'z ifodasini topgan. Ularning asarlari asrlar davomida bizgacha to'laligicha yetib keldi. Yuksak saviyali asarlari orqali yosh avlodlar ilmi bo'lmoqda. Biz ham ilm quyoshi bo'lgan asarlarni o'z holicha kelgusi avlodga yetkazishimiz kerak. Navoiyning ham, Boburning ham asarlari bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega, chunki ularning asarlarida tarbiya, ta'lim, oqibat, iymon, hayo kabilar yuqori darajaga ko'tariladi. Ular bu narsalarni asarlariga singdirishadi. Bundan asosiy maqsad tarbiyasiz, hayosiz har qanday kishi ilmi bo'la olmaydi. Ilmsiz insonlar o'zini qing'ir ishlarga tomon yo'naltiradi.

Bu ikki buyuk siymolarimizning asarlari esa kishilarga ma'rifat eshigini ochadi. Doimo Yaratganni ulug'lash asarlarining bosh g'oyasi hisoblanadi. Navoiy va Bobur asarlarini o'qib ularning mazmunini anglagandagina kitobxon shoir nima demoqchi bo'lganini tushunishi mumkin. Ikkala ijodkor ham so'zni shunchaki qo'llamaydi, uni topib o'rnida, maromida qo'llaydi. Ular qo'llagan har bir so'z alohida ma'no tashiydi. Masalan, Navoiyning quyidagi ruboiysining ma'nosini chaqishga urinib ko'ramiz.

Yoshing'a bag'ir qoni chu erdi monand,
Ko'z asradi yoshdek bo'lib andin xursand.
Turmadi ko'zimda yetkach ul sarvi baland,
Bo'lmas kishi farzandi kishiga farzand.

Ruboiy janri Navoiy lirik merosining asosiy qismini egallaydi. Yuroqidagi ruboiyda “monand”, “xursand”, “baland”, “farzand” soʻzlari qofiyadosh soʻzlar. Bu qofiyadosh soʻzlar ruboiyni yanada jarangdor boʻlishiga xizmat qilmoqda. Ruboiyning asosiy maʼnosi shundaki, hech qachon birovning bolasi birovga bola boʻlolmaydi. Ota - ona ming urinmasin birovning farzandini oʻziniki qila olmaydi. Uni qancha oʻziga yaqinlashtirmasin, unga dunyoni bermasin, lekin uni oʻz bolasi qilish amri mahol. Bolalar yoshlik paytlarda bu holatga koʻnishi mumkin. Ammo uchinchi misrada keltirilgani “turmadi koʻzimda yetkach ul sarvi baland” ifodasini koʻrishimiz mumkin, yaʼni bola ulgʻaygan sayin yoningda saqlab qolish qiyin, demoqchi shoir . Bolani yoshligida koʻzida asraydi, yer-u koʻkga ishonmaydi. Lekin baʼzi farzand voyaga yetgandan soʻng ota-onam demas ekan. Bechora ota-ona qanchadan qancha qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Ota - bobolarimiz ham bekorga “Birovni farzandi birovga farzand boʻlmaydi”, - deb aytmaganlar.

Yod etmas yemish kishini gʻurbatda kishi
Shod etmas yemish koʻngulni mehnatda kishi.
Koʻnglum bu gʻariblikda shod oʻlmadi, oh,
Gʻurbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

Bobur qalamiga mansub ushbu ruboiy oʻzida chuqur maʼno aks ettirgan. Dastlabki misradan shuni anglash mumkinki, kishi gʻurbatda, gʻam - tashvishda qolganda uni hech kim yoqlamaydi. Unga nima boʻlayotgani bilan birov qiziqmaydi. Oʻz gʻam-tashvishlaringga oʻzing qovurulsang ham hech kim senga parvo qilmaydi. Bunday paytda kishining koʻnglini mehnat ham shod etolmas. Uqubatda hech kim shod boʻlmaganligi kabi mening koʻnglim ham bu gʻariblikda shod boʻlmadi, degan maʼnolar anglashiladi. Gʻurbatlarda kishi sevinmasligi bilan bu ruboiyni yakunlamoqda shoir. Ruboiyning asosiy maʼnosi inson yomon bir kunda qoldimi undan xabar ol. Nima dard qiynayotganligini bilish va unga chora topishga yordamlashish kerak. Doni xalqimiz: “Doʻst yomon kunda bilinadi”, - deyishadi-ku. Shunday ekan oʻsha gʻurbatda qolgan doʻstimiz, qoʻshnimiz yoki qarindoshimiz boʻlishi mumkin . Shunday ekan doʻstlarning holidan vaqti bilan xabar olib turish yuraklardagi mehr-oqibat tuygʻularini kuchaytiradi. Qiyin vaziyatga tushgan insonga yordam berolmasak ham birgina shirin soʻzimiz bilan ularning koʻnglini koʻtarishimiz mumkin. Atigi ikki ogʻiz shirin soʻzimiz orqali biz koʻp muammolarni hal qila olamiz. Alloh bizga shunday neʼmatni bergan, shukurlar boʻlsin.

Navoiy va Boburning asarlari bugungi kun yosh avlodni tarbiyalashda asosiy qoʻllanma vazifasini oʻtaydi. Ularning asarlarini oʻqigan har bir kishi

o'ziga tegishli xulosalarni chiqarib oladi. Chunki ularning asarlari kishini hecham tarbiyasizlikka boshlamaydi. Inson umr bo'yi Navoiy, Bobur va boshqa buyuk siymolarimiz asarlarini mutolaa qilsa va undagi tarbiyaviy, ta'limiy jihatlarni tafakkuriga singdira olsa, albatta, baxtli yashaydi. Ularning asarlari odamzot o'z yo'lini topishining asosiy yo'nalishlar manbayi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ular bizni komilikka yetaklaydi. Buyuk siymolarning qaysi asariga qaramaylik ularda tarbiya birinchi o'rinda turadi. Bunday ijodkorlar asralarini o'qigan har qanday kishi barkamollik darajasiga ko'tariladi. Ham ma'nan, ham jismonan baquvvat bo'ladi. Ijodkorlarning asarlari har qanday millat vakillarini tarbiyalaydi. Ularni bugungi kunda qanday inson bo'lishini belgilaydi. Navoiy va Bobur asarlari kirib bormagan biror bir xonadon bo'lmasa kerak. Hatto chet elda ham ularning asarlari tarjima qilingan. Dunyoning barcha nuqtalarida buyuklarning nomlari o'chmaydi. Ular bitgan nodir asarlar ichida sayr qilsangiz, shaksiz, o'zligingizni qaytadan yaratishni boshlaysiz. Bugungi kunda qilinishi kerak bo'lgan ishlarni buyuk shoirlar o'sha davrda yozib ketishganligi ularning Alloh nazari tushgan yuksak ilm egasi ekanligiga bir dalil. Shu tomoni bilan ular yangi davr ijodkorlardan farq qiladi. Ijodkorlarning asarlaridan istalgan mavzudagi savollarga javob topish mumkin. Shuning uchun yosh-u qari bu shoirlarning asarlarini sevib o'qiydi. Navoiy va Boburning hayoti ularning asarlarini biz boshlang'ich sinflardan o'qishni boshlaymiz. Sababi ularning asarlari bilan quyi sinflardan tarbiyalana boramiz.

Navoiy va Bobur asarlari har bir yosh uchun mos. Ularning asarlarini o'qish chegara, zamon va yosh tanlamaydi. Shuning uchun har toifa vakillari qo'lida buyuk ijodkorlarning asarlarini ko'ramiz. Navoiyning ham, Boburning ham asarlari, avvalo, iymon ta'rifi bilan boshlandi. Sababi har qanday o'quvchi birinchi bo'lib iymonli bo'lishi kerakligini tushunishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ular tuzgan katta-katta devonlardan tortib 2 misrali fardlargacha o'zida tarbiyaviy ma'nolar tashiydi. Mumtoz adabiyotimizning ushbu zabardast vakillari qalamiga mansub durdona asarlarini to'laligicha kelajak avlodlarimizga yetkazish har bir "o'zbekman", "musulmonman" degan insonning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiyning asarlari.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari.
3. Navoiyning "Mukammal asarlar to'plami" 3 - tom.

NAVOIY HAMDA BOBUR ASARLARIDA AYOLLAR SHA'NI VA QADRINI ULUG'LASH MAVZUSINING YORITILISHI

Jo'rayeva Dilorom G'aybullayevna

Buxoro shahar 38-maktab direktori,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek adabiyotining ikki buyuk dahosi hazrat Alisher Navoiy hamda Bobur asarlarida ayollar sha'ni va qadr-qimmatining ulug'lanishi borasida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyoti, Navoiy, Bobur, "Zoli zar", an'anaviylik, "Xamsa", "Boburnoma".

Buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Uvaysiy, Nodirabegim, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Ogahiy, Furqat asarlarida xotin-qizlar mavqei masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularni o'rganish orqali adabiyotimizda genderga asoslangan munosabatlar talqinining an'anaviyligini, o'ziga xos tadrijiy takomil belgilarini yoritish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodida bunday istioralar, mubolag'ali tasvirlar yanada ko'p. Xususan, shoirning mashhur "Xamsa"si tarkibidagi birinchi doston "Hayrat ul abror"ning uchinchi "shohlar haqida"gi maqolotida Shoh G'oziy o'ziga adolat va insofni ikki guvoh sifatida qayd etgan keksa onani "Tilla kampir", ya'ni "Zoli Zar" nomi bilan ulug'lashida ayollar aqlini ulug'lash g'oyasi aks etadi.

Xususan, shoir "Xamsa"sidagi uchinchi doston "Sab'ayi sayyor"da shoh Bahrom bilan Diloromning notengligi o'ziga xos uslubda yoritilgan. Buning sababi esa quyidagi izoh bilan berilgan:

Ishq ila shohlik muvofiq emas,

Ishq lofida shoh sodiq emas.

Shoh Bahrom hukmdorlarga xos kibru havosi, har doim qo'l ostidagilarning shirin so'z, maqtov eshitishni xohlagan va kutganligi sababli oddiy qiz Diloromning haq gaplarini ko'tarolmay, uni jazolaydi.

Shohga xuddi shunday dadillik bilan javob qaytargan XVII asr Qo'qon adabiy muhitining yorqin vakillaridan biri Dilshod Barno bo'lib, u Amiriyning anor mevasini ko'rsatib, "Bu haqda ne deyursan?" degan savoliga "Qizlar xuni ila to'liribsan" degani uchun kamsitiladi.

“Boburnoma” memuarida ham ona, mudabbira ena, bunyodkor malikalarning tasviriga alohida qaralgan. Chunki tariximizdan maʼlumki, valiahd shahzoda, malikalar-u podshohlarni nafaqat hayotga, balki mamlakatni boshqarishga tayyorlashda, umuman, millat tarbiyasida zukko, farosatli, ilmli onalarning oʻrni beqiyos boʻlgan. Onalarga hamisha yaratuvchi sifatida qaralgan va eʼzozlangan. Qolaversa, Temuriylar davrida saroy ayollarida ijtimoiy faollik oʻsgan. Ular mamlakatning obodligi, farovonligi yoʻlida xizmat qilishgan.

“Boburnoma”da Bobur onasi Qutlugʻ Nigorxonimni oʻndan ortiq oʻrinda tilga olib, uni “mening validam”, “mening onam”, “validam”, “validaxonim”, “onam”, “onam xonim” kabi jumla va birikmalar bilan atagan.

Boburning enasi Eson Davlatbegim ham uni koʻp ogʻir vaziyatlardan olib chiqib, himoya qilgan. Bobur uni “ulugʻ onam” deb oʻnlab oʻrinda qalamga olgan va “Koʻproq ish – kuch alarning mashvarati bila boʻlur edi” deb yozgan.

Bobur xotin-qizlarning aqli, odobi, farosati, hurmat va eʼtibori, latofati, mehr-u muhabbati, idroki masalasida qatʼiy fikr bildiradi.

“Boburnoma”da yana Shohbegim, Xadichabegim, Zuhrabegim ogʻa, Malika Buʼa kabi saroy, davlat, raʼiyat ishlarida yuqori mavqega ega ayollar nomi ham keltirilgan. Bobur bu ayollarning mulk, millat ishlariga, podshoh va shahzodalar hayotiga ijobiy yoki salbiy, xayrli yo xayrsiz taʼsir kuchlarini taʼkidlab oʻtgan.⁶

Maʼlumki, yozuvchilarning haqiqatda nima deb oʻylaganini ularning yozganlarini oʻrganish orqali aniqroq anglash mumkin. Bunda haqiqiy yashirin “men” xavfsiz tarzda koʻrsatilishi mumkin. Sir emaski, har bir ijodkorning oʻz hayot yoʻli, shaxsiy prinsiplari bor. Ular oʻzlari yashaganlaridek, hikoyalariga “hayot” deb nomlangan voqealarni majburiy ravishda hikoyaga aylantiradilar.

Butun oila uchun moliyaviy barqarorlikni taʼminlash erning burchi deb hisoblangan bir paytda Anbar otin, Dilshodi Barno kabi ayollarning maktablar ochib, otinlik qilishi va roʻzgʻori uchun eri bilan birga daromad topishi bu anʼananing buzilganini namoyon etadi. Bunday voqea koʻpgina feminist yozuvchilar ayollarga qadimiy dunyoqarash asosida munosabatda qolib ketayotganlari koʻrinadi. Ular xotin-qizlarning gʻayrioddiy va maftunkor boʻlishini afzal koʻradilar. Ayollarni dunyoning dahshatli haqiqatlaridan himoya qilishni odamlarning burchi deb biladilar. Faqat shu tarzda ayollarning begunohligi va pokligini saqlab qolish, oilaviy hayotning muqaddasligini taʼminlash mumkin, deb hisoblaydilar.

⁶ <https://uza.uz/uz/posts/boburnomada-oqila-mudabbira-onalar-qanday-tasvirlangan>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zoirova A. Feministik adabiy tanqid va ayollar adabiyoti fenomeni borasida ayrim mulohazalar // Zamonaviy filologiya ilmi va lingovodidaktika masalalari. Respublika ilmiy amaliy anjumani. – Qarshi, 2021.– B. 64-66..
2. Lutfiddinova Xadicha. Estetik ideal yo'lida. – O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1994. – №3. – B.39-42.
3. Qahramonov Q. Shoirlar ijodida Ayol ruhiyati talqini. Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi. –Toshkent, 2018.

ILOHIY HIKMATLAR TAJALLISI – TERAN QARASHLAR ASOSI

Achilova Hadiyabonu Mansurovna

Buxoro shahar 4-son IDUMning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola Alisher Navoiy va Boburning go'zal xulq-odobi Qur'oni karim va Hadis kitoblaridan namunalar keltirish orqali yuksak komillik martabalari haqida yoritib berilgan. Alisher Navoiyning "Arbain", "Qirq hadis" kitobi ham asos qilib olingan. Bu ikki siymoning kelajak avlod uchun ma'naviy-tarbiyaviy axloqiy qarashlari ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Arbain, Nazm ul- javohir, vatanparvarlik, saxiylik, Hadis va Qur'oni karim, " Boburnoma".

Аннотация: В данной статье при помощи примеров книгах "Корана" и "Хадиса" раскрыто высокое совершенство великолепного воспитания и поведения Алишера Навои и Бобура взята и книга А. Навои "Арбаин" Тут изображается высокие, духовно просветительские взгляды для будущего поколение двух великих людей.

Ключевые слова: Арбаин, Назм ул -жавахир, патриотизм, щедрость, Коран, Хадис, Бабурнама.

Abstract. In this article, Alisher Navoi and Babur's beautiful manners are highlighted by examples from the Holy Qur'on and the books of Hadith Alisher Navoi' book "Arbain" 40 Hafis was also yused as a basis. The spiritual, educational and moral views of these two figures are expressed for the future generation.

Keywords: Arbain, Nazm ul- javohir, patriotism, generosity, Qur'on, Hafis, Baburnama.

Hadis islom olamida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas g'oyaviy-ma'naviy, ijtimoiy-huquqiy manba hisoblanadi. Islom dunyosi xalqlari tarixi, madaniyati, falsafasi va adabiyotida hadislarining ta'siri benihoya kattadir. Ushbu manba musulmon dunyosi ilm ahli tomonidan chuqur o'rganilgan va bu bilan "muhaddislik" degan maxsus bir sohaga asos solingan. Hadislarda islom dini arkonlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh, kabilar xususida tushuncha berishdan tashqari, umuminsoniy fazilatlarni ulug'lash va targ'ib qilish, halollik, poklik, xayr-ehson, himmat, saxiylik, birodarlik va boshqa ko'pgina musulmonchilik axloqi mezonlari, ya'ni axloq-odobga doir ko'rsatmalar ham talqin qilinadi. Hadis ilmi islom tarixidagi bir qator ahkomlarga aniqlik kiritishi, ularni mazmunan rivojlantirishi bilan ham ahamiyatlidir. Shundan bo'lsa kerak, zikri o'tgan musulmonchilikka e'tiqod qo'ygan xalqlarning madaniyati ravnaqida tayanch g'oyaviy-ma'naviy sarchashmalarning hayotbaxsh ta'siri yorqin nazarga tashlanadi.

Hadislarda ifodalangan hayotsevarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik islom dunyosi badiiy adabiyotiga qudratli ta'sir ko'rsatib keldi. Hadislarning ta'siri ostida umrboqiy asarlar dunyo yuzini ko'radi. Bunday badiiy yaratmalarning islomiy g'oyalar bilan yo'g'rilishi ularning g'oyaviy ta'sirchanligi va badiiy balog'atining hadi a'losiga yetkazilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, o'tgan ming yillar davomida ta'lif qilingan badiiy asarlarni o'sha tayanch sarchashmalarning hayotbaxsh ta'siri va ulardan olingan iqtiboslarsiz tasavvur qilib ham bo'lmaydi.

Islomiy manbalarning Alisher Navoiy ijodidagi o'rni haqida gapirib, navoiyshunos olim A. Hayitmetov, xususan, shunday yozadi: "Va nihoyat, Navoiy ijodining yana bir muhim manbai diniy va so'fiy adabiyotlardir. Ammo Navoiyning diniy adabiyotga munosabati, diniy adabiyotlar, xususan, Qur'on va hadislar shoir ijodining doimiy va muhim manbalari bo'lgani, o'z davri ijtimoiy siyosiy va madaniy- ma'naviy masalalarini ulug' shoir ko'p vaqt shu asarlariga suyanib hal etganligi shu paytgacha deyarli o'rganilmadi, hatto bundan ko'z yumib kelindi"⁷ Hadislar islom Sharqi mumtoz adabiyotida axloqiy-ta'limiy mavzuning ma'naviy zaminlaridan biri sifatida keng qo'llanilib kelingan. Hadislar tarkibiga xalq og'zaki ijodidan ko'pgina hayotbaxsh tuyg'ular kirib qolganidek, bunday islomiy-ilohiy hikmatlar o'z navbatida xalq og'zaki ijodiga ham, yozma badiiy adabiyotga ham katta ta'sir ko'rsatib keldi.

⁷ Hayitmetov . A.Alisher Navoiy ijodi manbalari haqida/ / Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. Maqolalar to'plami. -T,: " Fan", 1993.-3-13- betlar).

Hadislar hayot saboqlarini talqin etishda bevosita Qur'oni karimdan oziqlanib kelganligi sababli islom olamida e'tibori benihoya yuksak bo'lgan. Ular islom dunyosining turli sohalariga – Islom qonunshunosligi va shariatga, falsafa, siyosat, diniy va dunyoviy axloq qoidalariga, san'atga va ayniqsa, adabiyotga, xususan musulmon mintaqada mumtoz she'riyatiga katta ta'sir ko'rsatgan ma'naviy sarchashmadir.

Muhammad (s.a.v) dan “Kimki mening hadislarimdan 40 tasini yod bilsa, qiyomat kuni mening shifoatim ostida bo'ladi”, – degan hadis yetib kelgan. Shu hadisga binoan musulmonlar hadislardan 40 tasini yodlab olishga va ularni atrofdagilarga yetkazishga intilganlar. Hadislar iymonli inson diliga yaqin bo'lgani uchun ham arab, fors va turkiy tillardagi adabiyotlar ularni o'zining mag'z-mag'ziga singdirib oldi. Zotan, bir hadisda aytilganidek, “Mendan rivoyat qilingan birorta hadisni eshitganlaringizda, dillaringizga sig'adigan bo'lsa, demak, u mening aytgan hadisimdir. Ammo eshitgan hadislarinigiz buning aksidek bo'lsa, demak, u mening aytgan hadisim emasdir ”⁸.

Hadislarning bunday kafolatlanishi ularga asoslangan asarlarning g'oyaviyligi, badiiyati va xalqchilligini ta'minlaydi, albatta.

Muhammad Mustafo (s.a.v) o'z hadislarining tarqalishiga, ular orqali jamiyatda ezgulik urug'i sochilishiga katta umid bog'laganlar. “Bizning so'zlarimizni eshitib olib, o'zgartirmagan holda odamlarga yetkazadigan kishining yuzini Tangri yorug' qilsin! Bevosita bizdan eshitgan odamdan ko'ra ko'proq g'oyibona rivoyat qiluvchilar (kelajak avlod) orqali eshitgan kishilar hadislarimni yaxshiroq saqlaydigan bo'lishi mumkin”. Chindan ham, payg'ambarimizdan keyin bu hadislariga bo'lgan qiziqish ortsa ortdi, ammo kamaymadi. Ayniqsa, qalam ahli o'z asarlarida hadislardan mohirona foydalana boshladilar.

Badiiy adabiyotda hadislardan foydalanishning ko'rinishlari ko'p. Quyida ularning eng ko'p ommalashgan shakllariga to'xtalib o'tmoqchiman. Chunonchi: Nosiruddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asarida bunday misollar ko'pgina uchraydi. “Qissas” muallifi o'shanday o'rinlarda hadislarini o'zgarishsiz arab tilida qo'llaydi. Namuna sifatida quyidagi iqtibosni keltirmoqchiman: Qola Rasulullohi (a): al-ajalatu min ash-shayton va atta'ani min ar Rahmon. (Allohning elchisi dedi: shoshilish shaytonning ishi va shoshilmaslik Rahmonning ishidur)⁹.

⁸ Axloq-odobga oid hadis namunalari. -T: “Fan”,1990.26-bet

⁹ Qissasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. – T: Yozuvchi, 1990.12 -bet).

Bir hadisning o'zi turli munosabat bilan muayyan muallifning bir asarining turli munosabat bilan muayyan muallifning bir asarining turli o'rinlarida xilma-xil maqsadlarga qo'llanilishi hollari ham kuzatiladi. Jumladan, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida "Bir soatlik adolat insu jinsning (oltmish yillik) ibodatidan yaxshidir" hadisi uch o'rinda uch talqinda ishlatilganligini ko'ramiz.

She'riy misralarga mazmunan muvofiqlashtirilgan hadislarni ham Alisher Navoiy ijodi misolida ham ko'plab kuzatish mumkin.

Bulardin gar a'lo gar adno durur,
Kim, andin xaloyiqqa iyo durur.
Shah o'lturmas avlodur ul elni bot.
Ki, debdur nabiy iqtilso al- mu'ziyot

(MAT. XIV jild, 16-bet)

Yoki: Xaloyiqqa iyo alarg'a sifot,
Nabiy dedikim: "Uqtil ul- mu'ziyot"

(MAT. XIV jild 39- bet)

Yoki:

Ul sham'ki, "Vazzuho" quyosh yuzidur,
Mozog' bila surma chekilgan kozidur.
Aning bilakim, o'zi ulu ul o'zidur,
Borcha "Anna minka va minniy" so'zidur.

(Ilmiy tanqidiy matn. 2- bet)

A. Navoiyning "Hibbat ul - haqqoyiq" hadislarning ijodiy ta'sirida yaratilgan mustaqil asar bo'lsa-da, uning satrlarida Muhammad Mustafoda hadislarda kelgan umumbashariy g'oyalarning singdirilishi yetakchilik qiladi. Shoir tanlagan bunday uslub u yaratgan she'riy misralarning g'oyaviy - badiiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Hadislar insonni axloqan pok va ruhan balog'atga yetkazishda muhim omil hisoblanganligi tufayli adiblar bunday ilohiy - irfoniy sarchashmalarga tez-tez murojaat qilishgan. Eslatilgan zaminda badiiy adabiyotda axloqiy-ma'naviy yo'nalishdagi 40 hadis ta'sirida "Chihi hadis" (Arbain) yaratish an' anasi shakllangan.

Ulug' mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiy 886/1482yillarda eng sahih, eng mo'tabar va yodlashga oson bo'lgan qisqa, axloqiy mavzudagi hadislardan 40 tasini ajratib olib, ular mazmunini forsiyda nazmga solish orqali "Chihil hadis" asarini yaratdi. Alisher Navoiy esa ustoz va piri Jomiyning fotihasi, ijozatini olib, o'sha yili murshidi komil "Chihil hadis" ini nazmda forsiydan turkiyga o'girib, "Arbain hadis" asarini yaratadi.

Alisher Navoiy asarlarining manbaalari haqida gap borganda, shuni e'tibordan qochirmaslik lozimki, u o'zigacha bo'lgan arab, fors, va turkiy adabiy manaviy meros bilan puxta tanishib chiqqan. Ularning eng yaxshi an'analaridan saboq olib, ijodiy adabiy tajribasida rivojlantirgan. Ulug' shoir o'sha javohirot xazinasidagi ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy-ma'rifiy tarbiyaga oid asarlarini alohida e'zozladi. Ularda aks ettirilgan go'zal fazilatlar bilan o'z qahramonlarini bezadi. O'zi ham ayni shu ruhdagi asarlar yozish bilan o'sha sohaning rivoju-ravnaqiga katta hissa qo'shdi. Bunday asarlarning barcha - barchasi kelajak avlodning yuksak salohiyatli insonlar bo'lib yetishishida dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" dan o'rin olgan ruboiylarda hayotning bebaqoligi, umrning o'tkinchiligi, odam o'z umrini yaxshilikka bag'ishlasagina, uning nomi abadiy qolishi, "olam guli" bo'lgan inson uchun eng muhim ne'mat oltin kumush emas, balki odob ekanligini ta'kidlaydi.

Go'zal xulqlar – hayo va ibo, mardlik, kechirimli bo'lish, sabr- qanoat, odillik, muloyimlik, saxiylik, mehribonlik, ahdga vafo, do'stga sadoqat kabilar-insonni suvrat va siyratning ibratidan nishonadir. Din insonlar o'rtasida xushxulqlilikni targ'ib etadi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Din nasihatdir", – deya marhamat qiladilar. Chunki dinimizning asl g'oyasi yomon fe'l-atvordan poklangan-odobi go'zal xushxulq insonni tarbiyalashdir. Shu jihatdan "Nazm ul-javohirni" yaxlit holida nodir axloq targ'ibotiga qaratilgan majmua degimiz keladi. Professorlar R. Vohidov va M. Mahmudovlarning "Nazm ul-javohir" da Alisher Navoiyning nafosat va axloqqa doir fikrlari o'zining badiiy ifodasini topadi" tarzidagi ta'kidlari haqiqatga yaqinligi bilan etiborni tortadi.¹⁰

Ulug' shoir davr ahlini illatlar fan xoli ko'rish va loqaydlikka keskin zarba berishni istaydi. Poklangan inson esa, din va iymon nuridan bahramand bo'lishga sazovordir.

Chunonchi, "Nazm ul-javohir"dagi dastlabki hikmat va ruboyi vafo haqida. Tabiiyki, ular ham iymon nuri bilan yo'g'rilgan.

Kim olam aro diyonati yo'qtur oning,

Din nuqtasida fatonati yo'qtur oning,

Dindor ulkim, xiyonati yo'qtur oning,

Yo'q din angakim, amonati yo'qtur oning (116- bet)

Ruboiyda barcha insoniy fazilatlarining qamrab olinishi kishini hayratga soladi. Ya'ni ahdiga vafo-iymon; hayo, vafo, saxovat-iymon; oliy himmatlilik-iymon amallaridan hisoblanadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, iymon-qalbga quvvat, iymon-yaxshi uyqu, iymon-ogohlik, iymon-poklik....

¹⁰ Vohidov. R, Mahmudov.M. Ma'naviyat-komillik saodati.- T.: Ma'naviyat, 1997.-167-bet

Yana bir baytida kishining iymoni ahdiga vafo qilishida bilinadi.

Iymon oningki kufriga sotir erur,

Chun nukta demakka ul kishi qodir erur,

Har kimsaki, iymon ishida mohir erur,

Iymonini bilki, so'zidin zohir erur. (34- bet)

Iymonning uchdan biri hayo, uchdan biri vafo, uchdan biri saxiylikdir.

Uch qism ila iymong'a bino fahm ayla,

Avvalg'isini oning hayo fahm ayla,

Ikkunchisini dog'i vafo fahm ayla,

Uchunchini bilmasang, saxo fahm ayla.

Hayo, vafo va saxiylik-iymon binosining ustunlaridir. Bu go'zal xulqlar insonlarni doim yaxshilik sari yetaklaydi, yomon ishlardan saqlaydi. Rasululloh (s.a.v.): "Hayo faqat yaxshilik keltiradi", – degan hadislar orqali esa hayoning yaxshilikni harakatga keltiruvchi kuch sifatidagi qudratini ta'kidlaganlar. Bu yerda ham ahdga vafo iymonning yana bir nishonasi sifatida keltirilgan.

To'rtinchi misradagi saxovat esa, avvalo, ruboiyda aytilganidek, iymon yetukligining belgisidir. O'zgalar muhabbatini uyg'otuvchi ham, sharaf va martaba orttiruvchi ham, seni sevikli qiluvchi ham saxovatdir.

Quyidagi dilbar ruboiy fikrimizni tasdiqlaydi: Kishilarning bezagi odobdir.

Zevar kishiga ne toju ne afsar bil,

Ul zevar adab bila hayo darxur bil,

Har kimki adabsizdur ishin abtar bil,

Alqissa, eranlarga adab zevar bil (51- bet).

Qur'onning ko'pgina oyatlaridagi singari payg'ambarimiz hadislarida ham mo'min-musulmonlarni bilimli, ma'rifatli, o'qimishli bo'lishga da'vat; ilmning dinni mustahkamlash, e'tiqodni poklashdagi ta'siri; inson hayoti va jamiyatdagi o'rni, uning fazilati haqida ajoyib fikrlar mavjud. Ilm-millatning farovon yashashi, dinning mustahkamlanishi uchun kerak bo'lgan ma'naviy xazinadir. Bu xazinadan olingan, mo'min va mo'minalarning dinu millat, xalq, fan foydasiga yaraydigan ma'naviy boylikni o'rganishga sarflangan vaqti har qanday toatdan afzaldir. Boisi har qanday toatning boshi ma'rifatdir.

Buyuk shoh va shoir Z. M. Bobur ijodiyoti tajallisida ham ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy- marifiy qarashlarning yorqin nurlarini kuzatishimiz mumkin.

"Boburnoma" asarida adibning shaxsi, uning tarjimayi holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o'z

aksini topgan. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo'ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo'llik, hassoslikning namoyon bo'lish holatlari bilan tanishamiz.

“Mubayyin” da Bobur e'tiqodi diniy yo'nalishda bayon etiladi. Adib islom ruknlari haqida yozar ekan, Bobur farzandlari Humoyun va Kamron mirzoga pand-u nasihatlarini aytadi. Bular irfoniy she'riyatning go'zal namunalaridir. Bu esa o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashimizda ota-bobolarimizning an'analari as qotadi.

Boburning irfoniy qarshlari uning ijodiyotida ham, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Mubayyin” maktublari, hatto farmonlarida ham aks etgan. Boburdagi oriflik, ilmga, hayotga, davlatga munosabat ro'yi rost ko'rinadi. Ma'naviy barkamollik, ilm-ma'rifatga intilish Bobur munajatlarining ham, Bobur pandlarining ham, Bobur faoliyatining ham markazida turgan.

“Kim bor anga ilm-tolibi ilm kerak...” deb boshlangan ruboiydagi maqsad ayon, izoh talab qilmaydi. Bobur she'riyatida inson dilining latifligi, chehrasining go'zalligi, ruhiy holati ta'riflari “Qur'oni karim va Hadisi sharif hikmatlari asosida vujudga kelganligi sabab kelajak avlod tarbiyasida ayricha o'rin egallaydi. Uning “Irfonning eng baland maqomi-ma'rifat, eng xushtar(lazizroq) holi irfondir” degan fikrlari lafzimizning dalili bo'la oladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning mehr-muruvvati, saxiyligi, insonparvarligi tahsinga sazovordir. Uning kechinmalari insonlarga o'rnak bo'la oladi. Mamlakatda turli xil din vakillari bo'lishiga qaramay ularga din erkinligini beradi va bu xususida farzandlariga ham maslahatlar beradi. Vatandan yiroqda bo'lsada yurtni yodidan chiqarmadi. Movarounnahrda hukmdorlik qilayotgan sulolar bilan iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni tikladi. Bobur shaxsiyati tahsinga sazovorligi butun dunyo Boburshunos olimlari tomonidan e'tirof etildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zining keng qamrovli ma'naviy merosida o'lmas umumbashariy g'oyalar targ'ibotchisi qiyofasida namoyon bo'lgan ulug' shoir ana o'sha muborak sadoqatida “Nazm ul-javohir”da ham sodiq bo'lgan. Shunday ekan, mazkur durdonalar respublikamizda kechayotgan ta'lim jarayonini chuqur isloh qilish, oqibat natijada barkamol shaxsni shakllantirish, milliy g'oyani yanada takomillashtirish yo'lida xizmat qilishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Z.M. Bobur “Boburnoma” – “O'qituvchi”. –Toshkent.2008.
2. Nuriddinov.M “Boburiylar sulolasi”. “Fan”. –Toshkent. 1994.
3. “Navoiyning ijod olami”. “Fan”. –Toshkent. 2001.

4. R.J.Vohidov. "Alisher Navoiy va ilohiyot". Buxoro nashriyoti.1994.
5. A. Navoiy "Mukammal asarlar to'plami". 20 tomlik. XV tom. "Fan" – Toshkent. 1999.
6. T. G'afurjonova. "Nazm ul- javohir" Navoiy va dabiy ta'sir masalalari. maqolalar to'plami. Fan. – Toshkent. 1968.

NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Ishmatova Shahlo Nuriddinovna,
Olot tumani MMTBga qarashli
10-umumiy o'rta ta'lim maktabining
oliy toifali, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va alloma Alisher Navoiy va Bobur asarlarining mazmun mohiyati, ularning yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi muhim ahamiyati haqida so'z boradi. Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan ilmga chanqoq bo'lib, o'z tengdoshlari orasida ajralib turgan shaxs bo'lgan. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi.

Kalit so'zlar: Buyuk mutafakkir, ikki til, Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol-u hijron mavzusi.

Аннотация. данной статье говорится о сути произведений великого мыслителя и учёного Алишера Навои и их значении в воспитании молодого поколения. Захириддин Мухаммад Бабур был человеком, выделявшимся среди сверстников, с юности жаждущим знаний. Как и все тимуридские князья, Бабур изучал военное образование, юриспруденцию, арабский и персидский языки под опекой специальных наставников и великих ученых-религиоведов, и в результате идеи, выдвигаемые в его произведениях, поднимаются на уровень общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: Великий мыслитель, два языка, тема любви, верности, визала и миграции в творчестве Бабура .

Abstarct. This article talks about the essence of the great thinker and scholar Alisher Navoi's works and their importance in educating the young generation. Zahiriddin Muhammad Babur was a person who stood out among his peers, thirsting for knowledge from his youth can rise to the level of

generalization, and as a result, the ideas advanced in his works rise to the level of universal values.

Key words: Great thinker, two languages, love-love, love-loyalty, visal and hijran theme in Babur's works.

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti taraqqiyoti va o'zbek adabiy tili ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan ulkan ijodkordir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ulug' bobokalonimiz shaxsiyati va ijodiga munosabat tubdan o'zgardir. Hazrat Navoiyning boy adabiy merosiga to'laqonli va haqqoniy yondashish imkoniga ega bo'ldik. U zotning ijodini yanada chuqurroq o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar qilinyapti, ilmiy izlanishlar ko'lami yanada kengaymoqda. Buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiyning boy va bebaho merosi asrlar mobaynida ajdodlarimizni ezgulikka, mehr-muruvvatga, tinchlik va do'stlikka da'vat etib kelgan. Bobur Mirzo yozadi:

“...turkiy til bila to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas”. Bu haqda shoirning o'zi "Lison ut-tayr"da: Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos, - deb yozgan edi. Buyuk mutafakkir, o'zbek adabiy tilining asoschisi, jahon adabiyotining tengsiz namoyandasi, shoirlarning sultoni – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Buyuk so'z ustasi Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilini dunyoga tanitib qolmasdan, balki beqiyos so'z ustasi bo'lgani uchun ham jahon adabiyotining tengsiz namoyandasidir. Olamda turkiy yoki forsiy tilda so'zlovchi biron – bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Buyuk mutafakkir va alloma mir Alisher Navoiy butun dunyoni o'z qalami bilan egallab oldi.

Besh asrkim nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir sher
Temur tig'i yetmagan joyini,
Qalam bilan oldi Alisher.

Darhaqiqat, she'rda keltirilganidek nazmiy va nasriy asarlari bilan butun dunyoni lol qoldirgan Alisher Navoiy asarlari yosh avlodni barkamol, ma'naviy yetuk, barcha insoniy xislatlar egasi qilib tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Masalan, «Nazm ul- javohir» («Gavharlar tizmasi») asari, asosan, tazavvuf g'oyalari orqali talqin qilinadi:

Farzand ato qulligin chu odat qilgay,
Ul odat ila kasbi saodat qilgay,
Har kimki atoga ko'p rioyat qilgay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilgay.

Adib otaga xizmat qilishning sharofatini birinchi ikki misrada ko'rsatib bermoqda. Keyingi misrada esa yana shu fikrga qaytilgandek ko'rinadi, biroq endi natijada ayirma bor. Har kim ekkanini o'radi, deganlaridek, otaga qilingan hurmat va ehtirom, albatta, qaytadi, ammo uni qaytaruvchi odam mutlaqo boshqa bo'ladi. Mana shu boshqa odam esa keyingi avlod vakili – otasiga yaxshi munosabatda bo'lgan o'g'ilning farzandlaridir.

Allomaning mukammal asarlar to'plami ilgari ham nashr etilgan, biroq o'sha davrdagi mafkura nuqtayi nazaridan asarlardagi butun-butun boblar tushirib qoldirilgan. Mustaqillik yillarida Navoiyning yigirma jildli mukammal asarlar to'plamini to'laligicha chop etish ishlari yakuniga yetdi. Har yili navoiyshunos olimlar tomonidan yangi-yangi ilmiy maqolalar, risolalar yaratilmoqda.

Demak, Navoiyni o'rganish, uni yanada chuqur anglash borasidagi izlanishlar izchil davom etayotir. Alisher Navoiy hazrat ijodiyotini bepoyon ummonga qiyoslash mumkin. Uning tubida behisob javohirlar bisyor. Biroq Navoiy olamini hali-hanuz to'la zabt etolganimiz yo'q. Merosini o'rganish asnosida har doim yangidan yangi kashfiyotlar qilish mumkin. Navoiy badiiyatini olaylik. Uning har bir bayti, misrasini tadqiq etishning o'zi juda katta izlanishlarni talab etadi. Mana uning mashhur bir bayti: Yuzida terni ko'rib o'lsam, ey rafiq, meni Gulob ila yuv-u, gul bargidin kafan qilg'il. Bir qaraganda tushunarli va ravon misralar. Zero, bu oson ish emas. Navoiyning so'z tanlash va qo'llash mahorati, she'riyatidagi teran falsafa, diniy-ma'rifiy qarashlari, Navoiy va jahon adabiyoti... Bu yo'nalishlar bo'yicha hali qanchadan qancha yangi ufqlarni ochish mumkin. Navoiy umrining oxirlarida yozgan "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Mezon ul-avzon" asarlarida o'zining barcha asarlari mundarijasini bergan. Ularning bari Navoiyning mukammal asarlar to'plamiga kiritilgan. Biroq, bu Navoiyning hamma asarlari bizning qo'limizda, degan xulosani bermaydi. Sababi - bundan bir necha yil ilgari Hamid Sulaymonov va Fozila Sulaymonova tomonidan Navoiyning bir qancha yangi g'azali topilgan va chop etilgan edi. Ko'plab xorijlik olimlar uning hayoti va ijodini tadqiq va tahlil etib kelishmoqda. Xususan, Eron va Tojikistonda Navoiyning fors tilidagi asarlari, jumladan "Devoni Foni" atroflicha o'rganilgan, o'rganilmoqda. Shu bois, Turkiyada uning merosiga qiziqish katta. So'nggi yillarda bu erda "Mezon ul-avzon", "Lison ut-tayr", "Farhod va Shirin" kabi asarlari bosilib chiqdi.

Kelajak avlod tarbiyasida Navoiyning o'lmas merosi muhim o'rin tutadi. Hozir ba'zi yoshlar orasida jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik singari illatlarning kuzatilayotgani ma'lum darajada Navoiydan uzoqlashganimizning

achchiq mevasidir. Navoiyni tushunish, tushuntirish uchun uni sevish, sevdirish lozim. Mana bu purhikmat satrlarga e'tibor bering:

Bahrdin qatrag'a ta'zim ila tahsin ko'rdim,
Mehrdin zarrag'a e'zoz ila ehson topdim.

Ya'ni, dengizdagi tomchiga ta'zim ila tahsin qilganini ko'rdim, quyoshning zarraga e'zoz va ehson ko'rsatganiga guvoh bo'ldim, deganlar. Shu baytning o'ziyoq hazratning insoniyatni kamtarinlikka, adolat va insofga da'vat etganini ko'rsatadi. Biz haqli ravishda Navoiyni milliy ong va shuurimizning ulug' charog'boni va ilhomchisi deya olamiz. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Asarlaridagi Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi ko'plab qahramonlari yoshlarimizning sevimli qahramonlariga aylangan. Bu qahramonlar orqali o'quvchilar ulardagi mehnatsevarlik, o'z muhabbatiga vafo, xalqni ulug'lash va ular bilan doimo birga bo'lish, atrofdagilardan o'z yordamini ayamaslik, vatanparvarlik, tilni va millatni qadrlash kabi ezgu fazilatlarini ko'radilar va ulardan o'rganadilar.

Istiqlol yillari o'zbek adabiyotshunosligida navoiyshunoslik bilan bir qatorda yangi ilmiy tarmoq - boburshunoslik ham uzil-kesil shakllandi. XIX asrdayoq G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan va XX asrda rivojlanish bosqichiga kirgan boburshunoslik ilmi endi nafaqat shakllandi, hatto bu sohada "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" va "Zahiriddin Muhammad Bobur "Bibliografiya" (Moskva, 2016) singari fundamental nashrlar ham dunyo yuzini ko'rdi. Jumladan, 2017-yilda Bobur tavalludining 535 yilligi oldidan o'tkazilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro anjuman va uning materiallarining "Bobur abadiyati" nomida nashr etilgani ham boburshunoslikdagi muhim voqea bo'ldi. O'tgan yilgi - Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligiga bag'ishlangan Mirzo Kenjabekning "Mubayyin" va "Volidiya" asariga doir yangi tadqiqotlari hamda taniqli boburshunos Hasan Quqratullayevning

"Boburning adabiy-estetik olami" ("Ma'naviyat" nashriyoti, 2018) monografiyalarining chop etilgani ham ilmdagi sezilarli ishlardan bo'ldi. "Boburnoma" qomusiy asar bo'lgani uchun o'nlab fanlar ma'lumotlari saqlangan xazinaga o'xshaydi. Bu noyob manbaning turli tillarga tarjima qilinishi ham uning nodir durdona asar ekanligidan dalolat beradi. Bu xazinaga adabiyotshunos kiradimi, tilshunos bosh suqadimi, tarixchi varaqlab ko'radimi har gal o'zidan oldingi tadqiqotchi ko'zi tushmagan yangi-yangi ma'lumotlarga duch kelaveradi. Tadqiqotchi yangi asarida "Boburnoma"ga tipologiya nuqtayi nazardan yondashishni asosiy maqsad qilgan. Muallif

mohirlik bilan “Boburnoma”dagi voqea- hodisalar, shaxslar va ularning qismatlari haqidagi matnlarni o’sha zamonning ulug’ adiblari va tarixchilari Alisher Navoiy, Zayniddin Vosifiy, G’iyosiddin Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiyning kitoblaridagi ma’lumotlarga ko’ra tahlil qilgan.”Boburnoma” o’zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma’lum va mashhur qomusiy asari.Bu memuarda O’zbekiston, Afg’oniston, Hindiston xalqlarining madaniyati, qadriyatlari, o’ziga xos xususiyatlaridan tortib, tabiati, hayvonot va nabotot olami to’g’risida bebaho ma’lumotlar mavjud. Geografiya sirlari haqida Buyuk bobokalonimizning ibratli hayoti va boy merosini aholi orasida keng targ’ib qilish maqsadida: Davlat buyurtmasi asosida Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik davriga bag’ishlab suratga olinayotgan “Yo’lbarsning tug’ilishi” badiiy filmini yakuniga yetkazish uchun “Boburnoma” asarining zamonaviy o’zbek va qoraqalpoq tillariga tabdilini yaratish; “Boburga armug’on” rukni ostida shoir asarlari, uning hayoti va ijodi haqidagi ilmiy va ommabop kitoblar turkumini tayyorlash va chop qilish choralarini ko’rish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bobur ijodini qirq yildan beri o’rganib kelayotgan yaponiyalik boburshunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga “butun dunyo boburshunoslari uchun muhim qo’llanma bo’ladi” deya baho berdi.

Xulosa qilib aytsak, Navoiy va Boburning umrboqiy merosi el va elatlarni ezgulik, poklik, haqiqat atrofida jipslashtirishga qodir bo’lgan bebaho boyligimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. «Sharq» n, 1998.
2. Adabiyot darsligi. 10 –sinf «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi» Toshkent 2017.
3. A.Navoiy.Nazm ul-javohirToshkent. 2014.
4. G’aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta «Boburnoma». — T.:1999.
5. R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G’.Sotimov tar.).. -T.: 1999.
6. Karimov I.A.,Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008 y.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSONLARNI TARBIYALASH

Z. A. Jumayeva, R. J. Nafasova

Olot tumani maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 19- umumiy o'rta ta'lim
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya. Alisher Navoiy asarlarida aql-tafakkur, odob-axloq, o'zaro munosabat, insoniy fazilatlarining shakllanishi, bu g'oyalarning hayotga tatbiq etishida ta'lim – tarbiyada kreativ yondashish.

Kalit so'zlar: komillik, odob-axloq, aql-idrok, ilm, ta'lim-tarbiya, insoniylik.

Bugungi kunda respublikamiz o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot yo'liga ega bo'lib, tobora taraqqiy etib bormoqda. Bu esa kelajagi buyuk davlatni yaratish g'oyasini amalga oshirish uchun milliy ta'lim tizimini shakllan-tirish vazifasi bugungi kunning dolzarb vazifasi sifatida qaralmoqda.

Barkamol avlodni yetishtirishda ajdodlarimiz merosi, milliy qadryatlarimizga tayanish shart. Ayniqsa, ilk O'rta asrlardan boshlab mutafakkirlar ma'naviyat, axloq, xulq-odob, ta'lim-tarbiya sohasida ko'plab asarlar yozganlar. Shoirlar sultoni – Alisher Navoiy ham o'zining boy ijodiy faoliyati davomida ma'naviyat xususan, axloqning jamiyatda, oilada, insonlararo munosabatda eng muhimi komil insonni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini tarannum etishga alohida e'tibor qaratdi. Aql insonning boyligi, u Olloh tomonidan in'om etilgan qimmatbaho sovg'adir. Inson nimaiki ish bilan mashg'ul bo'lar ekan, biror narsani idrok qilar ekan, bularning hammasi aql tufayli, tafakkur qilish orqali sodir bo'ladi.

Alisher Navoiy fikricha, aql ijtimoiy hayotning hamma sohalarida, xoh davlatni boshqarishda, xoh oilada, xoh ijobiy xislatlarni kasb qilishda, xoh she'riyatda, shirinsuxanlikda, ta'lim-tarbiyada bo'lsin faol qatnashadi. Shuning uchun aqlli kishilarning nasihatini, garchi achchiq bo'lsa ham quloq solishga, donolar-ning hikmatli so'zlaridan bahra olishga da'vat etadi. Alisher Navoiy aql-tafakkurining ilm-fan bilan chambarchas bog'liqligi haqida fikr yuritar ekan: agar aql mazmun va maqsad bo'lsa, ilm-fan shakl, qurol bo'lib xizmat qilishini ta'kid-laydilar. Aql ilm – fanni haqiqat yo'liga boshlaydi, lekin o'z navbatida bu ilm fansiz o'z jilosini yo'qotadi. Aql insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi, yaxshi hislatlarni egallashga, haqiqatni, ilm-fan sirlarini, bilishga yordam berishini aytib o'tganlar. Buyuk shoir Alisher Navoiyning yuqorida qayd qilingan purma'no o'gitlarini oila muhitida farzandlarga izohlab

tushuntirish, ularning komil inson bo'lib voyaga yetishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hazrat Alisher Navoiy insonparvarligining muhim xususiyati shundaki, ul zot o'zining g'azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlari, qimmatli g'oyalarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, insoniylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq gam-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi. Shoirning yoshligidan to vafotiga qadar bo'lgan hayotining muhim sanalari, ijodi, davlat ishlaridagi faoliyati, xulqi, savobli va xayrli ishlari, ilm-fan va san'atga homiyliigi, mehr –muruvvati, saxovatpeshaligi, yurt obodonchiligi uchun sa'y – harakati, g'arib, bechora va kambag'allar, yetim- yesirlarga g'amxo'rliigi, kamtarliigi, hokisorliigi haqida mufassal ma'lumot beriladi.

Alisher Navoiy: "Ilm – cheksiz ummon, tubsiz quduq", - deydi. Ilm egallash, ilm sohibi bo'lish insoniy fazilatlarining shakllanishida ma'naviy olamning shakllanishida, ma'naviy olamning boyishida, komillik sari intilishda ilmning ahamiyati beqiyos ekanliigi aytiladi. Insonga yordam bermaydigan, mushkullarni hal qilmaydigan ilm befoyda ilm ekanliigi aytilgan. Shoir yana insonni kamolotga yetkazuvchi insoniy xislatlardan biri so'z so'zlash odobidir. Bu shundan dalolat beradiki, so'z va uni to'g'ri so'zlash insonning insoniy jihatini ko'rsatuvchi asosiy belgisidir. Xalqimizda "Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi", - degan hikmat bor. So'z -buyuk ne'matdir. Shunday ekan, har birimiz og'zimizdan chiqayotgan har bir so'zga e'tiborli bo'lishimiz lozim. Buyuk shoir "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim guhari sharifroq yo'qdir ondin" – deb uqtirib o'tganlar.

G'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy: "Ilmni amaliyotda kishilarning faoliyati, ish- harakati bilan bog'lash tarafdori bo'lib, bu ishning uddasidan chiqqan olimlar kamolotga yetgan yuksak iqtidor egalaridir", - deb ta'riflaydilar. Mutafakkirimizning ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarini yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlardagi odob-axloq, ta'lim-tarbiyaviy g'oyalarni o'quvchilar ongida shakllantirishda turli kreativ usullar: bunga suhbat, ma'ruza, tushuntirish, pand-nasihath usullari kirib, o'quv-tarbiya jarayonida ulardan foydalangan holda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Undan ko'zlangan maqsad-shaxsga xatti-harakatlar, voqea – hodisalarga nisbatan u yoki bu talablarning ma'naviy - axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, jismoniy, estetik jihatlarini ochib berish, yoshlarda

xulq – atvor va insoniy munosabatlarga to‘g‘ri baho berishni shakllantirishda ko‘maklashishdan iborat.

Odatlantirish metodi: ushbu metod orqali o‘quvchilar mehnatsevarlik, tejamkorlik hamda ijodkorlik ko‘nikmalarini egallashga odatlantiriladi.

Rag‘batlantirish metodi: o‘quvchilarning xatti-harakatlarini faollashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Bu esa o‘quvchilar bilimlarni chuqur egallash, kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash, tinimsiz harakat qilishga undaydi. O‘quvchilar orasida turli musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish yuqori samara beradi. Asosan, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni faollar, ilg‘orlar qatoriga ko‘tarishga yordam beradi.

Mutafakkirning o‘quvchilar tarbiyasiga, bilimiga oid asarlaridan darslarda unumli foydalanish bugungi kunda ham muhimdir. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ilmni o‘rganib, unga amal qilmagan kishilarni qoralab, ularni “urug‘ sochib hosil ololmagan” dehqonga o‘xshatadi. Boshqa bir joyda esa fosiq olim bilan davlatmand baxilni bir-biriga qiyoslab, “ Bu ikki kishi umrni bekorga o‘tkazdi va go‘riga hasrat va armon olib ketdi. Biri buki, ilm o‘rganishga mashaqqat chekdi - amal qilmadi, biri buki, mol yig‘ishga mehnat qildi, sarf qilishni bilmadi” - deydi. Olim o‘z bilimini turmushga qo‘llay olmasa, uning butun harakatlari zoye ketadi, jamiyatga foydasi tegmaydi. Alisher Navoiyning bu o‘g‘itlari bilan oila muhitida qurollangan farzandlar komil inson bo‘lmoq uchun qunt bilan o‘qiydilar. O‘z ilm va mehnatlarini ona - Vatan ravnaqi yo‘liga sarflaydilar.

Alisher Navoiy ma‘naviy -axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritir ekan, tarix fanini o‘rganishning afzalligi haqida fikr yuritib, bu fan dunyoda ne -ne saltanat va podshohliklar o‘tganini, davlat boshliqlarining ba'zilari xalqqa zulm qilganliklari, yana boshqalari esa adolat va xayrli ishlar bilan dong chiqargani, mamlakatlarning obod bo‘lishi va inqirozga yuz tutishi haqida xabar berishini ta'kidlaydi. A. Navoiy tarixni bilishning ahamiyati katta ekanligini ta'riflab, odamlarni eng yuksak ma‘naviy qadriyat sifatida o‘rganishga da‘vat etadi. U kishilarni nodon va johillardan uzoqda yurishga, ular bilan yaqin munosabatda bo‘lmaslikka, do‘st tutunmaslikka da‘vat etadi hamda nodon do‘stni do‘stlar qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, chunki undan hamma vaqt zarar yetadi.

A. Navoiy nodon va johil kishilar haqida: “Ishi g‘urur va takabbur, hayolida yuz buzuq tasavvur, har bir mujmal ishi o‘ziga ma‘qul, barcha jirkach qiligi o‘ziga maqbul, ko‘nglidakishilargayuz ozor, xayoli va johilligida xalqqa ming zarar ehtimoli” – deydi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy har qanday savodsizlik va jaholatning ko'inishiga qarshi chiqdilar, aqlning, donolikning qudratiga ishondi hamda jamiyatda uchrab turadigan har qanday tubanlikni, illatlarni yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar orqali bartaraf etmoqchi bo'ldilar. Hozirgi vaqtda ilm-fanga, uning yutuqlariga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga oshib bormoqda. Bu esa kishilarning aqliy qobiliyati, o'tkirilmay salohiyati ma'naviy-axloqiy fazilatlarisiz amalga oshmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mutafakkir shoir Alisher Navoiyning yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bo'lmish axloq, aql va ilm-fan uyg'unligi haqida aytgan qimmatli fikrlari, ibratomuz, so'zlari o'zligimizni anglashda kishilarning ma'naviyatini yuksaltirishda, yoshlarni bilimli, aql-zakovatli, odobli, oliyanob fazilatlar egasi bo'lgan komil insonlar qilib tarbiyalashda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi deb o'ylaymiz. Shuningdek, yuksak ma'naviy-axloqiy me'zonlar asosida qurilgan oilalar mustahkam bo'ladi. Negaki, jamiyatda oilaning mustaqilligi, farovonligi, o'zaro hurmat va ahillik asosida qurilishini ta'minlashda o'zbek xalqining Alisher Navoiydek buyuk mutafakkirlari o'gitlaridan unumli foydalanish yaxshi samaralar berishiga shak-shubha yo'q!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarlar, (13-jild, T., 1966, 226-227-betlar).
2. Alisher Navoiyning ijod maktabi. R. Vohidov Buxoro. 1994-y.

NAVOIY – BAYTUL HIKMA

Bakrullayeva Sabohat

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

18-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Alisher Navoiy hayoti faqat ijod bilan bo'liq emasligi hech kimga sir emas. U o'z davrining buyuk tarixchisi bo'lib, osha davr siyosati, iqtisodiyoti haqida ham o'z asarlarida ma'lumotlar berib borgan. Bolalik va yoshlik yillari muhim davlat arboblari va allomalar orasida o'tgani sababidan, Navoiyning kelajakdagi davlat ishlaridagi muvaffaqiyatlariga asos bo'lgan. Ayniqsa, Temuriylar davlati davrida muhim lavozimlarda ishlagan, Navoiy Husayn Bayqarodek sultonga butun umrlik do'st edi.

Kalit so'zlar: Navoiy asarlari, Husayn Boyqaro davri siyosati, tarixiy asarlar, din, siyosat, chig'atoy tili.

Аннотация. Не секрет, что жизнь Алишера Навои – это не только творчество. Он был великим историком своего времени и в своих произведениях давал информацию о политике и экономике того времени. В связи с тем, что его детство и юность прошли среди видных государственных деятелей и ученых, будущее государство Навои было основой их успеха в работе. Особенно в период государства Тимуридов Навои Хусейн Байкарадек был давним другом султана, занимавшим важные посты.

Ключевые слова: Творчество Навои, политика периода Хусейна Бойгаро, исторические труды, религия, политика, чигатайский язык.

Annotation. It's no secret that Alisher Navoi's life is not only creativity. He was a great historian of his time and his works provided information about the politics and economics of his time. Due to the fact that his childhood and youth were spent among prominent statesmen and scientists, the future state of Navoi was the basis of their success at work. Especially during the period of the Timurid state of Navoi, Hussein Baykaradek was a long-time friend of the Sultan who held important positions.

Key words: Navoi's creativity, politics of the period of Hussein Boigaro, historical works, religion, politics, Chigatai language.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat shirinsuxan shoir, iste'dodli yozuvchi, dono tadbirkor, davlat arbobi, balki o'z mushohadasiga, dunyoqarashiga ega bo'lgan iqtidorli tarixnavis olim hamdir. Alisher Navoiy o'z davrining yetuk tarixchisi ekanligini uning jahon madaniyatiga qo'shgan ulkan adabiy, tarixiy, falsafiy merosi ko'rsatib turibdi. Agar Navoiy ijtimoiy o'tmish va o'zi yashagan zamon tarixini bilmaganda edi, "Hayratul – abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" (Yetti sayyor), "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori), "Muhokama-tul – lug'atayn" (Ikki til haqida muhokama), "Tarixi mulki ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo" (Anbiyolar va hakimlar tarixi), "Sirojul Muslimin" (Musulmonlik nuri), "Lisonut – tayr" (Qush tili), "Mahbubul – qulub" (Ko'ngillarning sevgani), "Majolisun nafois" (Go'zal majlislar) kabi o'nlab yuksak ma'noli, chuqur ilmiy ahamiyatga molik umri boqiy asarlarni juda qisqa vaqtda yozib ulgurmagan bo'lar edi.

Hazrat Navoiy nafaqat davlat arbobi, balki adabiyot, din va tarixga oid asarlar ham yozgan. Adabiyotga qiziqishi yoshligidan boshlangan Navoiy g'azal yozishga kirishadi. Oilasi va atrofidagi shoirlar bilan birga yashashi, davrning mashhur shoirlari bilan o'rnatgan do'stligi natijasida she'riyatga

qiziqishi ortib, shu yo'nalishda asarlar yozishiga sabab bo'ldi. Ilk asarlarini fors tilida yozgan Alisher keyinchalik turk tilining ustunligini qabul qilib, asarlarini turkiy tilda yozgan. U turkiy asarlari bilan turk madaniyatiga katta xizmatlar ko'rsatdi. Alisher Navoiy ma'lum bir idealni himoya qilgan ekan, buni o'z asarlarida aks ettirdi. Uning asarlari tili soddalik va jiddiylikka asoslangan. Navoiy davlat arbobi sifatida musiqa, rassomlik, me'morchilik va xattotlik bilan ham qiziqdi. Alisher Navoiy til bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo'llagan chig'atoy tili Navoiy tili deb atalgan. Nafaqat Sharqiy Turkistonda, balki Ozarbayjon va Anadoluda ham o'z mehnatlari tufayli o'qib, o'rnak bo'ldilar. Uning qalamiga mansub asarlardan ko'rishimiz mumkinki, uning serqirra shaxs ekanligini tushunamiz. Qolaversa, u o'z davrida yashagan ijodkorlarga homiylik qilgan davlat arbobiga aylandi. Uning hayotligida Hirot madaniyat, san'at, fan va adabiyot markazlaridan biriga aylandi. Bunda xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan Alisher Navoiy o'zining xayrixohligi, davlat arbobi va adabiy shaxsi bilan bog'liq. Uning devonlaridan tortib, she'rlarigacha turkiy hayotning milliy va mahalliy unsurlarini uchratasiz.

Navoiy asarlarining markazida inson muammosi, uning mehnat faoliyati kasb-kori, dunyoqarashi, axloqi, ma'naviyati, ijtimoiy turmushga, jamiyatga munosabati masalasi yotadi. U oliysifat insonlar, ularning fazilatlarini haqida yozadi. Navoiy hayotida ko'plab moddiy nochorlikka, nohaqlik va adolatsizlikka duchor bo'lishiga qaramasdan jamiyatni ham, unda yashayotgan insonlarni ham ulug'laydi. U jamiyatni bir gulshan, bog'-bo'ston, insonni esa shu bo'stonning guli deb ta'riflaydi. Inson faqat shu gulshanda, bo'stonda ya'ni jamiyatda kamol va fayz topishi, o'z qobiliyati va iste'dodini namoyish qilishi mumkin degan xulosaga keladi.

“Tarixi muluki Ajam” va “Tarixi anbiyo va hukamo”da sharq nasri an'analarining ta'siri ham, Navoiyning novatorligi ham namoyon bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu ikki asar aslida Navoiy yaratmoqchi bo'lgan ulkan bir tarixiy asarning fragmentlari, to'g'rirog'i, muqaddima qismidir, ya'ni Navoiy qandaydir sabablarga ko'ra o'z ijodiy niyatini to'liq amalga oshira olmagan. Tarixiy asarlarga bunday muqaddimalar yozish o'rta asr sharq tarixnavisligida Navoiyga qadar shakllangan an'ana bo'lib, bunda so'z avvali ofarinishdan va payg'ambarlar tarixidan boshlanadi. Hozirgi zamon o'quvchisi yoki tadqiqotchisi nazarida bu bir muncha nomaqbul bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin masalaga kengroq yondashib, chuqur va har tomonlama mulohaza qilinganda bu o'rinda muayyan bir mantiq borligi ayon bo'ladi, zero tarix fani faqat o'tmishda yuz bergan voqea va kechmishlarnigina emas, balki tamaddun tarixini, insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyatini ham o'rganishga

da'vat etilgandir. Din esa ma'naviy madaniyatning bir shakli hamda ajralmas uzviy qismi hisoblanadi. Qolaversa, o'rta asr tarixchilirining imkoniyatlari ham shuni taqozo etgan. Eng qadimgi davrlarni ham qamrab oluvchi tarixiy asar yaratishni niyat qilgan o'rta asr muallifi, eng avvalo, diniy manbalarga, muqaddas kitoblarga murojaat qilar edi, zero, bu mavzuga doir, olamning ibtidosi xususida ma'lumot beruvchi boshqa manbalar bo'lmagan.

Navoiy tarixnavisligining salohiyati, qudrati shundaki, u o'z asarlarida butun bir yoki bir nechta xalqlar, davlatlar to'g'risida tafsilot beradi. Xalqlar do'stligi, birodarligi, mehr-oqibatlik Navoiy badiiy, ilmiy asarlarining asosiy g'oyasini tashkil etadi. Navoiy o'rta asr Sharqining oddiygina tarixnavis olimi emas, balki u tarixchi-faylasuf, tarixchi-sotsiolog, tarixchi-etnograf, xudo bilan tabiiy borliqni birlashtiruvchi, ilmni diniy halqada mushohada qiluvchi o'z davrining qomusiy tarixchisi.

Jamiyatda ba'zi kishilar borki, hali hayotliklaridayoq o'lik bo'ladilar, ayrimlari esa dunyodan o'tganlaridan keyin ham necha asrlar, ming yillar osha xalqlarning madaniyatida, ma'naviyatida yashayveradilar. Ajdodimiz, ulug' zot Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning tabarruk nomi va ishi ham ana shunday umri boqiydir. Biz bugun o'rta asr sharqining ulug' mutafakkiri va ma'rifatchisi Alisher Navoiy tavalludining tabarruk 583 yilligini nishonlayotgan ekanmiz, sharqona samimiyat va tavoze bilan uning ruhini xotirlab, imon keltiramiz.

Iste'dodli qalam sohibi o'zining boy adabiy merosi bilan o'zbek xalqining ma'naviy xazinasini yanada boyitdi. Mutafakkir ijodining yuksak namunalari o'qib o'rganish, o'lmas g'oyalarini targ'ib qilish, ayniqsa, yoshlarimizga o'zligini anglatish, ma'naviyatini yuksaltirish, ularni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida, umuminsoniy g'oyalar asosida tarbiyalashda katta o'ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. В.В.Бартольд. Сочинения. Т. 2. Ч.2. Мир Али Шир и политическая жизнь. – М., 1964.

2. Абулғозий. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Маҳмудов. – Т., Чўлпон, 1992.

II SHO'BA.

ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA ILG'OR TAJRIBALAR VA INNOVATSION G'OYALAR

ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA ILG'OR TAJRIBALAR VA INNOVATSION G'OYALAR

G'aniyeva E'tibor Homidovna,

G'ijduvon tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona
tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya. Ta'limni rivojlantirish orqali kelajak farovonligiga erishiladi, shu bois bugungi kunda yosh avlodni o'qitishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar, ya'ni turli innovatsion texnologiyalar kirib kelmoqda. Ushbu maqolada maktab ta'limida adabiyot darslarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati, shoirning nodir adabiy durdonalarini o'rganishda turli interfaol usullardan foydalanish xususida tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, idrok xaritasi, she'riy san'atlar, jadvallar.

Аннотация. Процветание будущего достигается за счет развития образования, поэтому сегодня уделяется внимание образованию подрастающего поколения. Система образования включает в себя современные подходы, то есть различные инновационные технологии. В данной статье даны рекомендации по использованию различных интерактивных методов при изучении жизни и творчества Алишера Навои, редких литературных шедевров поэта на уроках литературы в школьном образовании.

Ключевые слова: инновационные технологии, интерактивные методы, интеллектуальная карта, поэтическое искусство, таблицы.

Abstract. The prosperity of the future is achieved through the development of education, so today attention is paid to the education of the younger generation. The education system includes modern approaches, that is, various innovative technologies. This article provides recommendations on the use of various interactive methods when studying the life and work of

Alisher Navoi, the poet's rare literary masterpieces in literature lessons in school education.

Key words: innovative technologies, interactive methods, intellectual map, poetic arts, tables.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ta'lim tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarni Vatanni sevadigan, o'z bilimi va iste'dodiga suyanadigan hamda mustaqil ravishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bilim oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifalar samarali darslar orqali amalga oshiriladi. Samarali darslarni tashkil etishda esa interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalar qo'l keladi. Zero, prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ham "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhiti ham o'zgarmaydi", – deb ta'kidlaydilar.

Ta'limning interfaol metodlari ta'limda yangiliklar sirasiga kiradi. K. Angelevskiy aytganidek, "... barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim". Shu ma'noda maktab ta'limida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o'rganish, uning ruboiylari, qit'a, fard, g'azallarini tahlil qilishda hamda shoir ijodining gultoji sanalgan "Xamsa" dostonlarida ifoda etilgan g'oyani anglash va o'quvchilar ong-u shuuriga chuqur singdirish va bu noyob durdonalarga bo'lgan qiziqishni uyg'otish adabiyot o'qituvchisidan yangicha yondashuv va mahoratni talab etadi. Bunda esa bizga turli interfaol usullar yordamga keladi. Adabiyot darslarida turli innovatsion usullardan foydalanish o'quvchilarda fanga va o'tilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otadi, ularning diqqatini jalb qilishga yordam beradi.

Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ijodi insoniyat uchun o'ziga xos ibrat maktabi, tarbiya vositasi, so'ngsiz zavq manbayi ekanligi barchaga birday ayon haqiqatdir. Ta'lim bosqichlarida bu betakror shaxs faoliyatiga keng o'rin berilgani ham bejiz emas. Hozirgi kunda maktab ta'limida Milliy o'quv dasturi asosida 5-sinfdan 11-sinfgacha adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodiy faoliyati va uning bizga qoldirgan durdona asarlari uzviylashgan holda o'rganiladi. 5-sinfda "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"dan "Sher

bilan durroj” hikoyati, 6-7-sinf adabiyot darsligida kichik lirik janrda yozilgan ruboiy, qit’a, fardlari berilgan. 10-sinfda esa “Xamsa” tarkibidagi yakunlovchi va hajm jihatdan eng yirik dostoni “Saddi Iskandariy”dan parcha hamda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining ikkinchi devoni “Navodir-ush shabbob” (“Yigitlik nodirliklari”) kitobiga kiritilgan g’azali keltirilgan. Buni o’rganish uchun dasturda 4 soat ajratilgan. Birinchi soatda o’quvchilar Alisher Navoiy hayot yo’li va faoliyatiga oid quyi sinflarda olgan bilimlarini yodga oladilar, xamsachilik tarixi bilan tanishadilar.

Shoir haqidagi bilimlarni umumlashtirishda Idrok xaritasi metodi juda yaxshi samara beradi. Idrok xaritasi o’quvchilarda mavzuni tahlil qilish, tushunish ko’nikmasini rivojlantiradi, o’z fikrlari bilan to’ldirishni o’rgatadi.

IDROK XARITASI



Darsning ikkinchi va uchinchi soatida “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan parcha o’qib tahlil qilinadi. Keltirilgan parchada Iskandar adolati-yu Chingizxon zulmi qalamga olinadi. Asar g’oyasi va timsollarini tahlil qilishda VEN diagrammasidan foydalanish mumkin.

Darsning to’rtinchi soatida Alisher Navoiyning darslikda berilgan “To muhabbat dashti bepoyonida...” g’azali tahlil qilinadi, buyuk alloma ijodiy faoliyati xulosalanadi. Mumtoz asarni tahlil qilish va tushunishda ham bizga bir necha interfaol usullar qo’l keladi.

Mumtoz adabiyotda lug’atlar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mumtoz asarni tushunishda quyidagi namunaviy topshiriqdan ham ijodiy foydalanish mumkin.

T/r	Eski o'zbek adabiy tili	Adabiy til	T/r	Eski o'zbek adabiy tili	Adabiy til	T/r	Eski o'zbek adabiy tili	Adabiy til
1	oshub		5	tiyr		9	hamkora	
2	junun		6	boron		10	mayxora	
3	zaxm		7	dud		11	xunxora	
4	rafiq		8	kavkab		12	Ahbob	

Jadvalli topshiriqlardan foydalanish eng faol usullardan biri hisoblanadi. Bunda o'quvchi mustaqil ishlaydi va esda saqlaydi. Shu o'rinda yana bir jadvalli topshiriq g'azalning badiiy xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

G'azalning qofiyalanish tartibini belgilang	Qofiyadosh so'zlarni va radifini aniqlang	Ostiga chizilgan so'zlarning mazmunini izohlang	G'azalning qisqacha mazmunini sharhlang	G'azalda qo'llangan badiiy san'atni toping

O'quvchiga tayyor tahlillarni bersak, badiiy san'atlarning ham izohini o'zimiz keltirib o'tsak, uning ongida bu vaqtincha saqlanadi. O'quvchi qachonki shu san'at turini mustaqil holda topib olsagina, bu hech qachon esidan chiqmaydigan mustahkam bilim bo'lib qoladi. Bunda Labirint usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

LABIRINT

El netib topqay menikim men o'zimni topmanom, Bo'ylakim ishq-u junun sahrosida ovoramem		Nido		... she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki qahramonlarga ishora qilmoq san'atidir
Qaysi zahming'a qilursen chora chun men, ey rafiq, Tiyr boroni baliyatdin sarosar yoramem		Tazod		She'r baytlarida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar,

				lavhalar yaratish san'ati
Ey xarobot ahli, gar siz mast o'lib, men bo'lmasam, Ayb emas, nechunki siz-mayxora, men xunxoramen		Talmeh		baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar yaratish
Ey Navoiy, bordi deb ahbob, ta'jil etma ko'p, It kibi men erishib ul korvonni boramen		Tan osib		inson qalbidagi his va hayajonlarniochiq va kuchli tasvirlab berish imkoniyati bilan ajralib turadi. Lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisaga, tabiatdagi istalgan narsaga, qalbiga, suhbatdoshiga murojaat qilishi mumkin.

Shu bir necha sahifada Alisher Navoiy ijodini maktabda o'rganishda interfaol usullarni qo'llash bo'yicha imkoniyat darajasida fikr yuritdik, bahs-munozaraga chorladik, tajribalar bilan o'rtoqlashdik. Albatta, har bir o'qituvchining o'z uslubi bor. Yuqoridagi fikrlar ko'satma emas, fikr almashuv, xolos. Adabiyot insonshunoslikdir. Buyuk bobokalonimiz Hazrat Navoiy orzu qilgan oliyanob, komil insonlarni voyaga yetkazishda biz-adabiyot o'qituvchilarining hissamiz katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –T, 2020.
3. Navoiy asarlari lug'ati. – T.2000
4. Ishmurodov R, Yuldashev M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". –T, 2017.
5. Adabiyot. 7-sinf. – T, 2022.
6. Adabiyot. 10-sinf. –T, 2022.
7. Hojiahmedov A. "She'r san'atlarini bilasizmi?" – T, 2001.

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Zayniyeva Billura Shoxitdnovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani
3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 10-sinf adabiyot darsligida berilgan “Saddi Iskandariy” dostoni mavzusini o‘tishda “SAD” strategiyasidan foydalanish va qo‘llash usullari tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: dostonning tuzilishi, ya’juj, ma’juj, dekoratsiya, jadval, sxema, devoriy gazeta.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi 2022-yil nashrga tavsiya etgan 10-sinf uchun adabiyot darsligida Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoniga kiruvchi “Saddi Iskandariy” dostoni uchn ma’lum dars soati ajratilgan. “saddi Iskandariy”(“Iskandar devoir” – “Xamsa”ning yakunlovchi va hajm jihatdan eng yirik dostoni bo‘lib , unda ma’rifatli shoh Iskandar Zulqarnaynning sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

Ushbu dostonni o‘quvchi yoshlarga o‘rgatish jarayonida “SAD” (uchlik- Samarali,Axloqiy, Didli) strategiyasini taklif etaman. Strategiya o‘quvchilarda yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlash,ijodkorlik, tashkilotchilik ,ishga mas’uliyat bilan yondashish ,bajarilgan ishlarni yuksak did bilan taqdim etish, namoyish etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1. “Saddi Iskandariy” dostoni tuzilishini jadval yordamida yoritish;
Bunda o‘quvchilar shunday jadval tuzishadi:

Muqaddimqa (1-14- boblar)	Asosiy qism (15-83 – boblar)	Xotima (84-89- boblar)
- Allohga hamd; - Muhammad (s.a.v.) vasfi (na’t) - “Xamsa”ning yozilish tarixi; - Ustozlar madhi; - Sulton Husayn Boyqaro va uning og‘li shahzoda Badiuzzamon ta’rifi; Qadimgi Eron shohlari tarixi	- Iskandar voqealari bayoni.Tuzilishi: - Iskandar hayotidan bir voqea; - Voqeada ko‘tarilgan axloqiy muammoga oid mulohazalar; - hikoyat; Arastu va Iskandar suhbat	- Husayn Boyqaro va uning farzandlari ta’rifi; - Hakimlar - (donishmandlar) ta’rifi; - Ukase Darveshaliga nasihatlar; - xulosa

2. "Saddi Iskandariy" dostoni mohiyatini yorituvchi ilmiy yoki devoriy gazeta tayyorlash;

O'quvchilar ushbu gazetani tayyorlashda dostoniga ishlangan minatura va suratlar bilan bezashi mumkin.

3. "Saddi Iskandariy" asarida ifodalangan jarayon ,hodisa ,buyum yoki predmetning maketini tayyorlash;

Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilar Iskandar Zulqarnayn qurdirgan devor maketini plastillinda tayyorlashlari va taqdim etishlari mumkin;

4. "Saddi Iskandariy " dostoniga yaqin mavzuga yoki uni to'ldiruvchi ma'lumotlar asosida ilmiy maqola yozish;

Bunda o'quvchilar "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" dan olingan ma'lumotlar asosida ilmiy maqola yozishlari mumkin.

5. Alisher Navoiy ijodiyotini yorituvchi anjuman tashkil etiladigan joyni bezatish uchun dekoratsiyalar tayyorlash; Bunda o'quvchilar Iskandar Zulqarnayn suratini chizishlari yoki "Xamsa" kitobining maketini tayyorlashlari yoki ya'juj- ma'juj haykalchalarini plastillinda tayyorlashlari mumkin.

Yuqoridagi topshiriqlarni berishdan avval o'quvchilar 4 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun 25 daqiqa, taqdim etish uchun 5 daqiqa belgilanadi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o'z ishlarini taqdim etadi. Taqdimot vaqtida guruhlar o'z ishlarining har bir detalini izohlaydi. Muhokama jarayonida o'quvchilar eng sifatli ,didli mazmunan yuksak saviyada bajarilgan ishni aniqlaydi.

Izoh: kichik guruhlarda o'quvchilar rassom ,adabiy muharrir va dizayn (bezakchi) rollarini bajarishadi.Kichik guruhlar o'rganilgan mavzuga doir sxema, jadval, slayd, dekoratsiya tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayeva Z, Jalilov K. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik.Toshkent.2022.

2. Ro'ziyeva D,Usmonboyeva M, Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Toshkent .2013.

3. Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING "O "TKAN KUNLAR" ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.

ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA ILG'OR TAJRIBALAR VA INNOVATSION G'OYALAR

Ikromova Ra'no Raxmonovna

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi
13-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Alisher Navoiy ijodini anglash va o'rganish har bir davr uchun muhim. Bugun ulug' shoirni anglash bo'yicha "Zukko kitobxon", "G'avvos", "Adib portfeli" kabi metodlaridan foydalanish haqida aytib o'tamiz.

Kalit so'zlari: Navoiy shaxsiyati, komillik, xotira, mashqi, "Zukko kitobxon", "G'avvos" metodi, "Adib portfeli".

Аннотация: Изучение творчества А.Наваи является важным во все времена. Сегодня поговорим о методах «Умный чтец (им читатель)», «Портфель поэта», изучающие творчество великого поэта.

Ключивые слова: жизнь творчества А.Наваи, совершенство «Умный читатель», «Упражнение на память», «Портфель поэта».


Annotation. Understanding and studying Alisher Navoi's work is important for every period. Today we will talk about the use of methods such as the "Intelligent reader's", diver's "Literary portfolio" to understand the great poet.

*Xushdurur bog'i koinot guli,
Borchadin yaxshiroq-hayot guli.*


(Alisher Navoiy "Sab'ayi sayyor" dostonidan)

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning milliy g'ururi, shon-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas san'atkordir.

O'zbek adabiyotshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarning salmoqli qismi Alisher Navoiy hayoti va ijodi yuzasidan bajarilgan ilmiy ishlardir. Adabiyotshunoslik ilmi darg'alarining ko'pchilik qismi ham navoiyshunos olimlardir. Navoiy asarlari, ularning badiiy xususiyatlari N.M.Mallayev, A.Hayitmetov, A.Qayumov, I.Haqqulov kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ko'p asrlik ma'naviy boylik g'oyalarini bugungi kun yoshlariga yetkazish esa har bir ustozning burchidir. Navoiy asarlarini anglash uchun, avvalo, Navoiy shaxsiyati haqida o'quvchilarga chuqurroq tushuncha berish lozim.



Alisher Navoiy hayot yo'lini darajalab zinama-zina shaklida qiyoslab tushuntirish ham mumkin.



O'quvchilar buyuk shoirning hayoti va ijod yo'li haqidagi ma'lumotlarni ketma-ketlikda joylashtirib beradi. Bu ma'lumotlar raqamlar va "Xotira mashqi" da yanada mustahkamlanadi.

“Adib portfeli” metodi ham o‘quvchilarni ziyraklikka undovchi usullardan biri.



Adib

“Zarbulmasal”

“Bo‘ston”

“Mahbub – ul qulub”

“Hayrat –ul abro

“Guliston”

“Lison-ut tayr”

portfeli

Bir qancha asar nomlaridan Navoiy asarlarini topib portfelga joylashtiriladi., Biz bilamizki, Navoiy asarlarini ruboiy, qit‘a, g‘azallarini anglash uchun atamalarga oid lug‘atlarni ham bilish zarur. Darslikda berilgan ruboiy va tahlillarga to‘xtalamiz:

Kim egri erur, tuzluk emas poyasi ham
Bor o‘zudek egri sud-u sarmoyasi ham.
Tuzluk ermas shifosi-yu voyasi ham,
Kim , egri kishining egridur soyasi ham.

Tuzluk- to‘g‘rilik, halollik poya- asos , poydevor sud- foyda , naf voya- foyda.

Yolg‘onchi , nokas, yomon insonning hech bir harakatida, amalida to‘g‘rilik bo‘lmaydi. Bor bo‘lganda ham o‘zidek yomon, o‘rinsiz amallar bo‘ladi. Hech bir amalida halollikdan nishona yo‘qdir. Chunki har vaqt egri kishining soyasi ham egri bo‘lg‘usidir.

Mumtoz adabiyot janridagi she‘rlarini ma‘nosini o‘quvchilarga chuqurroq singdirish maqsadida “G‘avvos” metodidan foydalansa bo‘ladi. She‘r g‘oyasiga oid bir qancha maqol va matallar beriladi. O‘quvchi she‘r matniga oid maqolni topib izohlaydi.

Farzand ato qullig‘in chu odat qilg‘ay,
Ul odat birla kasbi saodat qilg‘ay.
Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,
O‘g‘lidin bu ish anga siroyat qilg‘ay.

Qullug‘- itoat, xizmat rioyat- hurmat, siyosat , ta‘sir, yuqish.

Farzand har doim otasining xizmatida itoatli bo‘lishi, chaqirganda, yo‘qlaganda “labbay” deb javob bermog‘i kerak. Agar shu odatlarni o‘ziga kasb qilib olsa, baxt- saodatga erishadi. Otamizga qilgan hurmatimiz, xizmatimiz ertaga farzandlarmizdan, albatta , qaytgusidir.

Yuqoridagi ruboiylarga mos maqollarni g‘avvos bo‘lib topishadi.

1. Asli qora oqarmas,
Asli yomon tuzalmas.

2. Yaxshiga yondosh,
yomondan qoch.

3. Nima eksang, shuni o'rsan. 4. Qush uyasida ko'rganini qiladi.

“Olqishlar” ()metodi orqali o'quvchilar ruboiy, qit'a, fardda berilgan, ulug'langan fazilatni topib ustoz va sinfdoshlari tomonidan olqishlanadi.

Alisher Navoiy ijodi tubsiz, poyonsiz ummon. Bu ummonning dur-u gavharlaridan bahramand bo'lish har birimizning burchimizdir. Yuqoridagi metodlar orqali kitobxonni, o'quvchilarni Alisher Navoiy ijodidan bahramand qilgan bo'lamiz. Zero, “Navoiyni har kim – har kun o'qimog'i kerak”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Ma'naviyat qalb quyoshi”. Ma'lumotnoma. Toshkent -2013.
2. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn”. Toshkent -2014.
3. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”. Toshkent -2013.
4. 8-sinf adabiyot darslik. Sultonmurod Olim, Sunnat Axmedov, R. Qo'chqorov. Toshkent -2019.
5. 6-sinf adabiyot darsligi. Z. Mirzayeva, R. Jalilov. Toshkent-2022.
6. Adabiyot 7-sinf darsligi. Toshkent -2022.

ALISHER NAVOIY IJODINI O'QUVCHILARGA O'RGATISHDA YANGICHA YONDASHUV

Karimova Laylo Izzatullayevna,
Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi
21-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 11-sinf o'zbek tili darsligining “Adabiy o'qish” mavzusida berilgan “Alisher Navoiy” ijodini o'rganish bo'yicha o'quvchilarga yangicha metodlar asosida bilim berish nazarda tutiladi. Shu orqali o'quvchilarning Navoiy ijodini oson tushunishlariga erishiladi.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, g'azal, ijodiy merosi, devon, hikmatli so'zlar, “Xamsa”, Renaissance.

Annotation. This article provides the knowledge about teaching learners the literary works of Alisher Navai through new teaching methods on the theme of “Literary reading” in the textbook of Uzbek language for the grade 11. Through this, it is expected to teach learners the literary works of Navai in an easy way.

Key words: interactive teaching, gazal, literary heritage, devan, moral words, “Khamsa”, Renaissance.

Аннотация. В данной статье рассмотрена тема “Творчество Алишера Навои” по учебнику узбекского языка для 11 класса в разделе

Литературное чтение В статье рассмотрены новые методы , посредством которых достигается лучшее понимание учащимся творческого наследия великого поэта.

Ключевые слова: интерактивное образование, газель, творческое наследие, диван (поэма), афоризмы, Хамса, ренессанс.

Barchamizga sir emaski, dunyoda mumtoz adabiy til yaratgan xalqlar uncha ko'p emas. Sababi mumtoz adabiy tilning yaratilishi va rivojlanishi Renessans deb ataladigan va har ming yilda bir necha martagina yuz beradigan madaniy-ma'naviy yuksalish hodisalari bilan bog'liqdir. Navoiy dahosi xuddi ana shunday noyob hodisa bo'lib, XV asrda mintaqada Renessans davrining boshlanishi va xalqning millatga aylanishi uchun shart-sharoit yaratib bergan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ana shunday buyuk siymo ijodini bugungi kunda yosh avlodga o'rgatish, uning asarlaridagi g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish uchun yangicha pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. Ayniqsa, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktab o'quvchilari uchun Navoiy ijodini o'rganish, undagi g'oyalarni tushunish biroz murakkablik qiladi. Shu sababli men 11-sinf "O'zbek tili darsligida berilgan "Alisher Navoiy ijodi" va "Xamsa" dostoni tarkibiga kiruvchi birinchi doston "Hayrat ul-abror" dagi maqolotlar tahlili mavzularini o'tishda bir qancha samarali metodlarni tavsiya etaman.

Dastavval "Navoiy" mavzusini o'tishda, albatta, Navoiy asarlarining qisqacha lug'ati bilan o'quvchilarni tanishtiramiz. Buning uchun darslikda berilgan lug'atlardan tashqari o'qituvchining o'zi ham qo'shimcha lug'at bilan o'quvchilarni tanishtirishi kerak. "Lug'at diktant" metodidan foydalanib, darsning kirish qismida o'quvchilarga lug'at daftarlariga Navoiy asarlarida uchraydigan qiyin so'zlarning lug'atlarini yozdiramiz. Bu metodning samarali jihati shundaki, o'quvchilarning ham yozma, ham og'zaki savodxonligi tekshiriladi. O'quvchilarda to'g'ri yozish ko'nikmasi shakllantiriladi va o'qituvchi tomonidan so'zlarning imlosi tekshiriladi. Masalan:

1. Navoiy – kuy
2. Foniy – o'tkinchi
3. Iblis – shayton
4. Ibtido – boshlanish
5. Il – qo'l
6. Inju – marvarid, dur
7. Irfon – bilish, ma'rifat, xudoni tanish

8. Istig'for –kechirim, avf so'rash, tavba qilish.
9. Karam- yaxshilik, ehson
10. Karomat – mo'jiza ko'rsatish.

Keyingi topshirig'imiz A4 format metodi asosida bo'ladi va Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan audiomatn o'qituvchi tomonidan qo'yib beriladi. Audiomatn tinglangandan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga qo'llaridagi A4 format qog'ozga shoir ijodidan o'zlari eng qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni yozishlari topshiriladi. Eng ko'p ma'lumot yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bunda ma'lumotning qiziqarliligi ham e'tiborga olinadi.

“Hayrat ul-abror” dostonidagi “Sher bilan durroj” va “Ikki do'st” haqidagi hikoyati o'quvchilar tomonidan o'qiladi va o'qituvchi tomonidan “Obraz” metodi asosida o'quvchilar bilan mustahkamlanadi. Sinf o'quvchilari 2 guruhga bo'linadi. Birinchi guruh “Sher bilan durroj” hikoyatini tahlil qiladilar, ikkinchi guruh “Ikki do'st” hikoyatini. Masalan: o'qituvchi quyidagicha savol berishi mumkin:

1.Sizningcha hikoyadagi durroj va sher obrazlarini ham ijobiy ham salbiy obrazga kiritishimiz mumkinmi,?

2.Sher va durrojdagisifatlarni yozing.

3.Maktabda sizning ham durrojga o'xshagan do'stlaringiz bormi?

4.Siz hayotda sher obraziga o'xshagingiz kelarmidi?

5.Hech o'ylab ko'rganmisiz nima uchun hayotda har doim ham yaxshilikka yaxshilik qaytmaydi. Sababini hayotiy misollar bilan izohlang.

6.To'g'ri so'zlik yaxshi odatmi?

7.Ishonuvchanlik insonga hayotda pand beradimi? Ishonchsizlik, shubha, gumon bilan yashash inson hayotini qiyinlashtirmaydimi?

8.Hikoyatning xotimasi sizni qoniqtirdimi? Siz muallif bo'lganingizda hikoyatni qanday yakunlagan bo'lardingiz?

Ikkinchi guruhning “Obraz” metodi asosida ikki do'st obrazini tahlil qilishlari uchun savollar:

1.“Qanoat” va qanoatsizlik” tushunchalariga ta'rif bering.

2.Bolani yoshlikdan sabr-toqatli, qanoatli qilib tarbiyalash uchun sizningcha ota-ona nima qilishi kerak? O'zingizning ota-onangiz misolida tushuntiring.

3.Ikkinchi yigit nega “qanoatni boylikka tenglashtiradi?” sababini hikoya matniga tayanib izohlang.

4.Ikki yigitning tabiatiga xos bo'lgan sifatlarni ayting.

5.Sizda ham shunday holat bo'lganda, siz nimani tanlar edingiz?

6.Sabr, toqat ortidan har doim ham baxtga erishib bo'ladimi?

7.O'zingizning hayotingizda ham shunday voqea sodir bo'lganmi?

8.“Xomtama bu dunyoda alam chekadi” degan hukm kimga nisbatan aytilgan va ushbu jumlaning ma’nosini tushuntirishga harakat qiling.

9.Siz hikoyatni qanday yakunlar edingiz, do’stingizni podsho bo’lganingizdan so’ng yoningizga olib, unga ham lavozim bergan bo’larmidingiz?

Shu tariqa o’quvchilarning ikki hikoyatdagi to’rtta obrazga bergan ta’riflarini eshitamiz. Bu metodning afzalliklari:

1. Yangi mavzu qisqa vaqt ichida o’quvchilar tomonidan qay darajada mustahkamlanganligi va o’quvchida qanday bo’shliqlar borligi o’qituvchiga aniq bo’ladi va unda shu bo’shliqlarni dars jarayonida to’ldirib borish imkoniyati vujudga keladi.

2. Jamoada ishlash orqali o’quvchida o’zaro hamkorlik, fikr almashish, do’stona muhit, boshqaruv qobiliyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek tili darslarining “Adabiy o’qish” mavzularida berilgan mumtoz adabiyot vakillarining hayoti va ijodi, ularning asarlarining tahlili, mazmun-mohiyatini ochib berish, o’quvchi ongiga singdirish biroz murakkablik qiladi. Shu sababli ham biz pedagoglar mana shunday jarayonlarda, zamonaviy, ilg’or pedagogik texnologiyalardan, yangicha metodlardan foydalansak, o’quvchilarda bu jarayon qiziqarli kechadi va xotirasida ham uzoq muddat muhrlanadi. Eng muhimi o’quvchi mavzuning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetadi, bugungi kun ta’limining ham bosh maqsadi shu. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo’lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko’plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug’iladi...”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Sh. Mirziyoyev. “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag’ishlangan bayram tabrigidagi nutqi. 2020.08.12.

2.Izzat Sulton. “Navoiyning qalb daftari”. T.:G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1969.

3.Abduqodir Hayitmetov. “Navoiy lirikasi”. T.O’zbekiston,2015.

4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. 4 jildlik. T.:”Fan”, 1983-1985.

“SABBAYI SAYYOR” DOSTONINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Muhabbat Olimova Baxtiyorovna,

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

50-son maktabning ona tili va

adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishlash bo‘yicha o‘quvchilarda ko‘nikmalarni shakllantirish zamonaviy texnologiyalar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Navdarshoh, Nu'mon, Mehr, Suhayl, Jobir, “Mosini top”, “Toifalash” metodi, “Ha yoki yo‘q” metodi.

O‘quvchini komil inson qilib tarbiyalashda adabiyotning o‘rni muhim. Bu borada, ayniqsa, o‘zbek klassik asarlari durdonalari, mumtoz asarlarning ahamiyati katta. Mumtoz asarlarni o‘qish, o‘rganish murakkabroq bo‘lgani bois, o‘quvchi uchun qiyin tuyuladi. Shuning uchun o‘qituvchi mumtoz asarlarni o‘qitishda o‘quvchilarga oson o‘zlashtiradigan, ular uchun qiziqarli hisoblangan usullardan foydalanishi kerak. Ayniqsa mumtoz asarni tahlil qilishda lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish klassik adabiyotlarimizni tushunishlariga yordam beribgina qolmay, o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Mumtoz adabiyotimizni bilmay turib mukammallikka erishib bo‘lmaydi. Shuningdek, ushbu maqolada bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishlash bo‘yicha o‘quvchilarda ko‘nikmalarni shakllantirish zamonaviy texnologiyalar asosida ochib beriladi. Bu orqali mumtoz adabiyotning durdona asarlari bilan yaqindan tanishish, uning zohiriy va botiniy ma‘nolarini anglab yetish, o‘qish, tinglash, tushunish, gapirish va yozish malakalari ham rivojlanib boradi.

Alloma shoir Alisher Navoiy asrlar mobaynida necha-necha avlodlarni tarbiyalab kelmoqda. Adib qoldirgan ulkan ta‘lim va tarbiya maktabi faqat badiiy jilosi bilangina emas, ma‘rifiy bilim berishi, aqliy tarbiyaga ko‘rsatadigan ijobiy ta‘siri, yoshlarimizning dunyoqarashini behad kengaytirishi bilan ham, ularning atrof-muhitga, olam va odamga xayrixohlik qarashni o‘rganishlariga, ezgulik qilishlariga, yaxshi ishlarni amalga oshirish uchun kamarbasta bo‘lishlariga turtki berib turishida ham qiyossizdir.

Ma‘lumli, g‘azallar tahlilida ikki tahlil usuli muhim sanaladi: tashqi va ichki tahlil. Tashqi tahlilda mumtoz she‘rlarning hajmi, vazni, qofiyadosh

so'zlari, radifi, mavzusi, tushunarsiz so'zlar lug'ati kabilar aniqlanadi. Ichki tahlilda esa asarning g'oyasi, mazmuni, muallifning maqsadi she'riy san'atlar orqali o'rganiladi. Demak, o'quvchi o'qiyotgan ijod namunasini tushunib, anglashi uchun adabiy bilimlardan to'la xabardor bo'lmog'i lozim.

Mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishda interfaol ta'limning bahs-munozara, muammoli vaziyat, trening, rolli o'yin, debat, intervyu, videotahlil, taqdimot (yoki himoya) kabi metodlaridan foydalanish ko'zlangan samara omili bo'lib xizmat qiladi. Hozir sizga Navoiyning "Sabba'i sayyor" dostoni tarkibiga kiruvchi "Mehr va Suhayl" hikoyasini o'tishda foydalanish uchun bir qancha interfaol usullarni keltirib o'tamiz. Ushbu asar amaldagi darsliklarda kiritilmagan bo'lsada, mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan tahlil, mustahkamlash darslarida yoki to'garak mashg'ulotlarida o'tish maqsadga muvofiqdir. Zero Navoiy merosi tuganmas xazina.

"Mehr va Suhayl" dostonini o'qish o'quvchiga birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Bu mavzuni o'qitishda o'qituvchidan katta mahorat talab qilinadi. Avvalombor, o'qituvchi "Sab'ai sayyor" dostoni haqida umumiy ma'lumot berishi kerak. Asar hikoya ichida hikoya janrida berilgan bo'lib, "Mehr va Suhayl" dostoni chorshanba kuni beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning aytgan hikoyasidir. Ushbu hikoya o'quvchiga tushunilishi oson bo'lishi uchun olti qism qilib berilgan.

I. Suv va quruqlikda zulmni o'ziga kasb qilib olgan zolim qaroqchi va uning makoni ta'rifi

II. Sohibjamol Mehr vasfi va uning tasodif bo'roni tufayli Jobir qo'lida asira bo'lganligi bayoni

III. Ko'rkam Suhayl ta'rifi, tutqinlikdagi Mehr iztiroblari tasviri va to'y taraddudida dengizdan yo'lga chiqqan Suhaylning hiyla domiga bandi bo'lganligi to'g'risida

IV. Qizining boshiga tushgan kulfatni eshitib, Navdarshohning shoh Nu'monga maktub yo'llagani hamda shohning Jobir tomon qo'shin tortgani bayonida

V. Ov ketidan quvib sipohidan ajralgan Navdarshohning Jobir odamlari tuzog'iga ilingani, to'fon ofatidan halokatga uchragan shoh No'monning Jobirga asir tushgani haqida

VI. Mehrning o'z qallig'ini chohdan chiqarib parvarish qilgani va Suhaylning yuzma-yuz olishuvida Jobirni yengib, so'ngida barchalarining murodga yetganliklari to'g'risida.

Hikoya chorshanba kuni tinglangan. Chorshanba kunini xalqimiz "murodbaxsh" kun deydi. Rabg'uziyda keltirilishicha, ushbu kun Olloh suvni

yaratdi,yellarni,bulutlarni chiqardi,daraxtlar,o't-o'lanlarni yaratdi,hammaga rizq-ro'z ulashdi. Hikoyada moviy rang ustunlik qiladi.Ko'pgina voqealarning dengizda sodir bo'lishi, Jobirning orolida faqat nilufar guli o'sishi,Mehrning ham nilufarrang libos kiyishi kabi holatlarda moviy rangni ko'rish mumkin.Navoiy chorshanba kuni bilan moviy rangni bog'liqlikda tasvirlagan.

Navoiy qahramonlarini tashqi qiyofasini ham,ichki dunyosini kamchiliklarsiz mukammal yaratishga erishgan.

Anda shohi saxiyu donishvar
Qabzayi hukmi ichra ul kishvar.
Oti Navdar va lek o'zi nodir,
Tab'i har nodir ish aro qodir.
Anda bir shoh hokim-u voliy,
Mulki ma'mur-u1 himmati oliy.
Oti Nu'monu mulki oti Yaman,
Adlidin mulki guliston-u chaman.

Navoiy hikoyada shohlarning adolat bilan ish ko'ruvchi,saxiy,donishmand,hamma ishga qodir,yurti obod,xalq orzusidagi yo'lboshchini gavdalantirdi.Mehrning go'zalligini sakkiz baytda chizib ko'rsatadi.Suhaylni esa barcha fazilatlarda tengi yo'q,komil inson qilib tasvirlaydi.

Navoiy boshqa asarlari singari ushbu hikoyasida ham til xususiyatlariga katta e'tibor qaratgan. So'zlarning shakl va ma'no xususiyatiga ko'ra turlaridan mohirona foydalangan.

Jahd-u sur'at aro tay aylab arz,
Holatim aylasang Suhaylg'a arz.

Bu yerda arz shakldosh so'z bo'lib,arz-yer,arz qilmoq-shikoyat qilmoq ma'nosida kelib,tajnis she'riyatini yuzaga keltirgan.

Chiqorib shohni o'lum holi,
Kemani moldin qilib xoli.

Ushbu baytda bir tovush bilan farqlanuvchi so'zlarni qo'llash orqali ohangdorlik,ham so'z o'yini vujudga kelgan.

Muallif tashbeh,tazod,istiora,irsoli masal,tanosub kabi badiiy tasvir usullardan unumli foydalangan.

Qaddikim naxli sarfarozi kelib,
Husn bog'ida sarvinozi kelib (Tashbeh)
Bu sifat mehri olamfuruze,
Mehr yo'q,shu'lai jahonso'ze (tajohuli orif)

Hikoyani mustahkamlash uchun bir qancha interfaol usullardan foydalanish mumkin.

"Mosini top" metodida asar qahramonlari ta'rifi almashtirilgan. O'quvchilar ta'riflarning mosini topib o'rniga qo'yishlari kerak.

Nu'mon	Dengiz sohillari uning manzillari edi. Ham tanumandu ham shujou daler'
Navdar	Anda shohi saxiyu donishvar Qabzayi hukmi ichra ul kishvar
Mehr	Yuzidin bargi gul xijil erdi, Qaddidin sarv munfail erdi.
Suhayl	Zulfidin simbul aylabon yuz pech, Og'zidin g'imcha aytmay so'z hech.
Jobir	Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma'mur-u1 himmati oliy

"Toifalash" metodi

Suhayl	Jobir
Barcha hunarlarda tengi yo'q edi, hunar egallashni mayl qilardi, jasur, qo'rqmas, mard edi, Ismining ma'nosi "Yorug' yulduz"	Botir, qo'rqmas edi, yolg'iz, do'sti yo'q edi, kasbi yo'lto'sarlik edi, hiyla ishlatardi Ismining ma'nosi "jabr qiluvchi"

"Ha yoki yo'q" metodi

1. Jobirni quruqlikda yo'lbarsga, suvda nahangga o'xshatiladimi? Ha yoki yo'q

2. Hikoyada "Ham tanumand, ham shujo, ham daler, Ul sifatkim jazira ichraki she'r" deya Jobir ta'riflanadimi? Ha yoki yo'q

3. Jobirga qarshi Navdarshoh sohildan qo'shin tortadimi? Ha yoki yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Yangi asr avlodi, 2016- y
2. B. Hasanov. Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at.
3. "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika 18-ko'p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferensiya materiallari. 8-qism, 2020
4. www.ziyounet.uz

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA QOFIYA SHAKLLARINING BADIY TAHLILI

B.O.Safarova,

BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi talabasi,

N.O.Avazova, BuxDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Xamsa” sining ikkinchi dostoni bo‘lmish “Farhod va Shirin” dostonida asar kompozitsiyasida muhim o‘rin egallaydigan unsurlardan biri hisoblandigan qofiya hamda uning turlari haqida fikr yuritilgan. Dostondagi ayrim baytlar tahlilga tortilib ularning qofiyalanish shakllari to‘liq ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: qofiya, ritm, raviy, oshiq, saj, mutlaq qofiya, muqayyad qofiya, ridfli qofiya, qaydli qofiya, ta’sirli qofiya.

Аннотация: В данной статье описывается рифма и ее виды, которые являются одним из факторов, занимающих важное место в композиции произведения в эпосе «Фарход и Ширин», который является эпосом Алишера Навои «Хамса». Некоторые строфы эпоса были проанализированы и попытались полностью рифмовать.

Ключевые слова: рифма, ритм, рассказчик, возлюбленный, саж, абсолютная рифма, мукайядская рифма, рифмованная рифма, рифмованная рифма, эффективная рифма.

Annotation: This article describes the rhyme and its types, which are one of the factors that occupy an important place in the composition of the work in the epic "Farhod and Shirin", which is the epic of Alisher Navoi's "Khamsa". Some stanzas in the epic have been analyzed and tried to rhyme completely.

Key words: rhyme, rhythm, narrator, lover, saj, absolute rhyme, muqayyad rhyme, rhyming rhyme, rhyming rhyme, effective rhyme.

Turkiy xalqlar o‘gzaki ijodida qofiyaning oddiy so‘z takroridan tortib mukammal mustaqil turlarigacha bo‘lgan shakllari uchraydi. Umuman, o‘zbek og‘zaki va yozma adabiyotida qofiyaning vujudga kelishida saj muhim o‘rin tutadi. Bunga turkiy xalqlarning ko‘plab og‘zaki ijod turlarida, O‘rxun - enasoy yodnomalarida, XI asrda Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Devonu lug‘otit-turk” asarida uchrovchi she’riy parchalaridagi qofiyalar misol bo‘ladi.

Arablar istilosidan keyin turkiy xalqlar she'riyatiga ham aruz she'riy tizimi kirib keladi. IX – X asrlarda esa arab, fors va boshqa xalqlar she'riyatida mumtoz qofiya nazariyasi yaratiladi. Bu nazariya monorim yoki tovushlar uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, qofiya yagona tovush takroriga asoslanadi va bu harf raviy deb ataladi. Raviy so'z o'zagi, yasama so'zlarda negiz oxiridagi undosh, cho'ziq unli ba'zan esa qisqa unlilarning aynan takrorlanishi tufayli yuzaga keladi.

Qofiya tarkibida o'zak va qo'shimchalarning ishtirokiga ko'ra 2xil bo'ladi: 1. Muqayyad qofiya (O'zak qofiya) bunda qofiya so'z faqat o'zakdan iborat bo'ladi, ya'ni raviydan so'ng qo'shimcha kelmaydi. 2. Mutlaq qofiya- bunda qofiya so'z o'zak va qo'shimchalardan tashkil topadi. Bundan tashqari har bir qofiya turi tarkibida tovushlar taqozosiga ko'ra ham bir necha turga bo'linadi.

1. Mutlaq-mujarrad qofiya-qo'shimchali (mutlaq) yakka qofiya. Bunda qofiyaning o'zagiga unli bilan boshlanuvchi bir yopiq bo'g'in yoki o'zakda a, i, o, e unlilaridan biri tirkaladi:

Bihamdik fath abvoh ul maoni

Nasib et ko'ngluma fath o'lmak oni

Bu yerda muqaddima o'rnidagi bu bob ya'ni birinchi bobning birinchi misrasi, adabiy an'anaga ko'ra "hamd"- Alloh taoloning maqtoviga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy yaratuvchining qudratini ta'riflab, uning irodasi bilan qalamga olmoqchi bo'lgan g'oyaviy niyati haqida so'z yuritadi. Bu baytning birinchi misrasi arab tilida yozilgan. Ikkinchi misra esa o'zbek tilidadir. Muqaddima baytiing arab va o'zbek tillaridagi misralardan tashkilotopishn XV asrning ikkinchi yarmida Xurosondagi o'zbek she'riyatining holati, undagi mavjud qoida va an'analardan darak beradi. Bu misralar yana Navoiyning arab tilini mukammal egallagani va bu tilda ham erkin she'r bita olishini ko'rsatib turibdi. Baytning birinchi misrasi arabcha: Ma'nolar eshiklarining ochilishi sening maqtoving bilan, degan mazmunni beradi. Keyingi misrada esa, shoir so'z o'yini san'atini ishlatadi "fath" so'zining ikki ma'nosidan foydalaniladi: ma'nolar eshiklarini ko'nglimga "ochib" ber va ularni "zabt" etishni nasib qil, mazmunida qo'llaydi. Ushbu misralarda mutlaq-mujarrad qofiya turi qo'llangan bo'lib, *maoni*, *oni* so'zlari kelgan, chunki bunda o'zak tarkibida (i) unlisi kelgan.

Bu rangin sahfa balkim, dard bogi,

Ayon har lolasida ishq dog'i.

Bobning avvalgi yetti baytida shoir yana majoziy ma'nodagi "dard bog'i", "lola", "gul bargi", "sunbul", "oqar suv", "g'uncha", "otashin vard" kabi

soʻzlar orqali ishq, uning alamlari, iztiroblari haqida soʻz yuritiladi. Buni shoir ilme badeʼ dagi uygʻunlashtirish sanʼati vositasida amalga oshiradi. Bu yerdagi qofiyadosh soʻzlar dogʻi; bogʻi soʻzlari.

2. Taʼsisli Mutlaq qofiya. Bu qofiya oʻzagida unsuri mavjud boʻlib ,qoʻshimchalardan biri bilan birikib keladi:

Bu maxzun birla koʻnglumga gʻino sol,
Nechakim sochsam ilgimga yano sol.

Bu baytlarda shoir maʼnolar xazinasini qulfiga kalit boʻlishini ,shu vosita bilan barcha umidlariga yetishishni tilaydi, ana shu maʼnolar xazinasidan olamni ,olam ahlini manfaatdor etishni umid qiladi.

Bu baytda qofiyadosh soʻzlar qoʻshimcha soʻzlar bilan birikib, qofiyaning taʼsisli Mutlaq qofiya turini hosil qilgan *gʻino sol, yano sol* kabi;

Durafshonliqqa kilkim fosh qilgʻil
Tilimni dogʻi gavharrosh qilgʻil;

Bu baytlarda “maxzan”, “durafshon”, “gavharrosh”, “dur”, kabi soʻzlar majoziy , yaʼni koʻchma maʼnoda ishlatilgan. Ular mazmun ,maʼno bilan aloqador boʻlib, buni badiiyat haqidagi ilmda “istiora” sanʼati deb yuritiladi. Bu baytda qofiyadosh soʻzlar *fosh qilgʻil, gavharrosh qilgʻil* hisoblanadi.

3. Taʼsis va daxilli Mutlaq qofiya. Bu qofiya oʻzagida taʼsis bilan daxil unsurlari boʻlib, biror qoʻshimchali qofiya bilan birikib keladi:

Fano toʻfoni eltib borin oning,
Jahonda qoʻymayin osorin oning.

Bu bobda shoir yozishga kirishayotgan “Farhod va Shirin” dostonining umumiy talqini ,undagi qahramonlar , personajlarning muxtasar tavsifini beradi. “Dard bogʻi” deb taʼriflangan ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblari haqida yozadi. Shoir xoliq-yaratuvchi xudo sano-maqtoviga kirishar ekan ,eng avvalo, u inson koʻnglini ishq gulshani ,bu gulshanda esa ishqni xazinaga aylantirganligini madh etadi. Bu baytda *borin oning, osorin oning* soʻzlari qofiyadosh soʻzlar boʻlib kelgan

4. Ridfi mufradli Mutlaq qofiya. Bu xil qofiya oʻzagida ridfi mufrad unsuri boʻlib qoʻshimchalardan biri bilan birikib keladi:

Nima koʻp olmogʻimga moneʼ etma,
Necha koʻp olgʻonimga qoneʼ etma.

Ushbu bayt asarning birinchi bobidan parcha hisoblanadi. Bunda shoir mening koʻp soʻragananimga toʻsqinlik qilma, va necha marotaba koʻp olganim uchun meni pushaymon etma-degan maʼnoni bergan. Va bunda barcha soʻzlar Haq Taologa qarata aytilgan jumlar hisoblanadi. Ushbu baytda *moneʼ etma, qoneʼ etma* soʻzlari qofiyaning ridfi mufradli Mutlaq qofiya turini hosil qilgan.

Qofiya tuzilishiga ko'ra 4 turga bo'linadi. Bular mujarrad, murdaf, muqayyad va muassas qofiyalaridir.

1. Mujarrad qofiya bu xil qofiyaning bir turi raviy cho'ziq unlidan iborat bo'lgan qofiya bo'lib, unda shu cho'ziq unlidan boshqa biror harf ishtirok etmaydi. Raviy o'rnida esa uch cho'ziq unlidan istagani kela oladi.

Chechasiz bulbulning ishi navodur,
Oshiqlar har nekim qilsa ravodur.

Ushbu baytda shoir -bekorchi bulbulning ishi faqat bog'da xonish qilish, oshiq insonlar ne ish qilsa ham to'g'ridir, - degan ma'noni ifodalagan. Baytda *navodur*, *ravodur* so'zlari qofiyadosh so'zlardir

2. Murdaf qofiya raviy harfidan oldin cho'ziq unilardan biri kelgan qofiya. She'riyatimizda raviydan oldin "o" cho'ziq unlisi kelgan murdaf qofiya juda ko'p qo'llangan.

Kelgin, ey, dilbarki, asri haddin oshti ishtiyoq,
Dard-u g'am o'tina bag'rimni kabob etti firoq.

Ushbu baytda: dilbarga, ya'ni yoriga murojoti tasvirlangan. SHoir o'zining dilbari tezroq kelishini, uning hajrida kuyayotgani, ishtiyoqi haddan oshib ketganini uning firog'l bag'rini dard va g'amga muhtalo etgani tasvirlangan. Baytda *ishtiyoq*, *firoq* so'zlari qofiyani hosil qilgan. Tirgak tovush -"q" tovushi.

3. Muqayyad qofiya-bu xil qofiyalarda qo'sh undosh qisqa unlidan so'ng keladi. Qisqa unlidan so'ng keladi. Qisqa unli hazv, raviydan oldingi undosh "qayd" deb ataladi.

Kel ey soqiy meni majnuni mast et,
Soching zanjiri birla poybast et.

Bayt sohibjamol yor chorlovi bilan boshlanadi. Bunda yorini kel ey soqiy deb ataydi. Uning kelishi yorni majnun etishi va ishqdan mast bo'lishini aytadi. Ikkinchi misrada esa yorning uzun sochiga ishora mavjud. Kelib meni uzun sochlaring bilan zanjirband qilgin deya ta'riflaydi. Ushbu baytda *mast et*, *poybast et* so'zlari qofiyani hosil qilgan.

4. Muassas qofiya-cho'ziq "O" unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladigan qofiya.

U derlar jumlainolamda g'olib husn erur,
Muntahoi visili matlubli tolib husn erur.

Bayt yor husniga maqtov, tahsin bilan boshlanadi. Jumlai jahonda yorning husni g'olib, ya'ni ustunligi, ikkinchi misrada husni har qanday go'zallarga dars berishi aytilgan. g'olib, tolib so'zlari qofiyadoshdir.

Umuman, qofiya odatda she'riy misralar oxirida kelib, ularni ohangdoshlik, uyg'unlik va mazmuniy yaxlitlik asosida birlashtiradi. Bugungi kunda o'zbek she'riyatida sar-bast tizimning ham ko'proq mavqe egallab borayotganligi bir xildagi poetic asarlarda qofiyaning tutgan orni, tabiati va g'oyaviy-badiiy vazifalarini alohida o'rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Izzat Sulton, Adabiyot nazariyasi, T., 2005
2. Samayolov D.S., Adabiyot nazariyasi. T., 1979.
3. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" "Yangi asr avlodi" 2012. 84 b.
4. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 1-жилд. – Тошкент: F. Фулом, 2011.

O'ZBEK SHOIRALARI IJODIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI TASVIRLARI

Jo'rayeva Dilorom G'aybullayevna

Buxoro shahar 38-maktab direktori,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. ustaqillik davri o'zbek adabiyotida buyuk mutafakkirga bag'ishlab yaratilgan asarlar ayol shoirlar ijodida o'ziga xos, alohidasahifalarini tashkil etadi. Ushbu maqolada mustaqillik davri o'zbek adabiyotidagi ayol shoiralardan Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva va Farida Afro'zning she'rlarida Navoiy obrazining tasvirlari masalasi yoritildi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy obrazi, Navoiy shaxsi tasviri va talqini, mustaqillik davri, Vatan timsoli, she'r, shoir siymosi.

Navoiyga qaytish – uzluksiz va ilhombaxsh jarayon. Uning davomiyligini o'rganish ham ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Shuning uchun Navoiy yashagan davrdan boshlab bugunga qadar buyuk shoir siymosi badiiy talqin etilgan. Zero, mutafakkir shoir tajribalariga tayanib did, saviya va mahoratni yuksaltirish har bir iste'dod uchun ijodiy muvaffaqiyat garovidir. Chunki Navoiy yashagan davr va bu buyuk shaxs ibratli hayotining jozibasi ham buyuk. Ayni jozibaning muhtalolaridan biri Halima Xudoyberdiyeva bir she'rida shunday yozadi:

Navoiy —non. To'sma. Unga borar yo'ldan qoch,
G'ashlik qilma, to'rt yonni ham yoritarkan toj.

Navoiyga o'zin ursa, urma kofirni,

Axir nonga musulmon-u kofir birday och. [1.97]

Alisher Navoiy lirikada kimlarga, nimalarga o'xshatilmagan. Uni yulduzga, oyga, quyoshga, mash'alga, nurga tashbeh etishgan. Ammo bungacha hech kim uni nonga qiyoslagan emas. Har qanday haqiqiy she'riyatning milliy ong va tafakkur mevasi ekanligi aniq. Ammo ayni mana shu haqiqiylikning umuminsoniy ruhini ham ta'min etadi. Non o'zbekning moddiy qadriyatlaridan biri. Biroq u shunday moddiylikki, unda millatning ma'naviyati ham yaxlit holda tajassum topgan. Non haqida xalqimizda ko'plab maqol va matallarning, aytim va udumlarning paydo bo'gani bejiz emas. Shoira mana shu nuqtayi nazarga tayanadi. Shuning uchun ham uning "kofir" so'ziga berayotgan urg'usi milliy va diniy ajratishlarni emas, balki insoniy bag'rikenglikning o'ziga xos ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shoiraning o'ziga xos topildiqlaridan biri xalqimiz tilidagi mashhur iboradan unumli foydalanishda ham namoyon bo'ladi. "O'zini urmoq" ifodasi shiddat bilan harakatlanish, hech nimaga, hech qanday qarshilik va g'ovlarga qaramasdan olg'a intilishning kuchli darajasini anglatadi. Uning ikki ma'noda qo'llanishi keng tarqalgan: ijobiy va salbiy ma'noda. Halima Hudoyberdiyeva uning ijobiy ma'nosini yangi bir ma'naviy sharoit taqozosiga ko'ra qo'llaydi – "Navoiyga o'zini urmoq". Bu ayni paytda shoiraning poetik kashfiyoti ham bo'lib ko'rinadi.

Shoira ijodida "non" detali tasodifiy emas. Bu detalni shoira rang-barang qirralari bilan talqin etgan ("Kiyiklar", "Kemalar tikkaga yo'l olsin" kabi she'rlarida). Non poetik detal sifatida Halima Xudoyberdiyevaning ko'pgina she'rlarida faol tasvirlangan. Shunga qaramay, uning Navoiy shaxsiyatiga daxldorligi butunlay o'zgacha. Shoira Navoiy siymosida muhtojlar ehtiyojini to'la qondira oladigan manba, ma'naviy buloq, balki ma'naviy xazinani ko'radi. Navoiyga yaqinlik umidida harakat qilayotgan har qanday muhtoj kishiga yo'l ko'rsatish, Navoiyga yaqinlik yo'llarini topishga yordamlashish darkor. Navoiy milliygina emas, umuminsoniy g'oyalarning ham betakror kuychisi. Shuning uchun ham she'rda "musulmon" va "kofir" tushunchalarining qo'llanilishi tasodifiy emas. Ular birgalikda "hamma" tushunchasini anglatadi. "Och" so'zi ham o'z-o'zidan qo'llangan emas. U qofiya tizimidagi munosib so'z (qoch; toj; och) bo'lishi bilan birgalikda ma'rifat bilan aloqalanib, teran mazmun ifodasiga xizmat qilgan.

Gohida ulug' shoir bugungi avlod yoshlarini komillikka chorlovchi, xalqimiz nomi va shonini alqab turuvchi, ruhan madad beruvchi zot qiyofasida gavdalanadi. Xususan, Navoiy haqidagi she'rlar Oydin Hojiyeva ijodini ham boyitib turadi. Shoira vatan va uning qadrini anglash masalasini Navoiy nomi bilan bog'laydi:

Ey Vatan, qadringni men

Hazrat Navoiydan so'ray.

"Ming bir kecha"lar elchisi

Qirqmingta roviydan so'ray.[2.11]

Shoira talqinida "ozodlik" ham Navoiy nomi bilan uyqash. "Alisher Navoiy nidosi" nomli she'rida ham falsafiy o'ychanlik, murojaat ruhining ustunligi namoyon bo'ladi. She'rda Navoiy nomidan "muhabbatsiz g'aribqalblar" to'g'risida so'z boradi. "Suv so'rayotgan to'rang'illar", qurib borayotgan Amu, "suvsirayotgan suluv ohular", "dardga giriftor to'rg'aylar", "yetim orzular", "kaftdagi yonib turgan dunyo" kabi tasviriy ifodalar ortida qanday ma'nolar yashirin? Navoiyning armon-u iztiroblari qatiga qanday dard singdirilgan? Navoiydan meros bo'lib qolgan mehr qayga yashiringan? Nega "Turk Budunni omon saqlagan, o'q tonglarning ko'ksida tugun" yashiringan? Navoiy orzu qilgan avlod qalbi ishqqa, mehr-muhabbatga to'liq bo'lsa, gunohlar yemas, savoblar ortsa, har ko'ngilda ishq yorug' qo'shiq misol aks sadolar bersa, mehr-u muhabbat, ezgulik qalb da'vatiga aylansa, Navoiy kabi ulug'lar ruhi taskin topadi. Bu she'r ushbu holatning yorqin tasviridir.

Mustaqillik davri she'riyatida Navoiy lirikasidan kuchli ta'sirlanish, undagi mazmuni bugungi kitobxon uchuntushunarli tarzda qayta badiiy yaratish jarayoni kuzatiladi. Biz mulohazalarimizni taniqli shoira Farida Bo'taeva – Farida Afro'z she'ri misolida ko'rsatishga harakat qilamiz. U "Yuragingga qil ham sig'masa" misrasi bilan boshlanadi. Ushbu namunada mustaqillik davri she'riyatidagi Alisher Navoiy obrazining asosiy qirralari jamlangan deyish mumkin.

Shoiraning talqinidagi Navoiy ijodi insoniyatning eng yaqin hamdardi, darddoshi, malhami bo'la oladi:

Yuragingga qil ham sig'masa,

Mehrsizlik diling tig'lasa,

Bu holingdan joning talvasa

Qilsa agar Navoiyga ayt,

O'qi kitob, Hazratingga qayt!

U insoniylik, insoniy fazilatlar targ'ibi va tarbiyasi, har qanday bezovta va dardli ko'ngilga orom va huzur berishning uddasidan chiqadi:

Sotib ketsa eng yaqin do'sting,

Bitmas bo'lsa hech kam-u ko'sting,

Daraxtmisan, qay taraf o'sding,

Bilmoq bo'lsang Navoiydan so'r,

Do'st topmassan Hazratdan-da zo'r!

Alisher Navoiy nafaqat ijodi, balki shaxsiyati va amali bilan ham zamonaviy she'riyat vakillari, o'zbek shoiralari tomonidan namuna sifatida qabul qilindi. Ular ijodida Navoiyning axloqiy fazilatlarini, xayrli ishlari, ijod va amal birligiga qat'iy rioya qilgani barkamollik timsoli o'laroq badiiy e'tirof etildi, yangicha ohanglarda yoritildi. Navoiy haqida yaratilgan she'rlarda Navoiy shaxsi yoki ijodidan tuyulgan hayrat, buyuk shoir haqidagi bir yorqin tasavvur yoki haqiqatning lirik ifodasi ustuvorlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худойбердиева Ҳалима. Шеърлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.97.
2. Ҳожиёва Ойдин. Назокат: шеърлар, дoston, қасида, бадиалар, ўйлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.11.
3. Farida Afro'z. https://t.me/Farida_Afroz
4. Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – Тошкент: Adabiyot, 2022. – 196 б.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL VA NUTQ MASALALARI

Usmonova Mohinur Ulug'bek qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek va rus tillari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy til asoschisi Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida til va nutq masalalari haqida so'z yuritilgan. Fikrlar asarlardan olingan misollar asosida izohlangan.

Kalit so'zlar: til, nutq, "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", so'z, o'zbek adabiy tili.

Asrlar mobaynida til– milliy ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lib kelgan. Buni o'zbek she'riyatining gultoji deya e'tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugungacha o'tkir qalam sohiblari yaratishgan badiiy ijod mahsullariga payvand milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz rivoji misolida kuzatishimiz mumkin.

O'zbek adabiy tili mustaqil til sifatida X asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy", shuningdek, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono, Lutfiylarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini tilga olish mumkin.

Ayniqsa, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ko'rsatishda Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Chinakam ma'nodagi so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning so'z va o'tkir nutq, til va jamiyat borasidagi fikrlari alohida diqqatga molikdir. So'z dahosiga daho so'zchi sifatida adoqsiz ehtirom va inja sezgi bilan munosabatda bo'lgan adib o'z asarlarining aksariyatida, xususan, muhtasham "Xamsa"sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar)da, "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Nazm ul-javohir" va boshqa ko'plab asarlarida so'zning buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan.

"Muhokamat ul-lug'atayn"da aytilishicha, so'z go'yoki bir durdir, durning doimiy makoni dengiz tubi bo'lsa, so'zning muntazam makoni ko'ngildir.

Dur g'avvos tarafidan dengiz tubidan chiqarilib, jilvalantirilsa va uning qiymati javhariga ko'ra baholansa, so'z sohibi ixtisos tomonidan ko'ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so'z qo'llash mahoratiga, uni jilvalantirish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Boshqacha aytganda, dengiz tubida harakatsiz imkoniyat tarzida turgan qimmatbaho durlar g'avvos , tomonidan harakatga keltiriladi, ko'ngil tubida imkoniyat tarzida turgan sehrli so'zlar esa so'zlovchi tomonidan nutqiy jarayonga olib kiriladi va o'z jilvasini namoyon etadi.

Alisher Navoiy bu fikrlarni davom ettirib yozadi: *"So'z durrining tafovuti mundish dog'i beg'oyatroq va martabasi munda ham benihoyatrokdur. Andoqki, sharafidin o'lgan badang'a ruhi pok etar, kasifidin hayotliq tang'a zahri halok xosiyati zuhur etar"*.

Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san'ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan. Alisher Navoiy asarlarida chunonchi, nutq odobining talablari haqida fikrlar bor.

1. Tilni, so'zni qadrla, uni hurmat qil:

Donau dur so'zini afsona bil,

So'zni jahon bahrida durdona bil. (Xamsa, 34- bet.)

2. Yaxshi so'zlay olish (nutq)—san'atdir, noyob hunardir. Uni egallashga intilgin: *Erdir so'z hunar, enchidin bo'z hunar.*

(«Mahbub-ul qulub», 82-bet.)

3. Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so'zi, nutqidir: *Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila,*

odam yaxshilig'i so'z bila. («Mahbub- ul qulub», 79- bet.)

So'z zohir etar zamir ishi ko'pragidin,

*Til muxbir erur ko'ngul nihon emgagidin,
Fahm ayla kishi holini so'z demagidin,
Kim berdi xabar hadisi ko'nglidagidin. («Nazm-ul -javohir» dan, 41- bet.)*

4. Kishining so'zi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

*Odamki demak birla kiromiydiru bas,
So'z durri ishining intizomiduru bas,
Sihat opchaki, ahli aql komiduru bas,
Aqlig'a dalil aning kalomiduru bas.*

(«Nazm-ul javohir» dan, 25- bet.)

5. So'zlaganda o'ylab so'zla, tushunib, bilib gapir:

*So'zni ko'nglungda pishqarmaguncha tilga kelturma,
Harnakim ko'nglungda bo'lsa til surma. («Mahbub-ul qulub», 83- bet.)*

6. Xushmuomala, shirin so'z bo'l ozor berma:

*Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har neki ag'yor durur yor aylar,
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar. («Nazm-ul javohir» dan, 43- bet.)*

7. Tilingni tiy. Ko'p so'z, ezma va vaysaqi bo'lma. Bu zararlidir. *Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdin qaytma. Oz degan oz yanchilur, oz egan oz yiqilur. («Mahbub-ul qulub» dan, 82- bet.)*

8. Gapirganda qaytariqlardan qoch, chunki ular fikrning ta'sirini susaytiradi: *Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror topti dilkash emas. («Xamsa», 448- bet.)*

Biz nutqimiz orqali boshqalar bilan muomalaga kirishamiz, fikrimizni bayon etamiz. Har bir shaxsga xos xususiyatlar uning nutqida namoyon bo'ladi. Mutafakkir shoir va yozuvchilarning asarlarida Navoiy boshlab bergan o'zbek mumtoz adabiy tili me'yorlari mukammalashib bordi. O'z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. "Mahbub-ul qulub" asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritsa, "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida o'zbek adabiy tilining boyligini e'tirof etdi. Nainki e'tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidladi. So'zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo'lmas ekan, tilning, so'zning cheksiz imkoniyatlari ro'yobga chiqib chiqmay qolaveradi. "Majolisun-nafois" da so'zning voizlari hayotida tutgan orni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. "Nazm-ul javohir" asarida esa so'z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o'tiladi. Tarixdan ma'lumki, Navoiyning o'zi ham mohir notiq bo'lgan va shirin kalomi, o'tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o'z

asarlarida ham xaloyiqqa nafi tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirinzabon soʻzlar soʻzlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yoʻllarini oʻrganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan. “Nazm-ul javohir” asarida til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir, deb taʼkidlaydi:

Soʻz durki, nishon berur oʻlukka jondin,

Soʻz durki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni soʻz ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yoʻq ondin.

Tirik insongina soʻzlash qobiliyatiga ega, soʻz tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. Soʻz doʻstdan, yoru-birodardan xabar beradi. Insonni hayvondan judo qilgan ham soʻz ekan, demak dunyoda soʻzdan gavhari sharif-ulugʻ narsa yoʻqdir. Yaxshi soʻz kishiga jon baxsh etsa, yomon soʻz insonni halok etishi ham mumkin. Til-maʼrifat va adabiyot quroli ekan, soʻz soʻzlashdan maqsad maʼno ifodalashdir deydi shoir. “*Ammo chun alfoz va iboratdin murod maʼnidir va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mahzari maoniy va bayon, soʻz aning soʻzidadir va takallum aning kalomida bordur*”. Yaʼni, maʼno tufayli soʻz tilga keladi va ul soʻzdan maʼno fahm boʻladi. Navoiy til va tafakkurni uzviy birlikda oladi. U maʼno birlamchi, shaklni ikkilamchi, deb hisoblaydi va maʼnoga soʻzning joni deb taʼrif beradi.

Navoiy tilni oʻsib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar oʻzaro aloqada boʻladi, bir-biriga chatishadi, deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tugʻma ekanligini taʼkidlaydi. “Muhokamatul-lugʻatayn” asarida arab tili “kalomi ilohiy” deb ulugʻlanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi. Olim bu asarda ikki tilning lugʻat boyligi, soʻz yasalishi, fonetik tarkibi, uslubiyati kabi xususiyatlarini chogʻishtirib, badiiy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilidan qolishmasligini isbotlaydi. Hattoki, fors-tojik tilida, ekvivalenti boʻlmagan oʻzbekcha soʻzlarni misol keltiradi. “Muhokamat-ul lugʻatayn” asari bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, oʻzbek tilining boshqa tillar orasida tutgan oʻrnini belgilab berishga, oʻzbek nutqi madaniyatini oʻrganishga qaratilgan. Mutafakkir asarlarida oʻzbek tilining leksik boyliklaridan, sinonim va omonimlaridan, xalq taʼbiri, maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalandi.

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bagʻishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub ul-qulub” dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq soʻzlovchi dilidagi fikrni toʻgʻri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi. Navoiy til deganda

nutqni ko'zda tutgan. Til, ya'ni so'z o'zining ko'p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo'polligi, maqsadga muvofiq bo'lmasligi so'zlovchiga zarar yetkazishini alohida ta'kidlab o'tadi. Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so'zlash odobi haqida, o'ylamasdan so'zlamalik lozimligi haqida: "Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig'liqqa evruldi, zarari oni bo'ldi. Chuchuk so'z sof ko'ngullarga nushdir... So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko'nglungda bo'lsa, tilga surma" deydi. Buning ma'nosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug'ullangan shoir "Mahbubul-qulub" asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag'ishlaydi. Navoiyning o'zi ham notiqlik san'atini o'z davrida yuksak darajaga ko'targan. "Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz" yoki "Ma'dani inson gavhari so'z durur, gulshani odam samari so'z durur" deb yozadi. "Mahbubul-qulub" da "Og'ziga kelganni demoq-nodoning ishi", "Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt", "Chin so'z-mo'tabar yaxshi so'z-muxtasar" kabi hikmatli so'zlar, maqollar anchagina. Navoiy ham shu mazmundagi baytlar yaratadi. Xalqimiz tili achchiq, inson ko'ngliga ozor beruvchi kishilarga "tili zahar", "tilidan zahar tomadi" kabi nisbatlarni beradi. Bunday kishilardan hamma o'zini chetga tortadi. Dildan suhbatlashishni istamaydi, aksincha, zarurat yuzasidangina muomala qilishga majbur bo'ladi. Navoiy "Xamsa" ning deyarli barcha dostonlarida "So'z ta'rifida..." sarlavhasi ostida boblar ajratadi. O'zining g'azallaridan birida so'z haqida fikr yuritar ekan, "Xamsa" dagi har bir harf (so'z emas, harf) o'zida ko'plab durlarni jamlagan "bahr erur" ligini ta'kidlaydi. Kengroq mazmunda esa, har bir so'zga singdirilgan chuqur mohiyat va ma'no nazarga olinsa ham xato bo'lmaydi.

Professor A. Hayitmetov shunday yozadi: "Navoiy "so'z" ni o'z asarlarida ko'p ma'noda ishlatadi. U "so'z" termini ostida insoniyatning hamma ma'naviy boyligini-alohida ijtimoiy kategoriya bo'lgan tilni ham, ideologiya shakllaridan hisoblangan falsafa va badiiy adabiyotni ham tushuna beradi hamda ularni ko'p vaqt bir-biridan farq qilmaydi". Navoiy "so'z" haqida gapirganda quyidagilarni e'tiborga oladi: 1. So'z-til ma'nosida. 2. So'z-muomala, gapirish, nutq mohiyatida. 3. So'z-badiiy ijodda, mazmunni shakllantiruvchi vosita tarzida. Navoiy talqinicha, so'zning (tilning) insoniyat hayotidagi o'rni beqiyos. U insonning insonligini, barcha jonzotlardan yuksak ekanligini anglatuvchi unsur. Ollohning bashariyatga in'om etgan ulug' ne'mati tildir.

Ha, Navoiy so'zni ajib, sehrli va qimmatbaho gavhar sifatida e'zozlaydi. Ko'pgina baytlarda, ayniqsa, "Xamsa", "Mahbub-ul qulub" singari asarlarida

soʻz, uning oʻrni, inson hayotidagi ahamiyati, soʻzlash madaniyati, soʻz ning badiiy ijoddagi mavqie, soʻz odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildiradi. “Nazm-ul javohir” (“Nazmlar javohiri”) asarida shoirning axloqiy qarashlari bayon etiladi. Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq sanʼati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

Navoiy oʻzbek adabiy tilini, rivojlantirish, bu tilda goʻzal asarlar yaratish, oʻzbek tilini yuqori mavqega koʻtarish, uni xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U oʻzbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga beeʼtibor boʻlgan kishilarga munosib javob bera oldi. Oʻzbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi. Navoiy oʻzi berayotgan maʼlumotlarning aniq, toʻgʻri boʻlishiga ham eʼtibor beradi. Til va nutq masalalari asl mohiyati Navoiy asarlarida oʻzining yorqin dalilini topdi desak maqsadga muvofiq boʻladi. Bobur, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Munis, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz Oʻtar, Fitrat, Behbudiy, Soʻfizoda kabi mutafakkir shoir va yozuvchilarning asarlarida Navoiy boshlab bergan oʻzbek mumtoz adabiy tili masalalari mukammalashib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdushukurov B. Oʻzbek adabiy tili tarixi. T., 2021.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn. MAT. 14-jild. - T.: Fan, 2001.
3. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. T.: Oʻzbekiston, 2002.

ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY GʻOYALAR TARGʻIBOTI

Fayziyeva Madina Nasullayevna,

Buxoro viloyati Gʻijduvon tumanidagi 46-umumiy
oʻrta taʼlim maktabining ona tili
va adabiyot fani oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosidan oʻrin olgan uumuminsoniy gʻoyalar shoir gʻazallari misolida talqin qilinadi. Ijodkorning badiiy mahorati uning asarlari tahlili orqali aks ettiriladi. Shoir gʻazallarida tarannum etilgan mangulikka daxldor falsafiy fikr-mulohazalar keng yoritib beriladi.

Kalit soʻzlar: gʻoya, talqin, tahlil, falsafiy yondashuv, badiiy mahorat, estetik ideal, poetik joziba, ijodkor fenomeni.

Adabiyot olamida o'zidan o'chmas nom qoldirgan yorqin siymo, noyob iste'dod sohibi Alisher Navoiy ijodiy merosidan o'rin olgan turfa asarlarda ijodkorning dunyoqarashi va estetik tafakkuri o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiy devonlaridagi g'azallarda va uning nasriy tarzda yaratilgan qator asarlarida bevosita ulug' mutafakkirning adabiy qarashlari bo'y ko'rsatib turadi. Shoir tomonidan qalamga olingan mavzular tarkibiga singdirilgan umuminsoniy g'oyalar ushbu asarlarning umrboqiyiligini ta'minlaydi. Alisher Navoiy adabiy merosi bag'oyat keng ko'lamni tashkil etadi. Muallif o'z asarlarini yaratar ekan, davriylikdan chekinib, barcha zamonlarda ham dolzarblik kasb etuvchu mavzularga yondashadi. Ularni yetuk tafakkuriga tayangan holda keng yoritadi. Shoir asarlarida ifodalangan ezgu g'oyalar uning hikmatlarida namoyon bo'ladi. Navoiy badiiy ijod olamida qalam tebratar ekan, bir qator go'zal asarlar yaratdi. Bu bebaho ijod namunlari uning nomini butun jahonga yoydi. Ta'kidlash joizki, Navoiy shaxsi bashariyat oldida ulug' ustoz sifatida e'tirof etishga arzigulik hilqatdir. Uning asarlari qatiga jo bo'lgan, asrlar o'tsa-da hamon o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan teran mazmun va umumbashariy g'oyalar uyg'unligi ijodkorning adabiyot olamidagi yuksak maqomini belgilaydi. Navoiy asarlari mutolaasi kishi ruhiyatiga ajib sokinlik, zavq bag'ishlaydi. Shoirning hikmatga yo'g'rilgan ijodini o'rganish jarayonida uning donishmandona falsafiylik aks etgan fikrlari ongimizga o'rnashib qoladi. Shoir she'riyati to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi mayoq kabi bizga o'zligimizni anglamoq va chin inson bo'lmoq yo'lini o'rgatadi go'yo. Alisher Navoiy asarlarida shoirning axloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan va bu ijod namunlari o'z o'rnida muallifning shaxsiy fikr-mulohazalari, a'moli va dunyoqarashini, xarakterini namoyon etgan. Navoiy o'z asarlarida adabiyot zamiriga singib ketgan umumbashariy g'oyalarni mukammal yoritgan va keng targ'ib qilgan.

Agar hikmatga bo'lsa iltifoting,

Ki bo'lsun Nuh umricha hayoting . [Navoiy, 1968:45]

Yuqorida keltirilgan baytda ham Alisher Navoiyning shaxsiy qarashlari aks etgan. Hikmat o'rganishga, umuman, ilm olishga ixlosi mavjud bo'lgan shaxslarga daho shoir Nuh umri kabi uzoq umr tilaydi va bu bilan o'zining ham hikmatga xayrixoh ekanligini izhor qiladi. Qisqagina misralar orqali insoniyatni ilm-ma'rifatli bo'lmoqqa chorlaydi.

Biyiklik keldi himmatdin nishona,

Ki himmatsizni past etdi zamona. [Navoiy, 1968: 23].

Keltirilgan baytda ham Navoiyga xos ulug'vorlik mujassam. Shoir insonga buyuklik kelarkan, bu uning himmatli zot ekanligidan nishonaligini, agar kishi himmatsiz bo'lsa, zamonaning o'zi undan buyuklikni tortib olib, qadrini past qilajagini bayon etadi. Oradan qancha vaqt o'tishiga qaramasdan ushbu baytdagi mazmun hanuz ohorini yo'qotmagan. Inson atalmish bebaho yaratiqni himmatli bo'lishga chorlar ekan, shoir buyuklikka, yuksak martabaga erishmoqning sodda va to'g'ri yo'lini ko'rsatadi.

Himmatsiz kishi er sonida emas,

Va ruhsiz badanni kishi tirik demas. [Navoiy, 1968: 85].

Ushbu baytda ham shoir himmatning inson uchun nechog'liq muhim ahamiyat kasb etishini ochib beradi. U himmatsiz kishining inson sanalmasligini bayon etar ekan, himmatni kishi jismidagi ruhga qiyoslaydi. Ya'ni o'zgalarga himmat ko'rsatmoq, har qanday ishda ko'ngil pokligi bilan boshqalarga naf keltirmoq inson uchun dasturilamal bo'lmog'i joizligini ta'kidlaydi. Insonning tiriklar sonida bo'lishi uchun nazari baland va himmati oliy bo'lishi kerakligini uqtiradi. Alisher Navoiy ijodida inson shaxsida uning komillikka, el ardog'iga erishmog'i uchun zarur bo'lgan xislatlar haqida so'z boradi. Ijodkor bashariyatni ana shunday go'zal sifatlar egasi bo'lishga chorlaydi. O'z asarlari orqali ularning qalbida ezgulik va yaxshilikka nisbatan intilishni kuchaytirishga harakat qiladi. Uning asarlarida bot-bot tilga olinadigan himmat, adab, hayo, yaxshilik, qanoat, muhabbat, do'stlik, sadoqat, oliyjanoblik kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtirish inson shaxsiga faqat baxt keltirishini ta'riflaydi.

Bo'lmas adabsiz kishilar arjumand,

Past etar ul xaylni charxi baland. [Navoiy, 1968: 25].

Yuqoridagi baytda ijodkor beadab kishining el ichida qadrsiz bo'lishi, obro' topolmasligini, uning martabasini falak yuksakka ko'tarmasligini yozadi. Muallif insonning yuksalishiga eng kerakli omillardan biri sifatida unda odobning yuqori darajada bo'lishi lozimligini bayon etadi. Adab tushunchasini Alisher Navoiy o'zining bir qator asarlarida tilga oladi va bu sifatni ahli basharga eng zarur sifatlar qatoriga kiritadi. Darhaqiqat, kishi jamoada o'z o'rniga ega bo'lishi uchun, boshqalar nazdida o'zining yaxshi xulq-atvorini ko'rsatmog'i kerak. Bunda esa uning tarbiyasi, odob-axloqi birinchi o'rinda turadi. Navoiyning pand-nasihatlari ana shu mazmunni o'zida mujassamlashtiradi.

Bu gulshan ichra yo'qdur baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot. [Navoiy, 1968: 25].

Shoir ta'kidlagani kabi, bu o'tkinchi dunyoga ishonch yo'q, inson umri g'animat. Ana shu g'animat umrdan unumli foydalanmoq va uni ezgu maqsadlar uchun sarf etmoq joizdir. Muxtasar hayot davomida yaxshiliklar qilib, yaxshi nom qoldirmoq inson uchun eng buyuk saodatdir. Yuqoridagi misralarda shoir o'z shiorini aks ettiradi. Alisher Navoiy nuqtayi nazari bilan olib qaraganda bu olamda insondan qoladigani faqat u qilgan ezgu ishlar va yaxshi nom, boshqa barchasi o'tkinchi hashamat, sarob. Ijodkor yaratgan asarlari bilan nafaqat kishilarni yaxshilikka undagan, balki o'zi ham butun umr ushbu baytdagi hikmatga amal qilib yashagan. Shu bois, uning qilgan ezgu ishlari unutilmas, nomi elda aziz va mo'tabardir. Shoirlar shaxsiga xos oliyjanoblik va haqgo'ylik uning asarlaridagi mohiyatni yanada jilolantirib, nurlantirib turadi, buni biz Alisher Navoiy ijodi misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiy she'riyatida so'zga alohida ta'rif beriladi. "So'z Navoiyning uqtirishicha, ruhning javharidir. Dur so'z qarshisida bir tomchi quruq suvga o'xshash bo'lib qoladi. So'zning behad boyligi, bitmas-tuganmas qudrati tasviriga shoir g'oyat yuksak shoirona o'xshatishlar topadi"

[Qayumov, 1985: 6]. Bunga misol sifatida ijodkorning so'z ta'rifiga bag'ishlangan quyidagi baytlariga yuzlanamiz:

Donavu dur so'zini afsona bil,

So'zni jahon bahrida durdona bil. [Navoiy, 1968: 30].

Navoiy, ta'rificha, so'z har qanday qimmatli buyumdan, dur-u gavhardan a'loroq, u jahon bahrida yagona durdona kabidir. So'z shunday gavharki, bu gavhar sharofati ila minglab ko'ngillar shod bo'lg'usi, yaxshi so'zdan dillar bahra olg'usi. Uning qudrati shundaki, so'z inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega. Bu esa uni kishini qaysidir ishga yo'naltirishga ta'sir qiluvchi omilga aylantiradi. Yaxshi so'z ta'siridan inson to'g'ri yo'lni topishi mumkin. So'z ilohiy ne'mat, fikrning ochqichidir. Navoiy qalamidan to'kilgan so'zlar esa ana shu ta'riflarga zeb beradi. Navoiy asarlarida xalqimiz ongiga azaldan singib ketgan ezgu qadriyatlar va tushunchalar yorqin aks etgan. Shoir ijodida o'zgalarga beminnat yaxshilik qilish, mehr-oqibat ko'rsatish kabi oqilona fazilatlar taqin qilingan, bu kabi ezgu amallar targ'ibi nasihatimiz tarzda tasvirlangan. Shoirning falsafiy mushohada yuritish qobiliyati uning pand-nasixat tarzida yozilgan hikmatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qil yaxshiligu, demakni dohil qilma,

Minnat bila yaxshilikni botil qilma. [Navoiy, 1968: 80].

Baytda ifodalangani kabi inson yaxshilik qilishni maqsad qilar ekan, uni elga oshkor qilmasligi lozim. Agar bu ezgu amalni boshqalarga ko'z-

ko'zlamochi bo'lsa, yoki minnat qilsa bu yaxshilik o'z-o'zidan yo'qqa chiqadi. Chin ko'ngildan kimgadir himmat ko'rsatish uchun sahovatni yashirin yo'l bilan amalga oshirish darkor. Navoiy bu qisqagina baytda butun bashariyat uchun dars bo'ladigan ulkan ma'noni mujassamlashtira olgan daho shoirdir. Uning ijodiga xos falsafiylik va badiiy mahorat uyg'unligi shoir she'riyatining asl mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Desangki, taomim zoe bo'lmag'ay, yedur,

Va tilasangki, libosim eskirmagay kiydur. [Navoiy, 1968: 30].

Yuqorida keltirilgan satrlarda Navoiy asl insonning qay tartibda yashamog'i lozim ekanligini ifodalaydi. Agar kishi o'zgalarga qancha sahovat qilsa, bu sahovat Tangri taolo tomonidan uning o'ziga ming barobar ortiq bo'lib qaytadi. Kimgadir o'z rizqidan berish, o'zining rizqi yanada ortishiga sabab bo'ladi. Kim bilandir borini baham ko'rish, uning o'z nasibasining bundan-da ziyoda bo'lishiga yo'l ochadi. "Navoiyning nuqtayi nazariga ko'ra, mol-u dunyoni yig'ish emas, balki hayrli ishlarga, xalq farovonligi yo'lida sarflash kerak. Uning o'zi shunday yo'l tutadi va boshqalarni ham shunga da'vat qiladi" [Navoiy, 2011: 5].

Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,

Yetar yaxshliqdin anga yaxshiliq. [Navoiy, 1968: 40].

Kishiga o'zining xulq-atvoriga ko'ra muomala qilinadi. Agar u ko'pchilikning orasida yaxshi fe'l-atvorini, go'zal fazilatlarini namoyon etsa, yaxshilik ko'rguzsa, unga yaxshilik bilan javob qaytadi. Har bir ishning javobi bo'lgani singari adolat tarozosida ham yaxshilik va ezgulik hamisha og'ir tosh bosadi. Har kimga o'z niyatiga va bajargan amallariga yarasha ne'matlar nasib qiladi. Navoiy asarlari zamirida shoirning hayotiy qarashlarini mijassamlashtirgan shu kabi g'oyalar chuqur ildizga ega. Navoiyni talqin qilmoq uchun, avvalo, uning ijodiy merosini o'rganmoq va shoir shaxsiyatini teran anglamoq lozim. Bu tahlil esa bizga ijodkor faoliyatining mohiyatini to'la tushunib yetishga ko'mak beradi. Alisher Navoiy ijodi chin ma'noda ma'naviyat xazinasiga qiyoslanadi. U o'z asarlarida insonlarni ilm-u hunar o'rganishga da'vat qiladi. ilmsiz va o'rganishni istamaydigan kishilarning holi tang bo'lishini ta'riflaydi:

Kishi ta'limdin topsa malolat,

Topar ilm ahli olinda xijolat [Navoiy, 1968: 43].

Kishining salohiyatini oshiruvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi va ruhini uyg'otguvchi omil bu ilmdir. Navoiy ta'rificha, agar biror kimsa ta'lim olishni o'ziga malol keltiradi deb bilar ekan, u hech narsaga erishmaydi, balki ilimli kishilar oldida hamisha xijolatda qoladi. Shaxsning qalb ko'zi ochilmog'i,

ongi uyg'onmog'i uchun ilm suv va havodek zarurdir. Ilmli inson hamisha elda aziz va tabarruk bo'lg'ay.

Izzat topmas kimki qanoatsiz erur,

Har kimsa hasud bo'lsa rohatsiz erur. [Navoiy, 1968: 37].

Navoiy sabr-qanoatni ulug'laydi, ta'magirlik va hasadni qoralaydi. Qanoatsiz va boriga shukr qilmaydigan noshukur bandalarning qilmishidan ozorlanadi, ularni to'g'ri yo'lga chorlaydi. Qanoatsiz kishilarning el ichida izzat topmasligini, boshqalarni ko'ra olmaydigan hasadgo'y kimsalarning tinchligi va rohati bo'lmasligini bayon etadi.

Har kishi komil erur, bas anga Haq bandalig'i,

Mundin o'zga ta'mai kasbi kamol aylamangiz. [Navoiy, 2011: 106].

Yuqoridagi baytda o'z-o'zidan daho shoirning umri davomida amal qilib kelgan aqidasi aks etgan. Chinakam komil inson uchun Haqning oddiy bandasi bo'lib yaralishning o'zi bir saodat. Boshqa narsalardan ta'ma qilmoq o'rinsizdir. Inson neki ishga qo'l urmasin, uni Tangri taolodan madad olgan holda qilmog'i lozim. Bu yo'lda o'zgalardan yordam olmoqqa hojat bo'lmas. Alisher Navoiy asarlarida ta'magirlik eng yaramas illatlardan biri sifatida qaraladi. Shoirning o'zi esa insonlarni bu illatdan uzoq yurishga chorlaydi. Komillik darajasiga yetgan shoirning pandnomasi butun bashariyatning nigohida jonlanmoqda. U yaratgan asarlarning mazmunida insoniyat uchun hanuz jumboq bo'lib kelayotgan savollarning javobi va hayot mohiyatiga oid purma'no fikrlar majmuyi o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish komillikka yetishishni maqsad qilgan insonlar uchun to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi ma'rifat nurlariga intilish kabidir. Bu hikmatlar ziyosidan bahramand bo'lgan qalb shoir asarlaridan zavq tuyadi, undagi umuminsoniy g'oyalariga ergashadi, yaxshilikka yor bo'ladi, o'z umri davomida ezgulikni bosh mezon qilib oladi. Bunday darajaga yetmoqlik uchun hazrat Navoiyni anglamoq kerak, bu barhayot siymoning bitiklarini dilga jo qilmoq lozim. Zero, komillikning asl belgisi ezgulikka esh bo'lmoqlikdir. Alisher Navoiy asarlari esa butun insoniyatga ezgulik taratayotgan badiiyat yodgorliklaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. – Б.88.

2. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 408

3. Абдуғофуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. –Б. 184.

4.Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 256.

5. www.ziyonet.uz

ALISHER NAVOIY IJODIDA NAVRO'Z TALQINI

Fozilova O'g'iloy Fayoz qizi,
BuxDU 2-bosqich tayanch doktoranti,
26-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mir Alisher Navoiyning ulkan she'riy merosida Navro'z, Navro'z bayrami, umuman, bahorning fusunkor latofati, hayotbaxsh tarovati haqida ko'plab badiiy lavhalarni uchratish mumkin. U o'z asarlarida Navro'zga alohida urg'u berib, uning ilmiy asoslarini badiiy talqinda ochib beradi. Navoiy talqinida Navro'z tabiatning uyg'onishi, jonlanishi, yangilanishi va poklanish fasli - bahor hamdir. Shoir Navro'z, bahor, gul mavsumini insonlar baxtu saodati, xursandchilik bilan birga qo'shib kuylagan. Demak, Navro'z gul, shodlik, do'stlik, mehnat, shuningdek u ham tarixiy, ham navqiron bayramdir.

Kalit so'zlar: Navro'z, g'azallar, qadimiy marosim, bahor madhi, badiiy lavha, bahor yomg'iri, zamonaviy she'riyat, inson va tabiat.

Аннотация. В великом поэтическом наследии Мира Алишера Навои можно найти немало художественных образов о Наврозе, празднике Навруз и вообще об чарующем изяществе и живительной свежести весны. В своих произведениях он уделяет особое внимание Наврозу и раскрывает его научную основу в художественной интерпретации. В интерпретации Навои Навруз – это сезон пробуждения, оживления, обновления и очищения природы – весна. Поэт воспевал Навруз, весну, пору цветов вместе с народным счастьем и радостью. Итак, Навруз – праздник цветов, радости, дружбы, труда, и он одновременно исторический и современный.

Ключевые слова: Навруз, газели, древний обряд, весенний гимн, художественная картина, весенний дождь, современная поэзия, человек и природа.

Abstract. In the great poetic heritage of Mir Alisher Navoi, one can find many artistic pictures about Navroz, Navroz holiday, and the charming grace and life-giving freshness of spring in general. In his works, he places special emphasis on Navroz and reveals its scientific basis in an artistic interpretation. In Navoi's interpretation, Nowruz is the season of awakening,

revitalization, renewal and purification of nature - spring. The poet sang Navruz, spring, flower season together with people's happiness and joy. So, Nowruz is a holiday of flowers, joy, friendship, work, and it is both historical and modern.

Key words: Nowruz, ghazals, ancient ritual, spring hymn, artistic picture, spring rain, modern poetry, man and nature.

Xalqimizning eng qadimiy marosimlari tizimida Bahor bilan bog'liq urf-odatlarimiz alohida o'rin tutadi. Xususan, unga aloqador Navro'z an'analari xalqimizning madaniy turmushiga, ruhiyatiga chuqur singib ketganligi bilan e'tiborlidir. Shuning uchun adabiy an'alarimiz tizimida bahor madhi, Navro'z tavsifi, u bilan bog'liq urf-odatlarning kelib chiqish tarixidan so'zlovchi afsona va rivoyatlar mazmuni, ayrim tarixiy ma'lumotlar ham og'zaki, ham yozma adabiyotda keng talqin etilganligi kuzatiladi. Bu borada Navro'z bilan aloqador udumlar tasviri va talqini mumtoz shoirlarimiz ijodida o'ziga xos o'rin egallab, unga bag'ishlangan dostonlar, qasidalar, g'azallar yaratilganligi ayri-ayri e'tiborni tortadi. Ulug' o'zbek shoiri Mir Alisher Navoiyning ulkan she'riy merosida Navro'z, Navro'z bayrami, umuman, bahorning fusunkor latofati, hayotbaxsh tarovati haqida ko'plab badiiy lavhalarni uchratish mumkin. U o'z asarlarida Navro'zga alohida urg'u berib, uning ilmiy asoslarini badiiy talqinda ochib beradi. Uning mashhur "Xamsa" asari tarkibiga kiruvchi hajman eng yirik dostoni "Saddi Iskandariy" dostonida, shuningdek "Xazoyin ul-maoniy" asarlarida ajoyib o'xshatish bilan Navro'zdagi tun-kun tengligi tushunchasini quyidagicha ifodalaydi:

Vasli aro ko'rdum, teng emish bo'yiyu sochi,

Tun-kun teng ekan zohir o'lur, bo'ldi Navro'z.

Navoiy o'z she'riyatida ilmiy asoslangan bu tushunchani - kecha va kunduzning bahorga teng kelish kuni Navro'z deb atalishini bir necha bor misralarga joylab o'tadi. Shoir o'z g'azallarida ko'pincha ma'shuqaning tashqi go'zal qiyofasini ifodalashda undan juda o'rinli foydalanib, tanosib san'atini yaratadi. Kulliyotdagi «Badoye ul-vasat» devonidagi g'azallardan birining uchinchi baytida kuzatiladigan bu misralarda ma'shuqaning tim qora sochi tunga, kelishgan qomati kunga qiyoslanadi, kecha (soch) va kunduz (qomat)ning barobarligi Navro'z bilan, visol esa Navro'z bayrami bilan tenglashtiriladi. Aslida bunday o'xshatishdan Navoiygacha Xorazmiy ham "Muhabbatnoma" asarida foydalangan.

Navoiy umrining so'nggi yillarida yozilgan yana bir g'azalida Navro'zning fazilati, uning jonbaxsh, shifobaxsh havosi, Navro'zda kishi

ruhining yengil tortib, parvoztanishini nazarda tutib, shu asosda obrazli fikr yuritishga intiladi:

*Ey yuzuna bog'i nasimida havoyi navro'z,
La'l tojing bo'lub ul bog'da bo'ston afro'z, –*

Shoir ushbu misralarda Navro'zni qutlug', shodiyona kun (bayram) sifatida tilga olmoqda. Bunday talqin sevgida sadoqat va vafo ko'rsatgan ma'shuqa sha'niga eng ezgu istaklar bildirilayotgan oshiq tilidan berilmoqda. Oshiq vafodor yorning har bir tuni, orzu-umidlar ushaladigan, mushkulini oson qilib, murod-maqsadiga yetkazadigan qutlug' qadr kechasi («laylatulqadr»), har bir yorug' kunining esa hayotbaxsh Navro'z bo'lishini xohlaydi:

*Zulfu ruxsor ila kominga meni yetkursang,
Har tunung qadr o'lubon har kuning bo'lsun Navro'z!*

Ma'shuqasi bilan visolga talpinayotgan lirik qahramonning ahvoli-ruhiyatini, ichki kechinma va intilishlarini hayotiy ifodalovchi quyidagi misralarda Navro'z bevosita bayram, hursandchilik tushunchasi bilan yonma-yon qo'llaniladi:

*Kuyungga har kun borib har dam ko'ray, derman seni,
Menga har kun bayramu har lahza Navro'z kerak!*

Navoiy mavlono Lutfiy g'azaliga o'xshagan misralarida Navro'zning keng ma'nodagi tushunchasi bilan aloqador va hanuzgacha muomalada bo'lgan xalq maqolini ustalik bilan misraga soladi:

*Zulfi vaslin istasang ruxsori mehr afro'zidek,
Yo'q ajab, chun kelishi bilgurur navro'zidek.*

Navoiy talqinida Navro'z tabiatning uyg'onishi, jonlanishi, yangilanishi va poklanish fasli — bahor hamdir. Bahor esa butun mavjudotga qaytadan hayot bag'ishlovchi, kishilik qalbida mehr-muhabbat, sevgi-sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi, shoirning juda chiroyli ta'biri bilan aytganda, hatto quruq yog'ochdan ham gullar undiruvchi sehrli va jonbaxsh xususiyatga ega:

*Jamoli vasfetarmen hamdamim ul gul'uz o'lg'och
Quruq shox o'ylakim zohir qilur gullar bahor o'lg'och!*

Xuddi shu boisdan ham shoirning qator she'rlarida hayotsevarlik g'oyalari va go'zallik madhi, ezgu orzu-istaklar bayoni va nozik his-tuyg'ular ifodasi Navro'z – bahor – gul-ishq tug'yoni, visol ayyomi tizmasida uyg'un tarzda ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan «Navodir ush shabob» devonida uchrovchi quyidagi bayt e'tiborlidir:

*Bodayu ishq shabob ayyomiga fasli bahor
Pand ketsunkim – erur oshiftalig'larning chog'i.*

Shoir ta'kidlashicha, Navro'z – gul fasli, u kelgach, olam gulga belanib, chaman gulistonga aylanadi: Navro'zni faqat bahor bilan, visol ayyomi bilan qiyoslash mumkin:

*G'unchaga xandon bila husning u guli xurram bahor,
Xatting andoq. sabzakim, bo'lg'ay anga hamdam bahor.*

Navoiy g'azallarining birida bahor yomg'iri afsonaviy hayot suvi – «hayvon zuloli» bilan tenglashtiriladi – u butun borliqqa qayta jon baxsh etib, mavjudotni, shoir iborasi bilan aytganda «tiriltiradi», sabza kipriklariga qo'ngan yomg'ir tomchilari esa, shoir tasvirida, sevinch ko'z yoshlarini ifodalaydi. Shoir yana bahor faslining yaratuvchilik qudrati, bahor yomg'irining hayotbaxsh fazilati haqida so'z yuritadi:

*Chamani bahri latofat bo'ldi mayson durlari bir
Qizil toldek muhayyo qildi har yon shohi marjonim.*

Bahor fasli, Navro'z ayyomi, gullar chamani insonlarga kuch-g'ayrat, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi, yangi-yangi orzu-umidlar, zavqu-shavq ulashadi, - deydi Alisher Navoiy. Shoir Navro'z, bahor, gul mavsumini insonlar baxtu saodati, xursandchilik bilan birga qo'shib kuylagan. Demak, Navro'z gul, shodlik, do'stlik, mehnat, shuningdek u ham tarixiy, ham navqiron bayramdir. Alisher Navoiyning yoshlik lirikasi jamlangan "G'aroyib us-sig'ar" devonida tabiatning yangilanish bayrami – Navro'z madhiga, bahoriy libos kiygan ma'shuqa va ilohiy husn tajallisiga bag'ishlangan g'azallar alohida o'rin tutadi. Chunki shoir yoshlikni bamisoli bahorga qiyoslagan. Tabiat va inson go'zalligini ulug'lash, hayotsevarlikni madh etish, Tangrining tengsiz jamolini tarannum etishda shoir Bahor va Navro'z timsolidan unumli foydalangan. Biroq shoirning "Favoyid ul-kibar" devonida ham bunday g'azallarni uchratish mumkin. Jumladan, shoir shu devonidagi 420-g'azal qiyosiy tavsifiy uslubda yaratilgan bo'lib, unda timsol ichra timsollar tajassum topgan. Yuzaki qaraganda, ushbu g'azalda asosiy ikkita timsol bordek. Bularning biri – sarv daraxti bo'lsa, ikkinchisi go'zal inson timsolidir. Ammo chuqurroq yondashilsa, ushbu timsollar ilohiy manzurning tabiat va jamiyatdagi mujassami ekanligi ayonlashadi. Manzur – nazarda tutilgan obraz demakdir, Ilohiy husn sohibi tasavvufiy timsoldir. O'zbek adabiyotida, xususan, Navoiygacha bo'lgan davrda Navro'z madhiga maxsus bag'ishlangan g'azallar kam. Shu jihatdan, bu g'azal o'z davrida yangi o'ziga xos badiiy tajriba bo'ldi. U navro'znoma g'azallar yaratish an'anasi tadrijida muhim o'rin tutadi. G'azalning badiiy qimmatini shundaki, shoir sevikli inson siymosini tabiat bilan uyg'un ravishda tasvirlash vositasida ilohiy husnning qiyosiy manzarasini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Shoir inson malohatiga qiyosan tabiatning dilbar

lavhalaridan matoh saylar ekan, sarv daraxti manzaralarini nishonga oladi. Insonni sarvga, sarvni insonga tashbeh etadi. Inson fazilatlarini sarv bilan qiyoslash jarayonida ochadi. Navoiy yashnab yasharayotgan tabiat bilan go'zal tabiat qo'ynida ilohiy qudrat ta'sirida koinot gultoji, eng barkamol mavjudot sifatida kamol topgan inson malohatini bir-biridan oshirib tasvirlashga muyassar bo'lgan. Inson va tabiatning bu qadar payvasta tasviri ular bir-birining uzviy davomi, biri-birini to'ldiruvchi yagona, boqiy jamol ko'zgusi ekanligi haqidagi tasavvufiy qarashning badiiy ifodasidir. Mana bu bayt sarv va sarvinozning navbahor ayyomidagi jonli suratini tasavvurda yaqqol jilolantira oladi.

*Qo'nub ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidin g'ulg'ul,
Bu sarv uzra ochilib gul, anga terdin tushub shabnam.*

Sarv uzra q o'nib olib, devonavor navo chekayotgan bulbul Navro'z elchisi. Ayni paytda, u gul, ya'ni ilohiy husn shavqida sarmast sayrayotgan shaydoyi oshiq timsoli. U – sarv butog'ida shavq anjumanini tuzib gul visolidan gulbong urayotgan xushxabar qush ramzi. Odam – sarv tasviri bundan-da maroqli: uning gul ochishi – Navro'z ro'shnoliklarida gul-gul ochilishi; shabnam donalari insonning Navro'z ayyomlaridagi xurramlikdan entikishi, ehtiros terlariga g'arq bo'lishining timsoliy tasviri. Baytdagi yana bir nodir fazilat e'tiborni tortadi. Bu «bulbul», «g'ulg'ul», «ochilib gul» so'zlari vositasida vujudga kalgan saj' san'atidir. Ushbu nazmiy san'at – she'rdagi ohangdorlik, ma'no urg'usi hamda ehtiroslar silsilasini kuchaytiruvchi muhim badiiy vosita. G'azalning keyingi baytlari ham mana shunday musajja' uslubda yaratilgan.

G'azalning keyingi ikki bayti kuyuq falsafiy fikrlarga yo'g'irilgan:

*Bu bog' ichra may, ey soqiyki, bormen asru mushtoqi
Ki, anda sarv ham boqiy emas, gul ahdi ham mahkam.
Navoyi, ko'yin et manzil, yuzu qaddig'a bo'l moyil
Ki, bog' etmas seni xushdil, gulu sarv aylamas xurram.*

Shoir soniydan may tilayapti. Bu – qanday may? Shoir mavjud dunyodagi sarv-u sarvinoz go'zalligidan har qancha so'ylamasin, u boqiy asliyat go'zalligi oldida foniy va o'tkinchligini sezib turadi, shundan qoniqmaydi. Ya'ni, inson va tabiat chiroyi juda g'animat, ammo u omonat ham. U asl jamolning aksi, xolos. Tasavvuf dunyoqarashidagi oshiqni sodiq ilohiy yor ko'yi-dargohiga yo'l olishi, uning visolini sog'inishi, baqolik istab fano bo'lishi lozim. Navoyi tugallanma baytda mana shunday so'fiyona kayfiyatni nihoyatda timsoliy tarzda tarannum etgan. G'azal o'zbek mumtoz

navro'znomasining mo'jiza asarlaridandir. Unda Navro'z ko'rkamlilari va manzur malohati uyg'un tasvirlanib, asar yakpora badiiy qurilma kasb etgan.

Hazrat Navoiy aytganidek:

Ulus chehrai olam afro'zidin,

Bilur yil kelishin Navro'zidin...

Darhaqiqat, xalqimiz ko'p yillik kuzatishlari asosida Navro'z haftaning qaysi kuni kelishiga qarab, yilning qanday kechishini aniqlashga uringan. Aytaylik bu yil Navro'z payshanbaga to'g'ri keldi. Navro'z payshanba kuni kirsas, yil noz-ne'matlarga boy bo'lishi, oy va quyosh ko'p tutilishi, xastaliklar biroz ko'payishi, ammo yilning oxiri xayrli bo'lishi, dehqonchilikda baraka bo'lishi aytiladi.

Agar Navro'z juma kuni kirsas, yomg'ir ko'p, sovuq qattiq bo'lishi, ekin kech bitsa-da, serob bo'lishi; shanba kuni Navro'zida ne'matlar ko'p bo'lishi, yoz mavsumida shamollar ko'p turishi; yakshanba Navro'zida yomonlik oz bo'lishi, farovonlik oshishi, paxtakorlikda unum bo'lishi, polizchilikda mo'l hosil olinishi kutiladi. Navro'z seshanbada kutilsa, el farovonligi oshishi, dehqonchilik erta boshlanishi, hosil mo'l bo'lishi, daromadi yaxshi bo'lishi aytiladi. Yil oxirida esa yog'ingarchilik me'yoridan oshishi bildiriladi. Chorshanba kiradigan Navro'z yilida poliz va sabzavot, meva-cheva hosili yaxshi bo'ladi. Dukkakli ekinlar hosili ham mo'l bo'ladi. Yog'ingarchilik kam bo'lib, g'alla ekinida qiyinchilik yuzaga keladi. Ammo omilkorlik bilan ish yuritilsa, natija yomon bo'lmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida Navro'zga bag'ishlangan asarlar alohida silsilani tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, ular adabiyotshunosligimizda haligacha umumlashtirilgan holda maxsus tadqiq qilingan emas. Navro'z haqida qadimdan hozirgacha og'zaki va yozma adabiyotda turli janrlarda yaratilgan asarlarning poetik takomil belgilarini, janriy xususiyatlarini, folklor va yozma adabiyotda talqin etilishiga xos badiiy tamoyillarni qiyosiy o'rganish zarur, birinchidan, tabiat kultlari bilan bog'liq qadimiy mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga ko'chish asoslarini belgilab ko'rsatish, ikkinchidan, og'zaki va yozma ijod, mumtoz va zamonaviy she'riyat munosabatining tadrijiy taraqqiyoti, vorisiyligi haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitish uchun zarur va dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жумахўжа Н. Наврўз ва манзур малоҳати. – “Туркистон” газетаси. – 1993.
2. N.Jumaxo'ja, I.Adizova O'zbek adabiyoti tarixi. T.: Noshir, 2019.+

ALISHER NAVOIYNING “SHER BILAN DURROJ” HIKOYASINI O’RGANISHDA KEYS -STADI METODIDAN FOYDALANISH

Xayrilloyeva Sohiba Boltayevna,
Buxoro shahar 12- IDUM oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi ped texnologiyalarning mumtoz asarlarni o’rganishdagi ahamiyati, mumtoz adabiyotni o’rganishda uchraydigan muammolar. Keys-stadi metodini adabiyot darslarida qo’llash va u orqali erishiladigan natijalar haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Muammoli ta’lim texnologiyalari, mustaqil ijodiy tadqiqotlar , farazlarga aniqlik kiritish, keys- stadi tushunchasi ,amaliy holatlarni o’qitish ,savolli keyslar,keys turlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение новых педтехнологий при изучении классических произведений, проблемы, возникающие при изучении классической литературы. Обсуждается применение метода кейс-стади на уроках литературы и достигнутые с его помощью результаты.

Ключевые слова: проблемные образовательные технологии, самостоятельное творческое исследование, уточнение предположений, концепция кейс-стади, обучение практическим кейсам, сомнительные кейсы, виды кейсов.

Abstract. In this article, the importance of new ped technologies in the study of classical works, the problems encountered in the study of classical literature. The application of the case-study method in literature classes and the results achieved through it are discussed.

Key words: problem-based educational technologies, independent creative research, clarification of assumptions, concept of case-study, teaching of practical cases, questionable cases, types of cases.

V asrdan ortiq vaqt mobaynida turkiy adabiyotning so’nmas quyoshi bo’lib kelayotgan benazir ijodkor turkiyda “ko’p” va ”xo’p ” ijod qilgan buyuk siymo Alisher Navoiy nomi kirib bormagan o’zbek xonadoni bo’lmasa kerak. Navoiydek buyuk siymo borligi har vaqt ko’nglimizda faxr va iftixor tuyg’ularini to’ldiradi. Buyuk shoirdan shu qadar ulkan ma’naviy me’ros qoldiki, haligacha adabiyot ixlosmandlari bu bahr-u muhitdan dur-u javohirlarni terib ado etolmaydi. O’zining ilmi, amali, axloqi bilan butun Xuroson va Movarounnahrda tengi yo’q zotlardan biri edi.

Ma'lumki, yosh avlodga o'tmishdagi buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar turli ko'rinishlarda (rivoyat, ertak, hikoya) boshlang'ich sinfdaligidayoq tanishtirilib boriladi. Xususan, Alisher Navoiy ijodi ham shu qatorda eng ko'p dars soatlar ajratilgan ijodkor hisoblanadi. Bunga sabab Navoiyning ijodiy merosi o'zbek adabiyotida salmoqli o'rinni egallaydi. O'quvchining o'zlashtirishi va yosh xususiyatlari hisobga olingan holda mavzular taqvim rejaga kiritiladi. 5-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Sher va durroj" hikoyati o'tiladi. Bu mavzuni o'rganishga rejada 3 soat ajratilgan bo'lib, dastlabki soatda o'quvchilarga shoirning hayot yo'li haqida ma'lumot berilsa, qolgan soatlarda hikoyatni o'qish va unda ilgari surilgan g'oyalarning tahliliga berilsa maqsadga muvofiq.

Respublikamizda uzluksiz ta'limni joriy etish jarayonida ta'lim mazmuni yangilandi, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS modernizatsiyalandi va bu ta'lim -tarbiya jarayonining barcha qismlarida o'zgarish bo'lishini taqozo etadi. Zamon bilan hamnafas pedagog esa bu o'zgarishlar bilan hamohang faoliyat yuritadi. Yangi pedagogik texnologiyalar, turli innovatsion usullar orqali hozirgi kun yoshlariga kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish davrning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda eng ommalashgan va ko'pgina sohalarda, ayniqsa, ta'lim sohasida qo'llaniladigan metodlardan biri bu - "Case study" metodi bo'lib adabiyot darslarida, xususan, 5 - sinfda Alisher Navoiy ijodini o'rganishda qo'llash qanchalik samarali? Keling, avvalo, Keys -stadi tushunchasining o'zi nima, shunga batafsil to'xtalsak. Mashhur yevropalik olim G.Spenser "Ta'limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki xatti - harakatlarga o'rgatishdir ", - deb aytgan edi. Darhaqiqat, keys -stadi - muayyan hayotiy vaziyatlarni o'rganish texnologiyasidir. Inglizchadan case - to'plam, aniq vaziyat, yoki real hayot, study - ta'lim, o'rganish ma'nolarini beradi. Rivojlangan yevropa davlatlarining o'quv rejalarida keys -stadi metodidan foydalanishga juda katta e'tibor berilgan. Bu metod ta'lim oluvchilarga sinfda erkin, demokratik muhitni yaratadi. O'rta tashlangan muammoga hamma bema'lol o'zining erkin fikrini bildira oladi. Bunday ta'lim uslubininig an'anaviy ta'lim shaklidan farqi shundaki, faqat ta'lim beruvchining fikri to'g'ri deb qabul qilinmaydi. Muammoli vaziyatni har bir guruh o'zining bilim darajasiga ko'ra farazlarda tahlil qiladi. Har bir o'quvchi o'zining qarashlari, fikrlashi mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qila olish qobiliyatidan kelib chiqib muammoga o'zi tomondan topilgan yechimni

o'rtaga tashlaydi. Buning natijasida o'quvchi o'zi mustaqil qarorlar chiqaradi. Keys stadi o'quvchiga:

- ✓ mustaqil izlanishni;
- ✓ qo'shimcha axborotlar yig'ishni;
- ✓ vaziyatga real, to'g'ri munosabat bildirishni o'rgatadi.

Adabiyot fanini o'qitishning yangi va samarali metodlaridan bo'lgan muammoli o'qish texnologiyasi asosida tashkil qilinadigan darslar - o'quvchilarda mutolaa madaniyatini muammolarga yechimi yuzasidan insho va esse tarzida taqdim etishga imkon yaratadi. Adabiyot darslarida keys stadini qo'llash quyidagi ta'lim muammolarni hal etishga yordam beradi.


Asarni real hayot bilan amaliy bog'laydi;

O'quvchini mustaqil izlanishga undaydi;

O'quvchining ruhiy holatiga tutrki bo'ladi va unda avval ma'lum bo'lmagan yangiliklarni kashf qilishga, o'zlashtirishga asos bo'ladi;

Quyida "sher bilan durroj" hikoyasi orqali dostondagi to'g'rilik va egrilik, yolg'onchilik oqibati to'g'risidagi dars mavzusida o'quvchilarga muammoli keys turidan foydalanish tavsiya etiladi. Alisher Navoiyning "Xamsa" asariga kirgan birinchi doston "Hayrat ul-abror" deb nomlanadi. Mazkur doston 63 bob, 20 maqolatdan tashkil topgan. Har bir maqolat bir mavzuga bag'ishlangan. "Sher bilan durroj" hikoyati o'rin olgan 10- maqolatning "Rost so'z ta'rifida" qismi rostlik to'g'rilik tushunchalariga bag'ishlangan. Muallif har bir inson o'ziga to'g'rilikni odat qilmog'i haqida so'z yuritar ekan "Kimki to'g'rilik yo'li qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsa, bu yo'l 2 xil bo'ladi, - deydi - birinchisi to'g'ri so'z odam o'zi ham so'zi ham to'g'ri bo'lishi lozim. Ikkinchi toifa andishali betgachoparlik qilmay "to'g'ri" deguvchilardir". Navoiy 1-toifani to'la ma'qullaydi, 2-toifani ham "yomon emas" deb inkor etmaydi. Bu hikoyat majoziy xarakterga ega didaktik yo'nalishda yozilgan bo'lib Navoiy o'z davri voqealari, insonlardagi bu xususiyatlarni ramziy obrazlar orqali bayon etgan.

Darsda muammoli keysni qanday hosil qilish mumkin? O'quvchilarga hikoya mazmuni turli usulda matn, video, audio ko'rinishida taqdim etiladi. Bunda o'qituvchi o'zi tanlagan usulida o'quvchiga ma'lumotni yetkazadi. Dastlab, sinfni kichik guruhlariga bo'lamiz. Ko'rilgan vaziyat bo'yicha



quyidagi sxemalarda berilgan muammoli keys savollar taqdim etiladi.

Berilgan savollarga har bir o'quvchi yakka holda yoki guruh tomonidan javob berishi lozim. Savollar orqali o'quvchi yolg'onchilik odatining qanchalik yomon ekanligini o'z hayotida ko'rgan eshitgan real hayotiy voqealar asosida dalillab bera oladi. Muammoni aniq vaziyatlarda tahlil etadi. Bu savollarga javob berish orqali o'quvchilarda tahli qila olish, tizimli ravishda fikrlash tanqidiy qarashlarga egalik, noan'anaviy fikrlay olish, muammolarni yechimini topa olish, mustaqil izlanishga qodirlik, og'zaki va yozma muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantiradi. Adabiyot darslarida bu kabi metodlardan foydalanish o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham ijodkorlikni talab etadi.

Xulosa o'rnida qadimgi xitoylik bir donishmandning "Agar sen och odamga bir kun baliq tutib bersang, uni bir kunlik och qolishdan saqlagan bo'lasan, agar unga qarmoqda baliq tutishni o'rgatsang, bir umr ochlikdan xalos etgan bo'lasan", degan hikmatli so'zlarini keltirishni lozim topdim. Zamonaviy o'qituvchi o'z o'quvchilariga faqat nazariyalarnigina emas balki hayotda unga kerak bo'ladigan, o'z o'rnini topishga yordam beradigan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rgatishga qodir bo'lishi kerak. Bunda unga eng yangi innovatsion, kreativ g'oyalar va mustahkam bilim yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Doniyorova SH .Yozuvchi hayoti va ijodini o'qitishda keys -stadi metodidan foydalanish yo'llari .-uslubiy qo'llanma T.: Turon zamin ziyo, 2017.-112b.

2.Adabiyot.Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/ S. Ahmedov, B.Qosimov, R .Qo'chqorov, Sh.Rizayev.-T.: "Sharq",2020.-272b.

3. To'xliyev B.Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

NAVOIY IJODIDA HUKMDOR ADOLATI VA FUQAROLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARGA EGA BO'LISHI XUSUSIDA

Husenova Gulchiroy Qayim qizi,

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

15-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiyning mamlakatni adolatli podsho boshqarishi, xalqqa saxovatli bo'lishi, umuman odil podsho haqidagi qarashlari aks etgan. Shuningdek, ilm-ma'rifat orqali xalqning kamolotga erishishi kabi g'oyalarini o'zida singdirgan asarlari tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: adolat, podsho, g'azal, doston, gunoh, jazo, gado, milliy mentalitet.

Аннотация. В данной статье отражены взгляды Навои на справедливого царя, правящего страной, щедрого к народу и справедливого царя в целом. Также дан анализ произведений, отражающих такие идеи, как совершенствование народа посредством науки и просвещения.

Ключевые слова: справедливость, царь, газель, эпос, грех, наказание, гадо, национальный менталитет.

Annotation. This article reflects Navoi's views on a just king ruling the country, being generous to the people, and a just king in general. Also, an analysis of works reflecting ideas such as the improvement of the people through science and enlightenment is given.

Key words: justice, king, ghazal, epic, sin, punishment, gado, national mentality.

Alisher Navoiy jamiyatni boshqarishda ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanish zarurligini ta'kidlaydi. U adolatli jamiyatga erishish uchun insonlar ma'rifatli, ilimli bo'lishi zarur ekanini o'zining g'azallari va dostonlarida ifoda etib beradi. U adolatli rahbarning ish uslubi, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini tasvirlashga intiladi. Insonlar hayotidagi eng afzal tomonlaridan biri yaxshilik yo'lidagi o'zaro yordamdir. Bu narsaga ijtimoiy hayotni yuqori darajaga ko'tarish, jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish va ularning qayg'u-alamlarini yengillashtirishdan iboratdir.

U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi, ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlari o'z ifodasini topadi: " ...Davlat ishi bilan mashg'ul amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odatlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim", deydi. Alisher Navoiy adolat tog'risidagi qarashlarida inson ruhiyati bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning mohiyatini izlaydi. Jamiyatda yovuzlikning kelib chiqish sabablarini tahlil etadi. Adolatli jamiyatga erishishda nafaqat podshohning odilligi, balki, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning adolatli, ma'nan sog'lom bo'lishi lozimligiga e'tiborni qaratadi: "Oilamda bo'lmish har nav odam bilan ko'rishdim; katta-kichikning fe'l-atvorini o'rgandim; yaxshilik va

yomonlikning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim. Bahil va pastkashlarning zahmini, sahovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol sezadigan bo'lib qoldi", deydi.

... u "Mahbub ul-qulub" asarida har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli, yaxshi fe'l xosiyatli va yomon xislat kasofati haqidagi qarashlari asosida jamiyat ijtimoiy munosabatlarining yaxlit nazariy tizimi, fuqaro-jamiyat-davlat o'rtasidagi axloqiy majburiyatlarni umumlashtirishga erishadi. Adolat g'oyasi Navoiyning juda ko'plab asarlarida turli tarzda ifodalangan. "Hayrat ul-abror". "Saddi Iskandariy", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" dostonlarining, "Mahbub ul-qulub" asarlarining bosh g'oyasi adolatdir. Yana shuni aytish kerakki, Navoiyda insondagi juda ko'p ijobiy xislatlar, chunonchi sadoqat, vafo, xayo, saxovat kabilar ham bo'lmaydi, deb qaraydi.

Shuningdek, mutafakkirning fikriga ko'ra, adolat va qonuniylik – xalq va mamlakat xotirjamligining asosidir. Qonun "diniy aqida va duolardan ustun va muhimdir", hattoki "Sulton ham, agar gunoh qilar ekan, u jazoga tortilishi muqarrardir". Bu esa allomaning shohga xitoban amalda qonun oldida shoh-u gado tengligini eslatgani bilan izohlanadi.

Haq seni adl etgali sulton qilib,
Zulm ila sen xalqni vayron etib...

Uning asarlarida "Ma'naviyat" tushunchasi ham umuminsoniy qadriyatlarning eng oily darajasi sifatida talqin qilinadi.

U o'zining "Hayrat ul-abror" dostonining XV bobi mavzuini quyidagicha ifoda qilgan edi: "Bir necha so'z ul manidakim, so'zdan ma'ni jondur, so'z o'zi qolibdurkim, jonsiz va uni topmoq ishini kishi bilmas, balki uni topmoq kishi topilmas va ahli g'azof noinsofligida munsif bo'lmoq, balki o'z g'azofig'a insof berib, alarning uzrin qilmoq".

Alisher Navoiy o'zining butun umrlik ijodi davomida jamiyatni ma'naviyatli bo'lishga, buning uchun davlat hukmdorining adolatli va odil bo'lishi, uning chiqargan farmoyishlari xalq manfaati yo'lida xizmat qilishi, johillik va nodonlikning xalqqa qanchalik ziyoni-yu, uning olib keladigan mushkul oqibatlarini mukammal tarzda bayon etadi. Har biri faqat o'z foydasi uchun emas, yon-atrofdagilar baxt-saodati uchun jonkuyar, vafoli va sadoqatli bo'lishi eng oliyjanob ish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk allomaning asarlarida, uzoq tarixiy rivojlanish natijasida demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatini hozirgi zamonaviy asoslari shakllandi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish, tarixiy an'ana bo'lsa-da, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p mingyillik milliy an'analarning negizi

sifatida yuzaga keldi. Bu o'z navbatida mamlakatning har bir fuqarosi oldiga ta'lim-tarbiyaga asoslangan, xulq-odob, qonunga itoatkorlik siyosiy faol fuqarolikni shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z. G'ofurov "O'zbekistonda siyosiy va madaniy-ma'rifiy ta'limlari taraqqiyoti" T.,2001.
2. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" T.: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti",1988.
3. Izzat Sulton. "Navoiyning qalb daftari". T.:G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1969.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik. T.: "Fan", 1983-1985.

FARZAND TARBIYASIDA OILA VA MAKTABNING O'RNI TO'G'RISIDA NAVOIY QARASHLARI

Hamroyeva Sanobar Bozorovna,

Buxoro viloyati Vobkent tumani

21-umumiy o'rta ta'lim maktabi

oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Bola tarbiyasida oilaning o'rni , maktab va oila tarbiya o'chog'i sifatidagi Navoiyning qarashlari aks etadi.

Kalit so'zlar: farzand tarbiyasida ota-ona va maktabdagi ustozning o'rni, ilm bilan birga hunarli bo'lishning ahamiyati.

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, musiqa, xattotlik, tasviriy-san'at, me'morchilik va boshqalarni rivojlantirish bilan birga ta'lim-tarbiyaga ham katta e'tibor bergan. U o'zining "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" kabi yirik ta'limiy, axloqiy asarlarida, shuningdek , "Munojot", "Vaqfiya", "Muhokamat ul - lug'atayn" asarlarida oila, ta'lim-tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etgan. Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlar bergan bo'lsa, ta'limiy -axloqiy asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni, usullarini bayon etadi.

Navoiy nazdida bola oiladan tarbiya oladi, uni yetuk inson bo'lishiga oila va jamiyatning o'rni beqiyosdir. Hayotda komil inson bo'lib yetishish uchun Navoiy tasavvurida ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanning ahamiyati katta. Navoiy ta'lim-tarbiyada ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni

qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan vosita sifatida ta'riflaydi.

Alisher Navoiy "Hayrat ul- abror" dostonining o'n birinchi maqolotida ta'limni shunday sharhlaydi: "Ilm insonni baxt-saodatga eltuvchi quyosh, oy va kunduz, ya'ni bu maqolotda ilm osmonning yulduzlardek baland martabaligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun arab alifbosidagi "ayn"ni quyosh, "lom"ni oy, "mim"ni kunduz deb ko'rsatadi. Ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilat hisoblanadi. Shunga ko'ra Alisher Navoiy o'z asarlarida kishilarni ilm-u ma'rifatli bo'lishga undaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad jamiyat, yurt, oila, mamlakatda baxtli va farovon hayot kechirishdir. Uning "Mahbub ul - qulub" asarida shunday satrlar mavjud:

Ilm o'qub qilmag'on amal maqbul,
Dona sochib ko'tarmadi mahsul..

ya'ni ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib yoki urug' sochib, hosildan bahra olmaganga o'xshaydi, deb ta'riflaydi.

Navoiy asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etiladi. Ta'lim va tarbiya ota-ona, o'qituvchi va jamiyat tomonidan olib borilishi lozim deb ta'kidlanadi. Alisher Navoiy bolalarga jismoniy jazo berishni qoralaydi, lekin ularni erka-tantiq bo'lib ketishlariga ham yo'l qo'ymaslik zarurligini uqtiradi. Bunda ota-ona ham, o'qituvchi-murabbiy ham me'yordan chiqmasliklari, qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulm, qobiliyatsizga tarbiya besamar ekanligini nazarda tutishlari kerak. Alisher Navoiy asarlarining bosh g'oyasi komil insonni tarbiyalash. U bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani uyning "chirog'i", bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi deb baholaydi. Alisher Navoiy bolalarga yoshlikdanoq bilim, ma'lumot, tarbiya berishni aytib, o'g'il-qizlarni kichik yoshdan boshlab muallimga berish lozimligini aytadi.

Oila va undagi muhit, oilada farzandning o'rni, ota va onaning mas'uliyati buyuk adibning juda ko'p asarlarida bahs mavzusi bo'lgan. Olamshumul «Xamsa»ning ikkinchi dostoni bo'lgan «Farhod va Shirin» ulardan biridir. Ma'lumki, bu dostonning butun mohiyati va bayonu voqealar markazini oilada bir farzandning - Farhodning - tug'ilishi, tarbiyasi, ta'limi, olgan bilimi asosida ijtimoiy faoliyati va komil inson darajasiga ko'tarilishining badiiy tavsifi tashkil etadi. Shuning uchun yangi oila qurgan va qurayotgan yoshlarimizga bir ibrat sifatida Farhodning tarbiyasiga ota-onaning tutgan yo'lini kuzatish va ochib berish, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topshirishda qudratli ma'rifiy qurol vazifasini o'taydi. Zeroki, Farhodning doston davomida

sharhlangan barcha ezgu ishlari, mislsiz qahramonliklari asosini buyuk adib uning oilada olgan ta'lim va tarbiyasida ko'radi va hamisha buni ta'kidlab turadi. Chunonchi, Farhod Arman o'lkasiga kelib, ko'hkanlarning og'ir va deyarli samarasiz mehnatini ko'rib, tafakkurga botadi:

Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir .

Farhod ishga kirishga tayyorlanar va o'ziga ish quroli yasar ekan, buyuk adib uning bu ishda bolalikda Qorandan o'rgangan bilimiga tayanganligini shunday ifoda etadi:

Nihoniy borchag'a andoq su berdi,
Ki Qorandin nihon o'rganmish erdi .

Bir kunda ikki yuz toshkesar uch yil davomida qilgan ishdan qo'proq samara olishi ilohiy ne'mat, yordam yoki g'ayritabiiy kuch ta'sirida emas, yoshlikda o'rgangan HUNAR, ya'ni ta'limi mahsuli ekanligini «Hunar mundog' chu zohir ayladm qo'p» deb yakunlaydi.

Navoiy xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to'g'risida g'amxo'rlik qilgan. Uning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, insonparvarlik g'oyalarini bola ongiga singdirishda asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat, xalq uchun maktab g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Navoiy Alisher. "Xamsa". Toshkent O'z FAN, 1960.
2. A.Navoiy."Xamsa". Toshkent, 2016.

ALISHER NAVOIYNING "SARVDEK XAZRO LIBOSING BIRLA.." G'AZALI BADIYYATI

Choriyeva Sabinabonu ,

Buxoro viloyati Romitan tumani,
23-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" devoni tarkibidagi "Sarvdek xazro libosing birla..." g'azalining badiiyati, mazmuni va mumtoz badiiy san'atlari tahlil qilinib, ochiqlandi.

Kalit so'z: Alisher Navoiy, g'azal, badiiy san'at, aruz vazni.

Аннотация. В данной статье проанализированы и раскрыты художественность, содержание и классическое искусство газели

Алишера Навои «Sarvdek hazro libosing birla...» из поэмы «Бадаи ул бидоя».

Ключевые слова: Алишер Навои, газель, художественное искусство, аруз.

Annotation. In this article, the literary side, content and expressive means of Alisher Navoi's ghazal "With dress like a cypress, Oh delicate sprout..." from the devan "Badayi ul-bidoya" were analyzed.

Key word: Alisher Navoi, ghazal, literary art, aruz, expressive means.

Alisher Navoiy olti asrdan buyon o'z qiymatini, betakrorligini yo'qotmagan asarlar muallifi, jahonda turkiy tilning mavqeyini ko'rsatib qo'ygan buyuk qahramon, o'zining jafokashligi, adolatli va oqil qarorlari bilan xalqqa malham bo'la olgan dardkash Vatan farzandi.

Shuncha yil o'tibdi hamki, uning nomi tillardan tushmaydi, balki haminqadar ulug'larga ko'tariladi. Buning sabablaridan biri avlodlarga qoldirilgan buyuk bir adabiy merosdir. Mana shu xazinaning yoqut misol tovlanib turgan toji bu g'azaldir.

Alisher Navoiyga «g'azal mulkingning sultoni», deya ta'rif berilganida ulug' bir e'tirof bor. Chunki buyuk mutafakkir g'azallari nafaqat son jihatdan, balki badiiylik mezonlari talabi doirasida ham barcha ijodkorlarga o'rnak bo'lgulik. Navoiy nafaqat o'z davrining ijod an'analarini o'zlashtirdi, balki ularni mazmun va saviya jihatidan ham yangi bosqichga ko'tardi. Alisher Navoiygacha uch yuz yillik tarix yo'lini bosib o'tgan g'azal janri esa ijodkor qalami bilan imkoniyatlar cho'qqisini zabt etdi. O'z ijodida esa nodir va go'zal tasvir vositalarini qo'llay oldi. Shulardan "Sarvdek hazro libosing birla..." g'azali badiiyati va mazmuni bilan tanishib o'tsak.

G'azal "Badoye ul-bidoya" devoni tarkibidagi 427-g'azal hisoblanadi. G'azalda oshiqning yorga bo'lgan muhabbatiga va mashuqaning olamda "tengsiz go'zal" ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Sarvdek hazro libosing birla,ey nozik nihol,

To'tiyosen jilvagar, shakkar sanga shirin maqol.

Shoir matla'da yorga murojaat qilib, uning sarvdek qomati va shakar misol so'zini tasvirlaydi. Ushbu misralarda nido (ey nozik nihol), tashbeh (savrdek rangin libosing) kabi she'riy san'atlar qo'llanilgan.

G'azal aruzning ramali musammani mahzufida yozilgan bo'lib, quyidagicha taqde'ga ega:

Sarvidek haz/ro libosing / birla,ey no/ zik nihol,

To'tiyosen/ jilvagar, shak/kar sanga shi/rin maqol.

-V- - / - V - - / - V - - / - V - (foilotun, foilotun, foilotun, foilon)

Og'zingu beling hadisu ramzini bilmay yaqin,
El aro paydovu pinhon muncha tushti qilu qol.

2-baytda mubolag'a san'atiga guvoh bo'lamiz. Bizga ayonki, mumtoz adabiyotda mashuqa og'zining kichikligi-yu, belining bamisli qil singari bo'lishi go'zallik belgisi hisoblanadi. Bu misralarda ham yorining og'zi va beli kichikligidan bir paydo bo'lib, bir yo'qolib xalq ichida afsona bo'layotganini ta'kidlaydi.

Bilgurur yuzung' tihidin turfa xatti mushkbo',
Sabzadekkim, bo'lg'ay aning ustida ravshan zulol,

3-baytda yorga nisbatan ishlatilgan go'zal o'xshatishning guvohi bo'lamiz. Oshiq mashuqaning labi ustidagi tuklarni, zilol ustidagi sabzaga o'xshatadi. Ya'nikim, yuzlari shu qadar tiniq va chiroyliki, xuddi zilol suvdek. Lab ustidagi xatlar esa kichik sabzalar misol.

Ishq aro topsam malolat sabrdin, yo'q hayrate,
Darddin bemorg'a parhez erur ko'prak malol.

Keyingi baytda tamsil san'atiga ko'zimiz tushadi. : "Ishq aro sabrdan aziyat qilsam bu hayratlanarli emas, chunki bemor uchun ham darddan parhez qilish qiyin bo'ladi",- deydi oshiq. Yorim uchun azob chekishimga hayron bo'lmang, bemor insonga parhez qilish qay darajada qiyin bo'lsa, men ham shundayman deya ta'rif beradi.

Ey ko'ngul, gar tori jismimda navo yo'q, ne ajab
Nola qilmas garchi pechu tob urar sargashta nol.

Navbatdagi misrada oshiq ko'nliga murojaat qilib (nido), jismida navo yo'ligini kuchsiz cho'g'da alanga bo'lmaganligiga qiyoslaydi. (tamsil). Oshiq yor hajrida juda ko'p sitam ko'rganini, ammo bariga mashuqa uchun chidab turganini misollarda isbotlaydi. "Hasrat ohidan har dam osmonga o't solarman, bu qanday hikmatki, ekinni yoqsam ham zarar ko'rmayapti", - deya hijron chekadi.

Hasrat ohidin falakka o't solurmen har nafas
Ne ekin hikmat bukim, topmas asosi ixtilol.

Oshiq bu baytda ham hijrondan azob chekayotganini ko'rsatadi. U hasrat ohidin osmonga o't qo'ysa-da, hech ekini zarar ko'rmayotganidam'n ajablanadi. Misralarda mubolag'a va istiora san'atini ko'rishimiz mumkin.

Begunah to'ksang Navoiy qonini, yo'qtur g'ami,
Kim seni ko'rgan dami qonin sanga qilmish halol.

Shoir maqta'da oxirgi bor yorga murojaat qilib -Navoiyning qonini begunoh to'ksang-da, ga'mi bo'lmaydi. Chunki seni ko'rgan payt qoni senga halol bo'ladi -deydi.

Alisher Navoiyning soʻz mahoratini bilish uchun uning bir qancha asarlarini oʻqib emas, balki birgina gʻazalidan ham bilib olsa boʻladi. Shoir gʻazal bitarkan, majoziy ishq orqali haqiqiy ishqni kuylaydi. Unga yetish yoʻlida chekkan oh-u zorlariga qaramay, oʻz yoʻlida dadil qadam bosgan oshiqni koʻrsatadi. Garchi "yorining zugʻmi" ostida qolsa-da, buni oʻzi uchun tabarruk deb biladi.

Alisher Navoiy timsolida chin va sof ishqni kuylagan oshiqni koʻramiz. Quyidagi gʻazali ham shulardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Alisher Navoiy "Badoye' ul-bidoya" devoni
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 4 jildlik T.: "Fan"1983-1985-y
3. E.Fozilov. "Alisher Navoiy asarlari lugʻati" T.: "Niso Poligraf". 2013-y
4. P. Shamsiyev, S. Ibrohimov. Navoiy asarlari lugʻati T. : "Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti ". 1972-y

ODAMIYLIK OLAMINING JAVOHIRI

Ergasheva Lobar Oʻrunovna,

Romitan tumani 35-umumtaʼlim maktabi,
ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola umumtaʼlim maktablarning 5-11-sinflarida adabiyot darslarida A.Navoiy ijodini oʻrganishda foydalaniladi. Oʻquvchilarda insoniylik sifatlarini oshirishda, maʼnaviy dunyoqarashini kengaytirishda koʻmaklashadi.

Kalit soʻzlar: tabaqa, beandisha, hikmatmato, hilm, muxtasar chaqimchi, ochiq chehra, moʻr, tabar.

Respublikamizning barcha taʼlim muassasalarida boʻlganidek bizning maktabimizda ham har yili Alisher Navoiy tavalludi munosabati sinflarda ijodiy darslar, tarbiyaviy tadbir, adabiy kechalar tashkil qilinadi. Oʻquvchilarning kitob oʻqishga qiziqishlari orttiriladi, maʼnaviy tafakuri boyitiladi. Shu munosabat bilan biz ham oʻlmas isteʼdod sohibining bir asari Haqida fikr yuritmoqqa azm ayladik.

Oʻtmishda donishmand kishilarning bir fazilatlari boʻlgan. Ular keksaygan paytlarida boy, hayotiy tajribalari asosida kitobxonni togʻri yoʻlga boshlovchi, pand-nasihat tarzidagi asarlar yozib qoldirganlar.

Kamtarona umri mobaynida 30 dan ortiq ilmiy va badiiy asarlar yaratgan ikki yilda "XAMSA" "dodi bergan"ni betakror isteʼdod sohibi A.Navoiy

ana shunday xayrli ishga qo'l urib, 1500- yilda so'nggi asari "Mahbub ul-qulub"- "Ko'ngillarning sevgani" deb nomlangan didaktik kitobini yaratgan. Asar 3 qismdan iborat. Birinchi qismda jamiyatdagi har xil tabaqalar, kasb-kor egalari haqida gap ketadi, ikkinchi qismda kishilarga xos bo'lgan yaxshi va yomon axloq-odatlariga baho beriladi. Uchinchi qism esa pand va hikmatlardan tashkil topgan. Bu hikmatlar maqol darajasiga chiqib ommalashgan muallifi aniq bo'lgan fikrlardir. Inson yaratganning ongli xilqati, u o'z tili va tafakkuri bilan hayvonot olamidani farqlanadi.

Ruhshunoslarning hisob-kitoblariga ko'ra, insonlarda 500 dan ortiq ijobiy insoniy sifatlar bor ekan. Shoir shular haqida gapirib, fikrlarini isbotlash uchun ixcham hikoyalar keltirgan.

Shu o'rinda asardagi tanbehlariga murojaat qilamiz. Hilm (muloyim tabiatlilik) inson vujudining xushmanzara bog'idir va odamiylik olamining javohiriga boy tog'idir. Hilm axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining chidamli matosidir. Tilini tiyolgan odam – donishmand, oqil, so'zga erk bergan odam – beandisha va pastkash. Ozigina yolg'on ham ulug' gunohdir. Chaqimchilik hatto chin gap bo'lsa ham ko'ngilsizdir. Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z qisqa – muxtasar. Bitta kulchani ikki bo'lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o'zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni – axiy do'st deb bil. Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. Sihat tilasang – ko'p yema, izzat tilasang – ko'p dema. Saxiy bulut, baxil chumoli. Ochiq chehrali odam - ikki yuzlamachilikdek nuqsondan yiroq bo'ladi. Undan do'st-dushman xotirjam. Bunday kishi umridan baraka topgay.

Xullas, asardagi fikrlar turli- tuman va ibratli. Menimcha, bu kitobni o'qigan kitobxon uni yaxshi uqib olsa va ilmiga amal qilsa, birovlariga yomonlik qilishdan tiyiladi, saxovatli bo'ladi, umrining har soniyasini qadrlaydi, halollikka intiladi. Alloh yuragida bo'lsa, jinoyat ko'chasiga kirmaydi, o'zini anglab yashaydi, komillik sari intiladi.

Har o'quv yilida 6-sinf o'quvchilriga Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini o'rganish sabog'ini o'zgacha bir samimiyat va ixlos bilan o'taman. Dars yakunida o'quvchilardan so'rayman: "Aziz o'quvchilar, siz saxovatli, ilmi, hilm egasi, to'g'ri so'z, tili shirin, ma'naviyatli, xullas, jamiki ijobiy xislatlarga ega bo'lib, barcha insonlar sizni hurmat qilishlarini, o'zgalari uchun sevimli inson bo'lishni xohlaysizmi?" Ular: "Albatta!", - deb javob berishadi baravariga. Unda siz- deyman ularga Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini o'qing va undagi fikrlarga amal qiling.

Shunda shoir aytganidek, barcha hurmat qiladigan, e'zozlaydigan ko'ngillarning sevganiga aylanib qolasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bakhronovna G. R. The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 237-242.
2. Rustamova Gavkhar Bahron qizi,; „Semantic Interpretations of Poetic Image of Pomegranate in Uzbek Folklore,"CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE",2,10,125-130,2021,Central Asian Studies .
- 3.Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING “O ‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.

ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY G'OYALAR TALQINI

Erkinboyeva Norgul Barot qizi,

Buxoro viloyati Kogon tumani 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosidan o'rin olgan uumuminsoniy g'oyalar shoir g'azallari misolida talqin qilinadi. Ijodkorning badiiy mahorati uning asarlari tahlili orqali aks ettiriladi. Shoir g'azallarida tarannum etilgan mangulikka daxldor falsafiy fikr-mulohazalar keng yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: g'oya, talqin, tahlil, falsafiy yondashuv, badiiy mahorat, estetik ideal, poetik joziba, ijodkor fenomeni.

Annotation. In this article, the universal ideas of alisher Navoi's creativa heritage are interpreted in the example of the poet's poems. The artistic skill is reflected through the analysis of his works. The poet's poems cover a wide range of philosophical ideas about eternity.

Key words: idea, interpretation, analysis, philosophical approach, artistic skill, aesthetic ideal, poetik charm, creative phenomenon

Adabiyot olamida o'zidan o'chmas nom qoldirgan yorqin siymo, noyob iste'dod sohibi Alisher Navoiy ijodiy merosidan o'rin olgan turfa asarlarda ijodkorning dunyoqarashi va estetik tafakkuri o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiy devonlaridagi g'azallarda va uning nasriy tarzda yaratilgan qator asarlarida bevosita ulug' mutafakkirning adabiy qarashlari bo'y ko'rsatib

turadi. Shoir tomonidan qalamga olingan mavzular tarkibiga singdirilgan umuminsoniy g'oyalar ushbu asarlarning umrboqiyiligini ta'minlaydi.

Alisher Navoiy adabiy merosi bag'oyat keng ko'lamni tashkil etadi. Muallif o'z asarlarini yaratarkan, davriylikdan chekinib, barcha zamonlarda ham dolzarblik kasb etuvchi mavzularga yondashadi. Ularni yetuk tafakkuriga tayangan holda keng yoritadi. Shoir asarlarida ifodalangan ezgu g'oyalar uning hikmatlarida namoyon bo'ladi.

Navoiy badiiy ijod olamida qalam tebratar ekan, bir qator go'zal asarlar yaratdi. Bu bebaho ijod namunlari uning nomini butun jahonga yoydi. Ta'kidlash joizki, Navoiy shaxsi bashariyat oldida ulug' ustoz sifatida e'tirof etishga arzigulik hilqatdir. Uning asarlari qatiga jo bo'lgan, asrlar o'tsa-da hamon o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan teran mazmun va umumbashariy g'oyalar uyg'unligi ijodkorning adabiyot olamidagi yuksak maqomini belgilaydi. Navoiy asarlari mutolaasi kishi ruhiyatiga ajib sokinlik, zavq bag'ishlaydi. Shoirning hikmatga yo'g'rilgan ijodini o'rganish jarayonida uning donishmandona falsafiylik aks etgan fikrlari ongimizga o'rnashib qoladi. Shoir she'riyati to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi mayoq kabi bizga o'zligimizni anglamoq va chin inson bo'lmoq yo'lini o'rgatadi go'yo.

Alisher Navoiy asarlarida shoirning axloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan va bu ijod namunlari o'z o'rnida muallifning shaxsiy fikr-mulohazalari, a'moli va dunyoqarashini, xarakterini namoyon etgan. Navoiy o'z asarlarida adabiyot zamiriga singib ketgan umumbashariy g'oyalarni mukammal yoritgan va keng targ'ib qilgan.

Agar hikmatga bo'lsa iltifoting,

Ki bo'lsun Nuh umricha hayoting. [Navoiy, 1968: 20].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. – Б.88.

2.Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 408

3.Абдуғофуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. –Б. 184.

4.Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 256.

BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA

Raxmonova Dilfuza Maxmudovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Hamdamova Adolat

Sport faoliyati va pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda buyuk allomalar, qomusiy ilm sohiblari pandnoma ruhidagi asar mualliflarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi asarlari, fikr va qarashlarining butun jahonda tutgan o'rni va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, shuningdek bugun kun amaliyatidagi ahamiyati yortilgan

Kalit so'zlar : buyuk allomalar , ta'lim , tarbiya, kamoloti, pandnoma.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль великих учёных-энциклопедистов в духе панднамы, труды, мысли и взгляды авторов произведений об образовании в мире и их вклад в развитие педагогической идеи, а также сегодняшнее её развитие. важность на практике подчеркивается

Ключевые слова: великие учёные, образование, подготовка, совершенствование, панднома.

Annotation: In this article, the role of great scholars, encyclopedists in the spirit of pandnama, the works, thoughts and views of the authors of works on education in the world and their contribution to the development of pedagogical ideas, as well as today's its importance in practice is highlighted

Key words: great scientists, education, training, perfection, pandnoma.

Kishilik jamiyati paydo bo'lganidan boshlab uni rivojlantirish uchun yoshlarga ta'lim berish ehtiyoji vujudga kelgan. Shu maqsadda, izlanishlar boshlangan. O'tmishda o'qitishda tarbiyachi – tarbiyalanuvchi munosabatlari ustivorligi, ustoz-shogird munosabatlarning qadriyat darajasiga ko'tarilganligi ko'plab asarlariga buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan e'tirof etilgan. Sharq xalqlari ta'lim tizimida X asrda ta'lim oluvchilar huquqining toptalishiga qarshi ularning mustaqil bilim olish va fikrlash faoliyatini rivojlantirishiga qaratilgan o'qitish nazariyasi vujudga keldi. Forobiy, ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy kabi buyuk mutafakkirlarning asarlarida bu nazariya rivojlantirildi. Jumladan, ibn Sino: "Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa u huddi turli-tuman bog'u rog'larda sayr qilgandek bo'lib, bir bog'dan o'tar-o'tmas, yana boshqa bog' boshlanishiga intiq bo'ladi. So'ngra

esa, u bu bogʻning barcha qismini koʻrgisi, tomosha qilgisi keladi”, deb yozgan edi.

Koʻrinib turibdiki, oʻsha davridayoq oʻquvchilarning fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish uchun ularga har doim yangi oʻquv materiallarini taqdim etish gʻoyasi ingari surilgan. Buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan taʼlimiy qadriyatlari nihoyatda katta didaktik ahamiyatga ega boʻlib, ular bugungi kunda ham oʻquv jarayonini takomillashtirishga munosib ulush qoʻsha oladi. Jumladan, oʻtmishda yashab oʻtgan barcha allomalarning qarashlarida taʼlim-tarbiya uygʻun tarzda amalga oshirilishi lozimligi; pedagog oʻzining tashqi qiyofasi, bilimdonligi, maʼnaviyati, hulq-atvori, muomala madaniyati bilan oʻquvchilarga namuna boʻlishi zarurligi taʼkidlanadi. Albatta, har bir murabbiylarning yurish-turishini soʻzlash madaniyatiga qarab oʻquvchilarga eʼtiqod, bilimga intilish, oʻquv jarayoniga qiliqish vujudga keladi. Ajdodlarimiz buni oʻz vaqtida chuqur his etganlar. Bu esa, oʻz navbatida, oʻquvchilarning bilimlarini oʻzlashtirish saviyasiga sezilarli taʼsir koʻrsata olgan.

Abu Nasr Forobiyning “Aql haqidagi risola”, “Kitobi axloq” kabi asarlarida taʼlim tizimi uchun muhim boʻlgan didaktik qarashlar ilgari surilgan. Forobiy taʼlim-tarbiya jarayonida taʼlim oluvchilarga individual yondashish zarurligi gʻoyasini koʻtarib chiqqan edi. Bunda u bolalarning tabiiy, ruhiy va jismoniy holatlarini ham nazarga tutish zarurligini taʼkidlaydi. Oʻquv-biluv jarayonida bolalarda individual yondashuvni amalga oshirish bugungi kunda ham taʼlimning dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Bolalarning layoqati, qiziqishi va nimaga qodir ekanligini bilmasdan turib, ularga individual taʼlim berish mumkin emas, - deya koʻrsatadi Forobiy. Demak, bolalarning shaxsiy, axloqiy va individual xususiyatlarini aniqlagan holdagina ularga individual taʼlim berish natijasida oʻqitish samaradorligini taʼminlash mumkin.

Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” asarida taʼlim-tarbiya, ilm-maʼrifat, taʼlim oluvchilarning ruhiy dunyosini anglash kabi masalalar yechimi oʻz ifodasini topgan. Ushbu asar mudarrislar uchun bir necha yuz yillar davomida asosiy qoʻllanma boʻlib kelgan. Sharqning buyuk mutafakkiri ibn Sino bolalarga taʼlim berishdan oldin ularning xulq-atvorini oʻrganib, bilimlarini tekshirib koʻrishi, soʻngra qiziqishlariga qarab, kasb-hunarga yoʻnaltirish zarurligini tavsiya etgan edi. Ibn Sino oʻsha davridayoq bolani necha yoshdan boshlab taʼlim jarayoniga jalb etish lozim? degan savolga javob izlagan edi. Bu masalaga uning oʻzi “Kitob-ul ishorat fil mantiq va hikmat” asarida: “Bola 6

yoshga yetgach, u muallimga topshiriladi, ta'lim asta-sekinlik bilan berilishi kerak. Uni birdaniga kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim", - deb ta'kidlanadi.

Abu Rayxon Beruniy ham o'z davrida ta'lim haqidagi ilg'or g'oyalarni ko'tarib chiqqan edi. U bolalarni 5-6 yoshdan boshlab o'qitish tarafdori bo'lib, bolaga qo'yiladigan talablar sifatida o'z fanini yaxshi bilishi, pokizalikka e'tibor berishi, rostgo'yligi, toza-ozoda yurishi zarurligi kabilarni ko'rsatgan. U ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning o'rnak-namuna ko'rsatishini dars samaradorligini oshirish uchun asosiy vosita sifatida qayd etgan. Beruniy ta'lim-tarbiyani aqliy, axloqit, mehnat va nafosat ta'lim-tarbiyasi kabi bir necha turlarga bo'lgan edi. Shu bilan bir qatorda, ularni ta'limning dastlabki bosqichidan boshlab tarbiyalanuvchilarga singdirib borish lozimligini ta'kidlagan. Mutafakkir shunday deb yozadi: "Ta'lim berishda bizning maqsadimiz, bolani toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiyverish bola uchun zerikarli bo'lib, uning toqatini toq qiladi". Ko'rinib turibdiki, alloma bolaga bir xildagi o'quv materiallarini takror taqdim etish natijasida ularni toliqtirish, zeriktirish, ularni o'quv jarayonidan bezdirishga olib kelishni alohida ta'kidlaydi.

VIII – XI asrlarda o'quvchilar, asosan, maktabdorlarning xonadonlari va madrasalarda ilm olganlar. O'sha davrda o'qitishning imlo, mutolaa usullaridan keng foydalanilgan. X asr Markaziy Osiyoda o'qitishning "Tadriz" (shahar, izoh) usuli shakllanishi munosabati bilan – oliy dorilfunun tashkil topdi.

Sharqona ta'lim usullaridan bolaning kuchi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda, unga alohida yondashish, ya'ni individual ta'lim berishni tashkil etish o'sha davr ta'lim amaliyotida o'zini oqlagan edi. Sa'diy Sheroziy o'zining ta'lim-tarbiya oid qarashlarini "Bo'ston" hamda "Guliston" asarlarida bayon etgan. Bu ikki asar xalq pedagogikasi namunalari, ya'ni hikmatlar, pandlar, maqol va rivoyatlar zaminida vujudga kelgan. Ushbu asarlar Sharq xalqlari ta'limida alohida ahamiyatga ega.

Sharq mutafakkirlarining bevosita ta'lim sohasida ilgari surgan o'lmas g'oyalari pedagogik jarayonning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, turli fanlardan amalga oshirilgan kashfiyatlar ta'lim-tarbiya mazmunida o'z ifodasini topmagan edi. Shuningdek, dunyoviy fanlarning o'qitilishiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Garchand, sinf – dars tizimi dastlab Forobiy tomonidan asoslangan bo'lsada, XII – XVII asrlarda bunday yondashuv ta'lim jarayonining tashkil qitishga amal qilinmadi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim mazmunini belgilash sohasida qat'iy tartib va tamoyillar mavjud emas edi. Jumladan:

- a) muayyan mazmunga asoslangan o'quv kurslari shakllantirilmagan;
- b) o'quvchilarning maktabga kelish-ketish vaqti yil hisobiga asoslangan holda aniq chegaralanmagan;
- c) o'qitishda umumiylik emas, xususiylikning ustivorligi ta'minlangan;
- d) domlalar umumiylik emas, xususiylikning ustivorligini ta'minlagan.

O'sha davrlarda ta'lim mazmunining asosini diniy ta'limotlar tashkil etgan. Dunyoviy bilimlar, tushunchalarni o'quvchilarga yetkazish alohida e'tibor qaratilmagan. Maktablarda daslik sifatida "Xaftiyak", "Chorkitob" va "So'fi Olloyor" she'rlari o'qitilar edi. Ba'zi eski maktablarda "Fazn ayn", "Tajvid", "Mantiq", "Devoni Fuzuliy", "Devoni Bedil", "Devoni Mashrab", "Devoni Rag'buzy" kabi murakkab asarlar, "Yusuf va Zulayho", Alisher Navoiyning "Devoni Navoiy", "Amir Navoiy", "Devoni Amir Navoiy" kabi nomli she'riy kitoblardan darslik sifatida foydalanilgan. Bu asarlarning bolalar yoshi va saviyasiga mos kelmasligi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Furqat, Behbudiy, A. Avloniy, M. Abdurashidxonov, X. Muin kabi ilgo'r fikrli ma'rifatparvarlar va pedagoglar ham ko'rsatib o'tgan edilar. O'quvchilarning bilim sifati, fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish uchun ularni rag'batlantirishga alohida e'tibor berilgan. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning o'zlari sevgan sohalari bilan shug'ullanishlariga alohida zamin hozirlangan. O'quvchilar maktabxonalarda o'qib yurgan davrlardanoq muayyan yo'nalishda chuqur bilim olish va o'z mahoratlarini oshirishga undalغانlar. Maktab va madrasalarda o'qituvchilar o'quvchilarning iqtidorlarini juda erta aniqlaganlar va shu asosda ularning har birlari bilan alohida-alohida mashg'ulotlar olib borganlar. Ibn Sino, Beruniy kabi allomalar hamda ma'rifatparvar Furqat o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'rgazmalilikning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tganlar. Bu esa o'quvchilarning ko'rish, eshitish kabi fiziologik jarayonlarini rivojlantirib, ularning tasavvurlari, dunyoqarashlarini kengaytiradi va ularda estetik didni tarkib toptiradi, degan muhim qarashni ilgari surganlar. Qadimda o'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalarning aksariyat maktablari masjidlar, madrasalar, qorixonalar, rabotlar, maktabdorlarning uylari huzurida bo'lgan. Qiz bolalar maktablari pedagog ayollar yoki badavlat kishilarning xonadonlarida bo'lgan. O'g'il bolalarga domlalar, qizlarga esa, otinoyi (otinbibi, bibihalofa, bibiotin, eltibibi)lar ta'lim-tarbiya berganlar. O'sha davrlarda ham hozirgi Qoraqalpog'iston hududidagi maktablarda o'g'il va qiz bolalar birga o'qitilgan. Shar'iy qoidalarga ko'ra, ilm o'rganish maqsadida domla yoki otinbibiga murojaat qilgan bolalarga rad javobini berish og'ir gunoh hisoblangan. Shunga ko'ra, bolaning ota-onasi pedagogga

qancha haq to'lashidan qat'iy nazar, ular maktablarga qabul qilinganlar va ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lganlar. O'sha davrlarda ham yetim-yesirlarga tekin ta'lim berilgan. Qishloq maktablarida 15-20 tacha, shahar maktablardagi domlalarda 50-60 tagacha o'g'il bolalar tahsil olganlar. Bolalar maktabga 5-6, ba'zan 6-8 yoshdan qabul qilinganlar. O'quv jarayoni 5 yildan 8 yilgacha davom etgan. O'sha davrlarda o'quvchilar yoz mavsumi va ramazon oylarida ta'tilga chiqarilgan. Juma va bayram kunlari maktablarda mashg'ulotlar o'tkazilmagan. Boshqa odatiy kunlarda esa, ertalab quyosh chiqqandan kech asr nomozigacha davom etgan. O'qish vaqtining davomiyligi domlarning tahsil berish mahorati, o'quvchilar zehning maromi hamda tahsil oluvchilarning oilaviy sharoitiga bog'liq tarzda belgilangan. O'qish uchun murojaat qilgan o'quvchilar yilning barcha kunlarida maktablarga qabul qilingan. Barcha o'quvchilar bitta xonada o'qiganlar. Mazkur maktablarda qat'iy dars rejasi, o'quv jadvali va o'quv dasturlari bo'lmagan. Harflarni o'quvchilarga o'rgatish jarayoniga ularning osti va ustiga qo'yiladigan diakritik belgilardan harakatlar yordamida bo'g'in tuzish o'rgatilgan. Navbatdagi dars bosqichi "Abjadxonlik" bo'lgan. Bunda o'quvchilar so'zlardagi o'zaro bo'g'inlarni qo'shish, "Abjad"ga ko'ra, hisob va ko'paytirishga o'rgatilgan. Maktabda kitobxonlik "Haftiyak" dan Quranning qolgan qismi o'qitilgan. Savodi chiqqach, bolalar diakritik belgilarning nasta'liq yozuvida fors tilida yozilgan "Chor kitob", So'fi Olloyorning "Sabot ul-ijozin", Faxrididdin Attorning "Mantiq ut-tayr", Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Bedil, Navoiy, Mashrab kabi shoir va mutafakkirlarning devonlarini o'qib saboq olganlar. Qizlarning maktabxonalarida ko'proq shoirlar ijodi o'rganilgan. Masalan: Sharqona odob-axloq, uy-ro'zg'or tutish, pazandalik, pokizalik kabilarga o'rgatuvchi Aliy Nazimoning "Ta'limi banot", Olimat ul-Banotning "Muoshorat odobi", Faxriddin ibn Rizouddinning "Tarbiyali xotun" kabi asarlarida darsliklar sifatida foydalanilgan. Maktablarda bolalar o'qishni to'liq o'zlashtirib olganlaridan keyingina yozishga o'tganlar. Ba'zi maktablarda esa, "So'fi Olloyor", "Xo'ja Hofiz" kitoblarini o'qish ko'nikmasiga ega bo'lganlaridan keyingina harflarni yozishga oid mashqlarni boshlaganlar. O'quvchilarga yozuvni o'rgatish bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Dastlab o'quvchilarga alohida harflar yozdirilgan. Bu o'sha davr pedagoglarining ta'biricha, xat-savod o'rgatishning mufradot bosqichi hisoblangan. Undan so'ng esa, harflarni qo'shib yozishga o'tilgan. Mazkur bosqich xat-savod o'qitishning murakkab bosqichi deb atalgan. Shundan so'ng baytlar, qit'alar, ruboiylarni ko'chirib yozishga oid topshiriqlar berilgan. Bunday mashqlar muqattaot mashqlari deb nomlangan. O'sha davr domlari yozuvni o'rgatishda "Badonul insho", "Munshaot", "Dastu

ul-quzot”, Said Salohiddinxo‘ja ibn Oloviddinxo‘janing “Mufradot”, Shermuhammad Avazbek o‘g‘li Munisning “Savodi ta‘lim” kabi darslik va qo‘llanmalaridan foydalanganlar. Biroq u davrlarda o‘quvchilarga maktabni bitirganliklari haqida hech qanday hujjat berilmagan.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilib aytish mumkinki, ajdodlarimiz barcha davrlarda yoshlarning ilmi bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratganlar va bunday olijanob maqsadni amalga oshirish uchun asrlar davomida ta‘limiy qadriyatlarining boy hamda bugungi kun uchun ham alohida qimmatga ega bo‘lgan boy zaxirasini vujudga keltirganlar. Mazkur qadriyatlarni o‘rganish, aniqlash, har tomonlama chuqur tahlil qilish va ularni saralagan holda bugungi kunda didaktika nazariyasini rivojlantirishda qo‘llash alohida ilmiy-amaliy qimmatga ega.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz o‘rinli: “Dunyoga Buxoriylar, Beruniylar, Termiziylar, Xorazmiylardek buyuk alloma va aziz avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug‘ ajdodlariga munosib bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur” Demak, buyuk ajdodlarimizga xos bo‘lgan shijoat, iroda, mardlik, oqillik kabi hislatlarni ulg‘ayib kelayotgan barkamol avlodlarimizda shakllantirish bizning dolzarb vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik- milliy g‘oyamizning poydevoridir. “Tasvir” nashriyot uyi Toshkent-2021.
2. Ma‘naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) -T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.1999.
3. “Xalq ta‘limi” jurnali, 6-son, 2009 yil.
4. Robiya Otamurodova “Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarni tarbiyalash usullari” Qarshi 2005 yil.
5. “Uchinchi mingyillikning bolasi” tayanch dasturi. T. , “Ma‘rifat-madadkor” 2002.
6. O.U.Hasanboyeva “Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi” Toshkent 2006 yil.

ALISHER NAVOIY QIT‘ALARI SHARHI VA O‘QITISH USULLARI

Eshmurodova Shahnoza Ilhomovna,

Buxoro viloyati Vobkent tumani 36-umumta‘lim maktab

ona tili va adabiyot fani oliy toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘quvchilarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, erkin va ijodiy fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi

ta'limning eng ustuvor maqsadlaridan biridir. Shu jihatdan adabiyot, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi alohida o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: "muqobilini top", "videotopishmoq", "besh daqiqali esse" "uchinchisi ortiqcha", "headline-sarlavha qo'yish" usullari.

Yangi tahrirdagi 7-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiy qit'alaridan namunalar berilgan bo'lib, nasriy bayonini chiqarish, va sharhlash o'quvchining o'ziga havola qilingan. Milliy testlarimizda mumtoz janrdagi she'rlar tahlili va sharhlariga oid savollarning mavjudligi va aniq javobni topishda o'quvchi va o'qituvchilarimizning qiyinchilikka duch kelayotganliklarini inobatga olsak, Alisher Navoiy qit'alari sharhi va o'qitish usullariga bag'ishlangan ushbu mavzu juda ham dolzarb.

Qit'a o'zbek mumtoz she'riyatining lirik janrlaridan. Arabcha so'z bo'lib, "bo'lak", "parcha degan ma'nolarni bildiradi. Qit'a janri qator xususiyatlarga ega. Juft misralari o'zaro qofiyalanadi: ab, db, eb, fb va hokazo. Eng kami ikki baytdan iborat bo'ladi, ammo uning ko'p baytli turlari ham mavjud. Mavzu ko'lami juda keng, deyarli hayotdagi barcha mavzular qit'a mavzusiga aylangan. Ruboiy, tuyuq janrlari bilan taqqoslanganda vazn jihatdan ham erkin janr hisoblanadi. Quyida mutaxassis tahlillariga asoslangan holda qit'alarni sharhlashga harakat qilamiz va o'quvchiga yetkazib berishda bir necha usullarni tavsiya qilmoqchimiz.

Yuqori o'lturur kim tilasa,
Kishilikdan ani yiroq bilgil.(1)
O'lturur safda yuqorilikdin,
O'lturur safda yaxshiroq bilgil.(2)

Qit'a oddiy, sodda tilda yozilgan. Oson o'qiladi, izohtalab so'zlar deyarli uchramaydi. qit'ani sharhlashdan oldin nasriy bayonini chiqarib olamiz. Buning uchun qit'adagi gaplarni ajratamiz va raqamlar bilan belgilaymiz (*qit'ada raqam bilan ko'rsatilgan*). Nasriy bayoni:

- 1) *kim yuqorida o'tirishni istasa, uni kishilikdan yiroq bilgin;*
- 2) *safning yuqorisida o'tirishdan ko'ra safda o'tirishni yaxshiroq bilgin.*

Yuqori o'tirish, hammadan oldinda bo'lish xohishi inson qon-qoniga singgan istak, faqat bu istak kimdadir pinhon, kimdadir oshkora bo'ladi. Eng achinarli jihati shundaki, bu xohish ostida insonda bora-bora kibr, bepisandlik, birovni o'zidan past qo'yish kabi nuqsonlar yuzaga keladi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy barchadan o'zini yuqori oladigan kimsalarni odam deb hisoblamaydi, ularni kishilikdan chiqqan tuban kimsalar deb ataydi. Adib fikricha, safning yuqorisida bo'lish ham yaxshi emas, chunki

bunday kimsa yana yuqorini xohlab qolishi mumkin. To'g'ri yo'l bu hamma qatori bir safda bo'lish, oddiy insonlar orasida ular bilan birdamlikda bo'lish.

Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming ollingda har zamon. (1)
Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon. (2)

Lug'at: *tuzluk*-to'g'rilik, halollik; *kotib*- qo'lyozmalarni husnixat bilan oqqa ko'chiruvchi; *raqam qilmoq*-yozmoq; *aso*-hassa; *shubon*-cho'pon.

Nasriy bayoni:

1) *har zamon yuz mushkil bo'lsin yoki ming ollingda yo'liqsin to'g'rilikka moyil bo'lki, ishing ilgari boradi;*

2) *kotib yuz sahifani bir qalam bilan yozadi, cho'pon ming qo'yni har yonga bir aso bilan suradi.*

Shoir fikricha, inson yuz yoxud ming mushkul vaziyatda qolsin to'g'rilikni tark etmasligi lozim. Halollikka, rostlikka odatlangan kimsaning ishi doim olg'a siljiydi, xalqona ibora bilan aytganda, ishi o'ngidan keladi. Navoiy fikrining isboti sifatida ikkita hayotiy misollarni keltiradi va bu *tamsil* san'atini hosil qilgan. Tamsil san'ati aytilgan fikrni isbot qilish maqsadida dunyo hodisotlaridan misol keltirishdir. Kotibning ishi juda mas'uliyatli va mashaqqatli, chunki u qo'lyozma yoki kitobni xatolarsiz chiroyli husnixat bilan ko'chirishi lozim. Ko'chirayotgan sahifalari qanchalik ko'p bo'lmasin u ishini bitta qalam bilan eplaydi. Qishin-yozin ochiq osmon ostida qo'y boqadigan cho'ponning vazifasi ham yengil emas. Lekin buni qarangki, u ming qo'yni bir hassa-tayog'i bilan boshqaradi. Qit'ada to'g'rilik zimdan qalam va tayoqqa o'xshatilmoqda. Bu *tashbeh* san'atini hosil qilgan.

"Alisher Navoiy qit'alari" mavzusini o'qitishda quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

1. *"Muqobilini top" usuli.* Bunda adabiy janrlar xalq og'zaki ijodi bilan bog'lanadi, qit'ada ifodalangan asosiy fikrni maqol yordamida ochib berishni nazarda tutadi. O'quvchida zukkolik, fahm va idrok etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Darsni mustahkamlash qismida amalga oshirgan ma'qul.

Buning uchun, dastlab, jadval tuzib olinadi. Jadvalning birinchi ustunida qit'a nomlari va ikkinchi ustunida qit'aning g'oyasiga mos maqollar aralash holda beriladi. O'quvchi to'g'ri keladigan javoblarni birlashtirishi lozim bo'ladi.

Qit'alar	Maqollar
1. "Yuqori o'lturur kim tilasa..."	1. "Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt"

2. "Tuzlukka moyil o'liki..."	2. "O'qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi"
3. "Ko'p oltin, kumush sori qo'l sunmog'il..."	3. "Ko'kka boqma, ko'pga boq"
4. "Navoiy, tiling asrag'il zinhor..."	4. "Boylik aqlni xiralashtiradi"
5. "Ildin kasb qilki, sud ermas..."	5. "Haqiqat oltindan qimmat"

Yuqoridagi qit'a va maqollarni quyidagicha birlashtirish mumkin: 1→3, 2→5, 3→4, 4→1, 5→2.

2. *"Videotopishmoq" usuli.* O'qituvchidan mavjud turli axborot-kommunikatsiya vositalaridan ta'limda o'rinli foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu usulni mavzuga moslaydigan bo'lsak, bunda qit'ada yoritilgan fikrlarni o'zida ifoda etgan xalq ertaklari asosida suratga olingan multfilm yoki kinofilmlardan nomlari yashiringan holda parchalar namoyish etiladi. O'quvchilar jamoaviy yoki mustaqil bu asar nomini va qaysi qit'a g'oyasiga mos tushishini topishlari kerak bo'ladi.

1. *"Egrivoy va To'g'rivoy" multfilmi* → *"Tuzlukka moyil o'liki..." qit'asi*

2. *"Meshkopchining baxti" multfilmi* → *"Ko'p oltin, kumush sori qo'l sunmog'il..." qit'asi*

3. *"Sher va durroj" multfilmi* → *"Tuzlukka moyil o'liki..." qit'asi*

4. *"Farhod va Shirin" dostonidan parcha (Farhodning ariq qazish tasviri* → *"Ildin kasb qilki, sud ermas..."*

3. *"Besh daqiqali esse" usuli* - yozma topshiriqning ushbu turi o'quvchida mavzu bo'yicha mustaqil fikrlarini ifodalash imkonini beradi, o'qituvchida mavzuni tushuntirishda qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishi lozimligi borasida tushuncha hosil qiladi. Bu usul dars oxirida besh daqiqa ichida o'tkaziladi, mavzu bo'yicha nimalar o'rganganliklarini mustaqil bayon etishlari va o'zlari uchun javob ololmagan bitta savol berishlari so'raladi. Savol orqali o'qituvchi fikrlarini to'ldirishi, umumlashtirishi yoki bahs-munozarani davom ettirishi mumkin bo'ladi.

4. *"Uchinchi ortiqcha" usuli.* Usulni qit'a janri xususiyatlari yoki biror bir qit'a sharhini mustahkamlab olishda qo'llasa bo'ladi. Bu o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Bunda mavzuga doir ikkita to'g'ri va bitta mos bo'lmagan ma'lumotlar jamlanadi. O'quvchilar jamoaviy holda ortiqcha uchinchisini topishlari lozim bo'ladi. Topshiriqlar mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. a) *qit'a eng kamida ikki baytdan iborat, ko'p baytli turlari ham mavjud;*

b) qit'a ma'lum bir belgilangan vazn asosida yoziladi;

d) qit'a mavzu ko'lamiga ko'ra juda keng qamrovli. Ortiqchasi: b javob variant.

2. Ma'lum bir qit'a sharhi borasida ham qo'llash mumkin. Masalan, "Tuzlukka moyil o'liki..." qit'asiga mos fikrlarni aniqlang: a) qit'ada to'g'ri so'zlashga chaqirilgan bo'lib, yolg'on va bemavrid so'zlagan kimsa xo'roz kabi o'lim topishi mumkinligi aytilgan; b) qit'ada to'g'rilik qalam va tayoqqa o'xshatilgan; d) adib fikr isboti uchun ikkita tamsil san'atini qo'llagan. Ortiqchasi: a javob variant.

5. "Headline-sarlavha qo'yish" usuli. Ma'lumki, odatda lirik janrdagi asarlar maxsus nomlanmagan. Ammo Navoiy qit'alarini "Xazoyin ul-maoniy" devoniga kiritayotganda maxsus nomlagan. 7-sinf darsligida qit'alar nomsiz holda berilganligini inobatga olib, o'quvchilarga aosiy g'oyani, fikrni o'zida mujassam etgan sarlavha topishlarini aytish mumkin. Guruh bo'lib yoki mustaqil ishlashlari mumkin bo'ladi. Javoblar adib qo'ygan nom bilan solishtiriladi, eng yaqin javoblar aniqlanadi. Masalan, "Tuzlukka moyil o'liki..." qit'asi berilishi mumkin. Sarlavha so'z, so'z birikmasi yoki maqol ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Taxminiy javoblar: "To'g'rilik", "Rostlik xususida", "Haqiqat oltindan qimmat". O'qituvchi qit'aning "Xazoyin ul-maoniy"dagi nomini keltiradi: "Tuzluk ta'rifidakim, shior qilg'onga sa'b ishlar osondur va kulli umur suhulat bila yakson". Sarlavhadagi qiyin so'zlar lug'ati beriladi va sharhlanadi. Lug'at: sa'b- qiyin; kull- hamma, butun; suhulat- osonlik, yengillik, yakson- teng, barobar. Sharhi: to'g'rilikni o'ziga shior qilgan kishi uchun qiyin ishlar osondir va butun umri yengillik bilan teng bo'ladi. Bu usulni aynan qit'a mavzusida qo'llash orqali o'quvchilarda idrok etish, zukkolik xususiyatlari takomillashi bilan birga Navoiy qit'alarining nomlanganligi haqidagi qo'shimcha ma'lumorlarga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi Alisher Navoiy qalamiga mansub lirik janrlarni to'g'ri sharhlay olish, turli interfaol usullardan samarali foydalangan holda o'quvchida erkin-ijodiy og'zaki va yozma fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, fanga nisbatan qiziqishlarini orttirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent, "G'afur G'ulom", 1972.

2. Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. Toshkent, "Cho'lpon", 1991.

3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, "Sharq", 1998.

4. Avlayev O., Jo'rayeva S., Mirzayeva S. Ta'lim metodlari. Toshkent, "Navro'z", 2017.

5. Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING "O 'TKAN KUNLAR" ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.

ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Rasulova Gulmira,

Buxoro viloyati Vobkent tumani

5-umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Yangilangan ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari haqida gapirganda, biz ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak, chunki egallanadigan bilim bu rivojlanishga asos soladigan va to'g'ri yo'naltiradigan yagona ishonchli manbadir. Bugungi globallashgan zamonning eng muhim muammolari va o'zgarish tomonlarini aks ettiruvchi integratsiyalashgan individual elementlar sifatida bilim, tushuncha, jarayonlar, munosabat, qiziqish va shunga o'xshash narsalarni o'rganish kerak.

Kalit so'zlar: integratsiya, texnologiya, ta'lim, Alisher Navoiy, innovatsion texnologiya, individual elementlar.

Bugungi fan-texnika tobora rivojlanib borayotgan jarayonda jahon madaniyati, ommaviy madaniyat yoshlarimizga ne chog'lik ta'sir etayotgani, ta'lim tarbiya, yoshlarning ilm-fanga bo'lgan munosabatlari ham barchamizga kundek ravshan. Zero, bugungi kunda ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish borasida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab muammo va vazifalar mavjud. Bugungi kunda bolalarimizning Alisher Navoiydan uzoqlashib borayotganlari ularning o'zbek tiliga e'tiborsizligi deb bilaman. Yoshlarimiz "madaniylashuv"ni o'zicha anglab, tilimizdan uzoqlashib ketayotgandek va bunda biz kattalarning, ustozlarning ham aybi bor: ularning qalbiga bobomizning asarlarini singdira olmayapmiz.

Yoshlar ongida milliy g'urur, milliy tafakkurni shakllantirishni maqsad qilar ekanmiz, albatta buni buyuk mutafakkir bobolarimizning o'g'itlari,

asarlari va hikmatlari yordamida amalga oshirish mumkin. Bu borada Alisher Navoiy ijodining o`rni beqiyos.

Masalan Navoiyning "Hayrat ul abror" asaridan olingan "Sher va Durroj" hikoyasi o`rta maktablarning 5-sinf darsligida berilgan. Bu asar tili lug`at tarkibi bilan yetarli darajada murakkab hisoblanadi. Lekin shu asarni vizual animatsion , multfilmi yordamida tushuntirsa, bolalar uchun ancha yengil va tushunarli bo`ladi. Chunki kichik yoshdagi bolalarda eshitish, o`qishdan ko`ra ko`rish xotirasi samarali hisoblanadi. Shunday ekan Navoiyni o`qitishda bevosita Axborot texnologiyalariga murojaat etish ham innovatsion ,ham integratsion yondashuv sanaladi. Yoki 7- sinf darsligida Navoiyning "Xamsa " asari tarkibidagi "Sabb`ai sayyor" dostonidan olingan "Mehr va Suhayl" hikoyasi reja asosida o`qitiladi. Bu asarda ranglar jilosi bevosita ustunlik qiladi. Qahramonlar ruhiyatini ochib berishda ranglar jilosini tasvirda ifodalash yani o`quvchida o`qigan voqealarni tasvirda, rasmda ifodalash so`ralsa, ya`ni adabiyot tasviriy san`at fani bog`lansa, o`quvchilarning tasavvur doirasi kengayib, asarning tushunilishi ancha soddalashadi. Ayni shu o`rinda Mehr nilufar gullari orasida ekanligini, aynan nega nilufar gullari tanlanganligini botanika fani bilan bog`lab, shu gulning turi, rangi va xususiyatlari haqidagi ma`lumotlar berilsa , bolalarda asardagi qahramonning ruhiy holati tabiat bilan uyg`unlashib ketganligini uqtirish mumkin bo`ladi.

11-sinf darsligida berilgan "Saddi Iskandariy" parchasini o`rganishda esa bevosita tarix fani bilan aloqadorlikda faoliyat olib borilsa, ya`ni tarixiy asarlardagi Aleksand Makedonskiy obrazi haqida ma`lumot berilib, qiyosiy tahlil metodi orqali Iskandar bilan taqqoslansa, o`quvchilarda kerakli bilim va fikr yuzaga keladi. Shu asardagi joy nomlarini geografiya fani bilan bog`lab harakalar xaritasini chizish topshirilsa bolarda qiziqish va tasavvur shakllanadi.

Alisher Navoiy ijodini o`rgangani sayin hayratlar dunyosiga ko`milib boradigan, o`zi kashf etgan xazinani tezroq o`zgalarga yetkazishga shoshiladigan qalb egalari borki, ular mehnatlarining samarasini ko`rishdan doimo umidvor.

Alisher Navoiy ijodi shunchalar serqirrak, uning asarlarini o`rgatishga qo`l urish uchun islom dini g`oyasi va qarashlari, turkiylar madaniyati va tarixini, yashash tarzi va so`zlarning kelib chiqishini sinchiklab o`rganish, nomlari uchraydigan geografik nomlarni, joylarni, geografik mintaqalarni chuqur o`rganish, tasavvurni shakllantirish maqsadida visual tasvirlar, axborot kommunikatsin vositalarni yasxshi bilish talab etiladi. Avvalo, buyuk mutafakkir shoir g`azallarining asl ma`nosini to`liq tushunib, his etish kerak.

Qarorda chet elda istiqomat qilayotgan o'zbek tili mutaxassislari, tarjimonlarni jalb etgan holda Alisher Navoiyning asarlari chet tillarga tarjima qilinib, nashr etilishi va xorijiy mamlakatlarda taqdimotlari o'tkazilishi shart.

Bu o'zbek adabiyoti, jumladan, Alisher Navoiy asarlarini adabiyotshunoslikda keng o'rganish imkonini yaratadi. Zotan bugun Navoiyni keng miqyosda o'rganish va o'rgatish uchun maxsus innovatsion, integratsion yondashuvlar, dunyoviy mezonlar talab etiladi. Mazkur vazifalar Davlatimiz rahbarining "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yilligini keng nishonlash to'g'risida" gi qarorida ham aks etgan. Shu maqsadda Alisher Navoiy asarlarini o'rganish va o'rgatish borasidagi loyihamizni loyihalarni shakllantirishda bizni har jihatdan qo'llab-quvvatlagan, ilmiy-tadqiqotlar olib borishimizga zarur shart-sharoitlarni yaratib berayotgan institutimiz rahbariyatining xizmatlari samarali bo'lmoqda deb bilaman. E'tirof, rag'bat, erkinlik bor joyda rivojlanish bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. Toshkent. Innovatsiya-Ziyo. 2022-yil.

2.G'ulomov A., Nematov H. Ona tili ta'lim mazmuni. – Toshkent. O'qituvchi, 1995.

3.Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent. Noshir, 2009.

4.Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021.

5.Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent, 2005.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI REALIYALARNING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI

Jo'rayeva Laylo Jiyanqulovna,

BuxDPI O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi

Omonova Nilufar Abduqahhorovna

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat nomlari lingvomadaniy aspektida tadqiq etilgan, ularning o'zbek lingvokultrologik realiyalar tizimidagi o'rni va ifodalanishi yoritilgan, hozirgi o'zbek adabiy tilining mazkur nomlarga munosabati o'rganilgan, leksik ma'no va fonetik

shaklda yuz bergan muayyan o'zgarishlar ochib berilgan va badiiy matnlardagi ashyoviy maeriallar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy, assotsiativ, til, realiya, leksema, lug'at, arxaizm, tarixizm.

Buyuk adib Alisher Navoiyning she'riy asarlarida ishlatilgan turli sohalarga oid leksemalar qatorida oziq-ovqat nomlari ham katta ahamiyatga egadir. Ular uzoq tarixga ega xalqimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida katta ma'lumotlar beradi. Navoiy asarlaridagi realiyalarni har tomonlama chuqur tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligimizning ham rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Navoiy ijodida ham oziq-ovqat nomlari bir necha xil betakror nomlar bilan yuritilganing guvohi bo'lamiz.

Revu rang ahli muridi bo'lmag'ilkim, Hizr emas,

Hirqasin har aqmaq etsa **baqli** hamqodek yashil . [3,286]

Baytdagi rev- leksemasi "makr", "hiyla"; hirqa – darveshlar kiyimi ma'nosini anglatadi. Ya'ni makr- hiyla ahli ustoz bo'lmagin, ust-boshini har bir ahmoq sabzavotlardan biri semizo't kabi yashil etsa Hizr payg'ambar emas deyilmoqda. Rev- leksemasi arxaizm leksema sanalib bugungi kunda ishlatilmaydi, ma'nosini boshqa leksemaga bo'shatib bergan. Hizr-payg'ambarlardan birining ismi. Baql- sabzavot, hamqo-semizo't. Lug'aviy ma'nosi -rezavor va poliz ekinlari va ularning ovqatga ishlatiladigan mahsuli. Baql- o'zlashma qatlam so'z bo'lib, eskirgan leksema sanaladi. Bugungi kunda uning o'rniga sabzavot leksemasi ishlatiladi. Sabzavot leksemasi ham o'zlashma qatlam bo'lib "sabza" yam-yashil ma'nosini anglatadi. Hamqo – leksemasi ham arxaizm sanalib bugungi kunda ishlatilmaydi. Uning o'rniga semizo't leksemasi ishlatiladi.

Og'zidan achchiq so'z aytib, zohir etsa zaxru chashm,

Ayb emastur **pista** sho'ru tong emas **bodom** talh.[1,106]

Ushbu baytda shoir insonlarga nisbatan ibratli fikr yoki hikmatli so'z tarzida murojat qilmoqda. Ayrim insonlar muomalasi qo'pol bo'lib, fikrlarini insonlarga chiroyli tarzda yetkazaolmaydilar. Og'zidan doim achchiq so'z aytib, so'zlarida zahar,nina namoyon etsa, bunday insonlarga ayb emastur pista sho'r ekanligi-yu bodomning talxligi deyilmoqda. Ushbu baytning bugungi kundagi sinonimi tarzda ushbu maqolni kiritsak bo'ladi: "Achchiq so'zlab, Shirin javob kutma" tarzida. Baytda majoziy ma'no ifodalangan, pista, bodom kabi leksemalar bugungi kunda ham adabiy tilimizda faol leksemalar bo'lib, o'zlashma qatlamga mansub, qo'llanilish doirasi hamda davri chegaralanmagan leksema sanaladi. Achchiq, sho'r, talh kabi leksemalar

o'zaro assotsiativ munosabatni yuzaga chiqargan. Sho'r hamda talh leksemalari esa kontekstual antonimlikni yuzaga namoyon etmoqda. Bodom ming yillardan beri xalq tabobatida shifobaxsh bo'lgan o'simlik sifatida mashhur. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bodom leksemasi quyidagicha ifodalangan: **BODOM** [f. - bodom] **1** Atirgullilar oilasiga mansub, sermoy mag'zi iste'mol qilinadigan daraxt. Olmadan bodom bo'lmas, tagi past odam bo'lmas. Maqol. **2** Shu daraxtning mevasi (danagi). Achchiq bodom. Bodom yog'i. Odam — odam bilan, pista - bodom bilan. Maqol.

La'li rummoniy tilarsen dam-badam ziynat uchun,
Qatra-qatra bag'ring andin **nor**dek qon bo'ldi tut.[1,75]

Baytda yorga murojat tarzida bezanmoq uchun dam-badam qip-qizil la'l toshini qidirasan, qatra-qatra bag'ring anordek qon bo'ldi deb bil. Baytda bag'ring anordek qon bo'ldi deya ko'chma ma'no ishlatilgan. Nor-leksemasi anor mevasini anglatib kelgan. Anor bugungi kunda neytral so'z bo'lib o'zlashma qatlamga mansub. Qo'llanish doirasi chegaralanmagan."O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu so'z quyidagicha izohlangan: **ANOR**

1 .[f. Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o'simlik] ..Har joy-har joyda ko'mil gan anor tuplari do'mbayib yotibdi.

S. Zunnunova, Olov.

2. Shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to'la yumaloq mevasi.

3. Anor (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

Ammo nor leksemasi Navoiy asarlarida omonim leksema sifatida ishlatilgan.

Ishq dashtig'a fanodin **nori** ermish yuz xatar,
Ey Navoiy, yor ishqida berib jon bo'ldimu.[2,368]

Baytda ishq dashtida yo'qlik nuri yuz xatar ekan, Ey Navoiy yor ishqida jon berib bo'ldimi? deyilmoqda. Fano nori- yo'qlik nuri ma'nosini anglatib, nor-nur, yorug'lik ma'nolarini ham anglatar ekan. Ishq dashti, yor ishqida jon bermoq birikmalari orqali ko'chma ma'no ya'ni metafora ishlatilgan. Ey Navoiy deb undalmadan foydalanilgan.

Shirada zardolu etib qand hal,
Yo'q kadu **amrud** kaduyi asal.[4,302]

Ushbu baytda qand, asal so'zlari sinonimik qatorni, zardolu, amro'd leksemalari mevalar qatorini, kadu leksemasi esa poliz mahsuloti nomlarini yuzaga chiqargan. Birinchi misrada shirada zardolu qanddek Shirin, ya'ni qand vazifasini bajaruvchi deyilsa, yoq amro'd ya'ni nok undanda shirin asalga qiyoslangan. Zardolu leksemasi bugungi kunda zardoli, o'rik tarzida

ishlatiladi hamda sariq olxo'ri ma'nosini anglatadi. Zardolu leksemasining faqatgina tovushlar tarkibi o'zgarishga uchragan xolos. Amro'd leksemasi nok mevasini anglatib kelgan. Hazrat Navoiy ijodlarida nok mevasi bir necha xil nomlar bilan ishlatilgan. Masalan, nashvati, olmurut leksemalaridan ham foydalanilgan ekan.

Ey Navoiy, xoki poyi vafida shirin so'zung

Bor biaynih to'tiyo ichinda solg'andek **nabot** [1,79].

Bayt undalma tarzida boshlanib, Ey Navoiy, (yorning) oyog'i changi haqidagi shirin so'zing to'tiyo ichiga novvot solgan kabidir deya izohlangan. Shirin so'z birikmasi orqali metafora yuzaga chiqqan. Nabot bugungi kunda tilimizda novot shaklida ishlatiladi. Ammo ayrim hududlarda sheva elementlarida nabot tarzida ishlatilishi ham ko'zga tashlanadi. Milliy madaniyatimizga ko'ra kundalik turmushda, urf-odat hamda marosimlarda faol ishlatiladigan shirinlik nomi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlangan: **NABOT I** ayn. novvot. Sen borsanki, keng vohada hayot bor, Demak, yurtning labida bol, nabot bor. E. Vohidov, Sharqiy qirg'oq.

NABOT II [a.— o'simlik] O'simlik, ko'kat. Bu yassi qirg'oqlarda bobolar yotur, Tug'madir har yalpiz, har shox, har nabot. Mirtemir, Asarlar.

Bor leksemasi omonim leksema sifatida Hazrat Navoiy asarlarida quyidagi ma'nolarda ishlatilgan: **Bor I** mavjud, borlik holati ma'nosida.

Bor II meva, hosil ma'nosida

Bor III qabul-ijozat ma'nosida

Bor IV qo'shma so'zlarning ikkinchi kopponenti tarzida ishlatiluvchi yordamchi leksema tarzida. Qiyoslash tariqasida esa "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlangan:

BOR I 1. Qo'lda, ixtiyorda yoki umuman voqelikda mavjud bo'lgan; mavjud. Bor imkoniyatlardan foydalanmoq.

2. kesim vazifasida keladi; mavjud. Bugun majlis bor. Ko'ngildan ko'ngilga yo'l bor. Maqol.

3. Boylikka, davlatga ega bo'lgan; boy, badavlat. Bor bo'lsang, ko'rolmaydi, yo'q bo'lsang, berolmaydi. Maqol.

4. Qancha bo'lsa — shuncha, hammasi boricha. Bor gapni aytib bermoq. Bor borini yeydi, uyatsiz orini yeydi. «Qanotli so'zlar».

5. 3-sh. egalik qo'shimchasini olgan otlar bilan «biror narsaga ega» ma'nosidagi tarkibli sifat hosil qiladi. Puli bor odam.

O'g'li borning o'rni bor, Qizi borning qadri bor. Maqol.

6. Ritorik so'roq gaplarda «aslida yo'q, mavjud emas, topilmaydi» kabi inkor

ma'nolarini ifodalaydi. Dunyoda to'g'ri yashab, yurtga xizmat qilib o'tishdan ortiq baxt bormi inson bolasi uchun? T. Ashurov, Oq ot. Axir, insof, vijdon degan narsa bormi sizda? S Ahmad, Yulduz.

BOR II [f. .1 marta] kt. Marta, daf'a, karra. Bir terining ichida qo'ya necha bor semirib, necha bor ozar. Maqol.

BOR III [lot. osht , ogax <a.tanakor; selitra] Mendeleev davriy sistemasi III guruhidagi kimyoviy element. Mineral suvlarning shifobaxshligi sababi ularning tarkibida. yod, brom, bor, litiy, bariy, stronsiy kabi moddalar bo'lishidir. «Fan va turmush».

Xulosa qiladigan bo'lsak, Hazrat Navoiy she'riy asarlarida oziq-ovqat ma'nosini ifodalovchi leksemalar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Ularni ikki guruhga arxaizm va istorizm leksemalarga ajratish mumkin. Ular o'zbek xalqining qadimiy urf-odat hamda ananalaridan darak beradi. Shunga adib asarlaridagi realiyalarni lingvokulturologik aspektda o'rganish hozirgi zamon tilshunosligimiz uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар / Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988.

2.Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб / Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1989.

3.Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат / Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1990.

4.Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр / Хамса. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

5.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Т. I. 417,б.

6.Саидов Ё., Умурова Х. Лингвокультурологик тадқиқотлар методологияси / Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. -Наманган: 2020. -№ 5. -Б. 297-304.

7.Jiyanqulovna J. L. TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 39-43.

8.Bafojeva N. ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 25-30.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI OZIQ-OVQAT NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI

Jo'rayeva Laylo Jiyanqulovna,

BuxDPI O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi

Mamadiyorova Shahrizoda Sharof qizi

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat nomlari lingvomadaniy aspektida tadqiq etilgan, ularning o'zbek lingvokultrologik realiyalar tizimidagi o'рни va ifodalanishi yoritilgan, hozirgi o'zbek adabiy tilining mazkur nomlarga munosabati o'rganilgan, leksik ma'no va fonetik shaklda yuz bergan muayyan o'zgarishlar ochib berilgan va badiiy matnlardagi ashyoviy maeriallar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy, assotsiativ, til, realiya, leksema, lug'at, arxaizm, tarixizm.

Buyuk adib Alisher Navoiyning she'riy asarlarida ishlatilgan turli sohalarga oid leksemalar qatorida oziq-ovqat nomlari ham katta ahamiyatga egadir. Ular uzoq tarixga ega bo'lib, xalqimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyati hamda urf-odat va ananalari haqida katta ma'lumotlar beradi. Navoiy ijodida ham oziq-ovqat nomlari bir necha xil betakror nomlar bilan yuritilganing guvohi bo'lamiz. Ularning ayrimlari bugungi kunda ham faol qo'llanishga ega bo'lib, ayrimlari esa iste'moldan chiqib ketgan leksemalarni anglatadi. Navoiy asarlaridagi realiyalarni har tomonlama chuqur tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligimizning ham rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

Bismil etgach saydni andoqki etkaylar **kabob**,

Zaxm etib ko'nglumni chunkim oqti qonim o'rtading.[1,257]

Bismil-bismilloh deb so'yish, bo'g'izlash. Bugungi kunda ham iste'molda mavjud bo'lgan leksemdir. Sayd-ov jarayoni bo'lib, ushbu leksema bugungi kunda ishlatilmaydi. Zaxm-yara bo'lib bugungi kun tilshunosligimizda iste'molda emas. Kabob-ovqat turi bo'lib, bugungi kun tilimizda ham ancha faol bo'lgan leksema sanaladi. Baytda ovdan so'ng hayvon qonini oqirib, kabob tayyorlanmoqda, bundan esa shoir ko'ngli yara bo'lmoqda. musulmon xalqlarining ananasiga ishora qilinmoqda. Mintaletimizda ma'lumki hayvonlarni so'yishdan oldin bismilloh deya boshlangan.

Bismilloh so'zi biror ishni boshlashdan avval aytiladi. Ov mashg'ulotlaridan keyin hayvonlar so'yilib, kabob tayyorlangan. Kabob musulmon xalqlarining barchasida mavjud bo'lgan tantanavor, bazmlarda tayyorlanadigan taomdir.

KABOB [f. - qo'rada pishirilgan go'sht] Asosan, go'shtni sixga tortib, qo'raga terib, cho'g' damida pishiriladigan, shuningdek, tandirda yoki qozonda ham tayyorlanadigan taom, keyin esa go'shtdan qovurib tayyorlanadigan ayrim o'zbek milliy taomlari ma'nosini anglatadi. Jigar kabob. Lo'la kabob. Qiyma kabob. Kabob leksemasi ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. M:bag'ri (yoki yuragi, dili, jigari, ko'ksi) kabob bo'lmoq Qattiq kuyinmoq , ruhiy azob tortmoq . Dili kabob bo'lgan Polvon bu yigit voqeasini to'laroq bilmochi edi. J. Sharipov. Xorazm.

Etimologiyasi: Kabob arabcha so'z asli ko'p ma'noli kabba fe'lining „aylantirib turdi“ ma'nosi bilan hosil qilingan 1-bob masdari bo'lib, „sixga tortilgan go'shtni cho'g' ustida aylantirib turib pishiriladigan taom“ ma'nosini bildiradi.

Tinch ko'ngul birla **qatiqsiz umoch**

Behki birov minnati birla **kuloch**[3,180].

Baytda insonniylik fazilatlarini haqida so'z yuritilmoqda. Unga ko'ra birovning minnati bilan shirin kulcha yegandan ko'ra qatiqsiz umoch yegan ma'qul deyilmoqda. Barcha zamonlarda ham insonlar tabaqalarga bo'lingan. Unga ko'ra umoch-yo'qsullar yeydigan taom turini; kuloch esa badavlat insonlar yeydigan shirin kulcha ma'nosini anglatgan. Bir emas uchta oziq-ovqat turi qo'llangan bo'lib, ular: qattiq, umoch, kuloch. Umoch-uvalangan xamir solib pishirilgan suyuq osh taomidir. Ushbu leksema bugungi kunda iste'molda emas. Faqatgina, ayrim shevalardagina saqlanib qolgan. Bugungi kunda ushbu taom ayrim marosimlardagina tayyorlanadi. Qattiq leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlangan. **QATIQ** -sutdan tomizg'i solib ivitib tayyorlangan parhez mahsulot. Yangi ivitilgan qattiq. Qattiq to'kilsa, yuqi qolar, ayron to'kilsa, nesi solar. Maqol . Sutdan og'zi kuygan qattiqni ham puflab ichadi. Maqol . Miyaning qatig'I tarzida ko'chma ma'noda ishlatilish xususiyatiga ham ega. Sher yana Sherzodning ustiga tashlanishga o'zini chog'lab ko'rdi, lekin miyasining qatig'i chiqib holsizlangani uchun majoli kelmadi. «Ertaklar» .

Bir kun aning bazmida **shilon** chog'i,

Shohga ham ishtahi o'lg'on chog'i [3,371].

Baytda bazm jarayoni hamda unda tayyorlanadigan taom haqida so'z bormoqda. Ya'ni bir kuni bayram vaqtida shilon dasturxonga tortilgan

vaqtda, shohga ham ishtaha o'lgan chog'da deyilmoqda. Bu yerda shilon-umumiy ovqat, ya'ni podshohlar ziyofatida kambag'al beva-bechoralarga tarqatiladigan taom ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z qo'llanilish davriga ko'ra eskirgan bo'lib, bugungi kunda ishlatilmaydi. Qo'llanilish doirasiga ko'ra esa umumiste'mol so'z sanaladi.

...Va yana ba'zi yemaklardin **qaymog'** va **qatlama** va **bulamog'** va **qurut** va **uloba** va **mantu** va **quymog'** va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar. Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolg'onni ham turkcha ayturlar. Va bu nav' juz'iyotqa mashg'ulluq qilsa bag'oyat ko'p topilur.[2,157]

Ushbu parchada Hazrat Navoiy umuman turkiy xalqlarning bir necha xil taom tularini keltirganini uchratamiz. Ular: qaymog', qatlama, bulamog', qurut, uloba, mantu, quymog' urkamoch, qimiz, suzma, boxsum, bo'za. Namlari sanab o'tilgan bu kabi oziq-ovqat nomlari asl turkcha so'z ekanligiga ishora qilinmoqda. Qaymog' bu bugungi kundagi timimizda ham faol bo'lgan leksema sanaladi. Ammo bu leksema hozirgi kunda fonetik o'zgarishga uchrab, qaymoq tarziga o'tgan.

QAYMOQ 1. Bir necha vaqt turgan, saqlangan sut betida paydo bo'ladigan yoki sutdan separator yordamida yoki boshqa yo'l bilan ajratib olingan quyuuq, yog'li mahsulot. Quyuuq qaymoq.

Qaymoq bog'lamoq 1) betida qaymoq qatlami hosil bo'lmoq; 2) ko'chma beti qaymoq kabi parda bilan qoplanmoq . Suv qaymoq bog'labdi (ya'ni yupqa muz bilan qoplanibdi). Murabbo qotib, qaymoq bog'labdi.

2. ko'chma Kishi yoki narsalarning eng yaxshi qismi, sarasi, asillari. Yigitlarning qaymog'i frontda.. Lekin ish sustlashgani yo'q. S. Zunnunova Olov .

3. ko'chma Biror ish, narsa va sh.k. ning natijasi, hosili, xullasi. Yerning qaymog'i — mehnat qilganniki. Oybek , O.v. shabadalar. Qaymog'ini olmoq 1) sutning qaymog'ini ajratmoq; 2) ko'chma natijasini yoki xullasini olmoq . Bir yillik mehnatimizning qaymog'ini oladigan vaqt keldi.

4. s.t. Suv betiga yalpoq tosh yoki boshqa narsani otganda, uning bir necha bor suv betiga tegishi, shu tegishdan hosil bo'ladigan holat. Nodir bilan Muzaffar pastroqda kim ko'p «qaymoq» qilish o'ynashardi. Nodir.. yassiroq tosh olib, suv oqimiga qarata otar, tosh esa suv yuzida sakray sakray, besh-olti «qaymoq» hosil qilardi. J . Abdullaxonov, To'fon .

Qatlama- oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog'da pishirib olinadigan xalqimizning azaliy hamda milliy taomlaridan biri sifatida bugungi kunda xuddi shu tarzda nomlanadi. Ushbu leksema bugungi kunda omonim leksema sanaladi.

I Qatlama- taom nomi

II qatlama- harakatni bildirib, fe'l so'z turkumini ifodalaydi.

Bulamog' / bulamig' tarzida ifodalanib ovqatning bir turi ma'nosini anglatadi. Har ikki leksemaning ham tarkibi fonetik o'zgarishga uchragan bo'lib, bulamoq hamda bulamiq holiga kelib qolgan. Ushbu leksemalar oldin bitta ma'noni anglatgan bo'lsa, bugungi kunda ularning ifodalaydigan ma'nosi bir-biridan keskin farqlanadi. **BULAMIQ 1.** Unni sutga bulab (qorib) tayyorlanadigan atalasimon ovqat. Bir ikki kun sutli ovqatlar, bulamiq yeb tursinlar. Mirmuhsin, Umid.

2. ko'chma s. t. Aralash-quralash, chalkash narsa. Ishni bulamiq qilib yuboribsiz.

BULAMOQ 1. Yuqadigan narsaga botirib yoki belab, hamma yog'ini qoplamoq, aylan tirib botirmoq. Unga bulamoq. Qaymoqqa bulamoq. shshj Qani, nonni sindirib, qaymoqqa bulab-bulab urib olinglar-chi. E. Raimov,

3. ko'chma Bo'lar-bo'lmas ayblar bilan qoralamoq, asossiz ayblamoq; fosh qilmoq.

Salima yig'ilishda Qodirni rosa buladi.

QURT I

1. Uzun tanasini egib-yozib yoki juda ko'p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor . Ko'k qurt.

2. Ba'zi hasharotlar, mayda organizmlar nomi tarkibiga kiradi, mas , shilliq qurt, eshak qurt.

3. Ba'zi hasharotlarning tuxumidan yuzaga keladigan g'umbak. Olma qurti. Ko'sak qurt ti. ttsh Mayiz bilan o'rikni bir oz qurt yegan bo'lsa ham, pok-pokiza urib ketishibdi, azamatlar. Hamza , Boy ila xizmatchi.

4 Asosan tut bargi bilan boqiladigan, yetilib pilla o'raydigan shunday g'umbak.

Qurt boqmoq. Kurt tutmoq. shsh O'tgan yil bahorda surtga barg kesgani tutga chiqdim. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari .

QURT II s.t. ayn. qurut. Javhar ham har kirganda qurtmi, bir dona shokoladmi tashlab ketishni unutmadi hech. J . Abdullaxonov , Xonadon.

Xulosa qiladigan bo'lsak Hazrat Navoiy she'riy asarlarida oziq-ovqat ma'nosini ifodalovchi leksemalar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Ularni ikki guruhga arxaizm va istorizm leksemalarga ajratish mumkin. Ular o'zbek xalqining qadimiy urf-odat hamda ananalaridan darak beradi. Bu kabi oziq-ovqat nomlarining ayrimlari bugungi kunda ham iste'molda mavjud bo'lgan leksemalardir. Shunga ko'ra adib asarlaridagi realiyalarni lingvokultrologik aspektida o'rganish hozirgi zamon tilshunosligimiz uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар / Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988.
- 2.Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан,1989.
- 3.Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр / Хамса. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.
- 4.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Т. I. 417,6
- 5.Саидов Ё., Умурова Х. Лингвокультурологик тадқиқотлар методологияси / Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. -Наманган: 2020. -№ 5. –Б. 297-304.
- 6.Jiyanqulovna J. L. TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 39-43
- 7.Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 25-30.
- 8.Mahmudov K. O‘zbek tansiq taomlari, 1989 — 35 bet.

ALISHER NAVOIYNING “MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARIDAGI OZIQ-OVQAT NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI

Jo‘rayeva Laylo Jiyanqulovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O‘zbek va rus tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridagi oziq-ovqat hamda ichimlik nomlari lingvomadaniy aspektda tadqiq etilgan, ularning o‘zbek lingvokultrologik realiyalar tizimidagi o‘rni va ifodalanishi yoritilgan, hozirgi o‘zbek adabiy tilining mazkur nomlarga munosabati o‘rganilgan, leksik ma’no va fonetik shaklda yuz bergan muayyan o‘zgarishlar ochib berilgan va badiiy matnlardagi ashyoviy maeriallar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy, assotsiativ, til, realiya, leksema, lug'at, arxaizm, tarixizm.

Buyuk adib Alisher Navoiyning she'riy asarlarida ishlatilgan turli sohalarga oid leksemalar qatorida oziq-ovqat nomlari ham katta ahamiyatga egadir. Ular uzoq tarixga ega xalqimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida katta ma'lumotlar beradi. Navoiy asarlaridagi realiyalarni har tomonlama chuqur tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligimizning ham rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Navoiy ijodida ham oziq-ovqat nomlari bir necha xil betakror nomlar bilan yuritilganing guvohi bo'lamiz.

*...Va yana ba'zi yemaklardan **qaymog'** va **qatlama** va **bulamog'** va **qurut** va **uloba** va **mantu** va **quymog'** va **urkamoch**ni ham turkcha ayturlar. Va **qimizni** va **suzmani** va **boxsumni** va **bo'zani** dag'i turkcha ayturlar. Yana **tutmoch** va **umoch** va **kumoch** va **tolg'onni** ham turkcha ayturlar. Va bu nav' juz'iyotqa mashg'ulluq qilsa bag'oyat ko'p topilur.[2,157]*

Ushbu parchada Hazrat Navoiy umuman turkiy xalqlarning bir necha xil taom tularini keltirganini uchratamiz. Ular: qaymog', qatlama, bulamog', qurut, uloba, mantu, quymog' urkamoch, qimiz, suzma, boxsum, bo'za. Nomlari sanab o'tilgan bu kabi oziq-ovqat nomlari asl turkcha so'z ekanligiga ishora qilinmoqda. Qaymog' bu bugungi kundagi timimizda ham faol bo'lgan leksema sanaladi. Ammo bu leksema hozirgi kunda fonetik o'zgarishga uchrab, qaymoq tarziga o'tgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi.

QAYMOQ 1. Bir necha vaqt turgan, saqlangan sut betida paydo bo'ladigan yoki sutdan separator yordamida yoki boshqa yo'l bilan ajratib olingan quyuyq, yog'li mahsulot. Quyuyq qaymoq.

Qaymoq bog'lamoq 1) betida qaymoq qatlami hosil bo'lmoq;

2) ko'chma ma'noda beti qaymoq kabi parda bilan qoplanmoq. Suv qaymoq bog'labdi (ya'ni yupqa muz bilan qoplanibdi). Murabbo qotib, qaymoq bog'labdi.

2. ko'chma ma'noda kishi yoki narsalarning eng yaxshi qismi, sarasi, asillari. Yigitlarning qaymog'i frontda.. Lekin ish sustlashgani yo'q. S.Zunnunova Olov .

3. ko'chma ma'noda biror ish, narsa va shu kabilarning natijasi, hosili, xullasi. Yerning qaymog'i- mehnat qilganniki. Oybek , Olov shabadalar.

4 . Suv betiga yalpoq tosh yoki boshqa narsani otganda, uning bir necha bor suv betiga tegishi, shu tegishdan hosil bo'ladigan holat. Nodir bilan Muzaffar pastroqda kim ko'p «qaymoq» qilish o'ynashardi. Nodir.. yassiroq

tosh olib, suv oqimiga qarata otar, tosh esa suv yuzida sakray sakray, besh-olti «qaymoq» hosil qilardi. J. Abdullaxonov, To'fon .

Qatlama- oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog'da pishirib olinadigan xalqimizning azaliy hamda milliy taomlaridan biri sifatida bugungi kunda xuddi shu tarzda nomlanadi. Hech qanday fonetik o'zgarishga uchramagan leksema sanaladi. Ushbu leksema bugungi kunda omonim leksema sanaladi.

I. Qatlama- taom nomi.

II. qatlama- harakatni bildirib, fe'l so'z turkumini ifodalaydi.

Bulamog' / bulamig' tarzida ifodalanib ovqatning bir turi ma'nosini anglatadi. Har ikki leksemaning ham tarkibi fonetik o'zgarishga uchragan bo'lib, bulamoq hamda bulamiq holiga kelib qolgan. Ushbu leksemalar oldin bitta ma'noni anglatgan bo'lsa, bugungi kunda ularning ifodalaydigan ma'nosi bir-biridan keskin farqlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi. **BULAMIQ 1.** Unni sutga bulab (qorib) tayyorlanadigan atalasimon ovqat. Bir ikki kun sutli ovqatlar, bulamiq yeb tursinlar. Mirmuhsin, Umid.

2. ko'chma s. t. Aralash-quralash, chalkash narsa. Ishni bulamiq qilib yuboribsiz.

BULAMOQ 1. Yuqadigan narsaga botirib yoki belab, hamma yog'ini qoplamoq, aylan tirib botirmoq. Unga bulamoq. Qaymoqqa bulamoq. shshj Qani, nonni sindirib, qaymoqqa bulab-bulab urib olinglar-chi. E. Raimov,

2. ko'chma ma'noda bo'lar-bo'lmas ayblar bilan qoralamoq, asossiz ayblamoq; fosh qilmoq. Salima yig'ilishda Qodirni rosa buladi.

Qurut- leksemasi ham bugungi kun tilimizda ham mavjud bo'lib, ammo fonetik o'zgarishga uchragan holda uchratamiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi. **QURT I.** Uzun tanasini egib-yozib yoki juda ko'p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor . Ko'k qurt.

QURT II. s.t. ayn. qurut. Javhar ham har kirganda qurtmi, bir dona shokoladmi tashlab ketishni unutmadi hech. J. Abdullaxonov , Xonadon.

Uloba-leksemasi ham muayyan bir turdagi taom ma'nosini anglatuvchi leksema sanaladi. Ushbu so'z bugungi kunda ishlatilmaydi, arxaizm sanaladi. Ushbu leksema taom ma'nosida Hazrat Navoiy davrida keng iste'moldagi leksemalardan biri sifatida faol ishlatilgan.

Mantu- leksemasi ham bugungi kunga qadar o'zi ham ma'nosi ham saqlanib qolgan leksema sanaladi. Ammo tovushlar tarkibi o'zgarishga uchraganini ko'rish mumkin. Mantu- manti shaklida iste'molda faol bo'lib,

qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksema sanaladi. Manti o'zlashma qatlam so'z bo'lib, milliylikimizga aylanib ulgurgan taomlarimizdan biridir.

Quymog'- leksemasi ham turkiy xalqlarda ma'lum va mashhur iste'mol taomdir. Ammo, fonetik o'zgarishga uchrab, quymoq holiga kelib qolgan. Tuxumga un chalib yog'da qovurib olinadigan taom turi sanaladi.

Urkamoch-leksemasi ham taom turlaridan birining nomi. Bugungi kun tilimizda ishlatilmaydi. Eskiingan leksema sanaladi.

Qimiz- biya sutidan maxsus idishlarda bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik. Dala havosi, qimiz, ko'kalamzor dardimga naqdavo. Oybek, Tanlangan asarlar.

Ushbu leksema bugungi kunda ham tilimizda mavjud bo'lgan leksema sanaladi. Qo'llanilish davri hamda doirasi chegaralanmagan. Ushbu so'z hech qanday fonetik o'zgarishga uchramagan holda bizga qadar saqlangan. Qimiz odatda qozoq xalqlarining milliy ichimligi sifatida qaraladi.

Boxsum-tariq hamda bug'doydan tayyorlangan ichimlik. Ushbu leksema bugungi kunda iste'molda emas. Boxsum leksemasi ichimlik nomi sifatida Hazrat Navoiy asarlarida ancha keng ishlatilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak Hazrat Navoiy she'riy asarlarida oziq-ovqat hamda ichimlik ma'nosini ifodalovchi leksemalar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Ular bir necha xil nomlar bilan yuritilgan. Ularni ikki guruhga arxaizm va istorizm leksemalarga ajratish mumkin. Ular o'zbek xalqining qadimiy urf-odat hamda ananalaridan darak beradi. Shunga adib asarlaridagi realiyalarni lingvokulturologik aspektda o'rganish hozirgi zamon tilshunosligimiz uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи том. – Тошкент: Фан,1989.

2.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Т. I. 417,6

3.Саидов Ё., Умурова Х. Лингвокультурологик тадқиқотлар методологияси / Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. – Наманган: 2020. -№ 5. –Б. 297-304.

BOBUR – LIRIK SHOIR

M. B. Rajabova

BuxDPI O'zbek va rus tillari kafedrası professori

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosida yetakchilik qilgan mavzular tahlil qilingan. Shoir she'riyatida kuylangan mavzularning turli janr ifodasi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: shoh va shoir, lirik qahramon, mavzu, g'azal, ruboiy vatan sog'inchi.

Qismat bu Azal kotibining inson peshonasiga yozgan bitiklaridir. Uni o'qish va anglash uchun esa hayot atalmish umonni kezib o'tish darkor. Inson umri davomida qanday siru sinoatlarga ro'baro' bo'lishini faqatgina Yaratganining o'zi biladi. Biroq ana shu sir-u sinoatli dunyoning mashaqqatlariga bardosh berish uchun esa matonatli yurak, sobit e'tiqod, bukilmas iroda, muhabbatga limo-lim to'la qalb kerak bo'ladi. Shoh va shoirlik maqomini bekamu-ko'st bajargan, ulkan iste'dod sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur ana shunday go'zal sifatlar sohibi edi.

Qismat uni shoh va shoirlikdan tashqari, madaniyat arbobi, mohir sarkarda, zukko adabiyotshunos, donishmand fiqhshunosi kabi sifatlar bilan ham siyladi.

O'zbekistonning Birinchi Prezedenti I. A. Karimov ulkan ma'naviy jasorat sohiblari bo'lgan alloma zotlar haqida gapirib shunday yozadilar: «Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko'rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma'naviy fazilatları tufayli ezgu his-tuyg'ular, muqaddas va ulug' tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo'lib kelmoqda». Ta'kidlangan ushbu fikrlar shoh va shoir Z. M. Bobur taqdiri va faoliyatiga ham tegishlidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur mumtoz lirik janrlarning g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, masnaviy janrlarida mahorat bilan qalam tebratdi. Shoirning lirik merosi mavzu jihatdan rang-barang. Ularni mavzu jihatidan oshiqona, ta'limiy, tasavvufiy, hasbi hol kabi turlarga ajratish mumkin. Boburshunos olim Saidbek Hasanovning ta'kidicha: "Garchand Bobur lirikasi hajman kichik bo'lsa-da, shaklan yetuk va badiiy jihatdan barkamoldir. Uning xos belgisi shuki, har bir bayt biron tarixiy haqiqat bilan uygundur, Bobur uni nihoyatda

ravon va jonli tasvirlaydi. Uning lirikasining asosiy mavzusi muhabbat ekanligi shubhasiz. Hijron alamidan shikva-shikoyat, batamom ojiz qilib qo'yuvchi sof muhabbat, visol orzusi va vafodorlikni shior qilgan".

Ayni paytda, shoir real hayot tasviri, kundalik voqealar bayoni, shaxsiy kechinmalar tasviriga keng o'rin beradi. Bu she'rlarda vatan sog'inchiyu g'urbat g'ami, zafarlar quvonchiyu mag'lubiyatlar alami o'zining yorqin badiiy ifodasini topgan. Taqdir zarbalari va zamona adolatsizliklaridan shikoyat, xiyonat ahlini fosh etish va o'zini yozg'irish ohanglari ham yetakchi o'rin tutadi. Xususan, hasbi hol, ko'ngil kayfiyati ifodalangan she'rlar o'zining haqqoniyati va samimiyati bilan ajralib turadi. Ba'zi she'rlarida tabiat manzaralarining go'zal va betakror chizgilarini uchratamiz. Ular orasida insoniy komillikka da'vat qilib, ilmu ma'rifatning ahamiyatini ulug'lab, dunyo, nafs, hoy-u havaslar, johillik va g'ofillikni qoralab yozilgan, pand-nasihath yo'nalishidagi she'rlar ham ancha-muncha. Yengil va ravon uslub, sodda va tushunarli til, tabiiy va samimiy ifoda tarzi hayotiy hodisalar va shaxsiy kechinmalar talqini bilan uyg'unlashib, Bobur she'riyatining favqulodda xalqchilligi va badiiy barkamolligini ta'minlagan.¹¹

Bobur ziddiyatli davrda yashab ijod qildi. Shuning uchun shoir lirikasida charx kashraftordin, zamona ahlidan shikoyat, Vatandan ayriliq, yurt sog'inchi kabi qator mavzular bevosita uning tarjimai holi bilan bog'liq.

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdek o'zga jonni dilfgor ko'rmadim,

Ko'nglim kibi ko'ngulni giriftor topmadim.

Shoir hayot, sevgi va shodlik kuychisi sifatida umrini g'am-alam, qayg'u-hasrat bilan emas, balki baxt-saodat, shodlik va quvnoqlik bilan o'tkazishni istab she'rlar yozgan. Uning tabiatidagi hayotsevarlik butun faoliyatida ham, she'riyatida ham ufurib turadi. Shu bois, uning lirikasida hayotni g'am-alam, qayg'u-hasrat bilan emas, shodlik va xurramlikda o'tkazish, umrni g'animat bilish g'oyalari yetakchilik qiladi. Quyidagi baytlar fikrimizning yorqin dalilidir:

O'zni, ko'ngul, aysh ila tutmoq kerak,

Bizni unutqonni unutmoq kerak.

Ayshu tarab gulbunig'a suv berib,

G'ussa niholini qurutmoq kerak.

¹¹ Эргаш Очиллов. Захриддин Мухаммад Бобур. - Т.: Ўзбекситон, 2012, 19-бет.

Bobur she'riyatidagi kuylangan hayotsevarlik bevosita tabiat go'zalliklari bilan parallel holda tasvirlaganligi bois yanada hayotiylik kabs etgan:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.
Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,
Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa, bordur davlati.

Shoir g'azalning dastlabki baytida "yoz fasli" bilan "bodaning kayfiyati"ni, "yor vasli" bilan "ishq dardi"ni, "do'stlarning suhbatlari" bilan „she'r bahsi“ orqali laff va nashr san'atining go'zal namunasini yaratgan. Mazkur g'azalda ham inson umrini yil fasllariga qiyoslash an'anasi ko'zga tashlanadi. Yoz fasli – yoshlik, yigitlik ramzi. Inson bunday davrda dilkash, xushchaqchaq va go'zal majlislarni, do'stlar suhbatini xush ko'radi.

Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatining hayotiyligini ta'minlagan omillardan biri shoirning hayot ziddiyatlari-yu quvonch va tashvishlari ichida yashaganligidadir. Shu bois, u o'zining hayotiy qarashlari, xulosalarini sodda til bilan tasvirlaydi. Quyidagi 7 baytli g'azalida shoirning "gul chog'ini g'animat tutishi" bilan bog'liq xulosalari ifodalangan:

G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut!
Vaqti aysh emas boqiy, ol chog'ir, ketur, bot tut!
Bu nasihatim tingla: ne bo'lur kishi yongla,
Ne bo'lur ekin tongla, sen bu kun g'animat tut!
G'ofil o'lma davlatta, o'zni solma mehnatta,
Tangri berur, albatta, davlat ista, himmat tut!
Xush turur visoli yor, anda bo'lmasa dayyor,
Bo'lsa vasl beag'yor davlatu saodat tut!
G'am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur:
Boda ani ko'mak keltur, jomni himoyat tut!¹²

Mumtoz adabiyotda inson umrining yil fasllariga qiyoslash an'ana tusini olgan. G'azalning dastlabki baytida "gul chog'i" iborasi orqali inson umrining yoshlik davriga ishora qilingan. Bu davr boqiy emasligini eslatish oraqali insonni g'aflatdan uyg'otishga maqsad qilingan.

G'azalning ikkinchi baytida o'quvchiga qiyomat (tongla) kuni eslatilib, har bir kunni g'animat bilishga chaqirilgan. Bunday g'oyalar targ'ibini shoirning boshqa g'azallarida ham ko'rishimiz mumkin:

O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor

¹² Bobur. Faribing Andijoniydur. - T.: "Shark" nashriyat – matbaa aktsionerlik kompaniyasi bohi taхририяти. 2008, 32-бет.

Ki, bir dam g'am yemakka arzimas dunyoyi farsuda.

G'azalning har bir baytida shoir o'zining pand-nasihatlarini juda sodda va samimiy shaklda berganligi kitobxonni yanada hushyorlikka da'vat etadi. Uchinchi baytida ham nasihat ruhi davom etadi. Davlat, boylik uchun umringni azob – mashaqqat (mehnat)ga qo'yma, chunki davlatga yetish Tangrining hukmida.

G'azalning to'rtinchi misrasida inson umrining mazmuni ishq va uning lazzatida ekanligi ta'kidlangan. Shoir bunday onlarning dayyor (turuvchi, yashovchi, uy egasi) va ag'yor (dushman, raqib) siz bo'lishini "xush turur" deb ta'riflab, "davlatu saodat"ga bois ekanligini ta'kidlaydi. Shu orqali hayotdan zavqlanishga chorlaydi.

G'azal maqta'si shoirning bevosita tarjimai holi bilan bog'liq. Sababi shoir butun umri davomida g'am-u tashvishlar, mashaqqatlar ichida yashadi. Shunday bo'lsa-da hayotga muhabbat bilan boqib, barcha qiyinchiliklarni matonat bilan yengishga harakat qildi. Bunday qiyinchiliklarda ham g'azal qahramoniga ishq (boda) ko'makka keldi. Baytdagi jom – qadah, piyola, kosa ma'nosidan tashqari tasavvuf adabiyotida ma'rifat nuriga limmo-lim to'lgan ko'ngil ma'nosini ham anglatgan. Demak, shoirning barcha nasihatleri va xulosalari oxirgi baytda teranlashadi. Ya'ni ko'ngling (jom)ni "himoyatda tut", uni g'arazliklar, yomonliklar bilan to'ldirma. Chunki ko'ngil Allohning tajalliygohidir.

Turkiy adabiyotda ruboiyning go'zal namunalarini "eng ko'p va xo'p" yozgan ijod sohibi Alisher Navoiy bo'lsa-da, Boburning turkiy ruboiychilikdagi o'rni alohida qimmaga ega.

Akademik shoir G'afur G'ulom ta'kidlaganidek, «ruboiy olam-olam mazmunlarning javharini yig'ib, to'rtta satrga sig'dira olish mahorati... katta okean, uchqunda quyosh mazmunini berish san'ati»dir. Bobur o'z ijodida ruboiy janrining mana shu xususiyatlarini saqlagan holda, ularda davrning ijtimoiy – siyosiy, ilohiy-irfoniy masalalarini yoritib berdi. Shuningdek, shoir orifona, oshiqona, axloqiy-ta'limiy mohiyat kasb etuvchi ruboiylarning ham muallifi sifatida ham turkiy ruboiychilikda mavzular silsilasini boyitdi. Uning ko'pgina ruboiylarida shoirning ko'rgan-kechirganlari, tarjimai holi, vatan sog'inchi va hijron iztiroblari mavzusi yetakchilik qiladi. Quyidagi ruboiy ham ana o'sha iztiroblarning yorqin aksidir.

Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Ulug' shoir Oллоhning solih bandasi sifatida boshiga yog'ilgan hayot sinovlarini bardosh bilan yengar ekan, Yaratganning marhamatidan umidvorlik, Uning rizoligiga erishish ham uning uchun sharafdir.

Yo qahru g'azab birla meni tufroq qil,
Yo bahri inoyatingda mustag'raq qil.
Yo rab, sengadur yuzum qaro, xoh oq qil,
Har nav'e sening rizong erur, andoq qil.

Bobur ruboiylarida shoirning hayotiy voqealardan olgan taassurotlari, hasbi holi, kayfiyati bilan bog'liq bo'lgan mavzulardan bahs yuritish ham ko'zga tashlanadi.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Bobur hayotni sevdi. Hayotsevarlik shoir lirikasida asosiy mavzulardan biri edi. G'azallarida umrning g'animatligi, uni ezgu ishlar bilan bezash lozimligi ta'kidladi. Ortiqcha g'amu anduhga berilmaslik targ'ib qilinadi.

Har nimaga g'am yema, g'am ko'p turur,
Aysh bilan o'zni ovutmoq kerak.
Qo'yma mashaqqat aro Bobur ko'ngil,
O'zni farog'at bila tutmoq kerak.

Boburning bunday hayotiy xulosalarga kelishining asosi bor, albatta. U turli-tuman savdolarini boshdan kechirdi. Vatanidan judo bo'ldi. Bunday ayriliq va alamlar shoirning nozik qalbiga ozor yetkazdi. Shuning uchun ham yuqorida keltirilgan baytlarni mashaqqatli dunyoning ozorlaridan bezgan shoirning insonlarga nasihatlarini tarzida qabul qilish mumkin. Bobur she'riyati haqida fikr yuritgan tasavvufshunos olim I. Haqqulov shunday yozadi: "Bobur o'z qarashlari, fikrlari va hislarini sodda yo'llarda ifodalashga moyil shoir. Samimiyat va soddalik – Bobur she'riyatining ikki go'zal sohili. Uning fikr-u tuyg'ulari mana shu sohillar oralab mavjlanib oqadi. Real hayotga, insonning mavjud turmushi bilan aloqador so'z va obrazlarga yaqinlik ham Bobur tabiatida kuchli bo'lgan".

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Bobur ham shoh, sarkarda, ham adib va shoir sifatida keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati hamda dilbar she'riyati bilan tarix sahifalarida o'z nomini abadiyatga muhrladi. U tuzgan ulkan davlat o'z qudrati va madaniy yodgorliklari bilan jahonga tanildi. Biroq shoh va shoir Bobur taqdiri, faoliyati, adabiy merosi hali-hanuzgacha tarix sahnida avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lib kelmoqda. Birgina Bobur

qalamiga mansub asarlarning o'zi besh asrdan beri sevib o'qib kelinayotganligi shoirning ikkinchi umri sifatida avlodlarni bahramand qilib kelmoqda.

“MAJOLIS UN-NAFOIS” NING USMONLI TURK TAZKIRANAVISLIGIGA TA’SIRI

Atoyeva Shamsiya Rahmon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti,
Buxoro viloyati Jondor tumanidagi
1-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda turkiy adabiyotning eng buyuk mutafakkiri Mir Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasini hamda uning ijodiy merosining Usmonli turk tazkiranavisligiga ta'siri xususida to'xtalib o'tamiz. Shuningdek, shoir asarlarini o'rganishga oid ilg'or tajribalar bilan bo'lishish.

Kalit so'zlar: tazkira, tazkirachilik an'anasi, majlis, anjuman, nazira, she'riyat.

Nafaqat o'zbek adabiyoti, balki turkiy xalqlarning ulug' va betakror san'atkori Alisher Navoiy va uning ijodiy me'rosidir. Navoiygacha va undan keyingi davrda ham turkiy xalqlar adabiyotida uningdek daho ijodkor bo'lmagan. Hazrat Navoiy ijodida vatan va millat, siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan tortib bugungi kun uchun dolzarb sanalgan odob-axloq, ta'lim-tarbiya muammolari ham qalamga olinganligi bilan ahamiyatlidir.

Alisher Navoiyning eng buyuk ijodkor ekanligi uning boshqa xalqlar adabiyotiga o'tkazgan ta'siri orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi. F. Ko'prulu izlanishlariga ko'ra, XV asarning o'zidayoq “Navoiyning asarlari turk dunyosining har tomonida - Onado'li va Rum elida, Xuroson va Iroqda, Qrim, Hindistondagi turk saroylarida ham sevib o'qilgan”¹³. Yuqorida nomi tilga olingan hududlarda Alisher Navoiyga ergashib, undan ilhomlanib asar yozgan qalamkashlarni jamlaydigan bo'lsak, bir kitob bo'ladi, balki undan ham ko'proqdir.

Alisher Navoiy va usmonli shoirlari o'rtasidagi adabiy alaoqalar, shoir ijodining ularga ta'siri, bobokalonimizga izdoshlik qilgan ijodkorlarni

¹³ Y. Chetindog'. Alisher Navoiy va Usmonli she'riyati, Toshkent, 2011, 3-bet

o'rganishga jiddiy bel bog'lagan turkiyalik navqiron olim Yusuf Chetindog'dir. U o'zining "Alisher Navoiyning usmonli she'riyatga ta'siri" (Anqara, 2006) nomli kitobi bu boradagi qarashlarni o'rganishdagi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mumtoz turk adabiyotshunosligida Hazrat Navoiyning Usmonli turk shoirlar ijodiga ko'rsatgan ta'siri quyidagi manbalar tadqiqi va tahlili orqali yaqqol ko'rinadi:

1. Shoirlar haqidagi tazkiralalar.
2. Nazira majmualari.
3. XV-XVI asr shoirlarining she'rlari¹⁴

Ushbu tadqiqotimizda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkisasi hamda tazkirachilik an'anasining usmonli she'riyatida davom etishini, ta'sirini ko'rib o'tamiz.

Alisher Navoiy temuriylar davridagi madaniy hayotni muntazam kuzatib borgan, fan, adabiyot va san'atni rivojlantirishga bel bog'lagan buyuk mutafakkir sifatida o'z davridagi ijod ahli bilan bog'liq ma'lumotlarni bir majmuaga birlashtirish, ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1490-1491- yillarda o'zbek tilida «Majolis un-nafois» tazkirasini yaratishga kirishadi. Asarning qo'lyozma nusxalaridagi turli tafovutlar muallif 1498-yilgacha undagi ma'lumotlarni o'zgartirib borgani, ayrim o'rinlarni qayta to'ldirganini ko'rsatadi. Shu ma'noda Navoiy ushbu asarini 1491-1498-yillar davomida yaratgan, deyish to'g'riroq bo'ladi.

Tazkirada XV asrda yashab faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma'lumot keltiriladi. Alisher Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: «...chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekkiz qism etildi, har qismi bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmuig'a «Majolis un-nafois» ot qo'yildi».

XVI asrda Usmonli she'riyatida yaratilgan tazkiralarning aksariyatida Alisher Navoiyning nomi ehtirom bilan tilga olingan. Bundan ko'rinadiki, Mir Alisher Navoiyning o'z uslubiga ega ekanligi, shuningdek, ko'pgina shoirlarni ilhomlantirganidan darak beradi.

Ushbu e'tirofdan kelib chiqib mavzuga yondoshilganda, Onado'lida yaratilgan ilk tazkiralalar sifatida Saxiy Bey (1548)ning "Hasht bihisht" ("Sakkiz jannat", 1538) asariga diqqat qaratamiz.

"Tazkirayi Saxiy" nomi bilan ham tanilgan "Hasht Bihisht" ham sakkiz majlisdan iboratdir. "Hasht Bihisht"ning har bir majlisining boshida kirish izohi mavjud va oxirida "tavsif" qismi mavjud. Arab adabiyotidagi an'ananing

¹⁴ Y. Chetindog'. Alisher Navoiy va Usmonli she'riyati, Toshkent, 2011,31-bet

davomi bo'lgan ushbu tizimda majlislar forsiy raqamlar bilan nomlangan. Asar sakkiz majlisdan iborat. Saxiy Bey Navoiydan farqli ravishda 1-majlisni Sulton Sulaymon ta'rifiga bag'ishlagan. Alisher Navoiy va Saxiy Bey tazkiralarning o'xshash va farqli jihatlariga keyingi tadqiqotlarimizda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Alisher Navoiy ijodini o'rganish, uning mahoratiga tan berib o'xshatma yozgan ijodkorlar shoirning hali hayotligidayoq boshlanib, bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. Sababi Hazrat Navoiyning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar: odob-axloq, ta'limga e'tibor, hukmdorlarning adolatli siyosati kabi masalalar hech qachon dolzarflik bo'yog'ini yo'qotmaydi. Shunday ekan, adabiyotimizning "Shams ul-millat"i bo'lgan Hazrat Navoiyning ijodini o'rganishni maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq chuqurroq o'rganishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, nafaqat ta'lim tizimida, balki ommaviy axbarot vositalari orqali ham Navoiy ijodini kengroq targ'ib qilib, uning ijodiy merosining tarbiyaviy ahamiyatini yoritib borish lozim. Jumladan:

- Haftada bir marotaba shoir asarlarini yoritib beruvchi ko'rsatuv tashkil qilib, asarlarini tahlilga tortish;

- Hatto "Bolajon" kanalida ham bolalarning yoshiga mos ravishda shoir asarlarini yoritib borish;

-Navoiy ijodini o'rganish, uning asarlarini eng ko'p o'qigan kitobxonni tarbiyalash maqsadida "Yosh Navoiyshunos" tanlovlarini e'lon qilish va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy ijodi hali hayotligidayoq Usmonli turk shoirlarining diqqat e'tiborini tortadi va ularga o'xshatmalar yozish an'ana tusiga kirgan. Hazrat Navoiy ijodiga naziralar bog'lash tazkirachilikda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni Navoiy asarlaridan bahramand bo'lib o'sishi uchun imkoniyatlar yaratib berish lozim. Butun dunyo tan olib Navoiy asarlarini o'rganishga kirishgan bir paytda, biz ham yoshlarimizni Navoiyxon qilib tarbiyalashimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oybek. Navoiyning "Majolis un-nafois" asari haqida.-Toshkent, 1979.-215 b
2. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati,-Toshkent, 1989. -211 b
3. Hayitmetov A. "Majolis un-nafois" haqida ba'zi mulohazalar.//O'zbek tili va adabiyoti masalalari.-Toshkent,1958. N 1.

4. G'aniyeva S. "Majolis un-nafois" asariga tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn.-Toshkent:Fan, 1966.-176 b.
5. G'aniyeva S. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois": ilmiy-tanqidiy matn.-Toshkent, 1961.-242 b.
6. Isen M. Tezkireden Biyografi ye. – Istanbul:Kapi Yayinlari, 2010. S.51-52.
7. Hast-Behist. Haz. Gunay Kut. — Harvard,1978. S. 77.

ЖИЗНЬ, ТВОРЧЕСТВО И НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВАИ

*Очилова Фируза Гайратовна
Студентка факультета педагогики и
психологии БухГУ,
Сотрудник Президентской школы
ochilovafiruza015@gmail.com*

Аннотация: В статье рассматривается жизнь и творчество Алишера Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, узбекское творчество, литература, поэт, Чагатайский язык, Херат, "Хамса", Гуманизм.

Алишер Навои – выдающийся поэт, мыслитель и государственный деятель Средневековья, оставивший значительный след в истории и культуре Центральной Азии. Живший в XV веке, он известен как один из величайших мастеров персидско-таджикской и чагатайской литературы.

Материалы об Алишере Навои, великом узбекском поэте и мыслителе, были в основном посвящены анализу его произведений. Однако это не значит, что каждый знает жизнь и творчество великого человека. Поколения меняются, поэтому необходимость представлять нашим людям, особенно молодежи, биографию нашего великого предка необходимо. Алишер Навои родился 9 февраля 1441 года в городе Герате, столице государства Хорасан, на территории современного Афганистана. Отец Алишера, Гиясуддин, был одним из верноподданных Темуридов, а его мать была одной из служащих там женщин. Семья Гиясуддина и семья Темуридов с давних времен всегда были близки. На момент рождения Алишера Шахрух - сын Амира Темура был правителем Хорасана. В доме Гиясиддина часто проводились образовательные дискуссии и поэтические вечера. Выросший в такой среде, Алишер начал запоминать наизусть стихи в возрасте трех - четырех лет.

Алишер Навои не только был известным поэтом, но и занимал высокие государственные должности при дворе султана Хусайна Байкара. Его деятельность в области государственного управления и

благотворительности, включая строительство больниц, медресе и библиотек, оказала значительное влияние на социальное и культурное развитие региона. автором книги «Зафарнома» Шарафиддином Али Язди. Во время случайной встречи великий ученый был поражен интеллектом молодого Алишера. В 1452 году семья Навои вернулась в Герат. Гиясуддин поступил на службу к молодому падишаху. Вскоре Абулькасим Бабур назначил его хакимом города Себзавора. Однако жизнь подготовила для молодого Алишера еще одно испытание. В 1453 году умер его отец Гиясуддин. Двенадцатилетний Алишер, который остался сиротой, поступил на службу к Абулькасиму Бабуру. Алишер усердно учился в школе до смерти отца. Хусейн Байкаро, потомок Тимуридов, также работал с Алишером во дворце Абулькасима Бабура. К 1456 году Абулькасим Бабур перенес столицу из Герата в Мешхед. Алишер и Хуссейн сопровождали его в Мешхед. Вскоре, в 1457 году, Абулькасим Бобур умер. Хуссейн отправился в Мерв, чтобы бороться за трон. А Алишер остался в Мешхеде и продолжил свое образование. К этому времени Алишер написал прекрасные стихи на тюркском и персидском языках и стал популярным среди людей. В частности, поднял репутацию молодого поэта Алишера слова Мавлана Лутфи-знатока поэзии и литературы своего времени, которые он высказал по поводу творчества поэта. Современник Алишера Навои, историк Гиясуддин Хондамир рассказывал, что однажды Алишер читал вслух Лутфи свои новые рубаи.

Литературное наследие Наваи включает в себя множество произведений, написанных как на персидском, так и на чагатайском языках. Среди его самых известных творений - "Хамса" (Пятерица), состоящая из пяти поэтических произведений, в которых он исследует различные аспекты человеческой жизни и морали. Его стихи отличаются глубоким философским содержанием, изяществом формы и яркостью образов.

«Хамса» - это не просто шедевр творчества Алишера Навои или только узбекской литературы. Он считается одним из величайших художественных памятников восточной литературы, а также мирового искусства слова. С созданием «Хамсы» узбекская литература стала одной из самых передовых в мире. После завершения «Хамсы» Навои представил его Хусейну Байкаре, правителю Хорасана, тогда правитель сошел с коня, посадил на него поэта и сам повел его. Это редкое событие демонстрирует, насколько правитель из темуридов оценил ценность национальной литературы. А. Навои умер 3 января 1501 года в Герате. Бессмертные произведения, созданные А. Навои, остаются нескончаемой духовной собственностью. С этим богатым наследием узбекский народ по праву входит в число народов, создавших великую литературу в мире. В тюркском мире такого великого поэта не было ни до, ни после Алишера Навои.

Одним из важнейших компонентов формирования личности является овладение им языковыми навыками. Так, разработанные в Узбекистане за годы независимости Государственные образовательные стандарты, модернизированные учебнометодические комплексы для образовательных учреждений, учитывают результаты проведенных в республике и за рубежом исследований в области лингвистики, психолингвистики, социолингвистики и лингводидактики.

Особое внимание в творчестве Наваи было уделено развитию и укреплению чагатайского языка. Он считал его не только средством для литературного творчества, но и важным элементом культурной идентичности. Благодаря его усилиям, чагатайский язык приобрел статус литературного языка, а его произведения до сих пор считаются образцами классической литературы Центральной Азии.

Думается, в этих прекрасных словах и заключается главная задача, которая стоит сегодня перед преподавателями нашей республики: помочь подрастающим поколениям овладеть искусством слова. 9 февраля 2017 года исполнится 576 лет со дня рождения великого узбекского поэта – Алишера Наваи – гуманиста, мыслителя, государственного деятеля, основателя узбекского литературного языка, оставившего потомкам богатое литературно-духовное наследие. Его имя – это символ прогресса своей эпохи для народов всего мира. На занятиях, посвященных изучению жизни и творчества писателей и поэтов, целесообразно обращаться к высказываниям и отзывам о писателе современников, других писателей и критиков; материалу, раскрывающему личные и творческие связи писателя с его современниками, показывающему общественную деятельность писателя, объясняющую его мировоззрение и определяющую место писателя в русской, узбекской и зарубежной литературе; эпистолярному наследию, литературным портретам, заметкам и воспоминаниям, а также произведениям самого писателя. Такое «погружение» в атмосферу детства и взросления А. Наваи и осмысление основных вех жизненного и творческого пути поэта способствует углублению чувства национальной гордости за огромное поэтическое и научное наследие, оставленное народу основателем узбекского литературного языка. О творчестве А. Наваи высказывались не только современники А. Наваи, но и другие поэты и писатели. К примеру, известный азербайджанский поэт Физули признавал Алишера Наваи царем стиха, учился у него мастерству слова. Кишвари в XVI веке свидетельствовал, что величие и благородство творчества Наваи дружески сблизили народы земли. Великий Абай причислил его к самым первым поэтам Востока. Каракалпакский классик Бердах назвал его в своих стихах владыкой мысли. Все выдающиеся поэты Востока называли его своим учителем и наставником. А мы, потомки Алишера Наваи, гордимся его бессмертным

творчеством, потому что оно учит мудрости жизни, призывает к добру и торжеству просвещения

Значение Алишера Навои в истории и культуре Центральной Азии трудно переоценить. Он оставил неизгладимый след в литературе, языке и культуре региона. Его творчество и сегодня вдохновляет множество писателей и поэтов, а его идеалы гуманизма и просвещения остаются актуальными.

Алишер Навои - яркий пример многогранного таланта, сочетающего в себе глубокие знания, поэтическое мастерство и государственную деятельность. Его наследие продолжает жить в сердцах и умах людей, ценящих великое искусство и глубокую мудрость.

Литература:

1. Жизнь и творчество Алишера Навои. Текст научной статьи по специальности «История и археология» Вестник науки 2020 г.
2. Уйгун, Алишер Навои, Ташкент, 1942.
3. Гиясиддин Хондамир, Макорим ул-т, Ташкент, 1948.
4. Бертельс Э. Э., Навои, М.Л., 1948.
5. А. Хайитметов, Литературная критика Алишера Навои, Ташкент, 1959.
6. Жалолов Т. Переводы "Хамсы", Ташкент, 1960.
7. Хайитметов А. Лирика Навои, Ташкент, 1961.

ALISHER NAVOIY QIT'ALARI TAHLILINI O'QUVCHIGA OSON YETKAZISH USULLARI

Muharram Kamolova

mustaqil tadqiqotchi,

A.Sh.Rustamova

Buxoro VMMTB sho'ba rahbari

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning devoniga kiritilgan qit'alarning g'oyaviy-badiiy tahlili, ulardagi zohiriy va botiniy ma'nolar xususida fikr yuritilgan. Qit'alarda ilgari surilgan g'oyalarning o'quvchilarga oson tushuntirish usullari, qit'a bosh g'oyasini to'g'ri talqin qilish yo'llari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qit'a, hikmat, usul, talqin, illat, fazilat


Qit'a Sharq xalqlari adabiyotining qadimiy janrlaridan hisoblanadi. Aynan unda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy-ta'limiy masalalar ifodalanganligi, shoirlarning hayotiy qarashlari, davr va zamonga munosabatlari aks etishi uning o'ziga xos jihatlaridir. Bu janr Alisher Navoiy ijodida ham shu tomoni bilan ahamiyatli va muhimdir. 7-sinf adabiyot

darsligidagi qit'alarga nazar tashlasak, aynan shoir ijodidagi o'quvchi yoshiga mos, ruhiy holati va darajasi aks etgan qit'alarga guvoh bo'lamiz.

Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming o'lingda har zamon.
Yuz sahfa bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon.

Mumtoz she'riyatda azal-azaldan to'g'rilik, rostlik, dunyo va unga xos ishlar xususida so'z boradi. Ulug' shoir ushbu qit'ada insoniylik sharafi, uning hayotdagi asosiy mezoni bo'lgan to'g'rilik xususida so'z yuritadi. Bu yo'l to'la mashaqqatlardan iborat, mukofoti esa dil xotirjamligidir. Tashbeh san'atining go'zal ko'rinishlari orqali rostlikni hayotiy o'xshatishlar bilan dalillaydi. Kotibning qalami va cho'ponning tayog'i aynan to'g'riligi uchun ham qalamning kuchi yuz sahifani yozmoqlikka yetsa, asoning kuchi ming qo'yni boshqarmoqqa yetadi.

Ushbu qit'a g'oyasini o'quvchiga oson yetkazish maqsadida quyidagi usuldan foydalanish afzal.



Kimki maxluq xizmatig'a kamar,
Chust etar yaxshiroq ushalsa beli.

Qo'l qovushturg'uncha bu avlodur,
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.

Chun xushomad demakni boshlasa kosh
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

Bilamizki, "maxluq" arabiy "xilqat, yaratilgan" ma'nolarini anglatib insonga nisbatan ham qo'llaniladi. Qaysi kishiki Yaratganni qo'yib, o'zi singari yaratilganlar xizmatiga bel bog'lasa, beli ushalgani(singani) afzal. Shoir xushomadgo'ylik va tilyog'lamalik va laganbardorlikka nisbatan o'zining ochiqdan ochiq isyonini izhor etib, xalqning qarg'ish iboralaridan foydalanib, uning uchun qarg'ish ravoligini uqtiradi.


Bu kabi mavzudagi qit'alar tasnifida debat usuli qo'l keladi, sababi o'quvchi hayotdagi kuzatishlari qiyoslar va tashbehtar orqali ifodalashadi.

Komillikka erishish yo'lidagi zahmatlar har bir zamon uchun muhim sanalgan. Hazrat Navoiy ijodida esa komillik bosh mavzu sanaladi.

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmak.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Komillikni kasb qilish keng va teran tushuncha. Bu olamga kelib balog'atga yetmaslik mukammallikka yetmaslik, shoir nazdida hammomga kirib nopok chiqmoqday gap bo'ladi. "Olam uyi"da yashash uning fuqarosiga aylanishdir. Mir Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeyiga ko'tarilishini xohlaganlar. Xuddi shu mavqeni esa kamolotning oliy cho'qqisi deb bilganlar.

Bu kabi qit'alar tahlilida "Tashbehtar zanjiri" usulidan foydalanish o'xshatishlar va fikrlar yaratishda o'quvchiga yordam berib, tanqidiy fikrlash qobilyatining shakllantiradi. Ya'ni qit'ada keltirilgan tushuncha o'z qiyosi bilan yonma-yon qo'llanadi.



Shoir e'tiroficha, komillik shunchaki oddiy bosqich emas, balki insonga berilgan bebaho ne'matdir. Bu ne'matdan Haq yo'lida solih amallar bajarishda dil-u til hamjihatligini teng tutgan insongina haqiqiy komillik maqomiga muyassarlikni saqlab qola oladi. Unga har qanday inson ham munosib topilavermaydi. Inson qachonki nafs istaklarini voz kechsagina, bu yo'ldagi zahmatlarni marhamat o'rnida bilsa, "olam uyi"dan o'zlikni mahv aylab, Haqdan boshqani ko'ngildan chiqarsa, uning ko'ngli ruhning erk va hurligidan yuz ochiladigan sirlar makoniga aylanadi.

Xullas, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning qit'alari o'quvchini bir dam o'z qalbiga nazar solishga, o'z haqiqatini mushohada etishga undaydi. Unda aytilgan o'gitlardan hayotning, insoniylik sharafiga muvofiq yashashning behad yuksak ekaniga iqror bo'lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. I tom ("Badoyi ul-bidoya") Toshkent: Fan, 1987
2. Ibrohim Haqqulov. Kamol et kasbkim. Toshkent: Cho'lpon, 1991
3. Adabiyot darslik 7-sinf. Toshkent 2022.

III SHO'BA.
MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA ZAMONAVIY
KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA ZAMONAVIY
KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH
(ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA)

Xusenova Nargiza Oripovna

Buxoro viloyati MMTB o'quvchilarda
zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish
sho'basi bosh metodisti

Qo'ldosheva Gulnoza Subhonovna

Romitan tumanidagi 13-maktabning
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda mumtoz asarlarning ahamiyati hamda ushbu asarlarni o'qitish texnologiyasi haqida mulohazalar yuritilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: lug'at, ko'nikma, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrlash, hamkorlik, muloqot, ijodkorlik, tasvir.

Hozirda o'quvchi-talabalarni o'qishga o'rgatish va mustaqil fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, o'quvchilar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtayi nazardan qarashi, undan o'z ehtiyoj va maqsadlari yo'lida foydalana olish imkoniyati to'g'risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy mustaqil fikrlaydigan odam bo'lib yetishish uchun o'quvchilar ijodiy fikrlab, o'zini sinab ko'rishi va bunga oid malakalarni egallashi zarur.

Bilamizki, imoratning poydevori binoning nechog'lik osmono'par va mustahkam bo'lishini ta'minlovchi muhim jihat. Xuddi shunday, o'quvchining, eng avvalo, iqtidori va bilimi qanchalik teran bo'lsa, uning o'zi qiziqqan fanini o'zlashtirishi ham shuncha oson kechadi. Shu bois ham bolalar tafakkurini rivojlantirish har bir ota-ona, pedagog va tarbiyachi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bolalarda tafakkurning rivoji o'ta intensiv kechadi. Mana shu intensiv taraqqiyotni yanada jadallashtirish mumkin. Buning uchun maxsus mashg'ulotlar bolalar bilan birga amalga oshirilsa, ulardagi tafakkur,

nutq rivoji, mantiqiy fikrlash doirasi, savodxonligi, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, qiziqishlari va shu kabi bir qator ijobiy sifatlari keskin oshadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilardan tahliliy, tanqidiy, mustaqil fikrga ega bo'lishi, o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila olishi, tengdoshlari bilan sog'lom hamkorlik qila olishi va to'g'ri muloqotga kirisha olishi, ijodkorlik sifatlariga ega bo'lishi talab etiladi. Ushbu jarayonda "4K" modelidan foydalanish samarali hisoblanadi.

O'quvchilarni katta hayotga tayyorlashda mumtoz adabiyotning o'rni katta. Xususan, turkiy adabiyotda beqiyos o'rin tutgan Alisher Navoiyning "Xamsa" asari yosh avlodni milliy va ma'naviy merosimizga hurmat ruhida tarbiyalash, shoirning mumtoz merosida tarannum etilgan insoniy fazilatlar, ezgu tuyg'ularni shakllantirishning asosidir. Shunday ekan, dostonni o'tmish va kelajak bilan bog'lab o'rganish va o'rgatish navoiyshunoslar, metodist, pedagoglar zimmasidagi ulkan vazifa ekanligi ayni haqiqat.

Bugungi davrdagi eng asosiy muammolardan biri Navoiy asarlari tili va uslubining hozirgi o'qirmanlar tushunishi uchun qiyin va murakkabligidir. "Biroq shoir asarlari tilidagi qator murakkabliklar bu maqsadlarni amalga oshirishni og'irlashtirmoqda. Biz Navoiy asarlarini keng o'quvchilar ommasiga tushunarli qilishning yangi usullarini aniqlashimiz va bu sohada yangi rejalar tuzishimiz zarur. Biz shoir asarlarini ko'p miqdorda nashr etsak-u, lekin kitobxonlar ularni o'qib yaxshi tushunmasa, bu bugungi navoiyshunoslik fanimizga sharaf keltirmaydi"¹⁵. Bu jarayonda o'qituvchidan bilimdonlik, mohirlik talab qilsa, o'rganuvchidan diqqatlilik, e'tiborlilik va sabrlilik kutiladi.

Shoirning ijodi hadsiz, hududsiz ummon. Uni o'rganish kishidan chuqur tafakkur talab qiladi. Navoiy "Xamsa"sining asrlar osha o'z qadr-qimmatini saqlab kelayotganligi ham mana shunda. Shoirning falsafiy, pand-nasihath yo'g'rilgan asarlari ta'lim bosqichlarida o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirishning muhim vositasi sanaladi. Bugungi ta'limning vazifasi barkamol shaxsni hayotga tayyorlash. Maktabda adabiyot fanini o'qitishdan maqsad-o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish hamda qiziqishlarini yuzaga chiqarish. Buning uchun avvalo, fanni o'qitishning zamonaviy metod va usullaridan o'rinli foydalanish zarur.

Hozirgi kunda ta'limda ko'plab usul va texnologiyalar qo'llanilmoqda. Mazkur usul va metodlarning ba'zilari xorijiy davlatlar ta'lim tizimidan o'zlashtirilayotgan bo'lsa, ayrimlari yurtimizda faoliyat ko'rsatgan metodist

¹⁵ Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2001. 2-son. 2-10 betlar.

olimlarning ijod namunasi sanaladi. Mazkur usul va texnologiyalardan ayrimlarini tavsiya etamiz.

“Mumtoz rebus” metodi

“Mumtoz rebus” texnologiyasi o‘quvchilar uchun qiziqarli ko‘z xotirasiga asoslangan o‘zida rasmlarni jamlagan usullardan. Bu usuldan dars davomida baytlarni tahlil qilishda yoki lug‘atlarni yodlashda, so‘zlarni topishda foydalansa bo‘ladi. Balki dars so‘nggida mustahkamlash qismida ham asarning so‘nggi baytlarini tahlil qilishda va uyga vazifa qismida ham topshiriq sifatida berib yuborsa bo‘ladi.

Misol tariqasida Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan parcha keltiramiz.

1.Qildi Mas’ud bir taraf imo,

Bo’ldi bir



ilvanamo.

**2.Kelturub jome, uylakim, xurshed,
Ko’rmagan jom aning kibi Jamshed.**

3.To’ldurub



g’a ayoq tutti -

Kim,



yanglig’ uyni yorutti.

4.Dedi: “Uldur bu



ning holi -

Ki, chu bir to’ldi — bo’lmag’ay holi.

5.O’ng sori davr topsa paydarpay,

Bo’lmag’ay kam kishi ichardin



6.*So'l sori yonsa, nechakim, to'lg'oy,
Oz ichib ko'p, valek kam bo'lg'oy.*

7.*Yasog'onda guruhi hikmat qism,
Bog'lamishlar anga bu nav' tilism".*

Javoblar:

1-bayt: *gulzor*

3-bayt: *shoh, quyosh*

4-bayt: *jom*

5-bayt: *may*

Bu topshiriqni o'zaro hamkorlikka asoslangan holda juftlikda bajarsa yanada qiziqarli bo'lishi mumkin.

Tekshiramiz:

*Qildi Mas'ud bir taraf imo,
Bo'ldi bir **guluzor** jilvanamo.
Kelturub jome, o'ylakim, xurshed,
Ko'rmagan jom aning kibi Jamshed.
To'ldurub **shohg'a** ayoq tutti-
Kim, **quyosh** yanglig' uyni yorutti
Dedi: "Uldur bu **jomning** holi-
Ki, chu bir to'ldi — bo'lmag'ay xoli.
O'ng sori davr topsa paydarpay,
Bo'lmag'ay kam kishi ichardin **may**.
So'l sori yonsa, nechaki, to'lg'oy,
Oz ichib ko'p, valek kam bo'lg'oy.
Yasog'onda guruhi hikmatqism,
Bog'lamishlar anga bu nav' tilism".*

"Qiziqarli savollar" texnologiyasi

Bunda o'quvchilarga asar yuzasidan qiziqarli savollar beriladi. O'quvchilar esa o'zlarining kreativ qobiliyatlarini ishga solgan holda javob beradilar. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni bo'yicha quyidagi savollarni berishimiz mumkin.

1. Chin xoqonining farzandsizlikdagi hayoti **shabistonga** o'xshatilgan.

Sizningcha xoqonning hayoti **shabiston** bo'lsa, oddiy fuqaroning hayoti qanday kechishi mumkin?

2. Farhod favqulodda iste'dod sohibi bo'lib tug'ildi. Barcha ilmlarni egalladi. Mukammal komil inson bo'lish uchun kishida qobiliyat bo'lishi muhimmi yoki harakat?

3. Farhodning qobiliyat va harakat bilan o'rgangan ilm-u hunarlarini yozing.

- a) Harakat
- b) Qobiliyat

4. *Har ishni qilmish odamizod*

Tafakkur birla bilmish odamizod.

Insonlarning hammasi ham tafakkur qila oladimi? Har ishni uddalayman deb o'ylaysizmi?

5. Farhod tilsimni yechish uchun Yunonistonga o'tlanadi. Ungacha uch manzildagi to'siqlarni yengishi, to'rtinchi manzilda Suqrot bilan uchrashishi kerak. Birinchi manzilda ajdahoni yengishi nafsni yengishiga ishora. Shunday ekan, inson o'z nafsini jilovlamasa, oqibatda nimalar sodir bo'lishi mumkin?

- a. _____
- b. _____
- c. _____

6. Farhodning ikkinchi manzilda ahrimanni yengishi qalbni poklashga ishora.

- a. O'zingizni xatti-harakatlaringizni tahlil qilganmisiz?
- b. Qalbingizni qanday poklaysiz? Qalb pokligi o'zi nima?
- c. Darslikda berilgan parchadan, Farhodning qalban pok inson ekanligiga ishora qiluvchi voqealarni yozing.

7. Suqrot aql timsoli. Farhod nega Suqrotni topish uchun mashaqqatli uch manzilni bosib o'tdi?

8. Farhod bilan Xusrav munozarasini tahlil qiling. Shu vaziyatda siz Farhodning o'rnida bo'lganingizda, Xusravga qanday javob bergan bo'lardingiz? Aqlingizga tayanasizmi? G'azabingizga?

9. Farhodning Salosil g'orida bandi bo'lganda, ozod bo'lish, qochish imkoni bor edi. Uning o'zini o'ylamay, o'zgalarni o'ylashi, o'ta jonkuyarligi ojizligimi? Yoki kuchli tarafi?

10. Farhodning tog'-u toshlarga chiqib ketishi, hayvonlar bilan do'st tutinishini qanday izohlaysiz?

O'quvchilar o'z javoblarini hayotiy misollar orqali berishlari maqsadga muvofiq.

“Zinama-zina” (Blum toksonomiyasi) metodi

Ushbu metodni guruhlarga bo‘lingan holda bajarish tavsiya qilinadi. Bunda biror asar yuzasidan quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin.



1. Bilish. Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asar qahramonlarini sanab bering.
- Asar qahramonlari va ularning ta'riflarini moslashtiring.
- Quyidagi gaplarni asarda kim aytganligini toping.
- Asar voqealari qachon, qayerda kechishini aytib bering.
- Asardagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri toping.
- Asarning syujetini qisqacha bayon qilib bering.

2. Tushunish. Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asarning janrini aniqlang.
- Asar nega shunday nomlanganligini izohlang.
- Asardagi muammo nimadan iborat va bu muammoning qanday yechimi bor?

- Asar qahramonlarini solishtiring.
- Asar qahramonlari o'zlarini qanday his qilishganini tasvirlab bering.
- Asardagi misralarni sharhlang.
- Asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning maqsadini tushuntirib bering.
- Asardagi tabiat (ob-havo) manzarasining nima uchun ishlatilganligini tushuntiring.

- Yozuvchining bu asarni yozishdan maqsadi nima deb o'ylaysiz?
- Asar voqealari kechayotgan joy tasvirini chizing.
- Asarga (asardagi bir epizodga) rasm chizing.

3. Qo'llash. Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asardagi muammoga boshqacha yechim toping.
- Tasavvur qiling, siz asar qahramonlaridan birisiz. Hayotingizdagi bir kuni tasvirlab kundalik yozing.

- Asardagi bir voqea o'zgarsa boshqa voqealar qanday rivojlangan bo'lardi?

- Asar qahramoni boshqa vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardi?

- Asardagi voqealar boshqa zamonda (makonda) sodir bo'lsa nimalar o'zgargan bo'lardi?

- Asarga boshqacha yakun yozing. Nega aynan shunday yakunlaganingizni izohlang.

- Asardagi voqealarga o'xshash voqealar sizning hayotingizda sodir bo'lganmi?

- Siz qahramonning o'rnida bo'lganingizda nima qilardingiz?

- Asar qahramonidan (muallifidan) intervyu oling.

Yuqori darajadagi ko'nikmalarga quyidagilar kiradi:

4. Tahlil. Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalari:

- Asardan uning asosiy g'oyasini ochib bera oladigan uchta so'z toping.

- Asar qahramonlarining asosiy xususiyatlarini toping.

- Asarni qismlarga bo'ling. Har bir qismga sarlavha toping.

5. Sintez. Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalari:

- Asarga sikvel (prikvel) yozing.

- Asar asosida beshta suratdan iborat komiks yarating.

- Tasavvur qiling, asarni sahnalashtirmoqchisiz. Asar qahramonlariga qanday kiyimlar tanlardingiz?

6. Baho berish. Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalari:

- Asardagi sizga eng yoqqan (yoqmagan) epizod qaysi? Nima uchun?

- Asar sizga yoqdimi? Nima uchun?

- Asarni do'stingizga tavsiya qilib xat yozing.

- Asardagi qaysi qahramon bilan do'st tutingan bo'lardingiz?¹⁶

Mumtoz asarlarni ushbu metod orqali tahlil etilganda o'quvchilarda kommunikativlik, kreativlik, kritik hamda hamkorlikda ishlash (kollaboratsiya) kabi hayotiy ko'nikmalari shakllanadi. Asarni bugungi kun nuqtayi nazari bilan tahlil qila oladi.

Umumta'lim maktablarining yuqori bosqich adabiyot darsliklariga avval Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni kiritilgan edi. Dostonni falsafiy mushohadaga boy, mazmun - mohiyat jihatidan o'quvchilar tushunishi murakkab asar sifatida o'qituvchilar va soha mutaxassisleri o'rtasida jiddiy muhokamalarga sabab bo'ldi va alal oqibat darslikdan olib tashlandi.

¹⁶ MirzayevaZ., Jalilov K., Adabiyot o'qitish metodikasi (An'anaviylikdan zamonaviylikka), T.: 2020.

Murakkab asar o‘rniga nisbatan sodda “Saddi Iskandariy” dostoni kiritildi. Vaholanki, Navoiy ijodiga yaqinlashish, yoshlar ruhiyatida mutafakkir ijodidagi nafis xususiyatlar uning sodda yoki murakkab asarlari orqali emas, butun bir ijodi foni (yosh xususiyatini hisobga olgan holda, albatta) orqali singdirish har jihatdan to‘g‘ri va adolatli qaror, deb o‘ylaymiz. Yanayam aniqroq qilib aytganda, uzluksiz ta’limda Navoiyni o‘qitish bilan bog‘liq muammolar adabiyot darsliklaridagi shoir asarlari, xususan, “Layli va Majnun”ni “Saddi Iskandariy”ga yoki “Farhod va Shirin”ni “Sab’ai sayyor”ga almashtirish bilan yechim topolmaydi. Eng muhim masala o‘rganuvchini Navoiy ijodiga, Navoiy shaxsiga va Navoiy san’atiga imkon qadar quruq g‘oyalarsiz, silliqva o‘ta tabiiy olib kirish, yanayam aniqroq qilib aytsak, Navoiyga borar yo‘lni to‘g‘ri belgilay olish bilan bog‘liqdir¹⁷.

Demak, asarda keltirilgan qiyin so‘zlar lug‘atini shunchaki yod oldirish emas, balki ularda shu so‘z bilan bog‘liq tasavvur uyg‘otish kerakki, natijada ularning yodida uzoq muddatga qolsin. O‘quvchi mumtoz asarlardagi voqea-hodisalarni ko‘z oldida aniq gavdalantira olsa uni tushunishi osonroq bo‘ladi. Quyidagi metoddan lug‘atlar bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin.

“Tasviriy lug‘at” metodi

Asarni o‘tish davomida notanish so‘zlar lug‘atini o‘sha so‘zlarga mos tasvirlar bilan ko‘rsatib tushuntiriladi. Masalan, “Sab’ai sayyor” dostonidan olingan so‘zlar tasvirini keltiramiz.



¹⁷MirzayevaZ., Jalilov K., Adabiyot o‘qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka), –T.: 2020



Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, bunday texnologiyalar hozirgi vaqtda ta'lim bosqichlarida adabiyot o'qitishning samaradorligini oshiradi. Ularni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlansa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. An'anaviy dars shaklining ayrim afzalliklarini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman texnologiya va metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining o'sishiga olib keladi. Nafaqat fanni o'zlashtirishi, balki mustaqil hayotida zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Tarixini bilgan, ularga hurmatda bo'lgan o'quvchilardan yomonlik chiqmaydi.

Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina o'quvchi haqiqatdan ham fikrleydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov H.T., Xo'jayev N.X. va boshqalar, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.– T.: Iqtisod-moliya, 2009.–B.149.
2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. Ikki jildlik. Birinchi jild. –T.:Sharq, 2016.- 535
3. A. Navoiy. "Xamsa"; nasriy bayon etuvchi A.Hojiahmedov –T .: Sharq, 2016.-336 b
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2020 -352b
5. Mirzayeva Z., Jalilov K., Adabiyot o'qitish metodikasi (An'anaviylikdan zamonaviylikka), T.: 2020.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA NAVOIY IJODIY MEROSINI 4 K MODEL ASOSIDA O'QITISH

Daniyarova Sarvinoz Shuxratovna,
Buxoro viloyati PYMO'MM
Metodik xizmat bo'limi
o'zbek tili metodisti

Annotatsiya. Maqolada Navoiy ijodiy merosini o'quvchilarga zamonaviy metodlar bilan o'rgatish, 4 K modeli, darslarda zamonaviy metodlardan unumli foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Navoiy ijodiy merosi, ta'lim sifati, 4 K modeli, zamonaviy metodlar, ta'limni tashkil qilish shakllari.

Buyuk mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy meros nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning ma'naviy mulkiga aylangan. Chunki, hazratning insonparvarlik g'oyalari millatidan, jinsidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, umuminsoniyatning manfaatiga xizmat qilmoqda. Alisher Navoiy ilgari surgan xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalaridan bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oqilona foydalanish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir.

Kelajak avlod bilan ishlayotgan, ularga bilim berayotgan o'qituvchilar yildan yilga dunyo qanchalik o'zgarib borishini tushunishlari kerak. Kelgusida o'quvchilarning raqobatbardoshligi bevosita ularning mahoratiga bog'liq. 4K modeli insonlarning bir-biri bilan tanishish, mehnat taqsimoti bo'yicha aniq kelishib olish, jamoa bo'lish, belgilangan muddatlarni o'tkazib yubormaslik va muloqotni samarali davom ettirish qobiliyatini nazarda tutadi. Zamonaviy ta'lim bizning nafaqat bilim va ko'nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir. 4K modeli o'z ichiga to'rtta asosiy ko'nikmalarni oladi. Bular - **tanqidiy fikrlash (kritik fikrlash), kreativlik, muloqot qilish (komunikatsiya), jamoaviy ishlash (kollaboratsiya) ko'nikmalaridir.**

Tanqidiy fikrlash (kritik fikrlash)da o'quvchilarga ma'lumotni tahlil qilish, u haqida o'ylash, o'z fikrlarini shakllantirish va yechimlarni topishga o'rgatish muhimdir. *Tahlil* – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish; *tushuntirish* – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish; maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri

shakllantirish, dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko'nikmasi. *Qiziquvchanlik* – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati; *tasavvur* – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati. O'quvchilarda mazkur ko'nikmani shakllantirish uchun “1 daqiqa” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Navoiy hayotiga doir 10 dona fakt, ulug' alloma qalamiga mansub 10 asar, ijodidagi 10 janr va hokazo. Shart sifatida berilgan topshriqqa jami 1 daqiqa beriladi. Natijada o'quvchining diqqati jamlanadi, fikr mulohaza qiladi.

Muloqot qilish ko'nikmasi O'quvchilar boshqa odamlar bilan muloqot qilishni, guruhda vazifalarini taqsimlashni, qisqa va aniq gapirishni o'rganishlari kerak. Muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik. **“Globoalfavit”** metodi asosida mavzuni mustahkamlab olish tavsiya etiladi. Bunda o'quvchilar alifbo ketma-ketligi bo'yicha bugungi darsda so'zlarga misollar aytishi kerak. Masalan: 1-o'quvchi A harfi bilan boshlanuvchi so'z; 2-o'quvchi B harfi bilan boshlanuvchi so'zni aytadi. O'quvchilar o'zlariga tushgan harf bilan boshlanuvchi g'azal aytishlari, nazariy ma'lumotni bayon etishlari mumkin. Harflar darsning mustahkamlash qismida o'qituvchi tomonidan taqsimlanganidan so'ng, o'quvchilar tezkorlik bilan berilgan vazifani bajarishlari kerak bo'ladi.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini qurish qobiliyati, ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

Zamonaviy ta'limda zamonaviy o'qituvchi ta'lim shaklini mavzu, o'quvchilar va tarjibasidan kelib chiqib tanlaydi. Bunda albatta, zamonaviy metodlar qo'l keladi. Masalan, “FSMU”, “Muammoli vaziyat”, “Mantiqiy-matematik zakovat”, “Reportaj tayyorlash”, “To'g'ri-noto'g'ri”, “T-sxema” metodlaridan o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanish mumkin. Kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasini rivojlantirish uchun “Ven diagrammasi”, “Kundalik daftar”, “Ranglarda qahramonlar tasviri”, “Klaster” va “1 daqiqa” metodlari mos keladi. Muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish uchun “Men notiqman”, “Intervyu”, “Hikoya qilish”, “Fikrlar hujumi”, “Nima uchun?” va “Globoalfavit” metodlarini qo'llash mumkin.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi shakllantirish uchun "Keys-stadi", "Ijodiy ish", "FSMU", "Mozaika", "Yozma bahslar" metodlari mos keladi.

O'quvchi-yoshlarda ma'naviy, axloqiy, insonparvarlik sifatlarini shakllantirishda, Navoiy merosidan foydalanishni takomillashtirish uchun maktab yoshidagi o'quvchilar uchun Navoiy asarlaridagi maqolot, hikoyat va rivoyatlar asosida multimediyalardan foydalanish; sinflarda o'qitiladigan tasviriy san'at, musiqa darslarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish; mutafakkirning ijodi faqat tavallud kunida yoki bayramlarda emas, yil davomida tizimli ravishda o'rganilsa millatimizning quyoshi bo'lgan hazrat Navoiyning ruhiyati oldidagi ma'naviy burchimizni bajargan bo'lamiz.

Mamlakatimizda "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" g'oyasi asosida Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Bundan sal kam olti asr oldin hazrat Navoiy ilgari surgan insonparvarlik g'oyasining taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar bilan hamohang ekanini ko'rish mumkin. Navoiyning ijod bulog'idan suv ichgan bu g'oyalar xalqimizni va mamlakatimizni porloq cho'qqilar sari undayveradi.

Xulosa shuki, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'quvchilarda hazrat Navoiy merosini o'rgatishda 4 K modelini darslarda tatbiq etish maqsadga muvofiq. Bunda albatta zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish lozim. Har bir o'qituvchi bu omillarga e'tibor bersa, zamonaviy ta'lim o'z maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi Ilm-fanni-2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-6097-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. -T. 2023
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-jild. – T.: "Fan", 1991.

ALISHER NAVOIYNING “BADOYE UL- BIDOYA” DEVONIDAGI BIR RUBOIY SHARHI

Muharram Kamolova,
Buxoro viloyati Jondor tumani
ixtisoslashtirilgan maktabning
oliy toifali ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning “Badoye ul-bidoya” devonida keltirilgan ruboiylarning g'oyaviy-badiiy tahlili, ulardagi zohiriy va botiniy ma'nolar xususida fikr yuritilgan. Ruboiylarda ilgari surilgan g'oyalarning Qur'on oyatlari va ma'rifiy-badiiy adabiyot asosidagi talqinlari xususida so'z boradi. Shuningdek, ruboiylarni tasavvufiy tarzda talqin qilishda hamda ilgari surilgan g'oyalarni o'quvchiga yetkazishdagi murakkabliklarni yengish bosqichli tarzda sodda tushuntirib berilgani bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Qur'on, oyat, hadis, solik, ma'rifat, hikmat, tariqat.

Ruboiy Sharq adabiyotida janrlar orasida o'zining xalqonaligi, didaktik g'oyalarni mujassam etishi bilan ajralib turadi. U garchi to'rt misradan iborat bo'lsa ham, ham mazmun, ham adabiy talablar jihatdan tugal asar: “Ruboiy - to'rt misradan iborat tugal lirik asardir. Unda lirik qahramonning ichki kechinmalari nihoyatda siqiq, ammo nihoyatda ravshan va aniq, o'ta xarakterli: ifodali tasviriy obrazlar vositasi bilan aks ettirilishi kerak...”¹⁸

Mumtoz adabiyotda “dubaytiy” nomi bilan mashhur bo'lgan bu janrning yana bir o'ziga xos tomoni uning aynan hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlarida yaratilishidir. Aynan shu muhim jihati uning diniy nuqtai nazardan talqiniga borib taqaladi. Masalan, Doyi Javodning yozishicha, “Qur'oni Karim”dagi “La hovla vala quvvata illo billoh” oyati ruboiy vazniga asos bo'lib, shu sababli boshqa vaznlardagi to'rtlik ruboiy deyilmaydi.”¹⁹O'ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo'lgan ruboiyning nafaqat vazn talabi qolaversa, unda ilgari surilgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ishqiy, axloqiy-didaktik g'oyalarnio'zida mujassamlaydi.

Mumtoz she'riyatimizda fikrning yaxlit xalqona usulda mukammal tarzda berilishi aynan shu ruboiygagina xos jihat. Hazrat Navoiyning “Badoye

¹⁸Hayitmetov A. A. Navoiy lirikasi. —Toshkent, 1961.

¹⁹Doyi Javod. Zebohoi suxan yo ilmi bade' dar zaboni forsi, sah

ul-bidoya” devonlaridan o‘rin olgan quyidagi misralarda ham aynan xalqona murojaat usuli bilan didaktik, hatto diniy qarashlarning ham guvohi bo‘lishimiz mumkin.

La’lingni qilib nuktasaro, ey qaroko‘z
Ishq ahli hayotig‘a yaro, ey qaroko‘z
Chekma yana surma ko‘z aro, ey qaroko‘z
El jonig‘a qilma ko‘z qaro, ey qaroko‘z.

Ma’lumki, adabiyotda la’l kishining lab, purkalom so‘zlarni ifodalovchi og‘iz ma’nosida qo‘llanadi. Aynan ishq ahliga nisbatan qo‘llanilishi Ollohga berilgan qalb egasining nutqi purma’no so‘zlar bilan bezanmog‘i lozimligiga ishora. Zeroki, “Qur’oni Karimning Toha surasi 44-oyatida shunday deyiladi: “Unga (odamlarga) yumshoq so‘z aytinglar”. Aynan oshiq o‘z yoridan uni Yaratgan biru borning amri ila o‘z yorining go‘zal so‘zlariga qanchalar muhtojligiga ishora qilgan. Yana bir oyati karimada “Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadi”, (“Oli Imron” surasi, 134-oyat) deya uqtiriladi. Bu asos esa oshiqning murojaati ham o‘ziga, ham yoriga nisbatan qo‘llangan degan talqin mos keladi, Zero, Alloh ishq bilan munavvar qalb egasi o‘z nutqi bilan boshqa bir musulmonga ozor berishdan o‘zini tiyadi. Shirinso‘zlik, muomala odobi xususida Imom Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” kitobida: Abu Hurayra (r.a.): Rasululloh (s.a.v): “Shirin so‘z-sadaqadir!”,-deganlar,- deydilar.

Yana bir hadisda yaxshi so‘zlik savob amallar qatorida sanaladi: Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasullulloh (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: “Inson (o‘z) vujudining har bir bo‘g‘imi uchun Quyosh chiqib olamni munavvar qiladigan har bir kunida Alloh taolo yo‘lida xayr-u ehson (amali solihlar) qilmog‘i lozim bo‘lib, uning ikki odam orasini kelishtirib qo‘ymog‘i ham savobdir”.

Chin oshiqning o‘z yoriga “qaroko‘z” murojaati ruboiyning ohangdorligini oshirish barobarida nido san’atining go‘zal namunasi bilan birga iyhom san’ati ham qo‘llangan desak xato bo‘lmaydi. Zero, ko‘zi qaro yorning aynan oshiq boshiga qaro kunlarni solishiga ham go‘zal badiiy ishora bor.

La’lingni qilib nuktasaro, ey qaroko‘z
Ishq ahli hayotig‘a yaro, ey qaroko‘z.

Ishq ahli deya chin ixlosi ila Allohni sevuvchilar, taqvodorlarga ishora qilinmoqda. Zero, “Qur’oni Karim”da qayta-qayta eslatiladiki: “Bas, aslida esa kim (Alloh) ahdiga vafo qilsa va taqvoli bo‘lsa, albatta, Alloh taqvodorlarni sevadi.” (“Oli Imron” surasi, 76-oyat) Ana shu taqvodorlar ishq ahlining eng yaxshilaridir. Oshiq ham o‘z yorining mana shunday eng yaxshilar qatorida

ko'rib purma'no so'zlari ila ishq ahli qalbidagi yaralarga malham qo'ymoqlikka yarashi xususidagi o'tinchi ham yo'q emas.

Chekma yana surma ko'z aro, ey qaroko'z

El jonig'a qilma ko'z qaro, ey qaroko'z.

Oshiqning o'z yoriga ko'zi aro qarolikni ravo ko'rmasligi, ko'z aro surma qo'ymaslikni ta'kidlashi tasavvufiy jihatdan gunohdan tiyilish, ya'ni ko'z qorayishi gunohga botishga ishora. Bu xususida "Nazmul-javohir" asarida quyidagicha izoh berilgan:

Necha o'chashib bu nafsi xudkoma sanga,

Noma qaro bo'lg'ay o'ylakim xoma sanga.

(Nazmul-javohir, XV-46)

Aynan shuning sababidan ham oshiq "ma'siyat yoboni"dan o'z yorini qattiq ogohlantiradi. Boisi, "Alloh har bir kofir, gunohkorni xush ko'rmas" ("Baqara" surasi, 276-oyat), oshiq ham o'z yorining bunday g'avg'olardan ozod bo'lishi tarafdori.

Shoir e'tiroficha, kalom shunchaki oddiy so'z emas, balki insonga berilgan bebaho ne'matdir. Bu ne'matdan Haq yo'lida solih amallar bajarishda dil-u til hamjihatligini teng tutgan insongina haqiqiy insoniylik maqomiga muvaffaq bo'lishni saqlab qola oladi. Unga har qanday inson ham munosib topilavermaydi. Inson qachonki nafs istaklaridan voz kechsagina, bu yo'ldagi zahmatlarni marhamat o'rnida bilsa, o'z va o'zlikni mahv aylab, Haqdan boshqani ko'ngildan chiqarsa, uning ko'ngli ruhning erk va hurligidan yuz ochiladigan sirlar makoniga aylanadi.

Xullas, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning ruboiylari o'quvchini bir dam o'z qalbiga nazar solishga, o'z haqiqatini mushohada etishga undaydi. Unda aytilgan o'gitlardan hayotning, insoniylik sharafiga muvofiq yashashning behad yuksak ekaniga iqror bo'lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'oni Karim. (Abdulaziz Mansur tarjimasi).- Toshkent,1991.
2. Al Jome' as- sahih. To'rt tomlik. I, II tom Toshkent, 1991.
3. A. Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. I tom ("Badoyi ul-bidoya") Toshkent: Fan, 1987 - 647 b
4. Ibrohim Haqqulov. O'zbek adabiyotida ruboiy. - Toshkent: Fan, 1981 - 13bg'

ALISHER NAVOIY IJODIDA VATAN TALQINI

Maxmudova Sadoqat Xolmatovna,

BuxDPI dotsenti

Maxmudova Moxichexra Maxsudovna,

BuxDPI talabasi

Annotatsiya. Inson zoti yaralibdiki, kindik qoni to'kilgan joyiga nisbatan muhabbat tuyg'usi his qilib yashaydi. Shoir o'z asarlarida, xususan, dostonlarida vatanparvarlikni insonparvarlik, odillik, ma'rifatparvarlik, milliy mustaqillik g'oya va tushunchalari bilan bog'lab talqin etgan.

Kalit so'zlar: Vatan, Vatanni sevish, ardoqlash, yuksak insonparvarlik, ruboiy, doston, "Saddi Iskandariy".

Ma'lumki, Alisher Navoiy hazratlarining bizga qoldirgan boy adabiy va ma'naviy merosi insonlarning, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'nan va ruhan barkamol bo'lib tarbiya topishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy bobomizdan nafaqat betakror va bebaho ijod durdonalari, balki, Vatanni sevish va ardoqlash, yuksak insonparvarlik fazilatlari ham meros bo'lib qoldi.

Inson zoti yaralibdiki, kindik qoni to'kilgan joyiga nisbatan muhabbat tuyg'usi his qilib yashaydi. Navoiy bu holatni ilk marta o'zining yigitlik yillarida yozgan mashhur ruboiysida yuksak mahorat bilan badiiy tasvirlaganki, u hali hanuz turkiy tilli xalqlar og'zida zarbulmasal bo'lib kelmoqda. Navoiy ruboiyda oddiygina xas-xashak, tikanlardan yasalgan o'z oshyoni podshohlarning oltin qafasidan ortiq ko'rgan bulbul timsolini g'oyat yorqin ranglar orqali tasvirlagan edi:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.

Shoir o'z asarlarida, xususan, dostonlarida vatanparvarlikni insonparvarlik, odillik, ma'rifatparvarlik, milliy mustaqillik g'oya va tushunchalari bilan bog'lab talqin etgan. Masalan, "Saddi Iskandariy" da u Droni mustaqil Eron shohi, deb quyidagicha ta'rif-tavsif etadi:

Jahon mulkida mustaqil podshoh,

Anga topshurub shohlar toshu goh.

Navoiy ta'kidlaganidek, biz doimo ko'z qorachig'imizdek asragan diyor – O'zbekistondir. Sog'inch va mehr qorishgan buyuk ajdodlar kalomida bayon

etilgan yurtimiz doimo biz farzandlar kelajagi uchun muqaddas dargoh bo'lib qoladi. Yurtning ertasi bo'lgan yoshlar jahon minbarida bayrog'imiz hilpirashi uchun hamisha kamarbasta. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidashunday baytni uchratamiz:

Iyolu Vatan uzra to joni bor,

Kishi harb etar toki imkoni bor.

Ya'ni, "har bir inson, u haqiqiy inson bo'lsa, to tirik ekan, o'z Vatani va oilasi (iyolu)ni imkoni boricha yovdan himoya etishga harakat qiladi".

Alisher Navoiy Vatan va oilani bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar, deb qaragan. Demak, kishi uchun o'z oilasi – Vatani. Har kim o'z oilasiga mehrli bo'lar ekan, u yashagan joyini, shahrini, viloyati va mamlakatini seva oladi. Bu silsilaning biror-bir zanjiriga ham putur yetmasligi lozim.

Xuddi shu ma'noda men ham shu millatning vakiliman, bir bo'lagiman. Har bir yutug'iga quvonaman, qusuriga achinaman. Yurtimning har bir vakili men uchun aziz. Millatim fe'li shunchalar rang-barangki, ta'rifiga kitoblar bitsa arziydi.

Vatan sevgisi inson fitratiga jo etilmaganda edi: vatani cho'l, botqoq va yoki muzliklardan iborat bo'lganlar o'z ona yerini maftun bo'lib seva olmas edi, nazarimda.

Alisher Navoiy o'z davrining davlatmand kishilaridan biri bo'lgan. Binobarin, bu uning hajga borishini taqozo etgan. Lekin u ikki bor safarga otlanganda har safar Sulton Husayn Boyqaro uning mamlakatdan uzoqlashishini istamagan, buning uchun qulay sharoit yo'qligini, mamlakatda va qo'shni o'lkalarda vaziyat murakkabligini aytib, uni muborak haj safaridan qaytargan. O'z mamlakatini, xalqini jondan ortiq sevgan Navoiy esa podshohning iltimosini qabul qilgan va haj savobiga boshqa xayrli ishlarni bajarish bilan erishishga qaror qilgan.

Navoiyning o'z vataniga muhabbati, uning obodonchiligi uchun qilgan xizmatlari, bizga ayon bo'lgan tarixiy haqiqatdir.

Buyuk yozuvchi Hirot va Xurosonni quyidagicha tasvirlaydi:

Bog'lari har biri jannat misol,

Ravzaga har go'shasidan go'shmol...

Haddi shimoliysi sori ikki nahr,

Ul ikkidan xurramu serob shahar

Shaharning mahallalari ko'p, ularning har biri bir shahar singaridir. "Shaharda bir xil binolar behisob, shahar devoridan chetdagilar bu hisobga odamlar o'ttirishi mumkim bo'lgan joy bor. Mahallalar toyinli bo'lishi

uchun mahalla ahllari shahar-shaharga bo'lingan. Bu mahallalarga shaharlarning oti berilgan; shuning uchun Hirotda yuzta shaharning nomi bor". Mahallada mavjud xonadonlarning hammasi obod. U yerda qurilgan madrasalarning har bittasi alohida o'z qadriga ega. O'qitadigan mudarrisning dili ravshan va pok. Shogirdlari har sahifani ochganda o'zlariga kerak bo'lgan bilim va foydani oladilar. Bu orqali shoir vatanni tinch ekanligi va shuning uchun madrasalarda ta'lim-tarbiyani egallashayotganini uqtiradi.

Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she'rlari faqat o'sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo'lishi tabiiydir.

Ko'rinib turibdiki, ijodkor janr jihatidan eng kichik asarlarida ham Vatan tuyg'usini baland pardalarda kuylagan. Navoiy asarlarining mavzu jihatidan rang-barangligi, maftunkorligi ularni o'qigan insonning qalbini zavq-u shavqqa to'ldiradi. Ulardan har qanday kitobxon o'ziga ma'naviy ozuqa oladi, ruhiyati go'zallik bilan boyiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy "Hayrat-ulabror" G'afur G'ulom nomidagi nashroyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent,2006 yil, 254-bet.
2. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф /Тақдирлар, ҳикматлар, афоризмлар. -Т.:Янги аср авлоди, 2013.-239-б.
3. Alisher Navoiy Hayratul-abror, –Т.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-yil 334-335 betlar.

ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA HUKMDORLAR AXLOQI TUSHUNCHASI

Maxsudova Nasiba Ikromovna,
Buxoro shahar 35-IDUMning oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy qit'alarida yuksak axloqiy fazilatlar, jumladan, hukmdor, rahbarlar odobi masalasi bayoni aks ettiriladi. Qit'alar namuna sifatida keltiriladi.

Kalit so'zlar: hukmdorlar, rahbarlar odobi, qit'alar tahlili, Alisher Navoiy. Ezgulik, yuksak axloqiy sifatlar insonning ma'naviyati, siyrati pokligini ko'rsatuvchi mezonlardir. Bunday ezgu amallar zamon, makon chegarasidan xoli va umuminsoniy xususiyatga ega.

O'zbek mumtoz adabiyotining eng ulug' va eng suyak vakili Mir Alisher Navoiy ijodida ham chin insoniy sifatlar tarannumi alohida o'rin tutadi. Hamisha komillikka intilgan bobokalonimiz nafaqat o'zining kamolotini, balki butun jamiyat, kelgusi avlod fazilatli, diyonatli bo'lmog'ini ham orzu qiladi. Buning uchun xalqni boshqaruvchi, unga namuna bo'lguvchi hukmdorlar axloqli, fazilatli bo'lmog'i lozimligini uqtiradi.

Jumladan, shoir qit'alarida ushbu mavzuga bot-bot murojaat qiladi.

“Viqor gavhari-yu hilm ma'dani bo'la ko'r,
Desangki, qilg'ay itoat sanga gado ila shoh.

Bu sheva tog'da zohirdururki, davrondin

Qachonki tafriqa yetti, ulusqa bo'ldi panoh” qit'asida insonlar qalbidan joy olmoq, ishonchini qozonmoq uchun yumshoq tabiatli va kamsuqum, viqorli ham bo'lish lozimligi uqtiriladi. Bamisoli tog'dek suyanchiq bo'lib elni panohida asrab, himoya qila bilmoq sharaflanadi.

Xuddi shunday el aro obro' topmoq, odamlar uchun aziz bo'lmoq uchun insonning so'zi ham, fe'li ham to'g'ri, rost bo'lmog'i, bunday kishiga ishonish, suyanish mumkin ekanligi quyidagi qit'ada ham aks ettiriladi:

“Biyik maqomiga ulkim tilar, sabot kerak
Ki egrilikni qo'yub, tuzluk aylasa qonun.
Tuz o'lsa soyasida el tinib manor kibi
Sipehr uyida turar qarnlar nechukki sutun.
Gar egridur, yog'ibon o'q-u bog'lanib bo'yin,
Bo'lar qabaq yig'ochidek besh-o'ncha kunda nigun”.

Yana quyidagi qit'ada bayon etayotganimiz ahli davlat-qo'lida qudrat bo'lgan insonlar uchun kamtarinlik, tavoze'lilik, kechirimlilik sifatleri odatga aylanmog'i, bu ularning qimmatini yana ham oshirishi aks ettiriladi:

Tavoze' yaxshi, ammo yaxshiroqdir
Agar da'b etsa ani ahli davlat.
Erur ham afv xo'b-u xo'broq ul
Ki, zohir bo'lgay el topqanda qudrat”.

Davlat kishilari, boy-u g'anilarga qay ishdan tiyilmoq afzal-u qay birini yuksaltirmoq lozimligi

“Uch kishidin uch ish yomon ko'rinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:
Shohdin tundlug', g'anidin buxl,
Molg'a mayl-u hirs donodin” qit'asida ham aks ettiriladi.

Unda uch toifa: shohlar, boylar va ularni to'g'ri yo'lga soluvchi oqillar qalamga olinib, xalq taqdiriga javobgar hukmdorning tund-u qo'pol, qo'rs,

qattiq soʻzli boʻlishi qoralanadi. Alloh saxovat uchun boylik ato etgan insonlarga baxillik; haqsoʻz, rostgoʻy, shoh-u gadoni toʻgʻri yoʻlga boshlovchi donolarga molparastlik, tamagirlik nomunosib ekanligi taʼkidlanadi.

Oradan olti asr oʻtsa-da, bu umumbashariy gʻoyalar eskirmay kelmoqda. Hukmdorlar, boshqaruvchilar, rahbarlar axloqi hamisha dolzarb mavzu.

Chunki elni ortidan ergashtiruvchi, birlashtiruvchi insonlar ruhan barkamol, axloqan yetuk boʻlsagina, el-u yurt xizmatida fidoyi, sadoqatli, himmatli va bagʻrikeng, adolatli boʻla oladilar. XXI asrda ham ushbu satrlar silsilasidagi haqiqatlar ahamiyatli ekanligi Alisher Navoiy siymosi va nazmining abadiyatga daxldorligini yana bir karra isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ibrohim Haqqul “Kamol et kasbkim”. –Toshkent “Choʻlpon” nashriyoti, 1991.

2. Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati, toʻrt tomlik. –Oʻzbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1983.

IKKI DIL DOSTONIDA TURKIY QALAM ROST, NAVOIY ILA BOBUR XALQIMGA HAMROZ

Ashurova Xurshida Salimovna,

Buxoro viloyati Gʻijduvon tumanidagi

18-maktabning 1-toifali

boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy va Boburning ham nazmiy, ham nasriy ijod namunalarining tahlili berildi. Ikki buyuk daho ijodining yoshlar maʼnaviyatidagi oʻrni va tarbiyaviy ahamiyatga oid fikrlari ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: komillik, ilm, hayot haqiqati, ezgu fazilatlar, tiriklik, ilmsizlik, xalqparvar.

Alisher Navoiy dongʻi ketgan buyuk shoirgina emas, oʻz davrining eng maʼlumotli kishisi, fan va sanʼatning turli sohalarini egallagan olim va mutafakkir, eng hushyor, eng tadbirli va davlatning istiqbolini koʻra biluvchi keng qarashli bir siyosatchi ham edi. Oʻzbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy oʻlmas “Xamsa” tarkibidagi dostonlari, beqiyos “Xazoyin ul-maoniy”ni tashkil etgan sheʼriyati, oʻn toʻrt nomdagi nasriy asarlari bilan adabiyotimizni boyitgan, uni jahon adabiyoti yuksakligiga

ko'targan, ilg'or bashariyatning madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'shgan ijodkordir.

Alisher Navoiy dostonlar va nasriy asarlarini asosan umrining so'nggi yigirma yilida yaratgan bo'lsa, lirik she'rlarini butun ongli hayoti davomida yozgan. Demak, shoir hayotidagi ruhiy kechinmalar o'sha davrning murakkab siyosiy, ijtimoiy hayotidagi turli-tuman voqea, hodisalarga bo'lgan munosabati xuddi aynan lirik she'rlarida o'z ifodasini topgan.

Navoiy asarlari markazida ezgulik, pok insoniy muhabbat, inson fazilatlarini ulug'lash, tinchlikka, do'stlikka da'vat, vijdon erkinligi singari g'oyalar turadi.

Navoiyni anglash "maqomi" ga yetish tom ma'nosi ila bir saodat. Faqat bunga g'oyatda sekinlik bilan, nihoyatda ko'p mutolaa va mushohada ila, ma'lum bir hayot tajribasiga ega bo'lish bilan erishiladi.

Navoiy ijodida insonni bilim izlashga chorlovchi misralar talaygina. Masalan:

Ilmi din kasb qilki sud ermas,
Charx mushkullarini hal qilmoq.
Lekin ul ilmdog'i naf etmas,
Bilibon bo'lmasa amal qilmoq.

Hazrat Navoiy dunyo qiyinchiliklarini hal qilishga yordam bermaydigan ilmlarni keraksiz ilm deb hisoblaganlar va bunday ilm bilan mashg'ul bo'lmoqni maqsadga aylantirmaslikka chaqirganlar. Bilamizki, Navoiy xalqparvar, umrini xalq nafi uchun sarflagan buyuk siyosat va davlat arbobi edi. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul tahlili bilan aytganda, Hayot va ong taraqqiyotiga xizmat qilmagan ilm – ilmsizlikdan o'zga narsa emas. Taraqqiyot uchun esa bilishning o'zigina kifoya etmaydi, bilimga yarasha amal ham kerak. El-u yurtga ilmdan yetadigan naf bebaho. Bilim darajasiga muvofiq amal va harakat – bu chin olimga xos fazilat sanaladi.

Alisher Navoiyning hayotiy tajribalari asosida eng so'nggi nasriy asari "Mahbub ul-qulub" ayniqsa, yoshlar ma'naviy kamolotida asosiy o'rinni egallaydi.⁴⁰ Fasldan iborat bu asar o'ziga xos xulosaviy fikrlarga ega. Misol uchun shoirning bu asarida to'g'ri, odil inson shanga, ko'nglida g'arazi bo'lgan kishi chaqmoq otishiga mengzaladi. Tahlilga olinadigan misralar juda ko'p. Umuman olganda, asarda kishilarning ezgu sifatlari – saxiylik, mehribonlik, rostgo'ylik, mehnatkashlik, kamtarlik, tavoze' singari qator fazilatlar ulug'lanadi. Takabburlik, dangasalik, yolg'onchilik, firibgarlik, johillik, ochko'zlik qoralanadi.

Navoiyning ushbu mashhur qit'asi ayniqsa yoshlar ma'naviy kamoloti uchun juda muhim.

*Kamol et, kasbkim olam uyidin,
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notavon o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.*

Ya'ni, Navoiy aytadiki, sen o'zingga komillikka yetishni maqsad qil, kasb qil, agar komillikka yetmasdan bu dunyodan o'tish sanga farz bo'lmaydi. Jahondan bunday o'tish go'yoki, hammomga kirib chala yuvinib chiqqan insondek bo'lasan, deb uqtirib, dunyoni hammomga o'xshatgan. Naqadar sermushohada fikrlar...

Navoiy nomini tilga olganda beixtiyor shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi yodimizga keladi. O'z davrida sermahsul ijod qilgan Bobur asarlarida ham keng ko'lamlı falsafiy mushohadalarni, hayotiy qarashlarni, ayniqsa, vatanga muhabbatni idrok qilamiz. Biz Bobur siymosini qachonki "Boburnoma"ni qunt ila mutolaa qilsakkina anglaymiz. "Boburnoma"da bitilgan hayotiy qarashlar, muallifning dunyoqarashi o'quvchi yoshlarni ilm egallashga, vatanni sevishga, mehnatsevarlikka, halollikka va qator ijobiy xislatlarga ega bo'lishga undaydi. Jumladan "Boburnoma"dagi muallifning "Sen hayotda o'zingga yomonlik qilganlarni hayotga qo'yib ber. Bilki, hayot qasoskor mulozimingdir" mazmunidagi fikriga e'tibor qarataylik. Oddiygina shu jumlar asrlar osha hech bir tarix inkor eta olmagan hayot haqiqatini ko'rsatib turibdi. Bunda o'quvchi yoshlar ongida yomonlikni inkor etuvchi, yomonlikning jazosiz qolmasligi, bu hayotda imkon qadar yaxshilik qilish singari ezgu g'oyalar, fikrlar jumbushga keladi. Bobur hayotidagi yillar davomida bo'lgan voqealar o'quvchi yoshlarga go'yo ibratdek.

Endi Bobur nazmiyatiga kelsak, g'azallar, ruboiylardagi o'y-kechinmalar, qalb tug'yonlari, hayotiy xulosalar kishini keng mushohadaga, tafakkur qilishga undaydi.

*Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.*

Yuqoridagi misralar insoniyatni bir marta in'om etilgan hayotida yaxshilik qilishga, tarixda ezgu nom qoldirishga chorlaydi. Boburning "O'lum uyqusig'a borib jahondin bo'ldum osuda..." g'azalidagi quyidagi shoh baytga e'tibor qarataylik:

*O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor,
Ki, bir dam g'am yemakka arzimas dunyoyi farsuda.*

Misralarda shoir kishini hamisha xursand yurishga, hayotdan zavq olishga undaydi. Mol-dunyo uchun aslo g'am yemaslikka, zero bu dunyo g'am chekishga arzimligi, ya'ni umrimizning abadiy emasligini uqtirmoqchi bo'ladi. Buni teran anglagan o'quvchi bir marta berilgan tiriklikda ezgulik istab yashash kerakligini uqib oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Navoiy "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub".
2. Z.M.Bobur "Boburnoma".
3. Bobur g'azallar to'plami.
4. Ibrohim Haqqul "E'tiqod va ijod" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2007.
5. Ibrohim Haqqul "Navoiyga qaytish" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2007.

ALISHER NAVOIY IJODIDA O'SIMLIKLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Muqimova Gulnora Rashidovna,
Buxoro viloyati PYMO'MM
"Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasida
o'qituvchisi, f. f. f. d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning boy ijodiy merosidagi g'azallar tahliliga to'xtalib, undagi o'simliklarning ko'chma ma'nosi alohida tahlil etildi. Shuningdek, fitonim metaforalarning g'azallarda ifoda etgan tarbiyaviy ahamiyati ham aytib o'tildi.

Kalit so'zlar: metafora, fitonim, ritorika, lirika, falsafiy mavzu.

O'zbek tili va adabiyoti taraqqiyotida ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Buyuk mutafakkir Arastu "Poetika" asarida shoirlarga tavsiyalar berar ekan, metafora qo'llashda ijodiy mahorat kerakligini alohida uqtiradi va ta'kidlaydiki: "... faqat shunigina o'zgalardan o'zlashtirib bo'lmaydi, bu qobiliyat, iste'dodning belgisi bo'lib xizmat qiladi. Axir, yaxshi metaforalar yaratish – o'xshashlikni ko'ra olish demakdir"²⁰. Anglashiladiki, Arastu metafora yaratish qobiliyatini tug'ma iste'dod bilan o'zaro bog'liq hodisa sifatida talqin etadi, shuning uchun ham uni boshqalardan o'zlashtirib bo'lmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Navoiyda

²⁰ Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С. 173.

narsa-tushunchalar orasidagi o'xshashlikni ko'ra olish, ilg'ash, tasavvur etish, san'atkorona nigoh, obrazli tafakkur eng yuqori darajada taraqqiy etganligini uning asarlarini o'qish jarayonida chuqur anglash mumkin.

Navoiy asarlari tili leksik boyligining muayyan qismini o'simliklar dunyosini aks ettiruvchi so'zlar tashkil qiladi. Masalan, "*Kelmas o'lsa ul sening sori ...*" deb boshlanuvchi g'azalida *gul* va *g'uncha* fitonimlari qo'llangan:

Kecha ulkim chirmanur bir gul bila, ne tong, agar

G'unchadek har subh o'lub xandon nashot izhori bor.²¹

Navoiyning mazkur g'azali "Navodir un-nihoya" devoniga kiritilgan bo'lib, unda mavjud turmush kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ijtimoiy, axloqiy, ma'rifiy xulosalar ifodalangan. Asarning umumiy mazmunidan anglashiladiki, sevikli yor vasli g'animatdir, lirik qahramon muattar hidlar taratayotgan g'uncha kabidir. Shoir g'azalning keyingi baytlarida *gul* va *bulbul* timsolida oshiq va ma'shuqaning ayriliq iztiroblari manzaralarini ham tasvirlashga harakat qiladi.

Yo'q ajab bulbulg'a gul shavqidin o'lmoq zorkim,

Pardin o'q jismiga sonchilg'on adadsiz xori bor.²²

Navoiy g'azallarida *xor* (tikan) fitomorfidan ko'chma ma'noda o'zgacha talqinda foydalanadi. Mumtoz she'riyatda bulbulning gulga shaydologini aks ettiruvchi ko'plab baytlar mavjud. Ularning aksariyatida bulbulning gulga munosabati tavsifiy xarakterda, axborot tarzida bayon etilgan. Navoiy esa baytda badiiy fikrni hayotiy tafsillar bilan dalillash yo'lidan borgan. Shoirning talqinicha, bulbulning gulga bo'lgan muhabbatiga uning shaydologigina emas, balki hamdardligi ham boisdir.²³

Sunbuli zulfi agar oshuftadur, ayb etmakim,

Gul yuzida yotqon ikki nozanin bemori bor.²⁴

Anglashiladiki, shoir mazkur baytida *sunbul* va *gul* fitonimlarini qo'llagan. *Sunbul* so'zining asl lug'aviy ma'nosi izohi lug'atlarda quyidagicha berilgan: *Piyozgullilar oilasiga mansub, lola bargiga o'xshash uzun bargli o'tsimon manzarali o'simlik va uning g'uj bo'lib ochiladigan xushbo'y, chiroyli gul* [O'TIL, 124-b.]. Shoir *sunbuli zulf* birikmasi vositasida ma'shuqaning zulfi sunbuldek chiroyli ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Baytning birinchi misrasida "sunbul" va "oshufta" so'zlari bilan shoir ma'shuqa zulfining ta'rif-u tasvirini yuksak darajada ifodalashga erishgan. Kitobxon, shubhasiz, ma'shuqa zulfini

²¹ Алишер Навоий мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тўртинчи том. ХАЗОЙИН УЛ-МАОНИЙ Наводир уш-шабоб.—Т, 1989. 526 б.

²² Alisher Navoiy G'azallar, sharhlar. To'plab nashr, tayyorlovchilar: A. Sharonov, B. Eshpo'latov.— Т., Kamalak, 1991. -В 158

²³ O'sha kitob, B 159

umumiy tarzda “oshufta sunbul” sifatida tasavvur etadi. Shoir ma’shuqaning yuzini bevosita gulga qiyoslaydi, metaforadan unumli foydalangan holda ma’shuqa o’rnida gul so’zini keltiradi, yorning suzuk va mastona ko’zlarini “ikki nozanin bemor”ga mengzaydi.

Shoir asarlarida *yosuman*(jasmin) fitonimi ko’p miqdorda qo’llanganligini kuzatish mumkin. Bu fitonim badiiy adabiyotda *hiylagar va makkora xarakterga ega ayol* majoziy ma’nosini ifodalaydi. Ayonki, *yosuman* o’tkir xushbo’y hidga ega bo’lib, inson boshini aylantiradi. Shunga ko’ra makkora ayollar mazkur gulga o’xshatilgan. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi *Yosuman* yengilmas Farhodni hiyla bilan behush qilib, Xusrav huzuriga keltiradi. *Yosuman* afsona, ertak va dostonlarda jodugar, ayyor, makkor, hiylagar kampir nomlari bilan ham yuritiladi.

Oshiq tomonidan ma’shuqaning yuzini *nasrin, nastarin* deb atash mumtoz adabiyotda, jumladan, Navoiy ijodida ko’p kuzatiladi. *Nastarin*ning rangi va xushbo’yligi ma’shuqaning qaddi va yuziga muqoyasa qilinadi.

Mumtoz adabiyotda *nargis* fitonimi ham ko’p uchraydi. *Nargiz* degan yigit timsoli o’ziga bino qo’rganlik va manmanlik ramziga aylangan. Gullar tilida *nargiz* xohish va xudbinlikni anglatadi. Sharq adabiyotida *nargiz* guli jodu ohu, hindu, kofir, kufur, jallod, balo, bodom, istilohlar bilan birga ma’shuqning ko’zlariga muqoyasa qilinadi.

Ma’lumki, ayollar go’zalligiga o’zgacha chiroy baxsh etadigan unsurlardan biri uning sochi va halqa-halqa zulfidir. Binafsha o’simligining doimo egilib chayqalishi hamda xushbo’yligi she’riyatda turli poetik obraz va ma’nolarni ifodalagan, tasviriy adabiyotda esa inson aqli bilishi ojiz bo’lgan ilohiy hikmat ma’nosida qo’llanilgan. Navoiy she’riyatida yorning burama sochi va zulfi binafshaga o’xshagani uchun, soch va zulf o’rnida binafsha fitonimi kelgan.

Shoir asarlarida mahbub qomati odatda *sarv* daraxtiga qiyos etilgan. Bu fitonim o’zbek mumtoz she’riyatidako’p qo’llanadigan so’z-timsollardan biri hisoblanadi. Aslida, u ignabarglilar turkumiga kiradigan archasifat daraxt turini anglatadi.²⁵

Qucharga sarv niholi biri qadingdek ermas.

Agar ketursa ani bog’bon quchog’i bila.²⁶

Shoir g’azallarida ma’shuqa qomati *sarv*dan ham chiroyli ekanligi ifodalangan. Adib bu so’zning tasavvufiy, zohiriy ma’nosiga diqqat qaratadi. Qad so’fiylar nazdida, purning haybati, ilohiylik alomatini anglatadi. Shoir g’azallarida mazkur tasavvufiy ma’no *sarv* fitonimi vositasida ifodalanganligini

²⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. —Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. III. 2007. - 688 б.

²⁶ Аlisher Navoiy Ғазаллар, шарҳлар. Тўплаб нашр, тайёрловчилар: А. Шаронов, Б. Эшпўлатов.— Т., Камалак, 1991. - 176 б.

kuzatish mumkin. Navoiyning tavsificha, garchi bog‘bon bog‘dagi chiroyli sarv daraxtlarini mehr bilan bag‘riga bossa-da, bu sarv daraxtlar pir-u komildek bo‘lolmaydi demoqchi.

“Qaro ko‘zim” radifli g‘azali shoirning yoshlik lirikasi mahsuli bo‘lib, ishqiy-falsafiy mavzuda bitilgan. G‘azalda *gul, gulshan, nihol, chaman, xino, bog‘, tikan* kabi o‘simlik dunyosiga o‘zaro aloqador so‘zlar mavjud:

Yuzung guliga ko‘ngil ravzasin yasa gulshan,

Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.[QK, 427]

Navoiyshunos Nusratilla Jumaxo‘ja ushbu baytni quyidagicha sharhlaydi: “Mazkur baytda tasvir ancha sodda va muayyan, biroq bu bayt bir qancha ramziy iboralardan tarkib topgan bo‘lib, ularni sharhlamasdan mazmun-mohiyatini anglab yetish qiyin: 1. *Yuzung guli* – zohiriy ma‘nosi – “yor chehrasi”. Botiniy ma‘nosi – “Haq jamoli”. 2. *Ko‘ngul ravzasi* – ko‘ngil bog‘i, inson ruhiyat olami. 3. *Qading niholi* – mahbubaningqaddi-qomati, *jon* so‘zi tarkibidagi (arab yozuvida) *alif* harfi, ilohiy ma‘shuq qomati. 4. *Jon gulshani* – oshiqning vujudi, bag‘ri, *alif* harfining maskani bo‘lmish *jon* so‘zi – manzurning javlongohi.

Ma‘lumki, ko‘z – ko‘ngilning oynasi. Yor jamoliga muyassar bo‘lgan ko‘ngil yorishadi. Ko‘z qorachig‘ida makon qurgan yor jamoli chuqur tomir yozadi, ko‘ngilda aks sado beradi, ko‘ngil bog‘ida ishq chechaklari gullaydi, bo‘stonga aylanadi. Shuning uchun lirik qahramon “Sening alifdek qomating niholi mening joni dilim bog‘ida yashnasin va yuzing guli bu bog‘ni gulshanga evirsin,” – deya ilinj-iltijo izhor etadi.²⁷ Mazkur g‘azalda shoir yorning yuzni gulga, oshiqning ko‘nglini bog‘ga, yorning qomatini niholga o‘xshatadi. Baytdagi ikkinchi misrada arab yozuvigagina xos bo‘lgan harfiy san‘at, yashirintashbeh qo‘llangan. *Jon* so‘zi uch arabiy harfdan, ya‘ni “jim”, “alif”, “nun”dan iborat. *Alif* harfi jonning ichida (markazida) joylashgan. Shoir aytmoqchi, “alif” harfi “jon” so‘zining ichida joylashgani singari, sening ham “alif”ga o‘xshagan va nihol yanglig‘ qomating hamisha mening jonimda bo‘lsin.

Buyuk shoirning “Ey sabo,…” shunday misralar bor:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,

Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.²⁸

Sabo (mayin esayotgan shamol)dan kutilayotgan iltifot: yor ishqida kuygan oshiqning azoblarini beparvo ma‘shuqaga yetkazish. Biroq, ma‘shuqaning birinchi belgisi – “sarvi xiromon”ligi ya‘ni juda nozaninligi,

²⁷N.Jumaxo‘ja. Satrlar silsilasidagi sehr. —Toshkent: 1996. —B. 23.

²⁸ <https://tafakkur.net/ey-sabo-holim-borib/alisher-navoiy.uz>

xirom etib yurishi bo'lsa, ikkinchi belgisi – “gulbargi xandon” ochilgan g'unchadek ekanligidir.

Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt.²⁹

Shoirning mazkur baytida “dahr bog'i gullari” birikmasi majoziy ifodalangan. Olamdagi gul – o'simliklarni anglatadi. Shoir ularning go'zalligi vaqtincha ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur birikmani shoir she'rida ko'chma ma'noda – *go'zallar, umuman, tirik jonlar* majoziy ma'nosida qo'llaydi.

Sumanbarlar ichra pari chehvae
Parichehralar ichra devonae³⁰

Ushbu baytda *sumanbar* so'zi qo'llangan bo'lib, undagi *suman* fitonimi *yasmin* ma'nosini bildiradi, *sumanbar* so'zi Navoiy asarlari izohli lug'atida oq badan ma'nosini bildiradi.

Sunbulin Laylo ochiptur, yel abiroso emas,
Dog'ini Majnun qonatmish, lolayi hamro emas. [G'S, 228 -b]

Ushbu g'azal mavzusiga ko'ra oshiqona bo'lsa-da, unda tabiat tasviri yor go'zalligi va oshiq ruhiy holati bilan uyg'unlashib ketgan. G'azalda har bir fitonimdan shoir mahorat bilan foydalangan. Shoir yorning sochini sunbulga o'xshatadi. Ayonki, o'xshatish timsollari hayotiy haqiqatga to'g'ri kelishi, unga zid bo'lmasligi, ikki obyekt o'rtasidagi nozik mutanosiblik mantiqan mos bo'lishi va ular leksik va grammatik jihatdan belgilangan me'yorlar asosida ifodalanish kerak.³¹ Shu talabiy holatlar g'azalda o'z aksini topgan. Baytning ikkinchi misrasida Laylo ishqida ko'ksi yara bo'lgan Majnunning holati lolalarning qip-qizil rangiga tashbih etilgan.

Nastaran ko'zguna bir sari men, bir sari yor,
Chehra aksin ko'rguzupturbiz guli ra'no emas. [G'S, 228 -b]

Shoirlarga ko'ra, oshiq va ma'shuqa chehrasining ko'zgudagi aksi ra'no gulini eslatadi. Shoir guldagi qizil va sariq rang omuxtaligi xususiyatini hisobga olib, uning qizilligini yorning chehrasiga, sariq rangini esa o'zining za'faron yuziga qiyos qiladi. Shoir fitonimlarni g'azalda juda mahorat bilan qo'llagan. Lingvistik metaforalar so'zning ma'no doirasini kengaytirib, yangi semema hosil qilish uchun baza vazifasini bajargan va o'xshatishda bunday xususiyat faqat metafora orqali namoyon bo'lishi isbotlangan.

Baytning botiniy ma'nosi ham bor. *Ra'nogul* tasavvufda ulug'vor go'zallik, mutlaq jamol (Yaratgan)ning ramzini ifodalaydi. Navoiy fikricha, ra'no gullari doimiy emas, Yaratgandan boshqa jahon ra'nosi yo'q. Tasavvuf ta'limotida

²⁹ <https://tafakkur.net/ey-sabo-holim-borib/alisher-navoiy.uz>

³⁰ Каюмов А. Дилкуши такрорлар ва рухафзо ашъорлар. —Т.: 2014. – 272 б.

³¹ Саидов Ё. Ўзбек тили кўчма маъноли сўзларининг изоҳли луғати. –Бухоро: 2021.

fitonimlardan oliyjanob muhabbat egasi — Ollohni tasvirlashda ham foydalanilgan. Gulni sevish bu ollohni sevish, gulga intilish va unga o'zini baxshida qilish Ollohga o'zini baxshida qilishdir.

Baytda *nastarin* fitonimiham keltirilgan bo'lib, u O'TILdaoq, *qizil, rangli xushbo'y guli bo'lgan o'simlik*, deb berilgan³². *Nastarin ko'zgusi* birikmasi orqali shoir bir tomondan lirik qahramon, ikkinchi tomondan suyukli mahbuba ko'zguda o'z aksini namoyon qilganligi, biroq bu hali ra'no guli degani emasligi, ya'ni haqiqiy ishqning mazhari emas, ishq majoziy bo'lib, komillik kasb etishini aytib o'tadi.

Manga gulrux soqiyu bulbulg'a gul tutti qadah,

Mast erur ul ham Navoiydek, vale rasvo emas. [G'S, 228 -b]

Baytda ma'shuqa, uning yuzi gulga o'xshatilgan, gul fitonimi jonlantirilib, u poetik obraz darajasiga ko'tarilgan. Ma'lumki, jonlantirishda jonsiz narsalarga insonga xos xususiyatlar – his-tuyg'u, xatti-harakat kabilar ko'chiriladi, boshqacha tarzda aytganda, ular shaxslantiriladi. Baytning mazmuni quyidagicha: “Menga gul yuzli soqiy, bulbulga esa gul qadah tutdi, u ham Navoiydek mast, lekin u kabi rasvo emas”. Irfoniy yo'nalishga ko'ra, soqiy ma'rifat mayini tarqatuvchi, bulbul esa ishq yo'lida afg'on chekuvchi, oshiqi solik (ishqini faryod chekib izhor qiluvchi) timsolini ifodalaydi. Demak, baytdan kelib chiqadigan umumiy xulosa quyidagicha: “Bulbul ishq to'la qadahni guldan olayotgan bo'lsa, oshiq ma'rifat mayini piri komil qo'lidan olyapti. Bulbul ham ishq yo'lida mast, lekin uning ishqli lirik qahramon darajasida emas, u hali Navoiydek rasvo bo'lgani yo'q, zero oshiqlikning kamoli ishq yo'lida qanchalik “rasvo” bo'lganligi bilan belgilanadi”.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, buyuk mutafakkir ijodida qo'llangan o'simlik nomlarining ko'chma ma'noda qo'llanishi badiiylik kashf etishi bilan birga tarbiyaviy ahamiyati ham yuksak. Yuqorida ko'rib o'tganimiz gul ba bulbul oshiqlikning boisi hamdardlik ekan, hamdardlik insoniy fazilatlardan biri hisoblanadi. Yoki yana bir tahlilda: “Menga gul yuzli soqiy, bulbulga esa gul qadah tutdi, u ham Navoiydek mast, lekin u kabi rasvo emas”, — deyilishi irfoniy yo'nalishga ko'ra, soqiy ma'rifat mayini tarqatuvchisi sifatida akslanishi ham tarbiya hisoblanadi. Biz o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berar ekanmiz Alisher Navoiyning boy ijodiy me'rosi misolida olib borishimiz va undan o'rinli foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин (Насрий баёни билан). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 591 б.

³² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. —Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. III. 2007. - 688 б.

2. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. –Т.: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1959.

3. Алишер Навоий Ғазаллар, шарҳлар.Тўплаб нашр, тайёрловчилар: А. Шаронов, Б. Эшпўлатов.— Т., Камалак, 1991. - 176 б.

4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тўртинчи том. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб.Т.: —1989. 526 б.

5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 3. Ғаройиб ус сиғар Т.: «Fan», 1988 -560 б

6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 4. Наводир уш-шабоб.— Т.: «Fan», 1989 -560 б.

NAVOIY ASARLARIDA NAQSHBANDIYA TARIQATI TIMSOLLARI

Maxmudova Sadoqat Xolmatovna,

BuxDPI dotsenti

Tursunova Orzigul Maxmudovna,

BuxDPI talabasi

Annotatsiya: Alisher Navoiy asarida uchraydigan naqshbandiyaga doir mulohaza, sharhlar va qaydlarning ko'p qismi bevosita tariqat qoida va talablariga daxldor. Shu mazmundagi mazkur maqolada asarlarda uchraydigan naqshbandiyaga doir mulohaza, sharhlar va qaydlarning tahlili o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, g'azal, tasavvuf, naqshbandiya tariqati, qit'a, she'r.

Аннотация: большая часть комментариев, комментариев и заметок о Накшбанди, встречающихся в творчестве Алишера Навои, напрямую связана с правилами и требованиями секты. В этой статье представлен анализ суждений, комментариев и заметок, касающихся узоров, встречающихся в произведениях.

Ключевые слова: Алишер Навои, Газель, суфизм, секта накшбандия, континент, поэзия.

Annotation: Bolshaya Chast kommentariyev, kommentariyev I zametok O Nakshbandi, vstrechayutshixsya v tvorchestve Alishera Navoi, napryamuyu svyazana s pravilami I trebovaniyami sekti. V Etoy state predstavlen analiz sujdeniy, kommentariyev I zametok, kasayutshikhsya uzorov, vstrechayutshikhsya V proizvedeniyakh.

Keywords: Alisher Navoi, Gazelle, Sufism, Naqshbandiya sect, continent, poetry.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy she'riyatidagi ma'lumotlar mohiyat ikki nuqtai nazaridan maqsadga qaratilganligi kuzatiladi:

Bahouddin Naqshband hayoti va ma'lumoti tarixi haqida umumiy ma'lumot berish. Albatta, bunday ma'lumotlar oddiy xabar bo'lmay, muallifning shaxsiy munosabatini ifodalaydi: «Hayrat ul-abror»ning muqaddima boblaridan biri Xoja Bahouddin bilan Xoja Ahrori Valiyga bag'ishlangan madhdan iborat. Ma'lumki Navoiy «Xamsa»da Payg'ambarimiz (s.a.v.) haqidagi an'anviy na'tdan keyin faqat o'zining «Xamsa»navis salafлари va ulug' zamondoshlari (Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro)ga maxsus madhiyalar bag'ishlagan. Mazkur ikki otga «Xamsa» muqaddimasidan joy berilishining o'ziyoq muallifning naqshbandiya tariqatining asoschisi va o'z zamonidagi buyuk namoyandasiga nisbatan katta e'tibori va e'tiqodidan dalolat qiladi. O'zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi ulug' mo'tasavvif shoir Alisher Navoiy g'azallaridan birida tasavvufni xilofu ixtilofi bo'lmagan, riyo va manmanliq da'voyu ta'mani inkor etadigan bir ulug' ta'limot, u inson ziynati, tiynatini poklovchi obi hayotdir, deya ta'riflaydi:

Birovga musallam tariqi tasavvuf
Ki, zotiga mavjud emasdur taxalluf.
Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,
Erur istilohoti zebu takalluf.
Qilib Haq vujudida mahv o'z vujudin,
Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf.

Alisher Navoiy asarida uchraydigan naqshbandiyaga doir mulohaza, sharhlar va qaydlarning ko'p qismi bevosita tariqat qoida va talablariga daxldor. Shu mazmundagi maxsus she'r yoki baytlarni qit'a, g'azal, tarji'band kabi she'rlar tarkibida ham, «Lison ut-tayr», xususan, "Xamsa" dostonlarida ko'plab uchratamiz. Bunday mulohaza yoki shayxlarning o'zini ham mohiyatan ikki guruhga ajratish mumkin: Tariqatning eng asosiy umdalari haqida (yaxlit) fikr yuritilgan matnlar hamda uning biror qoidasi sharhlangan she'rlar. Birinchi guruhning yorqin namunasi sifatida Navoiyning yigitlik davriga mansub quyidagi qit'ati ko'rsatish mumkin:

Damingdin yiroq tutmag'il hushni,
Ki, yuzlanmagay har dam ofat sanga.
Bu to'rt ish bila rub'imaskun aro
Cholinmoq, ne tong, ko'si davlat sanga.

Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga. » (G'S, 724-bet)

Alisher Navoiy merosi shunday buyuk bir xazinaki, undan xalqimiz tarixining eng qadim zamonlardan to XV asr oxirigacha bo'lgan davriga tegishli deyarli har qanday masalaga oid munosabat, hech bo'lmasa, muhim bir ma'lumot topasiz. Xoja Bahouddin Naqshband (1318–1389) hayoti va faoliyati, xojagon-naqshbandiya ta'limoti tarixi, g'oyalari targ'ibi, bu tariqat vakillari hayoti va faoliyati bo'yicha turkiy tilda ulug' o'zbek shoiri, mutafakkiri Alisher Navoiy asarlaridan ko'ra boyroq va mukammalroq boshqa biron manba yo'q. Shuning uchun Naqshband va Navoiy masalasi faqat adabiyotshunoslikka emas, amalda dinshunoslik, tasavvufshunoslik, falsafashunoslik, tarixshunoslik, ma'naviyatshunoslik, mafkurashunoslik va fanning yana ko'plab sohalari izchil shug'ullanishi lozim bo'lgan mavzu hisoblanadi. Binobarin, hozirgacha bu borada bir qadar ilmiy ishlar dunyoga keldi va ilgari yaratilgan kitoblar chop etildi. Navoiy asarlarida Xoja Bahouddin Naqshband ta'rifi masalasini yoritish uchun, avvalo, ulug' mutafakkir merosida ana shu buyuk avliyoga, umuman, naqshbandiya tariqatiga munosabat, shuningdek, shoir ijodida naqshbandiya ta'limoti g'oyalari targ'ibining ko'rinishlari va yo'nalishlarini aniqlab olish lozim. Masalaga shu jihatdan yondashsak, quyidagi manzara namoyon bo'ladi:

Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini yoritish (“Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”).

Xojagon – naqshbandiya tariqati vakillari hayoti va faoliyatini yoritish (“Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Majolis un-nafois”, “Siroj ul-muslimin”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Arba'in”).

Naqshband va naqshbandiyalar badiiy timsollarini yaratish (“Hayrat ul-abror”, “Lison ut-tayr”).

Badiiy asarlarda naqshbandiya ta'limoti g'oyalarini targ'ib etish (“Xazoyin ul-maoniy”, “Devoni Foniy”, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab'ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Siroj ul-muslimin”).

Bu yo'nalishlarning har biri alohida-alohida tadqiqotga mavzu bo'lgulik darajada katta qamrovga ega. Ammo ilmimizda hali masala aynan shu tarzda qo'yilib, kompleks ravishda izchil o'rganilganicha yo'q. Bu yo'nalishlar yuzasidan qarashlarimiz ham muntazam ravishda o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boryapti. Shuning uchun ham davrlar o'tgani sayin ulug' avliyo

Naqshband bilan dohiy shoir Navoiyni o'zaro bog'lab turgan talay rishtalarni izchil va teran o'rganishga ehtiyoj kuchaygandan-kuchayib boraveradi. Chunki tasavvuf tarixida naqshbandiya eng so'nggi mukammal tariqat ekani, Navoiy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksak cho'qqisi hisoblanishi, uning asarlarida bu tariqat muallifning asl e'tiqodi, mafkurasi yanglig' namoyon bo'lgani inobatga olinsa, bu xususda so'z yuritishning ahamiyati o'z-o'zidan ayonlashadi. Shu tariqa hayot bilan falsafaning, falsafa bilan tasavvufning, tasavvuf bilan adabiyotning, adabiyot bilan g'oyaning, g'oya bilan so'zning bir-biriga chambarchas aloqasi ochila boradi. Eng muhimi, shu asosda biz Naqshband bilan Navoiyning bashariyat shuuriy xazinasiga buyuk hissa bo'lib qo'shilgan durdona fikru g'oyalaridan bugunimiz uchun bevosita kerak bo'ladigan muhim jihatlarni ham topamiz. Bunday o'ylab qaralsa, bu dunyoda o'zi bor-yo'g'i birgina ijtimoiy muammo bor. Qolgan jamiki muammolar – nazarimda, ana shu bosh masalaning bo'laklari, tarmoqlari yoki oqavalari.

Bu – bosh muammo, nima?

Bu – mehnat va mahsulot taqsimoti, kishilarning ishlashga va, aksincha, mehnat tufayli barpo etilgan boyliklarga egalik qilishga munosabatlari. Naqshbandiya tariqati jahonning ana shunday eng muhim ijtimoiy muammosi – mehnatga va uning natijasida erishiladigan boylikka munosabat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor beradi. “Dil – ba yor-u, dast – ba kor!” shiori soliklarning mehnat qilib turib ham tasavvuf bilan mashg'ul bo'lishi mumkinligini isbotlaydi va shunga undaydigina emas, hatto, so'fiyni o'z mehnati, ya'ni qo'l kuchi bilan tirikchilik qilishga ham da'vat etadi. Agar har kim o'z mehnati ila tirikchilik o'tkazsa, boyliklarga faqat mehnati darajasidagina ega bo'lishga intilsa, bu dunyoda nohaqlik yuz bermaydi, ijtimoiy adolat tantana qiladi. Naqshbandiya yo'lga kirganlar uchun bu shunchaki bir g'oya emas edi. Ular shu aqidalariga qat'iy amal qilib yashar edi. Bu tariqat jahonning ana shu, eng asosiy deyayotganimiz, ijtimoiy muammosini har kimning o'zi adolat bilan hal etishiga chorlar edi. Navoiy tazkirasida Naqshbandning o'zgarlar mehnatidan foydalanmasliklari aytiladi:

“Derlarki, alarg'a hargiz qul va dadak (cho'ri) bo'lmas ermish. Alardan bu ma'nida so'rubturlar. Alar debturlarki: “Qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur?!”.

Demak, agar inson Allohning quli bo'lsa-yu, u yana qanday qilib birovni o'ziga qul qilib oladi? Naqshbandiya xojalikni emas, mehnatkashlikni targ'ib qilgani jihatidan ham o'z davri uchun ulkan ijtimoiy hodisa edi va bu hozir uchun ham nihoyatda ahamiyatli. “Qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur!” degan so'zlar – hammaning ham Alloh oldida teng bir banda ekanini

targ'ib qilishdir! Islom ta'limoti Navoiy uchun bir bepoyon dengiz bo'lsa, tasavvuf suvini ana shu dengizga quyadigan bir daryo yanglig' edi. Naqshbandiya tariqatini esa ana shu daryoning eng katta irmog'iga o'xshatish mumkin. Ulug' shoir islom ta'limoti dengiziga tasavvuf daryosi, tasavvuf daryosiga naqshbandiya irmog'i orqali suzayotgan bir kema yanglig' ijod etdi. Shuning uchun bobokalonimiz umr bo'yi ana shu o'ziga eng yaqin irmoq suvlaridan ko'p ichgan. Turkiy so'z san'atida esa hali hech bir sohibi qalam naqshbandiya irmog'i suvlaridan ulug' o'zbek shoirichalik qonib-qonib no'sh etmagan bo'lsa kerak. Naqshbandiya irmog'i esa, asosan, hazrati Naqshband bulog'idan suv oladi. Bir narsani unutmash kerak: ayrim shoirlarimiz, masalan, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy uchun tasavvuf – maqsad, adabiyot esa – vosita edi. Ba'zi sohibi qalamlar nazdida, masalan, Navoiy uchun adabiyot – maqsad, tasavvuf esa – vosita edi. Boshqacha aytganda, Yassaviyu Boqirg'oniy odamlarni tasavvuf orqali tarbiyalamoqchi bo'ldi. Buning uchun ular adabiyotga suyandi. Navoiy kishilarni adabiyot orqali ezgulik sari yetakladi. Buning uchun u tasavvufga suyandi. Navoiy ijodida tasavvuf bilan adabiyot oliy darajada o'zaro uyg'unlashdi. Bu uyg'unlikning asosini esa naqshbandiya tashkil etadi. Navoiy zamonasining eng peshqadam ziyolisi sifatida davr uchun rasm bo'lgan tariqatni qabul qildi va o'z ijodi bilan uning yanada ommalashishi, teranlashishi, ta'sirchan bir mafkuraga aylana borishiga ulkan hissa qo'shdi.

Navoiyda naqshbandiylik izlarini qidirish adabiyotimiz tarixining keyingi davrlarini o'rganish uchun ham juda-juda asqatadi. Chunki o'zbek adabiyoti Navoiydan keyin g'oyaviy-e'tiqodiy jihatdan naqshbandiyasiz yashay olmas edi hisob. Navoiydan keyingi mashhur shoirlarimiz bo'lmish Bobur, Mashrab, Ogahiy ijodida ham naqshbandiya g'oyalari targ'ibi izchil davom etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Хамса, Танқидий матн, Нашрга тайёрловчи П. Шамсийев. Т.: "Фан", 1960 й.
2. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. -Т.: Мовароннаҳр-Ўзбекистон, 2009 й.
3. Алишер Навоий. "Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд.-Т.: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-марбаа ижодий уйи, 2013.
4. Муҳиддинов М.Қ. Комил инсон - адабиёт идеали. - Т.: Маънавият, 2005.

ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Nurova Nargiza O'rinovna,
Kogon tumanidagi 18-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida ta'lim-tarbiya masalalari hamda odob-axloq masalalari va oilada tarbiya kabi zamonning muhim hamda dolzarb bo'lgan muammolariga bag'ishlangan asarlar xususida fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: G'azallar, devonlar, tuyuqlar, diniy-axloqiy asarlar, "Xamsa" asari, she'riy devon, "Hayrat-ul abror" dostoni.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, yirik mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi, adabiy tilimizni kamolotga yetkazgan Amir Nizomiddin Alisher binni G'iyosiddin Navoiy hijriy yil hisobi bilan "o'n yettinchi ramazon oyi sana 844-tovuq yili" (milodiy 1441-yil 9-fevral) Xuroson davlatining yirik shahri Hirotning Bog'i Davlatxona mavzeyida xizmatchi oilasida dunyoga keladi.

Alisher bolaligidanoq o'zining o'tkir zehni, ziyrakligi, xush xulqi va xushfahmliligi bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turgan. Bo'lg'usi shoir 1445-yildan boshlab maktabga boradi va she'r eshitish, she'r o'qish va yodlashga qiziqadi, she'riyatga mehr qo'yadi. Hayoti davomida Navoiy musulmon Sharqining turli mamlakatlarida bo'ladi, o'z davrining taniqli shaxslari bilan ko'rishadi. O'zining she'riy mahoratini oshiradi. 1464-1465- yillar Navoiy ijodining shinavandalari uning ilk she'riy to'plamini (devonlari) tayyorlashadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'sha davrlardayoq Navoiy mashhur shoir bo'lib ulgurgan. 1469-yilgacha temuriylar o'rtasidagi o'zaro ichki nizolar tufayli Navoiy o'zining ona shahri Hirot dan uzoqda yashashga majbur bo'lgan.

1469-yil temuriy Husayn Boyqaro Hirot ni egallaydi va Xuroson hukmdori bo'ladi. Shu vaqtdan e'tiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Shu yili Xuroson hukmdori Navoiy ni davlat muhrdori etib tayinlaydi, 1472-yil vazir bo'ladi. Egallagan mansabi orqali u mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko'rsatadi. Katta mulk egasiga aylanadi.

1480-yil Hirot shahrida va boshqa viloyatlarda o'z hisobidan bir nechta madrasa, 40 ta rabot (yo'lovchilar uchun bekat), 17 ta masjid, 10 ta so'fiylar turarjoyi (xonaqoh), 9 ta hammom, 9 ta ko'prik va boshqalarni qurdiradi.

Biroq, saroy amaldorlariga Navoiyning bu kabi faoliyati yoqmaydi va turli fitnalar orqali Husayn Boyqaro bilan munosabatlarini buzishadi.

Shunday qilib, Navoiy egallab turgan mansabidan ozod etilib, 1487-yil Astrobod shahriga hukmdor sifatida yuboriladi. Bu yerda u ikki yil xizmat qiladi. Mazkur muddat nihoyasiga yetgachgina, H. Boyqaro unga Hirotga qaytib, hokimiyatda mansabga ega bo'lishiga ruhsat beradi. Lekin Navoiy bu taklifni rad etadi. Rad javobiga qaramay, Boyqaro sultonning yaqin kishisi lavozimini ("mukarrabi xazrati sultani") taklif etadi. Bunday lavozimda Navoiy barcha davlat ishlari bilan bog'liq ishlarda qaror qabul qilish huquqiga ega edi.

Shu vaqtdan Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi va u ko'proq ijod bilan shug'ullanadi. U yaratgan asarlarining katta qismi aynan shu davrga tegishli. Navoiy temuriylarning so'nggi hukmronlik yillarida (1370-1506) yashab ijod qilgan. Shuning uchun uning asarlarida jamoat ruhi, davrga xos muhim muammolar ustundir. 1490-1501 yillar Navoiy eng nafis, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarini yaratgan. Navoiy Mashhadda Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadlar bilan yaqin do'st bo'ladi va bu ma'rifatparvar kishilar haqida keyinchalik "Holati Sayid Hasan Ardasher", "Holati Pahlavon Muhammad" kabi adabiy-biografik asarlar yozadi.

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning bilim saviyasi, qobiliyati va she'riy iqtidoridan xursand bo'lgan Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug'shoir o'rtasidagi ustozlik va shogird munosabatlari yanada mustahkamlanib, hamkorlikka aylanadi. Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo'la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo'shgan; ilm, fan, san'at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan.

Ko'rib turganimizdek, Navoiy merosi mavzu va janrlari bo'yicha turlidir. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o'zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari taqlid va ilhom manbai bo'lib hisoblanib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 3-jild. –T.: "Fan", 2017. 550-b.
2. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 5-jild. –T.: "Fan", 2017. 493-b.
3. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 5-jild. –T.: "Fan", 2018. 599-b.
4. Shodiyev Fakhridin Teshaevich. Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. Doi: 10.5958/2249-7137.2021.02536.2.

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy.

ALISHER NAVOIY LISONI O'ZBEK ADABIY TILINING OLTIN MEROSI SIFATIDA

Latifova Maftuna Yashin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti,

O'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi

Olimjonova Gulasal Baxtiyor qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, Tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada lisoniy birliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan, Navoiyning til va nutq haqidagi fikrlari hamda bir qator misollar yordamida izohlangan.

Kalit so'zlar: lison, morfema, sistema, qolip.

АННОТАЦИЯ: В статье размышляются о языковом разделении и правовых документах, на нескольких примерах поясняются мысли Навои о языке и речи.

Ключевые слова: язык, морфема, система, шаблон.

Abstract: The article reflects on linguistic divisions and legal documents, using several examples to explain Navoi's thoughts about language and speech.

Key words: language, morpheme, system, pattern.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, yirik mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi, adabiy tilimizni kamolotga yetkazgan Amir Nizomiddin Alisher binni G'iyosiddin Navoiy hijriy yil hisobi bilan "o'n yettinchi ramazon oyi sana 844-tovuq yili" (milodiy 1441-yil 9-fevral) Xuroson davlatining yirik shahri Hirotning Bog'i Davlatxona mavzeyida xizmatchi oilasida dunyoga keladi.

Alisher bolaligidanoq o'zining o'tkir zehni, ziyrakligi, xush xulqi va xushfahmliligi bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turgan. Bo'lg'usi shoir 1445-yildan boshlab maktabga boradi va she'r eshitish, she'r o'qish va yodlashga qiziqadi, she'riyatga mehr qo'yadi. Hayoti davomida Navoiy musulmon Sharqining turli mamlakatlarida bo'ladi, o'z davrining taniqli shaxslari bilan ko'rishadi. O'zining she'riy mahoratini oshiradi. 1464-1465- yillar Navoiy ijodining shinavandalari uning ilk she'riy to'plamini (devonlari) tayyorlashadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'sha davrlardayoq Navoiy mashhur shoir bo'lib ulgurgan. 1469-yilgacha temuriylar o'rtasidagi

o'zaro ichki nizolar tufayli Navoiy o'zining ona shahri Hirotidan uzoqda yashashga majbur bo'lgan.

1469-yil temuriy Husayn Boyqaro Hirotni egallaydi va Xuroson hukmdori bo'ladi. Shu vaqtdan e'tiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Shu yili Xuroson hukmdori Navoiyni davlat muhrdori etib tayinlaydi, 1472-yil vazir bo'ladi. Egallagan mansabi orqali u mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko'rsatadi. Katta mulk egasiga aylanadi.

1480-yil Hirot shahrida va boshqa viloyatlarda o'z hisobidan bir nechta madrasa, 40 ta rabot (yo'lovchilar uchun bekat), 17 ta masjid, 10 ta so'fiylar turarjoyi (xonaqoh), 9 ta hammom, 9 ta ko'prik va boshqalarni qurdiradi. Biroq, saroy amaldorlariga Navoiyning bu kabi faoliyati yoqmaydi va turli fitnalar orqali Husayn Boyqaro bilan munosabatlarini buzishadi.

Shunday qilib, Navoiy egallab turgan mansabidan ozod etilib, 1487-yil Astrobod shahriga hukmdor sifatida yuboriladi. Bu yerda u ikki yil xizmat qiladi. Mazkur muddat nihoyasiga yetgachgina, H. Boyqaro unga Hirotga qaytib, hokimiyatda mansabga ega bo'lishiga ruhsat beradi. Lekin Navoiy bu taklifni rad etadi. Rad javobiga qaramay, Boyqaro sultonning yaqin kishisi lavozimini ("mukarrabi xazrati sultani") taklif etadi. Bunday lavozimda Navoiy barcha davlat ishlari bilan bog'liq ishlarda qaror qabul qilish huquqiga ega edi.

Shu vaqtdan Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi va u ko'proq ijod bilan shug'ullanadi. U yaratgan asarlarining katta qismi aynan shu davrga tegishli. Navoiy temuriylarning so'nggi hukmronlik yillarida (1370-1506) yashab ijod qilgan. Shuning uchun uning asarlarida jamoat ruhi, davrga xos muhim muammolar ustundir. 1490-1501 yillar Navoiy eng nafis, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarini yaratgan. Navoiy Mashhadda Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadlar bilan yaqin do'st bo'ladi va bu ma'rifatparvar kishilar haqida keyinchalik "Holati Sayid Hasan Ardasher", "Holati Pahlavon Muhammad" kabi adabiy-biografik asarlar yozadi.

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning bilim saviyasi, qobiliyati va she'riy iqtidoridan xursand bo'lgan Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug'shoir o'rtasidagi ustozlik va shogird munosabatlari yanada mustahkamlanib, hamkorlikka aylanadi. Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo'la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo'shgan; ilm, fan, san'at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan.

Ko'rib turganimizdek, Navoiy merosi mavzu va janrlari bo'yicha turlicidir. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o'zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari taqlid va ilhom manbai bo'lib hisoblanib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 3-jild. –T.: “Fan”, 2017. 550-b.
2. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 5-jild. –T.: “Fan”, 2017. 493-b.
3. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 5-jild. –T.: “Fan”, 2018. 599-b.
4. Shodiyev Fakhriddin Teshaevich. Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. Doi: 10.5958/2249-7137.2021.02536.2.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy.

SO'Z SAN'ATINING BUYUK NAMOYANDALARI: HAZRAT ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA UMUMBASHARIY G'OYALAR TALQINI

Ostonova Umida Usmonovna,
Kogon tumanidagi 1-maktabning
oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola so'z san'atining buyuk namoyandasi, badiiy adabiyotning barcha janrlarida ijod qilgan olim Hazrat Alisher Navoiyning boy va rang-barang ijodiy merosini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, maqolada Alisher Navoiy merosini dunyoning turli burchaklaridan kelgan olimlar tomonidan qanday tadqiq etilganligi haqida so'z boradi. Bundan tashqari, buyuk davlat arbobi va ilg'or ma'rifatparvar shoir Zahiriddin Muhammad Boburning fikr-mulohazalari ham keng mushohada etilgan. Bobur adolatli podshoh sifatida adolatli jamiyatga asos solgani haqida ma'lumotlar bor.

Kalit so'zlar: nutqning go'zalligi, badiiy so'z, nutq madaniyati, nutqning nozikligi, hikoyachi, toady, shohda ziyofat, so'z rassomi, fikrlash fanining sultoni, davriy tadbir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni e'tirof etgan: “Dunyodagi har bir mamlakat, har bir millat, avvalo, o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan kuchli, shu nuqtai nazardan turkiy xalqlarning qudratli vakili o'zbek xalqining buyuk siymosi Alisher Navoiydir.” [Mirziyoyev, 2020: 1]

Alisher Navoiyning boy va rang-barang ijodiy merosini to'liq o'rganish, uning asarlarini keng targ'ib etish va alloma xotirasini abadiylashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Zero, buyuk mutafakkir asarlarini nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham o'rganishga qiziqish katta.

Metodologiya

Alisher Navoiy so'z san'atkori, fikr sultoni, buyuk shoir. Bugungi kunda navoiyshunoslik sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, bizga ma'lumki, oliy ta'lim muassasalari, xususan, buyuk siymo xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan to'garaklar, kurs va treninglar, mamlakatimiz va qator xorijiy davlatlarda alloma haykallarini o'rnatish, asarlarning to'liq nashr etilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Alisher Navoiyning tili va so'z boyligi mukammallikni talab etadi. Navoiy dunyosi nihoyatda betakror bo'lgani uchun uni cheksiz ummon deb hisoblash mumkin. Shoir asarlari tiliga oid ilmiy izlanishlar, tilshunoslikdagi bu boradagi nazariy qarashlar, muallifning "Muhokamat-ul lug'atayn" risolasida va boshqa asarlarida bayon etilgan fikrlar Navoiy tilshunoslik olamining umumiy va muhim nuqtalarini tasvirlashga yordam beradi [Borovkov, 1946: 92].

Alisher Navoiy asarlarini o'rganish, uning sirli til olami bilan tanishish juda muhim [1-4]. Alisher Navoiyning she'rlari, nasriy asarlari, diniy, tarixiy, falsafiy va ma'rifiy risolalari har qanday inson tasavvuridagi barcha kuch-qudrat va ulug'vorlik timsolidir. Alisher Navoiy-butun turkiy dunyo, jahon adabiyotining noyob namoyandasi. Uning merosi, shoirning o'ziga xos nutq go'zalligi, o'z so'zlari bilan aytganda, uning fikrlari hamma odamlar tomonidan aziz va hurmatlidir. Navoiy merosi biz uchun ayniqsa qadrlidir [6-nashr, 1947].

Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda Alisher Navoiydan meros bo'lib qolgan nutq madaniyati, adabiyot, til va ijtimoiy g'oyalar muhim o'rin tutadi. Uning ijodi va nutq madaniyati haqidagi g'oyalari uni notiq darajasiga ko'tardi. Ma'lumki, nutq odobi, muloqot madaniyati, shaxslararo munosabatlar bularning barchasi nutq orqali tug'iladi va amalga oshiriladi. Jonli, chuqur so'zning ta'siri uning odamlarni xursand qilish qobiliyatida aks etadi. Yozma adabiyotning dastlabki namunalardan to hozirgi kungacha yaratilgan va yaratilayotgan deyarli barcha asarlarda so'zning buyuk kuchi maqtovga sazovor bo'lgan.

Alisher Navoiyning notiqlik haqidagi hikoyasida shoir nima uchun voizlarga qiziqish bildirgan va nima uchun ularning ijodini o'rgangan degan savol tug'iladi.

Alisher Navoiyning o'zi ham o'z davrining eng notiq shoirlaridan edi. Uning voizlik mavzusiga bo'lgan qiziqishi uning nihoyatda chuqur bilimga ega ekanligini va turli dunyoviy fanlarni o'rganish orqali bilimlarini oshirganligini ko'rsatadi [Lug'at, 1961: 265].

Darhaqiqat, muammoni o'rganishdan oldin, ushbu masala bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish, uni to'g'ri hal qila olishni anglatadi.

Alisher Navoiy va'zgo'ylikning nazariy tahlilini ham olib borgan. Shoir badiiy ifoda bilan shug'ullanadiganlarni "nadimlar, qissago'ylar, masalogo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, problemogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidalar" ga ajratadi.

Navoiyning fikricha, ular kuchli, yoqimli va jozibali ovozga ega bo'lishi kerak. Ular o'z so'zlariga, o'z nutqiga e'tibor qarata oladigan, omma oldida ehtirosli nutq so'zlashni yaxshi bilishlari kerak[5-7].

Alisher Navoiyning nutq madaniyati va ritorika haqidagi qarashlari uning til, nutq, ritorika, nutq madaniyati, nutq odobi, nutq nafisligi haqidagi teran fikrlarida o'z aksini topgan. Professor Ernest Begmatovning so'zlariga ko'ra, shoirning nutq odobi talqinlarida:

- 1) nutq, uning og'zaki va yozma shakli;
- 2) nutq faoliyati ustalari;
- 3) nutqning paydo bo'lish usullari;
- 4) nutq uslublari;
- 5) nutqdagi ma'no va shakl, ularning uyg'unligi;
- 6) nutq ohangi; uning ko'rinishlari;
- 7) nutq odobi;
- 8) nutq nozikligi (estetika) kabi muammolar qayd etildi.

Ushbu muallifning fikriga ko'ra, Alisher Navoiy ma'ruzachilarni nutq mukammalligi va nutq maqsadidan kelib chiqqan holda ikki guruhga-ijobiy sifat so'zlovchilari va salbiy sifat so'zlovchilariga ajratgan[8]. Muallif ijobiy sifatli ma'ruzachilarni "pubertal shiori, bahor, guharpo'sh, durbor, nuktadon, sehr, shirin kabi 80 dan ortiq iboralarda tasvirlaydi.

Sharq mutafakkirlarining jamiyat, davlat boshqaruvi, huquq haqidagi qarashlarining shakllanishi va rivojlanishi haqida ko'plab asarlar yozilgan, ular orqali davlatchilik, ijtimoiy hayot, siyosat, demokratiya, mustaqillik, Qonunchilik, adolat va boshqalar haqidagi fikrlarimiz yanada mazmunli va mazmunli bolib bormoqda. Bunday tushunchalar va barcha milliy

qadriyatlarimiz xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga, ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar davrida qayta kuzatilayotgan ikkinchi uygonish davri goyalariga kuchli tasir korsatdi.

Xalqimizning orzu-intilishlari Mirzo Ulugbek, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ikkinchi uygonish davrining buyuk namoyondalarini uygotdi, ularning asarlari va faoliyatida adolatli podshoh, adolatli jamiyat va komil inson goyalarida namoyon boldi. uning talqinini topdi.

Buyuk davlat arbobi va ilgor marifatparvar mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur goyalari xalqimiz bunyodkorlik faoliyatiga kuchli tasir korsatdi. U markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvorligiga ega adolatli jamiyat goyasida mujassamlashgan. Aynan shu davrda xalq totuvligini royobga chiqarish istagi nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki kuchli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san'at, ilm-fanni rivojlantirishga xizmat qildi. Uning siyosiy qarashlarida Markaziy orinni jamiyat va davlat boshqaruvi egallagan. ICA davlatlar haqida oylar ekan, ularni ikki turga ajratadi:

1. Adolatli, markazlashgan davlat;
2. Adolatsiz, tarqoq davlat.

Doimo adolatli, markazlashgan davlat tarafdori bolgan Bobur davlatni adolatli, marifatli podshoh boshqarishi kerak, deb hisoblaydi. U adolatsiz va adolatsiz davlat haqida salbiy fikr bildirdi va adolatsiz davlat shakllaridan biri sifatida ikki tomonlama hokimiyatni izohlaydi.

" ...Muhammad Burunduqbek va Zunnunbek va yana Sulton Husayn Mirrodin Qoqon va bu mirzolar bila shahzodalarni to'plab, ittifoq tuzdilar va Badi'uzzaman Mirzo bila Muzaffar Husayn Mirzoni Hiri taxtiga Bashir shohi qildilar. Badi'uzzaman Mirzo eshik oldida sohibixtiyor Zunnunbek, Muzaffar Husayn Mirzo eshik oldida sohibixtiyor Muhammad Burundug'bek. Bad'uzzamon Mirzo tarafidin Yusuf Ali oqsoqol. Bu g'alati edi, hech qachon shohlikdagi kompaniya haqida eshitmagan...".

Boburning fikricha, ikki tomonlama hokimiyatning salbiy tomoni shundaki, bu ikki shohning hech biri davlatni himoya qilishda, armiya qo'mondonligida shaxsiy mas'uliyat va tashabbusni o'z zimmasiga olmaydi. Natijada, mamlakat dushman tomonidan bosib olinadi va mamlakatni xitoyliklar boshqaradi. Bobning aytishicha, qo'shaloq Qirollik guruhlash, turli fitnalarning avj olishiga va oxir-oqibat mamlakatning parchalanishiga va vayronagarchilikka olib keladi. "...Bu fon Boqibek Mangga sabzi va marrot

sizning erdikim qarshi: bir viloyatida ikki shohlar va bir cherikka ikki Miri Sipah mujibi Tafrika, halokat, va sababi fitna va tarqoqlik emas.

Bobur barcha narsa va hodisalar avvalo Allohning irodasiga, davlatni, jamiyatni, shu jumladan shaxsni tubdan takomillashtirish va rivojlantirishga, adolatli, ma'rifatli podshohga bog'liq, deb hisoblagan.

Boburning davlat haqidagi qarashlarida adolatli, markazlashgan davlatning namunasi Amir Temur saltanati, boshqaruvning eng maqbul yo'li Sohibqironning Davlat boshqaruvi edi. Boburning davlat faoliyatining asosiy yo'nalishi iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli markazlashgan davlatni tiklash va mustahkamlash edi. U davlat rahbari sifatida hamisha ustoz bo'lgan bobosi Amir Temurdan o'rnak olishga, mamlakat manfaatlarini ko'zlab, Adolat bilan ishlashga harakat qilgan. Bobur davlatga, mansabga o'tirganda oddiy mehnat ahlini unutishni qoraladi va amaldorni o'zini kamtar tutishga, inson qadr-qimmatini haqida o'ylashga, mehnat qilishga chaqirdi.

“Davlatqa etib mehnat elin unutma,
Bu besh kun uchun o'zingni asru tutma,
Borg'oni kel emdi, yod qilmay, ey do'st,
Borish-kelishingni lutf etib o'ksutma”.

Bobur davlatsiz jamiyatni tasavvur qila olmaydi. U ma'lum darajada davlatni ilohiylashtiradi, shohni Imom bilan taqqoslab, Xudoning Yerdagi “soyasi” ekanligiga ishonadi. Bunday so'zning maqsadi davlat tuzumini maqtash emas, balki mamlakatni ko'pchilik boshqarmasligi kerakligini, davlatning birligini, osoyishtaligini saqlash uchun barcha shohlarga bo'ysunishi kerakligini ta'kidlashdir.

Natija

Bobur shohning saroydagi faoliyatini juda yuqori darajaga olib chiqdi. Amir va uning xo'jayinlari, shuningdek, oddiy fuqarolar uning hurmatini joyiga qo'yishdi. U saroydan va mahalliy amaldorlardan oddiy fuqarolarga nisbatan doimo rahmdil bo'lishni, ma'muriy ishlarni o'z nazorati ostiga olishni va mamlakatda adolat o'rnatishga harakat qilishni, mulk daxlsizligini va qo'l ostidagi fuqarolarning ismini ta'minlashni, ularni qaroqchilardan himoya qilishni talab qildi. Bobur Hindistonga ilk bor kelishi bilan Behra Amir va uning shahzodalariga mahalliy aholi mulkini talon-taroj qilmaslik to'g'risida “G'oz Boburiy” deb nomlangan o'lchov birligini qo'llagan va bu birlik Jahongir hukmronligi oxirigacha amalda qo'llanilgan.

Bobur hukmdor sifatida fuqarolarning mol-mulki va qadr-qimmatini himoya qilish uning asosiy burchi ekanligini bilgan va shuning uchun ham ularning ishonchini qozongan. Oddiy fuqarolar undan hurmat - e'tibor va

rahm-shafqat himoyasini kutishgan. U qo'l ostidagi ofitserlar ularning buyruqlarini qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatib bordi va fuqarolarning turmush farovonligini qat'iy nazorat qildi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini yanada barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali ifodalagan. Uning ilm-fan, ma'rifat va axloq masalalariga bo'lgan qarashlari uning ilmiy, falsafiy va didaktik asarlarida o'z aksini topgan. Buyuk san'atkor va mutafakkir Navoiy bir qancha asarlarida yoshlar tarbiyasi haqida fikr bildirgan, jumladan, uning "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari falsafiy-ma'rifiy dostonlar sirasiga kiradi. Bu asarlarda Navoiy o'zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy masalalariga katta e'tibor bergan [Alisher Navoiy asarlari, 2021]. Dostonda yovuz fazilatlar qoralanadi, ikkiyuzlamachilik va ikkiyuzlamachilik holatlari keskin fosh etiladi. Xususan, Navoiy saxiylik, odob va kamtarlik, ota-onaga hurmat, halollik va halollik fazilatlarini, ilm va kamtarlikning afzalliklarini ulug'laydi. Hayrat ul-Abrorning bir necha boblari axloq va tarbiyaga bag'ishlangan. Ushbu dostonning oltinchi maqolasida Navoiy odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiya borasida o'zining qimmatli qarashlarini bayon etgan. Ushbu asarda mag'rur va odobsiz odamlar qoralanadi. Dostonning maqolasida shoir yosh avlod tarbiyasi, uning tarbiyasi, ta'limi va balog'atga etishi, shuningdek, vazifalari haqida batafsil fikr yuritgan bu borada ota-onalar. Shoir yoshlarni ota-onalariga xizmat qilishga, ularni hurmat qilishga, ularga doimo mehribon bo'lishga, ota-onalarni oy va quyosh bilan tenglashtirishga undaydi. Bularga ota-onasiga hurmat bilan ta'zim qilib: "qoshiqqa boshingizni Qurbon qiling va tanangizni sadaqa qiling" sizning yaqinlaringiz aytadilar.

Xulosa

Alisher Navoiyning boy adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini yanada barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali ifodalagan. Uning ilm-fan, ma'rifat va axloq masalalariga bo'lgan qarashlari uning ilmiy, falsafiy va didaktik asarlarida o'z aksini topgan. Buyuk san'atkor va mutafakkir Navoiy yoshlar tarbiyasiga oid fikrlarini bir qancha asarlarida bayon etgan[13].

Buyuk san'atkor asarlarini o'rganish, yosh navoiyshunos olimlar ko'lamini kengaytirish - ularga shoirning mukammal asarlari tarixi va mazmunini o'rgatish - milliy taraqqiyot sari qo'yilgan qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babur Z.M. The Baburname.-T.:East, 2002.-140.
2. PD-4865 19.10.2020 // On Wide Celebration of the 580th Anniversary of the Birthday of the Great Poet and Thinker Alisher Navoi
3. Aripova, A. Нотиклик ва унинг лисоний-услугий воситалари. Tashkent, University of World Economy and Diplomacy, 2007.
4. Vorovkov A. K. : Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка // Алишер Навои. М.; Л, 1946. С. 92-120;
5. Навои и Джами в народном предании // Изв. АН СССР. Отд-е лит. и яз. 1947. Т.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA OBRAZLARINING XARAKTER-XUSUSIYATLARIGA KO'RA TALQINI

Bobomurodova Muxlisa,
Buxoro shahar 30-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Alisher Navoiy ijodi davomida juda ko'p dostonlar va g'azallar yozib qoldiradi. Navoiy asarlarida bosh g'oya sifatida Allohga bo'lgan ishq olinadi. Navoiy asarlarida qahramonlar va ularning xarakter-xususiyatlari turli xil yoritib beriladi va boshqa asarlardan farqli o'laroq yangiliklar kiritiladi.

Kalit so'zlar: doston, g'azal, hikoyatlar, obrazlar, bosh qahramonlar, ishq, ilohiy ishq, xarakter-xususiyatlar.

Alisher Navoiy so'z mulkining sultoni. Navoiy asarlarida har bir obrazga alohida e'tibor qaratiladi va har bir predmet o'z o'rniga ega va uning keltirilishidan ma'lum bir maqsad ko'zda tutilgan hisoblanadi. Navoiy har bir turkiy xalq qalbidan joy olgan yozuvchi hisobladi. U haqida turli davlatlarning elchilari tomonidan hozirgi kunda birladirgan fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular to'laligicha Navoiy butun turkiy xalqlar adabiyotiga asos solgan deya qarashadi va tan olishadi. "Navoiy dahosi va asarlari nafaqat o'zbek balki butun turkiy olam adabiyoti taraqqiyotiga turtki beradi va o'z hissasini qo'shadi",-deydi Bilal Chakich TURKSOY tashkiloti Bosh kotibi.

Navoiy "Xamsa"sida undan oldin yozilgan boshqa "Xamsa"lardan farqli o'laroq Farhod obrazi mukammallashtirib va asosiy bosh qahramon sifatida olingan. N. Ganjaviy, X. Dehlaviy kabi Navoiydan oldin "Xamsa" asarining ikkinchi dostonini yozuvchilar "Farhod va Shirin" emas balki "Xusrav va Shirin" sifatida beradilar. Ularning dostonlarida Xusrav ikki ishq o'rtasida qolgan obraz sifatida namoyish etiladi. Xusrav podshohlikni tanlagan vaqtida

Shirinni tanlagan davrida esa podshohlikni unutib qo'yadi. Navoiy esa ikki ishq bir yurakka sig'maydi degan maqsadda shohlar xonadonidan bo'lgan, ammo podshohlikka ishq qo'ymagan, aslzoda obrazni asosiy qahramon qilib oladi. Farhod o'zining nomi bilan birgalikda tug'iladi.

“Anga Farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.
Firoqu rashku hajru oh ila dard ,
Birar harf ibtidodini aylabon fard”.

U aslzoda shahzoda bo'lib, ustozlaridan turli xil bilimlarni egallaydi. U iymonli, insofli, bilimli, diyonatli, mard obraz sifatida namoyon etiladi. Farhod haqiqiy ishq yo'lida podshohlikdan, o'tkinchi mol-u dunyo ishqidan voz kechadi. Aynan shu bilan u Xusravdan ajralib turadi. Farhod va Xusravning o'zaro suhbatlari jarayonida ham Farhod aqlli va iymonli ekanligi bilan ajralib turadi. Navoiy asarlaridan biri “Layli va Majnun” dostonida ham har bir obrazga alohida ahamiyat beradi. Majnun obrazi o'z ishqini yo'lida hech nimani ko'rmaydi. Majnunni ota-onasi sevgisidan kechishi uchun Makkaga yuborganda ham u Allohdan uning ishqini yanada kuchaytirishini iltimos qiladi. Majnun shu qadar ishqini kuchliligidan namozxonlar oldidan qanday o'tib ketganini anglay olmay qoladi. U Laylining izidan ketayotgan itning ortidan borib, namoz o'qiyotgan namozxonlarning oldidan kesib o'tadi. Navoiy har bir asarida o'z obrazlarining ishqini naqadar kuchliligina va Allohga bo'lgan ishq yo'lida ular chin qalbdan hamma narsaga tayyor ekanligini ko'rsatib beradi. Ular Allohga bo'lgan ishqini tufayli nafaqat o'tkinchi davlatdan, o'zidan balki o'zligidan ham voz kechishadi. Allohga bo'lgan ishqini hamma narsadan ustun qo'yadi. “Lison ut- tayr” dostonida ham Bahouddin Naqshbandiy va it obrazlari orqali xuddi shunday ishqini tasvirlaydi. Unda Bahouddin Naqshbandiy itning izini ko'rib, hattoki shu itchalik ham o'z ishqimda sobit tura olmayman deya o'z-o'zidan xafa bo'ladi. Xuddi shunday “Shayx Sanon” hikoyati orqali yo'lidan ozishigasal qolgan bandaga bo'lgan ishq yo'lida o'zligidan kechishiga oz qolgan shayxning taqdiri va yana qaytadan to'g'ri yo'lga kirishi tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning har bir asarida asosiy g'oya Allohga bo'lgan ishq sifatida olinadi. Uning g'azallari , dostonlaridagi asosiy g'oya, maqsad Allohga bo'lgan ishqni yoritish deb qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy: “ Xamsa” . 1999-yil
2. Navoiy asarlarida so'zlar izohi .2003-yil
3. O'z. FA ona tili va folklorshunos tadqiqotchisi Maftuna Shokirova maqolasi- 2000-yil

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MILLIY TIL XUSUSIYATLARI

Jalilova Oyjamol,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti 2 -bosqich talabasi

Annotatsiya. Buyuk shoir va ulug' mutafakkir olim Alisher Navoiyning adabiy, ilmiy va siyosiy faoliyatida ona tiliga munosabat alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada Navoiyning tilga bo'lgan munosabati, asarlarining til xususiyatlari va tilning rivojlanishida qo'shgan hissasi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, adabiy til, nutq, ma'no, "Muhokamat ul-lug'atayn", fors tili.

Adabiy til - muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. "Qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqda ham adabiy til turli davrda turlicha bo'lgan (mas. qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili Adabiy til vazifasini o'tagan. Asrlar mobaynida til-milliy ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lib kelgan. Buni o'zbek she'riyatining gultoji deb e'tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugunga qadar o'tkir qalam sohiblari yaratgan badiiy ijod namunalari milliy qadriyatlarimiz va an'analarimiz rivojiga munosib hissa qo'shdi.

O'zbek adabiy tili mustaqil til sifatida 10-asrdan shakllana boshlaydi va to bugungi kunimizgacha bu tilda ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", shuningdek, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, mavlono Lutfiylarning yaratgan boy adabiy meroslarini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, turkiy tilining boy imkoniyatlarini ko'rsatishda Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning so'z va o'tkir nutq, til va jamiyat borasidagi fikrlari alohida diqqatga sazovordir. So'z dahosi o'z asarlarining aksariyatida, xususan, muhtasham "Xamsa" sining har bir dostonida, "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Nazm ul -javohir" va boshqa ko'plab asarlarida so'zning buyuk qudrati va nutq xususiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan.

Alisher Navoiy o'zbek madaniyati, tili va adabiyoti tarixidagi buyuk siymolardan biridir. U o'zining hayoti va ijodini haqqa, xalqqa bag'ishlagan insondir. U lirik, epik shoir, adabiyotshunos olim, tarjimon sifatida madaniyatimiz tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbek tili asoschisi Navoiyning adabiy tilimiz ravnaqi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Shoir o'z asarlarida o'zbek tilining leksik boyliklaridan sinonimlar, omonimlar, xalq maqollari va matallaridan, frazeologik birliklaridan keng foydalanadi. Alisher Navoiy o'zbek tilida turli ma'no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik juftlariga ega bo'lgan fe'llardan yuztasini "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida sanab o'tadi. Masalan Navoiy "yig'lamoq" fe'lining "yig'lansinmoq", "Ingramoq", "singramoq", "siqtamoq" kabi sinonimlarni samarali qo'llagan.

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,
Kechalar goh ingramoqdur odatim, goh singramoq.

"Muhokamat ul-lug'atayn" da aytilishicha, so'z go'yoki bir durdir, durning doimiy makoni dengiz tubi bo'lsa so'zning muntazam makoni ko'ngildir. Dur g'avvos tarafdin dengiz tubidan chiqarilib, jilvalantirilsa va uning qiymati javhargaga ko'ra baholansa, so'z o'z sohibi tomonidan ko'ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so'z qo'llash mahoratiga qarab baholanadi. Alisher Navoiyning til, nutq, madaniyat, san'at haqida aytgan fikrlari mahorat bilan umumlashtirilgan. Navoiy asarlarida nutq odobining talablari haqida fikrlar bor.

1. Tilni, so'zni qadrla, uni hurmat qil:

Donau dur so'zini afsona bil,

So'zni jahon bahrida durdona bil.

2. Tilingni tiy. Ko'p so'z, ezma va vaysaqi bo'lma. Bu zararlidir. Befoyda so'zni ko'p aytma, va foydalig' so'zni ko'p eshiturdin qaytma. Oz degan oz yanchilur, oz yegan oz yiqilur.

"Mahbub ul- qulub" asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritsa, "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida o'zbek adabiy tilining boyligini e'tirof etadi. E'tirof etish bilan birga, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi. So'zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo'lmas ekan, tilning, so'zning cheksiz imkoniyatlari ro'yobga chiqmay qolaveradi. "Majolis un- nafa'is" da so'zning voizlar hayotida tutgan o'rni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. "Nazm ul-javohir" asarida esa so'z qudratli vosita ekanligi insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o'tiladi. "Nazm ul- javohir" da til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir deb ta'kidlaydi:

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki berur jonga, xabar jonondin.
Insonni so'z judo ayladi hayvondin,
Bilkim, gavhari sharifroq yo'q ondin.

Yaxshi so'z kishiga jon baxsh etsa, yomon so'z insonni halok etishi ham mumkin. Til – ma'rifat va adabiyot quroli ekan, so'z so'zlashdan maqsad ma'no ifodalashdir – deydi shoir. “ Ammo Chun alfoz va iboratdin murod ma'nidir va mazkur mahluqotdin maqsud insondur va ul mahzari maoniy va bayon, so'z aning so'zidadir va takallum aning kalomida bordur”. Ya'ni, ma'no tufayli so'z tilga keladi. Va ul so'zdan ma'no fahm bo'ladi.

Navoiy tilni o'sib, rivojlanib boruvchi jamoyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab tillar o'zaro aloqada bo'ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyati tug'ma ekanligini ta'kidlaydi. “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida arab tili “kalomi ilohiy” deb ulug'lanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi. Olim bu asarda ikki tilning lug'at boyligi, so'z yasalishi, fonetik tarkibi, uslubiyati kabi xususiyatlarini solishtirib baioy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilidan qolishmasligini isbotlaydi. Alisher Navoiy o'zbek tiliga ya'ni o'z ona tilimizga diqqat bilan qaradi. Navoiyning afsus bilan ta'kidlashicha, hatto, ko'pgina o'zbek shoirlari ham ona tili boyligi va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e'tibor berardilar. “Bu til dag'al til, unda yuksak san'at asarlari yaratib bo'lmaydi” degan fikrlarga uzul- kesil zarba berish, o'zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahllariga, she'riyat muxlislariga tushuntirish o'zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo'lib turardi. Ana shu ulkan ishning uddasidan Alisher Navoiy chiqq oldi. Navoiy “Bu alfoz va iboratda bir nav daqoyiq ko'pdurkim, bu kunga deguncha hech kishi haqiqtig'a mulohaza qilmag'on jihatdin bu yashirun qolibdur. Va fil haqiqat agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, Chun bu lafza muncha vus'at (kenglik) va maydonida buncha fus'hat (ochiqlik) topilur...” deb yozdi va o'zbek shoirlarini o'z ona tilini faqatgina xalq ommasi emas, balki, shoirlar ham qo'llashi, shu tilda iloji boricha o'z iqtidor va mahoratlarini ko'rsatishlari kerak edi. Bobur tili bilan aytganda, Navoiy o'zbek tilida barchadan “ko'p” va “xo'b” yozib, qalam kuchi bilan qalblardan joy oldi. Alisher Navoiy til bilimiga doir “Muhokamat ul-lug'atayn” asari bilan o'zbek adabiy tilining, xususan o'zbek tilshunosligining ilmiy - nazariy asoslarini yaratib berdi. Buyuk mutafakkir bu asarida o'zbek tilini fors tili bilan taqqoslab, ona tilidagi ustunliklarini, uning adabiyot, san'at, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotidagi rolini ashyoviy materiallar asosida namoyish etadi.

Navoiy ikki tilni qiyoslar ekan, birining ahamiyatini kamaytirib yoki rad etib, ikkinchisining ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatmaydi, bu sohada hech qanday mubolag'aga yo'l qo'ymaydi, aksincha, ularning har birini o'z holicha olib qaraydi. Boy materiallarga asoslangan holda o'zbek tilining fors tili bilan teng huquqliligi va go'zalligini, ayrim hollarda esa bu tomonlarning ustunligini isbotlab ko'rsatadi. Ayniqsa, bunday xarakterli tomonlarning fonetika tarkibida, so'z yasashda, uslubshunoslikda, leksikada aniq ko'zga tashlanib turushini alohida ta'kidlab o'tadi. Navoiy "O'zbek tilini yoqtirganligi va ta'biga mos kelganligi, fors tilini esa sevmaganligi uchun bunday xulosaga keldi", deb o'ylash noto'g'ri bo'lar edi. Demak, Navoiy fors tilining qimmati va ahamiyatini kamsitmaydi. Ulug' adib fors tilidan foydalanishda yuqori pog'onaga ko'tarilgan bo'lib, ushbu xususida Navoiy bilan bellasha oladigan kishi kam topilardi. Bu ijodkorning "Foniy" taxallusi bilan yozilgan asarlarida ham aniq ko'rinib turadi. Navoiy asarlari tili XV asr o'zbek adabiy tilining yuksak namunasi bo'lib, til tarixini o'rganishda katta manba va boylikdir. Uzoq va mashaqqatli izlanishlar tufayli uning yana bir qimmatli asari borligi aniqlanganligi, bu asar til lug'ati bo'lib, "Sab'at abhor" (Yetti dengiz) nomi bilan mashhurligi hozirgi vaqtda turkiya olimi Ogah Simri Lavand Alisher Navoiyning ana shu lug'ati ustida tadqiqot olib borayotganligi mabuotda xabar qilingan edi. Alisher Navoiy aniq bir dialektga asoslanib ish ko'rmagan. U o'zbek dialekt va shevalarida ko'p va keng qo'llanuvchi xarakterli xususiyatlarini tanlab olib o'zbek adabiy tilini taraqqiy ettirish uchun qizg'in kurash olib bordi. Navoiy asarlarida qarluq- chigil- uyg'ur lahjasi va qisman qipchoq shevalari xususiyatlari mavjuddir. Navoiy asarlari tilining fonetikasi hozirgi zamon o'zbek tili va X - XIII asr fonetikasidan o'zining ba'zi xususiyatlari bilan farq qiladi. Navoiy tilining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar hali to'la -to'kis ravishda hal qilingani yo'q.

Alisher Navoiy XV asr o'zbek adabiy tili uchun, uning kelgusi istiqboli uchun ana shunday buyuk xizmatlarini ado etdi. Jamiyatning, ijtimoiy hayotning til oldiga yangi yuksak talablar qo'yganligini yaxshi tushungan Navoiy xalq jonli tiliga, o'zidan oldin o'tgan va zamondosh shoir-yozuvchilarning tiliga asoslangan holda asarda tildan foydalanish usullari va yo'nalishlarini qaytadan ko'rib chiqdi va o'zgartirdi. Buning natijasida tilda yangi aniq, erkin, qisqa ranglar, bo'yoqlar paydo bo'ldi, xilma-xil voqea-hodisalarni, turlicha fikrlar va kechinmalarni badiiy tarzda chiroyli, ixcham, ta'sirchan qilib foydalanish imkoniyati yaratildi. Shuning uchun Navoiy adabiy tili o'sha davridayoq uning zamondoshlari va izdoshlari tomonidan eng yaxshi

erkin namunali til sifatida qabul qilingan edi. Shu tariqa Navoiy she'riyati va nasriy asarlari tili uchun asos soluvchilik ahamiyatiga ega bo'ldi.

Navoiyning buyuk xizmati shundaki, uning asarlarida o'zbek adabiy tilining umumxalq me'yorlari ishlab chiqildi va qat'iylashtirildi. Bu me'yorlar uning zamondoshlari va keyingi avlodlar tomonidan to'la ma'qullandi, yana rivojlantirildi. Adabiy tilning umumiy me'yorlarini yaratish faqat til qurilishidagina emas, balki uning turli uslub ko'rinishlarini ham qamrab oldi. Garchi Navoiy yagona umumiy me'yorlarni badiiy adabiyot tili asosida ishlab chiqqan bo'lsa ham, lekin ular faqat badiiy adabiyot tilinigina emas, balki umuman o'zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Navoiy yaratgan juda ko'p hikmatli so'z va iboralar xalq maqollariga aylanib ketsa, uning obrazli badiiy iboralari esa xalqning ibratli hikmatlariga aylandi va o'zbek tili frazeologiyasini boyitdi. Bunday birikma va iboralar orqali u ijtimoiy hayotdagi voqea – hodisalarining xalq donoligiga xos tipik xususiyatlarni umumlashtirib, qisqa- lo'nda va mazmunli ifodalash namunalarini ko'rsatdi. Shu tariqa Navoiy uzining badiiy asarlari orqali o'zbek adabiy tilining bitmas-tuganmas boyligini ko'rsatdi, uning istiqbollari kelgusi taraqqiyot yo'llarini belgilab berdi.

Navoiy o'zbek adabiy tilini, rivojlantirish, bu tilda go'zal asarlar yaratish, o'zbek tilini yuqori mavqega ko'tarish uni xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U o'zbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga be'etibor bo'lgan kishilarga munosib javob bera oldi o'zbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi. Navoiy o'zi berayotgan ma'lumotlarning aniq, to'g'ri bo'lishiga ham e'tibor beradi. Til va nutq masalalari asl mohiyati Navoiy asarlarida o'zining yorqin dalilini topdi desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bobur, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Munis, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Fitrat, Behbudiy, So'fizoda kabi mutafakkir shoir va yozuvchilarning asarlarida Navoiy boshlab bergan o'zbek mumtoz adabiy tili masalalari mukammallashib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик: 1-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулум, 2011.
2. Haqqul I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Abdurahmonov G', Rustamov A A.Navoiy tilining grammatik xususiyatlari.
–Toshkent: Fan, 1984.

KLASSIK TIBBIY ASARLAR LISONIY XUSUSIYATLARI

Islomova Shahnoza Iskandar qizi,

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot va she'riyat mushtarakligi, zamonaviy tibbiyotda she'riyatning roli, she'r terapiyasi, davo va she'riyat hamda she'riyatda uchraydigan til birliklarining lingvistik tahlili haqida so'z yuritiladi. Tibbiyot, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bag'rida vujudga kelgan tibbiy she'riyat ko'plab kasalliklar uchun ma'naviy shifo vositasi sifatida e'tirof etilib, qator tabobat ilmi aks etgan she'rlar lisoniy va tibbiy xususiyatlari ochib beriladi.

Tayanch so'z va iboralar: tabobat tarixi, tib ilmi, tibbiy lingvistik birliklar, tibbiy she'riyat, she'r terapiyasi, tibbiy birliklar, tibbiyot tili, tibbiyot va tilshunoslik, tibbiyot va adabiyot.

“Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi... Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudentsiya, diplomatiya, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq”[1]. Shunday ekan, tibbiy birliklarning ma'naviy, vazifaviy, uslubiy xususiyatlarini aniqlash, inson ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan she'riyat terapiyasini tadqiq qilish, tibbiy she'riyatning lisoniy xususiyatlarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Tibbiy asarlar haqida fikr yuritilganda nasriy asarlar bilan bir qatorda nazmiy usulda bitilgan tibbiy asarlar ham mavjudligi diqqatni tortadi, sababi qadimdan oq tabiblik ilmidan xabari bor shoirlarimiz o'z asarlarini nazmiy usulda bitishgan. Nazmiy usuldagi sodda tilda bitilgan tibbiy she'riyat inson ongida tez xotirlanishi va bemor ongiga ta'sir qilib, so'z magiyasi orqali shifo vazifasini bajarishi nihoyatda ahamiyatlidir.

Arab va fors tillarida ijod qilgan shoirlarning ijodida “Tibbiyot” nomli maxsus janr bo'lib, unda shoirlar tabobatga oid narsalar haqida fikr yuritganlar. Islomdan avval fors tilida nazm bilan yozilgan birorta yaxlit asarning mavjud bo'lgani haqida ma'lumotlar yetib kelmagan[2,3]. Tabobatga oid fors tilida yozilgan birinchi nazmiy asar hakim Maysariyning (IX asr)

“Donishnoma”si bo‘lib, u 980-yilda kitobat qilingan. Ibn Sino tug‘ilgan yili yozilgan bu asarda tabobatning nazariy va amaliy masalalari bayon qilingan.

Beruniyning yozishicha, hindlar ham o‘z ilmiy asarlarini turli vaznlarda tizma she‘r qilib yozganlar. Buning afzalligi ko‘p bo‘lib, boshqa kishilar bu tizma she‘r ichiga ortiqcha narsa kirita olmaganlar, ma‘nosini buza olmaganlar. Odatda kishining ko‘ngli chiroyli narsaga talpinadi va tartibsiz, xunuk narsani ko‘rganda nafratlanadi. She‘rlar esa o‘quvchiga lazzat va orom bag‘ishlaydi. Abu Ali ibn Sino ham “Urjuza” nomli tibbiy she‘riy asarida: “Tabib badanning shohi bo‘lganidek, shoir tilning amiridir” deb yozgan edi.

Amir Xusrav Dehlaviy yozadi:

*Lavzina’ yoqimli tanaga jondur,
Ko‘p yesang medaga biroq ziyondur.
Davodan naf topmas, illatga asir,
Hatto dardi qildi tabibga ta’sir.
Bedard kishi doim shod ila xandon,
Dardlilar holini bilmas hech qachon.*

Ushbu badiiy matnda tabobatga oid davo sirlari, dorivorlar haqida ma‘lumot berilgan. Tib ilmiga bag‘ishlangan ushbu nazmiy parchada ijodkor, inson ongiga ta’sir ko‘rsatadigan, xotirada muhrlanib qoladigan, so‘zga joziba baxsh etadigan tilimiz latofatini ko‘rsata oladigan frazeologik, metaforik, evfimik, perefrazik, sinonimik va antonimik birliklardan foydalangan. Jumladan, ***tanaga jondur, illatga asir, dard ta’sir qilmoq, bedard kishi, dardlilar holi.***

Tabobatga doir qimmatli fikrlarni obrazli tarzda o‘z asarlarida bayon etgan buyuk shoirlardan biri Alisher Navoiydir.

*Agar hikmatqa bo‘lsa iltifoting,
Ki bo‘lsun Nuh umricha hayoting.
Va lekin tibbu hikmat ham erur xo‘p,
Ki sihatdur kishi jismida matlub.*

Alisher Navoiyning fikriga ko‘ra tibbiyot fanlarning eng sarasi, shu ilmni bilmoq lozim, kishi tanasi salomatligini saqlash oliy maqsadlardan biridir. Ushbu parcha orqali XV asr til xususiyatlarini ham ko‘rishimiz mumkin: olmoshlarning ishlatilishi(**ki** shaklida), jo‘nalish kelishigining -qa tarzida. Ulug‘ ijodkor so‘zning buyuk qudratini namoyon etib, kishi ongiga ta’sir qiladigan katta bir payg‘ambar hayoti aks etgan hadisni(Nuh alayhissalom) bitta jumlagacha tushira olgan, umring uzun bo‘lishini xohlasang fikrini – “*Ki bo‘lsun Nuh umricha hayoting*” birikmasi orqali bayon etgan. Bu bilan biz tibbiy she‘riyatning inson psixik faoliyatiga ta’sirini ko‘rishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning yozishicha, kishi salomat bo'lishi uchun, avvalo, to'g'ri taomlanish ilmini bilmog'i kerak, kishi zararli narsalarni yeyishdan tiyilmog'i lozim, shundagina kishi salomat bo'ladi:

*Nekim bo'lsa muzir bo'lg'il harosan,
Ki bo'lg'ay tabinga mushkullar oson.*

Alisher Navoiyning fikriga ko'ra, bemor kishida ishtaha bo'lsa, u tuzalib ketadi, ammo sog'lom odamda ishtaha bo'lmasa u yomon holat, tezda ishtahani qaytarish uchun harakat qilmoq lozim. Shu kabi axborotni nazmga solib, kitobxonga yetkazgan. Bemor kishi uchun **ishtahani(mushtohiy)—salomatlikning nishonasi(parafreza)** sifatida keltirib, baytga ko'rk taqdim etgan. Sog'lom kishini ifodalash uchun graduonomik qatordan badiiy yorqinligi kuchlisini tanlab(*sog'lom-dardsiz-bedard-tandurust-zabardast*), baytning badiiylik qiymatini oshirgan:

*Bemori mushtahiyga salomat nishondur,
Chun tandurust mushtahiy ermas-ziyondur.*

Alisher Navoiyning fikriga ko'ra, kishi badanida to'rt xilt mavjud bo'lib, ular kishi tanasida oshib ketsa, kasalliklar chiqishiga sabab bo'ladi. Bular: qon, safro, savdo, balg'am. Tib va tabib mana shu xiltlarni me'yorga keltiribgina, kishiga salomatlikni qaytarib beradi.

*Bo'lsa tab ichra xiltdan illat,
Moddiy bo'lsa har nechuk zahmat.
Bizga ishdur oni iloj etmak,
Tib ila sihati mijoz etmak.*

Buyuk alloma fikriga ko'ra inson tanasi doimo sog' bo'lishi uchun tinimsiz harakat qilmog'i va mijoziga nima yoqish, yoqmasligini aniq bilmog'i lozim:

*Burun qil o'z mijozingga taammul,
Ne holi bor erkonin anga bilkul,
Mufid ashyog'a doim ishtig'ol et,
Vale bor ishda mayli e'tidol et.*

Tib shunday bir ilmki, u bilan odam gavdasining ahvoli sog' va kasallik jihatidan o'rganilib, ularning mavjud sog'ligi saqlanadi, yo'qotilgani qaytariladi. Tib nazariy va amaliy bo'ladi. Tibning bir qismi o'rganishdan, ikkinchi qismi amaliy ish bilan shug'ullanishdan iborat, deb tushunmaslik kerak. Balki sen bundan boshqa bir narsani tushunishining lozim. U narsa shuki, tibning ikkala qismidan hech biri ilmdan boshqa narsa emas. Lekin ulardan biri tib qoidalarining ilmi bo'lib, ikkinchi ilm esa amaliy ishlarning qanday bo'lishidir[3,17]. Ibn Sino tibga ta'rif berar ekan, o'z hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda fikr bildiradi.

*Hindiston hakimlari badandagi qon,
Talxaga doxil deb qilurlar bayon,
Kasallik sababin deydilar uch xil,
Senga aytib beray hammasini bil.
Boldan, talxadanu xiltlardan erur,
Kishiga illatni shu narsa berur,
Bulardan bittasi bo'lsa gar ziyod,
Badanda kasallik aylagay bunyod.
Forsning hakimlari fikricha illat,
To'rt narsadan zoxir bo'lur hammavaqt.
Uchtasi aytildi, to'rtinchisi qon,
Har birin birma bir qilurman bayon. (Hakimlar hikoyati)*

Tibbiyotga oid ushbu parchalarda tibbiy ma'lumotlar obrazli qilib she'rga solingan. Berilayotgan ma'lumotlarni ta'sirchanligini oshirish uchun badiiy tasvir vositalaridan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytish joizki, tibbiyot va tilshunoslik bag'rida kamol topgan **tibbiy lingvistikaning** rivoji natijasida nazmiy asarlarda uchraydigan tibbiy birliklarning lingvistik xususiyatlari tadqiq qilinib, tibbiy birliklarning lisoniy imkoniyatlari ochib berildi, shu bilan birga tabobat va she'riyat integratsiyalashuvi natijada "she'r terapiyasi"ning shakllanishi va rivoj topishi ko'plab kasalliklarni inson tomonidan yengishga yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи"// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>
2. Маҳмуд Ҳасаний. Ўтмишда табобат асарлари қайси усулда ёзилган?. "Хуррият" газетаси-2009.
3. Ибн Сино. Тиб қонунлари — Тошкент,1954. -17 б.
4. Табобат хазинаси дурдоналаридан. Тошкент.ЎзССР-Медицина.1987. -Б.144
5. Абу Али ибн Сино. Уржуза ёки 1326 байт таҳлили. —Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти-1999. -Б.160
6. Ҳамидулло Ҳикматиллоев. Шарқ табобати. — Тошкент:Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти- 1994.
7. Alisher Navoiy. Hikmatlar. "O'zbekiston". —Toshkent, 2011.
8. Abuzalova M., Islomova Sh. Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi: tabobatda davo bilan bog'liq paremiologik birliklar.—В.: Durдона, 2021.—В. 44.
9. Islomova SH. Tibbiy lingvistika taraqqiyoti va ravnaqi//Tafakkur va talqin to'plami. -Buxoro, 2021.—В. 346.

MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Yusupova Gulnoza Azimovna,
Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi
20-maktabning oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ta'limni rivojlantirish orqali kelajak farovonligiga erishish mumkin. Shu maqsadda adabiyot darslarida mumtoz matnlarni tahlil qilishda qulay usullardan foydalanishni tavsiya bermoqchiman. Jumladan, PBL (muammoli vaziyat) va "Moslashtiring" "Blum" texnologiyasi kabi metodlarini afzalliklari haqida tushuncha berib o'taman.

Kalit so'zlar: muammoli vaziyat, mulohaza, bilim, yechim, PBL, maqollar, "Moslashtiring", bilish bosqichi, tushunish bosqichi, qo'llash bosqichi, tahlil bosqichi, Blum texnologiyasi.

Adabiyotni san'at darajasida o'rganish o'quvchidan ancha mahorat talab qiladi. Ayniqsa, mumtoz matnlarni o'rganayotganda zamon nuqtayi nazaridan bugungi o'zbek tilidan ancha farqlar seziladi. Tabiiyki, bu holat o'rganuvchilarda bilim darajasi ham yuqori bo'lishini, tafakkuri uyg'oq bo'lishini taqozo etadi. Navoiyni anglash uchun Navoiydek fikrlash, Boburni anglash uchun Boburdek hayot sinovlarini boshdan o'tkazish kerak, nazarimda.

Ushbu maqolada mumtoz matnlarni zamonaviy usulda o'rganish yo'llari haqida to'xtalib o'tamiz.

Shu o'rinda maktab darsliklarida berilgan she'riy asarlar tahlili xususida so'z yuritmoqchimiz. Darslikda berilgan parchalarda she'riyat qoidalari bilan birga she'riy san'atlar ham o'rganiladi. Buning natijasida o'quvchi so'z san'atining mohiyatini anglaydi, suratni emas, siyratni ham ko'ra oladi. Adabiy parchani g'oyaviy mazmunini ham tushuna oladi. Shu sababli darslarni qiziqarli va jonli o'tishini nazarga olib quyidagi ta'lim usullaridan foydalangan holda tavsiyalar berishga harakat qilmoqchiman.

Darsda zamonaviy yondashuv PBL asosida ham muammoli ta'lim usulidan foydalanish mumkin. P-problem-muammo, B-based-asoslangan, L-learning -o'rganish. Demak, muammoli vaziyatlarni muhokama tarzida o'rganish.

8-sinf adabiyot darsligida Hazrat Navoiyning quyidagi fardi keltirilgan:
"Belu og'zidin , -dedilarkim, -degil afsonae",

Boshladim filholkim: "Bir bor edi, bir yo'q edi "

Bayt tinglovchilarga muhokama uchun beriladi. Bayt orqali muallifning maqsadini aniqlash topshiriladi. O'z-o'zidan muhokama boshlanadi. Bir guruh o'quvchilar quyidagicha sharhlaydilar:

Yorning beli va og'zidan afsona ayt dedilar. Men bir bor ekan, bir yo'q ekan,—deb afsona boshladim demoqchi. Boshqa guruh esa boshqacha yondashadi:

Yorning bel-u og'zidan afsona ayt dedilar. Ular shunchalar nozik ekanki, bir qaraganimda bor edi, bir qaraganimda yo'q edi.

Darslarda muammoli vaziyatlarni muhokama tarzida o'rganish o'quvchini maqsad sari oson olib boradi, o'quvchida mustaqil ishlash ko'nikmasini, mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Zero, bugungi kunda yodlaydigan emas, fikrlaydigan yoshlar kerak jamiyatga.

Mumtoz parchalarni bugungi kunda qo'llanuvchi maqollar yordamida ochib berish ham samarali usul sanaladi.

Quyidagi parchaga e'tibor qaratamiz:

Gardun gah manga jafu-yu dunluq qildi

Baxtim kibi, har ishta zabunliq qildi

Gah kom sari rahnamunliq qildi,

Alqissa, base buqalamunliq qildi.

Bu ruboiyda hasbi hol xususiyati mavjud. Ya'ni unda muallifning tarjimai holi bilan bog'liq vaziyat aks ettirilgan. Taqdir adibga juda ko'p shikast yetkazgani, ba'zan shodlik bilan siylaganini ta'kidlaydi. Ruboiy mazmunini ochib beruvchi maqolni topamiz.

Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'
Yoki:

Ahbob yigitlikni g'animat tutungiz.

O'zni qariliq mehnatidin qo'rqutingiz

Oyini adovat-u hasaddin o'tunguz

Har nav' ila O'zni necha kun ovutingiz

ruboiysi mazmun-mohiyati jihatdan quyidagi maqolni eslatadi:

"Yoshlikda mehnat qilsang, qarilikda rohat topasan "

Quyidagi ruboiyga diqqat qaratamiz:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish

Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa

Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish

Bu ruboiy “O‘zga yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l” degan maqol mazmuniga hamohang ekani shubhasiz.

Quyidagi mashhur fardda ham olam-olam ma‘no mujassam

Men –siniq ,ko‘nglum –siniq ,sabrini uyi xud –yerga past

Bilmagay holim shikastin ko‘rmagan muncha shikast

Kimki hayotda shoir boshidan o‘tkazganchalik shikast ko‘rmagan bo‘lsa, uning holi shikastini bila olmaydi. Ya‘ni, “Tabib — tabib emas, boshidan o‘tkazgan— tabib”.

Yuqar yamonlig‘ angakim, kirar yamon el aro ,

Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro

“Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar”

Mumtoz matnlarni berib maqollar bilan **Moslashtiring** shaklida ham topshiriq tayyorlasa bo‘ladi:

Mumtoz matnlar	Maqollar
Gardun gah manga jafo-yu dunluq qildi Baxtim kibi, har ishta zabunliq qildi Gah kom sari rahnamunliq qildi, Alqissa, base buqalamunliq qildi.	“Tabib—tabib emas, boshidan o‘tkazgan — tabib”.
Ahbob yigitlikni g‘animat tutungiz. O‘zni qariliq mehnatidin qo‘rqutingiz Oyini adovat-u hasaddin o‘tunguz Har nav‘ ila o‘zni necha kun ovutingiz	“O‘zga yurtida shoh bo‘lguncha, O‘z yurtida gado bo‘l”
G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish, El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish	Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘

Men – siniq, ko‘nglum –siniq, sabrim uyi xud –yerga past Bilmagay holim shikastin ko‘rmagan muncha shikast	“Yoshlikda mehnat qilsang, qarilikda rohat topasan ”
Yuqar yamonlig‘ angakim, kirar yamon elaro, Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro	“Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar”

Atoiy qalamiga mansub ushbu baytni bugungi o‘zbek tiliga tadbili va badiiy san’atlarini aniqlashda ham shu usul qo‘l keladi:

1. Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.
2. Tamanno qilg‘ali la‘lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas onikim qoldi qanda.
3. Chu jonimdin aziz jonona sensan,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.
4. Manga ul dunyoda jannat ne hojat,
Eshiging tuprog‘i basdur kafanda.
5. Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya‘qubtek bayt ul-hazanda.
6. Uzun sochingdin uzmasmen ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa boshim anda.
7. Tilar el mansabi oliy, va lekin
Atoyi sarvi ozodingg‘a banda.

1-bayt	A)Bu baytda qimmatbaho toshni bildiruvchi so‘z o‘z ma‘nosidan ko‘chirib tasvirlangan
2-bayt	B)Bu baytda yorning eshigining tuprog‘i behishtdan ustun qo‘yilgan
5-bayt	C)Bu baytda go‘zallik timsoli bo‘lgan payg‘ambar nomi vositasida talmeh san‘ati yuzaga kelgan
6-bayt	D)Bu baytda ostiga chizilgan so‘z vositasida tashxis san‘ati yaratilgan
7-bayt	E)Bu baytda muallif o‘zakdosh so‘zlar vositasida ishtiyoq san‘atini yuzaga keltirgan

	F)Bu baytda oshiq ma'shuqaga usiz yasholmasligini aytmoqda
	G)Bu baytda adib yorining qaddi –qomatini tik o'suvchi daraxtga qiyos qilyapti

Moslashtirish usuli orqali o'quvchi, birinchidan, baytlarni bugungi o'zbek tilida qanday mazmuni ifodalashini o'rganadi, ikkinchidan, mumtoz matndagi badiiy san'atlarni aniqlash ko'nikmasini ham shakllantiradi.

Qit'a, ruboiylarni tahlil qilishning yana bir samarali usuli borki, u "Blum" texnologiyasi deb yuritiladi.

Bu texnologiya quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Bilish bosqichi
2. Tushunish bosqichi
3. Qo'llash bosqichi
4. Tahlil bosqichi
5. Sintez bosqichi
6. Baholash bosqichi

Quyidagi ruboiyni shu texnologiya asosida tahlil qilib ko'ramiz:

Har kimki suchuk so'z elga izhor aylar,

Har nechaki ag'yor durur yor aylar

So'z qattig'i el ko'nglini ozor aylar

Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

1. Bilish bosqichi : a) ruboiyni ifodali o'qish b) lug'at bilan ishlash

2. Tushunish bosqichi: a) matn mazmunini aytib berish. O'quvchi o'z so'zlari bilan matn mazmunini aytib berishi kerak bo'ladi. Masalan: so'zlovchi agar yaxshi so'zlar bilan gapirsa, o'ziga nisbatan yomon munosabatda bo'lgan insonni o'ziga nisbatan munosabatini yaxshi tomonga o'zgartirishi mumkin. Agar so'zlovchi qo'pol bo'lsa, suhbatdoshini o'zidan sovitishi mumkim. Bu munosabatning yomon bo'lishiga olib keladi.

3. Qo'llash bosqichi: a) matndagi so'zlarni ma'nodoshlari bilan solishtirish. Masalan:

So'z qattig'i el ko'nglini ozor aylar misrasidagi "qattig'i" o'rnida "yomoni" so'zi qo'llansa, ma'noda qanday o'zgarish bo'ladi? Yomon so'z tufayli ko'ngil "ozor topishi" tabiiy, lekin gap qo'pol so'zlash borasida borarkan "qattig'i" so'zi ko'proq mos kelishi aytiladi.

4. Tahlil bosqichi: Bu bosqichda o'qituvchi quyidagi afsonani keltirishi mumkin: "Bir kuni shoh o'ng qo'l vaziri bilan shikordan qaytib kelayotganida,

pastqam bir uyning oldida beli bukchaygan, hassaga tayangan kezi bir qo'li oldinda tilanchilik qilib turgan qariyaga ko'zi tushadi. Shoh vazirga ishora qilib deydi: – Hu anovi mo'ysafidni ko'rayapsanmi? Bizlarga yoshligimizda saboq bergan Ali Safiy degan ustozga juda o'xsharkan-a?

Vazir: – Ma'zur tuting, o'sha qariya Ali Safiyning xuddi o'zidir, dedi.

Shoh darg'azab bo'ldi: – Men yurt hukmdori, sen vazir bo'la turib, bizga alifbodan saboq bergan ustozimizning shunday ko'yga tushishiga sabab ne?!

—Men ustozga ko'p bor maslahat soldim, unamadi. Yaxshisi, O'zingiz bir so'rab ko'rmaysizmi? —dedi vazir.

Shoh otdan sakrab tushib, Ali Safiy hazratlarining oldiga borib, ko'rishdi.

—Ustoz, bu ahvolotingizning boisi nedur? –deb so'radi.

—To'g'ri, – o'smoqchilab so'z boshladi ustoz, – men sizlarga chin dildan, chin so'zdan saboq berdim. Menga ham saboq bergan ustozlar ko'p bo'lgan. Ular ichida ikkitasi meni xush ko'rib, doim ardoqlab yurardi. Biri nima deyishni o'rgatardi, ikkinchisi esa nima demaslikni. Nima demaslikni bilaman-u, nima deyishni o'rganishim kerak, – deb, birinchi ustozga qo'l berdim, oqibatda shunday ko'yga tushdim. Keyin anglab yetdim: nima deyishdan ko'ra, nima demaslikni bilish donolik ekan. Navoiy o'gitlaridan biri shunday: “So'zni ko'ngilda pishqormaguncha tilga kelturma, har nekim ko'ngulda bor, tilga surma”. O'quvchilarga qo'pol so'zlashi orqali pand yeganlar haqida qanday hikoyatlar, ertaklar borligi haqida so'ralib, bir tush ta'birni ikki xil aytib, biri qatl qilingan, biri mukofotlangan munajjimlar hikoyati ham eslatiladi. Ulug' mutafakkir so'zning uning qanday aytilishi, ifodalanishiga ham diqqat qiladi. Halim tabiatli kishi yumshoq, kishi diliga ozor yetkazmaydigan so'zni topib aytadi. Shuning uchun ham kimdir topib so'zlaydi, kimdir qopib deyishadi. Bu, albatta, insonning fe'l-atvori, saviyasi bilan bog'liq.

5. Sintez bosqichi. Bu bosqichda darslikda keltirilgan yana qaysi ruboiy mazmuni shu ruboiy bilan hamohang ekanligini topish va izohlash talab etiladi.

6. Baholash bosqichi.a) Bu bosqichda o'quvchilarga ruboiy mazmunini beruvchi hikmatlar ,xalq maqollaridan topish topshirig'i beriladi.

b) o'quvchilar o'zlari ko'rgan ,guvoh bo'lgan hayotiy voqea, o'qigan badiiy asarlari ,ko'rgan kinolari orqali “so'z qattig'i” tufayli ozor chekkan qahramonlar haqida matn yozishadi. o'qituvchi ularni baholaydi.

Xulosa qilish mumkinki, mumtoz adabiyot durdonalarini turli zamonaviy usullar orqali o'rganish o'quvchida matnni bir umr xotirasida muhrlanib qolishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

- 1.Mirzayeva Zulxumor, Jalilov Komil 2020. Adabiyot o'qitish metodikasi .An`anaviylikdan zamonaviylikka .-T.:Adabiyot .-161 b
2. Qurbonov Nuriddin Yahyoqulovich. S.Aliqulov .Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi.T.:2018 .-56 b
- 3.Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov 8-sinf adabiyot darslik.Toshkent :2019.-352 b
- 4.Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. 10-sinf adabiyot darslik-majmua.Toshkent : Davlat ilmiy nashriyoti 2017.-184 b
- 5.Z.I.Mirzayeva, K.Q.Jalilov. 2022 Adabiyot 6-sinf uchun darslik.-T .:Respublika ta'lim markazi .-224 b.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHISTON JANRINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Nurullayeva Sarvinoz Majidovna,

Jondor tuman IM o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Baxshillov Sadoqat Umarovna,

Kogon tumani 16-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida mumtoz adabiyotdagi chiston janrini turli shoirlar ijodi misolida va o'xshash janrlar asosida qiyosiy o'rganish haqidagi mulohazalar, tahlillar va ayrim metodlarni qo'llashga doir tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: chiston, lug'z, topishmoq, she'riy topishmoq, o'xshatish, "O'yla, izla, top", anor, qaychi

Ma'lumki, o'z davrining iste'dodli shoiri, davlat arbobi, olim, turkiy adabiyot tarixida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiy ijodi rang-barang lirik janrlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Shoir ijodiga mansubg`azal, ruboiy, tuyuq, fard, masnaviy, doston kabi asarlar umumta'lim maktablari darsliklaridan ham o'rin olgan. Shu bilan bir qatorda, Alisher Navoiyning beqiyos chistonlari ham borki, maktab darsliklaridan o'rin olmagan bo'lsa-da, ularning ayrim namunalarini muayyan mavzularda tahlil qilish mumkin. Xususan, 7-sinf adabiyot darslarida "Alisher Navoiyning qit'alari va fardlari", "Mumtoz adabiyotdagi janrlarni qiyoslash", "Uvaysiy chistonlari" [Mirzayeva Z., Jalilov K., 124, 128, 135], 5-sinf adabiyot darslarida esa "Topishmoqlar"

[Ahmedov S. va b., 16] mavzulari o'tilayotganda bevosita Alisher Navoiy chistonlariga ham murojaat etishga ehtiyoj seziladi.

Chiston mumtoz adabiyotdagi she'riy topishmoq bo'lib, "chist" (nima), "on" (u) so'zlaridan olingan. Chistonning hajmi cheklanmagan bo'lsa-da, ko'pincha bir yoki ikki baytni tashkil etadi. Qofiyalanishi a-a (ikkilik), a-a-b-a (to'rtlik) yoki b-a-d-a (qit'a) shaklida tartiblanadi. Uvaysiy ijodida g'azal shaklidagi chiston ham uchraydi. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, chiston dastlab fors-tojik adabiyotida yaratilgan. Turkiy adabiyotdagi ilk chistonlar Alisher Navoiy tomonidan ijod etilgan. Muallif ularni lug'z deb atagan. So'ng shoira Jahon otin Uvaysiy ijodida chiston yanada sayqallangan.

Alisher Navoiy ijodida o'nta chiston mavjud: "Qalam", "Tanga", "Igna", "Miqroz", "O'q", "Anor", "Bel", "Yumurtqa", "Poki" (ustara), "Parvona". Uvaysiy qalamiga mansub chistonlar esa, manbalarga ko'ra, ellikdan ortiq bo'lib, maktab darsligiga "Anor", "Tun-kun", "Yong'oq", "Qaychi", "Suv" chistonlari kiritilgan. 7-sinf o'quvchilari uchun Navoiy va Uvaysiy yaratgan chistonlardagi o'zaro bog'liqlik sifatida har ikkala ijodkor ijodida mavjud "Anor" yoki "Qaychi" chistonlarini ko'rsatish mumkin. Tahlil jarayonida "O'yla, izla, top" metodidan foydalanib, o'quvchilarga xalq og'zaki ijodiga mansub topishmoq janrining xususiyatlarini esga olishlarini, uning chiston bilan O'xshashlik va farqli tomonlarini aniqlashga urinib ko'rishlarini topshirish mumkin. Natijada, chistonda shaklbozlikka berilish holatlari kuzatilmaslighi, balki uning ta'limiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilishi, vazni va tuzilishi jihatidan farqlanishi oydinlashadi. Ushbu metodda o'quvchi qiyosiy tahlil yo'lidan boradi: dastlab bitta asarni avvalgi bilimlari asosida qiyoslab tahlil qiladi, uning mazmuni va g'oyasi haqida o'ylaydi. So'ng yangi bilimlari asosida boshqa asarlar bilan solishtirib, o'xshash va farqli jihatlarini izlaydi. Nihoyat, o'zi ham shu mavzu yo'nalishida yangi asar uchun g'oya o'ylab topadi. Buni quyida "Anor" chistoni misolida ko'rib chiqamiz.

Shoira Uvaysiy "Anor" chistonida predmetning ta'rifini san'atkorona chizib beradi:

Ul na gumbazdir eshigi, tuynugidan yo'q nishon,

Necha gulgun po'sh qizlar manzil aylabdur makon.

Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,

Yuzlarig'a parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.[Mirzayeva Z., Jalilov K., 135]

Mumtoz adabiyotdagi boshqa janrlar singari chiston tahlili ham dastlab tushunilishi qiyin so'zlar lug'atini tuzib, nasriy bayon qilishdan boshlanadi. O'quvchi eshigi va derazasi yo'q, qizil libosli, yuzlariga parda tortgan bag'ri

qonqizlar makon qilgan gumbaz nima bo'lishi mumkinligi haqida o'ylaydi. Shu bilan birga, tarixdan olgan bilimlari yordamida chistonni izohlashga urinadi. U Alisher Navoiyning mahorat bilan yaratilgan "Anor" chistoni bilan qiyoslab tahlil qilinganda esa masala yanada oydinlashadi:

Ne majmardir to'la axgar, vale ul majmar andomi
Erur sun' ilgidin gohi musaddas, gah musamman ham.

Chiqar ravzandin axgar dudi-yu bu turfakim, oning
O'tig'a dud yo'qtur majmarig'a balki ravzan ham.

O't-u mujmar dema, bor ul sadafkim, durlarin oning
Evurdi qong'a davroni mush'abid charxi purfan ham.

Agar bu nav' emas, bas ne uchun bormoq kuchi birla,
Bo'shar jismi, oqar qoni, anga majruh o'lub tan ham.

Nechakim tab'i noridur va lekin me'da norig'a,

Berur taskin, munung naf'in topibmen voqian men ham. [НавоийА.,
519]

Ushbu chistonda dastlab anorning ichki va tashqi tuzilishi tasvirlanadi. Navoiy o'xshatish (tashbeh) san'atidan foydalanib, anorni ichida cho'g' yonib turgan idishga qiyoslaydi: anorning tashqi ko'rinishini xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish(manqal)ga, ichidagi donalarni yonib turgan cho'g'ga o'xshatadi. Biroq anorni manqal desak, manqalning tutun chiqadigan joyi bo'lishi kerak. Anorda esa tuynuk ham, tutun ham yo'q. Shu bois keyingi baytlarda shoir ushbu o'xshatishdan voz kechib, anorni sadafga, uning donalarini dur-u gavharga mengzaydi va bu orqali zamon tuzumidan azob chekayotgan davr ahli, begunoh to'kilgan qonlarga ishora qiladi. Har ikki chistonda ham anor donalari qizilligini qonga o'xshatish bilan mazlum xalq obrazi gavdalanitirilgan. So'nggi baytda esa anor iste'molining tibbiy foydasi, xususan, o'zi ham naf topgani haqidagi mulohazalarini keltiradi.

Qiyosiy tahlillarni xalq og'zaki ijodi va zamonaviy shoirlar ijodidagi ayni predmet haqidagi topishmoqlar bilan kengaytirish mavzuni yanada yaxshiroq tushunish va tanqidiy-tahliliy fikrlashga asos bo'ladi. Masalan, darslikda mavjud "Qirq hujrada qirq qizlar" topishmog'idagi o'xshatishlar mazkur chistonlardagi tashbehtar bilan mushtaraklik hosil qilsa, "Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha" topishmog'idagi shakliy o'xshatishlar farqlanadi. Shuningdek, Anvar Obidjonning anor haqidagi zamonaviy she'riy topishmog'i ham bor:

Har donacham bir askar,
Bir qal'ada ming lashkar.
Ular yotar panada –

Oq pardali xonada.
Xonalar tinch, atrof jim.
Qal'achani buzsa kim,
Boshlanadi to'polon
Va to'kilar yana qon. [Obidjon A., 31]

Umuman olganda, qiyoslash orqali anor haqidagi jumboqlarda ushbu obyekt qandaydir boshpanaga (hujra, gumbaz, qal'a), ichidagi donalari esa kishilarga (qizlar, askarlar) o'xshatilishi folklor, mumtoz adabiyot va zamonaviy adabiyotda an'anaviylikka egaligi ayonlashadi.

O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish orqaliularga biror tanish obyektini tanlab, chiston tuzish, bunda til xususiyatlarini ham o'xshatishga harakat qilish topshirig'i berilganda, o'quvchi ham tengdoshlarini, ham o'qituvchini tafakkur qilishga undaydigan rang-barang ajoyib chistonlar yarata olishiga guvoh bo'lish mumkin. Tajribada Jondor tuman ixtisoslashtirilgan maktabning 7-sinf o'quvchilari printer, shaxmat, yomg'ir, makka jo'xori, galstuk, maktab sumkasi kabi predmetlarni yashirgan "chiston"lar tuzishdi.

Umuman olganda, chistonlar o'quvchini topqirlikka, obrazli fikrlashga, kreativlikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, tasavvurini kengaytirad. Qolaversa, ularda qo'llangan tashbeh, tajohuli orif, ruju' kabi badiiy san'atlar chistonning mohiyatini anglashga yordam berishi bilan birga, o'quvchining intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi bilan ta'limiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov S. va b. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – Toshkent: Sharq, 2020. – 272 b.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
3. НавоийА. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. – 528 б.
4. Obidjon A. O'g'irlangan pahlavon (She'rlar, doston va ertaklar). – Toshkent: Cho'lpon, 2006. –136 b.

MUSIQA VA ADABIYOT FANI INTEGRATSIYASI (NAVOIY HAYOTI VA IJODI MISOLIDA)

Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li,

Romitan tumani 1-IDUM musiqa fani o'qituvchisi,
NavDPI "Musiqqa ta'limi va san'at"
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy hayoti va ijodida musiqaning o'rni, musiqa va adabiyot fanlarining bir-biriga aloqadorligi haqida fikr yuritilgan. Navoiyning sharq musiqa ilmi rivojida tutgan o'rni, zamondoshlarining fikrlari, ijodining mumtoz musiqa san'atida ahamiyati, musiqa haqidagi qarashlari, hozirgi davr ijodkorlarining Navoiyga atalgan ijodi, musiqa asarlarida Navoiy siymosi haqida mulohazalar yuritilgan. Musiqashunos olimlar, professorlar Oqilxon Ibrohimov, Soibjon Begmatov, To'xtasin G'afurbekovlarning "Navoiy va musiqa" mavzusidagi izlanishlari, Navoiy ijodi va musiqa san'ati o'rtasidagi bog'liqliklar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, musiqashunos, g'azal, mutafakkir, Xamsa, chang, teatr, adabiyot, integratsiya, ta'lim.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy – adabiyotimizning yetuk va zabardast namoyondalaridan biri, shoir, mutafakkir, davlat arbobi, faylasuf, deya e'tirof etilishi bilan bir qatorda, musiqa ilmi fidoyilaridan biridir. Navoiy siymosini ko'pchilik jahon adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan mutafakkir, deb bilsa, shu o'rinda musiqa san'ati taraqqiyotiga bevosida xizmat qilgan arbob deyish mumkin.

Musiqashunoslar tomonidan "Navoiy va musiqa", "Navoiyning badiiy va ilmiy asarlarida musiqa", "Navoiy she'riyati o'zbek musiqa folklorida", "Navoiy va O'zbek mumtoz musiqasi", "Navoiy va bastakorlik ijodi", "Navoiy va sharq uyg'onish davri musiqasi", "Navoiy va sharq musiqa madaniyati" kabi mavzular tadqiq etilayotgani bejiz emas. Navoiy ijodi hamda musiqa san'ati o'rtasida bog'liqlik yuqori. Uning taxallusiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "navo" so'zi bevosita musiqa bilan bog'liq.

Musiqa fanining adabiyot bilan aloqadorligi barchaga ma'lum. Adabiyotda g'azal mulkining sultoni, deya e'tirof etilgan Navoiy ham musiqa amaliyotida ijod etgani ba'zi manbalarda yoziladi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida qayd etadiki, "(Alisherbek) yana musiqiyda yaxshi nimalar bog'labdur. Yaxshi naqshlari vapeshravlari bordir".

Ham vokal musiqa (naqsh) va ham cholg'u musiqa (peshrav) bo'yicha kuylar yaratgan, deb ta'kidlanayotgan Navoiyning musiqa asarlaridan ba'zilari bizning davrga yetib kelgan, degan taxmin bor. Jumladan, Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida "Qari Navo" yoki "Qari Navoiy" kuyi haqida yozadi: "Bu kuyning juda eski bir kuy ekani har tomonda so'ylanib turur. Eshitganimizga ko'ra, Farg'onada ham "Qari Navoiy" ismli eski bir kuy bor. Toshkent musiqachilari bu kuyni "Qari Navo" derlar. Biroq, bu ism yanglishdir. Alar shul "Qari Navoiy" ismini buzib olg'anlar. Buxoroning eski musiqashunoslarining orasida bu kuy Navoiy asari bo'lg'oni so'ylanadir. Mana shu ma'lumotlardan so'ng "Qari Navoiy" kuyining Alisher Navoiy asari bo'lg'ani ehtimoli kuchlanib qoladir". Xulosa shuki, Toshkentda "Qari Navo" deb ataladigan kuyni Navoiy yaratgan bo'lishligi joiz. Umid Bekmuhammad o'zining "Navoiy va musiqa" nomli maqolasida ham bu firklarni keltirib o'tgan. Ma'lumki, Alisher Navoiy o'z zamonasida cholg'ular va musiqa ilmi (musiqa nazariyasi) ga befarq bo'lmagan. Bastakorlar Hofiz Sharbatiy, Abdulla Marvarid, xonanda va sozandalar Ustod Qulmuhammad, Kamoliddin Husayniy va boshqa san'atkorlar bilan juda ijodiy muloqotda bo'lgan. Navoiyni o'z davrining musiqashunosi ham deyish mumkin. Navoiy musiqa sabog'ini o'z davrining nom qozongan darg'alaridan bo'lgan Xo'ja Yusuf Burhondan olgan, degan ta'kidni ham uchratamiz. Navoiy ijodida musiqa ilmiga oid risolalarni ham kuzatish mumkin. Jumladan, "Hazratning o'zlari qonun-u udda zo'r ta'lim olganlar. Binobarin, sozanda ahlining ko'pchiligi hamisha oliyhazratning mulozamatida bo'ladilar", deb Xondamir tomonidan yozib qoldirilgan.

San'atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimov tomonidan umumta'lim maktablari 7-sinfi uchun yaratilgan "Musiqa" darsligida "Sharq allomalari musiqa haqida" nomli mavzuda quyidagi fikrlarni uchratamiz.

Sharq mutafakkirlari musiqaning pok va go'zal muhabbat tuyg'ularini ifodalovchi ajoyib xususiyatlari haqida ham hikmatli so'zlarni bizga ma'naviy meros qoldirganlar. Bu o'rinda hazrat Alisher Navoiyning so'zlari bag'oyat ta'sirlidir:

*"Otashin yuzluk mug'anniyki, xilqidin muloyim surud chiqorg'ay,
Hol ahlining kuygan bag'ridin dud chigorg'ay".*

Ya'ni, ovozi chiroyli xonandaning yoqimli ashulasi muhabbat ahlining qalbini yondiradi, kuydiradi. ⁱ

Amaliyotda qo'llanib kelinayotgan umumta'lim maktablari 6-sinf "Musiqa" darsligi muallifi, musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, Soibjon Begmatov o'zining "Navoiy va musiqa" nomli

maqolasida, Navoiy g'azallarida musiqiy atamalarning qo'llanilganligi, uning musiqa ilmidan xabardorligi, musiqa ilmida ham mukammal ilm egasi ekanligini ta'kidlab o'tgan. Yana maqolada, Navoiyning ijod namunalarida bastakorlik - navosoz, nag'masoz, nag'mapardoz, naqshpardoz; musiqiy janrlar – soz, ovoz, navo, qo'shiq, un, nag'ma, shahnoz, surud, bayot, ohang, o'lan, arg'ushtak, savt, lahn; mumtoz namunalar Ushshoq, Navo, Rost, Isfahon, Iroq, Hijoz, Buzruk; ijrochilar – mug'anniy, mutrib, sozanda, xonanda, navozanda, xushnag'ma, nag'masaro, nag'makash, ilhomsaro, navokash, navha og'oz; cholg'ular – tanbur, ud, arg'anun, qonun, nuzha, naqqora, qovurg'a, chag'ona, sur, setor, surnay kabi so'zlarni uchratish mumkin. Bu esa, Navoiyning musiqa ilmi bilimdoni ekanini yana bir karra dalolatlaydi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, zabardast musiqashunos olimlardan biri, san'atshunoslik fanlari doktori, professor, To'xtasin G'afurbekov o'zining "Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri" nomli maqolasida Navoiy ijodiga chuqur e'tibor qaratgan holda, uning asarlarida musiqaning ahamiyatini atroflicha yoritadi. Navoiy asarlari ("Xamsa", "Xazoin ul-maoniy", "Devoni Foniy")da yuzlab maxsus musiqiy-kasbiy atamalar, tushunchalar, ibora va xususiy birikmalar uchrashi aytilgan. Yana bir ahamiyatli fikr, "Xamsa"ning to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor"ning bosh qahramoni Diloromni chang sozisz tasavvur qilib bo'lmasligi ta'kidlangan.

Chang olib torini tuzar erdi.

Lek jon rishtasin uzor erdi.

Chang toriga chin fig'on berdi,

Kimki O'ltirmish yerda jon berdi.

Alisher Navoiy ijodi zamonaviy o'zbek musiqasida ham o'z aksini topgan. XX asrda yaratilgan musiqa asarlarida Alisher Navoiy siymosi sahnaviy hayotini ko'rish mumkin. 1945-1948 yillarda Izzat Sulton va Uyg'un "Alisher Navoiy" dramasini, 1967-yilda I.Mahsumov va bastakorlar Y.Rajabiy va S.Jalil bilan hamkorlikda "Navoiy Astrobodda" musiqali dramasini yozdilar. Alisher Navoiy obrazi kinoekranda ham mujassamlashtirilgan. Alisher Navoiy dostonlari asosida 1937-yilda yaratilgan "Farhod va Shirin" musiqali dramasi, 1942-yilda yaratilgan "Layli va Majnun" operasi, 1967-yilda yaratilgan "Suhayl va Mehri" baleti, 1958-yilda yaratilgan "Dilorom" operasi, 1991-yilda yaratilgan "Iskandar" dramasi teatr san'atining eng yaxshi asarlaridan bo'lib qoldi. Bundan tashqari, xalqimiz qalbiga chuqur singgan maqomlarda, "Munojot", "Ko'rmadim", "Aylagach", "Yali-yali", "Ne navo" va boshqa bir qancha mumtoz taronalardagi so'zlar Navoiy qalamiga mansub.

Bugungi kunda ta'lim tizimida integratsiya tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. Boisi, fanlarni o'zaro aloqadorlik asosida o'qitish o'quvchilar qiziqishini oshirib, ularda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiya so'zi lotinchadan tarjima qilganda "integratio" - tiklash, to'ldirish kabi ma'nolarni anglatadi. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrda Spenser tomonidan izohlangan. Integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etamiz. Integratsiya endi shunchaki mavzular o'rtasidagi bog'liqlik emas, balki bitta darsda o'quv intizomining kombinatsiyasi bo'lib, bu o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda yangi yondashuvdir. Integratsiya bugungi kunda ijobiy mehnat qilayotgan har qanday o'qituvchini befarq qoldirmaydi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Barcha fanlar barobarida musiqa va adabiyot fanlarining ham aloqadorligi yuqori. So'z va soz tushunchalari hamisha egiz. Musiqani adabiyotsiz, adabiyotni musiqasiz tasavvur etish mushkul. Alisher Navoiy ijodida ham musiqa san'atiga e'tibor borligini yuqorida bir qancha manbalar asosida ko'rib chiqdik. Navoiy ijodi asosida o'zbek kompozitorlari va bastakorlari tomonidan yaratilgan mumtoz ashulalar, qo'shiqlar, romanslar, sahnaviy musiqa asarlari, opera, balet va boshqa janrlardagi musiqa asarlari asosida bu ikki fan (ilm) ning bog'liqligini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O, Sadirov J., Musiqa: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. -160 b.
2. Begmatov S., Musiqa: 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. -88 b.
3. Umid Bekmuhammad, "Navoiy va musiqa" (maqola);
4. Soibjon Begmatov, "Navoiy va musiqa" (maqola);
5. To'xtasin G'afurbekov, "Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri" (maqola);
6. Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li. Musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlik (integratsiya) // SAI. 2022. №B4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqa-madaniyati-darslarini-tashkil-etishda-fanlararo-aloadorlik-integratsiya> (дата обращения: 07.02.2024).
7. Abdumajidova Nozima Farhod qizi. ALISHER NAVOIY VA MUSIQA // CARJIS. 2022. №Conference DSMI. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/alisher-navoiy-va-musiqa> (дата обращения: 07.02.2024).
8. G'afurbekov T. Saylanma. T., 2009. 68-b.

ALISHER NAVOIY QIT'ALARINING BADIY TAHLILI VA ULARNI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLAR

Nazarova Dilnavoz To'ymurodovna,
Jondor tumani IM ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy qit'alarini o'rganishda badiiy tahlil, qit'alarda ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalar va ulardan adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: qit'a, qit'a namunalari, qit'a sarlavhasi, Alisher Navoiy qit'alarida umuminsoniy qadriyatlar, ayb qidirmaslik kabi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi va umr yo'li cheksiz bir ummondir. Bu ummonning bag'riga yetish, uni anglash uchun g'ovvos bo'lib dur-u gavharlarni terish zarur. G'arbda Chig'atoy adabiyotining buyuk vakili, sharqda "Nizomi millat va din" unvoni bilan ulug'langan, o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida mashhur bo'lgan Mir Alisher Navoiy ko'pgina sohalarga o'zining asarlari bilan katta hissa qo'shgan. O'zbek she'riyatida uning she'riy asarlari yuqori cho'qqida turadi. G'azal mulkinging sultoni, ruboiy, tuyuq, lug'z (chiston), fard kabi yigirmaga yaqin lirik janrning mohir ijodkori qalamidan chiqqan har bir ijodiy asar o'zining mukammalligi, beqiyosligi bilan ajralib turadi. Asarlarining ichida qit'alarining alohida o'rni bor. Zamonlar oshsa-da, o'z mazmunini, buyukligini, teranligini yo'qotmay kelayotgan bu asarlar necha zamonlar o'tibdiki, o'z mavzusi, g'oyasi bilan jamiyatda insonlar o'rtasidagi munosabatlarda ibrat kitobi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Xususan, Navoiy qit'alarining mavzusi, g'oyasi hayot bilan hamnafas. Bundan bir necha asr oldin yaratilgan bu noyob durdonalar xalqimizning ma'naviy xazinalaridan biridir.

Asliyatda, ya'ni arabcha "bo'lak, qism, parcha" kabi ma'nolarni ifodalovchi bu mumtoz janr o'zida muallifning turli mazmundagi fikr-mulohazalarini, qarashlarini, hayotiy xulosalarini ifodalaydi. Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida qit'a namunalari Hofiz Xorazmiy "Muhabbatnoma" (1 ta), "Bang va chog'ir munozarasi" (2 ta) mavjud bo'lsa-da, bu janrning yuqori mavqeyga ega bo'lishi Navoiy nomi bilan bog'langan. Navoiy qit'alari poetikasi uchun xos bo'lgan yangiliklardan biri ularning har biri maxsus sarlavhaga ega bo'lganidir. Qit'anavislikdagi bunday an'ana faqat forsiy shoirlardan Anvari (1090-1170/75) va turkiynavis shoirlardan Alisher Navoiy

devonlaridagina uchraydi. Biz bu o'rinda Alisher Navoiy hazratlarining qit'alarini sharh-u bayon etishni maqsad qilib, shoirning insoniy-axloqiy munosabatlarning ulug'ligini yana bir bor anglashga urindik. Ushbu maqola orqali Alisher Navoiy qit'alarida aks etgan umuminsoniy g'oyalar, qit'alar badiiyati va adabiyot darslarida uni o'rganishdagi interfaol metodlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Yuqori o'ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil,
O'lturur safda yuqorilikdin
O'lturur safda yaxshiroq bilgil.

Alisher Navoiy o'zining asarlarida hukmdorlar, mansab egalari haqida juda ko'p yozgan. Bu o'y-xayollar orzusida juda ko'p obrazlar yaratgan. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonidagi Shoh G'oziy hikoyatida shohning adolatpeshaligi oldida hatto ona ham o'z da'vosidan kechishi, yoki "Majolis un-nafois" asarining yettinchi majlisi "Salotin bobida" deb nomlanishining o'zida ham sultonlar va ularning davlat ishlaridagi amallari aytib o'tilgan. Navoiy o'zining orzusidagi hukmdor qanday bo'lish kerakligini o'zining asarlari orqali yaratgan obrazlari yordamida ifoda etgan. Yuqoridagi qit'ada ham hayotda faqat amal-mansab ilinjida yurib shuning orqasidan boyluk orttirib, o'zini, o'zligini unutadigan shaxslar hozirgi zamonamizda ham topiladi. Chunki mansab va boyluk o'tkinchi bu bilan mast bo'lib qolmaslik zarur. Orttirgan qudrat va martabasining bahosi yo'q va umri esa vafosizdir. Demak, nafsi pok va aqli sof kimsa bu mastliklardan o'zini behush qilmasligi va o'zini bunday ishlardan yiroqda tutishi, adolat so'rab kelgan har bir xalqning dardiga darmon bo'lishi kerakligini uqtirgan. Shu sababdan ham "yuqori o'ltirurni" tilagandan ko'ra oddiy odamlar qatorida turish afzalroqdir, deydi hazrat Navoiy. Alisher Navoiyning mazkur qit'asida ham inson va uning tabiati, fe'l-atvori haqida fikrlarni ko'rishimiz mumkin.

Ayb qidirmaslik haqida

Ta'bi ayb jo'ylik bo'lsa agar bas,
Tovus oyog'idan boshqasin ko'rmas.
Tozalik axtargil, ey o'zi xira
Ne ko'rsatar ko'zgu gar yuzi xira!
Barcha aybin yuzga solma, ey g'addor,
Sening ham aybingni ko'rsatuvchi bor.

Insonlar orasida shunday kimsalar ham borki, ular ayb topib, boshqalarning kamchiliklari ustidan kulib, sal biror narsada qoqilsa, unga yomon munosabatda bo'ladilar. Afsuski, bu azaliy muammolar bizning

zamonamizda ham uchrab turadi. Bunday insonlarning g'ofilligi oldida har qanday inson ko'ngli bir shisha kabi sinishi mumkin. Navoiyning bundan besh asr avval ilgari surgan g'oyalari bugun ham o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmay kelayotgani insonni hayratga soladi. Shunday ekan bu qit'alarni yosh avlodga o'rgatib har bir dars jarayonida hikmatlarni tatbiq etishimiz lozim. Xoh adabiyot darsi bo'lsin, xoh tarix darsi, ushbu asarlarga murojaat etishimiz zarur. Uning hikmat darajasiga ko'tarilgan har bir bayti zamirida olam-olam ma'no bor

Hajman ikki bayt va undan ortiq baytdan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan g'azal kabi a-b,c-b,d-b, ... tarzida qofiyalanadi.

Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari, **a**

Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming o'lingda **har zamon.** **b**

Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam, **c**

Ming qo'yni bir aso bila har yon surar **shubon.** **b**

Qit'alarining mazmun-mohiyatini o'quvchilar to'liq anglashi uchun turli xil ta'limiy metodlardan foydalanish o'rindir.

1. Qit'alar va ularda ilgari surilgan g'oyalarni aniqlashtirish uchun turli jadvali topshiriqlar bilan ishlash O'ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, O'quvchilarga havola qilingan jadvalda qit'a va unda ilgari surilgan g'oya, O'xshatilgan vosita, tanqid qilingan illatni aniqlash uchun quyidagi jadval havola qilinadi:

<i>Qit'a</i>	<i>Asosiy g'oyasi</i>	<i>Asosiy g'oyani ifodalagan kalit so'zlar</i>	<i>Tanqid qilingan illat, ulug'langan fazilat</i>
Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari, Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming o'lingda har zamon. Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam, Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon.	To'g'rilik, hayotda to'g'ri bo'lish	Tuzluk, qalam, raqam qilmoq, aso, shubon	To'g'rilik

2. Moslashtirish uchun qit'a va uning mazmuniga mos xalq maqollari va ibratli so'zlar beriladi, bunda o'quvchi qit'a mazmuni bilan tanishish va unga mos hikmatli so'zning mushtarakligini anglab qiyosiy tahlil qiladi.

Qit'a	Xalq maqoli
--------------	--------------------

<p><i>1. Kimki maxluq xizmatig'a kamar Chust etar – yaxshiroq usholsa beli. Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur Ki aning chiqsa egni, sinsa ili. Chun xushomad demakni boshlasa kosh Kim tutulsa dami, kesilsa tili.</i></p>	<p><i>Ilmsiz bosh qashir Xushomadgo'y gap tashir</i></p>
<p><i>2. Navoiy, tiling asrag'il zinhor, Desangkim, yemay dahr ishidin fusuz.</i></p>	<p><i>B. Til tig'i qilich tig'idan o'tkir.</i></p>

3. **“Tinglang va toping”** qit'alardan namunalar tinglab u haqidagi quyidagi topshiriqlarga yozma javob yozishadi.

1. **Qit'ada qo'llangan she'riy san'atni aniqlang** _____
2. **Qit'adagi qofiyadosh so'zlarni toping** _____
3. **Qofiyadosh so'z tarkibidagi raviyni aniqlang** _____
4. **Raviyning o'rniga ko'ra qofiya turini belgilang** _____

4. **“Navoiydan ilhomlanib”** interfaol metodi bunda o'quvchi taqdim qilingan qit'a mazmuniga mos hikoya yozishi, ijod qilishi topshiriq qilib beriladi. Bu metodni 7-sinf adabiyot darsidagi “Qit'alar tahlili” mavzusining “Uyga vazifa” qismida qo'llash o'rinli. O'quvchilarda ijodkorlik, kreativ fikrlash, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bu metod ularda yozma savodxonlikni ham o'stirishga yordam beradi. Bunda sinf o'quvchilarini guruhlarga bo'lib topshiriqni har bir guruh uchun shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Topshiriq. Qit'a matni bilan tanishing va uning mazmunini yorituvchi hikoya tuzing, qissadan hissa chiqarishda qit'a matnidan foydalaning.

*Kimki maxluq xizmatig'a kamar
Chust etar – yaxshiroq usholsa beli.
Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
Chun xushomad demakni boshlasa kosh
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.*

Alisher Navoiy ijodi har bir o'zbek ijodkori uchun ibrat va mahorat maktabidir.. Bunday o'lmas va boqiy asarlarimiz xalqimizning ma'naviy merosiga aylangan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik T.,2003
2. Navoiy asarlar tilining izohli lug'ati.4 jildlik T.,1983-1985
3. Ibrohim Haqqul . Kamol et kasbkim. T."Cho'lpon" .1991

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA NAVOIY IJODINI TURLI XILDAGI METOD VA VOSITALAR YORDAMIDA YORITISH

Mustafoyeva Dilnoza Hakimovna,
Vobkent tumanidagi 34-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga Navoiy ijodini turli xildagi metod va vositalar yordamida yoritish, axborot texnologiyalardan foydalanish mavzusida bo'lib, o'qituvchilarning darslarni tashkil etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, **AKT dasturlari**

Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda.

Turkiy xalqlar she'riyati tarixini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning ijodiy merosi o'zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she'riyatning davomi bo'lish bilan birga barcha zamonlardagi o'zbek she'riyatining eng yuksak cho'qqisi hamdir.

Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she'rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o'sha davr she'riyati rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

"Ta'riflar o'yini" metodi.

Metodni qo'llash:


Turli xil mavzular asosida ta'riflar tayyorlaysiz. Masalan adabiyot darsida Alisher Navoiy va Boburning hayoti va ijodini o'quvchilar qay darajada bilishini sinab ko'rish maqsadida.

Metod qoidasi:

O'quvchilardan xohlagan ikkita o'quvchi doska oldiga chiqadi. Ularning biriga Boburning, biriga esa Navoiyning portretini berasiz. O'quvchilar siz hozir o'zingizni xuddi Bobur va Navoiydek his qilasiz. Men o'qigan ta'riflar qay biringizga tegishli bo'lsa men deb bir qadam oldinga yuraverasiz!

Ta'riflar.

- 1.Xamsa asari muallifi?
- 2.12 yoshida podshoh bo'lgan kim?
- 3.Humoyunning otasi?
- 4.G'azal mulkingning sultoni?
- 5.O'zi haqida memuar asar yozgan?



Shunga o'xshash ta'riflar bilan davom ettirasiz.

Bu metodni boshqa fanlarda, asar qahramonlarini tahlil qilishda ham qo'llasa bo'ladi.



Dunyoda Alisher Navoiyga qo'yilgan bir nechta yodgorlik mavjud: Moskva, Navoiy, O'sh, Toshkent, Samarqand, Boku, Tokio, Shanxay. Vashingtonda ham Navoiyga yodgorlik o'rnatish rejalashtirilgan.

O'quvchilar A. Navoiy ijodi haqida so'zlab namunalar aytishgandan so'ng o'qituvchi A. Oripovning "O'zbekiston-Vatanim manim" she'ridan parcha o'qiydi.

Temur tig'i yetmagan joyni,

Qalam bilan oldi Alisher.

Qarang, ulug' bobomiz qilich bilan emas, qalam bilan olamni titratgan ekanlar, u kishining o'tkir so'zlari dushmanlarni zir titratgan. Men shularni o'ylab hammangizni Navoiy bobomiz istagan inson bo'lib yetishishingizni istar edim.

Biz ushbu maqolamizda shoirning boshlang'ich sinflarda hayot yo'li, ijro, so'zlash adabiyoti darslarimizda 4 K ga bog'lagan holda AKT lardan foydalanib o'tsak, albatta, bolalarning tushinishi, o'rganishi Navoiy bobomiz hamisha barhayotligi, g'azal, ruboiylari, qilgan ishlari, hikmatli so'zlari ila barhayotligi haqida ma'lumot berib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

- 1.Ochilov M.Pedagogik texnologiya.-T.,2004.
- 2.T.G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quv qo'llanma.-T.:Tafakkur, 2011.
4. <http://www.edunet.uz> – maktablar sayti.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIGA BIR NAZAR

Hamroyev Umid Mustafoyevich,

Shofirkon tumanidagi 22-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek she'riyati sultoni Mir Alisher Navoiy she'riyatining o'ziga xosligi, she'riy san'atlar: tarse', istixroj, kitobat, laff va nashr she'riy san'atlarning qo'llanishi haqida ma'lumot beradi.

Turkiy xalqlar she'riyati tarixini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning ijodiy merosi o'zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she'riyatning davomi bo'lishi bilan birga barcha zamonlardagi o'zbek she'riyatining eng yuksak cho'qqisi hamdir.

Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she'rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o'sha davr she'riyati rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Alisher Navoiy bolalik yillaridanoq badiiy ijod bilan shug'ullana boshlagan. "Uch yosh bila to'rt yoshning orasida" fosiy tilda ijod qilgan Qosim Anvorning Rindemu oshiqemu jahon so'z-u joma chok,

Bo davlati g'ami tu fikri jahon chi bok?

Mazmuni: Biz go'yoki beparvo oshiqlar-u yirtiq chopon, o't nafas,

Jahon g'ami sening g'amingga arzimas.

baytini yod o‘qib, yig‘ilganlarni hayratda qoldirganligi haqida o‘zining “Majolis un-nafois” asarida ma‘lumot bergan. Alisher 12 yoshlarida o‘z davrining “malik ul-kalom”i ya‘ni so‘z podshosi nomiga sazovor bo‘lgan Lutfiyning lutfiga, tahsiniga musharraf bo‘ladi.

Adabiyot ixlosmandlari undan devon tuzishni iltimos qilganlarida, u g‘oyat kamtarlik yuzasidan devon tuzish uchun hali vaqt erta deb hisoblaydi. Shunda shoirning muxlislari 1465 – 1466-yillarda uning she‘rlarini to‘plab, devon tuzadilar va bu devon o‘z davrida “xattotlar sultoni” nomi bilan mashhur bo‘lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta‘liq xatida ko‘chiriladi. Navoiyning o‘zi “Badoe’ ul-bidoya”ga yozgan debochasida: “...ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug‘roq, O‘ksukrakkim o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi”, deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlangan bo‘lib, unda 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas jami 434 she‘rdan tashkil topgan. “Ilk devon”dagi barcha she‘rlarning keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilganligi ularning Alisher Navoiy uchun ham qadrli bo‘lganini ko‘rsatadi.¹

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti turkiy she‘riyatning gultoji bo‘lib, jami 16 lirik janrni o‘z ichiga oladi. Bu she‘riy janrlar har bir devonga muayyan tartib bilan joylashtirilgan va bu janrlarga oid she‘rlarning umumiy soni 3132 ga teng. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi devonlarning janr xususiyatlarini kuzatadigan bo‘lsak, ular orasida o‘zaro mutanosiblik borligini ko‘ramiz. Xususan, “G‘aroyib us-sig‘ar” va “Navodir ush-shabob” devonlariga 8 tadan, “Badoye’ ul-vasat” va “Favoyid ul-kibar” devonlariga 9 tadan janr kiritilgan va devonlarning hajmi ham bir-biridan unchalik farq qilmaydi: “G‘aroyib us-sig‘ar”da 840 ta she‘r (5718, 5 bayt), “Navodir ush-shabob” devonida 759 ta she‘r (5423, 5 bayt), “Badoe’ ul-vasat”da 740 ta she‘r (5420 bayt) va “Favoyid ul-kibar”da 793 ta she‘r (588,5 bayt) mavjud. Bu janrlardan g‘azal, mustazod, musaddas, tarji‘band barcha devonlarga o‘zaro teng nisbatda joylashtirilgan.

Shoir she‘riy merosining hajmi nihoyatda beqiyos ekanligi haqida yuqoridagi faktlar asosida anglash qiyin emas. Biz birgina faktlarga tayanibgina qolmasdan buyuk siymo, she‘riyat mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning she‘riyatidagi o‘ziga xosliklar xususida ham mubohasa yuritamiz.

Shoir ijodida Zulqavofiy san‘atining keltirilishi she‘rning o‘qishli va ohangdorligini oshiradi. Zulqavofiy arabcha so‘zdan olingan bo‘lib - ko‘p qofiyalilik degan ma‘noni anglatadi. Bayt misralarida uch va undan ortiq so‘zni

qofiyadosh qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at bo'lib, bir yoki ikki so'zning qofiyalanmay, ochiq qolishi bilan tarse'dan farqlanadi.

Masalan:

Yuzing avji sabohatda mahi anvarg'a o'xshaydir,

So'zing koni malohatda tuz-u shakkarg'a o'xshaydir.

Baytda **z, t, r** tovushlari raviv vazifasini bajargan bo'lsa, bu ohangdoshlik zulqavofiy san'atini yuzaga keltirgan.

Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lum,

Qo'ldasa Xusrav bila Jomiy qo'lum .i

Eslatib o'tamiz: Tarse'da barcha misralar o'zaro qofiyalangan bo'lishi shart.

Ushbu baytda ham zulqavofiy san'atidan foydalanilgan.

Buyuk so'z san'atkori ijodiga nazar tashlaganimizda quyidagi baytda ham bir necha she'riy san'atlarning qo'llanganiga guvoh bo'lamiz:

Qaddig'a el mayli bo'lg'ondin ko'ngul ozurdadur,

Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

She'riy misralardagi **alif** so'zi istixroj san'atini yuzaga keltirgan. Istixroj arabchadan, "keltirib chiqarmoq", "so'z yasamoq" kitobat san'ati asosida hosil bo'ladi: bunda arab yozuvidagi harflarni biron narsaga o'xshatish bilan birga, bu harflarning yig'indisidan so'z hosil qilinadi. Baytda ma'shuqaning qaddi alifga qiyoslangan va baytda zor so'zi oldidan alif (o) ni qo'ysang ozor so'zi kelib chiqadi, bu esa istixroj san'atini yuzaga keltiradi.

Za'fdin qaddim "alif" bo'ldi, ul ikki "lom"i – zulf,

Har yonimdin jilvagar, vah, ne ajab gar lolmen.

Ushbu baytda shoir qaddi "alif" harfiga, yor zulflari esa "lom" harfiga o'xshatilishi bilan birga, ikkita "lom" (l) va "alif" (o) harflaridan "lol" so'zi hosil qilingan. Kitobat san'atining oliy ko'rinishi hisoblanadi.

Qaddig'a el mayli bo'lg'ondin ko'ngul ozurdadur,

Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Misralardagi **alif** so'zi istiora san'atini ham yuzaga chiqarishini kuzatish mumkin. Istiora arabcha so'z bo'lib, "qarz olish" ma'nosida keladi. Istiora ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Tashbehdan farqli ravishda, o'xshatish vositasi va o'xshatish sababi qo'llanmaydi. Bu yerda arab alifbosidagi birinchi harf yoki ma'shuqa qomati nazarda tutilgan.

Laff va nashr san'ati- yig'ish va yoyish san'ati hisoblanib birinchi misrada kelgan so'zni ikkinchi misrada o'sha so'zga oid boshqa so'z yoki shu predmet bilan bajariladigan harakat orqali izohlash.

Qaddig'a el mayli bo'lg'ondin ko'ngul ozurdadur,

Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Ushbu she'riy parchada qaddig'a va alif so'zlari laff va nashr san'atini hosil qilgan. Bunda qomat birinchi misrada yigish vazifasini o'tgan bo'lsa, ikkinchi misrada qad so'zi orqali zor va ozor so'zlarini hosil qilishda alif so'zi nashr san'atini yuzaga keltirilgan.

Biz ushbu maqolamizda buyuk shoirning lirik merosi uning she'rlarda chiroyli so'zlash, nodir, ajoyib ifoda ilmi hisoblangan she'riy san'atlar, badiiy tasvir vositalarining she'r badiiyatini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida ba'zi muhokamali she'riy san'atlar xususida ma'lumot berib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. Yusupova. "Adabiyot universal qo'llanma". Toshkent. 2013-yil.
2. Z. Mirzayeva va boshqalar .10-sinf adabiyot darslik .Toshkent. 2022-yil
3. D. Yusupova. "Aruz vazni qoidalari, mumtoz poetika qoidalari" Toshkent. 2019-yil 156-bet.
4. Q. Yo'ldoshev va boshqalar. 9-sinf adabiyot darslik .Toshkent. 2019-yil

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

To'rayeva Sanobar

A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti
turayeva.sanobar@mail.ru

XXI asr ta'limi oldidagi dolzarb muammolardan biri bu – axborot asrida o'quvchilarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishdan iborat. Sir emaski, virtual olam texnologiyalari davrida bolalar kitob o'qishdan ko'ra televizor, planshet, kompyuter yoki boshqa bir texnik vositalarda beriladigan axborot oqimi qurboniga aylanmoqda. Shunday keskin bir davrda kichik yoshdagi bolalarda kitobga, o'qishga, mutolaaga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish juda katta kuch va tizimli jarayonni tashkil etishni talab etadi. Har bir mamlakat zamonaviy ta'limiga o'z milliyligini singdirishga, uni yosh avlodga yetkazib berish usullarini joriy etishga harakat qiladi. Milliylikka yo'g'rilmagan ta'lim kelajakni tanazzul sari yetaklaydi. Bu avlod ajdodlari yaratgan milliy an'analarni ma'lum davr mobaynida yo'qotib, faqat qog'ozlarda saqlanib qolishiga sababchi bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish muammoning birinchi tomoni bo'lsa, mumtoz, tarixiy, eski

turkiy tilda yozilgan asarlarni o'qishga qiziqtirish masalaning ikkinchi tomoni hisoblanadi. Zamonaviy asarlar jozibadorligi, voqeabandligi, fantastikaga boyligi bilan har qanday kitobxonni o'ziga jalb etmay qolmaydi. O'quvchilar bu kabi asarlarni zo'r ishtiyok bilan o'qiydi. Ammo milliylikka asoslangan ta'limni mumtoz asarlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu kabi asarlarni o'qish, o'rganish, tahlil qilishga bo'lgan qiziqishni o'quvchi maktabga qadam qo'ygan kunidayoq boshlamoq zarur. O'zbek mumtoz adabiyoti Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Nodirabegim, Jahon otin Uvaysiy, Muhammadsharif Gulxaniy, Muhammad Rizo Ogahiy kabi namoyandalarning asarlari orqali tarixning buyuk zarvaraqlarida umrboqiy muhrlanib qo'yilgan.

Boshlang'ich sinflarda mumtoz adabiyotni o'qitishda alohida didaktik mezonlarga amal qilinsa, u kutilgan natijani beradi. Chunki mumtoz asardagi aksar so'zlar o'quvchiga tushunarsiz, talaffuz qilish murakkab, mazmunni anglashdagi qiyinchilik asarni o'qishga bo'lgan qiziqishni so'ndiradi. Odatda bu kabi asarlar boshlang'ich sinfning ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qitiladi. Shu davr mobaynida boshlang'ich sinflarda asosan Navoiy va Bobur asarlari, ularning hayoti va ijodiga bog'liq hikoya va rivoyatlar muntazam o'qitib kelingan. Shu bilan birga ularning ijodiga bag'ishlangan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazib kelingan. Ammo bu kabi mavzular va tadbirlar ma'lum davr mobaynida o'tkazilganligi sabab, o'quvchi ularni eslab qola olmaydi.

Boshlang'ich sinflarda mumtoz adabiyotni o'qitishning aniq strategiyasini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bunda bir qancha didaktik mezonlar inobatga olinish shart:

- 1) tanlangan asar o'quvchining hayotiy ko'nikmalariga mos bo'lishi; ya'ni o'quvchi undagi voqelikni tasavvur qila olishi nazarda tutiladi;
- 2) asar matnidagi aksar so'zlarning o'quvchiga tushunarligi; o'quvchi asar matnidagi so'zlar ma'nosini anglay olishi;
- 3) asar hajmini inobatga olish, bunda belgilangan me'yor zarur, asosan kichik hajmdagi asarlar tanlab olinadi. Katta hajmdagi asarlar mazmunini idrok etish, tushunish o'quvchiga turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Natijada asarni o'qishga bo'lgan motivatsiya yo'qoladi.
- 4) asarni tanlashda talaffuzi murakkab bo'lgan so'zlar ishtirokidagi matnlarga e'tibor qaratish, ya'ni talaffuz qilish, o'qish oson bo'lgan so'zlar ishtirokidagi asarlarni tanlash. Masalan, 3-sinfda Navoiyning quyidagi ruboiy matnini kiritish mumkin, o'quvchilar ruboiyni o'qishda deyarli qiyinchilikka uchramaydi:

*Jondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz,
Har neniki sevmak ondin ortiq o'lmaz,
Ondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz.*

Ruboiydagi chiroyli qofiya, so'zlarning takror qo'llanilishi o'quvchiga uni tez yodda saqlash imkonini beradi. Ruboiydagi so'zlar mazmuni ham o'quvchiga tanish, faqat ayrim so'zlar izohi ustida alohida ishlanadi.

O'qish, ya'ni o'quvchilarda savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish – o'ziga xos murakkab jarayon. Odatda esa aksar o'qituvchilar ularning o'qish va yozish ko'nikmasini rivojlantirish juda muhim ekanligiga e'tibor qaratmaydi. Psixolog Jon Gutri o'zining tadqiqotida o'qishga bo'lgan motivatsiyalarni bir necha xil ko'rinishlarda tavsiflaydi, jumladan:

- **Qiziqtirish:** mavzuni o'rganish istagi;
- **His etish:** adabiy matnni his qilishdan zavqlanish;
- **Muammoli vaziyatlar yaratish:** matndagi murakkab g'oyalarni tahlil qilish;
- **Hayotiy vaziyatlar yaratish:** o'quvchilar dars davomida guruhlarda o'qiydi va tuli ijtimoiy vaziyatlarda matnlarni almashtiriladi.

Yosh kitobxonlarning o'qishga bo'lgan qiziqishi kitob tanlashdan tortib, matndagi so'z va tushunchalarning ma'nosini anglash darajasiga, matn mazmuniga, illyustratsiyasiga, yozuvchining ijod tiliga, ularning qiziqishiga mos keladigan matnni tanlashga va ularga kitob tanlash imkoniyatini berish orqali rivojlantirilib boriladi. O'quvchilarda mumtoz matnlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishga yo'naltirilgan quyidagi usullar asar mazmunini chuqur o'zlashtirishga samarali yordam beradi. Masalan:

- Ruboiylarni ovoz chiqarib o'qish;
- Qatorlarni dialog tarzida o'qitish;
- Vizualizatsiya, miniatyura rasmlardan foydalanish;
- **Boshqotirmalar tayyorlash;**

-
- Turli janrdagi matnlar to‘plamidan foydalanish;
 - Sahnalashtirish;
 - So‘z xaritalari;
 - Jim suhbat: bir o‘quvchi qog‘ozga matn bo‘yicha javob yoki savol yozish orqali suhbatni boshlaydi, so‘ng uni yozma ravishda aytganlariga javob beradigan boshqa o‘quvchiga uzatadi. Oxirida guruhlar o‘zlarining jim suhbatlarini taqdimot qilishlari mumkin.
 - Davra suhbat;
 - **Murakkab matn haqida eslatma;** (dekodlash va ravonlik)
 - ✓ Matnni o‘quvchining **umumiy bilimi bilan bog‘lash.**

Boshlang‘ich sinflarda mumtoz asarlarni o‘qitish o‘quvchi nutqini, mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ona tiliga, adabiyotiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. Bu kabi natijaga erishish samarali pedagogik jarayonni yaratishga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchiga nimani o‘qitish kerakligini tanlashdan oldin, uni qanday o‘qitish usullarini ishlab chiqishi, o‘quvchi ehtiyojini inobatga olishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hamroyev M. Ona tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva; O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. 276.
2. Ernazarov G‘. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish uslubiyoti./Pedagogika yo‘nalishidagi kollejlarning 1-bosqich talabalari uchun o‘quv qo‘llanma/Ernazarov G‘.; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limini rivojlantirish in-ti. – T.: “ILM – ZIYO”, 2005. – 136 b.
3. Абдураимова М. Она тили дарсларида ўқувчилар нутқини кўмакчили бирикмалар билан бойитиш: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 56 б.
4. G. Boymurodova va boshq. O‘qish kitobi (Matn): 4-sinf uchun darslik o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma / G. Boymurodova X. Sattorova, Sh. Muslimova, F. Karimova. – T.: “Sharq”, 2017/ – 240 b.

IV SHO'BA.
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSINI O'RGANISHNING
INNOVATSION USULLARI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSINI O'RGANISHNING
AHAMIYATI

Zaripova Yulduz Ubaydulloyevna
Vobkent tumanidagi 4-maktabning
oliy toifali ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri, o'zining ijobiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o'chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo'ldi. Uning avlodlari esa ko'p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta'sir ko'rsata oldilar. Shu tariqa Bobur ulkan sulola asoschisi sifatida tarixda qoldi.*

***Kalit so'zlar:** "Xatti Boburiy", "Boburnoma", aruz, Dehli, Agra, Boburiylar sulolasi.*

Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lishi bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o'rin oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatning eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayyin" ("Bayon etilgan"), "Xatti Boburiy", "Harb ishi" va aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Tarixiy ma'lumotlarda aytilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300 yildan ortiq vaqt

hukmronlik qildi. Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi — 1530-yil dekabr oyida, Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga keltirib, dafn etdilar.

Boburning davlat ishlaridagi xizmati nimada? Avvalo, u Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, mamlakat yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish bog'-rog'lar yaratish ishlariga shaxsan o'zi homiylik qildi. Hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida kengaydi, deyish mumkin. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblari mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga kelgandi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida hind xalqining mashhur arbobi Javoharla'l Neru shunday yozgan edi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi".

Bobur Hindistonda katta hajmdagi adolatli davlat ishlari bilan bir qatorda, adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari "Boburnoma" hisoblanadi. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yaxshi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi — XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchi qismi — XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi — XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. "Boburnoma"da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinarkan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. "Boburnoma"ni varaqlar ekanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning

tafakkur olamining kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi.

Murakkab davr voqea-hodisalari batafsil bayonini "Boburnoma"da ko'rgan bo'lsak, shoh va shoir Boburning ichki kechinmalari, qalb tug'yonlari va orzu-a'mollari uning she'rlarida ko'rinadi. Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

**Tole' yo'qki, jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim, xatolig' bo'ldi,
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.**

Bobur lirikasida yor vasli, uning go'zalligi, hijron azobi, ayrilig' alamlari, visol quvonchlari go'zal va mohirona ifoda etiladi.

**Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrayi zardim.
Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.**

Shoir o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqiradi:

**Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,
Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur.**

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she'rlari va tarixiy "Boburnoma"sidan tashqari, islom qonunshunosligi va tasavvufda yaxshi asarlar yaratgan.

Xulosa shuki, adolatli shoh va buyuk shoir Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir hamda ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri, o'zining ijodiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o'chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo'ldi. Uning avlodlari esa ko'p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta'sir ko'rsata oldilar. Shu tariqa Bobur ulkan sulola asoschisi sifatida tarixda qoldi. Biz buyuk vatandoshimizdan jasurlik, fidoyilik, yurtparvarlik va oilasiga, avlodlariga oqibatlilik, jonfidolikni o'rganib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur. Tanlangan asarlar. O'z FAN, 1958.
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob, 1976.
3. Qudratullayev O'. "Boburnoma"ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili. Avtoreferat. T., 1998.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR - TARIXNAVIS

Qosimova Zulfiya

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
46-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Bobur tarixnavis adib ekanligi, asarlari esa bizga ma'naviy merosligi haqida yozilgan.*

***Kalit so'zlar:** "Boburnoma" asari, siyosiy va ijtimoiy hayot, she'riyat va adabiyot, san'at va me'morchilik.*

"Boburnoma"ni varaqlarkanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkardadir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayyin" ("Bayon etilgan"), "Xatti Boburiy", "Harb ishi", Aruz haqidagi risolalasi esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib,

Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg'inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo'li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng Bobur janubga qarab yo'l oldi va Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi. 1505–1515-yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko'rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So'ng, o'z mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519–1525-yillar davomida Hindistonni qo'lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston Sultoni Ibrohim Lo'di bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo'lgan janglarda Boburning qo'li baland keldi. Tarixiy ma'lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro'po tarixchiligida "Buyuk mo'g'ullar" nomi bilan "g'alati mashhur" bo'lgan, aslida "Boburiylar sulolasi" Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi.

Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi – 1530-yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar.

Biroq qisqa bir vaqt ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, bog'-rog'lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblarni mujassam etgan mukammal bir ma'naviy, ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharlal Neru shunday yozgan edi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va

yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi".

Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari "Boburnoma"dir. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni, ikkinchi qismi – XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afgonistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi – XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. "Boburnoma"da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinarkan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Boburnoma"da keltirilgan bu tarzdagi ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif "Boburnoma"da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Ulug'bek Mirzo va boshqa allomalar haqida o'zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi.

"Boburnoma" – Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'zida aks ettirgan bo'lsa ham, shu bilan birga juda ko'p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug'rofiy mavqeyi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari hamda ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari, hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'ziga qamrab olgan shoh asardir. Shu bois "Boburnoma" tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda.

Boburning o'z guvohligiga ko'ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan: «Ul fursatlarda

biror-ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o'rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to'plana boshlashi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o'rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg'in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko'p vaqti jangu jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan. O'tmish adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehri munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Bobur O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog' («Bog'i Bobur») bor. Bobur milliy bog'i majmuasi «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojdiyev) va Bobur bog'idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o'rnatildi. Andijondagi markaziy ko'chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog'i va ko'chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog'iga Bobur nomi berildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta'sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo'ldi. Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg'armasi Bobur ijodini o'rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg'armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o'tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma'lumotlar to'plab, ularni ilmiy iste'molga kiritdi. Mazkur ma'lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Z. Mashrabov, S. Shokarimov: «Asrlarni bo'ylagan Bobur»; S. Jalilov: «Boburning Farg'ona

davlati», «Bobur va Andijon»; Qamchibek Kenja: «Hind sorig'a»; X. Sultonov: «Boburning tushlari», «Boburiynoma»; R. Shamsuddinov: «Boburiylar izidan», «Boburiylar sulolasi»; T. Nizom: «Uch so'z»), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar»; T. Ro'ziev: «Bobur salomi», «Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya»; T. Hamidov: «Iftixor» va h.k.) yaratildi. Jamg'armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O'sh (Qirg'iziston), Toshkent, Namangan (O'zbekiston) shaharlarida bo'limlari mavjud. 1998-yil Jamg'armaning boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G'aybulloh as-Salom, Ne'matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg'oniston), Ma'murjon To'xtasinov, Ravshan Mirtojiev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzayevga berildi.

Xulosa shuki, adolatli shoh va buyuk shoir Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir hamda ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Biz yoshlar buyuk vatandoshimizdan jasurlik, fidoyilik, yurtparvarlik va oilasiga, avlodlariga oqibatlilik, jonfidolikni o'rganib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobur. "Boburnoma" asari
2. V. Zohidov. "Boburning faoliyati va ilmiy - adabiy merosi haqida.
3. Azimjonova S. IndiySKI divan Babura .T. Fan 1996
4. Xayriddin Sulton. Boburiynoma.-T.:1996
5. www.uzedu.uz

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA GEOGRAFIK JOY NOMLARI TABIAT VA SUV HAVZALARI KELTIRISHI

Qudratova Nilufar Rafiqovna

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi
3-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan shoir, mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy izlanishlari va qarashlari haqida mulohazalar yoritilgan.

Kalit soʻzlar. Oykonimlar, etimologik nomlar.

Oʻzbek adabiy tilining muhim yodgorligi boʻlmish Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari maʼnaviy qadryatlarimizning bir boʻlagi hisoblanmish toponomlar va ularning tarixini oʻrganizda noyob manbadir. Unda mingdan ortiq geografik nom, mamlakat, shahar va qishloq, qalʼa, dasht togʻ, dovon, dara, daryo, koʻl, chashma, bog, yaylov, oʻtloq va boshqa joy nomlari tilga olinib, ushbu maqolada joy nomlari tiliga olib ushbu maqolada joy nomlari teponimikasi boʻyicha soʻz yuritiladi.

"Boburnoma"da joy nomlari teponimikasi haqida soʻz yuritar ekanmiz, asarda uchraydigan toponimlar ular ifodalangan obyektlarning turiga koʻra bir necha guruhga boʻlinishini taʼkidlab oʻtamiz. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari tashkil etadi.

-Oykonimlar tashkil etadi. Jamiyatimizning koʻplab sohalariga va umumtaʼlim fanlariga, jumladan geografiya faniga ulkan hissa qoʻshgan shoir, mutaffakkir Zahiriddin Muhammad Boburning qarashlarini chuqurroq oʻrganish va yoshlarning eʼtiboriga havola etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Oʻrta Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston hududi tabiati haqidagi dastlabki ilmiy jihatdan mukammal geografik maʼlumotlar jahonga mashhur boʻlgan IX-XII asrlarda yashagan turkistonlik olimlar tomonidan yozib qoldirilgan boʻlsa, Zahiriddin Muhammad Boburning XV asr oxirida oʻzining "Boburnoma" asarida geografik maʼlumotlarni qoldirgan. Quyida shoh, adib va shoirning geografik faniga oid buyuk ishlaridan namunalar keltiramiz.

- "Boburnoma" da tabiat manzaralarining haqqoniy, jonli, tasvirga oid misollar koʻp. Ular chuqur bilim va turli fan sohalaridan keng maʼlumotga ega kishining xulosasidir. Mazkur tasvirlar muayyan oʻlka, mamlakat, shahar, qishloq haqidagi mushohadar yakunida yorqinroq koʻzga tashlanadi.

Amudaryodan oʻtib Qobul shahriga kirib borgan Bobur uning tasvirini shu darajada boy va sermazmun aks ettirganki, bu kishini hayratga soladi.

Tasvir keng qamrovli boʻlishiga qaramay bir mavzu ikkinchisiga xalal bermaydi, bayon esa qisqa va aniq. Muallif "Qobul viloyati toʻrtinchi iqlimdandur", deb soʻz boshlar ekan, avvalo, uning Yer kurrasidagi mavqeyini ilmiy jihatdan belgilaydi. Har bir jumla, ibora ilmiy asosga ega (Shimoliy Qunduz va Andarab viloyatidur. Hindiqush togʻi vositadur. Janubi Farmul va nagʻar va Bannu va Afgʻonistondur). Bunday ilmiy talqin bevosita bugungi Afgʻoniston deb atalmish mamlakat tarixiga ham dahldor.

Chunki Bobur davridagi – Afgʻoniston hozirgi hududni egallamagan, davlatning nomi kam – "Boburnoma"dagi – Afgʻoniston oʻsha payt yashagan

afg'on pashtunlarining joylarini anglatadi. Qandahor, Paktiya, Logar, Jalolobod va boshqa joylar, bugungi kundaliklar Boburning Hindiqush tog'ini vosital deyishida ham jon bor. Bu eng baland va yuqori tog' Xuroson o'lkasini janubidagi Afg'on va Hindlar yashaydigan o'lkalardan ajralib turgan.

- "Boburnoma"da zikr etilgan ko'p fan sohalariga doir tafsilotlar orasida sug'orish mavzui alohida e'tiborga molik. Ushbu mavzudagi sahifalar Boburning yaratuvchanlik faoliyatini – imorat qurish, bog' yaratish umuman hayotda umid va ishonch bilan yashashdek ruhiy xususiyatini ochishga ham ko'mak beradi.

Temuriylar davri taraqqiyotini ulkan shaharlarni bezagan bog' – rog'lar saylgoh va chamanzorlarni suv inshootlari qurulishi va ulardan foydalanish san'atsiz tasavvur etish amrimahol. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburdek tabiatga, shaharsozlikka, bog'u – rog'ga, me'morchilikka, chamanzorlar yaratishga rag'bati cheksiz inson bo'lgan.

Suv, yer, sug'orish, daryo va ko'llarga qiziqishini aytmasdan bu ulkan ijodkor dunyoqarashini to'raligicha tassavvur qila olmaysiz.

Asarda uchraydigan bir qator joy nomlarining zamirida o'zlashma, qatlamga oid forscha, tojikcha, arabcha so'zlar yotadi. Bunday toponimlar turli ma'nolarni ifodalovchi leksemlardan tarkib topgan.

Xulosa qilib aytganda, Bobur ijodida biz o'quvchilarda vatanparvarlik, vatanga bo'lgan muhabbat insoniylik tuyg'ularini shakllantiradi. Boburning hayoti yoshlar uchun ibrat maktabi desak mubog'ala bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobur "Boburnoma" asari - T: Fan, 2013-yil.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2002 I tom, 736 bob
3. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish – T: O'qituvchi, 1995-yil.
4. Qudratulloev H. Bobur armoni –T: Sharq nashriyoti, 2009-yil.

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARINI
O’RGANISHDA ADABIYOT VA TARIX FANLARINING O’ZARO
UZVIYLIKDA OLIB BORISH METODIKASI**

Rahmatova Olima Izzatulla qizi

Shofirkon tumanidagi 50-maktabning
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi,

Gadoyev Botir Bahodirovich

Shofirkon tumanidagi 50-maktabning
tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma” asarini o’rganish jarayonida qo’llash mumkin bo’lgan ba’zi metodlar nomi keltirilgan . Bobur asarlarining til xususiyatlari va o’ziga xos tomonlari haqida so’z yuritildi.

Kalit so’zlar: “Boburnoma” , Kobul, Hindiston, iqlim, memuar, Farg’ona vodiysi. “Zinama-zina” metodi , “Ha-yo’q” metodi, “Raqamlar tilga kirganda” metodi, “Teskari test” metodi.

Andijonda boshlanib, Hindistonda yozib tugatilgan “Boburnoma” asari XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi O’rta Osiyo, Afg’oniston va Hindiston xalqlari tarixi, tabiati, har bir tasvirlanayotgan hududning geografik o’rni, iqlimi, o’simliklari, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi va umuman, muallifning Farg’ona vodiysida o’tgan yoshlik yillaridan to Hindistonda podsholik qilgan yillarigacha bo’lgan voqea-hodisalarni o’z ichiga olgan tarixiy asardir. “Boburnoma”dagi ma’lumotlar bevosita Boburning kuzatishlari asosida yozilgan original asar bo’lib, muallif o’z asarini yozishda birorta ham xattot yollamagan. Asardagi keng qamrovli ma’lumotlar shu darajada qimmatliki, mana besh asrdan buyon tarixchilar, geograflar, tilshunoslar, sharqshunoslar, etnograflar, arxeologlar, adabiyotshunoslar va botaniklarni o’ziga jalb qilib kelmoqda. Asar uch qismdan iborat bo’lib, birinchi qismida Movarounnahr voqealari, ikkinchi qismida Kobul hududidagi voqealar, uchinchi qismida esa Hindiston aks ettirilgan.

“Boburnoma”dagi geografik nomlar, tarixiy sanalar va voqealarning ko’pligiga qaramay, u oson va qiziqib o’qiladi. Bobur asarda Movarounnahr, Afg’oniston, Xuroson, Eron va Hindistonning ko’plab shaharlarini tilga olgan. Andijon, Samarqand, Buxoro, Kobul, G’azna, Balx, Badaxshon, Dehli, Delavpur, Lohur shaharlarining geografik joylashishi, o’sha davr xo’jaligida tutgan o’rni haqida ma’lumotlar qoldirgan.

U tilshunoslikka doir maxsus asar yozmagan bo'lsa ham, lekin o'zining qomusiy asari bo'lgan «Boburnoma»da tilshunoslikka doir bir qator qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Professor N. Hasanovning ta'kidlashicha, «Boburnoma» asarida 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. «Boburnoma»da Bobur adabiy tilni xalq jonli tiliga yaqinlashtirish uchun harakat qilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bobur tilni boyitishga va soddalashtirishga, barqaror qo'llanilmagan ko'p so'zlarni ishlatishga harakat qildi va ulardan o'rinli foydalandi.

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida o'tkaziladigan dars jarayonlarida mavzu o'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun turli metodlardan foydalanish mumkin. Bularidan ba'zilariga to'xtalib o'tamiz. Masalan, "Zinama-zina", "Ha- yo'q", "Raqamlar tilga kirganda", "Teskari test" metodlaridan foydalanish mumkin.

"Teskari test" metodi – bunda o'quvchilarga testning savol qismi berilmaydi, faqat test kalitlari beriladi va har bir test kalitiga mos savol tuzish vazifasi topshiriladi. Masalan,

- ☐ "Xatti Boburiy "
- ☐ "Mubayyin" masnaviysi
- ☐ "Risolayi volidiya" asari
- ☐ Hasanxoja Nisoriy

O'quvchilarga ushbu test kailti berilgandan so'ng ular shunday savollar tuzishi mumkin:

1. Bobur qaysi yozuvni ixtiro qilgan edi?
2. Boburning musulmon axloqiga bag'ishlab yozgan asari qaysi qatorda berilgan? va h.k.

"Raqamlar tilga kirganda" - bu metodda o'quvchilarga Bobur hayotiga oid raqamlar beriladi va ushbu raqamlar bilan bog'liq ma'lumotlarni topish vazifasi topshiriladi.

Masalan, 1483 , 2, 12, 332, 1530 .

"Zinama-zina" metodida sinf o'quvchilari ikki guruhga ajratiladi va yozuv taxtasida zinapoya chiziladi. Har bir zinadan yuqoriga ko'tarilish uchun berilgan savollarga javob berish kerak bo'ladi. Zina pillapoyalaridan yuqoriga chiqib marraga yetgan jamoa g'olib bo'ladi.

1-guruh

2-guruh

Zina uchun savollar:

- 1- Bobur qachon va qayerda tug'ilgan?
- 2- Bobur Kobulda bunyod ettirgan bog' qaysi?
- 3- "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi qayerda joylashgan?

4- Kim Boburni “dilbar shaxs” deb ataydi?

5- Kim “Boburnoma” asarini “Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasi” deb ta’riflagan?

Bundan tashqari, o’quvchilar bilimlarini sinab ko’rish maqsadida XV asrning ikki buyuk ijodkorlari Alisher Navoiy va Bobur ijodini “Venn diagrammasi” metodi orqali solishtirish mumkin.

Boburning qoldirgan ilmiy merosi muhim tarixiy manba sifatida hozirgi vaqtda ham olimlar tomonidan keng o’rganilmoqda. «Boburnoma»ning o’ziga xos tomoni shundaki, unda muallif turli hududlarning tabiati, geografik xususiyatlari, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda xo’jalik imkoniyatlarini yaxlit majmua sifatida sodda tilda tasvirlaydi. Bobur tug’ilgan joyi Farg’ona vodiysi va umrining bir qismi o’tgan Hindiston geografik o’rni, tog’lari, suvlari, cho’l, yaylov va bog’lari to’grisida ularning hozirgi zamon holatiga to’g’ri keladigan qiyosiy ma’lumotlarni keltirgan. Shu nuqtai nazardan «Boburnoma»ni o’zbek tilida yozilgan dastlabki eng yirik tabiiy, tarixiy, geografik ilmiy asar, Boburni esa O’rta Osiyo, Afg’oniston va Hindiston geografiyasi birinchi bo’lib o’zbek tilida tasvirlagan olim, deb aytish mumkin. “Boburnoma” mukammal asarlardan biriki, unda ko’plab sohalar qamrab olingani hammamizga yaxshi ma’lum. “Boburnoma” ana shunday yetuk asar ekan, unda badiiy tasvirga xos talqinlar, voqea-hodisa, kishilar va o’sha zamonning qanday ekanligini, ayniqsa, ularning butun voqeiyiligini ko’z o’ngimizda gavdalantira olish hamda ta’sirchanlik ustuvordir.

Darhaqiqat, olimning yaratgan badiiy asarlari bilan bir qatorda O’rta Osiyo, Afg’oniston va Hindiston davlatlarining geografiyasi, tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tabiati, etnografiyasi va tibbiyotiga oid muhim ma’lumotlarni o’zida aks ettirgan «Boburnoma» alohida o’rin tutadi. «Boburnoma» Zahiriddin Muhammad Boburning Farg’onadagi yoshlik chog’laridan to Hindistonda podshoh bo’lganigacha boshdan o’tkazganlarining mufassal ta’rifidir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdurashid Abdug’afurov. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977;
3. O’zbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;
4. Boburnoma, Z.M.Bobur, Toshkent, 2008.
5. «Boburnoma»ning badiiy qimmatini haqida. S.Jamolov, Toshkent-1989.<http://wikipedia.org>

BOBUR RUBOIYLARIDA HASBI HOL

Sattorova Nargiza

Buxoro davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada Bobur ijodida ruboiylar yetakchi mavqe egallashi, ruboiylarida shoir hayotining turli qirralari haqida bahs yuritilishi bo'yicha fikr yuritilgan.

Atoqli shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyotiga o'chmas iz qoldirib, o'zining nodir asarlari bilan adabiyotimizni boyitdi. Z.M.Boburning g'azallari, ayniqsa, ruboiylari tilining soddaligi bilan kishini o'ziga jalb qiladi. Uning aksariyat ruboiylarida ona Vatan hamda unga bo'lgan sog'inchi aks etgan. U Hindistondan ulkan mamlakatni zabt etgan bo'lsa-da, bir umr yurtini sog'inib, o'rtanib yashaydi. Xuddi bola o'z onasiga talpinganidek, u ham diyoriga talpinadi, intiladi, sog'inadi. Ona yurtiga qaytish ko'nglida ulkan armon bo'lib qoladi. Shu sababli ham ijodining salmoqli qismida bu motiv yaqqol bilinib turadi.

Bu haqda M. Shayxzoda shunday deydi: "Bobur poeziyasi hamma narsadan avval zo'r samimiyat bilan kuylangan poeziyadir. U turmushdagi yutuqlarini katta sevinish kuylagani holda, mag'lubiyat va xatolarni ham uyalmasdan iqrar qiladi va bularni yumshoq alamlar bilan xotirlaydi". Quyidagi ruboiy Bobur hayotida va binobarin uning qalbida bir-biriga qarama-qarshi voqealar va ruhiy kechinmalarning yuz berganini ko'rsatadi:

Hijron g'amidin zaif jonim so'ldi,
G'urbat alami birla ichim qon to'ldi.
Yuz shukurki, muncha yilgi g'am birla alam,
Rohat bila ishratg'a mubaddal bo'ldi.

Bobur o'zining lirik she'rlari bilan o'zbek mumtoz she'riyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi, jahon adabiyoti o'lmas durdonalar bilan boyitdi. Maqsud Shayxzodaning Bobur haqidagi maqolasida Bobur ijodi juda keng masalalar va keng materiallarni o'z ichiga olishi, Boburning merosi mufassal va mukammal tekshirishga haqli ekanligi aytiladi. Olim shoir yashagan davr bilan bizni tarixning besh yuz yillik masofa ajratib tursa-da, shoirning nomi xalqimiz qalbidan munosib o'rin olganligini to'g'ri e'tirof etadi.

18-19 yoshlarida Boburning boshiga og'ir kulfatlar tushadi. Saripul jangida Shayboniyxon g'olib chiqqandan keyin Bobur Mirzo onasi va yaqinlari

bilan Samarqandda besh oy qamal azobini tortadi. Opasi Xonzodabegim Shayboniyxon haramiga to'rtinchi xotin bo'lib tushadi. Andijonni Ahmad Tanbal egallaydi. Xonumonidan ayrilgan Bobur onasi bilan Toshkentga, tog'asi Mahmudxon oldiga keladi. Tog'asi uni munosib kutib olmaydi. Shoir bu holatlardan qattiq ta'sirlanib, ona diyorini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Shu og'ir pallada Bobur o'zining birinchi ruboiysini yozadi:

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngilni g'urbatda kishi.
Ko'nglim bu g'ariblikda shod bo'lmadi hech,
G'urbatda sevunmas emish, albatta, kishi.

Bobur ruboiylari tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Quyidagi ruboiyda:

Ko'ngli tilagan murodiga yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Gar bu ikkisi muyassar o'lmasa olamda
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Boburning o'z taqdiri aks etib turadi. Ushbu ruboiyda uning taqdirida yuz bergan keskin burilishlar aks etgan. Ilk misrada shoir ko'nglidagi orzuniyatlar ushalmaganini, yuragidagi armon, ya'ni otasi vafot etgandan so'ng, yurtni himoya qilolmay, uni yog'iyilarga berib qo'yganligi aks etgan. Ikkinchi misrada esa uning boshqa armoni tasvirlangan. Bobur yoshligidan janglarda qatnashib, yurtini tashlab ketishga majbur bo'lib, Hindistonda mashaqqatlar bilan ulkan imperiya quradi. Bu, albatta, insondan katta kuch, metin iroda talab qiladi. Bobur saltanat ishlaridan charchaydi, umrining so'ngini ijodga bag'ishlashni xohlaydi, lekin bu orzusiga ham yetolmaydi. Keyingi misrada esa yuqoridagi ikkala orzusi amalga oshmaganligini aytib o'tgan. Oxirgi misrada esa yurtini qaytarib ololmagani, o'z yurtini tark etib, Hind yeriga ketganligi o'z aksini topgan.

Bobur mag'lubiyatga uchrab, barcha ishlari orqaga keta boshlagan kezlarda uni malomat qiluvchilar, ayblovchilar ko'payadi. U o'z taqdiridagi bu keskin burilishni yana bir ruboiyda talqin qiladi:

Ne xesh meni xushlaru ne begona,
Ne g'ayr rizo mendinu ne jonona.
Har nechaki yaxshiliqta qilsam afsun,
Xalq ichra yomonlig' bila men afsona.

Yuqoridagi ruboiyda begonalarni uni xushlamasligi tabiiy, biroq ishi orqaga ketgan paytda qarindoshlarning uni xushlamasligi, norozi bo'lishi

g'alati. Yaxshiliklar qilgan bo'lsa ham, endi boshiga og'ir kun tushganda xalq ichida uni yomon so'zlar bilan afsona qilib yurishadi.

Xulosa qilib aytganda, Boburdan bizga ulkan badiiy meros qoldi. Uning ruboiylari tilining soddaligi bilan kishini o'ziga rom etadi. Uning ruboiylari orqali uning hayot yo'lini bilib olishimiz mumkin. Og'ir paytlarda uni yaqin xesh-aqrabolari, xotini tashlab ketadi, garchi madad bera olish qo'llaridan kelsa ham, undan yuz o'girishadi. Bobur bu holatdan qattiq iztirobga tushadi, yuragidagi qayg'u-alamlar ruboiy, g'azallarga ko'chadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akram Botirxon «O'z yerni qo'yib Hind sari yuzlandim» «O'zbekiston ovozi» 1998- yil, 14- fevral.
2. www.ziyonet.uz

“BOBURNOMA” ASARIDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI IFODASI

Sirojova Dilyora Fayzullo qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: “Bu bizga tarix va zamonaviy sivilizatsiya uchun muhim hujjat bo'lgan adabiy-badiiy portretlar galereyasini taqdim etadi”. Bu yerdagi portretlardan biri Xuroson va butun turk dunyosining eng mashhur siymolari va shoirlaridan biri Alisher Navoiyga tegishli ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: “Boburnoma”, Vaqoe, Z.M.Bobur, A.Navoiy, Husayn Bayqaro, F.Grenard, Algar, “Mezon ul-avzon”

Mana oradan besh asrdan ortiq vaqt o'tibdiki, ulug' mutafakkir bobolarimiz, so'z mulkinging sultoni Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning boy ma'naviy merosi butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga, ong-u shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat va mehr-muruvvat nurini taratib kelmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur turkiy adabiyotning eng muhim shaxslaridan biridir. U ko'plab Turk hukmdorlar singari buyuk san'atkor va davlat arbobi hamdir. U o'z devoniga ega shoir va “Xatti Boburiy” yozuvini yaratgan xattotdir. Shuningdek, Bobur o'z davrining muhim voqealarini, hayotini, olib borgan urushlarini, o'zi bilgan san'atkor va davlat arboblari “Vaqoe” ya'ni “Boburnoma” asarida tasvirlab bergan. Ushbu asarni turli nuqtayi nazardan o'qish va baholash mumkin. “Vaqoe” – fathlar ortidan yurgan jahongir xotiralari, umri davomida ko'p

voqealarga guvoh bo'lgan hukmdorning kundaligi, tevarak-atrofini, askarlari bilan sarguzashtdan sarguzashtga o'tgan hayot kechinmalarini samimiy tahlil qilib, nasriy tilda so'zlab bergan ijodkor xotiralari to'g'risidagi memuar asar desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarning ham o'ziga xos qiymati bor. Unda "Bobur ochiqko'ngillik va kamtarlik, hatto hayotining oddiy jabhalarigacha tortinmasdan ochib berganini ko'rishimiz mumkin. Kitobxon asarni o'qish jarayonida o'quvchi Boburni hukmdor sifatida emas, balki o'zini boshidan kechirganlari haqida shirin hikoyalar aytib berishni yoqtiradigan mehribon suhbatdoshni uchratgandek his qilishlarini xohlagan. Darhaqiqat, asar o'qilganda Bobur go'yo suhbatdoshi bilan suhbat qurayotgandek ko'rinadi. Kishi asar muhitiga sho'ng'ib ketgandek bo'ladi. Xuddi Fernand Grenard aytganidek: "O'quvchi o'zini uning xizmatkoridek his qiladi".

Bobur o'z xotiralarida: "Bu bizga tarix va zamonaviy sivilizatsiya uchun muhim hujjat bo'lgan adabiy-badiiy portretlar galereyasini taqdim etadi". Bu yerdagi portretlardan biri Xuroson va butun turk dunyosining eng mashhur siymolari va shoirlaridan biri Alisher Navoiyga tegishlidir. Navoiy haqida "Boburnoma" da uchragan ma'lumotlarni uning hayoti, adabiy shaxsi va davlat arbobi nuqtayi nazardan muhokama qilish orqali Bobur o'z asarida Alisher Navoiy nomini 16 marta tilga olgan. Bobur Navoiy haqida yozar ekan "Usmonli shoirlarga ta'siri yetib borgan Navoiy o'z asarlari bilan chig'atoy adabiyotining asoschisi hisoblangan va shu sababli Chig'atoy turkchasi "Navoiy tili" nomini olgan. Oilasi Temuriylar sulolasining xizmati va himoyasida bo'lgan Navoiy Hirotning markazi bo'lgan Xurosonni uzoq vaqt boshqargan Husayn Bayqaro bilan birga ta'lim olgan va birga ulg'aygan. Ularning birligi Husayn sulton bo'lgandan keyin ham davom etgan".

Darhaqiqat, "Husayn Bayqaro va Alisher Navoiy klassik chig'atoy adabiyotida "Navoiy-Bayqaro davri" deb atalgan davrni ochganlar". Bobur ham Navoiy va Bayqaro o'rtasidagi yaqinlikni: "Mirzoning begi emas, balki uning hamrohidir", deb ta'kidlagan.

"Boburnoma"da ifodanganidek, Navoiy juda nozik xususiyatlarga ega. Asarning ba'zi o'rinlarida Navoiyning hassosligi bilan bog'liq bir voqea hikoya qilinadi: "Bir kuni Alisher va Badiuzzamon Mirzo o'rtasida shunday suhbat bo'ldi. Alisher past ovozda Mirzoga ko'p samimiy suhbatlarni aytdi va shunday dedi: "Bu so'zlarni unut",-deb qo'shib qo'ydi. Mirzo darhol: "Qaysi so'zlar?"-deb so'raganida Alisher juda ta'sirlandi va uzoq vaqt yig'ladi". Bu suhbat Mirzoning tez tushunganligi va Alisherning sezgirligidan dalolatdir.

Yana asarda Navoiyning ukasi Darveshali tilga olingan. Boburning yozishicha, Darveshali bir muddat Balxni boshqargan bo'lsa-da, u iste'dodli

shaxs emas edi. Uning soʻzlariga koʻra, Darveshali davlat boshqaruvi borasida malakali boʻlishdan yiroq edi. Hatto Husayn Bayqaro ham uning tufayli harbiy yurishlarning birida muvaffaqiyat qozona olmagan. Boburning fikricha, Darveshali Navoiy tufayli hurmatga sazovor boʻlgan.

Asarning keyingi boʻlimlarida Navoiy va uning asarlari haqida maʼlumot berilib, quyidagi mulohazalarni bildirish oʻrinli. Asarni kuzatar ekanmiz, Bobur Navoiyga yuksak baho berish bilan birga, ayrim oʻrinlarda tanqidiy fikrlarni kuzatish mumkin. “A.Navoiy noyob inson edi. U turk tilida shunchalik koʻp sheʼrlar yozganki, hech kim bunchalik koʻp va xoʻp aytgan emas. Oltita masnaviy kitob tuzgan. Ulardan beshtasi “Xamsa” uslubida, biri esa “Lison ut-tayr” deb atalgan. Uning ruboiylari ham bor: lekin ular zikr qilinganlardan pastroq va zaifroqdir. Navoiy “Mezon ul-avzon” nomli aruz haqida yozgan risolasida tanqidiy jihatlar ham koʻp. Bular aruz bilan shugʻullanuvchilarga maʼlum. Fors tilida ham devon tuzgan. Forscha baytlariga Foni taxallusini qoʻllagan. Devoni haqida: “Yomon emas, ammo koʻpchiligi zaif va qadrsizdir,”-deya baho bergan. Boburning fikricha, uning gʻazallari ruboiylaridan ustundir.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Navoiy haqidagi bu kabi maʼlumotlar “Boburnoma”ning turli boʻlimlarida keltirilgan. Oradan necha asrlar oʻtgan boʻlsa-da, adabiyotimiz tarixi nuqtayi nazardan oʻz qadrini saqlab kelmoqda. Qolaversa, bularning zamondosh adib va hukmdor Bobur tomonidan yozib olingani ham maʼlumotlarning ishonchliligi uchun juda muhimdir. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, Navoiyning hayoti, shaxsiyati va davriga oid muhim taʼriflar qisman boʻlsa-da izohlandi. Bu kabi asarlarda ajdodlarimiz hayoti va ijodining oʻrganilishi kelajak avlod uchun dasturulamal boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 13-том. Мажолис ун-нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. – 300 б.

2. Zahiriddin M.B. Boburnoma. – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1960. – 504 b.

3. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 426 б.

4. Algar, Hamid va Alpasrlon, Ali –“Husayn Bayqaro” maqolasi 1998-yil.18 jild.530-532-betlar Turkiya Diniy fondi Islom ensklopediyasi

**YOSHLARNING INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIYATINI
OSHIRISHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
IJODIY MEROSINING O'RNI**

Haqnazarova Gulnoza Nusratilloevna

G'ijduvon tumanidagi 18-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Har bir xalqning tarixiy madaniy-ilmiiy qiyofasini belgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari, buyuk olimlari bo'ladi. Insoniyatning adabiyotga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z o'rniga ega. Insoniyat tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi.

Bobur - buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'p qirrali, faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina "Boburnoma" uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir. Bobur hatto o'z she'riyatida insonni yuqorilarga ko'tarib, unga ulkan hurmat ila munosabatda bo'ladi, inson qadr-qimmatini baland qo'yadi. Boburning fikricha, xudbinlik, hurmattalablik, qizg'anchilik, manmanlik-noqobil sifatlardir. Shoir odamlarga samimiy maslahatlar beradi. O'zining ruboiylarida inson qanday qilib o'zini ma'nan tarbiyalashi kerakligi haqida gapiradi. Bobur odamlarga samimiy maslahatlar beradi. O'zining ruboiylarida inson qanday qilib o'zini ma'nan tarbiyalashi kerakligini haqida gapiradi.

Bobur o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqirdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa,

serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi.

Xalq, haqiqat va nafosat o'lmaydi, ularni ardoqlagan, kuylagan ham mangudir. Bobokalonlarimiz Navoiy va Bobur ham o'z asarlari orqali barhayotdir. Ular quyosh yanglig' so'nmas sehrli badiyat yaratdi. Bu ikki zamondosh shoir o'z asarlarida yuksak insoniy tuyg'ularini tarannum etdi. Mana shunday o'lmas tuyg'ulardan biri – bu Vatan tuyg'usidir. Har ikki ijodkor lirik she'rlarida ham, epik asarlarida ham Vatan mavzusini mahorat bilan ulug'ladi.

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama.

Ajabmaski, Navoiyning bu durdona fikrlari Boburga bashorat bo'lib tuyulgan bo'lsa. Bobur hali yurt ilhomlarini o'z qalbiga to'la oshno qilmay turib, o'spirin chog'laridanoq qo'lga qilich tutganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Boburning dilida saltanat ishq, temuriylarning yagona qudrati davlatni tiklash havasi jo'shib, tuyg'un qilardi. U bu harakati bilan o'zaro qirg'in-qabohatlarga barham bermoqchi bo'ldi, lekin tarixning shafqatsiz to'lqini uni Vatandan badarg'a etdi. Mana shoirning o'zi hasrat, afsus va nadomatlar bilan bu haqda nima degan edi:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki, ayladim - xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?

Shoir umr bo'yi Vatanni eslab, hijron o'tlarida yonib, g'ussaga ko'milib yashadi. Bobur so'nggi nafasigacha ona –yurt xayoli bilan yashadi. Shoir olis yurtlarda vatanini qo'msab, ko'plab ruboiylar yozdi.

Mazkur mavzuga yuzlanar ekan, insonning hayotdagi eng asosiy vazifasini shoir yaxshilik, bag'rikenglik va haqiqatda ko'radi. Do'stlik – insonning eng asosiy jihati va dushman bilan kurashda ulkan kuch deb hisoblaydi.

Zahiriddin Muhammad Boburning barcha yaxshi fazilatlari har bir yosh avlodga o'rnak bo'ladi. Boburdagi jasorat, vatanparvarlik, kamtarlik, fidokorlik, samimiylik, bag'rikenglik kabi fazilatlaridan o'rnak olsa arziydi. Biz kelajakda Zahiriddin Muhammad Boburdek mard, jasur yigitlarni tarbiyalashimiz zarur. Shunday ekan bugungi yoshlarga "Boburnoma" asarini o'qishlarini maslahat bergan bo'lardim. Chunki bizning buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburni asarda uning o'tmishi, farzandlariga mehribon ota, atrofidagi insonlarga samimiy, kechirimli, hatto

dushmanlariga yomonlikni ravo ko'rmaydigan inson bo'lganlarini bilib olishimiz mumkin. Bobur bir umr Vatanini sog'inib yashagan. Shunday ekan, bugungi yoshlar shunday yurtda yashayotganlaridan qanchalik faxrlansalar arziydi.

Xulosa shuki, adolatli shoh va buyuk shoir Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir hamda ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Boburnoma" asari.
2. V. Zohidov. Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda Bobur. Boburnoma.-T:1960:
3. H. Qudratullayev. Boburning adabiy -estetik qarashlari.-T.Fan.1983
4. X. Nazarova „Boburnoma“ tilining sintaktik qurilishi. Dokt.diss-T:1980
5. Xayriddin Sulton. Boburiynoma.-T: 1996.

BOBUR VA JO'RA FOZIL IJODIDA PEYZAJ

Latipova Sayyora Tohir qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda peyzajning o'рни muhimligi haqida so'z boradi. Yozuvchilarning tabiat tasviriga bag'ishlangan ijod namunalari dalillar asosida izohlanadi. Tabiat tasvirlarining go'zalligi bayon etiladi.

Kalit so'zlar: peyzaj, yozuvchi mahorati, uslub, obraz, roman, moziy tasviri, sujet.

Peyzaj bu badiiy so'z yordamida tabiatni tasvirlashdir. Tabiatni tasvirlash vositasida yozuvchi o'zining ijodkorlik mahoratini namoyon etadi, dunyoqarashi, tafakkurini ma'lum ma'noda kitobxonga yetkazadi. Fikrimizcha, aksariyat asarlarda yozuvchining xarakteri ham o'z aksini topgan bo'ladi.

Davlat arbobi, sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" nomli memuar asari tarixiy voqealarni, yozuvchi shaxsini, ijodini bilish, o'rgansh uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Asardagi joy nomlari tavsifi, tabiatning juda go'zal ta'riflanishi, insonlar

shaxsi, xarakteri yorqin aks ettirilishi mazkur asarning badiiy qiymatini yanada orttirgan. Xususan, uning “Boburnoma” asarida shunday ta’rif mavjud: “Jud tog’ining orasida hamvor yere tushubtur, bu hamvor yerning o’rtasida bir ulug’ ko’ldur, atrofida tog’lardin yomg’ir suvlari yig’ilib bu ko’l bo’libtur, Gardo-girdi uch kuruhga yovushg’ay. Shimolida yaxshi o’lang voqe bo’libtur, g’arbida, tog’ domanasida chashmadur, bu chashma suvi balandilardag’akim, bu ko’lga mushrifdur, o’ltirur uchun qobil yer edi, bog’e soldim”. Ulug’ shoir va mashhur sarkarda o’sha davrda jang-u jadallar, notinchliklar orasida yashashiga qaramay, o’z asarida Jud tog’ining o’rtasida ulug’ ko’l borligini va bu ko’l suvi toza ichimlik suvi ekanligini, u yom’ir suvlari to’planishi natijasida hosil bo’lganligi haqidagi ma’lumotlarni batafsil yozib qoldiradi. [Rasulova O.]

Boburning gullarga, ularning joylashishiga bergan ta’rifini o’qigan kitobxon ajablanishi tabiiy hol, negaki Bobur umri davomida faqat gullarga mehr bergan, bog’lar yaratgan bog’bon emas, ammo uning ta’rifi bog’bonlardek nozik edi: “Tepaning olti tarafida bir qator sariq, bir qator arg’uvoniy gullarni hat-hash musaddas shaklida” ochilishi kabi go’zal ta’rifni biz hozirgi kunga qadar ishlatamiz.[Rasulova O.]

Bundan tashqari, mazkur asarda bir qancha joy nomlari, hayvonlar, o’simliklar olami, shu jumladan, sumbul daraxti, tabiat fasllari, hodisalari mahorat bilan tasvirlanganki, natijada bugungi kunda yashab uzoq o’tmishning manzaralarini tasavvur qilish, his qilish imkoniyati mavjud bo’ladi.

Oylarxon Rasulovanning bergan ma’lumotiga ko’ra, Bobur odamlarning salomatligi, sog’lom turmush tarsi uchun jiddiy qayg’urgan. U Hindistonga kelgach shunday fikrlarni keltiradi “Elida husn yo’q,...yaxshi mevalar yo’q,...bozorlarida yaxshi osh va yaxshi non yo’q va hammom yo’q va madrasa yo’q va sovuq suv yo’q...”

“Boburnoma”da keltirilgan tabiat tasvirlari bugungi kunga qadar o’zining adabiy qiymatini, ahamiyatini yo’qotgani yo’q.

Buxoro adabiy harakatchiligi vakillaridan biri bo’lmish yozuvchi Jo’ra Fozil ijodida anchagina tabiat tasvirlariga duch kelamiz. Adib tabiatni sevadigan, unga hurmat bilan qaraydigan shaxs. Shu sababli, uning har bir asarida peyzajning go’zal na’munalarini uchratishimiz mumkin.

Jo’ra Fozil ijodining o’ziga xosligini yaqqol namoyon qiluvchi bir xususiyat bor bo’lib, u har bir asaning boshlanmasida tabiat tasvirlaridan unumli foydalanishidir. Uning barcha hikoya, qissa, romanlarida tabiatning go’yo mohir rassom qo’li bilan chizilgan ajoyib tasvirlari bor va bu

tasvirlar tabiiyligi, voqea oqimiga uyg'unligi bilan e'tiborga molik. Masalan, "Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni" hikoyasida bu jihatni ko'rish mumkin: "Amudaryo masr tuyaga o'xshab pishqirganicha, qirg'oqlariga asabiy bosh urar, sohildan o'pirilib tushayotgan tog'dek tuproq uyumlarini bir zumda yamlab yutardi", "Oshiq Buxoriy qissalari" turkumi: " Sahro shamoli son-sanoqsiz qum zarralarini uchirib o'ynar, uning bir maromda guvillashi aro dilgir ohang eshitilar va olis-olislarda, tiramoh quyoshida tovlanayotgan malla barhanlar ortida kimdir nola chekayotgandek bo'lardi", "Tiramoh armonlari" romani: "Kuzning so'nggi kuni, qishning birinchi tuni edi. Novdalarda behol titrayotgan yakkam-dukkam yaproqlar, oyoq ostidagi xor-zor xazonlar, aftodahol daraxtlar tuni bilan uvvos solib yig'lardilar. Ona tabiat Buxoro ko'ksidagi aqrabga motam tutib bo'zlardi go'yo", "Ayriliq ostonasi" romani "Lojuvard osmon sekin-asta bo'zarib, Xontangri tog'ining qorli cho'qqilari shaftoli guli rangini oldi... Tiramoh za'faron etagini sudrab, Oltoy cho'llariga tashrif buyurdi. Qovjiragan o't-o'lanlar shamol bilan o'chakishib, o'zlarining hazin qo'shiqlarini boshladilar. Poyonsiz sahro sokin tuyulsa-da, samo havotirga to'la, olis-olislardan otlarning bezota kishnashi eshitilar, past-baland qirlar ortida allaqanday sir yashirin edi go'yo" tasvirlari bilan boshlangan. Albatta, har bir nasriy asarni joy yoxud tabiat lavhasi bilan boshlash shart emas. Bularsiz ham yaxshi asar yozish mumkin. Ammo yuqorida keltirilgan manzaralar badiiy matn tarkibiga shumchaki bezak uchungina kiritilgan emas. Bularning birinchisi yigirmanchi asr "fan texnika inqilobi" – texnokratik jarayonlar tufayli halokatga duchor bo'lgan jonivorlarning mash'um taqdiri, ikkinchisi mamlakatimiz moziysidagi istilolar, uchinchisi o'tgan asrning ma'lum bir davrlarida xalqimiz boshiga tushgan qatag'on - qirg'inlarga, to'rtinchisi asarda mavjud bo'lgan dahshatli fojia, turkiy qavmlarning shafqatsiz qirg'inga uchrashiga bir ishora vazifasini bajargan.

Yozuvchining "Yangi bog'larda" nomli hikoyasida "Bizga qo'shilib bog' ham qarib boryapti. Lekin o'rniga yangi bog' ham tiklanibdi" kabi fikrlar asar qahramoni bo'lmish Nafisaning nutqida keltiriladi. Ushbu asarda bog'ning qarishi va insonning qarishi parallel keltirilgan. Negaki, bog'ning qarishi va o'rniga yangi bog' paydo bo'lish holati insonlarda ham uchraydi, ya'ni inson tug'iladi, yashaydi va qarib vafot etadi, uning o'rniga boshqa insonlar tug'iladi, yashaydi, hayot shu tarzda davom etaveradi.

Yozuvchining "Xongul" nomli qissasida tabiatan insonlarga xos bo'lgan muhabbat tushunchasi tabiatga, uning mo'jizalariga qiyoslangan. "Qorong'u kechada chaqnagan chaqmoqdek bo'lib muhabbat Gulniholning hayotiga

kirib keldi. Bu muhabbat og'ir yo'qotishlardan keyin zimiston bo'lgan qiz qalbini yoritdi. Adiblar muhabbatni nimalarga qiyoslamaydilar? Lekin bu o'xshatishlar har qancha go'zal bo'lmasin, baribir, muhabbat mazmunini to'laligicha ochib berolmaydi. Chunki har yilning o'z bahori bo'lgani kabi, har yurakning o'z muhabbati bor. Har yil bahor har xil keladi: goh yomg'ir, goh do'l, goh chaqin, goh charaqlagan oftob, goh mayin shabada... Demak, har yurakda ishq o'zgacha gul ochadi, o'z ifori, o'z tikani bo'ladi. Ishq quyoshday, chaqmoqday kuydiradi, kul qiladi".[Fozilov J, 27]

“Ayriliq ostonasi” nomli tarixiy romanida yozuvchi Og'uzxonning o'y-fikrlari vositasida tabiatning ajoyib bir mo'jizasi bo'lgan yomg'irga ta'rif beradi: “Yomg'ir, ehtimol, samoning ko'z yoshlaridir. U ham Kuntangriga iltijo etib yig'layotgandir?”– son-sanoqsiz tomchilardan ko'z uzmay hayol surardi xoqon.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” asari nafaqat adabiy qiymatga ega, balki bir qator mamlakatlarning tabiati haqida ma'lumot beruvchi muhim manbadir.

Jo'ra Fozilning har bir asarida peyzaj mavjud. Uni yaratishda adib voqealarga e'tibor qaratadi. Tasvirda esa so'zdan unumli foydalanadi. Natijada asarning ta'sirchanligi hamda badiiy saviyasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Latipova S. TARIXIY ROMANDA DARVESH OBRAZI (YOZUVCHI JORA FOZILNING “AYRILIQ OSTONASI” ROMANI ASOSIDA) //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 58-61.

6. Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING “O ‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.

7. Latipova S. JO ‘RA FOZIL IJODIDA XALQ MAQOLLARINING O ‘RNI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 18. – C. 92-96.

8. Fozilov J. Xongul.– T.: Sharq, 2016.- 40 b.

9. Rasulova O. “Boburnoma va tabiat”, maqola. Jahon adabiyoti jurnali, 2005, 2-son.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA DAVLATCHILIK TARIXINING TALQINLARI

Sharopova Yulduz Yunusovna
Vobkent tumanidagi 16-maktabning
oliy toifali tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola buyuk davlat arbobi va ilg'or ma'rifatparvar shoir Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvi borasidagi fikr-mulohazalariga bag'ishlangan. Bobur adolatli podshoh va adolatli jamiyat hukmdori bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, adolat asosida qurilgan jamiyatning bir qismi bo'lgan komil insonning xususiyatlari ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, davlat boshqaruvi, davlatchilik, komil inson, adolatli shoh, taqdiri azal, adolatli jamiyat.

Boburning fikricha, ikki tomonlama hokimiyatning salbiy tomoni shundaki, bu ikki shohning hech biri davlatni himoya qilishda, armiya qo'mondonligida shaxsiy mas'uliyat va tashabbusni o'z zimmasiga olmaydi. Natijada, mamlakat dushman tomonidan bosib olinadi va mamlakatni xitoyliklar boshqaradi. Bobning aytishicha, qo'shaloq Qirollik guruhlash, turli fitnalarning avj olishiga va oxir-oqibat mamlakatning parchalanishiga va vayronagarchilikka olib keladi. "...Bu fon Boqibek Mangga sabzi va marrot sizning erdikim qarshi: bir viloyatida ikki shohlar va bir cherikka ikki Miri Sipah mujibi Tafrika, halokat, va sababi fitna va tarqoqlik emas.

Bobur barcha narsa va hodisalar avvalo, Allohning irodasiga, davlatni, jamiyatni, shu jumladan, shaxsni tubdan takomillashtirish va rivojlantirishga, adolatli, ma'rifatli podshohga bog'liq, deb hisoblagan va shohlik doimo mavjud bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi.

Boburning davlat haqidagi qarashlarida adolatli, markazlashgan davlatning namunasi Amir Temur saltanati, boshqaruvning eng maqbul yo'li Sohibqironning Davlat boshqaruvi edi. Boburning davlat faoliyatining asosiy yo'nalishi iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli markazlashgan davlatni tiklash va mustahkamlash edi. U davlat rahbari sifatida hamisha ustoz bo'lgan bobosi Amir Temurdan o'rnak olishga, mamlakat manfaatlarini ko'zlab, Adolat bilan ishlashga harakat qilgan. Bobur davlatga, mansabga, Erkaklikka o'tishni, oddiy mehnat ahlini unutishni qoraladi va amaldorni o'zini kamtar tutishga, inson qadr-qimmatini haqida o'ylashga, mehnat qilishga chaqirdi.

"Davlatqa etib mehnat elin unutma,
Bu besh kun uchun o'zingni asru tutma,
Borg'oni kel emdi, yod qilmay, ey do'st,
Borish-kelishingni lutf etib o'ksutma."

Bobur davlatsiz jamiyatni tasavvur qila olmaydi. U ma'lum darajada davlatni ilohiylashtiradi, shohni Imom bilan taqqoslab, Xudo Yerning "soyasi" ekanligiga ishonadi. Bunday so'zning maqsadi davlat tuzumini maqtash emas, balki mamlakatni ko'pchilik boshqarmasligi kerakligini, davlatning birligini, osoyishtaligini saqlash uchun barcha shohlarga bo'ysunishi kerakligini ta'kidlashdir.

Bobur shohning saroydagi faoliyatini juda yuqori darajaga olib chiqdi. Amir va uning xo'jayinlari, shuningdek, oddiy fuqarolar uning hurmatini joyiga qo'yishdi va undan surgun qilish ham hal qilindi. Shu tufayli Bobur Badaxshondan tortib behudaga qadar ulkan saltanatda tartib va osoyishtalikni saqlay oldi. U saroydan va mahalliy amaldorlardan oddiy fuqarolarga nisbatan doimo rahmdil bo'lishni, ma'muriy ishlarni o'z nazorati ostiga olishni va mamlakatda adolat o'rnatishga harakat qilishni, mulk daxlsizligini va qo'l ostidagi fuqarolarning ismini ta'minlashni, ularni qaroqchilardan himoya qilishni talab qildi.yo'llarda. Bobur Hindistonga ilk bor kelishi bilan Behra Amir va uning shahzodalariga mahalliy aholi mulkini talon-taroj qilmaslik to'g'risida "G'oz Boburiy" deb nomlangan o'lchov birligini qo'llagan va bu birlik Jahongir hukmronligi oxirigacha amalda qo'llanilgan.

Bobur hukmdor sifatida fuqarolarning mol-mulki va qadr-qimmatini himoya qilish uning asosiy burchi ekanligini bilgan va shuning uchun ham ularning ishonchini qozongan. Oddiy fuqarolar undan hurmat – e'tibor va rahm-shafqat himoyasini kutishgan. U qo'l ostidagi ofitserlar ularning buyruqlarini qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatib bordi va fuqarolarning turmush farovonligini qat'iy nazorat qildi.

Xulosa qilib aytganda, Shoh va shoir Boburning boy adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Bobur ta'lim-tarbiya, davlat boshqaruvi va hukmdor shaxsi haqidagi fikrlarini yanada barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali ifodalagan. Uning ilm-fan, ma'rifat va axloq masalalariga bo'lgan qarashlari uning ilmiy, falsafiy va didaktik asarlarida o'z aksini topgan. Buyuk san'atkor asarlarini o'rganish, yosh Boburshunos olimlar ko'lamini kengaytirish ularga shoirning mukammal asarlari tarixi va mazmunini o'rgatish milliy taraqqiyot sari qo'yilgan qadamdir.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

To'xtayeva Hilola O'tkirova,
Kogon tumanidagi 3-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk adib va davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini hozirgi kunda o'rganilish darajasi hamda unga bo'lgan yangi talqin va tahlilni o'rganish, shu yo'l bilan Bobur asarlarini o'rganishdagi zamonaviy vositalardan unumli foydalanish yo'llari tavsiya sifatida belgilab o'tilgan.

Yoshlar - bizning ertamiz. Ertamiz qanchalik buyuk bo'lishi bugun ularga berilayotgan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Ta'lim-tarbiyaning asosiy o'choqlaridan biri maktabdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishdan maqsad o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosini, adabiy estetik didini oshirib, komil inson sifatida tarbiyalashdir. Bunday sifatlarni insonda shakllantirishda mumtoz adabiyot vakillari, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning ham o'ziga xos o'rni bor. Barchamizga ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur olamni lol qoldirgan shoh va shoir, davlat arbobi, buyuk sarkarda va mohir tarjimon hisoblanadi. Boburning hayoti va ijodi haqida 5- va 11-sinf adabiyot darsliklarida ma'lumotlar berilgan. 5-sinf adabiyot darsligida Z.M.Bobur hayoti haqida qisman to'xtalib o'tilgan. O'qituvchi 5-sinf darsligida berilgan ma'lumotlarni o'quvchilarga interfaol usullardan foydalanib mavzuni mustahkamlashni tavsiya etamiz.

1. "Zanjir metodi". Bu metodda o'quvchilarga bir qancha so'zlar, tushuncha va sonlar beriladi. O'quvchilar bu tushuncha va sonlarni Bobur hayoti va ijodiga aloqador tomonlari(zanjir)ni topishadi.

Son va tushunchalar	Bog'liqlik tomoni
12	Otasi vafotidan keyin 12 yoshida taxtga o'tirgan
Andijon	Tug'ilgan joyi
2	Ikki she'riy to'plam – devon tuzgan

Vatan sog'inchi	Asarlaridagi bosh mavzu
200	200 dan ortiq ruboiysi bor
Qutlug'nigorxonim	Onasining ismi

2. "Besh ma'lumot" metodi. Bu metoddagi o'quvchilar 5 guruhga bo'linadi. Ekranida Bobur ruboiylari ko'rsatiladi va har bir guruh 2 daqiqa vaqt davomida 5 tadan kam bo'lmagan ma'lumot aytadi. O'xshash ma'lumotlar bitta deb hisoblaniladi va shu asosida ruboiy haqidagi xulosalar va fikrlarni jamlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga, ruboiylarni tahlil qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.



Shuningdek, uyga vazifa yoki mustaqil ish sifatida Boburning shoh hamda shoir sifatida qilgan ishlarini o'rganib kelish topshiriladi. Bu topshiriq orqali o'quvchilar Z.M.Boburni ham shoh, ham shoir sifatida yaqindan bilib olishadi.

3. "Rasmi rebus" metodi. Bu metoddagi o'quvchilarga turli rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmlarning qaysi ruboiy mazmuniga mos ekanligini topadilar.

Masalan, quyidagicha bo'lishi mumkin:



Bu ruboiyda ilm egallash inson uchun farz ekanligi aytib o'tilgan

Savol: Ushbu rasm qaysi ruboiyni yodingizga soldi?

Javob: Ushbu rasm quyidagi ruboiyning mazmuni bilan bog'liq:

Kim bor anga tolibi - ilm kerak.

O'rgangani ilm tolibi ilm kerak!

Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q,

Men bormen ilm tolibi - ilm kerak.

Xulosa qilib aytganda, Bobur adabiy merosining bugungi ma'naviy hayot va adabiyot uchun ibratli jihatlari juda ham ko'p. Bobur merosi bizda millatparvarlikni, ilmi bo'lishni, vatanparvarlikni, ona yurt uchun fidoyilikni, insonparvarlikni o'rganishga da'vat etadi. Yuqorida tavsiya etilgan metodlarni 5-sinf adabiyot darslarida Zahridin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganish jarayonida qo'llash o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi, talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ahmedov, B. Qosimov "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf adabiyot darsligi" T.2020. 270 bet.
2. B.To'xliyev, B. Karimov " O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining o'quvchilar uchun darslik-majmua" T. 2018. 198 bet.
3. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2023-yil. 12-son. 80 bet
4. D. Ro'ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova "Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanishi" Metodik qo'llanma. T 2013. 108 bet.

V SHO'BA.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYANING BOLALAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Mirzayeva Umida Qahramon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti "Maktabgacha ta'lim"
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati keltirib o'tilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayonlar murakkab bo'lib, buni bolalarga innovatsion texnologiya hamda innovatsion yangi metodlar orqali bolalarni aqliga singdirish mumkin. Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil qilish lozim. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularning samaradorligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, zamonaviy texnologiya, innovatsiya, zamonaviy kompyuterlar, xorij texnologiyalari.*

Barchamiz bilamizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalar kunining ko'p qismi mustaqil o'yinlar bilan o'tadi. Shunday ekan, mashg'ulot jarayonida har qanday ta'lim-tarbiya va insoniy qadriyatlar bolalarga innovatsion texnologiyalar yordamida hamda o'yin orqali amalga oshiriladi. Buni esa pedagog- tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilar bilan bajariladi. Innovatsion ta'lim texnologiyasi-bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim-tarbiya faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatdan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkibining asosi tarbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklarga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi komponetsiyasidir.

2. Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarni qo'llash. Bunday usullar bo'lajak mutaxassisning kompetensiyalarini rivojlantirishga, bolalarni esa faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o'qitishning yangi zamonaviy usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlarga asoslanishi kerak.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotga tadbiiq etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarning rahbar va mutaxassislarda zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritila boshlanmoqda. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda maktablar o'quv dasturlarga yaqinlashtirilgan 12 yo'nalishli yangi dasturlar ishlab chiqilgani, sinovdan o'tkazilib, joriy etishga kirishildi. Bog'chalarda bu dasturlarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham hisoblanadi. Biroq, buni yodda tutish kerakki, pedagogik texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin, bir nechta qat'iy talablar beriladi. Bularga quyidagilar kiradi:

A. Konseptuallik, o'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi.

B. Tizimga tegishli texnologiyalar, bu texnologiyalar tizimga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak.

C. Ishlov berish - pedagogik jamoa muayyan maqsadlarni belgilash, o'quv jarayonini rejalashtirish, ish jarayonida yoki boshqa lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunish kerak.

D. Reprodektuvchanlik - bu talabga nisbatan qo'llaniladigan o'qituvchi shaxsidan qat'iy nazar, texnologiyani teng darajada samarali bo'lishi kerak.

Yaqin o'tgan yillarda zamonaviy innovatsion IT texnologiyasi dominant pozitsiyani egallash maktabgacha ta'limda to'g'ridan to'g'ri o'quv uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo'llaniladi. O'qituvchilar uchun keng imkoniyatlarni ochishi mumkin. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Innovatsiya, ya'ni "yangilik"

hisoblanadi. Bunga esa maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachi mashg'ulot jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanib dars mashg'ulotini olib borishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sayrlar tashkil etiladi. Bu sayr muassasaning hovlisida amalga oshiriladi. Ammo qish faslida sayrlar amalga oshirilishi ancha qiyin hisoblanadi. Buni esa xonaning o'zida TV orqali tabiat haqida bolalarga kerakli ma'lumotlar berib boriladi. Bundan tashqari innovatsion texnologiyalar bolalar mashg'ulot jarayonida ahamiyatli hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'rgazmali tasavvur orqali anglash davrida bo'lganligi bois, barcha yangi bilimlar ko'rgazmalilikka asoslanadi. Bu yoshdagi bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan tarbiyachilar unumli foydalanadilar. Chunki mazkur metodlardan foydalanish orqali har bir bola o'zining individual qobiliyatlarini namoyon eta oladi; mantiqiy o'yinlar o'ynash bolaning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi; atrof-muhit hodisalari haqida aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi; bolani ham ruhan, ham jismonan rivojlantirishda xizmat qiladi; bolalarni o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirishga o'rgatadi; qiyin vaziyatlar tug'ilganda mustaqil ravishda muammoga yechim topishga o'rgatadi. Shu bilan birgalikda, bolalarning nutqini ravon bo'lishida, o'z fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirish imkoni yaratiladi.

Interfaol metodlar mazmuniga ko'ra bolalar faol o'zaro ta'sir qilish sharoitida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Birgalikdagi faoliyatdan zavq oluvchi bolalar uchun bunday usullar yangi bilimlarni egallashda qiziqarli va taassurotga boy bo'lishini ta'milaydi. Faqatgina tarbiyachi ushbu usullarni bolalarning o'ziga xos xususiyatlari va yosh jihatlariga moslashtirgan holda foydalanishi lozim. Bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" davlat dasturida bolaning umumiy va rivojlanish sohasi kompetensiyalarining muhim yo'nalishlari belgilab berilgan. Unga ko'ra maktabgacha 6-7 yoshdagi bolaning umumiy kompetensiyalari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatildi:

- Kommunikativ kompetensiya - muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;
- O'yin kompetensiyasi - bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi o'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

-
- Ijtimoiy kompetensiya - hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan axloq-odob normalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

Zamonaviy ta'limga xos muhim sifatlardan biri - pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlangan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan. Zamonaviy ta'limga xos muhim sifatlardan biri -pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakalarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillardan boshlab jiddiy o'rganila boshlangan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagog innovatsionlardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatda ularda faol foydalanish iborasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan. Shuning uchun maktabgacha ta'limdagi innovatsion texnologiyalari o'yinli texnologiyalar bilan bog'lanib ketgan. Ammo ularni bir xil qarash deb bo'lmaydi. Chunki innovatsiyalar turlicha yo'nalishda foydalaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog o'z faoliyatini prinsipial amalga oshirish uchun samarali (mavzuga yo'naltirilgan), tejamkor (shaxsiga yo 'naltirilgan), hamkorlik texnologiyalariga ega bo'lishi lozim. Tajribali kreativ pedagog ushbu uslublar asosda o'zining "mualliflik" texnologiyasini yaratish mumkin. Bunda, unga avval egallangan bilimlari va tarkib topgan dunyoqarash turtki bo'ladi. Innovatsion pedagog texnologiyalar yuzaga chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ta'lim jarayoniga kirib kelishida g'oyalar banki muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, Italyanlik shifokor Mariya Montessori aslida kasbi tarbiya bilan bog'lanmasa-da, o'zining boy tafakkuri orqali o'ziga

xos ta'lim usulini tatbiq etdi. Usul har bir bolaning noyoblighi aksionomaga asoslanadi va ta'lim-tarbiya uchun maxsus yondashuvni talab qiladi. Ta'lim tizimi 3 qismdan iborat :

O'qituvchi
bola
atrof -muhit.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent 2006.
2. "Kitobim oftobim" Toshkent. O'qituvchi nashriyoti, 2008-yil.
3. "Islomda bolalar huquqlari".T: "Ilm- ziyo" 2006.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari"(2014-yil 4-iyul).

TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN KO'P KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI

Murtazoyeva Nigina Ma'ruf qizi
BuxDPI talabasi,
Tilavova Munisxon Alijonovna
BuxDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlar-yu turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboral ar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, semantika, madaniy stereotiplar, ko'p ma'noli leksema.

Аннотация: Фраzeологический слой каждого языка является хозяином этого языка, отражает традиции, быт и мировоззрение народа. Кроме того, мы говорим образные, осмысленные, впечатляющие и красочные фразы, это богатство нашего языка.

Ключевые слова: Фраzeологизмы, семантика, культурные стереотипы, многозначная лексема.

Abstract: The phraseological layer of each language is the owner of that language reflects the traditions, life, and worldview of the people. In addition,

we speak figurative, meaningful, impressive and colorful phrases it is the wealth of our language.

Keywords: Phraseological units, semantics, cultural stereotypes, multi-meaning lexeme.

Hozirgi o'zbek tilshunosligidagi til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarflik kasb etmoqda. O'zbek adabiyotidagi frazeologik birliklarni tadqiq etish orqali o'zbek milliy madaniy dunyoqarashini erkinroq aks ettirish mumkin. Ushbu ilmiy maqola orqali Tohir Malikning "Odamiylik mulki" didaktik asaridan olingan ayrim iboralar va ularning mazmuni hamda tuzilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Frazeologik birliklar – umumiy yaxlit ma'nosi qisman ularning tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog'liq bo'lgan, majoziy ma'noda ishlatiladigan turg'un birikmalardir. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi. Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan avlodga uzatiladi.

Bir ma'noli frazeologik birliklar xuddi bir ma'noli so'zlarga o'xshab kelib chiqadigan ma'nosi bir ma'noli bo'ladi. Masalan, bir yoqadan bosh chiqarmoq iborasi „hamjihat bo'lmoq" degan bitta ma'noni beradi. Ko'p ma'nolari frazeologik birliklar ham ko'p ma'noli leksemalarga o'xshab polisemantik ma'noga ega bo'ladi. Ko'p ma'noli iboralarning ko'chma ma'nolari ikkitadan beshtagacha borishi mumkin. Masalan, yo'lga tushmoq: jo'namoq, ketmoq; to'g'ri yo'lga tushmoq yoki hammasi yaxshi bo'ladi ma'nosida keladi. Barcha jonli tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining rivojlanishida ham og'zaki ham yozma adabiyotning roli beqiyosdir. Badiiy adabiyotda nutq vositalarining barchasi poetik tasvirda ishtirok etadi. Shularning biri sifatida frazeologik birliklar badiiy adabiyot va badiiy nutqda o'ziga xos o'ringa ega. Mohir yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub, ma'naviyat, tarbiya va iymon-e'tiqod masalalariga bag'ishlangan "Odamiylik mulki" asarini „Axloq kitobi" deb atashimiz ham mumkin. Tohir Malik bu asarda xalqimiz tomonidan yaratilgan, o'ziga xos obrazni ifoda etadigan frazeologik birliklarni badiiy adabiyotda juda

katta mahorat bilan qo'llagan. To'g'ri tanlangan frazeologik birlik asar mohiyatini o'zgacha bir ruh kasb etadi. Bu esa asarni yanada ta'sirli va mukammal bo'lishini ta'minlagan. Biz Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asaridagi ko'p komponentli frazeologik birliklarni funksional jihatda tahlil qilishga harakat qilib ko'rdik.

Quyida Tohir Malikning „Odamiylik mulki“ asaridagi ayrim frazeologik birliklar bilan tanishamiz:

1) Oyoq ostiga to'kmoq-qadrsizlanmoq, yer bilan barobar bo'lmoq yoki o'z ma'nosida oyoq ostiga to'kmoq, masalan, olmalarni uning oyog'i ostiga to'kdi kabi. Uning oyoq osti qilmoq, oyoq osti bo'lmoq, oyoq ostidan chiqmoq shakllari mavjud.

Donolardan biri degan ekan: Ey do'stim, agar senda fazl daryosining dur-u gavhari bor bo'lsa, ularni nasihatlarini qabul qilib, shu nasihatlarga amal qiluvchi yaxshilarning **oyoqlari ostiga to'k**. Nasihatlarining zoye ketmaydi.

2) Ko'z ostida tutmoq – asramoq, doim xabardor bo'lmoq, kuzatib yurmoq ma'nolarida keladi. Muqobillari: ko'z ostiga olmoq, ko'z qorachig'iday asramoq. Ko'chma ma'noda esa derazaning ko'zi, ishning ko'zi kabi shakllari mavjud.

Kimki o'z nafsining ayblarini ko'rmoqchi bo'lsa, to'g'ri basiyratli kishi bilan do'st tutunmog'i lozim. Toki bu do'st uning ahvolini, harakat va atvorini **ko'z ostida tutsin**.

3) Tilga olmoq- gapirmoq, aytmoq. Ikkinchi ma'nosi esa eslamoq, xotirlamoq, nutqiga qo'shmoq kabi ma'nolarda keladi. Ko'chma ma'noda esa til tortmay o'lmoq, til uchida gapirmoq, tildan ayrilmoq kabi shakllari mavjud.

Hadisi Qudsiyada o'qiyamiz: „bandalarimning ibodatlarida ichida menga suyumlirog'i-mening yo'limda yaxshi amallarga targ'ib hamda xolis nasihat qilishdir. E'tibor beraylik, xolis nasihat ibodatlar o'rnida tilga olinyapti.

4) Osh-qatiq bo'lmoq - biror kishi bilan yaqin munosabatda bo'lmoq, bordi-keldi qilmoq ma'nolarni beradi.

Mana shunday sabablarga ko'ra, Dovud Toiy insonlardan ajralib ketgan ekan. O'zidan: „Nega insonlar bilan **osh-qatiq bo'lmay**“,-deb so'radi.

5) Shayton vasvasasiga tushmoq – to'g'ri yo'ldan ozmoq, yomon ishlarni qilmoq, yo'lini yo'qotmoq, fikrlash faoliyatining buzilishi, shunday ruhiy holat.

Muqobili: shayton yo'ldan ozdirmoq.

*Ammo nega **shayton vasvasasiga tushib qolgan qarindoshimizni, qo'shnimizni yoki do'stimizni qutqarishga shoshilmaymiz.***

6) Marhamat qilmoq-hurmat qilmoq, hurmat bilan taklif qilmoq; rahm qilmoq yoki aybidan kechmoq; badiiy adabiyotda so'zlam oq yoki hurmat bilan gap boshlamoq ma'nosida keladi.

Imom Termiziy rivoyat qilgan sharafli hadisda Rasululloh (s.a.v.)**marhamat qiladilar**: „Insonlarga yaxshilikni o'rgatuvchi kishiga Olloh taolo, uning farishtalari, osmon va yer ahli, hattoki kavakdagi chumoli, dengizdagi baliqlargacha hammasi salovat aytadi”.

7) Tus olmoq – rang olmoq, rangini o'zgartirmoq; ma'lum bir jarayonning keskin rivojlanishi yoki taraqqiy etishiga nisbatan ishlatiladi.

Yetti-sakkiz yoshli qizchalarni, bolakaylarni o'g'irlab, zo'rlab so'ng o'ldirib yuborishini qanday izohlaymiz. Axir bu vaxshiyliklar ommaviy **tus olyabti**-ku.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlar-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, ierarxonimiya kabi semantik munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rahmatullayev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b. 2. Sh.Rahmatullayev. Nutqimiz ko'rki, Toshkent, 1970, 5-43-b. 3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.

2. Tilavova M. Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning funksional jihati //Science and innovation in the education system. –2023. –T. 2. –No. 5. –C. 197-203.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10472607>

3. Yo'ldasheva D. Nutqiy muloqotda sukut hodisasi “Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.– Toshkent. 23-oktabr, 2023. –121-126-b.

ODAMIYLIK MULKI (INSON BAXTLI BO'LIH UCHUN YARALGAN) ASARIDA UCHRAGAN BA'ZI IKKI VA UCH KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLAR TASNIFI

Tilavova Munisxon Alijonovna
BuxDPI o'qituvchisi,
Xudoyorova Mohichehra Jamoliddin qizi
BuxDPI talabasi

Annotatsiya: Har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlar-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, semantika, madaniy stereotiplar, ko'p ma'noli leksema.

Аннотация: Фраzeологический слой каждого языка является хозяином этого языка, отражает традиции, быт и мировоззрение народа. Кроме того, мы говорим образные, осмысленные, впечатляющие и красочные фразы, это богатство нашего языка.

Ключевые слова: Фраzeологизмы, семантика, культурные стереотипы, многозначная лексема.

Abstract: The phraseological layer of each language is the owner of that language reflects the traditions, life, and worldview of the people. In addition, we speak figurative, meaningful, impressive and colorful phrases it is the wealth of our language.

Keywords: Phraseological units, semantics, cultural stereotypes, multi-meaning lexeme.

Tilshunoslikning iboralar tizimini o'rganuvchi frazeologiya bo'limi yangi bo'limlardan biri hisoblanadi. XX asrning 50-yillaridan mustaqil bo'lim sifatida ajralib chiqdi. Frazeologiyaning tilshunoslikda alohida yo'nalish sifatida shakllanishi rus tilshunosi V.V.Vinogradov nomi bilan bog'liq. O'zbek frazeologiyasining shakllanishi Sh.Rahmatullayev, Y.D.Pinxasov, M.Husainov nomlari bilan bog'liq. O'zbek tilshunosligida frazeologiya bo'limining ilmiy o'rganilishi va rivojlanishida Sh.Rahmatullayevning xizmati katta.

Ibora -asli (arabcha) biror bir tushuncha yoki gapning bir so'z bilan ifodalanishidir. Ibora o'zi ifodalayotgan tushuncha bilan so'zga teng, lekin uslubiy bo'yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Ibora har doim uslubiy bo'yoqda bo'ladi. Iboralar tarkibida kamida ikkita mustaqil so'z ishtirok etadi.

O'zaro sintaktik-semantik jihatidan bog'langan bu so'zlar so'z birikmasi yoki gapga teng bo'ladi. Bunday so'z birikmasi yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik (nutq birligi) deb emas, balki semantik birlik (til birligi) deb qarashga olib keladi.

Ko'p kompanentli frazeologik birliklar ko'p ma'noli leksemaga o'xshab polesemantik iboralar ham biri-biriga bog'langan kamida ikkita ma'noga ega bo'ladi. Ko'p kompanentli frazeologik birliklarning ko'chma ma'nolari ikkitudan beshtagacha bo'lishi mumkin.

Biz maqolamizda ayrim ikki va uch kompanentli frazeologik birliklarning leksik- simantik tahlilini ko'rib chiqamiz.

1) Ko'zlari o'ynaydi

Ma'nosi: a) yeyish ichishga, mol teri dunyoga bo'lgan ehtiros.

b) nafs bejo, buzuq nafs, nafsini tiya olmaydigan inson uchun qo'llaniladi. Shahvoniy hirs. „Odamiylik mulki“ asarida „ Shayton kirdikorlarini televizorda ko'rsatilayotgan to'kin dasturxonga qiyoslash mumkin. Kishi dasturxonga mahliyo bo'ladi, ko'zlari o'ynaydi. Ammo olamon, deb qo'l uzatganda tasvir yo'qoladi.

Shayton ishi aynan shunday ekanligini bilmaydiganlar ham bor“, shunday keltirilgan.

2) Havoga sochgan odam - Sh. Rahmatullayevning „O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati“ da ushbu iboraning sinonim variantlari qo'llanilgan. Bular: ko'kka sovurmoq, kulini ko'kka sovurmoq.

Ma'nolari: a) behuda sarflamoq b) isrof qilish, qadriga yetmaslik.

„Odamiylik mulki“ asarida „ Agar o'sha ashulachiga sarf qilingan pulning hammasi emas, aqalli beshdan birini qaysidir kambag'al oilaga sarf qilganida o'zlarini baxtiyor qilish haqida gap yuritsak arziydi. Qo'shni yoki qarindoshi to'y qilishga qurbi yetmasligi sababli qiziga kelayotgan sovchilarni turli bahonalar bilan qaytarib , ezilib yurgan kezlarda besh ming dollarni havoga sochgan odam Qiyomatdagi hisobotini o'ylaganida oxiratda erishilajak chin va boqiy baxtga yetishgan bo'lardimi.“, shunday keltirilgan.

3. Qurbi yetmaslik

Ma'nosi: a) amalga oshirishga, jismoniy, moddiy, ma'naviy imkoniyati, kuch-quvvati yetmaslik.

b) ojizlik, zaiflik

Sinonimi: kuchi yetmaslik

„Odamiylik mulki“ asarida „ Agar o'sha ashulachiga sarf qilingan pulning hammasi emas, aqalli beshdan birini qaysidir kambag'al oilaga sarf qilganida o'zlarini baxtiyor qilish haqida gap yuritsak arziydi. Qo'shni yoki qarindoshi

to'y qilishga qurbi yetmasligi sababli qiziga kelayotgan sovchilarni turli bahonalar bilan qaytarib, ezilib yurgan kezlarda besh ming dollarni havoga sochgan odam Qiyomatdagi hisobotini o'ylaganida oxiratda erishilajak chin va boqiy baxtga yetishgan bo'lardimi.", shunday keltirilgan.

4. Boshini toshlarga urmoq

Ma'nosi: a) afsuslanmoq, pushaymon bo'lmoq, pushaymon yemoq. b) dili og'rimoq, o'kinmoq xafa bo'lmoq, ko'ngli g'ash bo'lmoq.

„Odamiylik mulki” asarida „ Kimda kim baxtidan ayrilib qolsa, birovlardan ayb izlamasin. „ Oh, qanchalar baxti qoraman-a!” deb boshini toshlarga urmasin-da, zikr etilgan shartlardan qay birini bajarmaganini aniqlasin va hamisha yodda tutsinkim, o'z xohish va istaklarining chegarasini bilmaslikdan ortiq baxtsizlik bo'lmaydi” – deb Tohir Malik o'z asarida keltirgan.

O'z qarichi bilan o'lchamoq

Ma'nolari: a) o'z aqli doirasida o'z tushunchasiga muvofiq b) birov bilan o'z xoxishi bilan mustaqil ravishda d) O'ziga xos, alohida senonimi- o'z boshimcha bo'lmoq.

„Yana bir narsa aniqki, ortiqcha baxtga intilaverish haqiqiy baxtini qo'lga kiritishga to'sqinlik qiladi. Bu fikrning hamda sal ilgariroq bildirilgan „Har kim baxtini o'z qarichi bilan o'lchaydi”, degan qarashining isboti uchun bir hikoyani yodga olamiz-deb Tohir Malik o'z asarida keltirgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlar-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, ierarxonimiya kabi semantik munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rahmatullayev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b. 2. Sh.Rahmatullayev. Nutqimiz ko'rki, Toshkent, 1970, 5-43-b. 3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.

2. Tilavova M. Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning funksional jihati //Science and innovation in the education system. –2023. –T. 2. –No. 5. –C. 197-203.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10472607>

3. Yo'ldasheva D. Nutqiy muloqotda sukut hodisasi “Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.– Toshkent. 23-oktabr, 2023. –121-126-b.

ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNI MATN USTIDA ISHLASHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

S.R.Akramova,

BuxDPI boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

Yoqubova Madina,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchi yoshlarni matn bilan ishlashga o'rgatishning ilmiy ahamiyati, matn tarkibida qo'llaniladigan leksik va sintaktik birliklar bilan bog'liq asosiy jihatlar haqida fikrlar yoritilgan. Taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: matn, leksik va sintaktik birliklar, matn turlari, savodxonlik, matn ustida ishlash.

Hozirgi o'zbek tilshunosligidagi til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarflik kasb etmoqda. O'zbek adabiyotidagi frazeologik birliklarni tadqiq etish orqali o'zbek milliy madaniy dunyoqarashini erkinroq aks ettirish mumkin. Ushbu ilmiy maqola orqali Tohir Malikning "Odamiylik mulki" didaktik asaridan olingan ayrim iboralar va ularning mazmuni hamda tuzilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Bugungi kun ta'lim tizimida barcha sohalarda bo'lgani kabi til ta'limi tizimida o'quvchilarning yuqori va chuqur bilim egasi bo'lishlari uchun keng qamrovli sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ijodkorlikni oshirish muhim sanalgan vazifalardan biri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF- 4947-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son Qarori o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga qator talablar qo'yilganini tasdiqlab turibdi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiruvchi asosiy ta'limiy vositalardan biri bu matn sanaladi. Matn o'zi nima? Matn turli maqsadlar bilan tuziladi. Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta'rif-tavsifini berish, ya'ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, mulohaza yuritish. Shunga ko'ra, matnlarning turlari ham farqlanadi:

1. Hikoya matni. 2. Tasviriy matn.3. Muhokama matni

Ona tili darslarida darslikda berilgan matnni o'qitish va tahlil etish nafaqat bilimni oshirish yoki nutqini o'stirish, balki tafakkur dunyosini kengaytirish, boladagi ijodkorlikni shakllanib borishiga xizmat qiladi. Matnni o'qish va tahlilga tortish ham ma'lum bir texnikaga asoslanadi. "O'qish texnikasini egallashda takror o'qish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qish faoliyati uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi"ⁱ.

Berilgan matn tahlilida matn mazmunini tushunish bilan birga matndagi leksik va sintaktik birliklarni va tinish belgilarning ishlatilish o'rinlarini ham o'rganib oladilar.

Shuni ta'kidlashni lozim deb bilamanki, talaba va maktab o'quvchilari bilan ishlash jarayonida ayni Buxoro hududida aksariyat -ning qaratqich kelishigi og'zaki nutqida ishlatilmaydi, tabiiyki, og'zaki nutqida mavjud bo'lmagan hodisa yozma nutqida ham aks etmaydi: oyimni dugonasi, daftarni varag'i, gulni hidi kabi.

Holbuki, tilda ot, olmosh va otlashgan leksemalar o'zaro qaratqich kelishigi yordamida birikadi: bolaning kulgusi, mening do'stim kabi. Ona tilida nazariy bilimni mustahkamlamay turib, hech qanday ijodkorlik, hech qanday nutq boyligiga erishish mumkin emas (muallif fikri). Nazariy qoidalar mohiyati anglansagina, xatolar bartaraf etilsagina o'qish sur'atining o'sishiga, matnning g'oyaviy mohiyatini tushunib yetishga erishish mumkin. Keyin davomli bosqichga o'tish: matn mazmunini so'zlatish, unga munosabatini ifodalash, matn g'oyasi, matnga sarlavha toppish kabilarni amalga oshirish mumkin. Bu esa bolada o'ylab mulohaza qilishga ko'maklashadi va ularda mustaqil ravishda o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligida matnda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar ustida ishlash keyingi matn yaratish uchun asos bo'ladi.

Bundan tashqari, matnni o'qish va dars jarayonida o'quvchilar va o'qituvchi hamkorligida turli tipdagi qiziqtiruvchi, faollashtiruvchi savollar va qiziqarli topshiriqlar asosida tahlil qilish o'quvchilardagi ko'plab omillarning rivojiga asos bo'ladi:

- aqliy faoliyati takomillashadi;
- og'zaki va yozma nutqi o'sadi;
- mustaqil fikrlash doirasi kengayadi;
- erkin munosabat bildirish ko'nikmasi rivojlanadi;
- matn mazmuniga oid leksik va sintaktik birliklar tanlashni o'rganadi;
- so'z zahirasi boyib boradi;

– o‘zaro muloqotda mavzuga xos fikr berish takomillashadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda turli tipdagi matnni tuzish va yozishga o‘rgatish uchun ularning so‘z boyligini oshirish va badiiy asarlarni o‘qishga qiziqish uyg‘otish bilan birga ona tili darsliklaridagi qoidalarni chuqur anglatish muhim. Ayniqsa, o‘quvchilar badiiy asarlarni mustaqil o‘qib, asar mazmunidan kerakli hayotiy xulosaga kelishi, ma’naviy boyligimiz xalq maqollaridan muloqotda foydalanishi fikrni teranlashtiradi, qolaversa milliy qadriyatlarimizga hurmat tuyg‘usini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R.R va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T., “Fan va texnologiya”. 2009.–165b.

2. G‘oziyev E. Psixologiya /Yosh davrlari psixologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994. –224 b.

3. Akramova S.R. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi asosida PIRLS ga tayyorgarlik darslarini tashkil etish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: maktabgacha ta’lim tizimining innovatsion rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2023. 17-noyabr.

ZAMONAVIY SHE’RIYATDA SINONIM VA ANTONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI

Nigora Bafoyeva Azimovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

BuxDU mustaqil izlanuvchisi

bafoyevanigora@buxdpi.uz

Razzoqova Farangiz Azamat qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti

o‘qituvchisi

Annotatsiya: *mazkur maqolada Shodmon Sulaymonning “Chin so‘z” she‘ridagi sinonim va antonimlarning lingvopoetik xususiyati badiiy tahlil etilgan.* **Kalit so‘zlar:** *she‘riyat, sinonim, antonim, tushuncha, sath, fonetik va so‘z qurilishi.*

Аннотация: *в статье анализируется лингвопоэтическая природа синонимов и антонимов в стихотворении Шодмона Сулеймана “Мирное слово”.*

Ключевые слова: поэзия, синоним, антоним, понятие, уровень, фонетика и словообразование.

Adabiyot ahliga ma'lumki, dunyoda so'z sehridan kuchliroq sehr, qudratliroq hodisa yo'q. Ayni shu qudratli sehrdan foydalanishda badiiy so'z san'atkorlari – shoir va yozuvchilardan mohirlik talab qilinadi. Ijodkorlarning mahorati ularning til hodisalaridan qay darajada foydalana olishida ko'rinadi. Har bir ijodkor bu orqali o'ziga xos uslubni yaratadi.

Lingvopoetik tahlilda badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik, butunlik sifatida yondashmoq lozim. Eng avvalo, badiiy matndagi badiiy mazmun yoki badiiy mazmunlar silsilasi – asarning g'oyasi, asosiy konsepti aniqlab olinishi maqsadga muvofiq. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilining pirovard maqsadi ana shu konseptning ifodalanishida lisoniy vosita va usullarning faoliyatini o'rganish ekan, badiiy matnga yaxlit estetik butunlik sifatida yondashuv ham nihoyatda muhim tamoyil sifatida qimmatga ega.

Badiiy matnni lingvostilistik tahlil qilar ekanmiz, ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, hissiy ifoda semalari bo'rtgan holda namoyon bo'lgan leksik birliklarni aniqlash va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish muhim. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, mahalliy, vulgar so'zlar tahlilga tortiladi va ulardan qay maqsadda foydalanilgani izohlanadi. Shodmon Sulaymon she'riyatining leksik-poetik xususiyatlarini shu asosda tahlil qilish shoir ijodining sehrini yanada teranroq ochib beradi.

Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi umumiy bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir[1;3]. Sinonimlar shaxs, narsa, belgi, xususiyat, voqea-hodisa va harakatning bir necha nom bilan aytilishidir. Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, narsa va hodisalarning nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shoir Shodmon Sulaymon she'riyatida ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda mohirona qo'llaganligiga guvoh bo'lish mumkin. So'zlarimizni ushbu tahlillarga dalillashga harakat qilamiz:

**Zamin sirlaridan ochar ekan so'z,
Haqni anglab yetdi Beruniy bobom.
Ullan xaritaga tashlar ekan ko'z,**

"Yer aylanar," - dedi mangu, bardavom.

Misralarda zamin –yer, mangu-bardavom sinonimik birliklarning uyg'un joylashuvi she'ring ma'no mohiyatiga ham ta'sir eta olgan. Darhaqiqat, hayotimiz misoli charxpalakdek, kunlar davom etaveradi, yillar o'tadi, fasllar almashadi, yer shari ham mudom aylanaveradi.

Antonimlik til sathining barcha bo'limlari uchun xos hodisa bo'lib, fonetik, leksik, grammatik (morfologik), sintaktik birliklarda kuzatiladi. Shuningdek, barqaror birliklarda ham mazkur hodisa keng uchraydi. Mazkur hodisada yuqorida sanalgan birliklar mazmunan – mantiqan zid tushuncha va tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Antonimlik adabiyotshunoslikda antiteza hodisasi, tazod san'atining yuzaga kelishida ham muhim o'ringa ega.[2;23]

Shoir she'ri tahlilini davom ettirsak:

**So'ngra birlashtirdi xarita chetin,
Bir-biriga ulab, ummon, ko'llarni.**

Ikki yoqqa ketgan, aslida yaqin,

Go'yo bir-biridan olis yo'llarni.

Bujuk tadqiqotchi, bobomiz

Abu Rayhon Beruniy astronomiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan.Ushbu jumlar orqali Beruniy yer va osmon jismlarini o'rgangan olim sifatida xayolimizda gavdalanadi.

“Quti ikki tomon ,ikkita qirg'oq , Biri yorug',- dedi,- birida zulmat”

misralarida kun va tunga ta'rif berilgan. Shoir fasllarning almashinuvini, kun va tunning bir-biriga o'rnini bo'shatishini go'yoki mehmonga o'xshatadi.

“Kim quyoshga yaqin-to'kin, farovon,

Kim quyoshdan uzoq- mudrar yil bo'yi” misralari esa yozda mehnat qilgan kishining to'kin- sochinlikda yashashi, mehnat qilmagan kishi esa qishda qiynalishi haqida so'z boradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. She'riy misradgi yaqin va uzoq so'zlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, antonimlik hodisalarining yuzaga kelganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Antonimlar badiiy nutqning ifodafiyligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biri [1;33].

Shu taxlit yaraldi mo'jiza-koptok,

Mag'rib shovqin soldi: Topdim! Globus.

Nachora, turkiy el yoqqanda chiroq.

O'shal olis yurtda yo'q edi fonus.

“Mag'rib” -dunyoning bir tomoni.

“Koptok” esa yer sharidir. Ma'lumki, yer shari joylashuvini yutuqlari benihoya kattadir. Mag'rib Yer sharidan bexabar vaqtda "Yer sharini yoritdi ilk

bor Beruniyning aql mash'ali" deya hech ikkilanmasdan ayta olishimiz mumkin.

**Xullas, olisdami, yaqinmi yo'ling,
Umr bog'in aylay desang, charog'on.
Har tomon chalkashmay, xayoling, o'ying,
Bobong "koptogi"ga nazar sol shu on.**

Shodmon Sulaymon ushbu misralardagi "olis" va "yaqin" so'zlari orqali antonimik qatorni yuzaga keltirgan bo'lsa, keyingi misralardagi "xayol" va "o'y" so'zlari sinonimik qatorni vujudga keltirmoqda. She'riy tahlilga e'tibor beradigan bo'lsak, inson umri davomida yaxshi yashashni xohlaydimi, unda hech ikkilanmasdan, dunyoga nazar tashlashi kerak ekanligiga amin bo'lamiz.

Shoir ijodida mazkur hodisa, ya'ni antonimlarni bir o'rinda qo'llash nafaqat narsa-hodisalar, balki turli xil voqeliklar (belgi, harakat, miqdor) da kuzatiladi. Bu holat yuqorida keltirilgan misolda ham ko'rinadi. Shoir she'riyatida lisoniy va kontekstual antonimlarning go'zal namunalari mavjud. Bunda esa antonimik so'zlar alohida urg'u (mantiqiy urg'u) oladi hamda o'quvchiga badiiy-estetik zavq bag'ishlaydi.

**Yaltiroq toshga o'ch kimsadek bo'lmay,
Ko'ksingdan qidirgin, doim Vatanni.
Saxiy quyosh kulgan, munvvar el bu,
Quyoshdek bag'ringga bos, bu chamanni.**

Tashqi go'zallik doimo aldamchi bo'ladi, shu sabab ham dunyodagi vaqtinchalik narsalar bo'lmish, mol-u davlat, oltin-u zarlarga aldanib qolmasligimiz kerak. Quyosh yerimizni, qalbimiz va jismimizni isitgani kabi biz ham Vatanimizni suyib, ardoqlashimiz kerak. Zero, Vatan alla bergan oromdek shirin.

Shoir o'z ijodida sinonim va antonimlarning turli ko'rinishlaridan o'rinli foydalanib, bir-biridan mazmundor, shu bilan birga, o'ynoqi misralar yaratganki, mazkur holat shoir she'rlarining she'riyat ixlosmandlari yuragidan o'rin olishiga keng xizmat qiladi, deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т.,2009. 33-б.
- 2.Ноjiyev А. О'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Т.: О'qituvchi ,1974.3-. 6

-
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. –B.16.
 4. Qo'ng'urov R. Onomastika va uning predmeti// O'zbek tilining grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. To'plam. –Samarqand, 1972. – B.41-48.
 5. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani. «Adabiy barqaror asarlar turkumi», – T., 2019.
 6. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма. --Т., 2004. – 60 б.
 7. Bafoyeva N. TRANSLATION DIFFICULTIES OF ABDULLA KAHHAR 'S ESSAY "THIEF" INTO ENGLISH //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – T. 4. – №. 05. – С. 60-63.
 8. Bakhronovna G. R. The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – С. 237-242.
 9. Jiyanqulovna J. L. TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 39-43.
 10. Saidova R. A. SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 201-205.

**JAHON VA O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA MAXSUS LINGVISTIK
LUG'ATLAR, ULARDAN SEMANTIK KENGAYTMADA FOYDALANISH
IMKONIYATLARI**

Dildora Bahodirovna Axmedova

BuxDU doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Dunyo tilshunosligida maxsus lug'atlar yaratish tajribasi keng yo'lga qo'yilgan. Shuning barobarida, turli sohaga oid lug'atlarni tuzish prinsiplari borasidagi turli xarakterdagi ilmiy ishlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Maxsus filologik lug'at tor o'quvchi ommasi – tilshunoslik bilan shug'ullanuvchi va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'ladi. O'zbek tilining morfem, chastotali, ters, o'zlashma so'z, frazeologizm, sinonim, antonim, omonim, sheva so'zlari, terminologik, etimologik lug'atlari mavjud.

Kalit soʻzlar: maxsus lugʻatlar, semantik izoh, semantik kengaytma, frazeologik lugʻat, etimologik lugʻat, dialektal lugʻat, terminologik lugʻat, oʻquv lugʻatlari.

Аннотация. В мировой лингвистике широко распространен опыт создания специальных словарей. В то же время существует множество научных работ различного характера по принципам создания словарей для различных областей. Специальный филологический словарь предназначен для узкого круга читателей – лингвистов и других научных исследователей. В узбекском языке имеются морфема, частотность, отрицательное, притяжательное слово, фразеология, синоним, антоним, омоним, диалектные слова, терминологический и этимологический словари.

Ключевые слова: специальные словари, семантическая аннотация, семантическое расширение, фразеологический словарь, этимологический словарь, диалектный словарь, терминологический словарь, учебные словари.

Abstract. In world linguistics, the experience of creating special dictionaries is widespread. At the same time, there are many scientific works of various nature on the principles of creating dictionaries for various fields. The special philological dictionary is intended for a narrow readership - linguistics and other scientific researchers. The Uzbek language has morpheme, frequency, negative, possessive word, phraseology, synonym, antonym, homonym, dialect words, terminological and etymological dictionaries.

Key words: special dictionaries, semantic annotation, semantic extension, phraseological dictionary, etymological dictionary, dialectal dictionary, terminological dictionary, educational dictionaries.

Maxsus lugʻat sirasiga kiruvchi morfem, chastotali, ters, oʻzlashma soʻzlar lugʻatidan semantik kengaytma tayyorlashda foydalanish imkoni yoʻq, ammo frazeologik, etimologik, dialektal va terminologik lugʻatlardan esa semantik izoh va semantik kengaytma ishlab chiqishda axborot manbai sifatida foydalanish mumkin. Quyida oʻzbek tilida mavjud ushbu maxsus lugʻatlarga qisqacha toʻxtalamiz.

Frazeologik lugʻat maxsus filologik lugʻatning bir turi boʻlib, Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati” (Toshkent, 1978) uning mukammal namunasi. 2007-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida B.Mengliyev, O.Boymatova va M.Xudoyberdiyevaning

maktab o'quvchisi uchun "O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati" chop etilgan.

Etimologik lug'atda so'zning kelib chiqishi izohlanadi. O'zbek tilida Sh.Rahmatullayevning to'rt jildidan iborat "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (Toshkent, 2008) nashr etilgan.

Dialektal lug'atda o'zbek tilining shevaga xos so'zlari qayd etiladi. Bunday lug'at o'zbek tilining barcha yoki ma'lum bir shevasiga xos so'zni izohlashga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. 1971-yilda mualliflar jamoasi tomonidan "Fan" nashriyotida chop etilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati"ni bunga misol qilish mumkin.

Terminologik lug'at ma'lum bir sohaga oid termini izohlaydi. Terminologik lug'at izohli yoki tarjima ko'rinishiga ega. Demak, bunday lug'atlar ham bir yoki ikki tilli lug'atga bo'linadi. A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" (Toshkent, O'qituvchi, 1985) shunday lug'atga misol bo'ladi.

Maxsus lingvistik lug'atlarga o'quv lug'atlari ham kiradi, chunki bunday lug'atlar ma'lum yoshdagi bolalarga mo'ljallanadi. B.Bahriddinova jahon o'quv leksikografiyasi tajribasini o'rganar ekan, uning atroflicha tadqiq etilganligini aniqlaydi va quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi: "O'quv lug'atlarini ilmiy asosda o'rganish XVII asrda birinchi ingliz leksikografi S.Jonson, XIX asrda fransuz tilshunosligida J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, B.Kyumada, Amerika tilshunosligida K.D.Bak, ispan tilshunosligida J.Malkil, rus tilshunosligida P.N.Denisov, V.G.Gak, L.A.Novikov, V.V.Morkovkin, S.G.Barxudarov, Y.N.Karaulov, M.A.Skopina, R.A.Budagov, N.M.Shanskiy, Z.A.Potixa, V.N.Sergeyev, A.E.Suprun, L.G.Sayaxov, L.A.Yankova, Y.A.Yagovkina, U.Sh.Tursunova, T.A.Kadirbayeva, S.T.Pallekande, M.Y.Kazak kabi tilshunos va pedagoglarning ishlaridan boshlanadi". [B.Bahriddinova, 31]

XX oxiri – XXI asr boshlarida jahonning AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina kabi ilg'or mamlakatlarida o'quv lug'atlarining zamonaviy avlodlarini yaratish, mavjud lug'atlarni elektronlashtirishning nazariy va amaliy masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, V.V.Dubichinskiy, S.V.Lebedova, I.L.Voronsova, Y.Y.Balalayeva, A.I.Olxovskaya, I.Fedorov, M.A.Shaxmatov va boshqalarning tadqiqotlarini keltirib o'tish o'rinli. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida ham o'quv lug'atchiligining nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, G.I.Boboyevaning ikki tilli o'quv lug'atlarini yaratish masalalariga bag'ishlangan ishlarini misol sifatida keltirish mumkin.

O'zbek tilshunosligida o'quv lug'atchiligining nazariy va amaliy masalalari monografik ko'lamda o'rganilmagan bo'lsa-da, sobiq sho'ro davrida milliy maktablarda rus tilini samarali o'qitish maqsadida yaratilgan ikki tilli ruscha-o'zbekcha o'quv lug'atlari M.X.To'xtaxo'jayeva, L.M.Odinayeva, K.A.Sharofiddinova, S.F.Akobirov, M.S.Soliyev kabilarning ishlari uchun tadqiq manbai bo'lib xizmat qiladi. Istiqlol yillarida A.Nurmonov, A.Madvaliyev, H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, E.Qilichev kabi tilshunoslar o'zbek tilshunosligida leksikografiyaning o'quv lug'atchiligi tarmog'i paydo bo'lganini e'tirof etishadi. B.Mengliyev, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, N.Uluqov kabilarning maqolalarida ona tili - o'zbek tilini o'qitish vositalariga yordamchi axborot manbai bo'lgan zamonaviy lingvodidaktik lug'atlarni yaratishning nazariy va amaliy masalalari kun tartibiga olib chiqiladi.

E.G.Shimchuk maxsus lug'atlarni quyidagicha ta'riflaydi: "Maxsus lug'atlar leksik birliklarning ma'lum bir tomoni, ma'lum bir leksik sohani yoki morfema, ibora, gapning boshqa darajadagi muhim til birliklarini tavsiflaydi. Maxsus lug'atlar izohli, sinonimik, ideografik, frazeologik, imlo va boshqa ko'plab lug'at turlari kiradi. Izohlanayotgan mutaxassislik keng yoki tor bo'lishi mumkin. Izohli lug'atlarning asosiy maqsadi so'zlar va frazeologik birliklarning ma'nolarini ko'rsatish, tavsiflash bo'lsa, qo'shimcha maqsadi so'zlarning fonetik, orfoepik, grammatik va stilistik xususiyatlarini aks ettirishdir. Shunday qilib, izohli lug'atlar keng ixtisoslashuvi yoki ko'p tarmoqliligi bilan ajralib turadi. Maxsus ixtisoslikdagi leksikografik asarlarga orfoepik, imlo, chastotali lug'atlar misol bo'la oladi".[Shimchuk E., 12]

E.G.Shimchukning ta'kidlashicha, ixtisoslashuvni tavsiflash obyektini bilan bog'lanishi mumkin: bugungi leksikografiyasi, yuqorida aytilganidek, morfemalar, iboralar, turli semantik guruhga mansub birliklar va hatto imo-ishoralar lug'atlari bilan to'ldirildi. Grammatik lug'atlarda so'zlarning flektiv (morfologik) va sintaktik xususiyatlari haqida ma'lumotlar, orfoepik lug'atlarda esa so'zlarning to'g'ri adabiy talaffuzi va shakllari haqida ma'lumotlar mavjud. Etimologik lug'atlar leksik birliklarning kelib chiqishini tushuntiradi. Leksikografik tavsif til leksikasining ma'lum bir sohasining (masalan, dialekt, jargon lug'atlar), ma'lum bir muallifning so'z boyligi (yozuvchi va shoirlar tili lug'atlarida), ma'lum bir turdagi so'zlar, sinonim, antonim, omonim, neologizm, arxaizm, tegishli ismlar va boshqalar tavsifi bo'lishi mumkin. [E.Shimchuk, 12]

Kompyuter inqilobi va tilga kompyuter yondashuvi zamonaviy lug'at tuzuvchilari uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Kompyuterlarning keng qo'llanilishi filologga kompyuter konkordanslari (kontekstdagi so'zlarning

ko'rsatkichlari) va turli xil kompyuter matnlarini qayta ishlash protseduralaridan foydalanish imkonini beradi. Zamonaviy leksikografiya elektron ma'lumotlar bazalaridan tobora ko'proq foydalanmoqda. Zamonaviy fanda matnlarni mashina bilan qayta ishlash asosida leksikografik tavsifning yangi turlari – korpus asosidagi tavsif shakllantirilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda nashr etilgan lug'atlarning vazifalari, shuningdek, ulardagi materiallarni izohlash usullari va ularni yaratish texnikasi jiddiy farqlar bilan izohlanadi. Bugungi kunda bir tomondan, an'anaviy tamoyillarga asoslangan lug'atlar nashr etilishi davom etsa, ikkinchi tomondan, til tavsifiga yangicha yondashuvlarni ifodalovchi leksikografik mahsulotlar paydo bo'lmoqda. Aniq leksikografik tavsiflar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligiga qaramay, lug'atlar va ularning guruhlarini birlashtiradigan xususiyatlarni o'rnatish mumkin. Shu asosda lug'atlarning tipologiyasi tuziladi.

Fan sohalarining rivojlanishi, yangi fan tarmoq va yo'nalishlarining vujudga kelishi mavjud terminlar sistemasining takomillashuviga, yangi terminlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu esa, o'z-o'zidan, terminologik lug'atlarni mukammallashtirish ehtiyojini tug'diradi. Ma'lumki, terminologik lug'at maxsus lug'atlar turiga kiradi. Bunday lug'atlardagi ta'riflar umumiy lingvistik lug'atlar, xususan, izohli lug'at ta'riflaridan farq qiladi. Buni X.Narxodjayeva quyidagicha izohlaydi: "Hamroh mohiyatli terminlarni lug'atlarda berish va tavsiflash ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Birinchidan, hamroh mohiyatli terminlarning leksikografik talqinini berishda umumiste'mol va terminologik ma'nolarning izohini tartiblash muammosi asosiy masalalardan bo'lib, ayrim hollarda dastlab terminologik ma'no berilib, so'ngra umumiste'mol ma'nolar keltiriladi. [Narxodjayeva, 74] Masalan, so'z leksemasini olaylik. O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'ati 3-jildida qayd etilgan bu so'zning 8 ta leksikografik ma'nosi berilgan bo'lib, ulardan birinchisi, ya'ni tilshunoslik pometasi bilan berilgan va qolganlari umumiste'mol ma'nosi sifatida talqin qilingan:

"SO'Z 1 tish. O'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng muhim til birligi; gapning qurilish materiallari.

2 Biror ma'no turiga, uslubga oid shunday birlik (tilda, nutqda ifoda vositasi sifatida).

3 So'zlashuvda, gapda, nutqda shunday vositalardan foydalanish qobiliyati, san'ati.

4 Maqol; matal; ibora.

5 Gap, gap-soʻz, nutq.

6 Mish-mish gap, ovoza; igʻvo.

7 Oʻgit, pand-nasihath, taʻlim-tarbiya, iltimos yoki buyruq mazmunidagi gap.

8 Vaʻda, lafz; azm-qaror”.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hamroh mohiyatli terminlar talqinidagi muhim holatlardan biri umumisteʻmol va terminologik maʼnolarni birlashtirgan holda talqin qilish boʻlib, bunda terminologik mohiyatga ishora qiluvchi tegishli pometa berilmaydi, biroq izoh ilmiy tusda boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф.– Самарқанд. 2020.

2. Шимчук Э.Г. Русская лексикография: учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений / Э.Г.Шимчук. - М. : Издательский центр «Академия», 2009.

3. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс., – Тошкент, 2007. – 154 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Учинчи жилд. Н – Тартибли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. 608-б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA MIRZO ULUGʻBEK ASARLARIDA TEMURIYLAR DIPLOMATI NOMLARIDAGI TAFOVUT YOXUD TARJIMONLARNING KICHIK BIR YANGLISHUVI

Sardor Nurmurod oʻgʻli Kenjayev

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti oʻquv ishlari boʻyicha dekan oʻrinbosari,

tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va Mirzo Ulugʻbek asarlarida Temuriylar diplomati nomlaridagi tafovut yoxud tarjimonlarning kichik bir yanglishuvi xususida fikr bildirilgan. Amir Temur va*

temuriylar diplomati, lashkarboshisi, Amir Temurning Xitoy safari oldidan maslahatchisi, zamondosh Tayzi o'g'lon تايزي – Toyzi hamda تابزي – Tobzi nomlaridagi tafovut yoxud tarjimonlarning kichik bir yanglishuvi balki shevalardagi o'zgarushlar tahlilida Mirzo Ulug'bek asarlari tahlili orqali aniqlik kiritilgan.

Kalit so'z: diplomat, elchi, tayzi, toyzi, tobzi, sayyoh, gansu, provensiya, shahzoda, Xun-u, imperator, zobot, shimoliy savdo yo'li.

Annotation: In this article, the difference in the names of Amir Temur and Timurid diplomat, commander of the army, Amir Temur's adviser before his trip to China, contemporary Tayzi o'g'lan Tayzy - Toyzi and Tabzy - Tobzi, or a small mistake of the translators, perhaps Mirzo Ulug'bek in the analysis of changes in dialects clarified through the analysis of his works.

Key words: diplomat, ambassador, Thai, Taizi, Tobzi, tourist, Gansu, provence, prince, Hun-u, emperor, zobot, northern trade route.

Insoniyat tarixida qadimgi davrlardan boshlab zamonaviy dunyoga qadar, xalqaro munosabatlar va diplomatiyalar tarixida ko'plab elchi, savdogar, sayyohlar nomlari tarix zarvaraqlarida muhirlanib qolgan. Amir Temur va temuriylar tarixini o'rganish hamma zamonlarda ham o'zining sirliligi, nozikligi va yangi qirralari bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Temuriylar diplomati Tayzi o'g'lon تايزي – Toyzi hamda تابزي – Tobzi nomlaridagi tafovut yoxud tarjimonlarning kichik bir yanglishuvi temuriyzoda Mirzo Ulug'bek asarlari talqinida nisbatan yaqindir.

Imperator Xun'u hukmronligining dastlabki davri 1388 yilga qadar shimoliy sarhadlardagi mo'g'ullar bilan urushlar davriga to'g'ri keladi. Shimoliy urushlarda jiddiy qarshilikka uchramagan imperator muvaffiqiyatlarga erishdi. Natijada Min imperatori tashqi siyosatda o'zini mintaqadagi eng qudratli hukmdor, ya'ni Yuan sulolasining davomchisi deb hisoblay boshlagan. Imperator o'z o'tmishdoshlari - mo'g'ul imperatorlarining Chig'atoy ulusi xonlari ustidan Hubilayxon zamonidan boshlab rasman yoki amalda syuzeren huquqlarga ega bo'lganligini yaxshi anglagan. Min imperatori ham ular kabi g'arbiy o'lkalardagi mamlakatlarga Xitoyga vassallikni tan oldirishga erishishni istardi. Amir Temur davlati bilan diplomatik aloqalar aynan shu davrdan boshlangan deb xulosa qilish mumkin. Dastlabki yuborilgan elchiliklar zimmasiga Amir Temur davlati haqida ma'lumotlar to'plash vazifasi yuklatilgan. Ammo, ushbu elchilar kim va qachon yuborilgani aniq emas. Biroz keyinroq yuborilgan Fu An va Chen Devenlar esa Amir Temurga Xitoy (Min)

syuzerenitetini tan oldirishi lozim edi[5,1495]. Biroq, imperator Xun'uning Xitoy hukmdorlariga teng raqib hisoblangan Amir Temurni tezda bo'ysundirishga ishonganligi juda ham taajjubli. Ba'zi G'arb mualliflarining fikricha, xitoyliklar Amir Temur davlatining imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olmaganlar. Ikki o'rtada munosabatlar adovatli tus olgan vaqtda Min sulolasi asoschisi vafot etib, mamlakatda taxt uchun kurashlar boshlangan. Shimoldagi mo'g'ullarga o'z syuzerenitetini tan oldirishga muyassar bo'lgan Xun'uning 1398 yilda vafot etishi bilan xitoyliklar Mo'g'ulistonda qo'lga kiritgan hududlarni mo'g'ullarga boy berib qo'yadilar. Shimoldan tashqi hujum xavfi kuchayganligi sababli esa imperator Chji Di tomonidan poytaxt qaytadan Pekin shahriga ko'chirilgan. Hukmdor qarorgohi ilgari, imperator Xun'u davrida Nankinga ko'chgan edi. Xitoyliklar nafasini o'nglab olishi uchun shimoldagi vaziyatning tez o'zgarishi imkon bergan. 1399 yilda Shimoliy Yuan hukmdori Elbegxon qabila etakchilaridan biri - Ugechi tomonidan o'ldirilgan. Natijada Shimoliy Yuan mo'g'ullari vaqtinchalik oyratlarga qaram bo'lib qoldilar. Ichki nizolar va oyratlar bilan urushlar bir necha yillardan beri davom etib kelganligiga aslo shubha yo'q. Chunki, 1398 yildayoq Shimoliy Yuan sulolasi toj-taxti uchun kurashlarda engilgan mo'g'ul xonzodasi Tayzi o'g'lon Amir Temur huzuriga kelgan. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida uning ham qoon (Shimoliy Yuan hukmdori), ham oyratlar bilan muxolifatda bo'lganligi aytib o'tilgan. Yazdiy ma'lumotlarida Tayzi o'g'lon Amir Temur xizmatiga kirishi, uning 1404-yil kuzida Konigildagi to'y tantanalari paytida ham temuriylar saroyida bo'lganligi qayd etib o'tiladi[2,290]. Yazdiy fikrlaridan Tayzi o'g'lon Xitoy harbiy yurishi davrida Amir Temurning yaqin maslahatchilaridan bo'lganligini tushunib olish mumkin. 1405-yili Amir Temurning Xitoy yurishida Oltin O'rdalik chingiziy xonzodalar singari uning ham qatnashishi ko'zda tutilgan[7,22]. Ehtimolki, Tayzi o'g'longa, Shimoliy Yuan taxtini olib berish va'da qilingan bo'lishi mumkin. Bu esa mo'g'ullarning Amir Temur bilan hamkorlikda Xitoyga hujumini anglatardi.

Amir Temur vafotidan so'ng temuriylar mamlakatida boshlanib ketgan taxt uchun kurashlarda uning nomiga aloqador ma'lumotlar yo'q. Tayzi o'g'lon keyinchalik Ulug' Yurt ulusi (Shimoliy Yuan)da qisqa vaqt hukmronlik qilganligi ham ehtimoldan xoli emas. Chunki, Mirzo Ulug'bekning asarida Ulug' Yurtning oyratlar bosqini arafasidagi hukmdorlari orasida Tobzi qoon nomi bor. Ulug'bekning ta'kidlashicha, ushbu hukmdor ham taxt uchun kurashlarda engilib, Amir Temur xizmatiga kirgan va islom dinini qabul qilgan. "To'rt ulus tarixi"da, shuningdek, Tobzi qoonning Ariq Buqa (Chingizxon nabirasi, Tuluning o'g'li) avlodidan ekanligi, Amir Temur vafotidan keyin taxtga o'tirib,

bir necha kundan keyin o'ldirilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Manbalarda ko'rsatilgan ismlardagi tafovut juda ham jiddiy xatolardan emas. Agar bu ismlarning yozilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, تايزي – Toyzi hamda تابزي – Tobzi nomlarining faqatgina bitta nuqta bilan farqlanishini ko'ramiz. Bu tafovut kotib yoki tarjimonlarning kichik bir yanglishuvi yoxud o'sha davrdagi tushunarsiz ismlarining turlicha talaffuz etilganligi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Har ikkala manbada tilga olingan ushbu shaxslarning bir kishi ekanligi ehtimoli juda yuqoridir va buni rad etishga hozircha aniq asosga ega emasmiz.

Bizning fikrimizcha, Ulug' Yurtlik chingiziy xonzodalarning Amir Temurni Min imperiyasiga qarshi harbiy yurishga da'vat etishlari ushbu urushning haqiqatda amalga oshirishga urinish uchun ta'sir o'tkazmay qolmagan. Xitoy bilan munosabatlar adovatli tus olgan davrda Amir Temur huzurida Uzoq Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoldan yaxshi xabardor bo'lgan hamda sharqiy mintaqalarda, ehtimolki, o'z tarafdorlari va ittifoqchilariga ega kishilarning bo'lishi buyuk sarkarda uchun ham ayni muddao edi. Umumiy raqib hisoblangan Min imperiyasini yakson qilish ishtiyoqi ittifoqchi tomonlarni yagona maqsad yo'lida birlashtiruvchi sabab bo'lgan.

Tayzi o'g'lon Shimoliy Yuandan Amir Temur huzuriga qochib kelgan yagona chingiziy xonzoda emasdi. Nizomiddin Shomiy asarida Ulug' Yurtda hukmronlik qilayotgan qoonlarning oxirgisi sifatida Ilik qoon (Elbegxon) qayd etilgan. Keyingi o'rinda hali taxtga o'tirmagan yana bir xonzoda tilga olinib:

“Elchi Temur qoon, agar xudo xohlab podshohlik unga etsa podshohlikka loyiqdir[10,25]”, – deb keltirilishi yuqoridagi fikrimizga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ulug' Yurt hukmdorlari orasida Elchi Temurning nomini Xondamir ham tilga olib o'tgan[4,25]. V.V. Bartold uni Amir Temur xizmatiga kirgan Tayzi o'g'lon bilan bir kishi deb hisoblaydi[1,280]. Angliyalik Hilda Hukhem esa ularni ikkita alohida shaxs sifatida tilga olgan[3,270]. Fikrimizcha, V.V. Bartold bu o'rinda biroz yanglishgan. Chunki, Mirzo Ulug'bek asarida Elchi Temur qoon nomi Tobzi qoondan ilgarigi o'rinda qayd etilgan. Asarda Elchi Temurning ham bir vaqtlar Amir Temur xizmatiga kirganligi, uning vafotidan keyin Ulug' Yurtda qoonlik taxtiga o'tirganligi haqidagi ma'lumotlar bor. Ulug'bekning so'zlaridan Elchi Temur Ulug' Yurtni mustaqil idora etgan eng so'nggi chingiziydardan ekanligini anglab olish mumkin:

“Tobzi qoon saltanatidan avvalroq tangutlar xuruj qilib, Xitoy taxtini Elchi Temur qoon qo'lidan tortib olgan edilar. Asli yurtlari bo'lgan Keluron va Qoraqurumgina ularning qo'lida qolgan ed[8,216-217]”.

Shu o'rinda Klavixo keltirgan ba'zi ma'lumotlarni eslatib o'tish zarur. Unga ko'ra 1404-yil 29-sentyabr kuni Amir Temur "Xitoy mamlakati bilan chegaradosh, ilgari Xitoy mamlakati tasarrufida bo'lgan bir mamlakatdan kelgan elchilar sharafiga" ziyofat uyushtirgan. Bu elchilarning kiyim-boshlari (mo'ynadan tikilgan, bog'ichi uzun, kichkina telpak) va olib kelgan sovg'alari (suvsar, oshlanmagan oq tulki, sug'ur mo'ynalari)ga qarab ular Ulug' Yurtdagi muxolifat vakillari ekanligini taxmin qilish mumkin. Shuningdek, bu elchilar "Totoristonning sobiq podshosi To'xtamishning hozirgi vaqtda podshoh qaramog'ida bo'lgan nevaralaridan birini o'zlariga hokim etib tayinlashni[2,166-167]"-so'raganlar. Ehtimolki, ispan elchisi Amir Temur huzuridagi Tosh Temur o'g'lon va Jakra o'g'lonlar kabi Tayzi o'g'lonni ham Oltin O'rdalik xonzodalardan biri sifatida qabul qilgan. Ushbu elchilik, haqiqatdan ham, Ulug' Yurtdan kelgan bo'lsa, ikki o'rtada bo'lajak Xitoy yurishi maqsadi muhokama qilinganligi ehtimoldan yiroq emas[6,104]. Amir Temurning Xitoyga harbiy yurishi mo'g'ullar saltanatini qayta tiklashga oid harakat bo'lib, Tayzi o'g'longa Yuan sulolasi taxtini olib berish orqali mo'g'ullarning avvalgi shuhratini tiklashga qaratilgan so'nggi yirik harbiy amaliyot deb baholash mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Maxdumzoda Mirzo Ulug'bek va temuriylar tarixini o'rganish hamma zamonlarda ham o'zining sirliligi, nozikligi va yangi qirralari bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Temuriylar diplomati Tayzi o'g'lon تايزي – Toyzi hamda تابزي – Tobzi nomlaridagi tafovut yoxud tarjimonlarning kichik bir yanglishuvi temuriyzoda Mirzo Ulug'bek asarlari talqinida nisbatan yaqin ekanligi maqolada ilmiy jihatdan asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бартольд В.В. Сочинения. Т.8, Работы по источниковедению. – М.: Издательство "Наука". Главная редакция восточной литературы, 1973. – С.280.
2. Гонсалес Руи Де Клавихо. Самарқанд – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406) ...– Б.166-167.
3. Хукхэм Х. Етти иқлим султони: Хужжатли-тарихий қисса/Пер. с рус./ – Т.: Адолат, 1999. – Б.270.
4. История монголов от древнейших времен до Тамерлана. – СПб.: Типография Карла Крайя, 1834. – С.38.
5. Kenjayev S.N., Zayniyev K. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari va Tayzi o'g'lon faoliyati.. // "Science and Education" Scientific Journal.-2022 y, may.-1493-1497 b.

6. Kenjayev S.N. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi XIV asrning 70 yillari-XV asr boshlari. tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro: 2023, 144 b.

7. Орзиев М.З., Ражабов О.И. Амир Темурнинг Хитой сиёсати // Бухоро давлат университети илмий ахбороти, 2008. № 3. – Б.22.

8. Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи. (Б.Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда; Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ. тарж.) – Т.: Чўлпон, 1993. – Б.216-217.

9. Яздий Шарафуддин Али. Зафарнома // Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.290.

Шомий Низомиддин. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 527 б.

TILLAR KESIMIDA YETTI RAQAMINING KONNOTATIV MA'NOLARI TAHLILI

Xalikova Moxigul Xalimdjanovna

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi
kafedrasida erkin izlanuvchisi,
islomovas98@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada raqamlar milliy-madaniy kod darajasiga ko'tarilib, muayyan xalqning marosimlari, urf-odatlar va hayot tarzini ifodalovchi ko'rsatkichlar qatoridan joy olganligi, ularning til sathidagi funksional vazifasi haqida fikr yuritilib, yetti raqamining konnotativ ma'nolari ochib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: numerologiya, numerologik tizim, mifologiya, konnotativ ma'no, raqamlar va tarix, raqamlar va ramzlar, soha terminologiyasi.

Аннотация

В статье рассматривается тот факт, что числа поднялись на уровень национально-культурного кода и входят в число индикаторов, репрезентирующих обряды, традиции и образ жизни определенного народа, их функциональную функцию на уровне языка, а также коннотативные значения числа. раскрыто семь.

Ключевые слова и фразы: нумерология, нумерологическая система, мифология, коннотативное значение, числа и история, числа и символы, отраслевая терминология.

Dunyo xalqlari madaniyatida yetti raqamiga alohida e'tibor beriladi. Ularda bu raqam baxt, omad, yaxshilik ramzi sifatida talqin etiladi. Ko'pchilik yetti raqamining shaydosidir. Qadimdan yetti raqami Sharq va G'arb xalqlari ongida muhim rol o'ynagan. Bu dunyoning turli xalqlari tomonidan muqaddas hisoblangan. Shuning uchun dunyo madaniyatlarida "yetti" raqamining ramziyligini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda yetti raqami bilan bog'liq ko'plab dunyo ajoyibotlari mavjud. Dunyoning yetti mo'jizasi, yetti xazina, yetti hafta kuni, moddalarning yetti ko'rinishi, yetti musiqa notasi, yetti avlod, yetti iqlim, yetti rang, yetti sayyora, yetti mukammal fan va boshqalar insoniyat lisoniy olam manzarasida quyidagicha voqelanadi:

Yetti xazina

1. Sigir – ro'zg'orning qassobi va baqqoli
2. Asalari – oilaning qurti
3. Ipak qurti – qizlarning sepi
4. Objuvoz – qozonning yog'i
5. Tegirmon – qorinning belbog'i
6. O'rmon – imorat suyagi, qozon olovi
7. Tovuq – ham obiyovg'on, ham dori-darmon

Moddalarning yetti ko'rinishi

1. Qattiq holati
2. Suyuq holati
3. Gazsimon holati
4. Plazma holati
5. Neytron holati
6. Epiplazma holati
7. Fizik vakuum holati

Yetti musiqa notasi

1. Do
2. Re
3. Mi
4. Fa
5. Sol
6. Lya
7. Si

Yetti avlod 1. Farzand 2. Nevara 3. Chevara 4. Evara 5. Pannevara 6.

Ovora 7. Begona

Yetti iqlim 1. Ekvatorial 2. Subekvatorial 3. Tropik 4. Subtropik 5.

Mo'tadil 6. Subarktik. 7. Arktik

Yetti rang 1. Oq 2. Sariq 3. Qizil 4. Qora 5. Ko'k 6. Yashil 7. Olov rang.

Qadimgi xalqlar yetti muqaddas sayyora inson hayotiga, taqdiriga, o'zaro harakatlariga bog'liq, deb tushunganlar va shundan hafta kunlarini chiqarganlar.

Yetti ibroniycha *sava* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bajarish yoki qondirish, mo'l-ko'l bo'lish degan ma'noni anglatadi. Deyarli barcha Yevropa madaniyatlarida yetti raqami baxt va omad keltiradi.

Rossiya xalqlari dunyosida *yetti* har xil ramziy ma'nolarni ifodalaydigan eng sehrli, ajoyib, afsonaviy, maxsus raqam hisoblanadi. Insonning yettita "eshigi"ni bildiradi: *ikkita ko'z, ikkita quloq, ikkita burun va bitta og'iz*.

Bu raqam ko'pincha rus maqollari, frazeologik birliklarida uchraydi. Xalq e'tiqodlarga ko'ra, yetti raqami qadim zamonlardan beri baxtli raqam deb hisoblab kelingan. Rus tilida "yettinchi osmonda bo'lish/his qilish" frazeologik birligi cheksiz baxt va chuqur mamnuniyatni ifoda etadi. Masalan, *ovchilar hammasi birdan jilmayib, zavq bilan qarsak chalishdi. Hamma o'zini yettinchi osmonda his qilardi* (A. P. Chexov).

Работать до седьмого нога; Семь раз примерь (отмерь), один раз отрежь; Семеро по лавкам; Be at sixes and sevens – parokanda bo'lmoq; Bottes de sept lieues – yetti milli etik; Prêcher sept ans pour un carême - bir joyda uzoq vaqt qolish; Il se croit un de sept sages – u o'zi haqida juda yuqori fikrda, o'zini yetti donishmanddan biri deb o'ylaydi kabi birliklarda yetti raqamining miqdor ma'nosidan uzoqlashgan qator konnotativ semalarni kuzatish mumkin.

Turkiy xalqlari orasida "Yedi mucize" - yetti mo'jiza, "Yedi hazine" - yetti xazina, "Yedi tur renk" - yetti xil rang, "Yedi gökyüzü" - yetti falak kabi tushunchalar ham uchraydiki, ular ham ana shu "sehrli" raqamning g'aroyib sarguzashtlari bilan bog'liqdir. Bu tushunchalarning ayrimlari juda qadim zamonlardan beri insoniyatni lol qoldirib kelmoqda. Binobarin, yetti raqami bilan bog'liq xalq qarashlarini o'rganish qadim davrlarda yashagan bobolarimizning turmush tarzini, ma'naviy olamini, zakovat qudratini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Qadimgi turklarning shajara sistemasidagi "Yedi dede" (yetti ajdod) an'anasi tarixiy-badiiy yodnomalarda ham tez-tez tilga olinadi. Hatto Tan sulolasining solnomalarida ham turkiy qavmlar tarixi yetti ajdod tarixi asosida yoritiladi. O'tmishda bobolarimiz tarix solnomasini yozishda, ma'lum voqea-hodisa, jang yoki safar sanasini aniqlashda, qon-qarindoshlik, meros, nikoh munosabatlarini o'rnatishda yetti ajdodni asosiy mezon hisoblashgan. Shajara sistemasidagi yettinchi ajdoddan narisi farzand uchun begona hisoblangan.

Tilimizda “yetti yot begona” iborasi bejiz qo’llanilmaydi.[K. Иностранцев, 1989:87]

“Yetti” soni turklar tomonidan muqaddas hisoblanib, bir qancha tarixiy voqea-hodisalar aynan shu son bilan bog’liqdir. Masalan: Johiliya, ya’ni Islom dinidan avval, Oltoy turklari oyning tutilishini “Yetti boshli dev”ning ishi deb hisoblaganlar. Istanbul shahrida joylashgan Sulaymoniya masjidi yetti yilda qurilgan. Turklarning ishonishlariga qaraganda, Qutub yulduzida joylashgan katta ayiqni – “Yedi bekçi”, ya’ni yetti qo’riqchi deb bilganlar va afsonalarga qaraganda, turklar yerni yetti bo’lakdan iborat deb ishonganlar.[Абдурахмон Гўзал, 1990:410]

Shuningdek, Xitoy madaniyatida yetti raqami o’lim bilan bog’liq, u sirli raqam hamdir. Xitoy xalqi yettinchi oy - iyulni "yomon oy" deb biladi va oy taqvimiga ko’ra, o’n beshinchi iyul an’anaviy ravishda "O’liklar kuni" deb nomlanadi. Shuningdek, bir afsonada aytilishicha, shu kuni marhumning betoqat ruhi odamlarga sadaqa so’rab murojaat qiladi va o’limdan keyingi dastlabki yetti kun ichida ruh qarindoshlari bilan xayrlashadi. O’limdan keyingi har yettinchi kunda (49 kungacha) xotira marosimi o’tkaziladi.

O’zbek milliy madaniyatida ham 7 raqami o’ziga xos milliy-madaniy kod sanalib, ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Hazrat Navoiy asarlaridan ham yetti sonining etalon ekanligini bilib olish mumkin. Alisher Navoiy “Xamsa”sining to’rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor”da yetti soni haqidagi xalq qarashlari to’la saqlanib qolgan. Xalq turmushini, an’analarini yaxshi bilgan shoir yetti soni bilan aloqador tushunchalarni diqqat bilan kuzatgan. Dunyoning yetti qismdan iboratligi, yetti xazina, yetti mo’jiza, yetti iqlim, yetti bahodir, yetti go’zal, yetti sayyora, yetti qaroqchi yulduzlari, yetti kunlik vaqt hisobi, hafta kabi qator yettiliklarning turmushda keng qo’llanilganligidan hayratga tushgan shoir o’z dostonida yettilik strukturasi(qurilmasi)ga amal qilgan.

O’zbek xalq maqollarida keltirilgan yetti soni ham o’ziga xos turli semantik vazifani bajaradi. *Yetti yot begona yaxshi* maqolida yetti avlod nazarda tutilgan bo’lsa, *Men qilaman ikki, kelinim qiladi yetti maqolida* mazkur raqam miqdoran ko’plik, tugallik ma’nosini yuzaga chiqargan. *Bir qizga yetti mahalla - ota-ona* paremiologik birligi o’zida umumiylik, jamlik kabi ma’nolarni aks ettirgan. *Borga yetti kun hayit, yoqqa – bir kun* maqolida yetti raqami orqali doimo, har kun kabi semalar yuzaga chiqqan.

Musulmon olamida va tafakkurida osmon 7 qavatdan iborat: jannat yetti qavat osmonning yuqorisida bo’lib, u yetti qavat osmondan alohida ajralgandir, chunki qiyomat kuni yetti qavat osmon yo’q bo’lib ketadi, ammo jannat esa yo’q bo’lmaydi. Uning shifti arshdir. [<http://www.muslim.uz/>]

O'zbek madaniyatida "yetti o'lchab bir kes", "yetimning haqi yetti daryoni quritar" kabi maqollarda, "pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor" kabi topishmoqlarda, Yettisuv, Yettiqaşqqa, Yettikechuv, Yettisoʻy, Yettiqaşqiz kabi joy nomlari bilan bogʻliq rivoyatlarda, osmondagi Yetti qaroqchi yulduzlari toʻgʻrisidagi xalq qarashlarida madaniy kodlar saqlanib qolgan. Yetti avlod, yetti ajdod, yetti pusht, yetti ota-bobo, yetti ogʻayni, yetti opa-singil, yetti oʻrtoq, yetti qaroqchi, yetti oʻgri, yetti dev, yetti yalmogʻiz, yetti elchi singari poetik obrazlar sistemasi 7 raqamining "sehrli" xususiyatiga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи"// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>
2. К. Иностранцев. Семантика чисел. – М., Наука, 1980. – С. 87.
3. Абдурахмон Гўзал. Диний тасаввуфий турк адабиёти. – Анқара, 1990. – Б.410.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008..
5. А.Дугин "Четвёртая политическая теория Россия и политические идеи XXI века. 2009.
6. Керлот Хуан Эдуардо. Словарь символов: [Мифология. Магия. Психоанализ: Перевод] / Х. Э. Керлот. - Москва : REFL-book, 1994. - 601,[2] с. : ил.; 21 см.; ISBN 5-87983-014-4 (В пер.) : Б. ц.
7. Türkiye türk edebiyati. Nevzan Koşoğlu. Ankara, 2003. -S. 244.
8. Позднякова В. Русская нумерология: уникальная система подсчетов для современного русского алфавита. Москва: Эксмо. 2015. –С. 3-4.
9. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yoʻldosheva D.N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.: OʻzMU, 2020. -B. 549.
10. Бородин А.И. Число и мистика. Донецк: Донбас, 1975. – 239с. -С. 110.
11. Алишер Навоий. МАТ. 4-жилд. –Т.: Фан, 1996.
12. Шоҳ Машраб қиссаси. Т.: Шарқ, 1993. – 82 бет.-Б.5

MUNDARIJA

Bahodir Baxshullayevich Ma'murov ALISHER NAVOIY IJODI – BARHAYOT	4
Farrux Ergashevich Qurbonov BUYUK MA'NAVIY MEROS – BARKAMOLLIK ASOSI.....	6
I SHO'BA. NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MARIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.	8
Hamroyev Saidjon Sanoyevich ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA VATANPARVARLIK VA TARBIYA MASALASINING ESTETIK IFODASI.....	8
Azimova Umida Latipovna BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY VA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI.....	11
Husenova Gulnora Saidovna ALISHER NAVOIY MEROSI – BEQIYOS MA'NAVIY XAZINADIR.....	15
Barotova Gulmehra Rasulovna NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MARIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.....	19
Rustamova Gavhar Bahron qizi NAVOIY LIRIKASIDA DENDRAR OBRAZLAR VOSITASIDA VOQELANUVCHI MA'NOLAR XUSUSIDA	23
Ahmadova Mohinur Hamza qizi HAZRAT NAVOIY VA SAYID HASAN ARDASHER MUNOSABATLARI MISOLIDA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH MASALASI	26
Navbahor Karomova SHAXS MA'NAVIYATINI TARBIYALASHDA NAVOIY IJODINING O'RNI.....	29
Ahmadova Ferangiz Hamza qizi ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA TARBIYA MASALASI.....	33
Muzaffarova Iqbol To'xtamishевна SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONI TARKIBIGA KIRUVCHI “KARAM”, “ADABLILIK”, “QANOAT” HAQIDAGI MAQOLATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI.....	36
Qobilova Dilrabo Sharipovna “DRAMA” TO'GARAKLARIDA ALISHER NAVOIY VA BOBUR HAYOTI VA IJODIGA DOIR ASARLARNI SAHNALASHTIRISH ORQALI O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH.....	39

<u>Muzaparov Azizbek Ulugbekovich</u> “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA MAQOLATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA INSONIY FAZILATLAR BAYONI	42
<u>Vaxidova Dilfuza Raximovna</u> ALISHER NAVOIY MEROSINING YOSH AVLOD MA'NAVIY TARBIYASIDAGI O'RNI	45
<u>Fayzulloeva Dilrabo Rahmonovna</u> NAVOIY IJODINING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	48
<u>Xayitova Muhabbat Abdurashidovna</u> YOSHLARNING INTELEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	52
<u>Sulaymonova Mavjuda Rustamovna</u> NAVOIY IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI	56
<u>Hamroyeva Mohinabonu Hasan qizi</u> NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MARIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.....	61
<u>Rustamova Gavhar Bahron qizi, Umarova Gulshoda Ixtiyor qizi</u> ALISHER NAVOIY “XAMSA”LARIDA DARAXTLAR BILAN BOG'LIQ OBRAZLAR POETIK DINAMIKASI	64
<u>Shodmonova Mohinur Ulug'bek qizi</u> NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.....	66
<u>Yusupova Shohista Hasanovna</u> ALISHER NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY –MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.....	70
<u>Saidova Mohinur Yoqubjon qizi</u> NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MARIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.....	73
<u>Bozorova Nozigul Ramazonovna</u> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI INTELEKTUAL MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	76
<u>Jo'rayeva Dilafro'z Raimovna</u> ALISHER NAVOIY IJODIDAGI AYRIM MA'RIFIY-AXLOQIY QARASHLAR HAQIDA	80

Izzatilloeva Shaxina Komiljon qizi NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY – MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.....	84
Jo'rayeva Dilorom G'aybullayevna NAVOIY HAMDA BOBUR ASARLARIDA AYOLLAR SHA'NI VA QADRINI ULUG'LASH MAVZUSINING YORITILISHI.....	88
Achilova Hadiyabonu Mansurovna ILOHIY HIKMATLAR TAJALLISI – TERAN QARASHLAR ASOSI	90
Ishmatova Shahlo Nuriddinovna NAVOIY VA BOBUR IJODIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI.....	97
Z. A. Jumayeva, R. J. Nafasova ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSONLARNI TARBIYALASH.....	102
Bakrullayeva Sabohat NAVOIY – BAYTUL HIKMA.....	105
II SHO'BA. ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA ILG'OR TAJRIBALAR VA INNOVATSION G'OYALAR.....	109
G'aniyeva E'tibor Homidovna ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA ILG'OR TAJRIBALAR VA INNOVATSION G'OYALAR.....	109
Zayniyeva Billura Shoxitdnovna ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	114
Ikromova Ra'no Raxmonovna ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA ILG'OR TAJRIBALAR VA INNOVATSION G'OYALAR.....	116
Karimova Laylo Izzatullayevna ALISHER NAVOIY IJODINI O'QUVCHILARGA O'RGATISHDA YANGICHA YONDASHUV	119
Muhabbat Olimova Baxtiyorovna “SABBAYI SAYYOR” DOSTONINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY METODLAR.....	123
B.O.Safarova N.O.Avazova “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA QOFIYA SHAKLLARINING BADIY TAHLILI	127
Jo'rayeva Dilorom G'aybullayevna O'ZBEK SHOIRALARI IJODIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI TASVIRLARI.....	131
Usmonova Mohinur Ulug'bek qizi ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL VA NUTQ MASALALARI.....	134
Fayziyeva Madina Nasullayevna ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY G'OYALAR TARG'IBOTI.....	139

Fozilova O'g'iloy Fayoz qizi ALISHER NAVOIY IJODIDA NAVRO'Z TALQINI	145
Xayrilloyeva Sohiba Boltayevna ALISHER NAVOIYNING “SHER BILAN DURROJ” HIKOYASINI O'RGANISHDA KEYS -STADI METODIDAN FOYDALANISH.....	151
Husenova Gulchiroy Qayim qizi NAVOIY IJODIDA HUKMDOR ADOLATI VA FUQAROLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARGA EGA BO'LISHI XUSUSIDA	154
Hamroyeva Sanobar Bozorovna FARZAND TARBIYASIDA OILA VA MAKTABNING O'RNI TO'G'RISIDA NAVOIY QARASHLARI.....	157
Choriyeva Sabinabonu ALISHER NAVOIYNING “SARVDEK XAZRO LIBOSING BIRLA..” G'AZALI BADIYYAT	159
Ergasheva Lobar O'runovna ODAMIYLIK OLAMINING JAVOHIRI	162
Erkinboyeva Norgul Barot qizi ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY G'OYALAR TALQINI.....	164
Raxmonova Dilfuza Maxmudovna, Hamdamova Adolat BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA.....	166
Eshmurodova Shahnoza Ilhomovna ALISHER NAVOIY QIT'ALARI SHARHI VA O'QITISH USULLARI	171
Rasulova Gulmira ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	176
Jo'rayeva Laylo Jiyanqulovna, Omonova Nilufar Abduqahhorovna ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI REALIYALARNING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI	178
Jo'rayeva Laylo Jiyanqulovna, Mamadiyorova Shahrizoda Sharof qizi ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI OZIQ-OVQAT NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI	183
Jo'rayeva Laylo Jiyanqulovna ALISHER NAVOIYNING “MUHOKAMAT UL-LUG'ATAYN” ASARIDAGI OZIQ-OVQAT NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI	187
M. B. Rajabova BOBUR – LIRIK SHOIR	191
Atoyeva Shamsiya Rahmon qizi “MAJOLIS UN-NAFOIS” NING USMONLI TURK TAZKIRANAVISLIGIGA TA'SIRI.....	196

Очилова Фируза Гайратовна ЖИЗНЬ, ТВОРЧЕСТВО И НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ	199
Muharram Kamolova, A.Sh.Rustamova ALISHER NAVOIY QIT'ALARI TAHLILINI O'QUVCHIGA OSON YETKAZISH USULLARI	202
<u>III SHO'BA. ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDA ILG'OR TAJRIBALAR VA INNOVATSION G'OYALAR</u>	205
Xusenova Nargiza Oripovna, Qo'ldosheva Gulnoza Subhonovna MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH	205
Daniyarova Sarvinoz Shuxratovna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA NAVOIY IJODIY MEROSINI 4 K MODEL ASOSIDA O'QITISH	214
Muharram Kamolova ALISHER NAVOIYNING "BADOYE UL-BIDOYA" DEVONIDAGI BIR RUBOIY SHARHI	217
Maxmudova Sadoqat Xolmatovna, Maxmudova Moxichexra Maxsudovna ALISHER NAVOIY IJODIDA VATAN TALQINI	220
Maxsudova Nasiba Ikromovna ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA HUKMDORLAR AXLOQI TUSHUNCHASI	222
Ashurova Xurshida Salimovna IKKI DIL DOSTONIDA TURKIY QALAM ROST, NAVOIY ILA BOBUR XALQIMGGA HAMROZ	224
Muqimova Gulnora Rashidovna ALISHER NAVOIY IJODIDA O'SIMLIK LARNING LINGVOPOETIK TAHLILI	227
Maxmudova Sadoqat Xolmatovna, Tursunova Orzigul Maxmudovna. NAVOIY ASARLARIDA NAQSHBANDIYA TARIQATI TIMSOLLARI	233
Nurova Nargiza O'rinovna ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	238
Latifova Maftuna Yashin qizi, Olimjonova Gulasal Baxtiyor qizi ALISHER NAVOIY LISONI O'ZBEK ADABIY TILINING OLTIN MEROSI SIFATIDA	240
Ostonova Umida Usmonovna SO'Z SAN'ATINING BUYUK NAMOYANDALARI: HAZRAT ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA UMUMBASHARIY G'OYALAR TALQINI	242
Bobomurodova Muxlisa ALISHER NAVOIY ASARLARIDA OBRAZLARINING XARAKTER-XUSUSIYATLARIGA KO'RA TALQINI	248
Jalilova Oyjamol ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MILLIY TIL XUSUSIYATLAR	250

<u>Islomova Shahnoza Iskandar qizi</u> KLASSIK TIBBIY ASARLAR LISONIY XUSUSIYATLARI.....	255
<u>Yusupova Gulnoza Azimovna</u> MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH	259
Nurullayeva Sarvinoz Majidovna, Baxshilloeva Sadoqat Umarovna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHISTON JANRINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	265
<u>Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li</u> MUSIQA VA ADABIYOT FANI INTEGRATSIYASI (NAVOIY HAYOTI VA IJODI MISOLIDA).....	269
<u>Nazarova Dilnavoz To'ymurodovna</u> ALISHER NAVOIY QIT'ALARINING BADIY TAHLILI VA ULARNI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLAR	273
<u>Mustafojeva Dilnoza Hakimovna</u> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA NAVOIY IJODINI TURLI XILDAGI METOD VA VOSITALAR YORDAMIDA YORITISH	277
Hamroyev Umid Mustafojevich ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIGA BIR NAZAR	279
To'rayeva Sanobar BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV.....	282
IV SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSINI O'RGANISHNING INNOVATSION USULLARI.....	286
<u>Zaripova Yulduz Ubaydulloyevna</u> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI	286
<u>Qosimova Zulfiya</u> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR - TARIXNAVIS	289
<u>Qudratova Nilufar Rafiqovna</u> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA GEOGRAFIK JOY NOMLARI TABIAT VA SUV HAVZALARI KELITIRISHI.....	293
<u>Rahmatova Olima Izzatulla qizi, Gadoyev Botir Bahodirovich</u> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARINI O'RGANISHDA ADABIYOT VA TARIX FANLARINING O'ZARO UZVIYLIKDA OLIB BORISH METODIKASI.....	296
<u>Sattorova Nargiza</u> BOBUR RUBOIYLARIDA HASBI HOL	299
<u>Sirojova Dilyora Fayzullo qizi</u> "BOBURNOMA" ASARIDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI IFODASI.....	301

Haqnazarova Gulnoza Nusratilloevna YOSHLARNING INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSINING O'RNI	304
Latipova Sayyora Tohir qizi BOBUR VA JO'RA FOZIL IJODIDA PEYZAJ	306
Sharopova Yulduz Yunusovna ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA DAVLATCHIK TARIXINING TALQINLARI	310
To'xtayeva Hilola O'tkirovna ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	312
V SHO'BA	315
Mirzayeva Umida Qahramon qizi MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYANING BOLALAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI	315
Murtazoyeva Nigina Ma'ruf qizi, Tilavova Munisxon Alijonovna TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI"ASARIDA QO'LLANILGAN KO'P KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI.....	319
Tilavova Munisxon Alijonovna, Xudoyorova Mohichehra Jamoliddin qizi ODAMIYLIK MULKI (INSON BAXTLI BO'LISH UCHUN YARALGAN) ASARIDA UCHRAGAN BA'ZI IKKI VA UCH KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLAR TASNIFI.....	323
Surayyo Renatovna Akramova, Yoqubova Madina ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNI MATN USTIDA ISHLASHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI.....	326
Nigora Bafoyeva Azimovna, Razzoqova Farangiz Azamat qizi ZAMONAVIY SHE'RIYATDA SINONIM VA ANTONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI	328
Dildora Bahodirovna Axmedova JAHON VA O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA MAXSUS LINGVISTIK LUG'ATLAR, ULARDAN SEMANTIK KENGAYTMADA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	332
Sardor Nurmurod o'g'li Kenjayev ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA MIRZO ULUG'BEK ASARLARIDA TEMURIYLAR DIPLOMATI NOMLARIDAGI TAFOVUT YOXUD TARJIMONLARNING KICHIK BIR YANGLIHUVI	337
Xalikova Moxigul Xalimdjanovna TILLAR KESIMIDA YETTI RAQAMINING KONNOTATIV MA'NOLARI TAHLILI.....	342

